

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

Dilnavoz Yusupova

ADABIYOT

Universal qo‘llanma

Toshkent – 2013

Uqtirish xati

Adabiyot inson qalbini poklaydigan, komillikka yetaklaydigan, soʻz bilan hayratga soluvchi moʻjiza boʻlib, u bilan qiziqish faqat va faqat ijobiy hodisadir. Adabiyotni maʼnaviyat va maʼrifat boʻstoni deb taʼriflashimiz mumkin.

Har bir millatning, xalqning oʻz adabiyoti mavjud. Adabiyotning boy va koʻlamdorligi oʻsha xalqning maʼnaviy dunyosi qanchalik boy ekanligini bildiradi. Oʻzbek adabiyoti musulmon Sharqi adabiyotining bir qismi sifatida shakllangan boʻlib, ming yillar davomida yaratilgan ijodiy xazina kelajak avlod kamolotida muhim oʻrin tutadi.

Mazkur qoʻllanma oliy oʻquv yurtiga kiruvchilar, maktab, akademik-litsey va kollej oʻquvchilari hamda barcha adabiyot muhoblari uchun moʻljallangan boʻlib, adabiyotshunoslik nazariyasi, oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti, qisman jahon adabiyoti bilan bogʻliq muhim maʼlumotlarni qamrab olgan.

Qoʻllanma ikki yirik qismdan iborat: adabiyotga doir barcha maʼlumotlar matni hamda ushbu qismni oʻzida jadval va chizmalarda aks ettiruvchi qism.

Birinchi qismda adabiyotshunoslik bilan bogʻliq tushunchalar, adabiy turlar, janrlar, maxsus atama va istilohlar taʼriflari; shoir va yozuvchilarning hayotiga doir muhim maʼlumotlar, ijodiy faoliyati, yaratgan asarlarining qisqacha mazmuni yoritilgan. **Ikkinchi qismda esa mazkur maʼlumotlar alohida tarzda ishlab chiqilgan jadval va chizmalarda aks etgan. Bu muayyan maqsadlarni nazarda tutadi.**

Taʼkidlash joizki, matn ichidan kerakli maʼlumotni izlab topish foydalanuvchidan ancha vaqt va mehnatni talab qiladi. Asosan abituriyentlarga moʻljallangan ushbu qoʻllanmada mazkur holat hisobga olinib, foydalanuvchilar qisqa vaqt ichida koʻproq maʼlumotga ega boʻlishlari va muhim nuqtalarni yaxshi oʻzlashtirishlari uchun birinchi qismda keltirilgan asosiy maʼlumotlar aniq va loʻnda tarzda tartib berilgan jadval va chizmalarda aks ettirildi. Oʻquvchining biror dalilni qayta eslashi uchun kitobni yana varaqlashiga ehtiyoj qolmaydi: istalgan zaruriy maʼlumotni jadval va chizmalardan topish mumkin.

Shuningdek, maktab, akademik litseylar va kollejlardagi taʼlim jarayonida tarqatmalardan, slaydlardan unumli foydalanish oʻzlashtirish samaradorligini oshiradi.

Yangi mavzuni bayon etishda o'qituvchi keltirayotgan ma'lumotlar, tushuncha va atamalarni o'quvchi o'z qo'lidagi tarqatma asosida yana ham mustahkamroq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Demak, mazkur qo'llanmaning jadval va chizma qismidan pedagoglarimiz tarqatma material sifatida ham foydalanishlari mumkin, deb o'ylaymiz.

Qo'llanma uchun tayanch manba sifatida maktab, akademik litsey va kollej darsliklaridagi ma'lumotlar asos qilib olindi, shu ma'noda mazkur ishga mualliflik ishidan ko'ra tasniflash nuqtayi nazaridan yondashish to'g'riroqdir. Bundan tashqari, mavzuni chuqurroq yoritish uchun qo'shimcha adabiyotlarga ham murojaat qilindi. Qo'llanmani shakllantirishda foydalanilgan ushbu darslik-majmualar, ilmiy adabiyotlar ro'yxati ham ilova qilindiki, foydalanuvchi ular yordamida bilimlarini yana ham kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umuman olganda, qo'llanma adabiyot va adabiyotshunoslikka doir eng muhim ma'lumotlarni bera oladi deb umid qilamiz. Qo'llanma bilan bog'liq mulohazalaringizni quyida ko'rsatilgan elektron pochta manziliga yo'llashingiz mumkin, bu bizni mamnun qiladi. Bildirilgan mulohazalarni inobatga olib, keyingi nashrlarda kerakli o'rinlarni to'ldirib borish nazarda tutilgan.

Elektron pochta manzili: fayziy@inbox.ru

1. ADABIYOT VA ADABIYOTSHUNOSLIK

HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

«San'at» soʻzi arabcha boʻlib, «yaratmoq» maʼnosini ifodalaydi. Istilohda esa kishi kayfiyatiga taʼsir qiladigan, zavqlantiradigan, ruhni hayratlantirish orqali poklaydigan, inson ong-u zakovati, qalbi va hissiyoti hosilasi boʻlgan ijod mahsuliga sanʼat deb qaraladi. Chinakam sanʼat asari inson botinida kechadigan ruhiy holatlar, tuygʻularni tasvirlaydi.

Sanʼat turi sifatida rassomlikni, haykaltaroshlikni, musiqani, adabiyotni, teatr va kinoni tushunish mumkin. Rassomlik rang va tasvir, haykaltaroshlik bevosita obrazni moddiy koʻrinishda, musiqa ohang va kuy, teatr va kino taʼsirchan ijro orqali inson hissiyotlarini ifodalab bersa, adabiyot inson ruhiyatida boʻladigan oʻzgarishlarni, uning tuygʻularini soʻz vositasida tasvirlaydigan sanʼat turidir. Demak, adabiyotning yakka-yu yagona quroli soʻz hisoblanadi.

Ilohiy kitoblarda aytilishicha, soʻz dunyodagi barcha narsalarning asosidir. Tangrining «**Yaral!**» (arabchasi «**Kun!**») amri bilan oʻn sakkiz ming olam va undagi jamiki narsalar dunyoga keldi. Demak, soʻz olam va undagi narsalardan oldin paydo boʻlgan ekan. Badiiy adabiyot soʻz bilan ish koʻradigan sanʼat turidir. Shuning uchun badiiy adabiyot soʻz sanʼati deb yuritiladi.

Badiiy adabiyot sanʼatning murakkab va serqirra turidir. Badiiy adabiyotning ilmdan tub farqi shundaki, u maʼnaviy haqiqatlarni aks ettiradi, fan esa ilmiy haqiqatlarni ifodalaydi. Ilmiy haqiqatning haqiqatligini isbotlash orqali, maʼnaviy haqiqatni esa his qilish, tuyish yoʻli bilan anglash mumkin.

Maʼnaviy haqiqatlar inson mavjudligining maqsadini belgilab bersa, ilmiy haqiqatlar ana shu maqsadga erishishga xizmat qiladigan vositalarni topadi. Bu holat koʻrsatadiki, inson faoliyatida maʼnaviyat birlamchi ahamiyatga ega, ammo ilmsiz uni shakllantirish mumkin emas. Chunki maʼnaviyatsiz fan boʻlmaganidek, ilmsiz maʼnaviyat ham yoʻqdir. Badiiy adabiyot sanʼatning nihoyatda qadimiy turidir. Rivoyat qilishlaricha, dunyodagi ***birinchi sheʼr***ni hazrati Odam Ato oʻgʻli Hobilning oʻldirilishi munosabati bilan toʻqigan ekan.

Insonning hayotiga yozuv kirib kelgunga va keng yoyilgunga qadar, badiiy asarlar og‘zaki tarzda yaratilgan va iste’dodli kishilar tufayli og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan. Yozuv paydo bo‘lgach va savodli kishilar birmuncha ko‘paygach, badiiy asarlar turli narsalarga yozila boshlagan va shu bilan insoniyatning o‘lmas mulkiga aylangan.

Qay tarzda yaratilganligi va kishilik xotirasida qaysi shaklda saqlanib qolganligiga ko‘ra badiiy adabiyot ikki turga ajratiladi:

1) og‘zaki adabiyot;

2) yozma adabiyot.

Badiiy adabiyotning eng qadimiy shakli *xalq og‘zaki ijodi (folklor)* bo‘lib, uning o‘zi ham dostonlar, ertaklar, qo‘shiqlar, maqollar, topishmoqlar singari qator janrlarga ajraladi. Og‘zaki adabiyot, nomi ham anglatib turganidek, og‘zaki ravishda yaratilgan bo‘ladi va uning kim tomonidan dunyoga keltirilganligini aniqlash imkonsiz. Muallifining noma‘lumligi, yillar mobaynida turli aytimchilar tomonidan sayqallanib, takomillashib, mukammal shaklga ega bo‘lish xalq og‘zaki ijodi namunalariga xos asosiy belgilardir. Og‘zaki ijod har qanday yozma adabiyotga tayanch vazifasini bajargan. Yozuvchilar ijod sirlarini aytimchilardan qolgan asarlar asosida o‘rganishgan.

Rus adibi Maksim Gorkiy XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiyani qamrab olgan adolatsizlik, xunrezliklar o‘ziga qanday ta’sir etganini xotirlab shunday yozgan edi: *«Hayotda ko‘rayotganlarim go‘yo yuragimning ustini shilib tashlagandek bo‘ldi. Shundan buyon mening qalbim har bir nohaqlikdan, adolatsizlikdan ta’sirlanib, achishadigan bo‘lib qoldi».*

Alisher Navoiyning:

Menga qilsa ming jafo, bir qatla faryod aylamon,

Elga qilsa bir jafo, ming qatla faryod aylaram, –

degan so‘zlarining mag‘zida ayni shu dardkashlik, xalq qismatidan qayg‘urish hislari yotibdi.

Adabiyot hayotdan quruq nusxa ko‘chirish, «hayotdagiga o‘xshatib yozish» degani emas. Shoir Faxriyor tongning otishini qanday ifodalaganiga e’tibor qiling:

Tong o‘rniga qayg‘ular otar

Kimni?

Yaratilgan badiiy matnning qanchalik hissiy, ta’sirchan bo‘lishi uning obrazlilikiga bog‘liq.

Navoiy g‘azalidan olingan:

Azal ham sen, abad ham sen, na avval birla oxirkim,

Unda yo‘q ibtido paydo, bunda yo‘q intiho paydo, –

baytida Allohning azalligi, abadligi hamda avvallning boshi bo‘lmaganidek, oxirining adog‘i yo‘qligi so‘zlarning joylashtirilishi va muayyan tovushlarning takrori tufayli g‘oyat jozibali, kishi e’tiborini tortadigan tarzda aks etgan. Shuningdek, bu misralar o‘qiyotgan kishidan bir qadar aqliy zo‘riqishni ham talab qiladi. Ehtimol, mazkur satrlarda ifodalangan fikrlar o‘zga kishilar tomonidan ham aytilishi mumkindir. Lekin Navoiy singari hissiyotni qo‘zg‘aydigan yo‘sinda aytish boshqa kishining qo‘lidan kelmaydi, ayni shu jihat misralarning ta’sirchanligini ta’minlaydi.

Poytaxtimiz Toshkentning markazida joylashgan O‘zbekiston Milliy bog‘iga ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy haykali o‘rnatilgan. Uni o‘rab turgan moviy gumbaz ostiga shoirning quyidagi misralari bitilgan:

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,

Yor o‘lung bir-biringizgaki, erur yorlig‘ ish.

Shoir tomonidan bu misralar yozilganiga besh yuz yildan ortiqroq vaqt o‘tdi. Toki dunyoda kishilarning bir-birlariga dushmanlik qilishlari to‘xtamas ekan, shoirning mazkur o‘tli da’vati o‘z ahamiyatini saqlab qolishiga aminmiz.

Olimlarning ko‘rsatishicha, badiiy asarlar qanday maqsadda yaratilishiga (kuylash uchunmi, sahnada ko‘rsatish uchunmi yoki o‘qish uchun) va nimani ifoda etishiga

(tuygʻuni, tuygʻuning yuzaga kelishiga sabab boʻlgan voqeani yoki obrazlarning bevosita harakatlarini) qarab *lirik*, *epik*, *dramatik* kabi turlarga boʻlinadi. Bu adabiy turlarning har biri, oʻz navbatida, bir qancha janrlarga boʻlinib ketadi.

Bir yoki bir necha odamning hayoti, taqdiri, ularning boshqa odamlar bilan munosabati haqida hikoya qiluvchi, obrazlarning xarakter xususiyatlarini aks ettiruvchi badiiy asarlar *epik* turdagi asarlar deyiladi. Epik tur yunoncha *epos* soʻzidan olingan boʻlib, rivoya, hikoya maʼnolarini anglatadi. Epik turdagi asarlarning oʻzi hikoya, qissa, roman singari bir qator janrlarga boʻlinadi. Koʻp ertak, hikoya, qissa va romanlar, xususan, Abdulla Qodiriyning «Uloqda», Abdulla Qahhorning «Bemor», «Dahshat», «Oʻgʻri» singari asarlarida bir yoki bir necha obrazning hayoti, taqdiri, ularning atrofida yashayotgan, ular bilan aloqada boʻlib turgan boshqa kishilarning hayoti, tabiati haqida muallif hikoya qilib bergan.

Qoʻshiq qilib kuylanadigan, shoirning tuygʻulari, kechinmalari aks ettirilgan badiiy asarlar *lirik* asarlar deyiladi. Lirika yunonlarning rubobga oʻxshab ketadigan cholgʻu asbobi (lira) nomidan olingan va lira joʻrligida aytiladigan ijrochining kechinma, tuygʻularini tasvirlovchi qoʻshiqlar maʼnosini bildiradi. Muallifning tuygʻulari u yoki bu hayot hodisasi natijasida tugʻiladi. Choʻlponning «Binafsha» sheʼrida binafshaning qayerdan paydo boʻlib qolganligi, qanday oʻsganligi, kim tomonidan, qachon yulib tashlanganligi hikoya qilinmaydi. Balki shoir toptalgan binafshani koʻrgandan soʻng oʻzida paydo boʻlgan kechinmalarni, hissiyotlarni aks ettiradi. Lirik turdagi asarlarning ham ruboiy, tuyuq, toʻrtlik, muxammas, gʻazal, murabbaʼ, musaddas, musamman, muashshar, sonet va hokazo janrlari mavjuddir.

Sahnada qoʻyish uchun yaratilib, harakat, monolog va dialoglardan iborat boʻlgan, muallif asarda tasvirlangan voqealarga ham, unda ishtirok etayotgan obrazlarga ham oʻz munosabatini bevosita ifodalaydigan badiiy asarlar *dramatik* asarlardir. Dramatik turdagi asarlarning oʻzi ham fojia (tragediya), komediya, drama singari janrlarga boʻlinadi. Drama yunoncha «harakat» degan maʼnoni ifodalaydigan soʻzdir. Bunday nomlanishda adabiy turning eng asosiy xususiyati – sahna asaridagi ifoda obrazlarning harakatlari orqaligina yuzaga kelishi, bildirilishi hisobga olingan.

Chinakam badiiy asar inson ichki olamini turli ramzlar, tasviriy ifodalar, voqealar syujeti orqali o'zida haqqoniy aks ettiradi. Bu adabiyot doirasida yuz beradi. Ana shu yaratilgan badiiy asarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, xos xususiyatlarini aniqlash, boshqa asarlar bilan qiyoslash adabiyotshunoslikning vazifasi hisoblanadi.

Adabiyotshunoslik, o'z o'rnida, quyidagi yo'nalishlarda ish olib boradi:

1. **Adabiyot nazariyasi** barcha zamonlarda bunyod etilgan hamma asarlar uchun umumiy bo'lgan ilmiy-nazariy va estetik asoslarni, badiiy asarlarning tarkibiy qismlarini, badiiyatning qonun-qoidalarini o'rganadi. Shuningdek, badiiy asarlarning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi mavqeyini belgilash, badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlarini izohlash, badiiy ijod turlari va ijodiy jarayonning qonuniyatlarini ko'rsatib berish bilan ham adabiyot nazariyasi shug'ullanadi.

2. **Adabiyot tarixi** esa muayyan mamlakatlar yoki xalqlar adabiyotlarining rivojlanish bosqichlarini, biror xalq yoki mamlakat adabiyoti vakillari bo'lgan buyuk san'atkorlarning hayoti va ijodini o'rganadi. Adabiyot tarixini o'rganish nima uchun kerak? Har bir millat egasi, mamlakat fuqarosining o'z adabiyoti, madaniyati, tarixini bilishga intilishi ma'naviy kamolot talabidir. Xalq adabiyot tarixiga oid ma'lumotlarni bilish uchungina emas, balki milliy adabiyotning eng yaxshi namunalari mazmuni, g'oyalarini tushunib, shular vositasida ma'naviy kamol topish uchun ham o'rganadi.

3. **Adabiy tanqid** hozirgi adabiy jarayonda sodir bo'lgan o'zgarishlar, yaratilgan asarlarni baholash, ularning yutuq va kamchiliklarini, taraqqiyot yo'nalishlarini izohlash hamda belgilash bilan shug'ullanadi. Adabiyotshunoslikning ushbu uch sohasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi, boyitadi.

Savol va topshiriqlar:

1. *San'at deganda nimani tushunasiz?*
2. *Badiiy adabiyot necha turga bo'linadi?*

3. *Adabiy turlar haqida fikr yuriting.*
4. *Adabiyot va adabiyotshunoslikning qanday farqi bor?*
5. *Adabiyotshunoslik yo'nalishlarining nomlarini aytib, ularni sharhlang.*
6. *Ilmiy asar va badiiy asarning qanday farqli jihatlari mavjud?*

2. XALQ OG'ZAKI IJODI

Xalq og'zaki ijodi mehnatkash omma ijodi, xalq san'atining boshqa, ya'ni musiqa, teatr, raqs, o'yin, tasviriy va amaliy san'at kabi turlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir.

Xalq og'zaki ijodi – insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at. Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l-atvori, estetik didi, ruhiyati, urf-odat va an'analari, orzu-intilishlari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir. Biz ana shu ko'zgu vositasida olamshumul ezgu niyatlar, insoniy fazilatlar, yovuzlik, zulm, adolatsizlikka qarshi nafrat tuyg'ularini ko'ramiz.

Og'zaki so'z san'ati «*folklor*» yoki «*xalq og'zaki poetik ijodi*» atamalari bilan ifodalanadi. «Folklor» atamasi ilk bor XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yili qo'llangan bo'lib, «*folk*» – *xalq va «lore*» – *bilim, donolik, donishmandlik, ya'ni «xalq bilimi», «xalq donoligi», «xalq donishmandligi»* demakdir. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi fan *folklorshunoslik* deb ataladi.

Xalq ijodiyotining yaratilishi va yashash tarzi og'zaki usulda amalga oshadi. Ya'ni bunday asarlar og'zaki ravishda ijro etilishi sababli ularning mazmuni va shakli o'zgarishi, unga yangi qismlar qo'shilishi yoki biron-bir qismi tushib qolishi mumkin.

O'zbek xalq og'zaki ijodi eng qadimiy san'atlardan biri bo'lib, u jahon xalqlari poetik ijodi taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. O'zbek folklorida turlar va janrlar quyidagicha tashkil topgan:

- *Epik tur* – mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, terma, doston va boshqalar.
- *Lirik tur* – marosim folklorining deyarli barcha ko'rinishlari, bolalar folklorining ko'pgina turlari, qo'shiqning hamma xillari, ashula va shu kabilar.

- **Dramatik tur** – og‘zaki drama, qo‘g‘irchoq o‘yin, askiya, xalq teatrlari va shu kabilar.
- **Maxsus tur** – maqol, matal, topishmoq kabilar.

2.1. Maqollar

Maqol ibratli so‘zdir. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarida Yapaloqqush va Boyo‘g‘lining quda-andachilik mojarolari tasvirlangan bo‘lib, ular tilidan 400 dan ortiq maqol keltiriladi.

«**Maqol**» arabcha «so‘z» degan ma‘noni bildirib, «**otalar so‘zi**» ham deyiladi. Chunki maqol ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko‘rgan-kechirganlari, tajribalari asosida yuzaga kelgan, qadim-qadimlardan shu paytgacha eskirmagan, unutilmagan hikmatli so‘zlardir. Masalan, «**Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi-ro‘ying somon bo‘lmas**» maqolida ona Vatan tinchligi bilan bog‘liq xulosa, hikmat mavjud. «**O‘zgalar yurtida sulton bo‘lguncha o‘z elingda cho‘pon bo‘l**» maqolida esa musofirchilik bilan bog‘liq alamlar tajribasi bor. Maqolda xalqning tarixi, urf-udumi, turmush tarzi, fe‘l-atvori, ruhiyati, butun borlig‘i aks etadi. Shunga ko‘ra, maqollar xilma-xil: do‘stlik, Vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlik, saxovat, adolat kabi o‘nlab mavzularda bo‘lishi mumkin.

Maqollarda ko‘pincha so‘zlar ko‘chma ma‘noda ishlatiladi. Masalan, «Dehqon bo‘lsang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda» maqolidagi so‘zlar o‘z ma‘nosida qo‘llangan. Lekin «Qazisan, qartasan – axir aslingga tortasan», «Olma olmadan uzoq tushmaydi», «Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi» kabi ma‘no jihatidan bir-biriga juda yaqin bo‘lgan maqollarda so‘zlar o‘z asl ma‘nosida emas. Ularda gap, aslida, «qazi-qarta», «olma», «qarg‘a» haqida emas, odam va uning fe‘l-atvori haqida. Shuning uchun ular ko‘chma ma‘noda ishlatilmoqda deymiz.

Maqolning asosiy shartlaridan biri unda **hukm va xulosa** beriladi.

Maqollar shaklan quyidagicha:

Maqollar **nasriy shaklda**, ichki qofiyaga ega bo‘lishi mumkin. Yuqoridagi ikki misoldagi «omon» – «somon», «sulton» – «cho‘pon» so‘zlari ohangdosh, ya‘ni qofiyadoshdir.

Maqol *she'riy shaklda* ham bo'lishi mumkin.

Masalan, birlik, ahillikni targ'ib qiladigan quyidagi maqolni olaylik:

Oltovlon ola bo'lsa,

Og'zidagini oldirar.

To'rtovlon tugal bo'lsa,

Tepadagini endirar.

Qadimda ajdodlarimiz «qo'l»ni bir vaqtlar «al», «dunyo»ni «ochun», «kitob»ni «bitik» deb ataganlar. So'zlar o'zgargani kabi maqollar ham asta-sekinlik bilan o'zgaradi. Ammo shakliy o'zgarish mazmun-mohiyatni o'zgartirmaydi.

Maqollardan namunalar

Izzat tilasang ko'p dema,

Sihat tilasang ko'p yema.

Duo bilan el ko'karar,

Yomg'ir bilan yer ko'karar.

Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar,

Elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.

Tilni bilish dilni bilishga yo'l ochar.

Qunt bilan o'rgan hunar,

Hunardan rizqing unar.

Bulbul chamanni sevar,

Odam – Vatanni.

Daraxtni yer ko 'kartiradi,

Odamni el ko 'kartiradi.

Xalqqa xizmat – oliy himmat.

El qo 'risang o 'zarsan,

Qo 'rimasang to 'zarsan.

Birni sochsang yerga,

Mingni berar elga.

Yer to 'ydirar, o 't kuydirar.

Aybsiz do 'st axtargan do 'stsiz qolar.

Birlashgan o 'zar, birlashmagan to 'zar.

Bo 'linganni bo 'ri yer,

Ayрилganni ayiq yer.

Do 'st do 'stni kulfatda sinar,

Odam odamni mehnatda sinar.

Yolg 'iz otning changi chiqmas,

Changi chiqsa ham dong 'i chiqmas.

Bilagi zo 'r birni yiqar,

Bilimi zo 'r mingni yiqar.

*Tikansiz gul bo'lmas,
Mashaqqatsiz – hunar.*

*Ko'ngli ochiqning qo'li ochiq,
Qo'li ochiqning yo'li ochiq.*

*O'g'li borning o'rni bor,
Qizi borning qadri bor.*

*Qatorda noring bo'lsa,
Yuking yerda qolmaydi.*

*Bilgan topib gapirar,
Bilmagan – qopib.*

*Chin so'z – mo'tabar,
Yaxshi so'z – muxtasar.*

*Yaxshi bilan yursang
Yetarsan murodga.
Yomon bilan yursang
Qolarsan uyatga.*

*Yaxshi odam oshini yer,
Yomon odam boshini yer.*

*Toma-toma ko'l bo'lur,
Hech tommasa cho'l bo'lur.*

Nonni katta tishlasang ham

Gapni katta gapirma!

Asal aynimas, sariyog' sasimas.

Birni ko'rib fikr qil,

Birni ko'rib shukur qil.

2.2. Topishmoqlar

Barcha xalqlar og'zaki ijodining eng sevimli, qiziqarli va o'ziga xos turi topishmoqlar hisoblanadi. Topishmoqlar ba'zan «*topmacha*», «*jumboq*», «*matal*» deb ataladi. Mumtoz adabiyotda topishmoq «*chiston*» deb nomlanib, uning muayyan shartlari mavjud. «Chiston» asli forscha so'z bo'lib, topishmoq, jumboq ma'nosini anglatadi. Chiston – mumtoz adabiyotning kichik lirik janri va savol-javob shaklida paydo bo'lgan. Undagi narsa-hodisalar majoziy tarzda tasvirlanib, fard, bayt, qit'a, ruboiy va g'azal shaklida yoziladi. Chiston ko'proq ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega bo'ladi. Adabiyotimiz tarixida ushbu janrning go'zal namunalarini Alisher Navoiy, Uvaysiy kabi shoirlarimiz ijodida uchratishimiz mumkin.¹ Chiston mumtoz adabiyotshunoslikda «lug'z» deb ham yuritiladi.

Topishmoq hammabop ommaviy janrdir. Ularda xalq hayotining barcha qirralari: turmush madaniyati, urf-odatlar va boshqa jihatlari, inson va uni o'rab olgan olam o'xshatishlar, taqqoslashlar, savollar vositasida ifodalanadi. Topishmoqda yashirin ma'no ko'pincha majoziy shaklda keltiriladi, aniqrog'i, narsa nomi biron-bir qush, hayvon, buyum, o'simlikka qiyoslangan holda beriladi. Topishmoqni yechmoqchi bo'lgan kishi unda keltirilgan ko'chma belgilarini xayolida mantiqan solishtiradi va uning hayotdagi belgilarga to'g'ri kelishiga qarab javobni topadi. Topishmoqni aytilgan vaqtda yecha olmagan kishi «jazolanadi». Topishmoqning javobi uchun «shahar» yoki «qishloq» beradi.

¹ Chiston janri bilan bog'liq batafsil ma'lumot «Mumtoz she'r shakllari» mavzusida beriladi.

Topishmoqlar maqollar kabi *nasriy va she'riy shaklda ixcham, sodda va ravon, qofiyali uslubda to'qiladi*. Ular o'zida yashiringan predmetlar miqdoriga qarab bir va bir necha misrali bo'lishi mumkin. Topishmoqlarda narsalarning sifati, belgilari, o'xshashligi, mayda unsurlari batafsil ta'rif qilinadigan bo'lsa, ular ikki, uch, to'rt va undan ko'p misralarda ifodalanadi. Bundan tashqari, qochiriqlar, ramziy obrazlar, mubolag'ali so'zlar ko'paygan sari topishmoqlar hajmi oshib boradi. Topishmoqlarda o'xshatish, sifatlash, mubolag'a, kichraytirish, metafora, jonlantirish kabi badiiy tasvir vositalari va usullaridan keng foydalaniladi.

Topishmoqlar tuzilishiga ko'ra bir yoki bir necha predmetli bo'lishi mumkin. Masalan, «Qoziq ustida qor turmas» (tuxum). Ushbu topishmoqda bir predmet – tuxum o'zining rangiga ko'ra qorga, shakli jihatidan o'tkir uchli narsa – qoziq ustida turolmaydigan suyri (ellips)ga o'xshatilyapti. «O'zi bir qarich, soqoli qirq qarich» (igna) topishmog'i ham bir predmetli bo'lib, ignani anglatadi. Undan o'tkazilgan uzun ip soqolga o'xshatilyapti. Topishmoqlarning bir necha predmet yashiringan turlari ham bo'ladi. Masalan, «Bir daraxtda o'n ikki shox, har shoxda o'ttiz yaproq – bir yog'i qora, bir yog'i oq» topishmog'ining javobi yil (daraxt), o'n ikki oy (shox), o'ttiz kun (o'ttiz yaproq), o'ttiz kecha va kunduz (bir yog'i qora, bir yog'i oq).

Topishmoqda g'ayritabiiy tuyulgan narsa, aslida, siz bilan biz kundalik hayotda ko'rib-bilib turgan narsa bo'lib chiqadi. «Teg desa tegmaydi, tegma desa tegadi» (lab) yoki:

Chin qushim, chinni qushim,

Chin tepaga qo'ndi qushim,

Tumshug'ini yerga berib

Xalqqa salom berdi qushim.

(Choynak)

Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari, jumladan, doston va ertaklar ichida ham uchraydi. Ular doston va ertaklar mazmunini boyitib, ularning qiziqarliligini, o'qishligini ta'minlaydi.

Doston yoki ertak qahramonlari bir-birlarining aqli va farosatini topishmoqlar orqali sinaydilar. Bu hodisa ko‘proq ertaklarda uchraydi. Topishmoq qatnashadigan ertaklar ikki xilda bo‘ladi:

- 1) ***topishmoqli ertak. Unda topishmoq ertak ichida keladi;***
- 2) ***ertak-topishmoq. Undagi asar voqealari topishmoq asosida quriladi.***

Topishmoqlar mavzu jihatidan rang-barang bo‘lib, ular olam va odam bilan bog‘liq barcha narsa-hodisalarni qamrab oladi. Masalan, tabiat hodisalari, yil fasli va mavsumlar, hayvonot dunyosi, odam, uning a‘zolari va xislatlari, mehnat va o‘quv qurollari, cholg‘u asboblari, turarjoy, uy-xo‘jalik asboblari, qurol-yarog‘lar haqida bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, topishmoqlar o‘zining yaratilish davriga ko‘ra quyidagicha farqlanadi:

- 1) ***an’anaviy topishmoqlar.*** An’anaviy topishmoqlar zamirida xalqimizning tarixi, qadriyatlar aks etadi;
- 2) ***yangi, zamonaviy topishmoqlar.*** Bu turdagi topishmoqlarda kundalik turmushimizdagi o‘zgarishlar, fan va texnika yutuqlari o‘z ifodasini topadi.

Maqol va topishmoqning farqlari

- 1) ***maqolda tugal xulosa, aniq hukm mavjud, topishmoqda bunday emas;***
- 2) ***maqol nutqni bezaydi, topishmoq ko‘proq idrokni charxlaydi, tez va to‘g‘ri fikrlashga o‘rgatadi.***

Topishmoqlardan namunalar

Bir parcha patir,

Olamga tatir.

(Oy)

Bir otasi, bir onasi,

Necha yuz ming bolasi.

(Quyosh, oy, yulduzlar)

Onasi bitta,

Bolasi mingta.

(Oy va yulduzlar)

Otasi uzun xo'ja,

Onasi yoyma xotin,

Bolasi shirin-shakar.

(Tok, bargi, uzumi)

Qo'shnimning arqoni devordan oshib tushdi.

(Oshqovoq)

Zamonaviy topishmoqlardan namunalar

Qizdirsang ishlar,

Kiyim tekislar.

Hunari ko'p ishlasa,

Agar tokni tishlasa,

Tekislanar har g'ijim,

Chiziqli bo'ladi shim.

(Dazmol)

Bir ajoyib ishxona,

Ichi doim qishxona.

(Muzlatkich)

Po'lat qushim uchdi-ketdi,

Bir zum o'tmay Qo'qon yetdi.

(Samolyot)

U bor senda va menda,

Qo'y-chi, har bir insonda,

Eng yaxshisi asal-qand,

Yomoni-chi, berar pand.

(Til)

Og‘zi yo‘g‘-u tishi bor,

Boshimizda ishi bor.

(Taroq)

2.3. Xalq qo‘shiqlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida san’atning barcha turlari qatori milliy qo‘shiqchiligimiz tarixi, uning bugungi kundagi rivojlanishi masalalariga ham alohida diqqat qaratilgan. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, «... *kuy-qo‘shiqqa, san’atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg‘u asbobi bo‘lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta’sirini o‘z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin desak, mubolag‘a bo‘lmaydi*» (141-bet).

Qo‘shiqlar yaratilish manbayi, tinglovchilarning qaysi qatlamiga bag‘ishlangani, mavzulariga ko‘ra har xil. Tariximizda xalq qo‘shiqlarining ko‘plab turlari mavjud bo‘lgan: *ov qo‘shiqlari, mavsum qo‘shiqlari, to‘y qo‘shiqlari* («Yor-yor»), *aza qo‘shiqlari* (*marsiya*) kabi. Bundan tashqari, bolalarga mo‘ljallangan alla, *ovunchoq qo‘shiqlar, o‘yin qo‘shiqlari* («Boychechak», «Oq terakmi, ko‘k terak») ham keng tarqalgan.

Xalq qo‘shiqlari xalqning milliy urf-odatlarini, quvonchini, shodligini yoki g‘am-hasratini yorqin aks ettiradi.

Qo‘shiq va uning turlari haqida tushuncha

Qo‘shiq – qadimiy ilk janr hisoblanib, kuyga solib aytishga mo‘ljallab yoziladi. Qo‘shiq, odatda, ikki xil bo‘ladi:

- 1) *xalq qo‘shiqlari;*
- 2) *yozma adabiyot namunasi bo‘lgan qo‘shiqlar.*

Xalq qo‘shiqlari juda qadimiy tarixga ega, dastlab mehnat jarayonida paydo bo‘lgan.

Qo‘shiq yozma adabiyot janri sifatida ham mashhur. Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Feruz, Ogahiy, Muqimiy, Furqat va boshqa mumtoz shoirlarimizning she‘rlari xalqimizning sevimli qo‘shiqlariga aylanib ketgan. Hamza, Hamid Olimjon, Turob To‘la, Po‘lat Mo‘min, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matchon, Usmon Azimov singari ijodkorlar asarlarining qo‘shiq qilib kuylanishi yozma adabiyot bilan qo‘shiq janrining bir-biriga naqadar aloqadorligini isbotlaydi.

Xalq qo‘shiqlari har bir joyning jug‘rofiy tuzilishi, iqlimiga, urf-odatlariga, o‘tkaziladigan marosimlariga monand tarzda o‘sha yurtning turli yoshdagi vakillari tomonidan yaratiladi va ijro etiladi. Bu borada bolalar og‘zaki ijodi ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Dastlab kattalar tomonidan bolalar uchun qo‘shiqlar ijod qilingan bo‘lsa, keyinchalik bolalarning o‘zlari kuylagan qo‘shiqlari, termalar vujudga kelgan. Masalan, bahor elchisi boychechakka bag‘ishlangan qo‘shiqlarni, qizaloqlar aytadigan «Chittigul» kabi qo‘shiqlarni bolalar maroq bilan kuylaganlar. Bolalar qo‘shiqlari shakl jihatdan nihoyatda oddiy, o‘ziga xos ohangdorlikka egadir.

«Boychechak» qo‘shig‘i, odatda, bahor faslida ijro etilgan. Boychechak gulining qo‘shiqqa solib aytilishi tasodifiy emas. Chunki bu gul – bahor darakchisi. Qishloq bolalari ushbu gulni ko‘tarib uyma-uy qo‘shiq bilan suyunchi so‘rab borishgan, xonadon sohiblari bolalarga hadyalar berishgan. Boychechakni ko‘rgan keksalar uni ko‘zlariga surtishgan. Negaki boychechak bahorga yetib kelganlikning shukronalik belgisi sifatida qabul qilingan. «Boychechak» qo‘shig‘ining to‘rt, olti, sakkiz qatorli ko‘rinishlari mavjud. Qo‘shiq bolalarga xos sodda, samimiy, hazil-mutoyiba tarzidagi misralar bilan boshlanadi:

Boychechagim boylandi,

Qozon to‘la ayroni.

Ayroningdan bermasang,

Qozonlaring vayronidir.

Boychechak – ijobiy obraz, u yoshlik, jo‘shqinlik ramzi. U bolalarning bahor faslidagi birinchi qo‘shig‘i hisoblanadi. Bu qo‘shiq baland ovoz bilan aytiladi. Naqarot tarzida takrorlanadigan qismi jamoa bo‘lib kuylanadi:

*Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.*

Qo‘shiq matnidagi «boychechakni tutdilar, tut yog‘ochga osdilar» deyilishining ma‘nosiga e‘tibor beraylik. Ma‘lumki, xalqimizda tut daraxti muqaddas hisoblanadi. Xalq tut daraxti mevasini sevib iste‘mol qiladi. Uning tanasidan taroq, bola uchun beshik yasashadi. Boychechak xalq orasida ramziy ahamiyatga ega bo‘lib, unda chuqur ma‘no bor. Uni «tutadilar», «tut yog‘ochga osadilar», «qilich bilan chopadilar», «baxmal bilan yopadilar». Xalqda o‘z kuchi bilan qiynalib maqsadga erishsa, «Axir, u qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechakning o‘zi-da», – deyishadi. Bu ifodalarning barchasida boychechak mehnatkash inson ramzi ekanligiga ishora qilinadi.

«Chittigul» qo‘shig‘i ham bolalar ijodiga xos bo‘lib, kichik yoshdagi qizaloqlar ijro etishadi. Bu qo‘shiq bahorni eslatgani uchun ham mavsum qo‘shig‘i hisoblanadi. Qizlar qo‘shiqni ijro etganda uning ohangiga mos harakatli o‘yin o‘ylab topadilar. Qizlar juft-juft bo‘lishib, kaftlarini bir vaqtda bir-biriga urib, aylanishib, yana urishtirib qo‘shiq aytadilar. «Chittigul-o chittigul» deyilganda qizlar yuzma-yuz turadilar. Qo‘llari ma‘lum tartib bilan bir-birlariga qarsillab tegib chiroyli ohang kasb etadi. «Hay-yu, chittigul» deyilganda qizlar bir xil maqom bilan turgan joylarida gir aylanadilar. Qo‘shiq matni juft-juft matn va naqarotdan iborat.

Bolalarning mavsumiy qo‘shiqlari aytilishi, ijro uslubi bilan ko‘plab o‘ziga xosliklarga ega, ya‘ni ma‘lum faslda o‘tkaziladigan marosimlar, harakatli o‘yinlar bilan bog‘liqdir.

Marosim qo‘shiqlarida to‘y, aza va boshqa marosimlar bilan bog‘liq holatlar tasvirlanadi («Yor-yor», «Kelinsalom», «Kuyovsalom» kabi).

Mehnat qo‘shiqlari esa turli mehnat jarayonlari bilan bog‘liq. Masalan, xirmon yanchishda «Xo‘p hayda», «Maydagul», sigir, qo‘y, echkilarni sog‘ishda, buzoq, qo‘zi,

uloqlarni emizishda «Xo‘sh-xo‘sh», «Turey-turey», «Churey-churey» kabi xalq qo‘shiqlari dehqon va chorvadorlar ish faoliyatini o‘zida aks ettiradi.

2.4. Xalq dostonlari va ularning turlari

«Doston» forscha so‘z bo‘lib, qissa, hikoya, sarguzasht, ta’rif ma’nolarini bildiradi. Adabiy atama sifatida ham folklorning, ham yozma adabiyotning muayyan janrini anglatadi. Xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlarni yozma dostonlardan farqlash uchun ular xalq dostonlari deb yuritiladi. Favqulodda xususiyatlarga ega qahramonlarning boshidan o‘tgan qaltis voqealar she’r va nasriy yo‘lda aralash tasvirlangan yirik hajmli, muallifi noma’lum epik asarlar xalq dostonlari deyiladi.

Xalq dostonlarini do‘mbira yordamida ijro etuvchi, kuylovchi san’atkor o‘zbeklarda **«shoir»** yoki **«baxshi»** deb atalgan. Xorazmda dostonlar tor jo‘rligida aytiladi va bu xil aytuvchilar **«xalfa»** deb yuritiladi.

Baxshi va xalfalarning badiiy bisotida juda ko‘p mavzularda, turli yo‘nalishlarda yaratilgan dostonlar mavjud. Ularning ilk bor qachon va kim tomonidan aytilganligini aniqlash deyarli mumkin emas. Baxshilar repertuaridagi asarlarning katta qismini ishqiy-sarguzasht dostonlar tashkil etadi. Bunday dostonlar mazmuni, asosan, sevgi mojarolaridan iborat. Ulardagi sevgi mojarolari qo‘rqinchli sarguzashtlar, ertaklardagidek xayoliy hodisalar hayotiy-real voqealar bilan aralash tasvirlanadi.

Bunday dostonlardagi voqealar tizmasi (syujet) bir-biriga ancha o‘xshashdir. Qahramon ko‘pincha afsonaviy go‘zalni tushida yoxud uning suratini uzukda yoki oynada ko‘rib qolib unga g‘oyibona oshiq bo‘ladi. So‘ng uni izlab xatarli safarga otlanadi, sermashaqqat va tahlikali sarguzashtlarni, ajoyib-g‘aroyib voqealarni boshidan kechiradi, turli dushman kuchlar bilan to‘qnashadi, qahramonlik namunalarini ko‘rsatadi. Nihoyat, barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tib maqsadiga erishadi. Dostonlarimizning asosiy qismi ishqiy sarguzashtlarga bag‘ishlanganligi o‘zbek xalqi juda qadim zamonlardan buyon chin insoniy muhabbatni qadrlaganini ko‘rsatadi. Ota-bobolarimiz hamisha yor tanlashda, yorga yetishish uchun kurashishda, uning nomusini himoya qilishda dunyo xalqlariga namuna bo‘lib kelganlar.

Dostonlar ijrochidan ham badihada, ham ijroda juda katta ijodiy mahorat talab qiladi. Dostonning og‘izdan og‘izga o‘tib avloddan avlodgacha yetib kelishi ustoz-shogirdlik an‘analarining vujudga kelishiga, oqibatda yirik dostonchilik maktablarining yaralishiga sabab bo‘ldi. O‘zbek folklorida xalq dostonlari alohida o‘rin tutadi. Olimlar XIX asr oxiridan XX asrning ikkinchi yarmiga qadar o‘zbek baxshilari tomonidan kuylangan **150 ga yaqin doston borligini aniqlashgan va variantlari bilan qo‘shib hisoblaganda ulardan 400 ga yaqin asar yozib olingan.** Folklorchi olimlarning aytishicha, birgina «Go‘ro‘g‘li» turkumidagi dostonlar yuzdan oshadi, yolg‘iz «Alpomish»ning qirqdan ortiq yozib olingan varianti bor. Folklorshunos olim T.Mirzayevning ma‘lumotlariga ko‘ra, XV – XVI asrlarda yirik dostonchilik maktablari paydo bo‘lgan, XIX – XX asrlar esa dostonchilik taraqqiyotida juda rivojlangan davr bo‘lgan. XX asr boshlariga kelib baxshilarimiz ijodiy bisotida 150 dan ortiq xalq dostonlari bor edi. Bu dostonlarni *Tilla kampir, Sulton kampir, Jolmon baxshi, Bo‘ron shoir, Jumanbulbul, Josoq, Yo‘ldoshbulbul, Yo‘ldosh shoir, Suyar shoir* kabi mashhur baxshilar kuylaganlar. Keyinchalik ularning an‘analari *Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan, Islom shoir, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Berdi baxshi, Umir baxshi shoir, Bola baxshi* ijodida davom ettirildi. Baxshidan u yoki bu dostonni ijro etishda shunchaki voqea bayonini so‘zlab berish emas, balki uni do‘mbira jo‘rligida tinglovchini rom etadigan darajada kuylab berish talab etilgan. Dostonchi baxshilar o‘z san‘atlarini tinglovchiga ma‘qul qilish uchun turli usullarni qo‘llaganlar (musiqiy qochirimlar, so‘z o‘yinlari, dostonning eng qiziq joyida tanaffusli chekinishlar kabi). Doston aytish ko‘p hollarda raqobat asosida kechgan. Dostongo‘ylik kechalarida bir necha baxshi ishtirok etib o‘z mahoratini namoyish etganlar, ijodiy bahs qilganlar.

Dostonchilik an‘anasi hozirgi kunda ham mavjud. Biroq endi kuylash, ijro, tinglovchilar bilan muloqot tarzining zamonaviylik kasb etayotganini ko‘ramiz. Dostonchilik fan va texnika asrida birmuncha o‘zgarishlarga uchradi. Bugungi kun baxshilari o‘z asarlarini konsert zallarida, katta-katta anjumanlarda, televideniyeda ijro etmoqdalar. 1999-yili «Alpomish» dostonining ming yilligi yurtimizda bayram qilingan bo‘lsa, 2000-yili bu sananing jahon miqyosida nishonlanishi va hatto «O‘zbekistonda

xizmat ko'rsatgan xalq baxshisi» unvonining ta'sis etilishi (2000-yil 14-mart) xalq og'zaki ijodini o'rganish va uning rivojiga e'tibor namunasidir.

Xalq dostonlari olimlar tomonidan quyidagi turlarga ajratilgan:

1. Qahramonlik dostonlari: «Alpomish», «Yodgor».

2. Jangnoma dostonlar: «Yusuf va Ahmad», «Alibek bilan Bolibek», «Xoldorxon».

3. Romantik yoki ishqiy-romantik dostonlar: «Kuntug'mish», «Murodxon», «Ravshan», «Malikayi ayyor», «Go'ro'g'li» turkumi va b.

4. Tarixiy dostonlar: «Edega», «Shayboniynoma», «Oychinor».

5. Kitobiy dostonlar: «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Bahrom va Gulandom», «Rustami doston».

Yozma dostonlar aniq muallif tomonidan she'riy yo'lda yozilib, biror personaj kechirgan hodisalar shoirning tuyg'ulari bilan uyg'unlikda tasvirlanadi. Bu xil asarlar adabiyotshunoslikda *«poema»* deb ham yuritiladi.

She'r bilan nasrning aralash kelishi xalq dostonlarining muhim belgisidir. Dostonlardagi she'rlar, asosan, 11 bo'g'inli bo'lib, barmoq vaznida aytiladi. Qahramonlarning o'y-mulohazalari, nisbatan tinch ruhiy holati tasviri, o'zaro so'zlashuvlari 11 bo'g'inli she'r bilan ifodalanadi. Ba'zan dostonlarda tasvir talabiga ko'ra 7 va 8 bo'g'inli she'riy ifodalar ham uchraydi. Otlar chopishi, jang manzaralari 8 bo'g'inli parchalar bilan berilsa, personajlarning tezkor harakatlari aks etgan o'rinlar 7 bo'g'inli she'rlar bilan ifodalanadi. «Ravshan» dostonida o'g'lini qutqarish uchun shoshilinch ketayotgan Hasanxon tasviri aynan 7 bo'g'inli misralarda berilgan:

Qulon yurmas yerlardan

Quvib o'tib boradi,

Bulon yurmas yerlardan

Buvib o'tib boradi.

Sakkiz bo'g'inli misralar esa maydon talashayotgan otlar holati yoki jang ko'inishi tasvifiga qo'llaniladi:

*Dushmanlarni to'plab olib,
Yetganiga qilich solib,
Har dara o'likka to'lib,
Bosh kesar maydon ichinda.*

Xalq dostonlaridagi nasriy tasvirlar ham juda o'ziga xos, ko'pincha saj yo'lida, ya'ni qofiyali sochma ko'rinishida keladi. Nasriy tasvirlarning bu tarzda berilishi xalq dostonlarining ifoda darajasini yuksaltirib, badiiy ta'sirchanligini orttiradi. Chunonchi, «Go'ro'g'lining zo'r deb ta'rifi ketgan, zarbasi toshdan o'tgan, qilichining ishlovi yetgan, tekkan omon qolmasin deb zaharning suvin yalatgan» nasriy parchasidagi «ketgan», «o'tgan», «yetgan», «yalatgan» so'zlari nasriy tasvirga ohangdorlik, musiqiylik baxsh etadi.

Xalq dostonlarining deyarli hammasida uchraydigan ifoda va tasvirlar folklorshunoslikda «**epik qoliplar**» deyiladi. Ular xalq dostonlarida takrorlanib turadigan holatlar tasvirida qo'llaniladi. Dostonlarning boshlanish va tugallanishi, personajlarning ko'rinishi, o'zaro munosabatlari, tulporlarga berilgan ta'riflar, safar yoki jang tasvirida epik qoliplardan foydalaniladi. Misol uchun:

*Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema*

yoki:

*Kokillarim eshilgandir tol-tol,
Har toliga bersa yetmas dunyo mol.*

Xalq dostonlarida asardan asarga ko'chib yuradigan, badiiy qolip holiga kelib qolgan she'riy qatorlar yoki folklorshunoslar tili bilan aytganda, uslubiy formulalar ham muhim badiiy ahamiyat kasb etadi. «*Yana bahor bo'lsa, ochilar gullar, Gulni ko'rsa mast bo'b sayrar bulbullar*», «*Qiyg'ir degan qush o'tirar qiyada*», «*Ot chopsa, gumburlar*

tog'ning darasi, Botirni ingratar nayza yarasi», «Xazon bo'lmay bog'da gullar so'ldimi, So'lgan gulga bulbul kelib qo'ndimi?» singari uslubiy formulalar ko'plab dostonlarda kelib, ham tasvirning ta'sirchanligini oshiradi, ham aytuvchi baxshining nafas rostlashiga, fikrini to'plab olishiga, quyilib kelayotgan tuyg'ularni yaxshiroq ifodalash uchun zarur so'zlarni topishiga imkon yaratadi.

Xalqimiz kuylab kelgan dostonlar orasida «Go'ro'g'li» turkumi alohida o'rin tutadi. Bu turkum dostonlar turkman, qozoq, qoraqalpoq, tatar, turk, ozarbayjon, tojik, arman, gurji xalqlari orasida ham mashhur. O'zbeklar orasida tarqalgan «Go'ro'g'li» dostonlarining o'zi yuztadan oshadi.

2.5. «Ravshan» dostoni

«Ravshan» ishqiy-sarguzasht doston bo'lib, «Go'ro'g'li» turkumiga kiradi. Xalq orasida u o'tgan asrda ham mashhur edi. Doston folklorchi olim **Hodi Zarif (1905 – 1972)** tomonidan birinchi marta 1928-yili Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868 – 1937) og'zidan yozib olingan va 1941-yili nashr ettirilgan. Ergash shoir «Ravshan»ni otasi Jumanbulbuldan, u esa ustози Kichik Bo'rondan o'rgangan. Dostonning sayqal topib, badiiy go'zal asar shaklini olishida Jumanbulbul va Ergash baxshilarning alohida xizmatlari bor.

«Ravshan» otashin va samimiy muhabbatni kuylovchi, pok va haq islomiy e'tiqod yo'lida sobit tura oladigan iymonli kishilarni madh qiluvchi, ezgulikni, mardlik va botirlikni ulug'lovchi, zulm va zo'ravonlikni, adolatsizlikni qoralovchi asardir.

«Ravshan» dostoni qofiyali nasr (saj)ning go'zal namunasidir. Deyarli har bir nasriy parcha qofiyali. Dostonning she'riy qismi, asosan, yetti, sakkiz va o'n bir bo'g'inli barmoq vaznida. Sakkiz bo'g'inli vazn urush va jangovarlik holatiga juda mos keladi:

*Keling, kallar, keching jondan,
Umiding bo'lsa maydondan.
Siz bir yondan, men bir yondan,
Ot qo'y g'aninning ustiga.*

Asarda tasvir etilayotgan voqea yoki harakat sur'ati tezlashgan holatlarda yetti bo'g'inli she'rlardan foydalaniladi:

*Qush uchmagan cho'llardan,
So'na yuzgan ko'llardan,
Odami yo'q yo'llardan,
Dim uchi yo'q cho'llardan,
Tomosha qing, mard Hasan
Qistab o'tib boradi.*

Dostonning qisqacha syujeti quyidagicha:

Buxorodan tumanda, Taka-Yovmit deganda, Yovmit elida, Chambilning belida Go'ro'g'libek davrini surib, dushmanning dodini berib o'tdi. Yunus bilan Misqol parini Ko'hi Qofdan, Eram bog'idan keltirib, umr o'tkazar edi. Go'ro'g'libekning farzandi bo'lmaydi. Hasanxonni Vayangandan, Avazxonni Xunxordan olib kelib ulg'aytirgan edi. Avazxonni Og'a Yunus pari, Hasanxonni Misqol pari o'z tarbiyasiga olgan edi.

Ulg'aygach Hasanxon Arzirumdan xon Dalliga, Avazxon Gulqizga uylanadi. Hasanxon va xon Dalli o'g'il ko'radilar, Go'ro'g'libek Ravshanbek deb ism qo'yadi.

Avazxon bir-ikki yildan so'ng qizli bo'lib, Go'ro'g'libek unga Gulanor deb ot qo'yadi. Kunlardan bir kun Go'ro'g'libek parilar bilan o'tirganda o'n besh-o'n olti yoshli Ravshanbek kirib keladi, Go'ro'g'li Avazxonning qizi Gulanorni Ravshanga olib bersammikin deb parilar bilan maslahatlashadi va sovchilik qilib Avaznikiga yo'l oladi. Gulanorni ko'z ostiga olib yurgan Ravshan bundan xursand bo'ladi. Shuning uchun bobosining ortidan poylab borsa, Avaz qizini Ravshanga bermasligini aytib shunday deydi:

*Yigitlar ichida menman o'dag'a,
Bedovga yarashar oltindan to'g'a,
Ravshanga bermayman Gulanorjonni,*

Qizim tugul kuchugimdan sadag'a.

Buni eshitib turgan Ravshan yig'lab uyga qaytadi, uni ko'rgan Yunus pari o'zim borib Avazni ko'ndiraman deb ovunib o'tirishi uchun Ravshanga xosiyatli uzugini berib chiqib ketadi. Ravshan uzukda Qoraxon podshoning qizi Zulxumorning ismi va suratini ko'rib sevib qoladi. Chunki uning Gulanorga bo'lgan tuyg'usi havas bo'lib, haqiqiy sevgi emasdi. Jiyrongush degan otiga minib ketayotganda darvozabon do'sti bilan suhbatlashib o'tirgan otasi Hasanxonga duch keladi. Hasanxon yolg'iz o'g'lini yuborgisi kelmasa ham o'rtada or-u nomus masalasi borligi uchun «*Yolg'iz bola yovdan yomon*» deb o'g'liga ijozat beradi va nasihat qilib uni kuzatadi.

Ravshan... tog'-u toshlar, cho'l-u biyobonlarni bosib o'tib Shirvonga keladi. Bu yerda bir kampirga o'g'il bo'lib yurib, kunlarning birida shaharni aylanar ekan, bozorning ustidan chiqib qoladi. Zulxumorning qalpoq tikib, har bozor kuni yigitlarga sotishni rasm qilgani, bozordagi ko'shkning ustida yuzini ochib o'tirishi, yigitlar ko'rmanasiga bir lagan tilla hadya qilib uni tomosha qilishlarini bilib oladi.

Qalpoq bozorini izlab yuradi.² Dostonda bozorlar tasviri orqali xalqimizning qadimgi hayoti yoritib berilgan. Ravshan «G'amning loyiga botibman» jumlasini bilan o'zining g'amgin holatini ifodalaydi. Ravshanga qalpoq bozorini uning baqirishidan kayfi qochib ketgan bir nashavand ko'rsatib yuboradi. Ravshan u yerda Zulxumor va uning kanizlariga³ mahliyo bo'lib: «Yuringlar, Chambil elga ketamiz», – deydi. Qizlar uni tentakka chiqarib ketib qoladilar.

Kechqurun ko'shka qaytayotgan qizlarga ergashib Zulxumorning bog'iga borib qoladi. Shu asnoda bir to'p qizlar o'ynashib-kulishib, gul terishib-talashib Ravshanning ustiga kelib qolishadi. Begona yigit pisib yotganini ko'rgan qizlar qo'rqib ketib, qiy-chuvlashib, entikib, dod-voy solib Zulxumorning oldiga borishadi. Gap nimadaligini bilgach Zulxumor Oqqiz degan kanizini kelgan yigitning kimligi, qayerlik ekani, nimaga kelganini so'rab, ko'rmanasini olib kelishga jo'natadi. Ravshan ko'rmanaga tillasi yo'qligi uchun Yunus pari bergan sehrli uzukni Zulxumorga yuboradi. Zulxumor uzukni tomosha

² Bozor umumiy 145 misrada tasvirlanadi.

³ Zulxumorning kanizlari bu o'rinda **qatorlashib turgan kabutarlarga** qiyos etilgan.

qilar ekan, unda o'zining ismi va suratini ko'radi, uzuk sehrli va bebaholigini bilib, bunday uzuk har kimda ham bo'lavermasligini o'ylab, yigitni huzuriga olib kelishlarini buyuradi.

Qizlar Ravshanni izzat-hurmat bilan ziyofat qilib, so'ng yasantirishib o'rdaga olib borishadi. Zulxumor, avvalo, uzuk ko'zidagi yozuvni taqdirning bitigi deb bilganidan, ikkinchidan, yigitni yoqtirib qolganidan uni qabul qilib, ziyofat beradi. Ziyofat adog'ida Zulxumor bilan Ravshanga tilla taxt ustida joy qilib berishib, qizlar chiqib ketishadi.

Bir necha kunni Ravshanbek Zulxumor bilan shod-xurram o'tkazdi. Ravshanga ko'p iltifot qilsa-da, uning e'tiborini qozonolmagan hasadgo'y Oqqiz alamidan Zulxumorning bog'ida o'zbek yigiti yashayotganligini onasiga aytib beradi. Onasi hamma gapni Qoraxonga yetkazadi. Qoraxonning mirg'azablari Ravshanni Zulxumor bilan uxlab yotishgan joyida bandi qiladilar. Podsho yigitni osishga buyuradi. Shunda Shirvon kattalari: «Yigitni o'ldirishga shoshmaslik kerak, yosh yigit ekan, qirq kun muhlat berib, zindonga tashlasak, so'ng chiqarib sizning diningizga kirishini so'rasak, ko'nsa, sizga kuyov qilsak», – deb maslahat solishadi. Bu gap podshoga ma'qul keladi. Ravshan zindonga tashlanadi. Zulxumor ham qizlari – kanizlari bilan bir hovliga qamab tashlanadi, tevaragiga besh yuz sarboz qorovul qo'yiladi.

Zulxumor kaniz qizlari orqali yashirincha bir necha lahmchi topadi. Hovlidan zindon boshigacha lahm kovlatib Ravshandan xabar olib turadi. Qiz u bilan maslahatlashib Ravshanning ota-onasiga xat yozadi va xatni o'rgatilgan mayna qushining bo'yniga bog'lab, maynani Chambilga jo'natadi.

Mayna Chambilga yetadi, avval Hasanxonning tomiga tushadi, farzand dog'ida nolafig'on qilib yurgan Dallini ko'rib, ayolning Ravshanga ona ekanligini fahmlab, qattiq sayraydi-da, uning qo'liga kelib qo'nadi.

Xatni olib o'qib hamma voqeadan xabar topgan Hasanxon Go'ro'g'lining mashhur G'irko'k otini minib zudlik bilan Shirvonga jo'nashga qaror qiladi. Xatdan ayon bo'lishicha, Qoraxon bergan qirq kunlik muhlatning roppa-rosa yigirma kuni o'tgan. Yigirma kundan keyin Ravshan yo begona dinga kirishi, yo dorga osilishi kerak.

Go'ro'g'lidan fотиha olib Hasanxon Shirvon yurtiga yo'l oladi. Qirq kunlik yo'lni yigirma kunda bosib o'tib Shirvonga kirib boradi.

Ravshan bilan ona-bola tutingan kampirning avval olti o'g'li bor bo'lib, ulardan Qoraxon ham hayiqardi. Shu olti o'g'illarining o'limidan so'ng Ravshanga bolam deb mehr qo'yib, o'ziga merosxo'r bo'lishini istagan edi. Lekin u zindonga tushib qolganda katta o'g'lining nonxo'r polvoniga murojaat qiladi. Bu polvonning ismi Aynoq kal bo'lib, uning uch ukasi bor edi. To'rt aka-ukaning har biri hunarli edi:

Aynoq kal shunday edi: ot, tuya, arava ko'tarolmas edi. Doim bir yoqqa ko'chmoqchi bo'lsa piyoda ketar edi...

Jaynoq juda masxaraboz edi, har tusli bo'la berar edi. Agar bironni aldamoqchi bo'lsa, har tusli bo'lganda o'zining jo'ralari ham tanimas edi.

Ersak kal shunday edi: oqshomlari qo'lga kamonni olsa qushni ko'zidan urar edi. Juda mergan edi...

Tersak kal sinchi edi: Yilqining tulporini suyagidan tanir edi, qilichning o'tkirini qinidan bilar edi.

Aynoq kal kampirga yordam berishga qaror qilib, o'ttiz to'qqizinchi kun qatl kuniga tayyorlanib, osh yeb o'tirishsa⁴, Hasanxon charchagan G'irko'kni (Go'ro'g'lining otini) minib keladi. Avval uni Jaynoq kal taniydi, so'ng Ersak kal ta'riflaydi. So'ng tanishib, so'rashib ertangi kunga tayyorlanishadi.

Ertasi tongda Ravshanni xaloyiq oldida zindondan ko'zini bog'lab chiqadilar. Unga vazirlar Qoraxonning diniga o'tishni taklif qilishadi. Ravshan rad etadi. Oxirgi marta ko'zlarini ochishlarini so'raydi va otasini ko'rib yig'lab yuboradi.⁵ Jang boshlanadi.⁶ Jangda kalllar qahramonlik ko'rsatadilar. Hasanxon Qoraxonni o'ldiradi.

Ravshan va Zulxumorning to'ylaridan so'ng Hasanxon Shirvonning katta-kichigini yig'ib Shirvonni kallarga topshiradi. Aynoq jo'rasini Shirvon shahriga podsho qiladi, ukalarini vazir, mahram etib tayinlaydi, so'ng Chambilga qaytadilar. Ularni otasi Go'ro'g'libek, enasi Yunus, Misqol parilar, yori xon Dalli, qirq yigit jo'rasi kutib oladi. Shu tariqa qahramonlar murod-maqсадlariga yetadi.

⁴ Shu o'rinda Jaynoq kal: «**Ertaga qudag'ay kimga qo'y so'yadi**», – deydi. Bunda u Qoraxonni qudag'ay deb uning ahvoli yomon bo'lishiga ishora qiladi.

⁵ Bu Ravshanning yolg'iz va erka o'sgani bilan bog'liq bo'lib, juda tabiiy manzaradir. Chunki erka o'g'il otasini sog'ingan, yoshi ham atigi o'n oltida bo'lib, otasining mehr to'la nigohini ko'rib o'ksinib ketadi.

⁶ Bu o'rinda «**Oltin kosa, gulgun sharob Ichildi maydon ichinda**» tasviri qo'llangan bo'lib, bu jang mohiyatini ochishga xizmat qilgan.

2.6. «Kuntug‘mish» dostoni

«Kuntug‘mish» dostoni o‘zbek xalq dostonlari orasida g‘oyaviy-badiiy jihatdan yetuk, yozib olingan va ijro etilgan variantlari juda ko‘p asarlardan biridir. Uning xilma-xil ko‘rinishdagi variantlari ko‘pligining boisi shundaki, ilgari baxshilarning iste’dodiga, ushbu dostonni qanday aytishiga qarab baho berilgan, natijada barcha baxshilarimiz «Kuntug‘mish» dostonini to‘la o‘zlashtirishga intilganlar. Dostonning *Ergash Jumanbulbul o‘g‘li*, *Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li*, *Nurmon Abduvoy o‘g‘li*, *Egamberdi Ollamuroddan* yozib olingan variantlari mavjud. Maktab darsligi (8-sinf)da esa dostonning mashhur baxshi bobomiz Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan yozib olingan nusxasi keltirilgan.

Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha: No‘g‘ay yurtida Avliyoyi Qoraxon ismli, Qilichxon laqabli podsho bo‘lib, Kuntug‘mish uning yolg‘iz o‘g‘li bo‘ladi. Kuntug‘mish o‘n to‘rt yoshga to‘lguncha ilm-hunar o‘rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O‘n to‘rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko‘pkari chopish kabi sipohiylik hunarlarini o‘rganadi, xullas, har tomonlama komil shahzoda bo‘lib yetishadi. Zangar degan shaharning Buvraxon degan podshosi bo‘lib, uning Shoir va Tohir ismli vazirlari bor edi. Vazirlar bir-birlari bilan juda inoq edilar, ular: «Bizlarga farzand bersa, o‘g‘il bo‘lsa qo‘lqanot bo‘lsin, qiz bo‘lsa do‘st bo‘lsin», – deya niyat qilardilar. Kunlardan bir kuni Shoir vazirning xotini qiz ko‘radi, Tohir vazir oilasida esa o‘g‘il tug‘iladi. Qizning otini Xolbeka, o‘g‘ilning otini Xolmo‘min qo‘yishadi. Lekin Xolmo‘minning onasi to‘satdan vafot etib, o‘g‘il go‘dakni Xolbekaning onasi emizishga majbur bo‘ladi, natijada ular «shirxo‘ra» (bir onani emgan) bo‘lib, «nikoh yurmaydigan» bo‘lib qoladilar. Xolbeka o‘n to‘rt yoshga yetgach, uning husni kamoli ovozasi olamga yoyiladi. U go‘zal, ayni paytda, aqlli, nard o‘yiniga mohir qiz bo‘lib yetishadi. Unga barcha mamlakatlardan sovchilar kela boshlaydi. Xolbeka sovchilarga: «Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o‘yini qo‘yaman, o‘ynayman, utsa (yutsa) tegaman, utdirsa so‘yaman», – deb shart qo‘yadi. Hatto shahar podshosi Buvraxonga ham shu javobni aytadi. Podsho g‘azablanib

shaharga Xolbeka deb kelgan odamni tutib qatl qildirishga farmon beradi, shunday qilsam to‘rt-besh yildan keyin menga tegishga majbur bo‘ladi deb o‘ylaydi.

Xolbeka va Kuntug‘mish tush ko‘radilar, ular tushlarida bir-birlarining qo‘liga uzuk taqishib, oila qurgan emishlar. Shundan so‘ng Xolbeka bir mohir suratkashga o‘z rasmini chizdiradi va uni sandiqqa solib No‘g‘ay yurtiga oqizib yuboradi. Sandiq oqib borib daryo sohilida ov qilib yurgan Kuntug‘mish qo‘liga tushadi. Kuntug‘mish Xolbeka visoliga yetish uchun Zangar yurtiga otlanadi, bu yurtga bazzoz qiyofasida kelib Xolbeka bilan topishadi, so‘ng ko‘p sarguzashtlarni boshidan kechiradi: Buvraxonning qo‘liga tushib, o‘limga hukm qilinadi, dahshatli ajdarni o‘ldiradi, xiyonatkor Azbarxo‘ja tufayli xotini, egizak o‘g‘illaridan vaqtincha judo bo‘ladi. Doston so‘ngida xotini, farzandlari Gurkiboy va Mohiboy, otasi Qoraxon bilan topishadi.

Dostonning bosh qahramoni – Kuntug‘mish yolg‘iz, erka o‘g‘il bo‘lishiga qaramasdan aqlli, bilimli, jasoratli, elga g‘amxo‘r, xotini, bolalariga mehribon, vafodor yigit. Kuntug‘mish va Xolbeka bir mo‘jiza bilan Buvraxon jazosidan omon qolib, sahroda och, tashna qolishganda hayotdan umidini uzgan yori Xolbekaning «Meni tashlab ketaver, yo‘qsa, o‘zing ham halok bo‘lasan» degan iltijosiga «Bir g‘ayrat qil, yo‘limiz yaqin qoldi» deb dalda beradi, unga vafodorligini quyidagicha bayon qiladi:

*Po‘lat nayza qor ostiga yetarmi,
Temir nayzang egovlasang o‘tarmi,
Sening to‘rang nomardlardan emasdir,
Mard o‘g‘lon sevgisin tashlab ketarmi?..*

Kuntug‘mish – o‘z maqsadiga sodiq, har qanday sharoitda tushkunlikka tushmaydigan inson. U nomsiz, poyonsiz tog‘ darasidan vataniga boradigan yo‘lni rosa izlaydi, bu orada egizak farzandli bo‘ladi, ular uch yoshga to‘lganda ham biror-bir el daragini topolmaydi. Xolbeka – o‘z so‘zida turadigan, barcha hunarlarga mohir qiz. O‘zi qanchalik bir ishga mohir bo‘lsa, bo‘lajak jufti halolidan ham shuni talab qiladi. Shu ma’noda Xolbeka o‘z xulqi va fazilatlarini bilan har jihatdan Kuntug‘mishga teng va munosib. U haqiqiy muhabbatni tan oladi va unga ishonadi, e’tibor bering: u o‘z suratini

chizdirib Kuntug‘mish yurtiga yuborar ekan, agar «shu ko‘rgan tushim rahmoniy bo‘lsa, oshiq-ma’shuqlik avvaldan pok bo‘lsa, Xudoyo Xudovando, shu sandig‘im senga omonat, to‘radan boshqasiga tegmasin» deydi.

Xolbeka – hamiyatli, g‘ururi baland qiz. Garchi u Kuntug‘mishni tushida sevib qolgan, uchrashganda esa yigitni ko‘rib biroz muddat ixtiyorini yo‘qotgan bo‘lsa-da, uning husniga talabgor barcha shoh-u shahzodalarga bergan va’dasi, ya’ni faqat nard o‘yinida g‘olib chiqqanga tegaman degan fikridan qaytmaydi. Kuntug‘mish men uchun mashaqqat chekib kelibdi deb unga tegib ketavermaydi, o‘zi ko‘ngil qo‘ygan yigitning el-yurt oldida ham yuzi yorug‘ bo‘lishini istaydi.

Dostonda Kuntug‘mishning o‘g‘illari – Gurkiboy va Mohiboy xarakterlari ham chiroyli va ta’sirchan tasvirlangan. Gurkiboy bosiq, vazmin, aql bilan ish ko‘radigan bola bo‘lsa, Mohiboy biroz shaddod, biroz quv yigit. Biroq ikki aka-uka bir-birlariga mehribon, ota-onalariga fidoyi yigitlar. Ular mehnatsevarlik va aql bilan ish ko‘rganlari uchun boshlariga tushgan qiyinchiliklarni yengadilar.

Asarda Azbarxo‘ja, Buvraxon, Zamonqul, Xolmo‘min kabi qahramonlar qiyofasi o‘ziga xos tarzda yoritilgan. Azbarxo‘ja dastlab Kuntug‘mish bilan do‘stlashadi, so‘ng o‘z manfaatini deb unga xiyonat qiladi. Buvraxon o‘ziga bino qo‘ygan, qahri qattiq podsho, biroq uning ko‘ngilchan ekanligini ham ko‘ramiz. Buvraxon avval Kuntug‘mish va Xolbekani o‘limga mahkum etadi, keyinroq Azbarxo‘ja xiyonati tufayli mashaqqatlarga duch kelishganini eshitib ularni afv etadi. Azbarxo‘jani jazolaydi. Dostondagi *Qosim*, *Xolmo‘min*, *Mullavachcha*, *Zamonqul* va boshqa obrazlar ham asarda o‘z o‘rniga ega, ularsiz Kuntug‘mish va Xolbeka taqdirini to‘laqonli tasavvur qilish qiyin.

Doston xalq og‘zaki ijodidagi barcha she’riy qoidalar va uslublarni o‘zida jamlagan asardir. Unda, xalq dostonlarida bo‘lganidek, voqealar, sarguzashtlar, asosan, nasriy bayon etiladi, qahramonlar tavsifi, ruhiy kechinmalari she’riy yo‘l bilan ifodalanadi. Doston tili esa nihoyatda yengil va ravon. Unda rang-barang badiiy til vositalaridan unumli foydalanilgan, ayniqsa, hikmatli so‘zlar darajasiga ko‘tarilgan ayrim baytlar hech kimni e’tiborsiz qoldirmaydi: «*G‘aribning ko‘nglini ovlamoq savob*», «*Qilichdan seskanmas botirning tani*», «*Gavharni ne bilsin ushalgan sopol*», «*Zarning qadrini zargar bilar har yerda*», «*Kamlikning kamoli bordir, Manmanning zavoli bordir...*»,

«Yaxshilarning yuzin ko'rsang jannatdir, Yomon odam qilgan ishi minnatdir»,
«O'zingdan kattani uchratsang pir bil, O'zingni er bilsang birovni sher bil» va hokazo.

2.7. «Alpomish» dostoni

«Alpomish» dostoni qahramonlik mavzusiga doir bo'lib, uning 40 dan ortiq varianti mavjud. Dostonning *Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosidagi nusxasi 1927 – 1928-yillarda Mahmud Zarifov hamda Hodi Zaripov rahbarligida* yozib olingan. Mazkur doston IX – X asrlarda yaratilgan degan taxminlar bor. Dostonning qisqacha syujeti quyidagicha:

Qadim zamonlarda 16 urug' Qo'ng'iro't elida Dobonbiy va Alpinbiy deganlar o'tdi. Alpinbiyning Boybo'ri va Boysari degan farzandlari bo'lgan ekan. Ammo Boysari va Boybo'rilarning farzandlari yo'q ekan. Kunlardan bir kuni o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida bir chupronto'y bo'lib o'tadi. To'yda aka-ukalarni o'zlariga loyiq tarzda kutib olmaydilar. Aka-ukalar to'y egasiga katta to'yona puli berib, nega yaxshi kutib olishmaganini so'rashganda, ularning farzandlari yo'q ekanligini yuzlariga solishadi. Boybo'ri bilan Boysari Shohimardon pirining 3 kunlik yo'l bo'lgan ravzasiga kelishib, Allohdan ularga farzand so'rab berishini iltimos qilishadi. *«Xudoning yaratgan sheri» bo'lgan Shohimardon pir* ularga farzand so'rab beradi. Boybo'ri o'g'illi va qizli, Boysari esa qizli bo'ladi. Shohimardon pirning o'zi qalandar qiyofasida kelib bolalarga ism qo'yadi: Boybo'rining o'g'liga Hakimbek, qiziga Qaldirg'och deb, Boysarining qiziga esa Barchinoy deb nom beradi. Hakimbekning o'ng kiftiga besh panjasini uradi. Shundan so'ng Hakimbek o'tda yonmas, qilich kesmas, o'q o'tmas xususiyatiga ega bo'ladi. Bolalar uch yoshiga yetganda ularni maktabga berishadi. Yetti yoshga kirib savod chiqarganlaridan so'ng ularni maktabdan olishadi. Hakimbek harb ishini o'rganishga, davlatni boshqarishga, shohlik, sipohiylik ilmlarini o'rganishga o'tadi. Barchin va Qaldirg'och esa qo'y sog'ishni, chorvachilik ilmini o'rganadilar. Yetti yoshga kirgan Hakimbek Alpinbiy bobosidan qolgan 14 botmon birinjdand bo'lgan parlik yoyidan o'q uzib Asqar tog'ining katta cho'qqilarini uchirib yuboradi. Shundan so'ng unga «Alpomish» deb nom qo'yadilar. Kunlardan bir kuni Boybo'ri Alpomish bilan saxiylik va baxillikdan gap ochib, zakot to'lagan odamning saxiy, to'lamaganning baxil bo'lishini

aniqlaydi. Alpomish eski kitoblarni o‘qib saxiy odamning zakot to‘lashi lozimligini aytadi. Boybo‘ri ukasiga zakot to‘lashi kerakligini ma‘lum qiladi. Ammo Boysari to‘lashdan bosh tortadi va o‘n olti ming uyli Qo‘ng‘irot elidan maslahat so‘raydi. Shunda kattalardan sado chiqmagach, poygakda o‘tirgan Yortiboy ismli oqsoqol shunday deydi:

Maslahat bermaymiz Boysariboyga,

Osilmaymiz Boybo‘rining doriga.

Boysari o‘z akasiga zakot to‘laguncha qalmoqlarning yurtiga borib juz‘ya (g‘ayridinlarga solinadigan soliq) to‘lashni ma‘qul ko‘radi va Toychaxonning yurtiga ko‘chib ketadi. Qo‘ng‘irotliklar unga ergashadilar. Ular Chilbir cho‘lidagi Oynako‘l atrofiga yetib keladilar. Bug‘doyzorlarni bilmasdan payhon qiladilar. Qalmoqlar bu voqeadan xafa bo‘lib, Toychaxonga shikoyat qilib boradilar; Toychaxon Boysarini jazolamaydi. Aksincha, yashash uchun Chilbir cho‘lini, ichish uchun Oynako‘lni beradi.

Qalmoqlar podshohi Toychaxonning to‘qsonta alp bahodiri bor edi. Ularning har biri to‘qson botmonli sovut kiyar edilar. Har kuni har biri to‘qsonta qo‘y yer edi. Har oyda shohdan to‘qson oltin tanga olar edi. To‘qson alpning eng zo‘ri yetti aka-uka edi. Kattasini Ko‘kaldosh, keyingilarni Ko‘kaman, Ko‘kqashqa, Boyqashqa, Toyqashqa, Qo‘shquloq, eng kichigini Qorajon deb atar edilar. Boysarining Barchinoy degan bir chiroyli qizi borligini bilgan alplar uni so‘rab sovchilikka borishadi. Boysarini «Kelgan boy» deb chaqirib, uning qizini so‘rab kelganlarini aytadilar. Boysari ertaga kelishlarini aytib ularni jo‘natib yuboradi. Qo‘ng‘irot eliga maslahat solganda, yana Yortiboy turib shunday deydi:

Bu ellarga boshlab kelgan o‘zingdi.

Tortinmay beraber endi qizingdi...

Bu alplarni kuyov qilib olamiz,

Mina elga toza erkin bo‘lamiz.

Bu gapdan Boysari qattiq ranjib: «Mening qizim sening singling, nomardlar», – deydi. Shunda bu suhbatni eshitib turgan Barchinoy alplarga o‘zi javob berishini aytadi.

Ertasiga alplar yana keladilar. Boysari qizlari ulg‘ayib qolganligini, 14 yoshga to‘lganini, muchali sichqon ekanini aytib, ixtiyori o‘zidaligini bildiradi. Ko‘kaldoshning buyrug‘i bilan Ko‘kaman Barchinni aka-ukalarining turmushga chiqish talabiga javob berishi uchun o‘tovdan chiqarmoqchi bo‘ladi. Ammo polvon Barchin uni ko‘tarib yerga uradi, og‘zidan ko‘pik sachratadi. Barchin Alpomishga xabar yuborishini, o‘rtaga teng shart qo‘yishini, shu shartni bajargan kishiga turmushga chiqishini aytib olti oy muhlat so‘raydi. Barchinning baquvvatligidan hadiksiragan polvonlar bunga ko‘nadilar.

Barchin Alpomishni chaqirib xat yozadi va Boysun eliga ketayotgan karvondan berib yuboradi. Ammo karvonboshidan xatni olgan Boybo‘ri Alpomishning Qalmoq eliga ketishini istamasdan xatni sandiqqa yashiradi. Bu xat tasodifan Qaldirg‘ochning qo‘liga tushib qoladi va akasiga xabar qiladi. Akasining ikkilanganligini ko‘rib shunday deydi:

*... Mard yigitning yori talash bo‘lami,
Er yigitning yorin qalmoq olami?
Aka, aytgan so‘zim og‘ir olmagin,
Narmoda ishini bunda qilmagin...*

Yilqichi qul Qultoyning oldiga jo‘natadi. Boybo‘rining topshirig‘i bilan Qultoy dastlab Boychiborni Alpomishga berishni istamaydi, lekin Alpomish va singlisining talabidan so‘ng, nihoyat, Boychiborni unga beradi.

Yaqinlari bilan xo‘shlashib yurtidan chiqqan Alpomishga Shohimardon qirq chiltonlar hamisha homiylik qiladi. Chiltonlar qalmoqqa borishning birinchi kechasida charchab uxlab yotgan Alpomish ruhini Barchinniki bilan uchrashtiradilar. Alpomish, Qorajon va Barchinga tushlari vositasida kelajak taqdirlari bildiriladi. Tushida Alpomishning Barchin bilan turmush qurishi ma‘lum bo‘ladi.

To‘qson alp Alpomishning Qalmoq yurtiga kelayotganini eshitib galma-galdan Murodtepa degan joyda uni kutib navbatchilikka turishadi. Navbat Qorajonga kelganida Alpomish paydo bo‘ladi. Qorajon ham Alpomishni tushida ko‘rgan, tushda ularning ikkovi aka-uka tutingan va Qorajon musulmonlikni qabul qilgan edi. Qorajon Alpomishning oti Boychiborda Barchinga sovchi bo‘lib boradi. Barchin Alpomish kelgan

bo'lsa ham, va'damni buzmayman deydi va hammani yig'ib o'zining 4 shartini e'lon qiladi:

1. *Boboxondan poyga qilib o'zdirsa,
Oti ildam boyvachchaga tegaman.*
2. *Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga,
Men tegaman shu yoyandoz polvonga.*
3. *Ming qadamdan tanga pulni urganga,
Men tegaman shul kirag'ay merganga.*
4. *Kurash qilib to'qson alpni yiqqanga,
Men tegaman nor bilakli polvonga.*

Barchin bu shartlarni qo'yar ekan, albatta, Alpomishning g'olib chiqishiga to'la ishonadi. Poygada qalmoq yurtidan **499 ot qatnashadi, Boychibor bilan 500 ot** bo'ladi. Ko'kaldoshning oti Ko'kdo'nan Boychiborni ko'rib yemdan qoladi.

Shunda Ko'kaldosh Ko'sa sinchidan Boychiborning qanday ot ekanligini so'raydi. Sinchi poygada birorta ot unga teng kelmasligini aytadi. Ko'kaldosh alpning jahli chiqib sinchining ko'zlarini o'yib oladi.

Hamma tayyorgarliklar tugab, Barchinning barcha talabgorlari Boboxon tog'iga birinchi shart – poyga uchun yig'iladilar. Poygada Alpomishning nomidan Qorajon qatnashadi. Ko'kaldosh boshliq qalmoqlar Boychiborning ildamligi va poygada yutishi aniqligini bilib nomardlik yo'liga kiradilar. Kimsasiz tog'da Qorajonni bog'lab tashlab, otning tuyog'iga mix qoqishadi. Qorajon Allohdan madad so'rab, avliyolarni shafe keltiradi. Alpomishning piri Rajabxo'ja eshon arqonlarni yechib tashlaydi, Qorajon kim yechganini sezmay ham qoladi. Boychibor tilga kirib Qorajonga qamchini ayamay urish kerakligini uqtiradi. Qorajon uning aytganini qiladi. Boychibor Qorajon bilan birga poygachilarning oxirgi oti ketayotgan yerga borib tushadi. Keyinchalik Boychibor

bittama-bitta otlardan o‘zib marraga yaqinlashadi. Oxirgi ot Ko‘kdo‘nan edi. Bu ot boshqalaridan anchagina oldinda edi. Poyganing oxirgi masofasida Ko‘kdo‘nan bilan Boychibor musobaqalashadi. Ko‘kaldosh Qorajonni yiqitishga harakat qiladi, ammo bu niyatiga yetolmaydi. «Bularning kelar muddatidan o‘tdi», – deb Alpomish bir baland tepaning ustiga chiqib, durbinini olib yo‘lga qaraydi va ikki otning yo‘l talashib kelayotganini ko‘radi. Birini durbinini bilan taniydi: Ko‘kdo‘nan. Boychibor esa tuyog‘idagi mixlar ozor bergan, oppoq ko‘pikka botgan, tuyog‘idan chiqqan to‘zon bilan to‘riqday bo‘lib ko‘rinadi. Boychiborni tanimay: «Ham otimdan, ham yurtimdan ayrildim», – deb behush bo‘lib yiqiladi. Barchin kelib, Alpomishning holini, yiqilganini ko‘rib, boshini tizzasiga olib, Boychiborni taniydi va unga iltimos qilib tezroq yugurishni so‘raydi:

Qurru-yo qur, hayt-a, to‘ramning oti!

Oq to‘shim – yayloving, sochim – shipirtki.

Barchinning iltimosini Boychibor eshitadi va yanada tezroq yugurishga harakat qilib poygani yutib chiqadi. Barchinoy tishlari bilan Boychiborning tuyog‘idagi gulmixlarni sug‘urib tashlaydi.

Shartlarning keyingilari Oyna ko‘li yoqasida Chilbir cho‘lida davom etadi. Yoy tortish, ming qadamdan tanga pulni urish musobaqalarida ham Alpomish g‘olib chiqadi. Nihoyat, gal kurashga keladi. Alplar bilan avval Qorajon kurashadi va ularning hammasini yengadi. Ammo navbat Ko‘kaldoshga yetganda o‘rtaga Alpomish chiqadi. Ko‘kaldosh alp Alpomishga shunday deydi: «O‘zbek! Sen bunday bo‘yni yo‘g‘onlik qilma, g‘aribi go‘riston bo‘lib o‘lma. Hali ham qo‘ygin. Halak bo‘p kelgan yo‘lingdan qolma...» Bu so‘zni eshitib Alpomish Ko‘kaldoshga shunday javob qaytaradi:

Har kim o‘z eliga bekmi, to‘rami,

O‘zi o‘lmay, kishi yorin berami?

Buncha so‘zni lof urmagin, sen qalmoq,

Kel endi, maydonda turgin, ey ahmoq.

Qattiq bellashuv boshlanadi, ora ochiq bo‘lmaydi. Shunda Barchinoy o‘rtaga tushib Alpomishga Ko‘kaldosh bilan kurash tushishga o‘zi talabgor ekanligini aytadi:

Yiqmasangiz, to‘ram, navbat tilayin,

Erkak libosini o‘zim kiyayin.

... Qizlar sizni narmoda deb aytadi,

Qizlarning aytgani menga botadi.

Mardlar olishmaydi, siltab otadi...

Bu gaplardan alamga tushgan Alpomish Ko‘kaldoshni yengadi. Shartlar bajariladi va qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y bo‘lib, Alpomish Barchinoyga uylanadi. To‘yda barcha rasm-rusumlar, ayollarning «*kampir o‘ldi*», «*it irillar*», «*chach siypatar*», «*qo‘l ushlatar*» kabi marosimlari ham o‘tkaziladi. Alpomish Qo‘ng‘irot elini o‘z yurtiga olib ketmoqchi bo‘ladi. Boysari o‘z yurtiga qaytishdan bosh tortadi. Uning o‘zi Toychaxon yurtida qoladi, qolganlar o‘z ona vatanlariga qaytadilar. Shu voqea bilan birinchi qism tugab, ikkinchisi boshlanadi.

Oradan ma’lum muddat o‘tgach Barchin otasini sog‘inadi va Alpomishni Boysarini olib kelishga ko‘ndiradi. Alpomish Qaldirg‘ochning eri Bektemir va qirq yigit bilan Qalmoq yurtiga otlanadi. Bu yerda uni Surxayilning tuzog‘i kutayotgan edi. Makr bilan Surxayil hamma yigitlarni o‘ldiradi. Ammo Alpomishga qilich o‘tmaydi, u o‘tda yonmaydi. Shuning uchun katta zindon qazishib uni zindonga tashlashadi. Alpomish yetti yil zindonda yotadi.

Boychiborning yordamida yetti yildan so‘ng Alpomish zindondan ozod bo‘lib, Toychaxonni yengadi. Uning o‘rniga boysunlik bir Qayqubod ismli yigitni Qalmoq taxtiga o‘tkazadi. Unga Toychaxonning qizi Tavka oyimni olib beradi. Boysari bu safar ham Qo‘ng‘irotga qaytishdan bosh tortadi. Alpomish o‘z yurtiga qaytib ketadi. Bu yerda Ultontoz ismli bir kimsa Barchinga zo‘rluk bilan uylanayotgan edi. Alpomish Qultoy kiyimida to‘yga kelib, o‘zini tentaklikka solib, ro‘y berayotgan voqealarni zimdan o‘rganadi. To‘qayda yana ramziy musobaqa bo‘ladi. Shu musobaqada Barchin

Alpomishning qalmoqlar elidan qaytganini biladi. To‘y buziladi, Ultontoz o‘z maqsadiga yetolmay jazosini oladi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Folklor atamasi haqida ma'lumot bering.*
2. *O'zbek folkloridagi tur va janrlarga ta'rif bering.*
3. *Maqollarning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?*
4. *Maqollarning tuzilishi haqida so'zlab bering.*
5. *Xalq og'zaki ijodining qaysi janrini topishmoq deb ataymiz?*
6. *Topishmoqlarni yana qanday nomlar bilan atashadi?*
7. *Bir predmetli va bir necha predmetli topishmoqlarga misol keltiring.*
8. *Nasriy va she'riy topishmoqlarga misol keltiring.*
9. *Xalq qo'shiqlari qanday xususiyatlarga ega?*
10. *Qo'shiqlar qanday turlarga bo'linadi?*
11. *Qaysi qo'shiqlarni o'yin qo'shiqlari deya olamiz?*
12. *Mavsum qo'shiqlari sirasiga qaysi qo'shiqlar kiradi?*
13. *Doston haqida ma'lumot bering.*
14. *Xalq dostonlarining qanday turlari bor?*

3. SHE'RIY VAZNLAR

Shoirning ichki kechinmalari ifodasi bo‘lib, ma‘lum bir qolipga solingan ritmik nutq *she'r* deb ataladi. Ijodkorning qalbiga ma‘lum bir voqea-hodisaga nisbatan paydo bo‘lgan munosabat, his-tuyg‘u ichki kechinma deyiladi va mana shu his-tuyg‘u, kechinmaning o‘lchamli nutq holiday bayon etilishi natijasida she'r paydo bo‘ladi. Adabiyotshunoslik ilmida nutqning bu tarzda qolipga, o‘lchamga solinishi vazn yoki she'riy tizim deb ataladi. She'r tizimlari mana shu qolipga solingan nutqqa nimaning asos sifatida olinayotganiga qarab bir-biridan farq qiladi. O‘zbek she'riyatida, asosan, uchta: barmoq, aruz va erkin vaznlar qo‘llanib kelingan.

3.1. Aruz vazni

Aruz vazni VIII asrda arab adabiyotida paydo bo'lgan she'riy tizimdir, uning asoschisi arab musiqashunos va adabiyotshunos olimi *Xalil ibn Ahmad*. Aruz so'zining ko'p ma'nolari bor. Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» asarida ma'lumot berilishicha, aruz so'zi Xalil ibn Ahmad yashagan joy yaqinidagi vodiy, voha nomidan olingan.

IX asr boshlaridan fors-tojik adabiyoti, jumladan, Ro'dakiy, Firdavsiy, Hofiz Sheroziy kabi adiblar ijodida keng qo'llanila boshlagan aruz vazni XI asrda epik she'riyatda ilk marotaba Yusuf Xos Hojib tomonidan «Qutadg'u bilig» dostonida qo'llanildi. Aruz vazni qisqa va cho'ziq bo'g'in (hijo)larning she'r misralarida muayyan tarzda guruhlanib takrorlanishiga asoslanadi. Aruz vaznini o'rganishga kirishish uchun dastlab hijolar sifatiga e'tibor qaratish talab qilinadi.

Aruz vaznida 3 xil hijo bor: *cho'ziq, qisqa va o'ta cho'ziq hijolar*.

1. *Cho'ziq hijo matnda «←» belgisi bilan ifodalanadi.* Bu hijoning ikki xil turi bor:

a) *yopiq bo'g'in orqali ifodalanuvchi cho'ziq hijo.* Matnda «men», «el», «mak-tab», «daf-tar» kabi so'zlar kelsa, ikkilanmasdan ularni yuqoridagi belgi asosida ko'rsatish mumkin. Masalan:

men		el		mak	tab		daf	tar
—		—		—	—		—	—

Demak, bu so'zlarning barchasi cho'ziq hijolardan iborat.

b) *ochiq bo'g'in orqali ifodalanuvchi cho'ziq hijo.* Mazkur hijoni cho'ziq unli hosil qiladi. Ma'lumki, tilimizda 6 unli tovush mavjud. Ularning cho'ziq yoki qisqalik darajasi nisbiydir. Buni ma'lum bir matn tarkibidagi so'zlarni talaffuz qilishda his qilish mumkin. Faqat «o» unlisi aksariyat holatlarda (deyarli 90 foiz o'rinda) cho'ziq talaffuz etiladi. Masalan: «do-no», «bo-bo», «sav-do» kabi so'zlarda «o» unlisi cho'ziq talaffuz etilganligi uchun cho'ziq hijo sifatida qabul qilinadi:

do	no		bo	bo		sav	do
----	----	--	----	----	--	-----	----

–	–		–	–		–	–
---	---	--	---	---	--	---	---

Qolgan unlilar esa quyidagi holatlarda cho‘ziq hijoni hosil qiladi:

- ko‘pincha so‘zning oxirida;
- qo‘shimcha tarkibida;
- urg‘u olganida.

Misol uchun «ha-yot-ga» so‘zini olib ko‘raylik. Bu so‘zdagi «ha-» va «-ga» bo‘g‘inlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan bir xil darajada: har ikkisi ham ochiq bo‘g‘in, har ikkisi ham «a» unlisi bilan yakunlanyapti. Lekin aruziy matnda «-ga» bo‘g‘ini qo‘shimcha tarkibida kelganligi va urg‘u olganligi uchun «ha-» bo‘g‘inidan ko‘ra cho‘ziqroq talaffuz qilinadi. Shu sababli ham u cho‘ziq hijo hisoblanadi. Shu tariqa «jab-ru», «ki-yik-ni» so‘zlaridagi oxirgi bo‘g‘inlar cho‘ziq hijo hisoblanadi va ular matnda quyidagicha belgilanadi:

jab	ru		ki	yik	ni
	–				–

Ushbu so‘zlardagi «jab-», «-yik» bo‘g‘inlari cho‘ziq hijoning birinchi turiga kiradi, ya’ni yopiq bo‘g‘inli cho‘ziq hijo. Agar bu holni to‘liq shaklda ko‘radigan bo‘lsak, quyidagi manzara yuzaga keladi:

jab	ru		ki	yik	ni
–	–			–	–

Eslatma!

Kirill alifbosidagi ayirish (Ѣ), lotin alifbosidagi tutuq (‘) belgisi arab alifbosida «ayn» (ع) undosh tovushini ifodalagani uchun o‘zbek tilida bu belgi bilan yakunlanuvchi – tugovchi bo‘g‘inlar (lotin alifbosida yoziladigan as’hob (ashob), mus’haf (mushaf) so‘zlaridagi belgi bundan mustasno) cho‘ziq hijo hisoblanadi.

Masalan:

ma'	no		ta'	lim		a'	lo
—			—			—	

2. **Qisqa hijo matnda «V» belgisi bilan ifodalanadi.** Bunday hijo doim ochiq bo'g'inga asoslanadi. Faqat mazkur hijoni ifodalovchi ochiq hijo yuqoridagi holatdan farq qilib, qisqa unli bilan yakunlanishi kerak. Demak, bu o'rinda endi «o» unlisining kelish ehtimoli kamroq (10 foizga yaqin hollarda). Ba'zi so'zlardagina, xususan, «bo-shim», «to-pib», «so-tib» kabi so'zlarda «o» unlisi qisqa talaffuz qilinganligi uchun qisqa hijo hisoblanadi:

bo	shim		to	pib		so	tib
V			V			V	

Qolgan unlilar esa ko'pincha so'zning boshi hamda o'rtasida keladi va hech qachon urg'u olmaydi. Masalan:

ki	tob		ja	hon		mu	him
V			V			V	
ko'	rik		kel	ma	di		
V				V			

3. **O'ta cho'ziq hijo matnda «- V» belgisi bilan ifodalanadi.** Misra oxirida esa «~» belgisi qo'llaniladi. Chunki misra qisqa hijo bilan yakunlanmaydi.

Ma'lumki, aruzda cho'ziq hijo bir to'liq bo'g'in hisoblansa, qisqa hijo yarim bo'g'inga teng sanaladi. Shuni nazarda tutgan holda o'ta cho'ziq hijoni bir yarim hijo deyish mumkin. Bu hijo ikki turli bo'ladi:

a) **qator undosh bilan tugagan yopiq bo'g'in.** Bunda bir bo'g'inda ikki turli undoshning ketma-ket kelishi nazarda tutiladi. Masalan, qadr, mehr, charx, aql kabi so'zlar qator undoshli so'zlar hisoblanadi. Bu hodisa o'zbek tiliga xos bo'lmay, arab va

fors tillaridan kirgan o‘zlashma so‘zlarda uchraydi. Shuning uchun talaffuzda biz birinchi undoshdan so‘ng qisqa «i» unlisini qo‘shib aytamiz: qad(i)r, meh(i)r... kabi. Aslida, qisqa «i» unlisi ikkinchi undoshdan so‘ng talaffuz qilinishi kerak. Chunki mazkur so‘zlarni urg‘u asosida talaffuz qilsak, ular tarkibidagi unlini cho‘ziq aytishimiz hisobiga bo‘g‘inning oxirida qisqa «i» unlisi orttiriladi, ya’ni:

Méhr(i), qádr(i), chárx(i) va h.k.

Eslatma!

Bunda orttirilayotgan «i» tovushi odatiy talaffuzdagi «i»dan ham qisqa, bilinar-bilinmas talaffuz etiladi.

Natijada ushbu bo‘g‘inlarga ikki belgi qo‘yiladi:

meh	r(i)	qad	r(i)	char	x(i)
–	V	–	V	–	V

b) tarkibida cho‘ziq unlisi bo‘lgan yopiq bo‘g‘in. Bu bo‘g‘inning oddiy yopiq bo‘g‘indan farqi shundaki, uning tarkibida nisbatan cho‘ziqroq talaffuz qilinuvchi unlilar (aksariyat holatlarda «o», «e» tovushlari) qatnashadi. Masalan: hech, dod, voy kabi so‘zlarni talaffuz qilayotganda bo‘g‘in oxiridagi undosh tovushdan keyin yuqoridagi kabi qisqa «i» qo‘shib o‘qiladi: hech(i), dod(i), voy(i). Bu so‘zlar matnda quyidagicha belgilanadi:

he	ch(i)	do	d(i)	vo	y(i)
–	V	–	V	–	V

Boburning quyidagi baytini ko‘rib chiqsak:

Charxning men ko‘rmagan jabr-u jafosi qoldimu,

Xasta ko‘nglum chekmagan dard-u balosi qoldimu?

Endi baytdagi har bir so‘zni o‘zlashtirilgan qoidalar asosida cho‘ziq, o‘ta cho‘ziq va qisqa hijolarga ajratamiz:

Char	x(i)	ning	men	ko‘r	ma	gan	jab	ru	ja	fo	si	qol	di	mu
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–
Xas	ta	ko‘ng	lum	chek	ma	gan	dar	du	ba	lo	si	qol	di	mu
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–

Endi ushbu chizmalarni alohida holatda ko‘rsak:

– V – – – V – – – V – – – V – –
 – V – – – V – – – V – – – V – –

Ko‘rinyaptiki, birinchi misradagi chizma ikkinchi misra uchun ham mos keladi. Umuman, bu holat aruz vazni uchun xos bo‘lib, ikkala misradagi cho‘ziq va qisqa hijolar nisbati o‘zaro mutanosib bo‘lishi shart. Yana bir baytni misol tariqasida ko‘rsak:

Bu kun kulbamga, jono, xush kelibsiz,

Tilak bo‘ldi muhayyo, xush kelibsiz.

Bu	kun	kul	bam	ga	jo	no	xush	ke	lib	siz
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–
Ti	lak	bo‘l	di	mu	hay	yo	xush	ke	lib	siz
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–

Mazkur chizmaning umumiy ko‘rinishi quyidagichadir:

V – – – V – – – V – –

V – – – V – – – V – –

Bahr va ruknlar

Shu tariqa baytdagi hijolarning qisqa yoki cho‘ziqligini o‘zlashtirganimizdan so‘ng rukn va bahr haqida tushuncha hosil qilib olishimiz kerak.

*Ajab, vaslingga men endi yetishganda ko‘rindi moh,
Masal borkim, og‘iz boshga, burun toshga tegibdur, voh.*

Ushbu baytni cho‘ziq va qisqa hijolarga ajratib chiqqanda chizmalarning quyidagicha ekanligini ko‘rish mumkin:

V – – – V – – – V – – – V – – –
V – – – V – – – V – – – V – – –

Bunda bir qisqa hijodan keyin uchta cho‘ziq hijoning takrorlanib kelayotganligi ko‘rinadi: V – – – (qisqa, cho‘ziq, cho‘ziq, cho‘ziq). Aynan mana shu bo‘lak butunicha qaytarilib kelyapti. Takrorlanayotgan bo‘lakni biz rukn deb ataymiz. Demak, mazkur baytda to‘rtta rukn mavjud. Barcha ruknlarda bitta qisqa va uchta cho‘ziq hijo bor. Ruknlarning takrori ikkala misrada ham bir xil. Ushbu holat baytning ohangdorligini ta‘minlayapti.

Ko‘rib o‘tgan misollarimizdan kelib chiqib rukn tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berish mumkin:

Rukn arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida «ustun» degan ma‘noni bildiradi. Aruz tizimida esa ma‘lum bir hijolarning birikuvidan hosil bo‘ladigan ritmik bo‘lakdir.

Hijolarning takroridan ruknlar hosil bo‘lgani kabi ruknlarning muayyan tarzda takrorlanib kelishi ***bahrlarni shakllantiradi.***

Buni soddaroq shaklda quyidagicha tushunish mumkin:

Aruz deganda biror o‘quv yurti (litsey yoki kollej)ni) tushunsak, bahr deganda undagi yo‘nalishlarni tasavvur qilaylik. Bilamizki, yo‘nalishlarning o‘z nomlari (masalan, «Aniq fanlar», «Ijtimoiy-gumanitar» va h.k.) bor. Demak, bahrlar ham nomlanadi. Arab aruzida 19 bahr mavjud. Turkiy aruzda ularning 11 tasigina qo‘llanadi. Shu 11 bahrning ichida 4 tasi nisbatan faol hisoblanadi. Ular ham yuqoridagi yo‘nalishlar kabi nomlanadi, masalan, ramal, hazaj, rajaz, mutaqorib. Bilamizki, har bir yo‘nalishning tayanch fanlari bor. Shunga o‘xshab bahrlar ham muayyan ruknlarga ega. Bular asliy ruknlar hisoblanadi. Hozir yuqorida aytib o‘tilgan 4 bahrning ruknlari (ustunlari) qanday nomlanishini bilib olishimiz zarur.

Ramal bahrining ustuni, ya’ni rukni quyidagicha chiziladi: – V – – (cho‘ziq, qisqa, cho‘ziq, cho‘ziq). Bu rukn foilotun deb ataladi. Bir nuqtaga e’tibor bering: fo – cho‘ziq, i – qisqa, lo – cho‘ziq, tun – qisqa. Demak, rukn nomi uning chizmasini o‘zida aks ettirar ekan.

Shu tariqa qolgan 3 ta bahrning ruknlari nomlari bilan tanishib chiqsak, quyidagicha manzara hosil bo‘ladi:

№	Bahr nomi	Rukn nomi	Chizmadagi shakli
1	Ramal	Foilotun	– V – –
2	Hazaj	Mafoiylun	V – – –
3	Rajaz	Mustafilun	– – V –
4	Mutaqorib	Fauvlun	V – –

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: demak, rukn baytlarda takrorlanib keladigan ritmik bo‘lak ekan, bu qay tartibda amalga oshadi? Ya’ni bir misrada yoki bir baytda nechta rukn keladi? Ular qanday nomlanadi?

Bu haqda bilib olish uchun, keling, yana biror g‘azaldan bayt olib tahlil qilamiz:

Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu,

Masldurkim: «Charog‘ tubi qorong‘u».

Lutfiy qalamiga mansub ushbu baytdagi hijolarni cho‘ziq va qisqa hijolarga ajratsak ushbu manzarani ko‘ramiz:

V – – – V – – – V – –

V – – – V – – – V – –

E’tibor berilsa, hazaj bahri rukni V – – – (mafoiylun) birinchi misrada uchta, ikkinchi misrada ham uchta. Faqat har bir misradagi uchinchi rukn V – – (qisqa, cho‘ziq, cho‘ziq) shaklida bo‘lib, bu holatga keyinroq batafsil to‘xtalamiz. Hozir e’tiborimizni baytdagi ruknlarning miqdoriga qaratamiz. Ikkala misradagi ruknlar soni oltitani tashkil etyapti. Arab tilida bu holat *musaddas (oltilik)* deyiladi.

Yana bir baytni tahlil qilaylik:

Murodingga yetay desang qalandar bo‘l, qalandar bo‘l,

Sitam ahlin yutay desang qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.

(Mashrab)

Bayt hijolarga ajratilganda hosil bo‘lgan chizma:

V – – – V – – – V – – – V – – –

V – – – V – – – V – – – V – – –

Demak, baytdagi ruknlar soni sakkizta. Bu arab tilida *musamman (sakkizlik)* deyiladi. Rukn nomi esa mafoiylun ekaniga guvoh bo‘ldik. Ruknlar soni, shuningdek, bir baytda to‘rtta ham bo‘lishi mumkin. Bu *murabba’ (to‘rtlik)* deyiladi. Ruknlar sonini bilish bayt vaznini nomlashda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, biz shu o‘rinda ruknlarning bayt tarkibida qay holatda kelishini ham bilishimiz zarur. Chunki bu ham bayt vaznini aniqlashda va nomlashda juda muhim.

Yuqorida Lutfiyning:

Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu,

Masldurkim: «Charog‘ tubi qorong‘u», –

baytini tahlil qilganimizda uchinchi rukn to‘liq mafoiylun (V – – – qisqa, cho‘ziq, cho‘ziq, cho‘ziq) emas, balki V – – (qisqa, cho‘ziq, cho‘ziq) shaklda ekanligiga guvoh bo‘ldik. Oxirgi hijo tashlab yuborilganligi uchun bu holatni **mahzuf (oxiri tashlangan)** deb ataymiz. Manzarani umumlashtirib quyidigicha xulosa qilish mumkin:

- 1) *ruknlar hazaj bahriga tegishli;*
- 2) *ularning baytdagi soni oltita (musaddas);*
- 3) *hazajning rukni mafoiylun deb nomlanadi;*
- 4) *oxirgi hijo tashlab yuborilgan (mahzuf).*

Endi bayt vaznining nomi quyidagicha ekanligini ko‘rishimiz mumkin: **hazaji musaddasi mahzuf.**

Yuqorida tahlil qilganimiz – Mashrabning:

*Murodingga yetay desang qalandar bo‘l, qalandar bo‘l,
Sitam ahlin yutay desang qalandar bo‘l, qalandar bo‘l, –*

baytining hijolarini aniqlaganimizda quyidagi holatni ko‘rgan edik:

V – – – V – – – V – – – V – – –
V – – – V – – – V – – – V – – –

Har ikkala misradagi ruknlar to‘liq, tashlab yuborilmagan, bu holat **solim (sog‘lom)** deyiladi. Ruknlari soni sakkizta ekanligini hisobga olib bayt vaznini nomlasak, uning **hazaji musammani solim** ekanligi ma‘lum bo‘ladi.

Baytlar hijolarining chizmadagi shakli taqti‘ deyiladi. Taqti‘ arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida «kesish» ma‘nosini bildiradi. Chunki biz har bir ruknni alohida «qirqib» olamiz:

V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

V - - - / V - - - / V - - - / V - - -

Ruknlarning nomlarini alohida yozib chiqsak ham yuqoridagi manzaraga hamohanglikni ko‘ramiz:

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun
mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Chizma shaklida ruknlarni «/» belgisi bilan ajratyapmiz.

Vasl hodisasi

Ko‘plab g‘azallarning vaznini aniqlashda biz vasl hodisasiga duch kelamiz. Xo‘sh, g‘azaldagi vasl nima?

«Vasl» arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida «uchrashuv», «birlashuv» kabi ma’nolarni anglatadi. G‘azal baytidagi bir so‘zning o‘zidan keyin kelayotgan unli harf bilan boshlangan so‘zga qo‘shib o‘qilishi vasl deyiladi. Buni yaxshiroq tushunish uchun bir baytni olib tahlil qilib ko‘raylik:

Tun oqshom bo‘ldi-yu, kelmas mening sham‘i shabistonim,

Bu anduh o‘tidin har dam kuyar parvonadek jonim.

(Alisher Navoiy)

Birinchi misradagi tun so‘zini biz qoida bo‘yicha cho‘ziq deb olamiz, shunda ikkala misradagi qolgan so‘zlarning ham hijolarini aniqlasak, quyidagi manzara paydo bo‘ladi:

- - - - / V - - - / V - - - / V - - -

V - - - / V - - - / V - - - / V - - -

Bir qaraganda hazaji musammani solim vaznidagi she'r. Lekin birinchi misradagi ilk hijo nega cho'ziq? U qisqa bo'lishi kerak emasmi? Ha, bu hijo qisqa bo'lishi kerak, shuning uchun *tun* so'zini o'zidan keyin kelayotgan *oqshom* so'ziga qo'shib o'qiymiz:

Tunoqshom bo'ldi-yu, kelmas mening sham'i shabistonim.

Bo'g'inga ajratsak, *tu-noq-shom* deb ajratamiz va o'qiymiz. Ana shunda vazn talabi bilan ilk hijoning qisqa kelishini ko'ramiz. Ayni shu hodisani vasl deb ataymiz. Vasl hodisasi mumtoz adabiyotimiz janrlarida yozilgan juda ko'plab she'rlarda uchraydi va buni bilish she'rning vaznini to'g'ri aniqlab o'qishda, ayniqsa, muhimdir.

3.2. *Barmoq vazni*

Barmoq vaznidagi she'rlar hijolarning cho'ziq va qisqaligiga emas, balki bo'g'inlarning miqdoriga asoslanadi. Shunga ko'ra, barmoq vaznida yozilgan she'rning misrasi besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz va undan ortiq bo'g'inlardan tashkil topishi mumkin. Masalan:

Qani, ayt, maqsading nimadir sening? – 11 bo'g'in

Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang? – 11 bo'g'in

Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim, – 11 bo'g'in

Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am? – 11 bo'g'in

Misralardagi bo'g'inlar soniga qarab *turkum* belgilanadi. Yuqoridagi misolda barcha misralardagi bo'g'inlar soni 11 ga teng bo'lganligi uchun ushbu she'r «o'n birlik» turkumida yozilgan deb qaraladi. O'zbek she'riyatida hammasi bo'lib *13 xil (5 lik turkumidan 17 lik turkumigacha)* turkumdan foydalaniladi. Shulardan yettilik, to'qqizlik, o'n birlik, o'n ikkilik turkumlari nisbatan keng qo'llaniladi.

Barmoq she'r tizimida misralardagi bo'g'inlarning miqdori asosiy mezon hisoblanadi. Barmoqda ikki xil vazn bor: *sodda vazn, qo'shma vazn*. Agar she'rning

boshidan oxirigacha misralardagi bo‘g‘inlar miqdori bir xil bo‘lsa, *sodda vazn* deyiladi.

Masalan:

Ko‘k yuzida pag‘a bulut – oq bulut, – 11 bo‘g‘in

Oq bulutdan sut yog‘armi yoki qut? – 11 bo‘g‘in

Pag‘a bulut – yaxshi ko‘klam elchisi, – 11 bo‘g‘in

Havolarda yomg‘ir isi, sel isi... – 11 bo‘g‘in

Misralardagi bo‘g‘inlar miqdori ikki-uch xil ko‘rinishda bo‘lsa, *qo‘shma vazn* deb ataladi. Qo‘shma vaznda bo‘g‘inlar miqdori bir xil bo‘lmagan misralarning muayyan tartibi she‘r oxirigacha qat‘iy saqlanadi. Masalan, Mirtemirning:

Alisherga alla aytib uxlatgan – 11 bo‘g‘in

Sen – ona. – 3 bo‘g‘in

Og‘ushida Bobur kamolga yetgan – 11 bo‘g‘in

Sen – ona. – 3 bo‘g‘in

misralari bilan boshlanuvchi she‘rida barcha toq misralardagi bo‘g‘inlar miqdori bir xil, barcha juft misralardagi bo‘g‘inlar miqdori boshqacha xil ko‘rinishga ega. E.Vohidovning «Majnuntol» she‘rini ham qo‘shma vaznga misol qilish mumkin:

Qubbon sohilida qomating bukib, – 11 bo‘g‘in

Oltin barglaringni ko‘l uzra to‘kib – 11 bo‘g‘in

Nimalar haqida surasan xayol, – 11 bo‘g‘in

So‘yla, majnuntol. – 5 bo‘g‘in

Ko‘rib turganimizdek, mazkur she‘r bandlarining so‘nggi to‘rtinchi misrasi bo‘g‘inlar miqdori yuqoridagi misralardan farq qiladi. Mana shu 11 – 11 – 11 – 5 ko‘rinish to she‘rning oxirigacha davom etadi.

Barmoq she‘r tizimida misralardagi bo‘g‘inlarning muayyan guruhlarga bo‘linishi turoq deb ataladi. Turoq pauza bilan ajratilgan, teng bo‘laklardan tuzilgan va misralar

bo'yicha ma'lum bir tartibda takrorlanadigan misra bo'lagidir. Bo'g'inlarning qanday ko'rinishda turoqlarga bo'linishi esa she'rning o'ziga xos ritmi, ohangini keltirib chiqaradi.

Solishtiring:

4 **5**
Garchi shuncha/ mag'rur tursa ham **4+5=9**
Piyolaga/ egilar choynak. **4+5=9**
Shunday ekan/ manmanlik nechun, **4+5=9**
Kibr-u havo/ nimaga kerak? **4+5=9**

Yoki

3 **3** **5**
Yigitlar/ maktubin/ bitganda qondan, **3+3+5=11**
Kelinlar/ firoqdan/ chekkanda yohu. **3+3+5=11**
Uning ham/ panohi/ qaytmadi jangdan, **3+3+5=11**
O'n to'qqiz/ yoshida/ beva qoldi u. **3+3+5=11**

Yoki

6 **5**
Tuproq ko'chalardan/ chopgan bolalik **6+5=11**
Yillar changi ichra/ asta yo'qoldi. **6+5=11**
Bolalik ketdi-yu/ sho'x suhbatlarda **6+5=11**
Uni kula-kula/ eslamog qoldi. **6+5=11**

She'rdagi turoqlar, misralar yoki bandlar orasidagi to'xtalish pauza deb ataladi.

Turoq va misralar orasida, odatda, juda qisqa to'xtalish bo'ladi va u kichik pauza deyiladi.

Bandlar orasidagi to‘xtalish esa nisbatan kattaroq bo‘ladi va u katta pauza deyiladi. Ba’zan bandlar orasidagi to‘xtalishlar miqdori she’rning mazmuni, o‘ziga xos ritmiga ko‘ra bir-biridan farqlanishi mumkin. Quyidagi misolda birinchi va ikkinchi bandlar orasida juda qisqa to‘xtalish bo‘ladi, shuning hisobiga ikkinchi va uchinchi bandlar orasida ancha katta pauza qilinadi:

*Bas, yetar, cholg‘uchi, bas qil sozingni,
Bas, yetar, ko‘ksimga urmagil xanjar.
Nahotki, dunyoda shuncha g‘am bordur,
Agar shul munojot rost bo‘lsa, agar.*

*Agar aldamasa shu sovuq simlar,
Gar shul eshitganim bo‘lmasa ro‘yo.
Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,
Sen ona emassan, jallodsan, dunyo.*

3.3. Erkin vazn

Vazndan vaznga ko‘chishga asoslangan she’riy tizim **erkin vazn** sanaladi.

Erkin (sarbast) vaznda misralardagi hijolar miqdori, ularning cho‘ziq yoki qisqaligi hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Erkin she’r «**verlibr**» (**fransuzcha vers – she’r, libres – erkin so‘zlaridan**) degan xalqaro atama bilan ham yuritiladi. Bunda misralarning turlicha turoqlanishi, qofiyalanishdagi erkinlik shoirga o‘z fikrini izchil ifodalash imkonini beradi. Erkin she’rda ohangdorlik va ifodalilik talabi, she’r g‘oyasi va shoir maqsadini ochib beruvchi har bir so‘z ijodkor xohlagan tartibda alohida satrlarga chiqarilishi mumkin. Cho‘lpon, H.Olimjon, G‘.G‘ulom, M.Shayxzoda, Usmon Nosir, Mirtemir kabi shoirlar ijodida erkin she’rning ajoyib namunalari uchraydi.

Mirtemirning «Onaginam» she’ri erkin vaznda yaratilgan she’rning eng go‘zal namunasi hisoblanadi:

Onaginam

Tovonimga chaqir tikanakday botguvchi – g‘ashlik.

Bedavo sizloviqday sizlatguvchi – g‘ashlik.

Jigarimni qiymalab ahyon-ahyon

Chuchvaraga chekkuvchi – g‘ashlik.

Meni o‘ylab notavon va nimjon,

G‘ashimga tekkuvchi – g‘ashlik.

Suyaklarimni sirqiratib

och tevatday g‘ajiguvchi,

Ko‘zimda yosh tirqiratib,

jig‘ildonimda achchiq bo‘zaday

achiguvchi – g‘ashlik...

Dunyoga qayta kelishimga ko‘zim yetsaydi,

Yigit yoshimga to‘lmay turib,

Ayriliq zaylida qoq yog‘ochday qurib,

Jon bergan onamni ko‘rishimga ko‘zim yetsaydi,

Tizzasiga bir nafas bosh qo‘yishimga ko‘zim yetsaydi,

Onalik mehriga obdan to‘yishimga ko‘zim yetsaydi,

«Oq sutingni oqlay», – deyishimga ko‘zim yetsaydi,

Menda g‘ashlik netardi?

Yantoq o‘tinidek,

Tamaki tutunidek,

Tong paytida taralgan badbaxtlik tunidek –

Cheksiz fazolarga tarqab ketardi!

Onaginam!

Odam bo‘ldimmi menam?

Yigit yoshimgacha bir chelak suv keltirib

bermagan bo‘lsam,

Yo tashnaligingda bir kosa sharbat to‘ldirib

*bermagan bo'lsam,
Yo non yopishing uchun
Hatto bir yo'la bir kun
Sahrodan o'tin orqalab kelmagan bolangman...
Yo sigirni podadan ayirib,
Yo echkini hovliga qayirib,
Og'zingdan so'z chiqmay yelmagan bolangman...
Sening arzimas bir yumushingni ado etolmaganim,
Sening bir ishorangga yuz o'mbaloq oshib
ketolmaganim.
Seni jindak xushvaqt qilgani,
Seni jindak xushbaxt qilgani
Tagsiz jarlardan o'tolmaganim,
Seni so'nggi yo'lga o'zim kuzatolmaganim –
Tog'day zil,
Abadiyatday cheksiz armon bo'lib qoldi dilimda,
onaginam!
Odam bo'ldimmi menam?
Ha, odam sanashar meni elimda.
Senga qilolmagan xizmatim,
Sen deb chekolmagan zahmatim –
Jindak zehnim, jindak she'rim, jindak g'azalxonligim,
Onalik mehriga to'ymagan mehrim, jindak yaxshilik va
yomonligim
Meni odam sanagan elimga baxshida, jafodiyda
onaginam!
Elga xizmatim – senga xizmatim emasmi, axir,
El meni farzandim demasmi, axir!
Rozi bo'l, odam sanalay menam...
Dunyoga qaytib kelurman,*

Lekin boshqa o‘g‘il bo‘lib...

Savol va topshiriqlar:

1. *O‘zbek she‘riyatida necha xil vazndan foydalaniladi?*
2. *Aruz vazni haqida umumiy ma‘lumot bering.*
3. *Rukn va bahr deganda nimani tushunasiz?*
4. *Barmoq vaznining o‘ziga xos jihatlari haqida ma‘lumot bering.*
5. *Turkum va turoq nima?*
6. *Sodda va qo‘shma vaznlar haqida ma‘lumot bering.*
7. *Erkin vaznning o‘ziga xos jihatlari nimada?*

4. QOFIYA VA RADIF

She‘rning asosiy unsurlaridan biri qofiyadir. *Misra yakunida so‘z, qo‘shimcha, ba‘zan esa so‘z birikmalarining ohangdosh bo‘lib kelishi qofiya deyiladi.*

Qofiya lirik asarning musiqiyliги, ohangdorligi va ta‘sirchanligini kuchaytiradi, asarning yod olinishini osonlashtiradi. She‘r o‘qiganimizda, yoddan aytganimizda yoki uni tinglaganimizda qofiya misraning tugaganligidan darak berishini yaqqol his qilamiz:

*Boshing egib ta‘zim ayla, shukrona ayt
Seni guldek erkalagan **chaman uchun,**
Osmonlarda yurgan bo‘lsang tuproqqa qayt,
Aytgil, do‘stim, nima qildik **Vatan uchun?**
(Iqbol Mirzo)*

She‘r tuzilishida, uning musiqiyliğini kuchaytirishda ohang hosil qiluvchi va uni kuchaytiruvchi qofiyaning katta ahamiyati bor.

Qofiya bir so‘z bilan yuzaga chiqmaydi. Qofiya uchun ikki va undan ortiq ohangdosh so‘zlar uyg‘unligi bo‘lishi kerak. Ular qofiyadosh so‘zlar deyiladi. Ohangdoshlikni bu so‘zlardagi raviiy deb ataluvchi unli yoki undosh bo‘lgan tirkak tovush hosil qiladi.

Raviy arabcha «*rivo*» soʻzidan olingan boʻlib, «*yukni tuyaga bogʻlaydigan arqon*» maʼnosini bildiradi. Arqon tuya ustiga ortilgan yuklarni mahkam birlashtirib turganidek, raviy ham sheʼrning qofiyalanuvchi barcha misralarini biriktirib, oʻzaro bogʻlab turadi.

Qofiyadosh soʻzlarda raviy qatʼiy bir oʻrinda keladi. Bu harf qofiyalanuvchi soʻzlar tarkibida aynan takrorlanib kelishi shart. Raviy tub soʻzlarda oʻzak oxirida, yasama soʻzlarda esa negiz soʻngida keluvchi choʻziq unli yoki undosh harfdir. Masalan, «Anor» chistonidagi «nishon», «makon», «qon» qofiyadosh soʻzlarida «n» undoshi raviy hisoblanadi. Ularda qofiya raviy bilan tugagan. «Yongʻoq» chistonining birinchi baytidagi «boshida», «qoshida» qofiyadosh soʻzlarida «sh» tovushi raviydir. Chunki qofiyadosh soʻzlarning oʻzagi «sh» bilan tugagan. Lekin bu chistonda qofiya raviydan keyin ham davom etmoqda. Raviy bilan tugallangan qofiyalarni *muqayyad* («*bogʻlangan*») deb, raviydan keyin harflar kelgan qofiyalarni *mutlaq* («*toʻliq*») qofiya deb atash qabul qilingan. Masalan, Alisher Navoiyning «Sabʼayi sayyor» dostonidan olingan quyidagi baytga eʼtibor qaratsak:

*Ham tanumand-u ham shujo-u daler,
Ul sifatkim jazira ichraki sher.*

Ushbu baytda «*daler*» va «*sher*» soʻzlari qofiya boʻlib, raviy «*r*» harfidir, qofiya *raviy harfi bilan tugallangani* uchun muqayyad qofiya hisoblanadi. Navbatdagi baytda esa mutlaq qofiyaning qoʻllanilganini koʻramiz:

*Topqamen, shoyad, ushbu savdoda,
Gavharimdin nishona daryoda.*

Mazkur baytda «*savdoda*» va «*daryoda*» soʻzlari qofiya hisoblanadi, raviy «*o*» unlisi boʻlib, raviydan keyin *-da* qoʻshimchasi kelyapti. Shu sababli bu qofiya mutlaq, yaʼni toʻliq qofiya sanaladi.

Mumtoz sheʼr ilmida raviy soʻzning asosi (oʻzagi)da boʻlishi talab etilgan. Ammo ijod amaliyotida baʼzan bu talabdan chetga chiqishlar ham kuzatiladi. Uvaysiyning «Kun

va tun» chistonida ham shu holatni ko‘ramiz. «Ko‘rmagan» – «sig‘magan» qofiyasidagi raviy («n» tovushi) o‘zakda emas, qo‘shimchaning tarkibida joylashgan.

Eslab qolish kerakki, «*lola – piyola*», «*banda – xanda*» kabi qofiyalarda «a» unlisi emas, balki «l» hamda «d» undoshlari raviy hisoblanadi. So‘zdagi cho‘ziq unilargina raviy bo‘la oladi. Qisqa unililar raviy bo‘lolmaydi. Masalan, shoiraning «Uvaysiyman» radifli g‘azalida «*mubtalo*», «*oshno*», «*muddao*», «*mosivo*» so‘zlaridagi «o» unlisi raviydir.

Qofiyadan keyin takrorlanadigan so‘z yoki so‘zlar birligi *radif* deyiladi. Radif arabcha «otning orqasiga mingashib, ergashib boruvchi» ma’nosini bildiradi. Uvaysiyning:

*Bu kun, ey do‘stlar, farzandi jononimni sog‘indim,
Gado bo‘lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog‘indim, –*

bayti bilan boshlanuvchi she’rida «*jononimni*», «*davronimni*» kabi so‘zlar qofiyadosh bo‘lsa, ulardan keyin takrorlanuvchi «sog‘indim» so‘zi radifdir.

Radif bir necha so‘zdan ham iborat bo‘lishi mumkin. Uvaysiyning:

*Ki bulbul nola, afg‘on aylamakni mendin o‘rgandi,
Vujudin sham‘i so‘zon aylamakni mendin o‘rgandi, –*

baytida «*afg‘on*», «*so‘zon*» qofiyasidan keyingi uch so‘zdan iborat «aylamakni mendin o‘rgandi» radif bo‘lib kelgan.

Radif uyushiq bo‘lakli so‘zlardan iborat bo‘lishi ham mumkin:

*Xil‘atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil,
Shu‘layi ohim chiqar har yon qizil, sorig‘, yashil.
(Alisher Navoiy)*

Ba‘zan takrorlanuvchi so‘z qofiyadan oldin kelishi ham mumkin. Bunday so‘zlar *hojib* deyiladi. Hojib arabcha «*hijob*» so‘zidan olingan bo‘lib, «pardali» degan ma’noni

bildiradi. Ya'ni bunda go'yo hojibning qofiya oldidan kelib uning yuzini to'sib turishi nazarda tutiladi. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonidan olingan:

*Tig' ila yorib jigarim yonini,
Yerga oqizdi jigarim qonini, –*

baytida «**yonini, qonini**» so'zlari qofiya bo'lib, «jigarim» so'zi qofiyadan oldin kelib takrorlangani uchun hojib hisoblanadi. Ba'zan radif ham, hojib ham bir bayt tarkibida kelishi mumkin. Zahiriddin Muhammad Boburning:

*Sendek menga bir yori jafokor topilmas,
Mendek senga bir zori vafodor topilmas, –*

baytida «**topilmas**» so'zi radif, bir so'zi hojib bo'lib, qolgan so'zlar qofiyadir.

She'riyatda qofiyaning bir necha turlari mavjud: **to'liq (to'q) va to'liqsiz (och) qofiya, unlilar yoki undoshlar ohangdoshligiga asoslangan qofiyalar.**

To'liq (to'q) qofiyada qofiyadosh so'zlarning tovush tarkibi to'la mos keladi: «bahorim – dildorim», «so'ralar – mo'ralar», «yuragimgacha – suyagimgacha» va boshqalar.

To'liqsiz (och) qofiyalarda so'zlarning tovush tarkibi qisman mos keladi: «dahriy – qahridan», «tutun – Alovuddin» singari.

Qofiyalarning tartibi degan tushuncha ham bor. U she'r bandidagi misralarning o'zaro qofiyalanish tartibini anglatadi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Qofiya nima?*
2. *Raviy harfi haqida ma'lumot bering.*
3. *Mutlaq va muqayyad qofiyalar qanday vujudga keladi?*
4. *Radif va hojibning o'xshash va farqli jihatlari haqida fikr yuriting.*

5. SHE'RIY SAN'ATLAR

She'riy san'atlar badiiy asardan o'rin olgan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar va bandlarning musiqiyiligini oshirishga xizmat qiladi. She'riy san'atlar haqidagi fan mumtoz adabiyotimizda **ilmi bade'** (*badiiylik ilmi*) deb yuritilgan. Shuningdek, bu ilm «*Badoye' us-sanoye'*» deb ham atalib, «*badiiy san'atlar*» ma'nosini bildiradi. «**San'at**» «**sun'**», ya'ni «*yaratmoq*» so'zidan olingan bo'lib, badiiylik yaratish demakdir. Badiiylik yaratishning yo'llari ko'p. Badiiy san'atlar ikkiga: **ma'naviy** (ma'noga tegishli) va **lafziy** (shaklga oid) san'atlarga bo'linadi.

Tazod

Tazod (arabcha «*zid*», «*qarama-qarshi*») – she'rda tuyg'u va holatni ma'no jihatidan bir-biriga zid, qarama-qarshi so'z, fikr va tushunchalar orqali ifodalash san'ati.

- *Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot*

Ro'zgorimdek ham o'lg'onda qorong'u kelmadi

(Navoiy)

Mazmuni:

Kecha oydin ekanda agar ehtiyot qilib kelmagan bo'lsa, tun ro'zg'orimdek qorong'u bo'lganda ham kelmadi.

Tazod: **oydin ↔ qorong'u**

- *Zohid, menga bir shishada may, senga namozing,*

Ming taqvini bir kosayi mayga sota qoldim.

(Mashrab)

Mazmuni:

Ey zohid, menga bir shishada may (Alloh ishq), senga esa namoz muhim; ming taqvi

(shariat hukmlari)ni bir kosa may (Alloh vasli)ga almashtiraman.

Shartli tazodlar: **may↔namoz, men↔zohid, menga↔senga, ming↔bir, taqvi↔bir kosa may.**

- *Birni Qipchoq-u Xito-yu, birni Yuz, Nayman demang, Qirq-u Yuz, Ming son bo'lub, bir xon oyinlik qiling.*

(Turdi Farog'iy)

Mazmuni:

Urug'ingiz nomi qirq, yuz, ming bo'lsa-da, siz bir xonlikda yashashni, bir mamlakat bo'lib birlashishni odat qiling.

Tazod raqamlarda: **bir ↔ yuz hamda yuz ↔ ming.**

- *Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman, Kelturan amvojj'a bahri talotum Turdiman.*

(Turdi Farog'iy)

Mazmuni:

«Qatradek nochiz», ya'ni tomchidek ojiz ko'rinsam ham, zotim dengizga borib tutashadigan (zoti qulzum) Turdiman, ummon to'lqinlariga talotum keltiradigan Turdiman.

Tazod: **qatrayam nochiz ↔ zoti qulzum.**

- *Ishq o'tida Lutfiy yuzi oltinni yoshurdi, Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma.*

(Lutfiy)

Mazmuni:

Ishq o'tida Lutfiyning yuzi oltinni yashirdi, kumush tanim, xoh ishon, xoh ishonma.

Tazod radifda: **xoh inon↔ xoh inonma.**

- *Qovoq solib osmon ko‘zi yosh sochar,
Chechak-maysa quvnoq kulib yuz ochar.*

(Yusuf Xos Hojib)

Mazmuni:

Osmon qovoq solib ko‘z yoshi sochadi, chechak-maysa kulib yuzini ochadi.

Tazod: **ko‘z yosh sochar ↔ kulib yuzini ochar.**

Yashirin tazod: **osmon ↔ chechak-maysa** (yer ma’nosida).

- *Uzun sochingdin uzmasmen ko‘ngulni,
Ayog‘ing qanda bo‘lsa, boshim anda.*

(Atoy)

Mazmuni:

Uzun sochingdan ko‘nglimni uzmayman, oyog‘ing qayerda bo‘lsa, boshim ham o‘sha yerda.

Tazod: **ayoq ↔ bosh**

- *Soching chun laylat ul-qadr-u yuzing chun subhi sodiqdur.*

(Atoy)

Mazmuni:

Soching laylat ul-qadr tunidek qora, yuzing subhi sodiq – tong kabi munavvar.

Tazod: **laylat ul-qadr ↔ subhi sodiq.**

- *Agar qoshimda o‘shal guluzor bo‘lsa edi,
G‘ame yo‘q erdi, g‘amim gar hazor bo‘lsa edi.*

(Sakkokiy)

Mazmuni:

Agar oldimda o‘shal gul yuzli yorim bor bo‘lganida, g‘amim ming bo‘lsa ham, uni yo‘q deb hisoblagan bo‘lardim.

Tazod: **bo‘lsa edi ↔ yo‘q erdi.**

- *Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.*

(Alisher Navoiy)

Mazmuni:

Kimki bir ko‘ngli buzug – ko‘ngli o‘ksikni shodlantirsa, bu bamisoli vayron bo‘lgan Ka‘bani obod qilishdir.

Tazod: **vayron ↔ obod.**

- *Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim,
Ko‘rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrayi zardim.*

(Bobur)

Mazmuni:

Gul yuzing hajrida xazon bargidek sarg‘aydim, sarg‘aygan chehram (chehrayi zardim)ni ko‘rib, ey lola yuzli (lolarux), rahm qil.

Tazod: **xazon yaprog‘i ↔ gul, lolarux ↔ chehrayi zard.**

- *Ey shoh, karam aylar chog‘i teng tut yamon-u yaxshini
Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.*

(Ogahiy)

Mazmuni:

Ey shoh, lutf-u marhamat, karam qiladigan chog‘ingda yomon-u yaxshini teng tut, chunki quyosh nuri vayron-u obod ustiga teng tushadi.

Tazod: **yamon ↔ yaxshi, vayron ↔ obod.**

Talmeh

Talmeh (arabcha «chaqmoq chaqishi», «nazar tashlash») san‘atida shoir she‘rda o‘tmishdagi biror tarixiy shaxs yoxud voqeaga ishora qiladi va uning yordamida fikr yo tasvir ta‘sirchanligiga erishadi. Talmeh arabcha «**lama‘ot**» (chaqmoq chaqnashi) so‘zidan olingani bejiz bo‘lmay, qorong‘u kechada yashin chaqnaganda atrof yorishib, ilgari

ko‘rinmay turgan narsalar ko‘rinib ketganiday, biror mashhur shaxs yoxud voqeaga ishora aytilmoqchi bo‘lgan fikr yoki tasvirlanayotgan manzaraning aniqroq va jonliroq chiqishiga yordam beradi.

- *Sulaymon saltanatlik podshosen,
Masih anfoslik, Yusufliqosen.*

(Xorazmiy)

Mazmuni:

Sulaymon saltanatiga ega podshohsan, Iso Masih (tiriltiruvchi) nafaslasan, Yusuf yuzlisan.

Talmeh: **Sulaymon, Masih, Yusuf.**

- *Solib borma meni, ey Yusufi husn,
Bukun Ya‘qubtek baytul hazanda.*

(Atoyi)

Mazmuni:

Ey Yusuf husnli, meni Ya‘qub kabi g‘am uyiga solma.

Talmeh: **Yusuf, Ya‘qub.**

- *Vahdat mayini piri mug‘on ilkidin ichtim,
Mansur kibi boshimi dorga tuta qoldim.*

(Mashrab)

Mazmuni:

Vahdat (Haq bilan birlashish) mayini piri mug‘on (piri komil) qo‘lidan ichdim,
Mansur Halloj kabi boshimni dorga tutdim.

Talmeh: **Mansur.**

- *Ya‘qub bikin ko‘p yig‘idin qolmadi sensiz,
Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.*

(Lutfiy)

Mazmuni:

Sensiz Ya'qub kabi ko'p yig'laganimdan ko'zimda nurim qolmadi, xoh ishon, xoh ishonma.

Talmeh: **Ya'qub.**

- *Yusuf ishqida bu ishlarni Zulayxo qilmadi,
O'tti Vomiq dahrin yodini Uzro qilmadi,
Motami Farhodni Shirin taqozo qilmadi,
Layli hijronida Majnun men kabi yoqilmadi.*

(Nodirabegim. Muashshar)

Mazmuni:

Hatto Zulayxo ham Yusuf ishqida bu ishlarni qilmadi, Vomiq dunyodan o'tdi, ammo Uzro uning yodini saqlamadi, Farhodning motamiga Shirin duchor bo'lmagan, Laylining hijronida Majnun ham men kabi o'tda yonmadi.

Talmeh: **Yusuf, Zulayxo, Vomiq, Uzro, Farhod, Shirin, Layli, Majnun.**

- *Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.*

(Navoiy)

Mazmuni:

Jamshid jomi va Xizr suyi (obihayot) hamisha nasibamdir, ey soqiy, mol-dunyodan voz kechib senga gado bo'ldim.

Talmeh: **Jamshid, Xizr**

- *Boshimg'a yoqqan g'am toshin mingdin biricha bo'lmag'ay,
Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina.*

(Ogahiy)

Mazmuni:

Taqdir agar Farhod boshidan mingta Besutun tog'ini yog'dirsa ham, mening boshimga yog'gan g'am toshining mingdan biricha bo'lmaydi.

Talmeh: **Farhod, Besutun**

- *Xoki taning barbod o' lur oxir jahonda necha yil,*

Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.

(*Ogahiy*)

Mazmuni:

Sulaymon kabi shamol ustiga taxt qurib jahonni sayr etsang ham, oxir-oqibat xoki taning barbod bo'ladi – zavol topadi.

Talmeh: **Sulaymon.**

Tajnis

Tajnis yoki jinos (*«biror narsa bilan o'xshash bo'lmoq»*) – talaffuz va shaklda bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarni turli ma'nolarda qo'llash san'atidir.

- *Bo'yung sarv-u sanubardek, beling qil,*

Vafo qilg'on kishilarga vafo qil.

(*Xorazmiy*)

Mazmuni:

Bo'ying sarv-u sanubar daraxtlaridek tik va go'zal, beling qil kabi nozik, vafo qilgan kishilarga vafo qil.

Tajnis: **qil.**

- *Ey bag'ritosh, ko'nglum evin aylama xarob*

Kim, surating chizilmish aning ich-u toshinda

(*Lutfiy*)

Mazmuni:

Ey bag'ritosh go'zal, ko'nglim uyini xarob qilma, chunki uning ich-u tashqarisida sening suvrating chizilgan.

Tajnis: **tosh.**

- *Yuz ochg'il, ko'z seni to'yguncha ko'rsin,*

Necha bo'lg'ay bu ko'z muntazir, och.

(Lutfiy)

Mazmuni:

Yuzingni och, ko'z seni to'yguncha ko'rsin, bu ko'z och (zor-u intizor) bo'lib necha vaqtdan buyon kutadi.

Tajnis: **och.**

- *Ne navo bo'lg'ay bukim, mehrob ichinda o'lturib,
O'lturadur men duochini ko'zung boqib turib.*

Mazmuni:

Sening ko'zing mehrob ichida (bunda qosh mehrobga o'xshatilyapti, ya'ni ko'z qoshning tagida turib) men duogo'yni boqib turib o'ldiradi.

Tajnis: **o'lturmoq.**

- *Qaro ko'zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg'il,*

Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

(Alisher Navoiy)

Mazmuni:

Qaro ko'zum, kel va mardumliq (odamiylik)ni fan qil – o'zingga odat qil, ko'zimning qorasini mardum (ko'z gavhari) kabi vatan tut.

Tajnis: **mardum.**

- *Har qachon kulbama falon jonim,
Kelsa o'tru chiqar anga jonim.*

(Komil)

Mazmuni:

Kulbanga falonchi jonim kelsa, uni qarshi olgani jonim chiqadi.

Tajnis: **jonim.**

- *Ul qaro ko‘z ko‘zlariga surma bejo tortadur,
Balki andin dahr eli ortuqcha g‘avg‘o tortadur.*

(*Furqat*)

Mazmuni:

Yorim qaro ko‘zlariga surma tortadi, balki surma tortish bilan dunyo eli orasida g‘avg‘o ko‘taradi (tortadi).

Tajnis: **tortadur.**

Tashxis

Tashxis (arabcha «*shaxslantirish*») – tabiat manzaralari, jonzotlar, hayotdagi turli buyumlar va tushunchalarning insonga xos bo‘lgan fazilatlar, belgilar bilan jonlantirilib, shaxsga mansub xususiyatlar bilan to‘yintirib berilishi. Masalan, bog‘, sahro, bulut, yomg‘ir, hilol, yulduz, quyosh, gul, chumoli, ohu, tun, sabo, may, qadah, qalam, qog‘oz va hokazolarni insonga xos xususiyatlar bilan jonlantirish orqali shoir o‘z asarida chiroyli va nafis obrazlilikka erishadi. Timsollardagi joziba esa, o‘z navbatida, asar emotsionalligini kuchaytiradi. Bu esa asarning o‘quvchiga ta’sir kuchini oshiradi, taxayyul qudratini ishga tushiradi, asar badiiyatining hayotiy kuchga aylanishini ta’minlaydi.

- *Ochilur sahar sabodin dema g‘uncha mushti har tun,
Ochibon qo‘li oyosin qilodur sanga duo gul.*

(*Ogahiy*)

Mazmuni:

G‘unchaning mushti tong yellaridan ochilyapti deb o‘ylama, bu gullarning barg yozishi qo‘lini ochib senga duo qilayotganidir.

Tashxis: **gulning qo‘lini ochib duo qilishi.**

- *Qilib orzu quduming sharafiga vosil o'lmoq,
Boqibon yo'lingga turmush bir oyoqda borho gul.*

(Ogahiy)

Mazmuni:

Gul shunchaki o'z-o'zidan ochilib, sarv bo'lib turgani yo'q, u tezroq kelishingni, qadaming vaslini orzu qilganidan bir oyog'i uchida ko'tarilgancha yo'lingga intizor bo'lib turibdi.

Tashxis: **gulning yor vasliga intizor bo'lib oyoq uchida turishi.**

- *Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda.*

(Atoyi)

Mazmuni:

Men chamanda jamoling vasfini – ta'rifini qildim, shunda anjuman, ya'ni chamanzordagi gul uyatdan qizarib ketdi.

Tashxis: **gulzorning anjumanga o'xshatilishi, gulning uyatdan qizarishi.**

- *Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli,
Ango bo'ldi magarkim doya navro'z.*

(Ogahiy)

Mazmuni:

Dahr zoli (dunyo kampiri) tarab (shodlik) chaqalog'ini tug'arkan, navro'z unga doyalik qildi.

Tashxis: **tarab tifli, dahr zoli, navro'zning doyalik qilishi.**

- *Noz-u ado-u g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam,*

Vah, muncha ofatmu bo'lar bir odamizod ustina?!

(Ogahiy)

Mazmuni:

Ma'shuqaning nozi, adosi (so'zlari) va g'amzasi navbatma-navbat menga qasd qiladilarki, bir odamning ustiga shunchalar ham ofat bo'ladimi?

Tashxis: **yor noz-istig'nolarining oshiqqa qasd qilishi.**

- *Obi hayvondek suzuk suv har taraf aylab ravon,
Qildi sahrog'a tarovat o'zgacha paydo bahor.*

(Ogahiy)

Mazmuni:

Suvni «obi hayvon» – tiriklik suviga o'xshatish qadimdan bor. Lekin uni suzuk deb sifatlash adabiyotda yangilik edi. Tashxis (jonlantirish) san'atini mohirona qo'llagan shoir tog'lardan mayin oqib kelayotgan suvni noz bilan suzilib borayotgan go'zalga o'xshatadi. Bahor ana shu suzuk suvi bilan sahroga o'zgacha tarovat bag'ishlagan.

Tashxis: **suzuk suvning har tarafga ravon aylashi (qadam solishi)**

- *Ochun kulchirar boz alin qosh chetar,
Bir ilkin tutub shahd, biri zahr qotar.*

(Y.X.Hojib)

Mazmuni:

Olam kulib boqadi, so'ng birdan qovog'ini soladi. Bir qo'li bilan asal bersa, ikkinchisi bilan zahar tutadi.

Tashxis: **olamning kulib boqishi, qovog'ini solishi, bir qo'li asal berishi, zahar tutishi.**

- *Berur jonlarga rohatlar, solur tanlarga quvvatlar,
Mahaldur aysh-u ishratlar qilarga ey sanam sahro.*

(Ogahiy)

Mazmuni:

Bahor ayyomida sahro sanami jonga rohat, tanga quvvat beradi.

Tashxis: **bahor ayyomida sahro go‘zalligining jonli odam – sanamga mengzab ta’riflanishi.**

Tanosib

Tanosib (arabcha «*mos*», «*mutanosib*») – baytda ma’no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni (uyadosh so‘zlarni) qo‘llash san’ati.

• *Xating ishtiyoqin savod ayladim,*

Ko ‘zumning qorasin midod ayladim.

(Nodira)

Mazmuni:

Xating ishtiyoqida savod chiqarib, ko‘zum qorasini siyoh (midod) qildim.

Tanosib: **xat, savod, midod.**

• *Anda bir shoh hokim-u voliy,*

Mulki ma’mur-u himmati oliy.

(Navoiy)

Mazmuni:

Unda bir shoh hokimlik, ya’ni voliylik qiladi, uning mulki obod va himmati oliydir.

Tanosib: **shoh, hokim, voliy (hukmdor), mulk va ma’mur.**

• *Maylni qo ‘yki, vola-u zor ul,*

Jon berib vasliga xaridor ul.

(Navoiy)

Mazmuni:

Uning sevgisini mayl dema, yorining vasliga jon berib, xaridor ul.

Tanosib: **mayl, vola, zor, vasl, xaridor.**

•*Olma yanoqing ko'rgach men bandi nechuk o'lmay?*

Bodom ko'zi fitna, pista dahani nozuk.

(Lutfiy)

Mazmuni:

Olmadek yanog'ingni ko'rgach men nega senga bandi bo'lmay? Bodomdek ko'zing fitna soladi, pista dahaning esa nozikdir.

Tanosib: **olma, bodom, pista.**

•*Zulfung cheriki jamol mulkin*

Oldi ko'zung ittifoqi birla.

(Atoyi)

Mazmuni:

Zulfung qo'shini jamol mulkini ko'zing bilan ittifoq tuzib egallab oldi.

Tanosib: **cherik, mulk, olmoq.**

•*Zohid, senga hur-u menga jonona kerak,*

Jannat senga bo'lsun, menga mayxona kerak.

Mayxona aro soqi-yu paymona kerak,

Paymona necha bo'lsa to'la, yona kerak.

(Alisher Navoiy)

Mazmuni:

Zohid, senga jannatdagi hur kerak, menga jonona (Haq) kerak. Jannat senga bo'lsin, menga mayxona (Haqni sevganlar tarbiya topuvchi maskan) kerak. Menga mayxonadagi soqiy (Haqni sevgan solikni tarbiyalovchi ustoz) va soqiy tutuvchi paymona (qadah – ishq ta'limi) kerak. Paymona qancha to'la bo'lsa, yana shuncha kerak.

Tanosib: **zohid, hur, jannat, mayxona, soqiy, paymona.**

Husni ta'lil

Husni ta'lil (*chiroyli dalillash*) – biror voqeani unga daxli bo'lmagan boshqa bir hodisa bilan izohlash. Shoir tasvir etayotgan hodisasiga biror go'zal sabab ko'rsatadi. Bu asoslash real, hayotiy bo'lmasdan, aksincha, xayoliy, shoirona shaklda namoyon bo'ladi.

• *Quyosh oydek yuzungning xijlatidin*

Qochib, to'rtinchi ko'k uzra chiqibdur.

(*Lutfiy*)

Mazmuni:

Quyosh oy kabi yuzing nuridan xijolat bo'lib to'rtinchi qavatga chiqib olibdi.

Husni ta'lil: **musulmon Sharqida quyosh to'rtinchi falakda deb tasvirlanadi. Shoir bu o'rinda quyoshning to'rtinchi qavatda ekanligini yorning go'zallik nuridan o'sha yerga qochib chiqqani bilan izohlayapti.**

• *Nozuklik ichra belicha yo'q tori gisuyi,*

O'z haddini bilib belidin o'turur quyi.

(*Lutfiy*)

Mazmuni:

Yorimning sochi uning belidek nozik bo'lolmagani uchun haddini bilib quyida o'tiradi.

Husni ta'lil: **yorning sochi shunchalik uzunki, uning belidan pastga tushadi.**

Shoir bu holatni yorning belichalik nozik bo‘lmagan soch uyalganidan haddini bilib quyida o‘tirishi bilan izohlayapti.

•*Qutlug‘ oyog‘ing yerga tegibdur, oning uchun*

El yerga qo‘yub bosh qilur barcha ibodat.

(Lutfiy)

Mazmuni:

Qutlug‘ oyog‘ing yerga tekkani uchun, el boshini yerga qo‘yib ibodat qiladi.

Husni ta’lil: **insonlarning boshini yerga qo‘yib sajda qilishlari go‘yoki yorning oyog‘i yerga tekkanidan emish.**

•*Labingdin chun suchuklik qand o‘g‘urlar,*

Solurlar el ani suvg‘a yalang‘och.

(Lutfiy)

Mazmuni:

Qand labingdan shirinlikni o‘g‘irlagani uchun el uni jazolab yalang‘och holda suvga soladi.

Husni ta’lil: **qadimda o‘g‘rilarni qaynoq suvga solib jazolash usuli bo‘lgan. Shoir baytda qandning shirinlikni yorning labidan o‘g‘irlagani uchun el uni qog‘ozdan ajratib suvga solishini shu hodisa bilan dalillayapti.**

•*Sendin bu qadar qoldi yiroq, o‘lmadi Bobur,*

Ma‘zur tut, ey yorki, taqsir qilibtur.

(Bobur)

Mazmuni:

Ey yor, Bobur sendan shu qadar uzoqda yashab ham o‘lmadi. Holbuki, u sensiz allaqachon halok bo‘lishi kerak edi. Sen uning bu qusur (taqsir)ini kechir.

Husni ta’lil: **shoir yordan uzr so‘rash sababiga chiroyli bir dalil keltirmoqda**

(sensiz o‘lish kerak edi, o‘lmadim, kechir).

- *Nayza bo‘lub tuzlugidin sarbaland,
Chirmosh uchun bandg‘a qolib kamand.*

(Navoiy)

Mazmuni: Nayza to‘g‘ri bo‘lganidan doim boshi yuqori; arqon esa chirmash bo‘lgani uchun bog‘lashga ishlatiladi.

Husni ta‘lil: **nayzaning sarbalandligi to‘g‘riligi tufaylidir, arqonning bog‘lash uchun ishlatilishiga uning egriligi sabab bo‘ldi.**

- *Ey shoh, karam aylar chog‘i teng tut yamon-u yaxshini
Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.*

(Ogahiy)

Mazmuni: ey shoh, karam qiladigan payting yaxshi va yomonni teng tut, chunki quyosh nuri vayron-u obod ustiga teng tushadi.

Husni ta‘lil: **tabiat hodisasidan keltirilgan chiroyli dalil esa «husni ta‘lil» san‘atiga ajoyib namuna. Ayni paytda, adolat hamma narsadan ustundir. U hamma narsaning tosh-u tarozusi, bag‘rikenglik, karam orif odamlar fazilatidir, sen ham undan uzoq bo‘lma degan fikr ham aytilmoqda.**

Iyhom

Iyhom (arabcha «*shubhaga solish*», «*adashtirish*») – she’rda ikki ma’noli so‘zni qo‘llash. Bu ma’nolardan biri aniq sezilsa ham, ikkinchi ma’no payqalmasligi mumkin. Iyhom va tajnisning farqi shundaki, iyhomni faqat bir so‘z hosil qiladi, tajnisda esa bir xil shaklli bir necha so‘z ishtirok etadi.

- *Falak do‘stlik qilmadi, dushmanim MUZAFFAR bo‘ldi.*
(Mo‘min Mirzo)

Iyhom: **bu o‘rinda Mo‘min Mirzo g‘animi g‘olib bo‘lganligini aytish barobarida uning ismi Muzaffar ekanligiga ham ishora qilyapti.**

•*Sendek saname ko‘rmadi Lutfiy Chig‘atoyda,
Chin so‘yla, Xito xo‘blarig‘a ne bo‘lursan?
(Lutfiy)*

Mazmuni: sendek sanamni Lutfiy Chig‘atoyda ko‘rmadi. Rostini ayt, Xitoy go‘zallariga kim bo‘lasan?

Iyhom: **«Chin so‘yla, Xito xo‘blariga kim bo‘lasan?» tarzida ikkinchi misra ma‘nosini Chin va Xitoy go‘zallariga kim bo‘lasan ma‘nosida tushunish mumkin.**

•*Ulus ichinda turur O‘Z BEGIM qiyo ko‘zluk,
Xayoli TO‘XTAMISH andin ko‘ngil SAROYinda.
(Lutfiy)*

Mazmuni:

1-ma‘nosi: xalq ichida mening o‘z begim (yorim) qiyiq ko‘zi bilan alohida ajralib turadi, men uni o‘ylaganimda ko‘ngil saroyida uning xayoli to‘xtagan.

2-ma‘nosi: To‘xtamishxon o‘zbek xalqi bilan urushgan paytida Oltin O‘rdaning Saroy shahrida to‘xtadi.

Iyhom: **o‘zbeqim, To‘xtamish, Saroy so‘zlari orqali shoir millat nomi, hukmdor nomi va Oltin O‘rda davlati poytaxti sanalmish shahar nomiga ham ishora qilyapti.**

•*Labing bag‘rimni qon qildi, ko‘zumdin qon ravon qildi,
Nechun holim yamon qildi, men andin bir so‘rorim bor.
(Bobur)*

Mazmuni:

1-ma‘nosi: labing bag‘rimni qon qildi, ko‘zimdan qon oqizdi, shu labingdan nima uchun holimni yomon qilganligini so‘rashim kerak.

2-ma'nosi: labing meni qiynagani uchun undan bo'sa olishim kerak.

Tajohuli orif

Tajohuli orif (arabcha *«bilib bilmaslikka olish»*) san'ati orqali shoir o'zi tasvirlayotgan holatni so'roq ostiga olish bilan ifodani kuchaytiradi. Tajohuli orifda savol javobni talab qilmaydi, ya'ni mazmunan ritorik so'roqqa yaqin turadi.

•*Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu?*

Og'iz yo g'unchayi xandonmidur bu?

(*Atoyi*)

Mazmuni:

Bu yorimning yuzimi yoki jannatdagi bog'mi? Bu og'izmi yoki xandon otayotgan g'unchami?

•*Xo'blarda seningdek bir mahbub qani nozuk?*

Boshdin oyog'i zebo, bel-u badani nozuk.

(*Lutfiy*)

Mazmuni:

Go'zallar ichida sendek boshdan oyog'igacha zebo, bel-u badani nozik mahbub bormi?

Tashbeh

Tashbeh (arabcha *«o'xshatish»*) – ikki yoki undan ortiq narsa va hodisalar, xususiyatlar o'rtasida mavjud bo'lgan o'xshashlikni qiyoslash san'ati. Masalan, «Yuzing go'zallikda gul kabidir».

To'rt unsur asosiga quriladi:

•**O‘xshamish** (*mushabbah*) – tasvirda fikr qaratilgan narsa yoki tushuncha (yuz).

•**O‘xshatilmish** (*mushabbah bihi*) – tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha (gul).

•**Asos** (*vajhi shabah*) – nimaga ko‘ra o‘xshatishning yuzaga chiqqanligi (go‘zallikda).

•**Vosita** (*odoti tashbeh*) – o‘xshatilish belgisi (kabi).

Vosita ishtirok etgan o‘xshatishlarda tashbeh aniq ko‘rinib, bilinib turadi. So‘z san’atida *-dek, -day, -cha, -simon, -vor, -saro, -oso, -vash, -iy, -oyin* kabi qo‘shimchalar, *kabi, singari, misli, go‘yo, yanglig‘, xuddi, o‘xshab, nechukki* va boshqa so‘zlar vosita bo‘lib keladi. Ko‘p hollarda asos ishtirok etmaydi.

Tashbeh yuqorida sanalgan unsurlarning ishtirok etish o‘rniga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

1) **mutlaq tashbeh** (*aniq o‘xshatish*) – asos va vositaning qo‘llanilish-qo‘llanilmasligidan qat’iy nazar, o‘xshamish va o‘xshatilmish ishtirok etgan o‘xshatish san’ati:

•*Sanga binafsha kibi qaddi nigun,*

Bosh ko‘tara olmay uyotdin zabun.

(*Navoiy*)

Mazmuni:

Sen binafsha kabi qaddingni bukib turasan, uyatdan bosh ko‘tara olmay mag‘lub holda qolasan.

•*Ermas alar tufrog‘-u, sen nuri pok,*

Xilqat alarg‘a-u sanga – tiyra xok.

(*Navoiy*)

Mazmuni:

Ular tuprog‘-u, sen toza nurdan emassan: aslida, sen va ular qora tuproqdan yaratilgansizlar.

2) **kinoya tashbeh** (*ishora o'xshatish*) yoki istiora – o'xshatilmishning o'zigina ishtirok etgan o'xshatish turi:

•*Bo'rini dag'i galadin dur qil,*

Suv beribon bog'ni ma'mur qil.

(*Navoiy*)

Mazmuni:

Bo'rini galadan uzoqlashtir, suv berib bog'ni obod qil.

Baytda to'rtta kinoya tashbeh bor: **bo'ri – bo'ridek talovchilar, gala – gala singari xalq, suv – suvdek (zarur) adolat, bog' – bog'ga o'xshash mamlakat** tashbehlarining ishoralari.

Mumtoz she'rda ma'shuqa (sevikli yor) bilan bog'liq eng ko'p qo'llaniladigan tashbehlar:

•**bo'y – sarv daraxti;**

•**soch – sunbul, mushk;**

•**qosh – yoy;**

•**kiprik – o'q;**

•**g'amza – qilich, xanjar;**

•**tishlar – inju;**

•**lab – la'l, obi hayot.**

•*Ikladi maning azaq,*

Ko'rmazib o'g'ri tuzaq.

Igladim andin uzaq,

Emlagil emdi tuzaq.

Mazmuni:

Ilindi mening oyog'im,

Yashirin ekan tuzoq.

Bo'ldi azobi uzoq,

Endi o'zing em qilgin.

Lirik qahramon «**sevib qoldim**» degan joʻn ifoda oʻrniga «**oyogʻim tuzoqqa ilindi**» degan tashbeh ishlatadi.

- *Oyoqlangan qoʻziday dovdurar yelda maysa,
Koʻm-koʻk moviy osmonda kezib yurar oq bulut.*
(Abdulla Oripov)

Tashbeh: **maysaning oyoqlangan qoʻziga oʻxshatilishi.**

- *Yordin ayru koʻngul mulkedurur sultoni yoʻq,
Mulkkim sultoni yoʻq, jismedururkim joni yoʻq.*
(Alisher Navoiy)

Mazmuni:

Yordan ayrilgan koʻngil sultoni yoʻq mulkdir, sultoni boʻlmagan mulk esa jonsiz jism kabidir.

Tashbeh: **yordin ayru koʻngul – sultoni yoʻq mulk
sultoni yoʻq mulk – jonsiz jism**

- *Qilgʻil tamosho qomati zebosi birla orazin,
Gar koʻrmasang gul boʻlgʻonin payvand shamshod ustina.*
(Ogahiy)

Mazmuni:

Sen shamshod daraxti ustiga gul payvand boʻlganini, yaʼni chirmashganini koʻrganmisan? Agar koʻrmagan boʻlsang, kel, yorning goʻzal qomati bilan yuzini tomosha qil.

Tashbeh: **yorning qomati shamshod daraxtiday tik va goʻzal, orazi, yaʼni yuzi gulday nafis, chiroyli va qizil, yorning qomati va yuzi – shamshodga chirmashgan gulday koʻrinadi. Daraxtga chirmashib oʻsgan gul daraxtning eng tepasida ochilgani**

kabi qizning yuzi ham uning qomatini ochadi.

Mubolag‘a

Mubolag‘a (*kattalashtirish, kuchaytirish*) adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol harakati yoki holatini bo‘rttirib, kuchaytirib ifodalash san‘atidir. U g‘arb adabiyotida giperbola deb ham yuritiladi. Mubolag‘aning 3 xil darajasi bor:

1) **tablig‘** – aqlan ishonish mumkin bo‘lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lgan mubolag‘a:

• *Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,*

Ko‘zlarimg‘a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

(*Alisher Navoiy*)

2) **ig‘roq** – aqlan ishonish mumkin bo‘lsa ham hayotda yuz bermaydigan mubolag‘a:

• *Ko‘tardi orqasiga bodponi,*

Nechukkim bodpo, ul dilraboni.

Chu ikki-uch yig‘och gom urdi shaydo,

Bo‘lib ollinda qasr-u havz paydo.

(*Alisher Navoiy*)

3) **g‘uluv** – aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lmagan mubolag‘a:

• *Har qizil gulkim, yuzing shavqida olib isladim,*

Yetgach ohim shu‘lasi oni sarig‘ gul ayladim.

Shuningdek, adabiyotda mubolag‘aning **ifrot** va **tafrit** turlari ham uchraydi.

Ifrot – behad orttirilgan, kuchaytirilgan mubolag‘a.

- *Tikilsam, quriydi daryoning gumi,
Na'ra tortsam, qular qo'rg'onning timi.*

(«Alpomish»)

Tafrit – ifrotning aksi bo'lib, tasvir obyektini o'ta kichraytirib ifodalashni nazarda tutadi, litota deb ham yuritiladi.

- *Nozuklik ichra belicha yo'q tori gisuyi,
O'z haddini bilib belidin o'lturur quyi.*

(Lutfiy)

- *Bo'yung sarv-u sanubardek, beling qil,
Vafo qilg'on kishilarga vafo qil.*

(Xorazmiy)

Irsoli masal

Irsoli masal (arabcha «maqol kiritish») – she'rda aytilayotgan fikrga mos tushuvchi biror maqolni keltirish orqali uni dalillash hamda ifoda ta'sirchanligini oshirish. Lutfiyning «Ayoqingg'a tushar har lahza gisu, Masaldurkim: «Charog' tubi qarong'u» matla'li g'azali boshdan oxirigacha shu usul asosiga qurilgan.

- *Har kishikim birovga qozg'oy choh,
Tushgay ul choh aro o'zi nogoh.*

(Navoiy)

Mazmuni:

Kimki birovga choh qazisa, unga o'zi tushadi.

- *Ko'zum yoshig'a nazar qil, ko'ngul bo'lur ravshan,*

Ey sarvinoz, oqar suvg'a qilsa nazzora.

(Sakkokiy)

Mazmuni:

Ko'zimning yoshiga, ey sarvinoz, bir nazar qil, axir, oqar suvga nazar tashlansa, ko'ngil ravshan bo'ladi-ku!

Irsoli masal: **shoir xalq orasida yuradigan oqar suvga qarasang, ko'ngling ravshan bo'ladi degan naqlni keltirish orqali o'z fikrining ta'sirchanligiga erishyapti.**

•*Vaysiy jahondin o'tti, murodig'a yetmadi,*

To'ymoqqa rasm yo'qdur qorin suygan oshga.

(Uvaysiy)

Mazmuni:

Uvaysiy jahondan o'tib murodig'a yetolmadi, chunki inson o'zi yoqtirgan taomga sira to'ymaydi.

Irsoli masal: **shoira murodig'a yetolmaganligini qorin suygan oshiga to'ymas maqoli orqali ifodalayapti.**

Laff va nashr

Laff va nashr (arabcha *«yig'ish va yoyish»*) – bunda shoir biror narsa yoxud hodisani oldin sanaydi, so'ng shu tartibda ularga tegishli o'xshatishlarni tizib chiqadi.

•*Qoshing, erning, yuzung, ey rashki rizvon,*

Hilol-u kavsar-u bog'i jinondur.

(Lutfiy)

Mazmuni:

Ey go'zallikda jannatning ham rashkini keltiruvchi yor, sening qoshing, labing va

yuzing oy, buloq va jannat bog‘i kabidir.

Laff va nashr:

- qoshing – hilol;
- ern (lab)ing – kavsar;
- yuzing – jannat bog‘i.

•*Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbatlari,
She‘r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.*

(Bobur)

Mazmuni:

Yoz faslida boda ichishning o‘zgacha gashti bor, ishq dardi yor vaslini talab etadi,
do‘stlarning suhbatlari esa she‘r bahsi bilan go‘zal.

Laff va nashr:

- yoz fasli – she‘r bahsi;
- yor vasli – ishq dardi;
- do‘stlarning suhbatlari – bodaning kayfiyati.

Ishtiyoq

Ishtiyoq (arabcha *«so‘zdan so‘zni ajratish»*) – bir o‘zakdan hosil bo‘lgan, ya‘ni o‘zakdosh so‘zlarni keltirish san‘ati.

•*Zihi visolingga tolib tutub o‘zing matlub,
Muhabbatidin otingni Habib atab mahbub.*

(Navoiy)

Mazmuni:

Visolingga bizni talabgor qilgan va talab qilingan o‘zingsan, senga bo‘lgan
muhabbatidan mahbubing (sevganing) seni Habib deb atadi.

Ishtiyoq: **tolib, matlub; muhabbat, Habib, mahbub.**

- *Ta'rifi ishq dardiga etgin yurak qonin siyoh,
Dilga yoz dilbar so 'zin, jonon so 'zini jonga yoz.*
(Erkin Vohidov)

Mazmuni:

Ishq ta'rifi uchun yurak qoningni siyoh etib dilga «dilbar», jonga «jonon» so'zini yoz.

Ishtiyoq: **dil, dilbar, jon, jonon.**

Tarse'

Tarse' (arabcha *«ipga marjon terish»*) – ikki misradagi barcha so'zlarning o'zaro teng, qofiyadosh va vazndosh bo'lishi.

- *Sendek menga bir yori jafokor topilmas,
Mendek senga bir zori vafodor topilmas.*

- *Qamar yuzungdin bo'lur munavvar,
Shakar so'zungdin kelur mukarrar.*
(Sayfi Saroyi)

- *Gahe eltub ayog'ini o'ziga,
Gahe surtub iligini ko'ziga.*
(Haydar Xorazmiy)

- *Dardini najotim et, ilohiy,
Yodini hayotim et, ilohiy.*
(Navoiy)

Kitobat

Kitobat – arab alifbosidagi harflarning shaklidan foydalanib timsol yaratish san’ati.

- ج («jim»), ل («lom») – zulf;
- ن («nun») – qosh;
- ا («alif») – yorning qomati;
- د («dol») oshiqning qomati;
- م («mim») – yorning og‘zi yoki o‘rilgan soch;
- س («sin») – tish;
- nuqtalar – xol.

• *Mushkin qoshining hay’ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun nas keltirur «nun» eltibon «sod» ustina.
(Ogahiy)*

Mazmuni:

Yorning qop-qora, ya’ni mushk rangli (mushkin) qoshi jallod kabi jon olguvchi ko‘zi ustida shunday turibdiki, go‘yo oshiqni qatl etish haqidagi hukm (nas)ni keltiryapti.

Kitobat san’ati:

Ko‘z suvratda «sod» harfiga, qosh esa «nun»ga o‘xshatilyapti. Ikkalasining birikuvidan «nas» so‘zi paydo bo‘ladi. «Nas» esa hukm deganidir. Demak, yorning ko‘zi bilan qoshi – oshiq ustidan chiqarilgan o‘lim hukmi. Shoir ma’shuqaning ko‘z-u qoshi tasvirini chizar ekan, uning go‘zalligi haqidagi fikrini ham shaklan, ham ma’nan asoslaydi.

• *Ko‘rmish qora soch halqasi ostindan mengingni,
«Jim» o‘rtasida ul kishikim nuqta solibdur.*

(Lutfiy)

Mazmuni:

Qora soching ostidagi xolingni ko‘rganlar kimdir «jim» harfi o‘rtasiga nuqta solibdi deb o‘ylaydilar.

Kitobat san’ati:

Yorning yuzidagi xoli soching ostida ekanligi arab tilidagi «jim» – ج harfiga o‘xshatilyapti.

• *Ul alifdek qomatining hasrati*

«Dol» yanglig‘ ayladi qaddim duto.

Mazmuni:

Alifdek qomating hasratida qaddim «dol» kabi egildi.

Kitobat san’ati:

Yorning qomati «alif» – «ا»ga, oshiqning qaddi «dol» – «د»ga qiyoslanyapti.

Tasdir

Tasdir yoki *raddul sadri ilal ajuz* (arabcha «sadrni ajuzda takrorlash») – baytni boshlagan so‘zning bayt oxirida takrorlanishi.

___ **Sadr** ___ / ___ **hashv** / ___ **aruz** _____

___ **Ibtido** ___ / ___ **Hashv** ___ / **ajuz yoki zarb** ___

• *Men bu yuz mushtoqidurmen, bog‘-u bo‘stonkim bo‘lur,*

Bo‘lmasin nasrin-u lola, arg‘uvon sizsiz menga.

(Atoyi)

Mazmuni:

Men bog‘-u bo‘ston kabi go‘zal yuzning mushtoqiman, usiz menga nastarin ham, lola ham, arg‘uvon ham kerak emas.

Tasdir: **«men» so‘zining birinchi misra boshi va ikkinchi misra oxirida kelishi.**

- *O‘t agar itsa jahondin, ohim o‘lsa g‘am emas,
Yetkuray bir damda yuz avvalg‘i o‘t miqdori o‘t.*
(Navoiy)

Mazmuni:

Agar dunyoda olov yo‘qolib qolsa, ohim bor ekan, g‘am yo‘q, agar oh cheksam, bir lahzada avvalgi o‘tdan yuz bor kuchli o‘t paydo bo‘ladi.

Tasdir: **o‘t so‘zining birinchi misra boshi va ikkinchi misra oxirida kelishi.**

Tasbe‘ yoki raddul aruz ilal ibtido

Tasbe‘ yoki *raddul aruz ilal ibtido* (arabcha «aruzning ibtidoda takrorlanishi») – birinchi misrani tugatgan so‘zning ikkinchi misra boshida kelishi.

- *Furqatingdin za‘faron uzra to‘karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag‘rimdin erur pargolalar.*
(Navoiy)

Mazmuni:

Furqatingdan, ya‘ni sening ayrilig‘ingdan za‘faron – sariq yuzim uzra ko‘zimdan qon – lolalar to‘kaman, lolalar emas, bag‘rimning parchalarini to‘kaman.

Tasbe‘: **lolalar so‘zining birinchi misra oxiri va ikkinchi misra boshida kelishi.**

- *Kuchum yetguncha ko‘p qildim vafolar,
Vafoli qulni asrar podsholar.*
(Xorazmiy)

Mazmuni:

Kuchim yetgunicha vafo qildim, vafoli qullarini podsholar asraydi.

Tasbe': **vafo so'zining birinchi misra oxiri va ikkinchi misra boshida kelishi.**

Tavzi'

Tavzi' (*ulashish, tarqatish*) baytdagi biror tovushni bir necha marta takrorlash natijasida ifoda ta'sirini kuchaytirishdir.

• *Sochilgan sochingday sochilsa siring.*

(*Cho'lpon*)

Takrir

Takrir (*takrorlash*) biror so'zning o'rniga qarab takrorlanib kelishi natijasida tasvirni kuchaytirish ko'zda tutiladigan san'atdir. So'zni takrorlashdan maqsad o'sha so'zning ma'nosini, tub mohiyatini ta'kidlash, unga o'quvchi diqqatini tortishdir.

• «*Layli, Layli!*» – *debon chekib un,*

El deb: «Majnundir, ushbu Majnun».

Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostonidan keltirilgan ushbu baytda «**Layli va Majnun**» so'zlari ikki marta takrorlangan. Birinchi so'zning takrori Majnunning oshiqligini ta'kid etsa, ikkinchi so'zda el nazdida ishq yodidagi Majnun haqiqatda majnunligi ta'kidlanayapti.

• *Man ayturman: «Ko'ngul uzgil!» Bu ko'nglum ko'ngul uzmaydur,*

Ko'ngul ayturki: «Ey nodon, ko'ngul uzsam, uzilgaymu?!»

(*Mashrab*)

Mulamma'

Mulamma' (arabcha «yarqiroq, yarqiratilgan») she'rni atayin ikki yoki undan ortiqroq til so'zlari asosida yaratish san'atidir. Ba'zida u talmi' deb ham yuritilgan. Ikki tilda yozilgan mulamma' «shir-u shakar», uch tilda ifodalangan mulamma' «shahd-u shakar» deb yuritilgan.

Xiroming ajib-u jamoling bade',

Kaloming balig'-u maqoming rafe'.

Uzoringga bermish xating jo'shish

Tarovat, chu rayhon fasli rabe'...

Sidqiy Xondayliqiyga mansub ushbu g'azalda «**bade', rafe', rabe'**» kabi so'zlarning arab tilidan olingani mulamma' qofiya turini yaratganini ko'ramiz.

Tardi aks

Tardi aks (arabcha «teskari qilib takrorlash») – she'rning birinchi misrasida keltirilgan ikki so'z yoki so'z birikmalarini keyingi misrada o'rnini almashtirib takrorlashdan iborat san'at.

Ko'ngulga bo'ldi ajoyib balo qaro soching,

Shikasta ko'ngluma bo'ldi qaro balo soching.

Boburning ushbu bayti birinchi misrasidagi «balo» so'zi mustaqil holda «ofat» ma'nosini, «qaro» so'zi esa sochning sifatini ifodalagan bo'lsa, ikkinchi misradagi bu ikki so'zning o'rnini almashtirilishi natijasida ularning mazmuni ham o'zgarib, «qaro» so'zi «balo» so'zining sifatlovchisiga aylanib, bu so'zning ma'nosini yanada kuchaytirgan, har ikki so'z qofiyadosh bo'lganligi sababli takror zulqofiyatayn san'atini hosil qilgan.

Mukarrar

Mukarrar (arabcha «*takror-takror; qayta-qayta, ustma-ust*») san’atida shoir baytda takror-takror keluvchi soʻzni ishlatadi. Takrirdan farqli ravishda, mukarrar soʻzlar orasiga chiziqcha qoʻyiladi va takror soʻzning ikkinchisi nutqdagi «xoʻp, juda, rosa» kabi kuchaytiruvchi soʻz vazifasini bajaradi.

*Oʻtarsen oʻynay-oʻynay men gadoyi xasta yoʻl uzra,
Qolurmen bir qiyo boqmoq uchun yolbora-yolbora.
(Alisher Navoiy)*

Muhammadniyoz Komil Xorazmiyning:

*Mango qilma, ey mohi oliyjanob,
Itob-u itob-u itob-u itob –*

deb boshlanuvchi gʻazali boshdan oxirigacha aynan mukarrar san’ati asosida yaratilgan.

Musoviyat tarafayn

Musoviyat tarafaynda misralar odatdagi oʻqilishidan tashqari yuqoridan pastga qarab ham oʻqiladi va oʻsha misralarning oʻzi kelib chiqadi. Ogahiy ijodida buni koʻrish mumkin:

#	1	2	3	4
1	Ul shoʻxi	ochildi	xat-u	ruxsori
2	Ochildi	rayohinda	yuzi	gulnori
3	Xat-u	yuzi	besabr-u qarori	man-man
4	Ruxsori	gulnori	man-man	zori

Tazmin

Tazmin (arabcha «bir narsani ikkinchi bir narsa orasiga qo‘ymoq»)da san’atkor yaratilayotgan asariga boshqa biror shoirning kuchli ta’sir qilgan misra yoki misralarini o‘zgartirishsiz kiritadi; faqat buning sharti bor: yaratilayotgan asardagi bosh g‘oyaga mos bo‘lishi, uning mohiyatini chuqurroq va ta’sirchanroq ochishi lozim. Jumladan, Mashrab o‘zining:

*Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.
G‘am shomi firoqingda kabob etti falakni
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma –*

tarzida boshlanuvchi g‘azalida Lutfiyning mashhur:

*Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma –*

baytini aynan keltiradi.

Zulfiya ham «O‘rik gullaganda» she’rida:

*«Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...»
Gulni ko‘rib ishqparast qalbim
Ming aytilgan darddan kuyladi –*

deb yozar ekan, sevimli yori Hamid Olimjonning shu nomdagi she’rining birinchi ikki misrasini aynan keltiradi. Bu ham tazmin san’atiga misol bo‘la oladi.

Tadrij

Tadrij (arabcha «ketma-ket, peshma-pesh») san'atida tasvirga olingan obyekt darajama-daraja rivojlantirib boriladi; bu rivojlanish jarayoni o'xshatish vositasi bilan ketma-ket o'sib boradi. Alisher Navoiyning:

*Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultoni yo'q,
Mulkkim sultoni yo'q, jismedururkim joni yo'q –*

bayti tadrij san'atining yorqin namunasi bo'la oladi.

Hamid Olimjonning:

*Na bo'lg'ay bir nafas men ham yanog'ing uzra xol bo'lsam,
Labing yaprog'idan tomgan ki go'yo qatra bol bo'lsam? –*

matla'li g'azali ham tadrijga asoslangan.

Tamsil

Tamsil (arabcha «misol keltirish») – she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan san'at.

Lutfiyning:

*Ey ko'ngil, jonni xayoli olida qil peshkash,
Har nima bo'lsa aziz, eltur kishi mehmon sori, –*

baytida ikkinchi misrada keltirilgan hayotiy hodisa – mezbonning o'zi uchun eng aziz bo'lgan narsani mehmon oldiga qo'yishi birinchi misradagi fikr qiyosi emas, balki dalili, tasdig'iga xizmat qiladi. Baytdagi «Har nima aziz bo'lsa, kishi mehmoniga tutadi, shuning

uchun, ey ko'ngul, sen ham joningni, ya'ni eng aziz narsangni yor xayoliga peshkash qil» mazmuni ham tamsil mohiyatini ko'rsatib turibdi.

*Har qanda g'ami do'sti dilporani istar,
To subh yaqo yirtmadi, mehr o'lmadi paydo.
(Turdi Farog'iy)*

Mazmuni:

Tong yoqasini yirtmaguncha, quyosh paydo bo'lmaganidek, har qayerda ham g'amning do'sti dili g'amdan pora bo'lgan do'stni istaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. «Badoye' us-sanoye» nima?
2. Lafziy va ma'naviy san'atlarning farqi nimada?
3. Tajnis va iyhom san'atining farqlarini tushuntiring.
4. Kitobat san'atiga asos bo'luvchi arab alifbosidagi harflarni sanang.
5. Tashbeh va uning turlarini keltiring.
6. Mubolag'aning qanday turlari mavjud?
7. Tamsil va irsoli masal san'atlarining qanday farqi mavjud?
8. Tazmin san'atining mohiyatini tushuntiring.
9. Musaviyat-tarafayn san'atining xos xususiyatlarini sanang.
10. Mukarrar, tardu aks, tavzi' san'atlarining qanday o'xshash va farqli tomonlari bor?
11. Mustaqil mutolaa jarayonida har bir she'riy san'atga mos misollar topishga harakat qiling.

5. LIRIK TUR JANRLARI

Lirika so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, kelib chiqishi lira musiqa asbobi bilan bog'liq. Badiiy adabiyotda «**lirika**», «**lirizm**» tushunchalari umumiy ma'no jihatidan

adabiy asarlarda inson hissiyotining yorqin tasvirlariga nisbatan ishlatiladi. Tor ma'noda esa lirikani she'riy janrdagi asarlarga nisbatan qo'llaymiz.

She'r muayyan shaklga ega bo'lgan – qofiyalangan, ohang bilan o'qiladigan, insoniy tuyg'ularni ta'sirchan tarzda o'zida aks ettirgan va ularni yetkazib berish qudratiga ega adabiy asar hisoblanadi.

She'r qadimiy tarixga ega. Qadimgi yunon adabiyotida she'rlar qofiyasiz bo'lib, faqat vaznga ega edi. Ularning ohangi qofiyaning yo'qligini bildirmagan.

Musulmon Sharqi adabiyotida, xususan, arabiy, forsiy va turkiy adabiyotda she'riyat yuksak darajada rivojlanib, she'riy janrlar mezonlari, talablari, qonun-qoidalari mukammal shaklda ishlab chiqildi. G'arbda – Yevropa adabiyotida she'riyat qonuniyatlari garchi musulmon Sharqidagi kabi mukammal ishlanmagan bo'lsa-da, o'zining muayyan mezonlariga ega. Keyingi mavzularda turkiy she'riyatda qo'llangan mumtoz she'riy shakllar, she'riy san'atlar, aruz vazni va Yevropa adabiyotiga xos ballada, sonet kabi she'riy janrlar haqida so'z yuritamiz.

5.1. Mumtoz she'riy janrlar

Musulmon Sharqi mumtoz adabiyotida she'riy shakllar asrlar mobaynida sayqallanib, ishlanib, muayyan qat'iy qoliplarga solingan. Ular tarkibiy tuzilishiga ko'ra baytli va bandli she'r shakllariga ajratiladi. Baytli she'r shakllarining asosini bayt (arabcha «uy») tashkil qiladi. Ularga quyidagi janrlarni kiritish mumkin: fard, muammo, ruboiy, tuyuq, g'azal, qit'a, mustazod, qasida, lug'z (chiston), ta'rix va boshqalar.

Baytli she'r shakllari

FARD (arabcha, «*yakka*», «*yolg'iz*») bir baytdangina iborat eng kichik mustaqil she'r shakli hisoblanadi. Fardlar, odatda, turli munosabat bilan yo'l-yo'lakay aytilgan she'rlar bo'lib, ko'pligi ***mufradot (fardlar)*** deyiladi. Fard **a-a** yoki **a-b** tarzida qofiyalanadi. Fard bir baytdangina iborat bo'lsa-da, unda muhim falsafiy-axloqiy masala qalamga olinib,

ixcham poetik xulosa ifodalanadi. Shu ma'noda fardlar ko'pincha aforizm xarakteriga ega bo'ladi:

*G'ofil o'lma, nazardin itsa adu,
Sham' o'churganda, yel ko'rinurmu?..*

(Navoiy)

*Bormi ekin hech nima olamda hijrondin yamon,
Har nekim ondin yamonroqdur, budur ondin yamon.*

(Bobur)

Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy»sida 86 ta fard mavjud bo'lib, 83 tasi qofiyali, uchtasi esa qofiyasizdir. Fardlarning barchasi «Favoyid ul-kibar» devoniga kiritilgan.

Turkiy adabiyotda fardning ilk namunasi Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asarida uchraydi.

Navoiyning fardlarida muayyan hayotiy vaziyatlarda qo'l keladigan xulosalar o'ziga xos va ta'sirli ifodalangan:

*Kishi aybing desa, dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu,
Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu?*

Fardda payg'ambarimizning: «**Musulmon – musulmonga ko'zgu**», – degan hadislari shoir tomonidan o'ziga xos tarzda badiiy shaklga solingan.

Asl odamlilik, odamiylik nimada degan savolga ulug' shoirning javobi:

*Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,
Futuvvat barcha qilmoqdir, demak yo'q.*

Demak, muruvvatli odam borini birovlariga beradi, o'zi yemaydi, jo'mard, mard, ya'ni futuvvatli odam esa ko'p ish qiladi, lekin qilgan ishi haqida hech kimga bir og'iz ham gapirmaydi.

Navoiy quyidagi fardida o'zining siniqligi – bechoraligini shu darajada tasvirlaydiki, siniqligini anglash uchun o'shanchalik bechoralikni ko'rish kerakligi anglashiladi:

*Men – sinuq, ko'nglim – sinuq, sabrim uyi xud yerga past,
Bilmagay holim shikastin, ko'rmagan muncha shikast.*

Shoir fardlarida o'zining ko'nglini o'rtagan, tuyg'ulariga ta'sir etgan holatlar mutoyibali yo'sinda tasvirlangan o'rinlar ham bor:

*Ul parikim, ani demishman yor,
Odamiylik'din o'zga barchasi bor.*

MUAMMO (arabcha, *«ko'r qilingan»*, *«berkitilgan»*) bir, ba'zan esa ikki baytdan iborat mustaqil she'r bo'lib, **a-a** yoki **a-b** tarzida qofiyalanadi. Muammoda biror ism yoki narsa-buyum nomi berkitiladi. Berkitilgan so'z shoirning turli-tuman ishoralari: ma'nodosh yoki shakldosh so'zlarni topish, bir tildagi so'zning ikkinchi bir tildagi **muodili (ekvivalenti)ni** qo'llash, so'zlardagi ma'lum bir harflarni tizib, yangi so'z yasash, ba'zan esa abjad hisobini ishlatib raqamlar asosida so'z tuzish va boshqalar asosida topiladi. Muammoni yechish uchun dastavval asosiy e'tiborni matnda ishora qilingan kalit so'zga qaratish lozim bo'ladi.

Turkiy adabiyotda muammo janri Alisher Navoiy ijodidan boshlangan. Uning «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotida 52 ta muammo mavjud, ularning barchasi kulliyotdagi ikkinchi devon – «Navodir ush-shabob»ga kiritilgan.

Alisher Navoiy muammolari, asosan, bir baytli bo'lib, faqat «Qosim» ismiga bitilgan muammogina 2 baytdan iborat.

Navoiyning ba'zi muammolarini ko'rib chiqsak:

*Qasdi jonimg'a chu mujgoning ikki saf tuzdi,
Biri qosh yosi, biri g'amzang o'qin ko'rguzdi.*

Bu muammoda kalit soʻz «صف» – «saf» jumlasini orqali koʻrsatilgan, matnda bu soʻz «ikki» soʻzi bilan keltirilishi uning yechimi ham ikkita ekanligiga ishora qiladi. Birinchi «saf»ga qosh yosi, yaʼni «ی» «yoy» (i) harfi, ikkinchisiga gʻamza oʻqi, yaʼni «ا» «alif» (o) harfi qoʻshiladi, natijada «صفی» – «Safi» va «صفا» – «Safo» soʻzlari kelib chiqadi.

*Qilur esang manga somon, ayo rafiq, havas,
Aning ayog'iga yetkur mening boshimni-yu bas.*

Bu muammoda asosiy eʼtibor «سامان» – «somon» (osoyishtalik) soʻziga qaratilgan. Ikkinchi misradagi «aning ayogʻiga boshimni yetkur» jumlasidagi ishoraga koʻra «ا» – «alif» (o)ning oyogʻi, yaʼni pastki qismiga «م» – «mim» (m)ning boshini yetkazish talab qilinadi, natijada «ا» – «alif» harfi «ل» – «lom» harfiga aylanib, «م» – «mim»ga qoʻshiladi va «سلمان» – «Salmon» soʻzi kelib chiqadi.

Alisher Navoiyning mazkur janr nazariyasiga bagʻishlangan maxsus asari ham mavjud boʻlib, fors-tojik tilida yozilgan. Asar «*Mufradot*» yoki «*Risolayi muammo*» deb ataladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham muammo janrida barakali ijod qilgan, uning bizgacha 60 ga yaqin muammosi yetib kelgan. Namuna:

*Hajr shomi sochi savdosi chekar har yon meni,
Vahki, bu poyoni yo'q tun qildi sargardon meni.*

Mazkur muammoda «shoh» soʻzi yashiringan. Uning ochqichi «shom» (شام). «Shom» soʻzi 3 harfdan: «shin» (ش), «alif» (ا), «mim» (م)dan tarkib topgan. Shoirni hijron shomida yor sochining savdosi qiynaydi («mim» – م ning pastga tushgan qismi oʻrilgan sochni eslatadi).

Ikkinchi satrda poyoni yo‘q tun – etagi yo‘q «shom» («mim»ning pastki qismi ketib, hoyi havvazga – o‘ga aylanib qolishi) shoirni sargardon qiladi.

She‘rdagi «**hajr**», «**shom**», «**soch**», «**savdo**» so‘zlaridan yaratilgan tanosub, «**har yon chekmoq**», «**sargardon qilmoq**»dagi mutanosiblik muallifning favqulodda salohiyat egasi ekanligiga yorqin dalildir.

RUBOIY (arabcha, «*to‘rtlik*») ikki baytdan iborat mustaqil she‘r bo‘lib, dastlab fors-tojik she‘riyatida, Abu Abdulloh Rudakiy ijodida paydo bo‘lgan. Maktab darsligidagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Ibn Sino fors tilida ruboiy janrini boshlab bergan shoir hisoblanadi.

Ruboiylar falsafiy, axloqiy, diniy va ishqiy mavzularda yozilgan.

Ruboiyning 2 xil turi bor:

- 1) **xosiy ruboiy yoki ruboiyi xosa** (qofiyalanishi: a-a, b-a):

Sen borg‘ali ortmish ko‘ngul zorlig‘i,

Oh o‘qlaridin har nafas afgorlig‘i.

Bilman unutulg‘anmu ekandur manga hajr

Yo ko‘prak erur bu qatla dushvorlig‘i.

- 2) **taronayi ruboiy yoki ruboiya** (qofiyalanishi: a-a, a-a):

Ollimda tabibi chorasozim ham yo‘q,

Yonimda rafiqi dilnavozim ham yo‘q.

Tegramda anisi jongudozim ham yo‘q,

Boshimda shahi bandanavozim ham yo‘q.

Ruboiy muayyan kompozitsiyaga ega. Mumtoz ruboiy talablariga ko‘ra, unda to‘rt unsur mavjud bo‘ladi. Mazkur unsurlar to‘rt misrada aytilmoqchi bo‘lgan falsafiy, axloqiy yoki didaktik fikrning ma‘lum bir yaxlitlikka erishishini ta‘minlaydi. Shu ma‘noda to‘rt misrani quyidagi unsurlarga taqsimlash mumkin:

- 1) *tezis* – unda ruboiyda aytilmoqchi bo‘lgan fikr, boshqacha aytganda, ruboiy mavzusi bayon qilingan bo‘ladi;
- 2) *antitezis* – bunda birinchi misraga qarama-qarshi fikr aytiladi;
- 3) *moddayi ruboiy* – to‘rtinchi misrada aytilmoqchi bo‘lgan fikr uchun ko‘prik vazifasini o‘taydi;
- 4) *sintez* – xulosa.

Lekin bu unsurlarning doimiy mavjud bo‘lish talabi nisbiydir, ko‘pincha tezis va antitezisning o‘rniga faqat moddayi ruboiy va sintezning qo‘llanilganini kuzatish mumkin. Yuqorida keltirilgan ruboiyda ham oshiq kechinmalari, asosan, moddayi ruboiy tarzida berilgan.

Ruboiy o‘ziga xos maxsus vaznda yoziladi. Bu *hazaj bahrining axrab va axram shajarasidir*. Bu haqda Navoiy «Mezon ul-avzon» asarida shunday yozadi: «*Ruboiy vaznikim, oni «dubaytiy» va «taron» ham derlar, hazaj bahrining «axram» va «axrab»idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va vaznedur bag‘oyat raboyanda*». Hazaj bahrining axrab shajarasi 12 vaznni, axram shajarasi yana 12 vaznni o‘z ichiga oladi va ushbu jami 24 vazn ruboiy vaznlari hisoblanadi.

Fors-tojik adabiyotida ruboiy janrida Umar Xayyom, Mirzo Abdulqodir Bedil shuhrat qozongan. O‘zbek she‘riyatida esa Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur ruboiylari juda mashhur bo‘ldi. Hozirgi zamon o‘zbek adabiyotida ham ruboiy yozish an‘anasi davom etadi. Masalan, M.Shayxzoda, A.Oripovning ruboiylari bor.

TUYUQ (turk. *«his qilmoq», «tuymoq»*) to‘rt misradan iborat mustaqil she‘r shakli bo‘lib, faqat turkiy xalqlar she‘riyatida qo‘llanilgan. Turkiy adabiyotdagi dastlabki tuyuq Lutfiy devonida uchraydi, lekin N.Mallayevning yozishicha, turkiy adabiyotda tuyuqning ilk namunalari *Burhoniddin Sivosiy* tomonidan yaratilgan.

Tuyuq, aytilganidek, sof turkona janr. Uning uch muhim xususiyati bor:

1. **To‘rt misrali bo‘ladi.**
2. **Aruzning muayyan vaznida yoziladi.**
3. **Tajnis shaklan bir xil so‘zlar bilan qofiyalanadi.**

Bu talablar shoirni cheklaydi, qolipga soladi, albatta. Lekin katta iste'dodlar shu doirada ham yuksak san'at namunalarini yarata olganlar. Lutfiy tuyuqlaridan namunalar ko'ramiz:

*Ko'ngluma har yonki boqsam, **dog'i bor,***

*Har necha dardimni desam, **dog'i bor.***

Qilcha tanga bori ishqing yor edi,

*Bir sori bo'ldi firoqing **dog'i bor.***

Ushbu tuyuqda «dog'i» tajnis so'zi yara, tag'in, tog' singari uch ma'noda kelyapti. Tuyuq misrama-misra qaralganda quyidagi ma'nolar ifodalanayotgani ko'rinadi:

1. *Ko'nglimning har tomoniga boqib ko'rdimki, yarasi bor.*

2. *Dardimni qanchalik aytmay, ado bo'lmay tag'in qoladi.*

3. *Ishqingning barcha yukini qildek tanim ko'tarib kelardi.*

4. *Firoqingning tog'i ustiga ustak bo'ldi.*

Lutfiyning boshqa bir tuyug'ida ma'shuqaning loqaydligidan, oshiqqa beparvoligidan yozg'irishi g'oyat mahorat bilan nozik tasvir etilgan:

*Charxi kajraftor elindin **yozamen,***

*Chiqmadim hijron qishindin **yoza men.***

Bir meni yorliq bila yod etmas ul,

*Har necha ul shahga qulluq **yozamen.***

Tuyuqning birinchi misrasi so'ngidagi «yozamen» so'zi yozg'iraman, zorlanaman ma'nolarini anglatadi. Ikkinchi misrada esa ayni shu so'z «yoza men» shaklida berilib, yoz (fasl)ga men ma'nosida keladi. She'rning uchinchi satridagi «yorliq» so'zi ham mukofot va yorlik singari ikki ma'noda ishlatilgan. Tuyuqning to'rtinchi qatoridagi «yozamen» so'zi yozaman, bitaman ma'nolarini bildiradi. Lutfiy tuyuqlari ham, odatga ko'ra, ramali musaddasi maqsur o'lchamida bitilgan.

Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon»da mazkur janrning xususiyatlari haqida yozadi:
«... Birisi «tuyug'«durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay
va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur, mundoqkim (tuyug'):

*Yo rab, ul shahd-u shakar **yo lab mudur?***

*Yo magar shahd-u shakar **yolabmudur?***

Foilotun foilotun foilon

Jonima payvasta novak otqoli

*G'amza o'qin qoshig'a **yolabmudur?***

Foilotun foilotun foilon».

Bu o'rinda Alisher Navoiy tuyuqning uch jihatiga: ikki baytli bo'lishi, tajnisga asoslanishi va maxsus vaznda – **ramali musaddasi maqsur (mahzuf)**da yozilishiga diqqat qaratyapti. Bobur «Muxtasar»da tuyuqning bir necha nav'lari haqida gapirib, tajnisli tuyuqlarning olti xilini ko'rsatadi. Ulardan eng xarakterlilari quyidagilardir:

- 1) 1-, 2-, 4-misralarida qofiya sifatida tajnis ishlatilgan tuyuqlar;
- 2) har to'rt misrasida qofiya o'rnida tajnis ishlatilgan tuyuqlar;
- 3) qit'a tuyuqlar (juft misralargina qofiyalanadi va ular tajnis so'zlardan iborat bo'ladi).

Bu uch turning ham eng kam uchraydigani bari to'rt misrasi tajnisli qofiya bo'lib kelgan tuyuqdir. Boburning shunday tuyuqlaridan biri:

Vasldin so'z derg'a yo'q yoro manga,

Hajr aro rahm aylag'il, yoro, manga,

O'qung etti ko'p yamon yoro manga,

Marhami lutfing bila yoro manga.

«Yoro» so'zi to'rt o'rinda to'rt ma'noda kelayotir:

- 1) kuch, mador; 2) ey yor; 3) yara; 4) yaramoq, yordam bermoq.

Tajnissiz tuyuqqa Boburdan misol keltiramiz:

*Yo 'qturur nozingdin ozore manga,
Noz agar qilsang manga matlubdur.
Xoh ko 'rsat lutf-u xohi javr qil,
Har ne voqe' bo 'lsa sendin xo 'bdur.*

Ramali musaddasi maqsur (*foilotun foilotun foilon, foilotun foilotun foilon*)da yozilgan. Qit'adek (**a-v-b-v**) qofiyalangan. Binobarin, faqat vazni tufayli tuyuq bo'lib turibdi.

Tuyuq, asosan, ruboiy singari qofiyalansa-da, lekin ba'zan **ba, va** tarzida ham qofiyalanishi mumkin. Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotida jami 13 tuyuq mavjud bo'lib, 11 tasi **a-a-b-a**, 2 tasi **b-a-v-a** tarzida qofiyalangan. Barcha tuyuqlar «Badoye' ul-vasat» devoniga kiritilgan.

G'AZAL arabcha «oshiqona so'z», «ishq izhor qilish», «ayollarga xushomad» ma'nolarini bildirib, **a-a, b-a, s-a, d-a...** tarzida qofiyalanuvchi she'r shaklidir.

G'azalning dastlabki namunalari VIII – IX asrlarda arab adabiyotida paydo bo'lgan, fors-tojik adabiyotida ilk g'azal yozgan shoir sifatida **Ro'dakiy** tilga olinadi. O'zbek adabiyotida esa dastlabki g'azal Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asarida (XIV asr) uchraydi. G'azalning dostonlar tarkibida uchrashi ilk bor Xorazmiyning «**Muhabbatnoma**»*sidan* (1353 – 1354) boshlanadi.

Alisher Navoiy o'zining qit'alaridan birida g'azaldagi ustozlari sifatida fors-tojik shoirlari Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Hofiz Sheroziyni keltirib o'tadi.

G'azal baytlardan tashkil topadi. **Bayt arabcha «uy» deganidir.** Bayt ikki misradan iborat bo'ladi. G'azalning birinchi bayti **matla'** (arabcha «boshlanma»), oxirgi bayt **maqta'** (arabcha «tugallanma») deyiladi. G'azal o'ziga xos qofiyalanish tartibiga ega. Birinchi bayt – matla'dagi misralar bir-biri bilan o'zaro qofiyalangan bo'ladi (shartli ravishda **a-a** deb belgilanadi). Qolgan baytlarning toq misralari ochiq qolib, juft misralari matla'ga qofiyadosh bo'lib keladi (v-a, d-a, e-a...). An'anaga ko'ra, maqta'da shoirning

taxallusi keltirilgan. Ilmiy adabiyotlarda gʻazalning hajmi 3 baytdan 19 baytgacha boʻlishi qayd etiladi.

Oʻzbek adabiyotida 5 – 10 baytli gʻazallar koʻp uchraydi. Navoiy gʻazallari esa, asosan, 7 baytdan 13 baytgacha hajmda boʻlib, bu haqda shoirning oʻzi «Badoyeʼ ul-vasat» devoniga kiritilgan qitʼasida shunday maʼlumot beradi:

Navoiy sheʼri toʻqquz bayt-u oʻn bir bayt, oʻn uch bayt

Ki, lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin.

Bukim, albatta, yetti baytdin oʻksuk emas, yaʼni

Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin.

Gʻazalning birinchi bayti *matlaʼ* yoki *mabdaʼ*, oxirgi bayti esa *maqtaʼ* deb ataladi va maqtaʼda shoir taxallusi qoʻllaniladi. Agar ikkinchi bayt ham matlaʼ singari qofiyalansa, yaʼni gʻazal qoʻsh matlaʼga ega boʻlsa, «*husni matlaʼ*» yoki «*zebi matlaʼ*»li gʻazal deb ataladi.

QITʼA (arabcha, «*parcha*», «*boʻlak*», «*qism*») 2 baytdan bir necha baytgacha hajmda boʻlgan, faqat juft misralari qofiyalanadigan (*b-a* , *v-a*, *g-a...*) baytli sheʼr shakli hisoblanadi. *Turkiy adabiyotda qitʼaning ilk namunalari Nosiruddin Rabgʻuziyning «Qisasi Rabgʻuziy» asarida uchraydi.*⁷

Qitʼa, asosan, falsafiy, ijtimoiy va axloq-odob bilan bogʻliq mavzularda yaratilgan. Shuningdek, qitʼa nasriy asarlarda maʼlum bir masala haqidagi fikr-mulohazalarga yakun sifatida «qissadan hissa» tarzida keltirilgan.

MUSTAZOD arabcha «*orttirilgan*», «*ziyoda qilingan*» maʼnolarini bildirib, har misrasi 1,5 qatordan iborat sheʼr shaklidir. Mustazod uchun gʻazal asos – zamin vazifasini oʻtaydi. Ikkala janrning qofiyalanish tizimi, baytlar soni, matlaʼ va maqtaʼ, taxallusning mavjudligi bu fikrni isbotlaydi. Lekin gʻazal aruz tizimining barcha bahrlarida yaratilgani

⁷ Adabiyotshunoslikda turkiy adabiyotdagi ilk qitʼa Xorazmiy «Muhabbatnoma»sida uchraydi degan qarash bor. «Qisasi Rabgʻuziy»dagi sheʼriy parchalarning janr xususiyatlarini oʻrganish natijalari asarda qitʼa janriga mos keluvchi sheʼr mavjudligini koʻrsatdi.

holda, mustazod faqat hazaj bahrining **hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod** (ruklari va taqti'i: *maf'ulu mafoiylu mafoiylu fauflun maf'ulu fauflun – – V / V – – V / V – – V / V – – / – – V / V – –*) vaznida yoziladi.

Turkiy adabiyotda Alisher Navoiygacha mustazod janri Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi. Uning devonida har biri 7 baytdan iborat ikkita mustazod mavjud.

Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» asarida mustazod janriga alohida ta'rif berib, uning ohangi surud nag'amoti (kuy ohangi)ga mos kelishini aytadi: «... *xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt boshlab bitib, aning misraidin so'ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag'amotig'a rost keltururlar ermish va ani «mustazod» derlar ermish...*»

Navoiyning o'z davrida nihoyatda mashhur bo'lgan mustazodlaridan biri «Navodir ush-shabob» devoniga kiritilgan bo'lib, shunday boshlanadi:

Din ofati bir mug'bachai moh-yu liqodur,

mayxora-vu bebok

Kim, ishqidin oning vatanim dayri fanodur

sarmast-u yaqom chok.

Ham turrasining dudu vara' beliga zunnor,

men kofiri ishq

Ham yuzi majus o'ti kibi shu'lafizodur,

men o'rtanibon pok...

QASIDA arabcha «*maqsad*», «*niyat*» ma'nolarini bildirib, biror tarixiy shaxs yoki voqeaga bag'ishlab yoziladigan katta hajmli she'r turi hisoblanadi. Qasidalar hajman 12 baytdan bir necha yuz baytgacha bo'lishi mumkin.

Qasida g'azal singari *a-a, b-a, s-a, d-a...* tarzida qofiyalanadi. Ayrim hollarda masnaviy singari qofiyalanishi ham mumkin. Qasida tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. Qasidayi tom (*to'liq qasida*) – bunda qasida to'rt qismdan tarkib topadi:

a) *nasib* – lirik kirish (tabiat tasviri);

b) *gurizgoh* – nasib bilan madhni bog'lovchi, 4 – 5 baytdan tashkil topuvchi qism;

c) *madh* – asosiy qism;

d) *qasd* – mamduh (madh etilayotgan shaxs)ga niyat va istaklar bildiriladigan qism.

2. **Qasidayi mujarrada** (*chala qasida*) – bunda faqat madh keltiriladi.

Qasidalar mavzusiga ko‘ra *vasf, madh, hajv, marsiya, munojot va falsafiy* qasidalarga bo‘linadi. Turkiy adabiyotdagi ilk qasida «*Devonu lug‘otit turk*»da «qo‘nug‘» shaklida uchraydi.

LUG‘Z arabcha *«topishmoq», «sir»* ma‘nolarini anglatadi. Lug‘z fors-tojik adabiyotida chiston (forscha *«nima u?»*) deb ham yuritiladi. Lug‘z biror predmet yoki hodisaning xarakter va belgilarini ta‘rif-u tavsif etish orqali kitobxonni o‘sha predmet yoki hodisani topishga undaydigan she‘r turidir. Lug‘z dastavval xalq og‘zaki ijodida vujudga kelgan bo‘lib, X – XII asrlardan fors-tojik she‘riyatida istifoda etila boshlagan. Lug‘zlar g‘azal, ruboiy va tuyuq kabi hajm, qofiya va boshqa shakliy jihatlardan qat‘iy qonuniyatga ega emas. Ular *fard, ruboiy, qit‘a, ba‘zan g‘azal singari qofiyalanishi mumkin*.

Turkiy adabiyotda lug‘zning ilk namunalari Alisher Navoiy ijodida uchraydi. Shoirning «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotida jami 10 ta lug‘z mavjud bo‘lib, barchasi «Badoye‘ ul-vasat» devoniga kiritilgan.

TA‘RIX muayyan voqea-hodisa yoki inson hayoti bilan bog‘liq biror sanani ochiq aytmay, arab alifbosidagi harflar vositasi, ya‘ni abjad usuli asosida ko‘rsatishdir. She‘rshunoslik ilmida ta‘rixga alohida she‘riy *janr sifatida ham, badiiy san‘at sifatida ham qarash mavjud*. Bu ikkala qarash ham muayyan asosga ega. Agar ta‘rix usuli katta hajmdagi asarlar: dostonlar, manzumalar tarkibida va ko‘pincha asarlarning oxirida kelsa, bu alohida janr bo‘lmasdan, *badiiy san‘at* hisoblanadi («Yusuf va Zulayxo», «Hayrat ul-abror» dostonlaridagi kabi).

Devonlar ichida alohida mustaqil she‘r shakli sifatida keltirilgan ta‘rixlarni *janr* sifatida talqin qilish mumkin. Shu ma‘noda «Devoni Foniyy» tarkibiga kiruvchi 16 ta ta‘rix alohida janr bo‘lib, ular qit‘a, ruboiy va to‘rtliklar shaklida yaratilgan.

Ta‘rixlar mavzusiga ko‘ra:

a) *kishilar tavalludi yoki vafotiga doir;*

- b) muayyan binolarning qurilishiga oid;*
- c) taxtga chiqish, fath va biror voqea-hodisa sodir bo'lgan sanaga bag'ishlab yaratilishi mumkin.*

Alisher Navoiy ta'rixlari, asosan, kishilar vafotiga oid (*mutavaffiyot*) yo'nalishida bo'lib, hazrat Navoiyning ustozlari va do'stlari Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad, Sayyid Hasan Ardasher, Xoja Ubaydulloh Ahror, Sulton Mahmud kabi shaxslarning vafot sanasiga bag'ishlangan. Masalan, Abdurahmon Jomiy vafotiga bag'ishlangan ta'rixda «*خدا بیامرز*» – «*Xudo biyomurzad*» jumlasini ta'rix sanasi sifatida keltiriladi:

*Sarvi chamani hayot Abdurahmon,
Ko'raft az in dayri fano so'i jinon.
Ta'rix chunin voqeyi g'ussarason,
Gar mexony «Xudo biyomurzad» xon.*

(Mazmuni:

Hayot chamanining sarvi – Abdurahmon

bu foniy dunyodan (ruhi) jannatga ketdi.

G'am-g'ussa yetkazuvchi shunday voqealarning ta'rixini o'qiganingda: «Xudo biyomurzad», – deb o'qi).

Mazkur ta'rixdagi «*خدا بیامرز*» – «*Xudo biyomurzad*» jumlasidagi harflar abjad hisobiga ko'ra belgilanganda hijriy 989-, milodiy 1492-yil kelib chiqadi. Ushbu ta'rix ruboiy shaklida yozilgan.

Bandli she'riy janrlar

MASNAVIY arabcha «*ikkilik*» ma'nosini bildirib, har bandi ikki misradan tarkib topuvchi va *a-a, b-b, v-v...* tarzida qofiyalanuvchi she'r turidir. Navoiy o'zining «Sab'ayi sayyor» dostonida mazkur janrni alohida tavsiflab, uni «vase'» – keng maydon deb ataydi:

*Masnaviykim, burun dedim oni,
So 'zda keldi vase ' maydoni.*

Mumtoz adabiyotimiz tarixida yaratilgan masnaviylarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin:

- 1) *lirik masnaviy* (shoirning lirik kechinmalari, his-tuyg'ulari ifoda etiladigan she'r shakli);
- 2) *epik masnaviy yoki doston* (syujet asosiga quriladigan katta hajmli asar).

SOQIYNOMA soqiy (*may quyuvchi*)ga murojaat qilib yozilgan, masnaviy shaklida qofiyalanadigan katta hajmli she'r bo'lib, bir necha bandni o'z ichiga oladi. «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotida bitta soqiynoma mavjud bo'lib, «Favoyid ul-kibar» devoni tarkibiga kiritilgan. Alisher Navoiy soqiynomasi turli hajmdagi 32 qism (band)dan iborat. Jami 458 baytni o'z ichiga oladi.

TARJI'BAND arab tilidan olingan atama bo'lib, «*tarji*» va «*band*» so'zlaridan tashkil topgan. «*Tarji*» so'zi «*qaytarish, takrorlash*» ma'nosini anglatadi. «*Band*» so'zi «*kishan, qamoq, to'xtatish, bog'lash*» ma'nolarida kelib she'riy janrlardagi misralarning miqdoriy tartibini bildiradi. Adabiy atama sifatida esa bir necha banddan iborat bo'lib, g'azal singari qofiyalanadigan, birinchi bandning maqta'si qolgan bandlarning so'ngida ham takrorlanadigan she'r turini anglatadi. U mumtoz she'riyatimizda keng uchraydigan adabiy janrlardan.

Turkiy adabiyotda tarji'bandning ilk namunalari Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi. Uning devoniga 3 ta tarji'band kiritilgan.

Alisher Navoiyning tasavvufiy mazmunga yo'g'rilgan ijtimoiy-falsafiy ruhdagi «*Dahr uyi bunyodikim, suv uzradur, mahkam emas*» tarji'bandi dunyo omonat binoga, bo'yi, vafosi yo'q gulshanga, jafokor tuban ayyoraga o'xshatiladi va insonni unga ko'ngil berib, aldanib qolmaslikka chaqiradi.

Tarji'bandlar ko'pincha falsafiy mavzuda yozilgan. Alisher Navoiyning «G'aroyib us-sig'ar» devonidan joy olgan «Xarobot aro kirdim oshuftahol...» tarj'ibandi quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

*Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast,
Aning nash'asidin ko'ngul erdi mast.
Mayikim, qilur quysalar jom aro,
O'zi mast-u kayfiyati mayparast.
Eshit sarguzashteki, bukun manga
Necha mayparast o'ldilar hamnishast...*

Ko'rinadiki, tarji'bandning birinchi bandi g'azalga o'xshab qofiyalanadi. Ya'ni birinchi bayt o'zaro «*alast – mast*» tarzida qofiyalangan, qolganlarida esa toq misralar ochiq qolib, juft misralar o'zaro qofiyalanib kelayotir: «*alast – mast*», «*mayparast – hamnishast*». Boshqacha aytganda, qofiyalanish tizimi xuddi g'azaldagiday **a-a, b-a, v-a, g-a** shaklida. Tarji'bandning o'n bayt yoki yigirma satrdan tarkib topgan birinchi bandi quyidagi bayt bilan yakunlanadi:

*Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing'on safol.*

Mazkur tarji'band o'n band – ikki yuz satrdan iborat. Har bir band «*Xarobot aro kirdim oshuftahol, May istarga ilgimda sing'on safol*» maqta'si bilan yakunlanadi. Ushbu bayt mazmun va ruhiga ko'ra barcha bandlarni bir-biriga bog'lab turadi. She'rga boy hayotiy kuzatishlarga tayangan teran falsafa asos qilib olingan. Bu kuzatishlar, bir tomondan, yengil mutoyibaga yo'g'rilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jiddiy xulosa-hukmlari bilan xayolingizni egallab oladi. Masalan, dastlabki bandda oshiqning qiziqarli bir sarguzashti hikoya qilingan: u bir necha mayxo'r do'stlari bilan mayxonaga kirib qolib, ko'zi piri mug'on (mayxona egasi)ga tushibdi. Birdan uning jozibasi oshiqni mahliyo etib, havaskor mayxo'r qarmoqqa ilingan baliqdek inon-ixtiyorini yo'qotib

qo'yadi. Darveshlik libosini garovga berib bir ko'zacha may oladi. Og'zini mum bilan mahkam berkitib, mastona qadam bosib kelmoqda edi, hamshishalari yugurishib kelib ko'zacha ichida nima borligini tekshirishga tushib ketadilar. Oshiq bechora oyoqlar ostida qolib, hamma narsa shunday ag'dar-to'ntar bo'ladi... «Mening shikastlanganim hech narsa emas, ko'zacha chil-chil bo'lib, chorasiz qolgan edim», – deb davom etadi o'z sarguzashtini oshiq. «May ichish istagida parishon bir holda mayxonaga kirdim. Qo'limda singan safol idish» mazmunidagi yuqorida keltirilgan maqta' – bayt bu voqeani o'ziga xos tarzda yakunlaydi.

Shu tariqa har bir band soqiyga murojaat bilan boshlanadi va oshiqning aftodahol ahvoli tasviri bilan tugallanadi. To'g'ri, sarguzasht faqat birinchi bandda, qolganlarida asosiy o'rinni hol tasviri egallaydi. Shoir goh umrning foniyligidan g'alayonga kelib mayxonada g'avg'o ko'tarmoqchi bo'ladi, goh safol ichidagi mayda jahonning jilvalanishini tomosha qiladi. Goh may xumoridan oshuftahol bo'lib, soqiydan «og'ziga may quy»ishini o'tinadi. Lekin ushbu tarji'bandning har jihatdan eng yuksak va mukammal bandi so'ngisidir. U tarji'bandni yakunlaydi. Ilohiy ishq tasviri mazkur bandda o'zining haddi a'losiga ko'tarilgan:

*Nechuk may bila bo'lmasun ulfatim
Ki, jon qasdi aylar g'am-u mehnatim.
Nazar ayla bu korgoh vaz'ig'a
Ki, ortar tamoshosida hayratim.
Quyosh yo'qki, bir zarra mohiyatin
Topa olmadi sa'y ila fikratim.
Ne kelmak ayon bo'ldi, ne ketmagim,
Ne mabda' yaqin bo'ldi, ne raj'atim.
Ne kasbi ulum etti hal mushkulim,
Ne tutti ilik taqvi-yu toatim.
Topay deb xabar ushbu maqsuddin
Tutashti base qavm ila suhbatim.
Mening boshima bas qotiq tushdi ish,*

*Chu toq o'ldi bu dard ila toqatim.
Xarobot aro kirdim oshufta hol,
May istarga ilgimda sing'on safol.*

Bandda dunyoni anglamoq, o'zini bilmoqqa tiyiqsiz ishtiyoqmand oshiqning iztirob va kechinmalari o'z ifodasini topgan.

Shoir o'z fikrlarini quyidagicha dalillaydi: bu dunyo tuzumiga nazar sol, tomosha qilganing sayin hayrating ortadi. Mening fikr-u g'ayratim quyosh u yoqda tursin, bir zarraning mohiyatini ham anglab yetolmadi. Na kelishim ayon bo'ldi, na ketishim. Na ularning sabab-oqibatini tushunib yetoldim. Bularni bilmoq qasdida egallaganim ilm ham mushkulimni oson qilolmadi. Anglamoq ilinjidagi taqvo-toatim ham yordam bera olmadi. Ushbu maqsadda odamlar bilan suhbatga zo'r berdim, natija bo'lmadi. Bu dardimga na hakim iloj qiloldi, na shayx daf etoldi. Shuncha harakatim zoye ketdi, samara bermadi. Na biror niyatga yetolaman, na niyatdan voz kechib ketolaman. Boshimga juda og'ir ish tushdi. Bu dard bilan toqatim toq bo'ldi. Shu bois *«May ichish istagida parishon bir holda mayxonaga kirdim. Qo'limda singan safol idish»*.

Shu tariqa shoir xarobot – mayxonaga kelish yo'lini atroflicha asoslaydi. Bu holatni tasavvufdagi ramzlarni tushunish orqali tahlil etish mumkin. Unga ko'ra:

- **May – Alloh ishq.**
- **Xarobot – ahli darveshlar, soliklar, ya'ni yo'lichilar.**
- **Soqiy – Alloh yo'liga boshlovchi piri murshid.**
- **May ichiladigan jom – oshiq qalbi.**

Shoir Yaratganini, demakki, o'zini izlayotgan, tushunmoqchi bo'layotgan, dunyo tartibotini anglashga intilayotgan shaxs ruhiyati, iztiroblarini yoritadi.

Tarji'band epik dostonlarga xos bo'lgan **mutaqorib bahri** (*fauvlun fauvlun fauvlun fauwl*)ni tanlash orqali mazmun va ohang uyg'unligiga erishgan.

Nodirabegimning «Xating ishtiyoqin savod ayladim» deb boshlanadigan bir asari ham tarji'bandning yaxshi namunasidir:

*Xating ishtiyoqin savod ayladim,
Ko 'zumning qorasin midod ayladim.
Meni baski devona qildi g 'aming,
Junun ahlig 'a ittihad ayladim.
Ko 'rub tushda yuzingni beixtiyor,
Fig 'on chektim andog 'ki, dod ayladim.
Rafiqim jigarxasta afgorlar,
Alar birla ahli vidod ayladim.
Seni jud-u ehsona targ 'ib etib,
Xitobingni xayruljavod ayladim.*

TARKIBBAND «biriktirib bog'lamoq» ma'nosini bildirib, qofiyalanish tizimi va hajmiga ko'ra tarji'bandga yaqin turadi. Faqat, undan farqli o'laroq, tarkibbandda har bandning maqta'si o'zaro qofiyalanuvchi va bir-birini takrorlamaydigan mustaqil baytlardan iborat bo'ladi. Alisher Navoiyning «Navodir ush-shabob» devonidan o'rin olgan tarkibbandi marsiya yo'nalishida bo'lib, ustoz va do'sti Sayyid Hasan Ardasher xotirasiga bag'ishlangan, hajman 56 baytdan iborat.

Tarkibband quyidagi band bilan boshlanadi:

*Dahr bog 'iki jafu shoriidur har chamani,
Juz vafo ahlig 'a sonchilmadi aning tikani.*

*Kimdakim dog 'i vafo ko 'rsa shahid aylamasa,
Lolasining ne uchun qong 'a bo 'yalmish kafani?*

*Poymol etmasa andinki kelur mehr isi,
Oyog ' ostida nedin qoldi giyohi damani.*

Safhayi xotiri pok o 'lmasa barbod andin,

Bas, ne sovrulmoq erurkim ko‘rar aning samani.

*Rostlar bo‘lsa aning arsasida barxo‘rdor,
Javrdin, bas, nega bebarlik erur sarvi fani.*

*Gar yaqin ahlini Mansur kebi qatl etmas,
Bas, nedindur shajar-u sunbuli dor-u rasani.*

*V-ar kamol ahli jaloyi vatan ermas andin,
Nega tufrog‘dur ul akmali davron vatani.*

*Bahri urfon duri Sayyid Hasan ulkim aflok,
Yetti durji aro bir ko‘rmadi andoq duri pok.*

MUSAMMAT so‘zi lug‘aviy jihatdan «ipga terilgan marvarid» degan ma‘noni anglatadi. Uning istilohiy ma‘nosi ham shundan kelib chiqadi. Ya‘ni bu tushuncha she‘rlar bandlarining baytdan tashqari turlarini anglatuvchi umumiy atama hisoblanadi.

Musammatlar yaratilish xususiyatiga ko‘ra, avvalo, ikkiga bo‘linadi:

1. Mustaqil (tab‘i xud) musammatlar.

2. Tazmin (biror g‘azal asosida – zaminida yaratilgan) musammatlar.

Musammatlarni bandlardagi misralarning soniga qarab ham bir necha turga ajratish mumkin:

1. Musallas (har bandi uch misradan tashkil topgan) musammatlar. O‘zbek adabiyotida musallas janri talablariga javob beradigan ilk she‘rlar «Qisasi Rabg‘uziy» tarkibida keladi. Adabiyotshunoslikda Hamza Hakimzoda Niyoziyning ijtimoiy mavzudagi musallaslari ilk musallaslar sifatida qaraladi.

2. Murabba‘ (har bandi to‘rt misradan tashkil topgan) musammatlar. Murabba‘ning ilk namunasi Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida uchraydi. Muqimiy «Sayohatnoma»lari murabba‘ shaklida yozilgan.

3. Muxammas (*har bandi besh misradan tashkil topgan*) musammatlar. **Muxammas** arabcha *«beshlik»* ma'nosini bildirib, har bandi 5 misradan iborat she'r hisoblanadi va **a-a-a-a**, **b-b-b-b-a**, **s-s-s-s-a** tarzida qofiyalanadi. Muxammas musammat (bandli she'r)ning bir turi bo'lib, yaratilish xususiyatiga ko'ra ikki xil:

1) tab'i xud (mustaqil);

2) taxmis (g'azalni beshlantirish asosida yaratilgan).

Tab'i xud muxammasda shoir o'zga shoir she'rini asos qilib olmasdan, o'zi mustaqil ravishda beshlik yaratadi. Taxmisda esa muallif o'zga shoir yoki ba'zida (juda kam hollarda) o'z g'azalini asos – zamin qilib olib, shu mavzuni davom ettirgani holda, vazn, qofiya va radifni saqlab qolib beshlik yaratadi. Bunda asos qilib olingan g'azaldagi har baytning yuqori qismiga uch misra qo'shiladi. Maqta' bandda taxmis bog'layotgan shoirning taxallusi ham keltiriladi. Mumtoz adabiyotimiz tarixida ko'plab muxammaslar mavjud bo'lib, ularning ba'zi namunalarini keltiramiz.

Husayniy – Husayn Boyqaroning Alisher Navoiy g'azaliga bog'lagan muxammasi quyidagi misra bilan boshlanadi:

La'li jonbaxshingdin ayru obi hayvonni netay?..

Har dam ar yuz jon berur, jononasiz jonni netay?

Gar emas manzur yuzing, hur-u g'ilmonni netay?

Gulshani ko'yungdin ayru bog'i rizvonni netay?

*Boshima gar gul sochar, sensiz gulafshonni netay?*⁸

Turdi Farog'iyning Xo'jand viloyatida, shahid Oqbo'tabiy davrida bitilgan turkiy muxammasining ilk bandi esa quyidagicha:

Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar ko'rdiman,

Rind sarxayli-yu xush ayshi damodam surdiman,

Halqayi ushshoqda bazmi majolis qurdiman,

Mushti xokam, davr-u davronlar(ni lekin) ko'rdiman,

⁸ Taxmis bog'langan g'azal qoraytirib, ajratib ko'rsatildi.

Xushdimog' etgan mayi sofi hariflar durdiman.

Boborahim Mashrab Alisher Navoiyning «Kelmadi» radifli g'azaliga o'xshatma – nazira tarzida quyidagi misra bilan boshlanadigan muxammasni bitgan:

*Va'da qildi bir kelay deb, ko'zga uyqu kelmadi,
Telmurub yo'lida qoldim sho'xi badxo' kelmadi,
Necha keldi shum raqiblar, ul parirol' kelmadi,
Dardidin o'ldum, tabib, dardimg'a doru kelmadi,
Men shahidi ishq bo'ldum qatrayi suv kelmadi...*

Shermuhammad Munis ijodida muxammaslar alohida o'rin tutib, Navoiy va Fuzuliyga bog'lagan muxammaslarini misol tariqasida keltirish mumkin. Munisning Navoiy g'azaliga bog'lagan bir muxammasi quyidagicha boshlanadi:

*Shirinsuxan Laylivashim vaqtiki qohir bo'lg'usi,
Tig'i siyosat tortibon qatlinga hozir bo'lg'usi,
Tan chirkidin jonim mening ul lahza tohir bo'lg'usi,
Ishq ahli go'ristonida qabrim chu zohir bo'lg'usi,
Farhod oning toshin yo'nub, Majnun mujovir bo'lg'usi.*

Munisning Fuzuliy g'azaliga muxammasi ilk bandi quyidagicha:

*Falak shabgun ko'ngul dudin namoyon etdigumdandur,
Zamin gulzor qon yoshim gulafshon etdigumdandur,
Jahonda sho'ri rasvolig' farovon etdigumdandur,
Parishon xalqi olam oh-u afg'on etdigumdandur,
Parishon o'ldug'um xalqi parishon etdigumdandur.*

Furqatning «Adashganman» radifli ikki muxammasi bor:

1-muxammas:

*Kishi holimni bilmas, mehribonidin adashganman,
Vatan ovoradurmen, do‘stonidin adashganman,
Vatansiz benavodurmen, makonidin adashganman,
G‘aribi ko‘yi g‘urbat, xonumonidin adashganman,
Vayo bir murg‘i vahshiy oshiyonidin adashganman.*

2-muxammas:

*Manam sho‘rida bulbul bo‘stonidin adashganman,
Yuzi gul, qomati sarvi ravonidin adashganman,
Dilim hajri-la qondur, dilistonidin adashganman,
G‘aribi ko‘yi g‘urbat xonumonidin adashganman,
Vayo bir murg‘i vahshiy oshiyonidin adashganman.*

Zavqiyning «Ajab ermas» radifli muxammasi esa quyidagicha boshlanmaga ega:

*Bu kunlar boshimizda bir sahob o‘lsa ajab ermas,
Munavvar zimnida bir oftob o‘lsa ajab ermas,
Bu davlat suv yuzinda bir hubob o‘lsa ajab ermas,
Ko‘rinsa surat-u asli niqob o‘lsa ajab ermas,
Ochilsa pardalar yuzdin hijob o‘lsa ajab ermas.*

Avaz O‘tarning Navoiyga bog‘lagan muxammasi:

*Dil ishqinga muftalo bo‘lubdur,
Ham rasmi vafo ongo bo‘lubdur,*

*Oini jafo sango bo'lubdur,
Ko'zing ne balo qaro bo'lubdur
Kim, jong'a qaro balo bo'lubdur.*

Komil Xorazmiyning quyidagi misra bilan boshlanadigan muxammasi mashhur qo'shiqqa aylangan:

*Qaysi falak burjining mehri puranvorisan,
Qaysi sadaf durjining gavhari shahvorisan,
Qaysi Xo'tan ohusi nofayi totorisan,
Qaysi chamanzorning lolayi gulnorisan,
So'yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan?*

Zamondosh shoirlarda Omon Matjonning Navoiy g'azaliga bog'lagan quyidagi misra bilan boshlanadigan muxammasi bugun ham taxmis bog'lash an'anasi davom etayotganini bildiradi:

*Charx avzoyi bu dam avvalgilarg'a o'xshamas,
Kotib-u davr-u raqam avvalgilarg'a o'xshamas,
Endi inson qadri ham avvalgilarg'a o'xshamas,
Ko'nglum ichra dard-u g'am avvalgilarg'a o'xshamas
Kim, ul oyning hajri ham avvalgilarg'a o'xshamas.*

4. Musaddas (har bandi olti misradan tashkil topgan) musammatlar. **Musaddas** («oltilik») ham muxammas singari ikki turga bo'linadi:

- 1) *tab'i xud (mustaqil);*
- 2) *tasdis (g'azalni oltilantirish asosida yaratilgan).*

*Sayding qo'yaber, sayyod, sayyora ekan mendek,
Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek,*

*O‘z yorini topmasdan ovora ekan mendek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jigari bag‘ri sadpora ekan mendek.
(Furqat)*

5. Musabba’ (*har bandi yetti misradan tashkil topgan*) musammatlar. Turkiy adabiyotda musabba’ faqat Mashrab ijodida uchraydi.

6. Musamman (*har bandi sakkiz misradan tashkil topgan*) musammatlar. Alisher Navoiygacha turkiy she’riyatda ***musamman*** (*«sakkizlik»*) janri uchramaydi. Kulliyotda bitta musamman bo‘lib, u «Favoyid ul-kibar» devoniga kiritilgan. Musamman ***a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a, s-s-s-s-s-s-a*** tarzida qofiyalanib, 7 banddan – jami 56 misradan iborat. She’r ***muraddaf*** (*radifli*) bo‘lib, «ey ko‘ngul» jumlasini radif bo‘lib kelgan. Musamman ishqiy mavzuda: oshiqning yor ozoridan shikoyat qilib ko‘ngilga murojaati tarzida yaratilgan.

*Har taraf azm aylab ul sho‘xi sitamgor, ey ko‘ngul,
Tig‘i hajridin necha bo‘lg‘aybiz afgor, ey ko‘ngul,
Chun safar aylab edi bir qatla dildor, ey ko‘ngul,
Dardi hajrig‘a bo‘lub erduk giriftor, ey ko‘ngul,
Bo‘ylakim, ta‘rif etib g‘urbatni bisyor, ey ko‘ngul,
Shahr-u kishvardin malolat aylab izhor, ey ko‘ngul,
Anglading yo yo‘qmukim, aylar safar yor, ey ko‘ngul,
Vahki, bo‘lduq yana hajri ilgidin zor, ey ko‘ngul...*

Avaz O‘tarning quyidagi band bilan boshlanadigan musammani ham mumtoz adabiyotimizda o‘z o‘rniga ega:

*Har odamning talab yo‘lida gar ixlosi komildur,
Gumonsiz jumlayi maqsud birla komi hosildur,*

*Aning sha'nida go'yo oyati tasdiq nozildur,
Ramuzi ishqkim rohi haqiqat sori shomildur
Ki, ulvi manzilatlar zumrayi ushshoqa doxildur,
Bihamdillah, bu sirdin bulhavaslar xayli g'ofildur,
Murod shohidining vaslig'a sidq ahli vosildur,
Sadoqat fayzini bilgan kishi dono-vu oqildur.*

8. Mustasne' yoki tasne' (har bandi to'qqiz misradan tashkil topgan) musammatlar.

Turkiy adabiyotda mustasne' janri Fazliy Namangoniy ijodida uchraydi.

9. Muashshar yoki mashru' (har bandi o'n misradan tashkil topgan) musammatlar. Nodiraning «Firoqnoma» asari muashsharga misol bo'la oladi.

Mazkur muashshar quyidagi band bilan boshlanadi:

*Ohkim, behad menga javr-u jafo aylar falak,
Furqat ichra qismatim dard-u balo aylar falak,
Yordin ayru menga ko'p mojaro aylar falak,
G'am bila guldek yuzumni kahrabo aylar falak,
Bevafodur, oqibat kimga vafo aylar falak,
Hasrat-u dard-u alamga mubtalo aylar falak,
Yorni, albatta, yoridin judo aylar falak,
Gul bila bulbulni be barg-u navo aylar falak,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq, mehribon dildoridin ayrilmasun.*

Musammatlar qofiya tizimi ham to'rtga bo'linadi:

1. Musammatlar xuddi g'azal kabi qat'iy qofiya tizimiga amal qilishni talab etadi, ya'ni birinchi bandning barcha misralari o'zaro qofiyalanib, keyingi bandlarning faqat oxirgi satrlari birinchi bandga (masalan, musamman musammatda: **a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-a** va hokazo tarzda) qofiyalanadi.

2. Musammatlarning ikkinchi bir turida keyingi bandlarning oxirgi bir emas, ikki misrasi birinchi band qofiyasiga (masalan, musamman musammatda: *a-a-a-a-a-a-a-a*, *b-b-b-b-b-a-a*, *d-d-d-d-d-a-a* va hokazo tarzda) ohangdosh bo‘ladi.

3. Musammatlarning shunday turi ham borki, unda oxirgi ikki misra barcha bandlarda aynan – naqarot kabi takrorlanadi. Masalan, Zokirjon Furqatning jami yetti bandli «Sayding qo‘yaber, sayyod...» musaddasi shunday. Ya’ni uning birinchi bandi *a-a-a-a-a* tarzida qofiyalangan. Keyingi olti bandning dastlabki to‘rt misrasi *b-b-b-b*, *d-d-d-d*, *f-f-f-f*, *g-g-g-g*, *h-h-h-h*, *i-i-i-i* tarzida qofiyalangan. Lekin oxirgi ikki, ya’ni beshinchi va oltinchi misralar aynan naqarot tarzida takrorlanib keladi. Shu jihati bilan bu musammatning *a-a-a-a-a-a*, *b-b-b-b-a-a*, *d-d-d-d-a-a* va hokazo tarzda qofiyalanadigan turidan farq qiladi.

4. Musammatning yana bir turi bor. Bunda birinchi bandning barcha misralari bir qofiyaga bo‘ysundirilmagan bo‘ladi. Masalan, Nodiraning «Firoqnoma» muashsharining birinchi bandi *a-a-a-a-a-a-a-a-b-b* tarzida qofiyalangan. Asar jami o‘n banddan iborat. Muashsharning keyingi bandlari dastlabki sakkiz misrasi *b-b-b-b-b-b-b-b*, *d-d-d-d-d-d-d-d*, *f-f-f-f-f-f-f-f* va hokazo tarzda qofiyalanib keladi-da, to‘qqizinchi va o‘ninchi misralar sifatida birinchi bandning oxiridagi ikki misra aynan – naqarot tarzida takrorlanadi.

5.3. Zamonaviy she’riy janrlar

BALLADA she’riyatning o‘ziga xos janri bo‘lib, fransuzcha «*ballada*» so‘zidan olingan va «*raqs qo‘shig‘i*» ma’nosini anglatadi. Hajman u qadar katta bo‘lmagan bu xil asarlarda shoir o‘z his-tuyg‘ularidan tashqari ana shu tuyg‘ularga sabab bo‘lgan voqealarni ham tasvirlagan.

O‘zbek adabiyotida balladalar ko‘proq tarixiy-fantastik va qahramonlik yo‘nalishlarida bitilib, ularda o‘tmishda ko‘pchilikning foydasi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan kishilarning jasorati tasvirlangan.

Shoir Shuhrat qalamiga mansub «*Mardlik afsonasi*» balladasi xalqimizning shonli oʻtmishidagi qahramonliklardan birini tasvirlashga bagʻishlangan. Mirkarim Osimning «Toʻmaris» afsonasi Shuhrat tomonidan boshqacharoq talqin etilgan. Agar «Toʻmaris» afsonasida voqealar yozuvchi tomonidan xolis tasvirlangan boʻlsa, «Mardlik afsonasi»da shoir asarda aks etgan voqealarga aralashadi, qahramonlarning xatti-harakatlariga munosabat bildiradi. Shuhrat Toʻmaris va uning qavmiga muhabbatini, ayni vaqtda, Kayxusrav va uning bosqinchi qoʻshinlariga nafratini ochiq bayon etadi.

Balladada Toʻmarisning qahramonligiga alohida urgʻu beriladi. Yovqur ayolning qonxoʻr bosqinchi bilan yakkama-yakka olishuvi va zoʻravonlikni kasb qilgan Kayxusravni yenggani taʼsirli ravishda aks ettiriladi. Ballada janrining talabidan kelib chiqib Toʻmarisning bosqinchi forsni oʻz qoʻli bilan oʻldirgani alohida tasvir etiladi. Asarda Toʻmaris qanchalik jangovar hukmdor, mohir jangchi boʻlmasin, el-ulusning fikrini tinglaydigan, unga quloq soladigan odam sifatida koʻrsatiladi. Bu hol, obrazning taʼsir kuchini yanada oshirib, unga insoniy joziba baxsh etadi.

SONET (ital. sonare – jaranglamoq) – 14 misradan iborat sheʼr turi. Dastlab Italiyada XIII – XIV asrlarda paydo boʻlgan. Sonet 2 ta toʻrt va 2 ta 3 misralik banddan tashkil topadi, bunda toʻrtlik bandlar «katren» (fran. «quatrain» – toʻrtlik) va uchlik bandlar «terset» (lot. «tres» – uchlik) deb yuritiladi. Bu qismlar gʻoyaviy-kompozitsion jihatdan oʻzaro bogʻlanib, yaxlitlikni yuzaga keltiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Baytli sheʼr shakllariga qaysi janrlar kiradi?
2. Musammatlarga izoh bering.
3. Tabʼi xud musammat va tazmin musammatlarning yaratilish xususiyatlari haqida soʻzlab bering.
4. Tarkibband va tarjiʼband janrlarining oʻxshash va farqli jihatlari haqida soʻz yuriting.
5. Oʻquvchidan topqirlikni talab qiladigan janrlarni ayting, ularni farqlab bering.

6. *Zamonaviy va mumtoz she'r shakllarining umumiy jihatlari, farqlari haqida fikrlang.*
7. *Ballada janrining mohiyati haqida so'zlab bering.*
8. *Sonet janrining xususiyatlari haqida nima deya olasiz?*

6. EPIK TUR JANRLARI

Badiiy asarlar uchta katta guruhga – epik, lirik hamda dramatik turlarga ajraladi. Epik, lirik va dramatik asarlar, avvalo, o'zlarining nutqiy shakllanishi jihatidan bir-biridan farqlanadi. Masalan, epik asarlar, asosan, sochma – nasriy yo'l bilan yoziladi. Har bir adabiy tur o'z ichiga qator janrlarni jamlaydi. Bir yoki bir necha odamning hayoti, taqdiri, ularning boshqa odamlar bilan munosabati haqida hikoya qiluvchi, obrazlarning xarakter xususiyatlarini aks ettiruvchi badiiy asarlar *epik turdagi asarlar* deyiladi. Epik tur yunoncha «*epos*» so'zidan olingan bo'lib, «*rivoya, hikoya*» ma'nolarini anglatadi.

Hayot hodisalarini badiiy qamrash ko'lami nuqtayi nazaridan epik janrlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. *Kichik epik janrlar*: latifa, masal, hikoya, rivoyat, ertak, afsona, badia, etyud, ocherk, esse.

2. *O'rta epik janrlar*: qissa (povest).

3. *Katta epik janrlar*: epos, epik doston, roman, epopeya.

HIKOYA badiiy adabiyotdagi kichik epik janrlardan biridir. Hikoya – yozuvchi tomonidan kuzatilgan, idrok etilgan ibratli voqea va hodisalarni ixcham shaklda badiiy ifoda etuvchi nasriy asar. Unda bir yoki bir necha qahramonlar ishtirok etib, hayotiy yoki xayoliy hodisalarning muhim bir jihati tasvirlab beriladi.

Hikoyaning kelib chiqishi xalq og'zaki ijodidagi *afsona, ertak, latifa* kabi shakllarga borib taqaladi. Sharq adabiyotida ham, G'arb adabiyotida ham hikoya qadim an'analarga ega. Hikoyaning jahon adabiyotida juda xilma-xil turlari mavjud bo'lib, bu janrga ko'plab buyuk yozuvchilar murojaat etishgan. *Prosper Merime, Gi de Mopassan, O'Genri,*

A.P.Chexov, Jek London, I.Bunin, S.Sveyg, J.Joys, A.Morua kabi adiblar hikoyachilikda katta shuhrat topganlar.

Ayniqsa, *fransuz adabiyotida Gi de Mopassan, Amerika adabiyotida O'Genri, rus adabiyotida A.P.Chexov, o'zbek adabiyotida Abdulla Qahhor* singari yozuvchilar hikoya ustalari hisoblanadilar. O'zbek adabiyotida *Said Ahmad, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Erkin A'zamov* kabi yozuvchilar ham hikoya janrining ustalari sifatida e'tirof etiladi.

Ayniqsa, Abdulla Qahhorning «O'g'ri», «Bemor», «Anor», «Boshsiz odam» kabi qator hikoyalari o'zbek adabiyotidagi hikoya janrining mumtoz namunalari hisoblanadi. Bularda yozuvchi ko'rgan, kuzatgan yoki eshitgan voqealarini teran idrok etib, insonlar hayotining o'ziga xos jihatlaridan birini, turmushning alohida olingan biror lavhasini tasvirlaydi. Shu orqali kitobxonga ta'sir ko'rsatib, uni fikrlashga, o'y-mulohazaga undaydi, badiiy zavq va hayajon bag'ishlaydi, ibratli xulosalar chiqarishga da'vat etadi. Ixchamlik hikoyaning muhim belgisidir.

QISSA janri ham mazmunan, ham shaklan o'rtaliqda joylashgan. Unda qamrab olinadigan voqealar ko'lami, qahramonlar ishtiroki, talqin etish mo'ljallangan muammolar hajmi hikoyanikidan katta bo'lsa, romannikidan kichkinadir. Abdulla Qodiriyning «*Uloqda*», G'afur G'ulomning «*Mening o'g'rigina bolam*» hikoyalari doirasiga qamrab olingan mazmun-mohiyat G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasiga singdirilgan mazmun-mohiyatdan birmuncha kichikligini darrov ilg'ash mumkin. Qissada syujet markazini bir bosh qahramon taqdiri tashkil etadi. Qissada voqea-hodisalar romandagi kabi ko'p planli, davr ziddiyatlari romandagi kabi keng ko'lamlilik aks ettirilmaydi, balki uning ma'lum bir tomonigina tasvirlanadi. Qissa qisman romandan kichik, hikoyadan katta bo'lishi kerak. Bu o'rinda bizni asarlarning hajmi aldab qo'ymasligi lozim. Masalan, shunday hikoyalar borki, ularning hajmi uncha-muncha qissanikidan kattaroqdir. Aksincha, shunday romanlar yoziladiki, ularning hajmi qissadan kichikroq bo'lishi mumkin. Bu yerda gap, boya aytganimizdek, yozuvchi tomonidan asarga singdirilgan mazmun-mohiyat ko'lamidadir. Demak, har qanday janrning muvaffaqiyatini yozuvchi tafakkur darajasi belgilaydi desak to'g'ri bo'ladi. Qissa janrida yaratilgan asarlar:

Abdulla Qodiriy: «Obid ketmon».

Gʻafur Gʻulom: «Shum bola», «Yodgor», «Netay», «Tirilgan murda».

Abdulla Qahhor: «Qishloq hukm ostida», «Sinchalak», «Oltin yulduz», «Oʻtmishdan ertaklar», «Muhabbat», «Zilzila» (tugallanmay qolgan).

Oybek: «Nur qidirib», «Alisherning bolaligi» («Bola Alisher»), «Bolalik».

Asqad Muxtor: «Daryolar tutashgan joyda», «Qoraqalpoq qissasi», «Buxoroning jin koʻchalari», «Boʻronlarda bordek halovat», «Jar yoqasidagi chaqmoq», «Kumush tola».

Shukur Xolmirzayev: «Oq otli», «Toʻlqinlar», «Oʻn sakkizga kirmagan kim bor», «Yoʻllar, yoʻldoshlar», «Yur, togʻlarga ketamiz», «Esiz, Eshniyoz».

Nazar Eshonqul: «Qora kitob»

Ulugʻbek Abdulvahob: «Yolgʻizlik»

Normurod Norqobilov: «Oqboʻyin», «Qoyalar ham yigʻlaydi», «Togʻ odami»

Togʻay Murod: «Yulduzlar mangu yonadi», «Ot kishnagan oqshom», «Oydinda yurgan odamlar», «Qoʻshiq».

Shoyim Boʻtayev: «Shoʻrodan qolgan odamlar».

ROMAN (franz. *roman*) – nasriy asar janri. Uning dastlabki lugʻaviy maʼnosi roman tillarida (*oʻrta asrlarda roman tillarida yozilgan har qanday asarni anglatadi*) yaratilgan adabiy asardir. Keyinchalik bu atama oʻzining lugʻaviy maʼnosidan uzoqlashib, keng qamrovli nasriy asar nomini anglata boshlagan. Roman inson hayotini jamiyat bilan bogʻlab, keng tasvirlovchi yirik epik janr hisoblanadi. U boshqa nasriy janrlar: qissa, hikoyalardan oʻzida koʻplab personajlarning taqdirini aks ettirishi, katta miqyosdagi voqea-hodisalarni tasvirlashi bilan farqlanadi.

Roman personajlarning boshqalarga oʻxshamaydigan, oʻziga xos jihatlarini biror voqea-hodisa asosida koʻrsatib beradigan katta hajmli asardir. Ilk romanlar bundan *ikki yarim ming yillar oldin yuzaga kelgan va faqat sochma yoʻlda qora soʻz bilan bitilgan*. Keyinchalik sheʼriy romanlar ham yaratildi. Romanlarni ikki – *nasriy va sheʼriy* turga boʻlish mumkin.

Milliy adabiyotning darajasi unda romanchilik qanchalik rivojlanganligi bilan belgilanadi. Abdulla Qodiriy tomonidan boshlab berilgan oʻzbek romanchiligi ham

o‘shining katta yo‘lini bosib o‘tdi (ba‘zi manbalarda aytilishicha, milliy roman Hamzaning «Yangi saodat» va «Uchrashuv» asarlaridan boshlanadi).

Roman mavzu va shakl jihatdan xilma-xil:

- **tarixiy romanlar:** A.Qodiriy «O‘tkan kunlar»; O.Yoqubov «Ulug‘bek xazinasi»;
- **tarixiy-biografik romanlar:** Oybek «Navoiy»;
- **harbiy romanlar:** Oybek «Quyosh qoraymas»; Shuhrat «Shinelli yillar»;
- **zamonaviy romanlar:** P.Qodirov «Olmos kamar»; O.Yoqubov «Diyonat»;
- **sarguzasht va fantastik romanlar:** X.To‘xtaboyev «Sariq devni minib»; «Sariq devning o‘limi»;
- **ijtimoiy-falsafiy roman:** A.Muxtor «Davr mening taqdirimda» va boshqalar.

Ushbu janrni to‘liq idrok qilishda uning shakllarini bilish ham juda muhimdir. Chunki shunday romanlar bitiladiki, romannavis ko‘ngliga tukkan, yoritishi kerak bo‘lgan voqealar bir kitobga sig‘maydi. Muallif uni **ikki, uch, to‘rt**, hatto undan ortiq kitob holida yaratishi mumkin. Shunga ko‘ra, roman o‘zining hajmi va shakliga ko‘ra dilogiya, trilogiya, tetralogiya, romanlar turkumi ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Demak, romanning voqealar ko‘lami uning necha kitobdan iborat bo‘lishini belgilaydi.

Umumiy mazmuni, g‘oyasi, asosiy qahramonlari, voqealar tizimining o‘zaro aloqadorligi, bog‘liqligi bilan bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etuvchi ikki kitobdan iborat ikki mustaqil roman – **roman-dilogiya** deb ataladi va nisbatan katta voqeahodisalarni qamrab oladi. Bunda asardagi bosh qahramonlar taqdiri tasviri har ikkala kitobda ham davom etadi. Masalan, **P.Qodirovning «Yulduzli tunlar»**, **«Avlodlar dovoni»**, **H.G‘ulomning «Mash‘al»**, **M.Ismoilining «Farg‘ona tong otguncha»**, **X.To‘xtaboyevning «Sariq devni minib»**, **«Sariq devning o‘limi»** romanlari o‘zbek adabiyotida yaratilgan roman-dilogiyalarning namunalaridir.

Roman-trilogiya haqida ham roman-dilogiyaga nisbatan qo‘llangan ta‘rif mos keladi. Shunday ekan, trilogiya uch kitobdan iborat roman bo‘lib, ijtimoiy hayotning katta bir davrini o‘z ichiga oladi. Bunday asar undagi qahramonlar hayotini, davrning juda katta qismini voqealar fonida ko‘rsatishga qodir bo‘ladi. Masalan, Said Ahmadning **«Ufq» trilogiyasi** uch kitobdan iborat romandir. Romanning birinchi kitobi «Qirq besh kun» deb

atalib, unda xalqimizning urushgacha bo‘lgan hayoti, uning mehnat jasorati (Katta Farg‘ona kanali qurilishini eslang) qalamga olingan. «Hijron kunlarida» deb ataladigan ikkinchi kitob esa birinchi kitob qahramonlarining urushda va front ortidagi qahramonliklari haqida hikoya qiladi. Asarning uchinchi kitobi – «Ufq bo‘zag‘asida» esa ularning urushdan so‘nggi taqdirini tasvirlagan.

Ko‘rinyaptiki, ushbu roman-trilogiyada juda katta davr qamrab olingan va bu uch mustaqil kitob qahramonlarning g‘oyat murakkab, baxtli va mashaqqatli taqdirini batafsil yoritgan.

Jahon adabiyotida *L.N.Tolstoy, S.T.Aksakovning «Oilaviy xronika», Nobel mukofoti laureatlari: ingliz yozuvchisi Jon Golsuorsining «Forsaytlar haqida qo‘shiq», arab yozuvchisi Najib Mahfuzning «Xan al-Xalili», Vasiliy Yanning «Chingizxon», «Botu», «So‘nggi dengizgacha», o‘zbek adibi S.Ahmadning «Ufq»* kabi trilogiyalarini uch kitobdan iborat roman-trilogiyalarning mukammal namunasi desa bo‘ladi.

Roman-tetralogiyalar to‘rt kitobdan iborat roman shakli jahon romanchilik tajribasida uchraydi. Masalan, rus adibi V.Katayevning *«Qora dengiz to‘lqinlari»* tetralogiyasi.

To‘rttdan ortiq kitobdan iborat roman shakllarini *romanlar turkumi* deb atash rasm bo‘lgan. Romanchilik tajribasida bunday asarlar turkumiga fransuz adiblari *Romen Rollanning o‘n jildlik «Jan Kristof», Roje Marten dyu Garning sakkiz jildlik «Tibo oilasi»* romanlarini misol qilib keltirish mumkin. Ahamiyatlisi shundaki, har ikkala adib ham ushbu asarlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo‘lganlar.

Romanchilik deganda *epopeya* degan tushuncha ham ko‘p ishlatiladi. Uning roman shakllari (*dilogiya, trilogiya, tetralogiya, romanlar turkumi*)ga faqat bilvosita aloqasi bor, ya‘ni unda asarning necha kitobdan iborat bo‘lishi emas, balki qanchalik ko‘p va katta voqea-hodisalarning qamrab olinishi muhim. Masalan, asar qahramonlarining bir necha avlodi taqdiri yoritilgan *S.Ayniyning «Qullar», jahon adabiyotida Balzakning «Insoniyat komediyasi»* roman-epopeyasi shular jumlasidandir.

She‘riy roman she‘riy (lirik) uslubda yozilgan epik asar bo‘lib, odatdagi romanlar kabi tafsilotlarni bayon qilishga asoslanadi va unda epik hamda lirik xususiyatlar aralash keladi. She‘riy romanda epik jihatlar: syujetning ko‘p tarmoqli, bayonning xolis ekanida

ko‘rinsa, lirik belgilar tasvirga muallifning bemalol aralashuvi, uning o‘z tuyg‘ularini erkin ifoda etaverishida ko‘rinadi. She‘riy romanda voqea-hodisalar nasriy romandagidek bevosita tasvirlanadi, lirik chekinishlar vositasida beriladi, muallif qahramonlar bilan bevosita birga harakat qiladi.

Birinchi o‘zbek she‘riy romani – *«Ziyod va Adiba»* Mirmuhsin qalamiga mansub edi. Shuningdek, *Muhammad Alining «Boqiy dunyo»*, *Husniddin Sharipovning «Bir savol»*, *Barot Boyqobilovning «Shukuhli karvon»* asarlari ham she‘riy romanga misol bo‘la oladi.

A.S.Pushkinning *«Yevgeniy Onegin»* asari rus adabiyotidagi birinchi she‘riy romandir. Pushkin bu asarni yaratishda buyuk ingliz shoiri *Bayronning «Don Juan» she‘riy romanidan* ta’sirlangan. Dastlabki she‘riy romanlar jamiyat axloqining buzilishi sababli ma’naviyati nuqsonli, baxti kemptik bo‘lib qolgan iste’dodli shaxslar taqdirini ko‘rsatishga bag‘ishlangan. «Yevgeniy Onegin» romanining bosh qahramoni – kelishgan, aqlli, o‘ziga yarasha o‘qimishli, farosatli yigit. Lekin u o‘z axloqini kibor jamiyat talabiga moslashtirishga majbur bo‘lgani uchun hammaga begona. Munofiqlik va yolg‘onni axloq darajasiga ko‘targani uchun ham oliy tabaqa vakillari o‘rtasidagi munosabatlarda samimiylik yo‘q. Samimiylik bo‘lmagan joyda muhabbatga ham o‘rin yo‘q. Shu bois qizning eng munosib umr yo‘ldoshi bo‘lishi mumkinligini yaxshi bilgani holda Yevgeniy Tatyananing sevgisini rad etadi. U o‘zining qizga loyiq emasligini sezadi.

Onegin yengiltak ham, xotinboz ham emas. Lekin kiborlar ko‘ziga shunday ko‘rinish, ular orasida shuhrat orttirish uchun ayollarni yo‘ldan urishga urinadi. Yevgeniy janjalkash, qonxo‘r odam emas, ammo kiborlarda duelga chiqishdan qo‘rqdi degan fikr uyg‘otmaslik uchun o‘zi istamagani holda sodda shoir yigit Lenskiyni otib o‘ldiradi. Romanda kuchi, g‘ayrati, aqlini sarflashi mumkin bo‘lgan ezgu mo‘ljalning yo‘qligi tufayli qiynalayotgan yigit iztiroblari aks etgan.

«Yevgeniy Onegin» asarida qahramon hayotidagi sarguzashtlar bilan birga asardagi personajlarning xatti-harakatiga shoir munosabati ham yaqqol ifoda etilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. *Epik turga mansub janrlarni sanang.*

2. *Jahon adabiyotida hikoya ustalaridan kimlarni bilasiz?*
3. *Romanlarning mavzu va shakllari deganda nimani tushunasiz?*
4. *Roman-dilogiya, roman-trilogiya, roman-tetralogiyalarni ta'riflang. Ular orasida qanday o'xshashlik va farq qiluvchi jihatlar mavjud?*
5. *Romanlar turkumi nima? Bu atama qanday shakldagi asarlarga aytiladi?*
6. *Roman-epopeya deb qanday asarga aytamiz?*
7. *She'riy roman qanday paydo bo'lgan?*
8. *O'zbek adabiyotida yaratilgan she'riy romanlar haqida gapirib bering.*

7. DRAMATIK TUR JANRLARI

Sahnada qo'yish uchun yaratilib, harakat, monolog va dialoglardan iborat bo'lgan, muallif asarda tasvirlangan voqealarga ham, unda ishtirok etayotgan obrazlarga ham o'z munosabatini bevosita ifodalaydigan badiiy asarlar **dramatik asarlardir**. Dramatik turdagi asarlarning o'zi ham fojia (tragediya), komediya, drama singari janrlarga bo'linadi. **Drama** yunoncha «harakat» degan ma'noni ifodalaydigan so'zdir. Bunday nomlanishda adabiy turning eng asosiy xususiyati – sahna asaridagi ifoda obrazlarning harakatlari orqaligina yuzaga kelishi, bildirilishi hisobga olingan. Dramatik turning quyidagi janrlari mavjud: *tragediya, komediya, drama, tragikomediya, melodrama, inssenirovka, intermediya, monodrama* va boshqalar.

TRAGEDIYA adabiyotning dramatik tur janrlaridan biri bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi yunoncha «tragos» – echki, «ode» – qo'shiq; tragediya – echki qo'shig'i ma'nosini anglatadi. Qadimda yunonlarda hosil xudosi Dionis sharafiga xalq bayramlari o'tkazilgan. Bu bayramlarda echkilar so'yilib dasturxonga qo'yilgan. Qiziqchilar esa echki terilarini yopinib yurib turli sahna tomoshalarini ko'rsatishgan. Bunday jaydari qiziqchilarni tragoslar deyishgan. Keyinchalik bu so'z oqibati fojia bilan tugaydigan sahna asarlariga nisbatan qo'llanila boshlagan.

Tragik asar, ya'ni tragediyaning boshqa sahna asarlari (komediya, monodrama, intermediya)dan farqi shundaki, u qahramonlar o'rtasidagi kuchli ziddiyatlar asosiga

quriladi, qahramonlar taqdiri fojia bilan yakun topadi, ular o'rtasidagi konflikt (ziddiyat) shiddatli va keskin tus oladi. Fojeiy asar qahramonlar xarakterining yorqinligi, ichki kolliziya (qarama-qarshilik, to'qnashuv) kuchliligi, personajlar o'rtasidagi konfliktning o'ta kuchli ekanligi bilan farqlanadi. Tragediya murossasiz kurash, g'oyatda keskin ziddiyat zaminiga quriladi. Bunday asarda kishilar qismati shiddatli, suronli siyosiy voqealar, turli ijtimoiy, shaxsiy qarashlar kurashi fonida ko'rsatiladi.

Tragediya doimo hayotdagi eng muhim, dolzarb hayot-mamot masalalarini ko'tarib chiqadi. Ijobiy qahramon istagi, qarashlari bilan u yashagan muhit o'rtasidagi ziddiyat tragediyaning asosiy kolliziyasi (qarama-qarshiligi)ni keltirib chiqaradi va, albatta, ezgulikni e'zozlagan, haqiqat fidoyisi, yaxshi inson fojiasi uning o'limi bilan tugaydi. Biroq bu qayg'uli, faqat ko'z yosh oqizib tomosha qiladigan holat emas, balki dramaturg ko'zda tutgan ezgu g'oyalarning tantanasi, kelajakka katta ishonch bilan yo'g'rilgan ijtimoiy ruhning g'olib kelishidir. Ijobiy qahramonni mahv etgan qora kuchlar asar davomida o'zlarining kaltabinligi, ma'naviy tubanligi, taraqqiyot dushmanlari ekani kabi «xislatlari»ni fosh etadilar. Fojeiy sahna tomoshasi so'ngida qahramon halokati yovuz kuchlarning ham ma'naviy o'limi bilan tugaydi.

Tragediya janrining xususiyatlari V.Belinskiy tomonidan quyidagicha asoslanadi:

1. *Tragediyaning mohiyati... qalbning tabiiy jarayoni, maylning axloqiy burch yoki daf qilinmas bir to'siqlik bilan to'qnashuvidir... Tragediya – qayg'uli tomosha! Agarda qon, o'liklar, xanjar, zahar tragediyaning odatdagi sifatlari bo'lmasa ham, lekin uning oqibati har vaqt qalbdagi eng qimmatli umidlarning yemirilishi, butun bir hayot saodatining yo'qoluvidir. Uning qora ulug'vorligi, uning buyuk azamatligi shundan kelib chiqadi: unda taqdir kuchi hukm suradi, uning mohiyati, asosi taqdir kuchidir.*

2. *Tragediya asosida buyuk haqiqat, yuksak donolik yotadi. Kurashda o'lgan yoki g'alabada halok bo'lgan qahramon uchun biz chuqur qayg'uramiz. Lekin bu kurashsiz, bu halokatsiz u qahramon bo'lmasligini, o'z shaxsiyati bilan abadiy substansial kuchlarni, jahonni va o'zgarmas borliq qonunlarini amalga oshira olmasligini bilamiz.*

3. *Buyuk axloqiy vazifalarni hal qilish uchun taqdir eng asl ruhlarni, kishilik dunyosi boshida turgan yuksak ruhli shaxslarni, axloqiy dunyoning tirgagi bo'lgan substansial kuchlarni o'zida gavdalantirgan qahramonlarni tanlaydi. Faqat oliy tabiatli*

odam tragediyaning qahramoni yoki qurboni bo'la oladi; voqelikning o'zida ahvol shunday.

4. Har qanday tragediyadan mash'um halokatni yo'qoting, siz bu bilan uni buyuklikdan, butun ma'nodan mahrum qilasiz, buyuk asardan oddiy bir narsa yasaysiz, u birinchi galdayoq o'zining butun nafis kuchini yo'qotadi.

5. Tragediya ko'proq sun'iy asardir. Mana shuning uchun tarixiy shaxslarni buzib ko'rsatishga biroz yo'l qo'yilsa ham, tragediyaning go'yo qat'iy huquqidir, bu uning mohiyatidan kelib chiqadi. Tragediyachi o'z qahramonini ma'lum tarixiy vaziyatda ko'rsatishni istaydi: tarix unga vaziyat beradi, agar bu vaziyatdagi tarixiy qahramon tragediyasining ideyasiga muvofiq kelmasa, uni o'zicha o'zgartirishga u to'la huquqlidir.

O'zbek adabiyotida yaratilgan *«Muqanna»* (H.Olimjon), *«Mirzo Ulug'bek»* (M.Shayxzoda) tragediyalari ham V.Belinskiy fikrlarini to'liq isbotlaydi.

«Mirzo Ulug'bek» fojiasidagi voqealarni esga olsak. Asar buyuk olim va hukmdor Mirzo Ulug'bekning o'limi bilan tugasa-da, undagi optimistik ruh kishiga dalda beradi. Ali Qushchining tragediya nihoyasidagi kelajakka ishonch, yaxshi kunlar umidi bilan yo'g'rilgan quyidagi so'zlari fikrimizning dalilidir:

*Koinotning chamaniga ochgan yo'limiz
Yo'lchilarsiz qolmas, biling, aziz muallim!
Orta borar yulduz soni jadvalingizda,
Qoningizdan o'sib chiqar shodlik gullari.*

Tragediyaning paydo bo'lishi biz yuqorida eslatgan antik davr marosimlariga to'g'ri keladi. Yunonlarning hosil xudosi Dionis sharafiga echki so'yib bayram qilishlari, echki qo'shig'i degan lug'aviy ma'no o'sha davrga daxldordir. Haqiqiy tragik asarlar yaratish esa miloddan avvalgi V asrga kelib o'zining kamolot bosqichiga ko'tarildi. *Esxilning «Zanjirband Prometey», «Oresteya», Sofoklning «Shoh Edip», «Antigona», Evripidning «Elektra», «Medeya», «Gerakl»* kabi tragediyalari optimistik ruh, adolat va haqiqatning qaror topishi, yuksak insoniy tuyg'ularning maromiga yetkazib tarannum

etilishi bilan ajralib turadi. Bu asarlar yunon sahna san'ati, xususan, tragediyasining dovrug'i jahonga yoyilishiga sabab bo'ldi.

Yevropada tragediya uyg'onish va undan keyingi davrlarda ham keng rivojlandi. *Ispan dramaturglari Lope de Vega, Kalderon, ingliz yozuvchisi V.Shekspir, nemis dramaturglari Gyote, Shiller, rus shoiri A.S.Pushkin* kabilar bu sohada samarali qalam tebratdilar. Ular yaratgan «*Otello*», «*Gamlet*», «*Romeo va Julyetta*», «*Boris Godunov*» kabi tragediyalar bugungi kunda jahon teatrlari sahnalarida qayta-qayta o'ynalmoqda.

O'zbek adabiyotida tragediyaning go'zal namunalari *Mahmudxo'ja Behbudiy* («*Padarkush*», 1911), *Abdurauf Fitrat (Abulfayzxon)*, 1926), *Maqsud Shayxzoda* («*Jaloliddin Manguberdi*», 1944, «*Mirzo Ulug'bek*», 1961) tomonidan yaratildi. Ushbu asarlar o'zbek sahna madaniyatining haqiqiy durdonalariga aylandi.

KOMEDIYA (yunon. «*comos*» – quvnoq kishilar (olomon) va «*oide*» – qo'shiq)da hayot voqea-hodisalari dramatik qahramonlarning kulgili fe'l-atvorlari, xatti-harakatlarida voqe bo'ladi. Bu xususiyati bilan u tragediyaga tamoman qarshidir. Tragediyaning mazmuni buyuk axloqiy hodisalar olamidir, uning qahramonlari ma'naviy inson tabiatining substansial kuchlari bilan to'la bo'lgan shaxslardir, komediyaning mazmuni aqliy zaruriyatdan mahrum tasodiflar, sharpalar dunyosi yoki haqiqatda mavjud bo'lmagan voqelik hodisalaridir; komediyaning qahramonlari o'z ma'naviy tabiatining substansial asoslaridan voz kechgan odamlardir. Shuning uchun tragediyaning ko'rsatgan ta'siri ruhni qaltiratuvchi muqaddas dahshat bo'lsa, komediya ko'rsatgan ta'sir sho'x kulgudir... Tragediya o'z hayotining tor doirasida faqat yuksak lahzalarni, qahramon voqeasining shoirona lahzalarini to'plasa, komediya har kungi hayotning oddiy ko'rinishlarini, uning mayda-chuydasini, tasodiflarini ko'rsatadi.

Komediyaning mohiyati komik konfliktga bog'liq bo'lib, unda «*hayot o'z-o'zini inkor qiladi*» (V.Belinskiy), ya'ni, aslida, xunuk, zararli, razil va nopok xulqli inson (mazmun) o'zini yaxshi, ilg'or, pok, odamiy qilib ko'rsatsa (shakl) yoki buning aksi bo'lsa, kulgu keltirib chiqaradi. «*Unda shoirning shaxsi faqat tashqi jihatdan ko'rinmaydi, – deb yozadi V.Belinskiy. – Lekin uning subyektiv mushohadasi yashirin fikr sifatida ko'p komediyada bevosita hozir bo'ladi, komediyada ko'rsatilgan hayvonlar va*

tasqara basharalar orqasidan sizga boshqa yuzlar, go‘zal, insoniy yuzlar ko‘ringanday bo‘ladi, kulgusi sho‘x xursandchilikni emas, alam va norozilikni ifoda qiladi...»

Badiiy komediyaning eng yaxshi namunasi **Gogolning «Revizor»** nomli asaridir. O‘zbek adabiyotida **Hamza Hakimzoda Niyoziyning «Maysaraning ishi», Abdulla Qahhorning «So‘nggi nusxalar», Erkin Vohidovning «Oltin devor», Said Ahmadning «Kelinlar qo‘zg‘oloni», Abduqahhor Ibrohimovning «Zo‘ldir»** kabi asarlari ham komediya janrining yaxshi namunalari sanaladi.

DRAMA (yunon. «*drame*» – *harakat*) atamasi keng ma‘noda dramatik turni, tor ma‘noda drama janrini bildiradi. Drama, V.Belinskiy asoslaganidek, tragediya bilan komediya o‘rtasidagi janrdir, u mash‘um falokatni ham, yumoristik va satirik kulguni ham talab qilmaydi. Balki hayot hodisalarini yuqori darajali tarzda, jiddiy holatda tasvirlaydi. *«Dramada muhim narsa uzundan uzoq hikoyalarning yo‘q bo‘lishidir, har bir so‘z dramada harakat – amal bilan ifodalanishi lozim. Drama tabiatdan oddiy ko‘chirmakashlik emas, ayrim sahnalarning, garchi ular go‘zal bo‘lsalar ham, yig‘indisi emas, drama ayrim, xos, yopiq bir dunyo bo‘lishi kerak, unda har bir shaxs o‘z maqsadiga intilib, faqat o‘zi uchun harakat qilib, o‘zi bilmasdan ham pyesaning umumiy harakatiga yordam beradi, drama xayol, mulohaza orqali yopishtirilmasdan, balki fikrdan tug‘ilgan bo‘lsagina shunday xarakterga ega bo‘ladi»* (V.Belinskiy).

Dramaning qahramoni ko‘pincha hayotdagi oddiy kishilar, ularning dramatismga to‘la qismatlaridir. Ularning taqdirida ro‘y beruvchi jiddiy konfliktlarning oqilona bartaraf qilinishidir.

Agar tragediya qahramoni noilojlikdan halok bo‘lsa, uni taqdir boshqarsa, drama qahramoni o‘z irodasiga, xarakteriga muvofiq yakun topadi, uni tipik sharoit mantig‘i to‘liq asoslaydi. **Izzat Sulon va Uyg‘unning «Alisher Navoiy», O‘lmas Umarbekovning «Qiyomat qarz», «O‘z arizasiga ko‘ra», Izzat Sultonning «Imon»** kabi asarlari dramaning harakat birligiga asoslangan eng yaxshi namunalari sanaladi.

Agar tragediyani fojia, komediyaning kulgu, dramani jiddiylik boshqarsa, ba‘zi dramatik asarlarda bu vositalarning birlashganini ko‘rish mumkin.

TRAGIKOMEDIYA (*tragediya va komediyaga xos xususiyatlarning birlashuvi*)

janrida inson fojiasini kulgili voqealar orqali ko'rsatish yetakchilik qiladi. **Sharof Boshbekovning «Temir xotin» asarida** «lovullab yonayotgan ayolning dod-faryodi, yetim qolgan bolalar yoki dard-u alam girdobiga irg'itilgan ota-onalarni ko'rmaysiz. Yuraklarni qon qiluvchi sud jarayoni ham yo'q» (Sh.Boshbekov), unda qishloq ayolining uqubatli, og'ir hayoti kulgili (yumoristik va ba'zan satirik) voqealar (masalan, Alomat nomli temir-robotning taqdiri) orqali tasvirlanadi (ko'rsatiladi).

Dramaturg o'z asarini «Jiddiy komediya» deb ataydi va «umuman, inson fojiasi haqida komediya yozish» mumkinligini ham ta'kidlaydi. Bu ta'kidlar bitta xulosani isbot etadi, ya'ni sof adabiy janrlar bo'lmaydi, ularning barchasi hamkorlikda, o'zaro bog'liqlikda yashaydi.

MELODRAMA (yunon. «*melos*» – *ohang, kuy*, «*drama*» – *harakat*) dastavval musiqali drama asari sifatida yuzaga kelgan va undagi qahramonlar kuy jo'rligida so'zlashganlar (*shu sababli hozir ham Italiyada melodrama opera ma'nosida qo'llaniladi*). Unga **J.J.Russo «Pigmalion»** (1762) asari bilan asos solgan.

Bugungi kunda «*kuchli ta'sir kuchiga ega bo'lgan, favqulodda voqealarga, tendensioz axloq va keskin intrigalarga boy dramatik asarlar*» (N.Hotamov, B.Sarimsoqov)ni melodrama deb yuritish rasm bo'lgan. Ayniqsa, «Otalar so'zi – aqlning ko'zi» teleko'rsatuvlarida bu janrning ko'plab namunalari ko'rsatilgan. Melodrama janrida ko'plab kinofilmlar yaratilgan, ularda qatnashuvchi xarakterlarning holat va xatti-harakatlariga uyg'un holda musiqa chalinib turadi.

MONODRAMA (yunon. «*monos*» – *bir, yakka, yolg'iz*, «*drama*» – *xatti-harakat*) bir aktyor tomonidan ijro etiladigan dramatik asardir. Esxilga qadar bo'lgan tragediyada bir aktyor maska va kiyimlarini o'zgartirib bir necha rollarni ijro etgan. Bu aktyorning bir roldan ikkinchi rolga o'tguncha vaqt ichida qo'shiq va musiqali tanaffus bo'lgan. XIX – XX asr monodramalarida esa aktyor bir rolni bajarsa ham, biroq uning nutqi yo tomoshabinga, yo noma'lum personajga qaratilgan.

INSSENIROVKA (lotin. «*inscaena*» – sahnalashtirish) muayyan badiiy asarni (muallif yoki boshqa ijodkor tomonidan, yoki hamkorlikda yaratilgan) sahnada qo‘yishga moslab qayta ishlashdir. Jumladan, XX asr oxirlarida Oybekning «*Qutlug‘ qon*», «*Navoiy*», *Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar»*, *Abdulla Qodiriyning «O‘tgan kunlar»*, «*Mehrobdan chayon*» kabi romanlari teleinssenirovka qilingan. Adabiy asar inssenirovka qilinganda uning syujetiga o‘zgartirishlar, ayrim qo‘shimcha motivlar kiritilishi ham mumkin. Jumladan, «O‘tgan kunlar» kinofilmida Otabek, Kumush, Zaynablar qozoqlar ovulida qimizxo‘rlik qilishadi. Otda sayr qilishga Zaynab rozi bo‘lmaydi. Otabek bilan Kumush ot choptirib ketishar ekan, ovul egasi sevishtanlarning bir-biriga munosibligini alqar ekan, Zaynabga: «Siz Otabekning kimi bo‘lasiz?» – deydi. Zaynab noiloj qolganidan «singlisi» deb javob beradi va qalbida yovuz rashk uyg‘onadi. Bu epizod «O‘tgan kunlar» romanida tasvir etilmagan.

INTERMEDIYA (lotin. «*intermedius*» – ikki narsa oralig‘ida) pyesa va operalarning pardalari oralig‘ida tomoshabinni zeriktirmaslik maqsadida ularni kuldirish uchun hayotdagi ayrim nuqson va kamchiliklarni siqiq tarzda hajv (fars) qilishdir.

Bugungi kunga kelib intermediyalar o‘z mazmunini saqlagan holda pyesa va operalardan ajralib chiqdi va «*Miniatyura teatri*», «*Tabassum ustaxonasida*» singari teleko‘rsatuv va radioeshittiruvlar tashkil etildi.

LIBRETTO (italyan. «*libretto*» – kitobcha) opera, operetta, musiqali drama, oratoriya, kantatalar uchun yozilgan badiiy asar matnidir. Uning syujeti ba‘zan she‘r, ba‘zan nasr bilan yoziladi. Librettoning matni musiqa bilan uzviy bog‘langandagina (so‘z san‘atkori va kompozitor mehnati uyg‘unlashganda) to‘liq ta‘sir kuchiga ega bo‘ladi. Libretto dramaturgiya qonun-qoidalariga amal qilib yozilsa-da, uning syujeti ko‘proq ariya va ansambllarning ta‘sirchanlik xislatlari bilan bog‘lanadi. «*Bo‘ron*», «*Maysaraning ishi*», «*Zaynab va Omon*» (*Hamid Olimjon dostoni asosida Zulfiya librettosi*) kabi operalarning librettolari aytilgan mulohazalarga asosdir.

Ibroyim Yusupovning «Ajiniyoz» librettosi, Turob To‘laning «Zulmatdan ziyo», «Malikayi ayyor» opera librettolari hamda «Samarqand afsonasi» balet librettolari respublikamiz teatrlari repertuaridan munosib o‘rin egallagan.

Savol va topshiriqlar:

1. *Drama ilk bor qayerda paydo bo‘lgan?*
2. *Tragediyaning mohiyati haqida fikr yuriting.*
3. *Komediya qanday masalalar aks etadi?*
4. *Melodrama qanday janr? Uning musiqa bilan qanday bog‘liqligi bor?*
5. *Intermediyaning bosh g‘oyasi nimadan iborat?*
6. *Libretto nima? O‘zbek librettolarini sanang.*
7. *Drama va drama janrining farqini topishga harakat qiling.*

7. ADABIY ISTILOHLAR, ATAMALAR VA TUSHUNCHALAR

• **TASAVVUF.** Ma’naviy kamolotga erishish yo‘li bo‘lib, moddiy istaklardan voz kechmoq, «men»lik da’vosini o‘zdan quvmoq, haqiqat ilmiga bog‘lanmoq, Yaratganga yaqinlashmoq, butun insoniyatga yaxshilikni tavsiya etmoq g‘oyalarini ilgari suradi. Bu so‘zning kelib chiqishini Abu Rayhon Beruniy «**faylasuf**» so‘zidagi «**suf**» so‘zi bilan bog‘laydi. «**Suf**» *so‘zi arablarda jun va undan to‘qilgan matoni anglatadi.* So‘fiylar kiyimi dastlab jun chakmon yoki qo‘y terisidan tikilgan po‘stin bo‘lgan, shunga ko‘ra, ana shu talqin to‘g‘riroqdir. So‘fiy degan so‘z ham «suf»dan yasalgan «tasavvuf», «mutasavvuf» so‘zi bilan o‘zakdoshdir.

Ilmda tasavvuf ikki bosqichga ajratiladi:

- 1) *zohidlik davri*ga xos xususiyat Alloh yo‘lida toat-ibodat qilish va farzdir. Ibrohim Adham, Hasan Basriy shu oqim vakili;

2) *oriflik davri* IX asr o'rtalaridan boshlanadi. Bu paytda xonaqohlar vujudga kelgan, tasavvuf maktablari shakllanib qolgan edi. XIII – XIV asrlarga kelib unda nazariy-ilmiy va amaliy jihatdan ko'tarilish davri kuzatiladi.

Tasavvuf insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'lidir. Bu yo'l to'rt qismga ajratiladi:

1) *shariat*;

2) *tariqat*;

3) *ma'rifat*;

4) *haqiqat*.

Shariat ma'naviy komillikning ilk bosqichi hisoblanadi. Unda asosiy islomiy talab va qoidalar o'rganilgan, «Qur'on» va hadislardagi axloqiy-falsafiy, ilohiy ko'rsatmalarning mohiyati o'zlashtirilgan. Oddiy so'fiy zohid bu bosqichdan yuqoriga ko'tarila olmagan.

«**Tariqat**» so'zining ma'nosi «yo'l» demakdir. Bu yo'lda inson, ya'ni tasavvuf yo'lga kirgan kishi ruhiy-axloqiy kamolot manzillariga yetishni maqsad qilib oladi. Odatda, tariqat tasavvufning amaliy qismi hisoblanadi. Bu bosqichda shu yo'lga kirgan shaxs (*u solik deb ataladi*)ning vazifalari, uning ustoz, pirga ergashish qoidalari va bir qadar axloq-odob me'yorlari haqida ma'lumotlar olinadi. Tariqat, albatta, ustoz (pir, murshid) bilan birga egallanadigan bosqichdir. Bunda solik o'z ixtiyori, irodasini pir qo'lga beradi. Tariqatning irodat deyilishiga sabab ham shundadir.

«**Ma'rifat**» arabcha «*arafa*» so'zidan olingan, uning ma'nosi «*bilmoq*»dir. Bunda darvishlik darajasiga yetish, barcha azob-uqubatlarga toqat etish, pok xislatlarni izlash, Allohni tanish, shariat va tariqatning barcha shartlariga amal qilish, bu dunyodan yuz o'girish, oxiratni afzal bilish, haqiqat sirlaridan ogoh bo'la borish ko'zga tashlanadi.

Haqiqat tasavvufning eng yuqori – oliy bosqichidir. Unda ezgulik va yomonlikning mohiyatini to'la anglab yetish, har qanday ko'ngil istaklarini pinhon tutishning uddasidan chiqish hamda shariat, tariqat, ma'rifat talablarini to'liq bajarish talab qilinadi.

Turkiy adabiyotda tasavvuf ta'limoti *Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig»* asaridan o'z aksini topa boshlagan.

Tasavvufdagi holat, poklanish vositalari, tushunchalarini ifodalash uchun maxsus istiloh (atama)lar qo'llanadi. Tasavvuf adabiyotida quyidagi tushunchalar markaziy tushunchalardir:

a) ishq. Boshqa tushunchalar, obrazlar, vositalarning hammasi undan kelib chiqadi yoki unga bog'lanadi. Ishq ikki turli bo'ladi:

1) *majoziy ishq* – Alloh tomonidan yaratilgan barcha narsaga: insonga va butun borliqqa nisbatan muhabbat, mehr, ardoq anglashlik tuyg'usi;

2) *haqiqiy ishq* – boshqa hech narsaga qiyos qilinmaydigan Yaratganni tuyish, anglash va U bilan birlik tuyg'usi.

b) yor. Ishq qo'yilgan ma'shuq tasavvuf adabiyotidagi yor (mahbub(a), ma'shuq(a), jonon, do'st, rafiq) obrazidir. Majoziy ishqdagi yor inson bo'lib, payg'ambar Muhammad alayhissalom yoki tariqat peshvosi piri komil nazarda tutiladi. Shuningdek, ota-ona, farzand, ayniqsa, go'zal ayol yoki ko'rkam yigit ham yor obrazi orqali beriladi. Haqiqiy ishq nuqtayi nazaridan esa u Allohdir. Ishq ko'pincha may, sharob istilohlari orqali ifodalanadi. *May (ishq) quyiladigan kosa, jom, qadah kabi idishlar ko'ngil (so'fiy qalbi) ramzlaridir.* Ko'nglida (idishda) ishq (mayi) to'la oshiq (mast, xumori)lar to'planadigan joy esa pir (murshid) dargohi bo'ladi. Bu yerda ular muridlarini tarbiyalaydi, nafs qutqularidan xalos bo'lish yo'llarini ko'rsatish hamda ilohiy haqiqatlardan ogoh qilish bilan so'fiylar qalbida ilohiy ishq uchqunlarini yolqinlatadilar. Bunday *piralar dargohi tasavvufda mayxona (butxona, xarobot)* istilohlari bilan yuritiladi. Ishq may ekan, ishq borlar to'planadigan joyning mayxona atalishi tabiiy. Mayxonada, odatda, may tarqatuvchi, mayni quyib ulashuvchi shaxs bo'ladi. Tasavvuf mayxonasi (dargohi)da ma'rifat ulashuvchi, ishq sirlarini talqin etuvchi piri komilga soqiy istilohi qo'llangan. Ishq ahli (oshiq) deganda, asosan, so'fiylar tushunilsa, vasl ahli deganda komillikka yetishgan, avliyolik siyratini kasb etgan zotlar nazarda tutiladi. *Lab – (haqiqiy yoki majoziy) yorning kalomi, ko'rsatmalari, purma'no so'zlari;*

bo'sa – oshiqning (haqiqiy yoki majoziy) yor visolidan bahramandligi. Nasroniy diniga mansub kishi ma'nosini bildiruvchi tarso istilohi tasavvufda o'zini Alloh ishqiga yetishmoqqa baxshida etgan inson ma'nosida qo'llanadi. Xaloyiq (xalq, mardum, el) esa haqiqiy ishqdan bexabar kimsalar yoki dunyoga ko'ngil bergan nafs bandalari. Dunyo, so'fiylar nazdida, nafsoniy xuruj, shaytoniy istaklar jamlangan voqelik.

•«**TAZKIRA**» arabcha so'z bo'lib, «zikr», ya'ni eslatib o'tish, yozib qo'yish ma'nolarini anglatadi. Tazkirada shoirlarning hayoti va ijodi haqida eng muhim ma'lumotlar, asarlaridan namunalar keltiriladi. Tazkira g'arb adabiyotida antologiya deb yuritiladi. Uning eng qadimgi namunasi arab olimi Abu Mansur as-Saolibiyning (961 – 1038) «Yatimat at-dahr fi mahosin ahl al-asr» (Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonalari) asari bo'lib, 4 qismdan iborat. Uning avvalgi qismlarida X – XI asrlarda yashab arab tilida ijod qilgan 415 ta adib va yozuvchilar haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa, 4-qismda 124 ta xurosonlik va movarounnahrlik shoirlar ijodidan namunalar berilgan. Asardagi barcha baytlar 4160 tani tashkil qiladi.

O'zbek adabiyotidagi birinchi tazkira Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» (1491 – 1498) asari bo'lib, 8 majlisdan iborat. 8-majlis to'laligicha Husayn Boyqaroga bag'ishlangan. Tazkirada XV asrda Xurosonda yashab ijod etgan 459 ta shoir haqida ma'lumot beriladi.

Hasan Xoja Nisoriyning 1566-yili tuzilgan «Muzakkiri ahbob»ida 300 ga yaqin ijodkor haqida ma'lumotlar keltirilsa, Davlatshoh Samarqandiyning 1486-yili tuzilgan «Tazkirat ush-shuaro» nomli fors tilidagi asarida 150 dan ortiq shoirlar haqida xabar beriladi.

Muhammad Avfiyning «Lubob ul-albob» (Mag'izlarning mag'zi, XIII asr), Maleho Samarqandiyning «Muzakkir ul-as'hob» (Suhbatdoshlar zikri, XVIII asr), Fazliy Namangoniyning «Majmuat ush-shuaro» (Shoirlar majmuasi, XIX asr) asarlari ham tazkiraga misol bo'la oladi.

O'zbek adabiyotidagi eng so'nggi tazkira Sobir Mirvaliyevning «O'zbek adiblari» asaridir.

•«**HADIS**» arabcha soʻz boʻlib, uning bir qator maʼnolari bor:

1) yangi, yangi narsa, yangi roʻy bergan voqea;

2) soʻz, hikoya, naql, rivoyat;

3) Muhammad (s.a.v.) paygʻambar yoki uning sahobalari haqida hikoya qiluvchi xabar yoki rivoyat.

Hadislarning yuzaga kelishi uch omil bilan koʻrsatiladi:

1) Muhammad (s.a.v) paygʻambar aytgan gaplar;

2) Muhammad (s. a. v)ning oʻzi qilib koʻrsatgan ishlar;

3) Muhammad (s.a.v.) tomonidan koʻrilgan yoki kuzatilgan ishning taqiqlanmagani.

Ana shu uch holatning har biri sunnat deyiladi. «**Sunnat**» ham arabcha soʻz boʻlib, uning lugʻaviy maʼnosi «yoʻl, ravish, odat» demakdir. Istilohiy maʼnoda esa Muhammad paygʻambar (s.a.v.)dan qolgan urf-odatlariga aytiladi.

Hadislarni toʻplab, ularning haqiqiyliklarini aniqlash bilan shugʻullangan olimlar *muhaddis* deyiladi. *Imom Buxoriy, Muslim ibn Hajjoh, Imom Termiziy, Abu Dovud, Sulaymon Sijistoniy (817 – 888), Ibn Moja (834 – 886), Dorimiy, Bayhaqiy, Tabaroniy, Ibn Xibbon, Xatib, Hokim, Abu Allo, Daylamiy, Doriy Kutiy, Jaloliddin Suyutiy* kabi muhaddislarning nomi mashhur. Lekin muhaddislar orasida olti kishining dovrugʻi olamni tutgan. Ulardan besh nafari oʻrta osiyolik: *Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (hijriy 194 – 256, milodiy 810 – 870), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824 – 892), Abu Muhammad Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Mojja (824 – 888)* shular jumlasidan.

Buxoriyning toʻliq ismi *Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Mugʻira ibn Bardazbax al-Juafiy al-Buxoriy*dir. U Buxoroda Ismoil ismli olim oilasida 810-yili tugʻilgan, yoshligidanoq oʻzining oʻtkir zehni va kuchli iqtidorini namoyon qilgan. Buxoriy goʻdakligidayoq otasi dunyodan oʻtadi va onasining qoʻlida qoladi. Maktabda dastlabki savodini chiqargach arab tili va hadis kitoblarini oʻqishga, ularni yod olishga alohida ragʻbat bildiradi. 18 yoshga kirganda u bir qator yirik ilmiy asarlar muallifi edi.

Rivoyatlarda aytilishicha, u bir kitobni o‘qisa barchasi yodida qolar ekan. «Uning o‘zi yuz ming sahih (ishonchli) va ikki yuz ming g‘ayrisahih (ishonchsiz) hadisni yod olganini yozgan. Imom Buxoriyning shogirdlaridan biri Amir ibn Fallos: «Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga ma’lum bo‘lmagan hadis, albatta, ishonchli emasdir», – deb yozgan ekan. Buxoriy o‘zining so‘nggi kunlarini Samarqandning Xartang qishlog‘ida o‘tkazadi va 870-yil 1-sentyabrida 62 yoshida vafot etadi. Olim ko‘plab kitoblar yozib qoldirgan.

Ular orasida eng mashhuri *«Al-jome’ as-sahih»*dir. «Sahih» to‘g‘ri, ishonchli degan ma’noni bildiradi. Kitobga ishonchli hadislar jamlangan. Uning yana *«Al-adab val-mufrad»* (*Adab durdonalari*), *«Kitob asmo as-sahoba»* (*Sahobalarning ismlari haqida kitob*), *«Kitob af’ol il-ibot»* (*Ibodat qiluvchilarning fe’l-atvori haqida kitob*), *«Tarixi Buxoro»*, *«Kitob ul-favoyid»* (*Foydalar haqida kitob*), *«Tarix us-siqot vas-zuafo min-ruvot il hadis»* (*Hadis roviylari qisqargan va zaif hadislar tarixi*), *«Kazoiiy as-sahoba vat-tobi’in»*, (*Sahobalar tobeinlarining xulosalari*), *«Tarixi kabir»* (*Katta tarix*) singari kitoblari mashhurdir.

Rasululloh: «Xor bo‘lsin, xor bo‘lsin, xor bo‘lsin!» – deb uch marta takror qildilar. Shunda sahobalar: «Yo rasululloh, kimni aytayapsiz? – deb so‘rashadi. Rasululloh: «Ota-onasining ikkalasini yoxud bittalarini keksayib qolgan vaqtda (ularni rozi qilmay) o‘zini do‘zaxga muhtalo qilgan kishini», – dedilar. Bu hadisning Abu Hurayra tomonidan aytilgani ko‘rsatilgan.

Quyidagi hadis ham Abu Hurayra tomonidan aytilgan: «Uch toifa kishilarning duosi, hech shubhasiz, Alloh taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishilarning duosi, musofirning duosi va ota-onaning duosi».

•**SYUJET** – adabiy asarda tasvirlangan harakatning, voqeaning mazmunini ifodalovchi voqealar tizimi, kengroq ma’noda konkret voqealar tizimida namoyon bo‘ladigan xarakterlar tarixidir. Hayotni badiiy ifodalashda va zarur g‘oyani olg‘a surishda syujetning ahamiyati katta. Syujet badiiy asarning hamma turlarida bo‘ladi. Ammo har bir janrning syujeti o‘ziga xosdir: kichik lirik she’rda ham ma’lum bir fikr tizimi mavjud. Shu fikr tizimi she’rning o‘ziga xos syujetini tashkil qiladi. Ba’zi

she'rlarda ma'lum tizimga ega bo'lgan voqealar tasvirlanadi. Bunday she'rlar voqeaband she'rlar yoki shartli ravishda syujetli she'rlar deb yuritiladi.

Syujetning eng go'zal namunalari dramatik, epik va liro-epik asarlarda uchraydi.

Har bir asar syujeti asosida yotgan hayotiy ziddiyat konflikt deb ataladi.

•**KONFLIKT** – badiiy asarda tasvirlangan xarakterlar, ifoda etilgan g'oyalar, kayfiyatlarning ko'rinishi («**konflikt**» lotincha «*to 'qnashuv*») demakdir). Konflikt butun asar syujeti va mazmunining yo'nalishini ta'min etadi. Konfliktsiz syujet yasash mumkin emas. Hayotda konfliktning uch xili ko'proq uchraydi va badiiy adabiyotda ham, asosan, shu uch xil konflikt o'z ifodasini topadi:

- 1) asar qahramonlari bilan ular yashayotgan hayotiy sharoit orasidagi konflikt;
- 2) bir-biriga qarama-qarshi xarakterlar o'rtasidagi konflikt;
- 3) qahramonlarining ichki dunyosidagi qarama-qarshiliklarning in'ikosi sifatida ularning xarakteridagi o'z jihatlar bilan kuchli tomonlarning kurashishi tarzida namoyon bo'ladigan konflikt.

•**SYUJET ELEMENTLARI.** Turmushdagi voqealar kabi syujet ham nima bilandir boshlanadi, rivojlanadi va nima bilandir tugallanadi. Yirik hajmli asarlarda syujetning ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya va yechim kabi elementlari bo'ladi. Ba'zi asarlarda syujetning qo'shimcha elementlari – prolog va epilog ham bo'ladi. Syujetning bu elementlari badiiy asar to'qimasida o'ziga xos vazifani bajaradi.

1. **Ekspozitsiya** – syujetning kirish, boshlanish qismi. Ekspozitsiya syujet va konfliktning boshlanishidan oldin keladigan muqaddimadir.

2. **Tugun** – badiiy asar syujetida konflikt va harakatning boshlanishiga turtki, sabab bo'ladigan voqea. Tugun konfliktning dastlabki ro'yobga chiqishiga, syujetning rivojlanishiga turtki bo'ladi. U bevosita ekspozitsiyadan o'sib chiqadi.

3. **Voqea rivoji** – tugundan so'ng asarda voqealarning kuchayib, keskinlashib borishi. Mana shu tugun va konfliktlarning asta-sekin hal bo'lish jarayoni voqea rivojini tashkil qiladi.

4. **Kulminatsiya** – badiiy asar voqealari rivojining yuksak cho‘qqisi. Kulminatsiyada asarda qo‘yilgan masala g‘oyat keskin tus oladi, qahramonlar xarakteri yorqin ochiladi.

5. **Yechim** – asardagi konfliktning eng yuqori – kulminatsiya nuqtasida konfliktning hal etilishi, xarakterlar kurashining yakunlanishi. Badiiy asar yechimida o‘rtaga qo‘yilgan muammolar hal etiladi.

6. **Prolog** – badiiy asardagi muqaddimaning bir turi. Unda muallif niyati, asarda tasvirlanadigan voqealarga o‘quvchini tayyorlash ko‘zda tutiladi.

7. **Epilog** – badiiy asar oxirida qahramonlarning keyingi taqdiri haqida ma’lumot beruvchi xotima.

8. **Kompozitsiya** – badiiy asarning tuzilishi, qismlarining asar g‘oyasi, xarakteri va vazifasiga muvofiq joylashtirilishi. Biror asar kompozitsiyasi, ya’ni tuzilishi haqida fikr yuritish uchun undagi voqealar, hodisa va shaxslar nima maqsadda asarga kiritilgani xususida o‘ylab ko‘rish kerak bo‘ladi.

•**TRAGIK OBRAZLAR** badiiy asarda kundalik hayotning mayda-chuydalaridan baland turadigan, turmush tashvishlarini hal qilish to‘g‘risida emas, balki umr ma’nosini anglash haqida o‘ylaydigan boshqacharoq obrazlardir. Bu obrazlar fojining qahramoni yoki qurboni bo‘la oladi. Shunday odamlarning hayotidagina fojia ro‘y beradi. Fojia buyuk odamlarning buyuk maqsadlar yo‘lidagi omonsiz kurashlari va halokatlaridagina tug‘iladi. Fojiaviy timsollardagi shu xil boshqachalik ularning xatti-harakatlari ham, gap-so‘zlari ham o‘zgacharoq bo‘lishini taqozo etadi. Shuning uchun tragediyalarda, ayniqsa, yirik tragik timsollar tasvirida hayot haqiqatiga to‘la amal qilinmasligi, shartlilikka yo‘l qo‘yilishi mumkin. Tragik timsollar duch kelgan nohaqlikning ko‘lami yirik bo‘lgani uchun bunday obrazlarning halokati tufayli tug‘iladigan fojia ham dahshatli bo‘ladi.

•**BADIIY ASAR PAFOSI.** *Pafos* yunoncha «ehtiros», «hissiyot», «iztirob» ma’nolarini anglatuvchi «pathos» so‘zidan olingan. Adabiy atama sifatida esa asarga singib ketgan, undagi badiiy tasvirning yo‘nalishini belgilab beradigan jo‘shqin tuyg‘u va

ko'tarinki ruhni anglatadi. Bu tuyg'u va ruh ijobiy xarakterda bo'lib, xayrixohlikni, salbiy tabiatga ega bo'lib, inkorni bildirishi ham mumkin. Pafos bilan yozilgan asarda adib o'z nuqtayi nazari va qarashlarini berkitmaydi. Aksincha, o'zi ilgari surgan va o'tkazmoqchi bo'lgan hayotiy-estetik fikrni kuchli hayajon hamda jo'shqin ehtiros bilan yoqlaydi. Shu tariqa pafos bilan yozilgan asarning o'quvchisi ko'pincha yozuvchi qarashlarining tarafdoriga aylanadi. Chunki asarning pafosi uni xolis kuzatuvchi emas, balki astoydil tarafdor bo'lishga undaydi. Asarning pafosi uning o'quvchisiga o'z nuqtayi nazarini aniq belgilab olishda yordam beradi.

•**IJTIMOIIY VA INTIM LIRIKA.** She'riyat shoirning qalb kechinmalarini ifoda etadi. Ammo ijod tajribasida she'rlar intim va ijtimoiy yo'nalishdagi bitiklarga bo'linadi. *Intim* so'zi lotincha bo'lib, «eng ichki», «yashirin» degan ma'nolarni bildiradi. Bu xil she'rlarda shoir bevosita o'ziga tegishli sezim, tuyg'u, holatni tasvirlaydi. Cho'lponning «Qalandar ishq» she'ri intim lirikaning yorqin namunasi.

Har bir odamda o'zgalarning holatini tuyish, boshqalarning sezimlarini his etish zarurati bor. Ayni shu ehtiyoj intim yo'nalishdagi she'rlarning boshqalar tomonidan ham o'qilishiga sabab bo'lgan omildir. Sof yoki intim lirikada tuyg'ular shaxsiy bo'lsa-da, uning tasviri go'zal va ta'sirchanligi uchun boshqalarga ham yuqadi.

Lirik turdagi asarda borliq emas, balki muallifning voqelik haqidagi o'ylari, tuyg'ulari birlamchi ahamiyat kasb etadi. Bunda subyekt bilan obyekt bir shaxsda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy she'riyatda shoirning fikri va hissiyoti hayot hodisalari, odamlararo munosabatlar tufayli junbishga kelgan bo'ladi va muallif ularni o'z yuragidan o'tkazgan holda ifoda etadi. Jamiyatdagi adolatsizlik, zo'ravonlik, bosqinchilik, odamlarning beburdligi, riyokorlik, sotqinlik va boshqa ijtimoiy illatlar oqibatida tug'yonga kelgan sezimlar ifodasi ijtimoiy lirikani yuzaga keltiradi.

Bunday she'rlarda da'vatkor, chaqiruvchi, undovchi ruh yetakchi bo'ladi. Ularda bayon qilingan fikrlar va ifoda etilgan tuyg'ular chin va samimiyligidan tashqari boshqalarga ham tegishli bo'lgani uchun o'zgalarga-da yuqadi.

•**NOMA** – o‘zbek mumtoz adabiyotining janriy ko‘rinishlaridan biri. Lug‘aviy jihatdan bu forsiy so‘z «*xat*», «*maktub*» degan ma‘noni anglatadi. Istilohiy ma‘nosi ham shundan kelib chiqadi. Chunki shaklan noma janriga doir asarlar xat, maktub tarzida bitiladi.

Biroq bu badiiy asarlar ichida qahramonlarning bir-biriga maktub yo‘llashi bilan bog‘liq deb tushunilmaydi. Masalan, Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidan Farhodning Shiringa, Shirinning Farhodga, shuningdek, «Layli va Majnun»dan Laylining Majnunga, Majnunning Layliga maktublari o‘rin olgan. Mustaqil biror asar tamoman noma usulidan foydalanilgan holda bitilsagina u noma janriga daxldor hisoblanadi.

Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si o‘zbek mumtoz adabiyotidagi noma janrining ilk yorqin namunasi sanaladi. Albatta, «Muhabbatnoma» faqat nomalar yig‘indisi emas, unda g‘azal, qit‘a, fard kabi kichik lirik janrlarga xos asarlar ham mavjud. Lekin asardagi o‘n bir noma asar tuzilishining bosh xususiyatini belgilaydi. Shoir shundan kelib chiqib «noma» so‘zini asar nomiga ham chiqazgan.

Xorazmiyning nomanavislik an‘anasini adabiyotimizda *Xo‘jandiy «Latofatnoma»si*, *Yusuf Amiriy «Dahnoma»si*, *Said Ahmad «Taashshuqnoma»si* bilan davom ettirdi.

«Noma» so‘zini asar nomiga tirkash bu janrga taalluqli bo‘lmagan boshqa asarlarda ham uchraydi. Masalan, Salohiddin Toshkandiyning «Temurnoma», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», uning nevarasi Gulbadanbegimning «Humoyunnoma» asarlari nomlarida «*noma*» *so‘zi ham qo‘llangani bilan ular noma emas*, sarlavhada qayd etilgan shaxs hayoti bilan bog‘liq tarixiy asar ma‘nosini anglatadi.

•**DIDAKTIK ADABIYOT.** «*Didaktika*» yunoncha «*didakticos*», ya‘ni «*ibratli*» degan so‘zdan olingan. «Didaktik adabiyot» deganda esa pand-u hikmat, nasihat, o‘git, ibrat ruhidagi asarlar tushuniladi. Bu Sharq adabiyotida ham, G‘arb adabiyotida ham bo‘lgan. Sharq so‘z san‘atida pand-nasihat ruhi ustunroq, u shunisi bilan G‘arb adabiyotidan farq qiladi. X asrdayoq buyuk Abu Ali ibn Sino Sharq ko‘proq *nasihat yo‘li bilan*, G‘arb esa hayotni *real ko‘rsatish orqali* kishini tarbiyalashga moyilligini maxsus qayd etib o‘tgandi.

Ammo Sharq, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotini tamoman pand-nasihat ruhida deb tushunish xato. Sharqda maxsus didaktik adabiyot yuzaga kelgan. Uni adabiy shakliga ko‘ra quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Nasriy didaktik asarlar.

Milodiy IV asrda Hindistonda sanskrit tilida mashhur «Pantachantra», ya’ni keyinchalik «Kalila va Dimna» nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan asar, arab ertaklari asosida shakllangan, mohiyatan pandona ruh ustun turadigan «Ming bir kecha», forsiyda yozilgan Kaykovusning «Qobusnoma»si nasriy didaktik asarlar namunasi.

XVI asr o‘zbek adibi *Xojaning (Podshoxoja binni Abdulvahhobxojaning) Sa’diy Sheroziyning «Guliston»*i ta’sirida dunyoga kelgan «Gulzor» hamda «Miftoh ul-adl» (Adolat kaliti) asari ham sof nasriy yo‘lda bitilgan.

2. Nasriy-she’riy didaktik asarlar.

Sa’diy Sheroziyning ham nasriy, ham she’riy, ya’ni aralash yo‘lda bitilgan «Guliston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarlari nasriy-she’riy shaklda yozilgan.

3. She’riy didaktik asarlar.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Haydar Xorazmiyning «Gulshan ul-asror», Nizomiy Ganjaviyning «Maxzan ul-asror»i asosida bitgan «Gulshan ul-asror», Alisher Navoiyning «Xamsa»ga birinchi asar sifatida kiritilgan «Hayrat ul-abror» dostonlari aynan o‘zbek pandnoma (didaktik) she’riyatning yorqin namunalari hisoblanadi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ham didaktik ruhdagi asarlar yaratilib turadi. Masalan, O‘zbekiston xalq shoiri Shukrullo qalamiga mansub «*Javohirlar sandig‘i*» aynan shunday asarlar sirasiga kiradi. U nasriy yo‘l bilan bitilgan.

•**MEMUAR ASAR.** «*Memuar*» fransuzcha «esdalik» ma’nosini anglatadi. Muallifning o‘zi qatnashgan yoki ko‘zi bilan ko‘rgan real voqealar haqida hikoya qilingan

asar memuar asar hisoblanadi. *Oybekning «Bolalik», A.Qahhorning «O‘tmishdan ertaklar» asarlari* memuar namunalaridir.

Memuar asarlar bayon qilish shakli, zamoniyligi izchilligi jihatidan kundaliklarga o‘xshab ketsa, materialning tabiati, tasvirlanayotgan voqealarning haqqoniyligi, badiiy to‘qimaning yo‘qligiga ko‘ra ilmiy asarlarga yaqin turadi. Dunyo adabiyoti tajribasida memuarlarning bir necha turi bor. O‘zbek adabiyotida esa bu xil asarlarning tarixiy memuarlar va badiiy memuarlar singari ikki turi ko‘proq uchraydi. Ayni vaqtda, tarixiy memuarlarda badiiylik, badiiy memuarlarda esa tarixiylik xususiyatlari uchraydiki, bu ularning saviyasini ko‘taradi.

Memuar asarlarga xos asosiy qirra shundaki, unda muallif ishtirokchi yoxud *tonig‘ (guvoh)* sifatida tasvirlanayotgan voqealar markazida turadi. U tarixchi va adabiyotshunos olimdan farq qilib, real voqelikning o‘zi bevosita qatnashgan yoinki ko‘rgan qisminigina aks ettiradi. Bunda muallif o‘z kuzatish va dunyoqarashigagina tayanadi. Shuning uchun memuar asarda yo hikoyachining o‘zi yo bo‘lmasa uning nuqtayi nazari old o‘rinda bo‘ladi. Bu holni «Boburnoma» misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

•**LIRIK QAHRAMON.** Lirik asarda tuyg‘u va o‘ylari tasvirlangan shaxs obrazi *lirik qahramon*dir. U ko‘pincha shoirning o‘zini anglatadi. Chunki lirik asarda ishtirok etadigan asosiy timsol shoirning o‘zi bo‘lib, she’rda uning o‘ylari, sezimlari, tuyg‘ulari, kayfiyati namoyon bo‘ladi. Lirik asarlarda ba’zan shoirdan boshqa qahramonlar ham ishtirok etadi. Jumladan, A.Oripovning «Bahor» she’ridan olingan:

*«Ravon yo‘llar qarshingizda turibdi mushtoq», –
Derdi bizga harf o‘rgatgan yosh bir muallim, –*

misralaridagi muallim timsoli fikrimizga dalildir. Lekin lirik asarda shoirdan o‘zga personajlarning o‘y-xayol va kechinmalarini batafsil tasvirlash imkoni yo‘qligi uchun ham lirikadagi *«raqib», «rind», «soqiy», «ag‘yor» va boshqa timsollar lirik qahramon darajasiga ko‘tarila olmaydi.*

Kechinma va o'ylari lirik asarda ifoda etilgan va she'rxonni o'ziga tuyg'udosh qila oladigan shaxs timsolini lirik qahramon deyish mumkin.

Lirik qahramon ko'ngil holatini ifodalagani, bevosita «men» nomidan so'zlashgani, o'zining eng ichkin, muqaddas tuyg'ularini she'rxon bilan o'rtoqlashgani uchun o'quvchiga yaqin va tuyg'udosh bo'lib qoladi. *Adabiyotshunoslikda lirik qahramon tushunchasi 1921-yili rus olimi Y.N.Tinyanov tomonidan kiritilgan.*

•**RUHIYAT TAHLILI.** Ruh – o'ta murakkab tushuncha. Uni sezgi a'zolarining birortasi bilan his qilish mumkin emas. Ruhiyatga daxldor narsalarni ko'ngil bilan tuyish mumkin, xolos. Demak, ruh odamning ko'ngliga tegishli narsa ekan. Inson aqli ruhni to'la tushunishga ojizlik qiladi. Qur'oni Karimda ham ruhning izohini odam tushunolmasligi ta'kidlangan. Lekin har bir odam o'zida aqldan tashqari yana qandaydir bir qudrat ham borligini biladi. Shuning uchun ba'zan odam aqliga ma'qul kelmasa-da, ko'ngliga o'tirishgan ishni qilgisi keladi. Ayni shu holat badiiy asarlarning qahramonlarida ham o'z aksini topishi kerak. Ya'ni adabiy qahramonlarning xatti-harakatlarigina emas, balki ko'ngil kechinmalari ham ularning tabiatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

Qachondir qilingan ish, aytilgan fikr, so'zlangan so'z eskirishi mumkin, lekin inson ruhiyatining xususiyatlari hech qachon eskirmaydi. Shuning uchun badiiy ijodda odam ruhiyati tasviriga katta e'tibor qaratiladi.

Siz badiiy asarlarda inson ruhiyatining tushuntirib berish qiyin bo'lgan jihatlari tasviriga ko'p marta duch kelgansiz. Chunonchi, raqibini yiqitilmagan Alpomishga qarata Oybachin tomonidan aytilgan: «Qizlar sizni narmoda deb aytadi, Qizlarning aytgani menga botadi. Mardlar olishmaydi, siltab otadi, Maydon bo'lsa, ish ko'rsatib ketadi», – degan so'zlar yigit ruhiyatini ostin-ustun qilib yuborgani va shu vaqtgacha eplolmagan dushmanini ko'kka otgani sizga ma'lum. Yoki birovga qo'pol gapirishni bilmaydigan Otabekning uch yovuz dushmanga qarshi yolg'iz jangga kirishi ham uning ruhiyatida kechayotgan jarayonlarga mos.

«Ulug'bek xazinasini» romanidagi har bir personajning qilgan ishi, aytgan gapini uning ruhiy holatiga mos keladi. Qanchalar yovuz va shuhratparast bo'lmasin, otasiga tig' ko'tarish Abdullatif uchun ham oson kechmaydi. Asarda o'g'liga qarshi kurashishi lozim

otaning ham, ota halokatiga sabab bo'lgan bolaning ham ruhiyati juda ta'sirli va ishonarli ko'rsatilgan. Yozuvchi o'tmishda nima bo'lganini aytibgina qo'ymaydi, balki o'tmishdagi yovuzlikni sodir etganlar yoki undan jabr ko'rganlar qanday sezimlarni kechirganliklarini, qanday ruhiy holatga tushganliklarini ham ishonarli ko'rsatib beradi. Ayni shu holat bu romanning ta'sirchanligini ta'minlagan. Negaki gap voqeada emas. Bo'lar ish bo'lgan, voqealar eskirgan, lekin qahramonlarning ruhiy holatlari hech qachon eskirmaydi. Ularning haqqoniy tasviri barcha davrlardagi kishilarga ta'sir qilaveradi. Badiiy ijodda ruhiy tahlilning o'rni katta. U yoki bu badiiy asar insonning ruhiyatini qanchalik teran va ishonarli aks ettirishiga qarab baholanadi.

Savol va topshiriqlar:

5. *Noma janrining xos xususiyatlarini sanang.*
6. *Tasavvufda komillik bosqichlari nima deb ataladi?*
7. *Badiiy asarda syujet, syujet elementlari va konflikt qanday shaklda namoyon bo'ladi?*
8. *Adabiyotda ruhiyat tahlili qay tarzda amalga oshiriladi?*
9. *Intim va ijtimoiy lirika qanday xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadi?*
10. *Memuar asar deganda qanday asarlarni tushunasiz?*

8. ENG QADIMGI ADABIY YODGORLIKLAR

Turkiy xalqlar madaniyati tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. So'nggi yillarda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar natijasida tariximizning eng qadimgi davrlariga – ilk tosh asriga oid bo'lgan Selung'ur, Ko'lbuloq, Uchtutga qarab Markaziy Osiyo odamzodning ilk ajdodlari paydo bo'lgan mintaqaga kiradi degan g'oyani ilgari surish imkoniyati tug'ildi.

Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlardan qolgan eng qadimgi og'zaki adabiy yodgorliklar asotir va afsonalar bo'lib, ular mazkur xalqlarning hayot va tabiat haqidagi tasavvurlari badiiy ifodasi hisoblanadi. Asotir va afsonalar bizgacha «Avesto» asari, sharq tarixchisi *Tabariyning «Tarixi Tabariy», Beruniyning «Qadimgi xalqlarlan qolgan*

yodgorliklar», yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix», Poliennning «Harbiy hiylalar», Firdavsiyning «Shohnoma», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarlari orqali yetib kelgan.

8.1. «Avesto»

«**Avesto**» so'zi «o'rnatilgan, muqarrar qilingan hayotning asosiy yo'riqnomasi» ma'nosini beradi. Asar O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimiy mushtarak yozma yodgorligidir. U zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, O'rta Osiyoda yashagan qadimgi aholining asosiy qismi shu dinga e'tiqod qilgan.

«Avesto»dagi ma'lumotlarning qadimgi qismlari miloddan avvalgi 3000 – 2000-yillarga taalluqli. Ular «**Gotlar**» va «**Yashtlar**» deb nomlangan. Beruniy (973 – 1048) «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida «Avesto» haqida shunday ma'lumotlarni beradi:

*«Podsho Doro ibn Doro xazinasida «Avesto»ning o'n ikki ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni yondirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri «Avesto»ning beshdan uch qismi yo'qolib ketdi. «Avesto» o'ttiz **«nask»** edi. Majusiylar qo'lida o'n ikki nask, chamasi, qoldi. Biz Qur'on bo'laklarini haftiyaklar deganimizdek, nask «Avesto» bo'laklaridan har bir bo'lakning nomidir».*

«Avesto» o'sha davrlar tarixi, fani, madaniyati haqida ma'lumot beruvchi qomusiy asardir. U **pahlaviy tiliga** tarjima qilingan va unga sharhlar yozilgan. Bu buyuk asar hozir dunyodagi ko'plab xalqlarning tillariga o'girilgan. Mustaqillik sharofati bilan u o'zbek tiliga ham (**Asqar Mahkam va Mirsodiq Is'hoqov**) tarjima qilindi.

Hozirda «Avesto» bizning qo'limizga ikki ko'rinishda yetib kelgan: **1. Gatlar** (o'zbek adabiyotshunosligida «got»lar deb beriladi), zardushtiylikning asoschisi Zaratushtra tilidan aytilgan o'ziga xos 17 qo'shiqdan iborat. **2. Zend**. Bu «Avesto»ga bitilgan pahlaviy tilidagi sharhlardir. Uning pahlaviy tilidagi eng eski nusxasi 1288-yilga daxldor bo'lib, to'rt qismdan (Yasna, Visparad, Videvdat, Yashta) iborat. Gatlarning tarjimalarida va «Zend»dagi shaharlarda noaniqliklar, qorong'i nuqtalar juda ko'p. Bu

tabiiy. Zardushtiylik o'ziga xos e'tiqod edi. Mana shu sababga ko'ra, qadim yunonlar (Aleksandr Makedonskiy) ham, so'ng esa arablar ham bu dini qabul qilmadilar. Shunga ko'ra, zardushtiylik diniga mansub ajdodlarimiz e'tiqodlari ular tomonidan ta'qib ostiga olindi. Kitoblari yo'q qilindi.

«Avesto» tili o'lik tildir. Mutaxassislar fikricha, hatto «Avesto» yozilgan davrlarda ham xalq bu tilda so'zlashmagan. U «*din tili*» vazifasini bajargan, xolos. Shunisi aniqki, kitob Xorazmda maydonga kelgan, chunki matnda «*Xvayrizem*» (*Xorazm*) va «*Aranha*» (*Amudaryo*) hamda ushbu joylar bilan bogliq geografik atamalar tez-tez uchraydi. «*Xvayrizem*»ning ma'nosi «*quyoshli yer*» ekan.

«Avesto» markazida Zardusht turadi. Uning to'la nomi Zaratushtadir. Zaratushtra «*qari tuya egasi*» degan ma'noni berar ekan. Yunonlarda u «Zaroastr»ga o'zgardi. «*Astr*» *yunoncha «yulduz» ma'nosini beradi*. Shu tariqa Zaratushtraga «yulduzchi», «munajjim» sifatlari qo'shildi va u «bashoratchi» – «payg'ambar»ga aylantirildi. Shu sababli Zaratushtra ta'limoti Sharqda zardushtiylik, G'arbda esa zaroastrizm deb nomlanib keladi. Zardusht – tarixiy shaxs. U haqda Beruniy, Tabariy kabi olimlar ma'lumot beradilar. Bu ma'lumotlarga qaraganda, u miloddan oldingi 569-yili bahor faslida Xorazmda tug'ilgan, Manudnehrning o'n to'rtinchi avlodidir.

Asardagi asosiy timsollar Hurmuz va Axrimandir. Hurmuzning to'la nomi Axuramazda, Axrimanning ikkinchi nomi Angiramanyudir. Hurmuz – ezgulik timsoli, Axriman – yovuzlik ramzi. Hurmuz yorug'lik orqali, Axriman qorong'ulik vositasida ifodalanadi. Bu, aslida, dunyoni harakatga solib turgan ikki kuch – shayton va rahmon orasidagi abadiy kurashdir.

Zardushtiylik aqidasi ko'ra, dastlab dunyo nurdangina iborat ekan. Yo'qlikdan borliqqa birinchi qadamni qo'ygan zotning oti Zirvon bo'ladi. U nur olamiga 9999 yil iltijo etib farzand so'raydi. Iltijosi qabul bo'lavermaydi. Shubhaga tushadi: balki, bu dunyo yolg'ondir?! Qarangki, xuddi shu *shubhadan yovuzlik timsoli Axriman homila bo'ladi. Ishonch va haqiqatdan esa Hurmuz dunyoga kelmoqda edi*. Zirvon tug'ilajak birinchi farzandi olam hukmdori bo'lishini va'da etadi. Bundan xabar topgan Axriman Hurmuzdan oldinroq dunyoga kelishga shoshiladi va bunga muvaffaq bo'ladi. Birinchi bo'lib Axriman tug'iladi. Zirvon esa Hurmuzni kutgan edi. Shu sababli u zulmat

darakchisi Axrimanning dunyoga kelganidan xursand bo'lmadi. Lekin o'rtada ont bor, va'da bor. Shunga ko'ra, olam hukmdorligi Axrimanga berilmog'i lozim. Zirvon, har qancha qiyin bo'lmasin, va'dasini bajaradi. Olam hukmdorligini Axrimanga beradi. Biroq o'zi butun vujudi bilan Axrimanga qarshi kurash olib borgan Hurmuz yonida turadi. 9000 yildan keyin Hurmuzning g'olib kelib, olam hukmdorligini o'z qo'lga olajagini bashorat qiladi.

Shu tariqa dunyoning birinchi hokimi Axriman o'z hukmdorligini boshlaydi. Olamni zulmat qoplaydi. Shubha, gumon, ishonchsizlik avj oladi. Hurmuz esa olamga yorug'likni, ishonch va haqiqatni olib kiradi. O'rtada shafqatsiz kurash avj oladi. Nihoyat, ezgulik va yorug'lik kuchlari yengadilar. Hurmuz tantana qiladi. Inson ruhini yaratib, unga Zardushtni madadkor qilib tayinlaydi. Naql qilinishicha, bu voqealarning hammasi dunyoda inson zoti bino bo'lishidan oldin yuz bergan.

Aytish mumkinki, «Avesto» adabiy manba, badiiy asar hamdir. Asarning katta qismi *she'riy yo'lda, sakkiz bo'g'inli hijo vaznida, biroq qofiyalar satr so'ngida emas, ko'pincha misra o'rtasida, hatto boshida keladi.* Tili shirali, ta'sirchan. Kitobda Kayumars, Yima, Gershasp, Arjasp va boshqalar haqidagi miflar, afsonalar ham o'rin olgan va bularning barchasi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amalni ulug'lashga xizmat etadi. Bejiz emaski, asarning 2700 yilligi munosabati bilan Xorazm viloyati markazi Urganch shahrida tiklangan obida peshlavhasiga «Ezgu o'y, Ezgu so'z, Ezgu amal» so'zlari o'yib yozilgan edi.

Gerodot (mil. av. 484 – 425)ning «Tarix» kitobi orqali yetib kelgan «To'maris» afsonasi o'ziga xos o'ringa ega. Afsona yozuvchi Mirkarim Osim tomonidan hikoya shaklida qayta ishlangan bo'lib, ayrim o'zgarishlar va badiiy to'qimalar kiritilgan. Hikoyaga ko'ra, voqealar qadimgi O'kuz (hozirgi Amudaryo) daryosi qirg'oqlarida bahor faslida yuz beradi. Eron shohi Kir massagetlar yurtiga ko'z olaytirib, ularning boyligiga egalik qilish uchun malika To'marisga uylanmoqchi bo'ladi. Lekin To'maris (*olima F.Sulaymonova fikriga ko'ra Tumor*) Kirning niyatini fahmlab, uning taklifini rad etadi. Kirning Krez ismli maslahatchisi massagetlarni hiyla bilan qo'lga tushirish rejasini taklif qiladi, natijada To'marisning yosh, tajribasiz o'g'li Sparangiz hamda uning safdoshlari halok bo'ladilar. Bu voqeadan qattiq qayg'urgan To'maris quyosh xudosi Mitradan madad

so‘rab jangga o‘tlanadi va Eron shohini yengadi. Afsona so‘ngida To‘maris jangga o‘ldirilgan Kirning boshini kesib, qon to‘ldirilgan meshga solib qo‘yadi.

Afsonada, shuningdek, Kirning o‘g‘li Kambiz, Gishtaspning katta o‘g‘li Doro kabi timsollar haqida ham so‘z boradi.

Poliennig «Harbiy hiylalar» asari orqali yetib kelgan «Shiroq» afsonasi ham yozuvchi M.Osim tomonidan qayta ishlangan bo‘lib, voqealar Yaksart – «Sirdaryo» atroflarida yoz faslida bo‘lib o‘tadi. Eron shohi Doro shak (sak) qabilalari ustiga bostirib kelmoqchi bo‘ladi. Bundan xabar topgan yurt oqsoqollari kengash o‘tkazadilar. Kengashda qabila boshlig‘i, nomi Sug‘diyada ham, Eronda ham mashhur bo‘lgan Rustak, oqsoqollar Saksfar, Omarg va boshqalar ishtirok etadilar. Shu vaqt ularning huzuriga Shiroq ismli cho‘pon kirib Eron qo‘shinini hiyla bilan halok etajagini, buning evaziga uning oilasi va bolalariga g‘amxo‘rlik qilishga va‘da berishlarini talab qiladi. Va‘dani olgach Shiroq o‘z quloq-burnini kesib, eroniylar dam olib turgan joyga boradi. Shiroq Doroga qabila boshlig‘i Rustak uning quloq-burnini kesganligini, buning uchun undan qasos olmoqchi ekanligini va Eron qo‘shinini saklar yashaydigan chekka yerlarga olib bormoqchiligini aytadi. Eron qo‘shini bir haftalik oziq-ovqat olib yo‘lga tushadi. Lekin oradan bir hafta o‘tsa hamki saklardan darak topolmaydilar. Eron qo‘shini aldanganini bilib Shiroqni ura boshlaydi. Sarkarda Ranosbat Shiroqni yaxshilikcha yo‘lga solmoqchi bo‘ladi. Lekin botir cho‘pon uning taklifini rad etadi. Eroniylar Shiroqni chopib, qiyma-qiyma qilib tashlaydilar.

Tarixchi Ktesiy (mil. av. 430 – 354) yozib qoldirgan «Zarina va Straingiya», Xores Metilenskiy (mil. av. IV asr) tomonidan yozib qoldirilgan «Zariadr va Odatida» afsonalarida sevgi-muhabbat va qahramonlik haqida bayon qilinsa, Mahmud Koshg‘ariy tomonidan XI asrda yozib olingan «Oltin qon» nomli afsonada turk askarlarining Iskandar Zulqarnayn ustidan qozongan g‘alabasi, o‘ldirilgan Zulqarnayn askarlaridan birining hamyonidagi qonga bo‘yalgan oltinlar keyinchalik «**Oltin qon**» nomli tog‘ paydo bo‘lishiga sabab bo‘lganligi haqida hikoya qilinadi.

Mahmud Koshg‘ariy asarida afsonalar «sav» atamasi ostida berilgan. Shuningdek, qadimgi manbalarda «qo‘shug‘» atamasi «qo‘shiq», «she‘r» ma‘nolarida, «takshut» atamasi «she‘r», «nazm», «bayt», «manzuma» ma‘nolarida, «yir» (ir) atamasi «g‘azal»,

«maqom, kuy» oʻrnida, «shlok» atamasi «manzuma», «madhiya» maʼnolarida qoʻllanilgan.

Eng qadimgi nasriy asarlarga misol qilib Singu Seli Tutung tomonidan X asrda Beshbaliq (hozirgi Sharqiy Turkiston)da yaratilgan «Oltun yoruq»ni keltirish mumkin. Sheʼriy asarlardan biri «Tong tangrisiga madhiya» boʻlib, unda soʻzlar takrori muhim oʻrin tutadi. Misradagi boʻgʻinlar soni turlicha – 3 boʻgʻindan 10 boʻgʻingacha miqdorni tashkil etadi.

8.2. Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari

Ularning topilishi va oʻrganilishi XVIII asrdan boshlandi. Dastlab xabar berganlar: ***Remezov, Iogann Strallenberg, Messershmidt.***

Yodgorliklarni dastlab 1893-yili Vilgelm Tomson va V.Radlovlar oʻqidilar. Yodgorliklar 545-yili vujudga kelgan va VIII asrgacha hukmronlik qilgan II Turk xoqonligining badiiy solnomasi hisoblanadi.

«**Toʻnyuquq**» bitiktoshi xoqonlikka asos solgan Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi Toʻnyuquq sharafiga 712 – 716-yillarda oʻrnatilgan. 2 ta ustundan iborat (170 va 160 sm). 1897-yili er-xotin Dmitriy va Yelizaveta Klemens Shimoliy Moʻgʻulistonning Bain Sokto manzilidan topishgan. Bitiktoshda dushman tomonidan «*xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi donishmand ekan*» deyiladi. Toʻnyuquq tilidan «*tun uxlagim kelmadi, kunduz oʻtirgim kelmadi*», «*Bu turk xalqiga qurolli dushmanni keltirmadim, yalovli otni yugurtirmadim*» degan fikrlar aytiladi.

Asarda oltinga «sariq», kumushga «oq», tuyaga «egri» singari sifatlar qoʻllanilgan. ***Asosiy tasvir vositasi – alliteratsiya.***

«Kultegin» bitiktoshi

Bilga xoqonning ukasi va lashkarboshisi sharafiga 732-yili oʻrnatilgan. Marmardan ishlangan, balandligi 15 sm. Rus ziyolisi N.M.Yadrensev 1889-yili Moʻgʻulistonning Kosho Saydam vodiysidan topgan. Yozuvlar oʻngdan chapga va yuqoridan pastga qarab

o‘qilgan. Bitiktoshning muallifi qadimgi yozuvchilardan biri, xoqonning jiyani *Yo‘llug‘ tegindir*.

«Bilga xoqon» yodgorligi

Eltarish xoqonning o‘g‘li sharafiga o‘rnatilgan bo‘lib, N.M.Yadrinsev tomonidan topilgan. U Kultegin bitiktoshdan 1 km janubi-g‘arbgga o‘rnatilgan. Bo‘yi 45 sm, bitiktosh ag‘darilib, uchga bo‘lingan, yozuvlari zarar ko‘rgan. 80 satrdan iborat. «Bilga xoqon» bitigida «Kultegin» bitiktoshidagi 41 satr takrorlangan.

Bitikdagi voqealar Bilga xoqonning yoshiga bog‘liq holda davriy izchillikda ifodalangan. Voqealar xoqonning 17 yoshida Tangut tarafga lashkar tortishi bilan boshlanadi, unda shunday deyiladi: «*Tangut xalqini yengdim, o‘g‘lini, bor narsasini, yilqisini, mol-mulkini oldim*». Yodgorlikdagi asosiy tasvir vositalaridan biri – so‘zlar takrori. «*Men o‘n to‘qqiz yil shad bo‘lib turdim. O‘n to‘qqiz yil xoqon bo‘lib turdim. Davlatni tutib turdim*».

Bu bitiktoshning muallifi ham *Yo‘llug‘ tegindir*.

Yodgorliklar hozirgi o‘zbek tiliga bir necha bor o‘girilgan. A.P.Qayumovning «Qadimiyat obidalari», G‘.Abdurahmonov va A.Rustamovlarning «Qadimgi turkiy til» kitoblarida yodgorliklardan namunalar keltirilgan.

Qog‘ozda bitilgan yodgorliklar ham mavjud bo‘lib, ulardan «*Irq bitigi*» («*Ta‘birnomasi*») 1907-yili venger olimi A.Steyn tomonidan Sharqiy Turkistondagi Dunxua manzilidan topilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. *Qadimgi afsonalar qanday manbalar asosida yetib kelgan?*
2. «*Avesto*» kitobi qaysi tilda yozilgan?
3. «*Avesto*» haqida Beruniy qanday ma‘lumotlar bergan?
4. «*Avesto*»ning sharhlari nima deb ataladi?
5. «*Avesto*»ning bosh g‘oyasi haqida so‘zlab bering.
6. *Gerodot va Poliennning asarlarida yurtimiz tarixiga doir qanday ma‘lumotlar mavjud?*
7. *O‘rxun-Enasoy bitiklarini ilk bor topgan olimlar kimlar?*

8. *O'rxun-Enasoy bitiklarining muallifi kim?*
9. *«Irq bitigi» yodgorligi kim tomonidan topilgan?*

9. XIII – XIV ASRLAR ADABIYOTI

9.1. *Nosiruddin Rabg'uziy*

(XIII asr oxiri – XIV asr boshlari)

Rabg'uziy o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida alohida mavqega ega adibdir. Uning asli ismi Nosiruddin bo'lib, Xorazmning Raboti O'g'uz degan joyida tug'ilgan. Rabg'uziy «Qisasi Rabg'uziy» asarining muqaddimasida otasi Burhoniddin O'g'uz Rabotining qozisi bo'lganligini aytib o'tadi. Asarda bu haqda: «... *bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqlug', ko'p yozuqluq Rabot o'g'uzining qozisi Burhon o'g'li Nosiruddin...*» – deb qayd etilgan.

Asar islom dinini qabul qilgan mo'g'ul begi Nosiruddin To'qbug'aning topshirig'i asosida hijriy 709 (mil. 1309 – 1310)-yili yozilgan. Muallif uni «... *yigitlar arig'i, ulug' otlig', qutlug' zotliq, ezgu xulqlig', islom yorig'liq, mo'g'ul sanilig', musulmon dinlig', odamiylar inonchi, mo'minlar quvonchi, himmatli adiz, aqli tengiz beg*» deb ta'riflaydi.

Nosiriddin To'qbug'abekka bag'ishlangan she'riy madhiyada uning «*Arslon mengizlik surati*», «*Ko'rqluq sifatlig' surati*», «*Tuz so'zlayur so'zni o'qi*» singari sifatleri keltiriladi. Rabg'uziyning boshqa asarlari haqida ma'lumotlar yo'q.

Asosan, payg'ambarlar hayotini hikoya qiluvchi bu asarning o'ziga xos yaratilish tarixi bor. Musulmon Sharqida bu mavzuda «*Qisas ul-anbiyo*» (*Payg'ambarlar qissasi*) nomi bilan mashhur ko'plab asarlar yaratilgan. Lekin, asarda yozilishicha, ularning «*ba'zisi mustaqim (to'g'ri, haqiqiy) bor, ba'zisi nomustaqim. Bir onchasi (bir qanchasi) muqarrar (puxta, tugal) va bir onchasi mubattar (notugal) bor*».

Shuning uchun bek To'qbo'g'a adibdan «*o'qimoqg'a keraklik, o'granmakka yarog'liq*» payg'ambarlar qissalaridan iborat asar yozib berishini so'ragandi. Rabg'uziy o'z asarini yozishda Qur'on va hadisdan tashqari *Imom Ya'qub Sufyon, Majididdin*

Anbugoniy, Qaffol Shoshiy va boshqalarning Qur'onga yozgan tafsirlari, «Usmat ul-avliyo», «Daloyil an-nubuvva» kabi ko'plab diniy adabiyotlar, *Abulhasan Kisoiy qissalaridan* ham foydalangan. Rabg'uziyning bu ijod mahsuli mazkur mavzu an'anasidagi o'ziga xos bosqich bo'ldi. *Birinchidan*, adib o'zigacha yaratilgan payg'ambarlar haqidagi qissalarni puxta o'rgandi, ularning yutuqlarini umumlashtirdi, rivojlantirdi. *Ikkinchidan*, salafлари yo'l qo'ygan kamchiliklarni tuzatdi, xato va chalkashliklarga barham berdi. *Uchinchidan*, oldinlari nabiyalar haqidagi qissalar arab va fors tillarida yozilgan bo'lsa, Rabg'uziyning turkiy tilda bitilgan qissalari turkiy xalqlarning bebaho ma'naviy mulkiga aylandi.

Dunyoning yaratilishidan boshlab so'nggi payg'ambar Muhammad alayhissalomning nevaralari Hasan va Husaynning shahid bo'lishi, payg'ambar xonadonining zavoligacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan ushbu asar *72 ta katta-kichik qissalardan iborat. Asarda 33 payg'ambar, 4 xalifa, 7 tarixiy shaxs va boshqalar to'g'risida so'z boradi.*

Qissalar syujeti, bosh qahramonlari turlicha bo'lsa-da, ularni bir zot – *Muhammad alayhissalom siymosi o'zaro birlashtirib turadi.* Dunyoning yaratilishi haqidagi birinchi qissada aytilganidek, Alloh taolo farishtalariga qarata: «... *man bilurmankim, Muhammad Mustafo alayhissalom Odam o'g'lonlaridan bo'lg'usi, bul jahonni, ul jahonni, oyni, kunni, qamug' narsalarni aning sevukligi uchun yaratdim*», – deb marhamat qiladi. Shuningdek, asarning oxirgi qissasi Muhammad alayhissalom va u zotning oilasi, avlodlari haqidadir. Ko'rinadiki, insoniyatning uzoq tarixi, nabilar, avliyolar va boshqa ulug' zotlarning haq va haqiqat yo'lidagi sa'y-harakatlari, izlanishlarining samarasi, umuman, odam zotining takomillashuvi Muhammad alayhissalomning dunyo sahnasiga chiqishi bilan zuhur topdi.

Qissalarning hajmi turlicha. Masalan, «Qisasi Yusuf» salkam yuz sahifani tashkil qilsa, «Lut» haqidagi qissa bir necha sahifadagina iborat.

Qissalarning ko'pi qahramon haqidagi muayyan xabar bilan boshlanadi, so'ng she'riy madh, keyin asosiy voqealar bayoni keladi. Ba'zi qissalar ichida yana mustaqil hikoya, rivoyat va naqlar ham bor. Masalan, Yusuf qissasida bir necha hikoya, latifa, bayt, g'azal va boshqa janr namunalari uchraydi. Ammo ular asarda olg'a surilgan asosiy

g'oyaviy-badiiy maqsad bilan yaxlitlikni tashkil etadi. Misol sifatida «Dovud haqida»gi qissa bilan tanishish mumkin.

Qissa Dovudning ta'rifi bilan boshlanadi. So'ng she'riy tavsif beriladi. Undan keyin Dovud payg'ambar haqidagi umumiy tasavvurlar bayon etiladi: «*Dovud yalavoch (payg'ambar) bani Isroildan erdi. O'n qarindosh erdilar. Otalari... Dovud qamug'idin (barchasidan) kichik erdi. Tun-kun yig'layur erdi ibodat ichinda*». Ko'rinib turganidek, Rabg'uziy qissada nihoyatda sodda, lo'nda, tushunarli va ta'sirchan ifodalarni topa olgan. Shuning uchun bu asar asrlar davomida qo'ldan tushmay o'qildi.

Dovud bilan bog'liq hikoyalarda adib adolat va zulm, hunar egalari, ota-ona va farzandlar munosabati singari muammolarga asosiy e'tiborni qaratgan. «*Aytmishlar, Dovud yalavoch tunla o'zin belgusiz qilib ra'iyatlardin so'rar erdikim, podshoh sizing birla netak muomala qilur? Aytur erdilar: yavloq (juda) odil turur*».

Bir kecha andog' so'zlayurda Mavlo taolo bir farishtani izdi (jo'natdi) bir qurtqa (kampir) surati uza. Andin so'radi: «Podshohingiz netak turur?» Qurtqa aydi: «Ontasi (shunisi) bor, kishilar molin yeyur».

Dovud duo qildi: «Iziyo (egam-ey), manga bir harf (hunar) o'rgatgil. Aning birla qazg'achiligi (nasibamni) yeyayin. Xalq mani so'zlamasunlar.

Mavlo taolo bir taqachilik (temirchilik) san'atin anta o'gratu berdi. Aymishlar, temur Dovud ilkinda mo'mtek yumshar erdi, netakkim xamir o'zgalar ilkinda».

Halollikka, o'z mehnati bilan halol kun ko'rishga, boshqalarga zulm qilmaslikka undash hikoyaning asosiy maqsadidir. O'zbek nasrida ilk marotaba dialoglar Rabg'uziy tomonidan keng qo'llangan. Ana shu dialoglar vositasida asosiy g'oyaviy maqsad yorqin va ta'sirchan ifodalangan.

Rabg'uziy hikoyalarida insonparvarlik, yurtparvarlik, insonni komillik darajasiga ko'tarish, axloqiy poklik, ma'naviy barkamollik sari undash yetakchilik qiladi. Ular orasida til odobi va qalb pokligi ham alohida o'rin tutadi. Bu jihatdan «Luqmon va uning xojasi» hikoyati ibratlidir: «*Luqmong'a xojasi aydi:*

– *Borg'il, bir qo'y bo'g'izlab etindin qayu yaxshiroq ersa manga kelturgil.*

Qo'yni bo'g'izladi, tili birla yurakin olib keldi.

Xojasi so'rdi:

– *Bularni naluk (nima uchun) kelturding?*

Aydi:

– *Qo‘yda tildin, yurakdin yaxshiroq yo‘q. Agar yovuz ersa tildin, yurakdin yovuzroq yo‘q».*

Tilga e‘tibor berish, har bir aytiladigan so‘z mas‘uliyatini ta‘kidlash hikoyadagi asosiy g‘oyaviy-badiiy niyatdir. Bu yerda donolik, hozirjavoblik ham ulug‘langan.

Shuningdek, «Qisasi Rabg‘uziy» o‘ziga xos etnografik xarakterdagi chizgilarga ega asardir. Unda turkiy va boshqa xalqlarning ayrim rasm-rusum, urf-odatlar ham muallif nazaridan chetda qolmagan: «*Rum viloyatining odati bor, teva (tuya)lari chaliqliq (beboshlik qilib) burunduqlatmasalar, yangi tushgan kelinlarni keltirub, un tuzub (musiqacha chaldirib) yirlayturlar (kuylatishadi). Tevalar ularning ovozlari xushlanib o‘zlaridan kecharlar (o‘zlarini unutadilar), «ilikka ilinurlar (qo‘lga tushadilar)».* Yoki: «*Xalq orasida rasm bor, do‘st do‘stga safar qilib yonar (qaytar) bo‘lsa, bir hadya ola borurlar».*

Juda ko‘p o‘rinlarda voqealar bayoni, holatlar tasvirida **tashbeh, tanosub, tazod, tajnis, takrir, jonlantirish** kabi tasvir vositalardan unumli foydalanilgan. Xususan, saj‘ (*nasrdagi ichki qofiya*) adibning sevimli badiiy vositasi ekanligi ko‘zga tashlanadi. Muallif saj‘dan, asosan, ta‘rif va tavsif o‘rinlarida foydalanadi. Masalan, Idris alayhissalom ta‘rifi: «*...payg‘ambar alayhissalom ul umri ukush, diydori ko‘shish, Azroilg‘a qotishg‘an, rizvon birla yanashg‘an, dunyodin qushtek uchg‘an, tamug‘g‘a kirib chiqq‘an, Sirotdin yashindek kechg‘an, uchmoh qabug‘in ochg‘an, o‘zi aziz, o‘rni adiz, irig‘ zotlig‘, Axnuh otlig‘ Idris yalavoch».*

«Qisasi Rabg‘uziy»dagi qissa va hikoyatlar orasida o‘nlab she‘rlar ham mavjud. Ular jami 600 misra. Bahor vasfiga bag‘ishlangan birinchi turkiy g‘azal ham Rabg‘uziy qalamiga mansub. U shunday boshlanadi:

Kun hamalga kirdi ersa, keldi olam navro‘zi,

Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi.

O‘zbek adabiyotidagi bu ilk g‘azalda Rabg‘uziy janrning barcha shakliy-badiiy talablariga mukammal darajada rioya etgan. She’rning matla’sidan maqta’sigacha navro‘z ta’rif-tavsifi aks ettiriladi. *Navro‘zi, buzi, yuzi, yozi, tuzi, qo‘y-qo‘zi, juzi, qo‘zi, qunduzi, kunduzi, yulduzi, Rabg‘uziy* so‘zlaridan tashkil topgan qofiyalar tizimi turkiy til tarovatini ko‘rsatuvchi omillardan biri bo‘lgan. Maqta’da ilk bor taxallus ishlatilgan. Vazn sifatida ramal bahrining ramali musammani mahzuf vazni tanlab olingan:

Kun ha-mal-ga kir-di er-sa, kel-di o-lam nav-ro‘-zi,

— v — — — v — — v — — — v —

foilotun foilotun foilotun foilun

Kech-di bah-man zam-ha-rir qish, qol-ma-di qo-ri, bu-zi.

— v — — — v — — — V — — — V —

foilotun foilotun foilotun foilun

Asardan olingan quyidagi so‘zlar esa har bir musulmon uchun eslatma bo‘lishi kerak: «*Ma’siyat (gunoh)dan yig‘iling, xalq orasida ko‘ni (to‘g‘ri) hukm qiling, kuch qilmang, zino qilmang, qon to‘kmang, xiyonat qilmang*».

9.2. Pahlavon Mahmud

(1247 – 1326)

Pahlavon Mahmudning bir qancha ruboiylari uning qabri ustiga o‘rnatilgan maqbara devorlari, pechtoqlariga badiiy naqsh sifatida tushirilgan. Ularning saqlanib qolishida ana shu maqbaradagi yozuvlar muhim o‘rin tutadi. Adibning asarlari turli qo‘lyozmalar orqali ham yetib kelgan, ammo ular, asosan, XIX asrda ko‘chirilgan, qadimgi manbalar haligacha topilgan emas. Adib haqida ko‘pgina manbalarda ma’lumotlar mavjud. *Shamsiddin Somiyning «Qomus ul-a’lam», Lutf Alibek Ozarning «Otashkadayi Ozariy», Kamoliddin Husayn Fanoiyning «Majolis ul-ushshoq» singari asarlarida,* qator lug‘atlarda shunday ma’lumotlar keltirilgan. Ularda ko‘rsatilishicha, adibning «Pahlavon» unvoni bilan shuhrat qozonishiga Mahmudning jismoniy jihatdan

baquvvatligi, sharqona kurashning katta vakiliga aylangani sabab bo'lgan. Hatto uni «kuragi yerni ko'rmagan» pahlavon sifatida tilga olishadi. Mahmudning Puryoyvaliy taxalluslari ham pahlavonlik bilan bog'liq. Jumladan, «*G'iyos ul-lug'at*»da bu haqda shunday deyiladi: **«Puryoyvaliy yoki (Puryoyi valiy) xorazmlik Pahlavon Mahmudning laqabidir. Bunda kurash ilmidan mahorat qozongan keksa pahlavon, kurashxonadagi pahlavonlarning boshlig'i nazarda tutiladi. Zero, qaysi bir kurashchi kurashxonaga kirmoqchi bo'lsa, dastlab Puryoyvaliyning qadamiga (oyog'iga) bosh qo'yadi. Shu jihatdan Puryoyvaliy so'zi majozan aziz va mukarram ma'nosini bildiradi».**

Uning pahlavonligi Eron va Hindistonda ham mashhur bo'lgan. Bir jangda u Hindiston shohi Roy Ropoy Cho'nani o'limdan qutqarib qoladi. Shoh: «Nimani istasang, shuni bajaraman», – deb va'da beradi. Shunda Pahlavon Mahmud: «Sizning qo'lingizda Xorazmdan kelib asir tushgan bandilar bor. Ularni ozod qilib, vatanga qaytishiga ruxsat etsangiz», – deydi. Shoh asirlarni ozod qiladi.

Pahlavon Mahmud Qitoliy taxallusi bilan ham ijod qilgan. Ushbu taxallus ham pahlavonlik bilan bog'liq. «Qitol»ning ma'nosi «bir-biri bilan jang qilmoq, kurashmoq» demakdir. Pahlavon Mahmud, asosan, po'stindo'zlik, telpakdo'zlik bilan shug'ullangan. Badiiy ijod sohasida esa uning «Kanz ul-haqoyiq» nomli masnaviysi haqida ma'lumot bor. Ruboiylari bilan mashhurdir. Umar Xayyomdan keyin ijodini faqat ruboiy orqali boyitgan shoir Pahlavon Mahmud sanaladi. Pahlavon Mahmud fors-tojik tilida ijod qilgan. Uning ruboiylarini Ulfat (Imomiddin Qosimov), Boqir (Omonulla Valixonov), Muinzoda, Shoislom Shomuhamedov, To'xtasin Jalolov, Vasfiy, Matnazar Abdulhakim, Ergash Ochilovlar tarjima qilishgan.

Xorazmda Najmiddin Kubrodan boshlangan javonmardlik tariqatining davomchisi, Sharqda nomi chiqqan pahlavon va hamma pahlavonlarga ustozlik qilib «Puryoyvaliy» laqabini olgan odam. U hayotda mardlik va jasurlikni, muhtojlarga beminnat saxovat ko'rsatish, o'zi uchun esa hech narsa tama qilmaslikni targ'ib etgan va botinda ilohiy ma'rifatni kashf etish, riyozat bilan irfoniy kamolot sari borishni hidoyat etadi.

Pahlavon Mahmud ruboiylari chuqur, ixcham, ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Buni «Yomon bilan ulfat bo'lma» ruboiysida ham ko'rish mumkin:

*Yomon bilan ulfat bo'lma, yur yiroq,
Yo'lingga don sochib, qo'yadi tuzoq,
Yoyni egri ko'rib to'g'riligidan
O'q undan qanchalik qochganiga boq.*

Adib yomon fe'l-atvorli kishilardan uzoq bo'lishga chorlamoqda. Bu g'oya badiiy jihatdan betakror mahorat bilan tasvirlangan. Yomonlik hiylakorlik va aldovga tenglashtirilmoqda. U yo'lga don sochib, tuzoq qo'ygan firibgarga o'xshaydi. Yaxshi xulqli odam yomonlikdan o'zini asramoqligi kerak. Bunga qiyos qilib kamon (yoy) va o'q orasidagi munosabat eslatilmoqda. Zero, yoyning egriligini ko'rib undan uzoqlashish uchun o'q o'zini olib qochadi.

Ruboiylaridan namunalar:

- *Yiroqdan qarasam, labing purxanda,
Ozod edim, tag'in bo'libman banda.
Ozodlikdan har bir banda erur shod,
Men shodmanki, senga bo'lubman banda.*
- *Dilim yana dilbar domiga tushdi,
Ne dilbar, sitamgar domiga tushdi.
Birining bandidan qutulmay hanuz
Boshqa paripaykar domiga tushdi.*
- *Yoding bilan ko'nglim har zamon toza,
Nasim essa, bo'lg'ay guliston toza.
Diydoring farahbaxsh, uni ko'rganda
Xotir jam, dil xurram, tanda jon toza.*
- *Ul qodirki arz-u aflok yaratdi,
Ko'ngulda dog', dilni g'amnok yaratdi.
Mushkin zulflarni-yu yoqut lablarni*

Yerga qorib, oxirda xok yaratdi.

- *Olam fili qaytarolmas jur'atimiz,
Charxdan zo'rroq qudratimiz – shavkatimiz.
Gar chumoli kirib qolsa safimizga,
Sher etajak uni darhol davlatimiz.*

- *Ko'nglim oppoq, na kek va na kiynam bor,
Dushmanim ko'p, va lekin men hammaga yor.
Mevali daraxtman, har bir o'tkinchi
Tosh otib o'tsa ham menga bo'lmas or.*

- *Gurkiragan olov – dilim yo'ldoshi,
To'lqin urgan daryo – ko'zlarim yoshi.
Ko'zagarlar yasayotgan har ko'za –
Ko'hna do'stlar xoki – qo'li yo boshi.*

- *Dedim: ayt, umrning ma'nosi nima?
Dedi: chaqmoq yo sham, yoki parvona.
Dedim: bu dunyoga bino qo'ygan kim?
Dedi: yo go'l, yo mast, yoki devona.*

- *Dunyo binokori tuzar qasr-ayvon,
Tuzib bo'ladi-yu qiladi vayron.
Falakka yetkazib bugun toqini,
Ertaga etadi yer bilan yakson.*

- *Ko'zgunga berardim kechqurun sayqal,
Boqdim unga tiniq bo'lgan bir mahal.
Shuncha ko'p ko'rindi o'z aybimki, men*

O'zgarar aybini unutdim tugal.

- *Yo'lga boqqin, yo'lchi odamlar ketdi,
G'ofil o'tirmagil, hamdardlar ketdi.
Bir qavm senga yaqin va uyg'un edi,
U qavm o'tib, yaqin odamlar ketdi.*
- *Darddurman, darddurman, beqiyos dardim,
Orazing shamidan yondim, qizardim.
Gar vasling davlati muyassar bo'lsa,
Surayin poyingga bu ro'yi zardim.*
- *Oqil aqli hirsga giriftor bo'lmas,
Hasad qilgan bilan tillo xor bo'lmas.
Nomard it kabidir, mard – buyuk daryo,
Daryo it damidan hech murdor bo'lmas.*
- *Toki bor mardlig-u g'ayratdan asar,
Ahl-u ayolingni etma darbadar.
Meva shoxi agar devordan oshsa,
Yo'lovchilar unga beshak qo'l cho'zar.*

9.3. Sayfi Saroyi

(1321 – 1396)

Sayfi Saroyi o'zbek adabiyoti tarixida alohida mavqega ega bo'lgan yirik adiblardan. U 1321-yili Xorazmdagi Qamishli qishlog'ida tug'ilgan. Ammo shu nom Volga bo'yida ham juda ko'p uchraydi. U Qamishlidan bilimni oshirish uchun Saroyga keladi. Saroy Oltin O'rda davlatining poytaxti edi. Muhammad ibn Arabshohning yozishicha, «Saroy tutgan o'rni va xalqining juda ko'pligi bilan eng katta shaharlarning eng kattasi edi. U fan markaziga aylangan. Oz vaqt ichida bu yerda ko'plab atoqli, mashhur kishilar

to'plangan». Ular orasida Qutbiddin ar-Roziy, Mas'ud Taftazoniy, Kamoliddin at-Turkmaniy, Hofiz Muhammad ibn Bazzoziylar bor edi. Shuningdek, mashhur shoir Kamoliddin Xo'jandiyning ham XIV asr oxirlarida Saroyda yashab ijod etganligi yaxshi ma'lum.

Shoir shu yerda yashab turgan davrda «Saroyi» degan taxallusni olgan. Sayfi uning ismi bo'lib, «qilich» degan ma'noni bildiradi.

Umrining oxirlarida u Oltin O'rdadan Misr – Shomga ketgan va o'sha yerda yashagan.

*O'sib tuprog'im uzra nayzalar, men evdin ayrildim,
Vatandin benishon o'ldim-da, o'zga yurtga evrildim.
Nechun menga falak jabr ayladi, qanday gunohim bor?
Iloho, ayla kam jabring, men elga sodiq ul erdim, –*

kabi misralar shu qismatga ishora. U o'z yurtidan ketishni «falak jabr ayladi» deb izohlamoqda. «Tuprog'im uzra nayzalar o'sdi» degan jumla zamirida Chingizxon istilosining oqibatlarini pinhon. Adib taxminan 1396-yili vafot etgan.

Sayfi Saroyining o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bebahodir. Ayniqsa, g'azal janrida u cheksiz mahoratini namoyish etgan.

Sayfi Saroyi masnaviylari ham alohida mavqega ega. Bu jihatdan «Vasf ul-shuaro» she'ri ahamiyatlidir. U «Shoirlar vasfi» demak. Ushbu masnaviyda adib o'zining adabiy-estetik qarashlarini bayon etadi.

*Jahon shoirlari, ey gulshani bog',
Kimi bulbul durur so'zda, kimi zog', –*

deb yozarkan, ijod maydonini bog' gulshaniga, shoirlarni esa shu bog'dagi qushlarga o'xshatadi. U ijodkorlarning turli guruhlari mavjud ekanligini (bulbul, zog'), shunga muvofiq, ularning taqlidchi (to'ti) yoki mustaqil ijodkor bo'lishi va boshqa xususiyatlari

haqida to‘xtalib o‘tadi. Buni adabiy tanqidchilikning o‘ziga xos bir ko‘rinishi sifatida ham qabul qilish mumkin.

Masnaviy so‘ngida shoir kamtarlik bilan shunday yozadi:

*Ularning ush biri Sayfi Saroyi,
Jahon oriflarining xoki poyi.
Ani sen jumla shoir kamtari bil,
Qamar yuzga hamisha mushtariy bil.*

O‘zbek dostonchiligi ravnaqi tarixi ham Sayfi Saroyining nomi bilan ziynatlangan. Uning «Suhayl va Guldursun» degan dostoni ana shu an’anani boyitadi. Doston 1394-yili yozilgan bo‘lib, 82 bayt, 164 misradan iborat.

Doston voqealari Temurning Urganchga lashkar tortib kelishi bilan boshlanadi. Jangda Suhayl asirga tushib qoladi, shoh qizi Guldursun uni sevib qolib, zindondan qutqaradi. Ular tunda oy yorug‘ida qochib ketadilar va sahroga borib qoladilar.

*Alar ko‘p yurdi-yu sahrog‘a kirdi,
Gunashdin sahro ichra do‘zax erdi.
Yo‘q erdi suv, yemakka anda o‘tmak,
Agar bo‘lganda ham aqchasi lak-lak.*

Ochlik va tashnalikdan Guldursun hushini yo‘qotadi, uning jon berganini ko‘rgan Suhayl ham o‘ziga tig‘ uradi va halok bo‘ladi.

Sayfi Saroyi benazir tarjimon hamdir. Adib Sa‘diy Sheroziyning mashhur «Guliston» asarini «Gulistoni bit-turkiy» nomi bilan o‘zbekchallashtirgan. Asar Misr amiri Batxasbekka bag‘ishlangan bo‘lib, 1391-yili yozilgan.

G‘azallaridan namunalar

- *Ul yuzi oykim, jahonning jonidur,*

Bu zamona xublarining xonidur.

• *Taolalloh, zehi surat zehi mahbubi ravhoni*

Kim, oning husni shavqidan ko'ngullar bo'ldi nuroni.

• *Bu falak nechun meni doim qara qinda tutar,*

Bu otim Sayf o'ldug'uchunmi qara qinda tutar (tajnis san'ati)

• *Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,*

Bo'yina oshiq sanavbar, yuzina gul zor erur (tajnis san'ati).

• *Qamar yuzungdin bo'lur munavvar,*

Shakar so'zungdin kelur mukarrar (tarse' san'ati)

9.4. Xorazmiy

(XIV asr)

Xorazmiy XIV asr boshlarida Xorazmda tavallud topgan. Shoirning asl nomi ma'lum emas. «Xorazmiy» – uning adabiy taxallusidir. Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan yagona yirik asari «Muhabbatnoma» bo'lib, **hijriy 754 (1353 – 1354)-yili** yozib tugallangan. Muallif bu asarini Oltin O'rda xoni Jonibekning noiblaridan Muhammad Xo'jabekka bag'ishlaydi. Adib uni «davlat humoyi» deb ta'riflaydi. Muhammad Xo'jabek qo'ng'iroq urug'idan bo'lib, kichikligidan davlat ishlarida bo'lgan. Bir o'rinda u Oltin O'rda xoni Jonibek bilan qiyoslanadi:

Uza jonsiz tan erdi mulk sensiz,

Shahanshoh Jonibekxonga yetansiz.

Boshqa bir o'rinda esa u «sohibqiron» deb tavsiflanadi. Jonibekxonning Oltin O'rdadagi hukmronlik yillari 1342 – 1375-yillarga to'g'ri keladi. Demak, Muhammad

Xo‘jabek Jonibekning qo‘l ostidagi a‘yonlaridan, ehtimol, harbiy sarkardalaridan biri bo‘lgandir, ehtimol. Adib asar yaratilgan joyini ham eslatadi:

«Muhabbatnoma» so‘zin munda ayttim,

Qomug‘in Sir yaqosinda bitidim.

«Bayoni voqeyini aytur» bobida ko‘rsatilishicha, adib ikki tilda ijod qilgan.

Ko‘ngul bahrinda ko‘p gavharlaring bor,

Ochunda porsiy daftarlaring bor, –

misralari uning «fors daftarlari» ham mashhur bo‘lganligini ko‘rsatadi.

«Muhabbatnoma» 11 nomadan iborat bo‘lib, 4-, 8-, 11-nomalar fors-tojik tilida, qolgan nomalar esa o‘zbek tilidadir. Muallif asarni dastlab 10 noma qilmoqchi bo‘ladi, keyin esa yana bir noma qo‘shib 11 noma tarzida yakunlaydi (*Burun o‘n dedim, u o‘n bir bo‘ldi*).

Asar 3 qism: kirish, asosiy qism va xulosadan tarkib topgan. Kirish o‘z ichiga hamd, asarning yozilish sababi va o‘rni, Muhammad Xo‘jabek madhi, vasf ul-hol hamda voqea bayoni bilan bog‘liq holda orada keltirilgan g‘azallarni (*3 ta o‘zbekcha, 1 ta forsiy*) oladi. Asosiy qism noma hamda ular bilan bog‘langan soqiynoma tarzidagi kichik masnaviylardan iborat. Xulosa munojot, qit‘a, xotimat ul-kitob va fardni o‘z ichiga oladi. Asarda *fard, qit‘a va g‘azal janri (doston tarkibida)*ning turkiy adabiyotdagi ilk namunalari qo‘llangan.

Fan olamiga «Muhabbatnoma»ning ikkita qo‘lyozma nusxasi ma‘lum. Shulardan eng qadimgisi uyg‘ur yozuvidagi nusxa bo‘lib, Britaniya muzeyida 8193 raqami ostida saqlanadi. Bu nusxa baxshi (kotib) Boqi Mansur tomonidan hijriy 835-yilning rajab oyi boshlarida Yazd shahrida ko‘chirilgan.

Asarning arab yozuvidagi ikkinchi nusxasi ham Britaniya muzeyida 7914 raqami ostida saqlanadi. Nusxa 10 ga yaqin boshqa asarlar bilan birga hijriy 914-yili ko‘chirilgan bo‘lib, 47 sahifadan iborat. Asar zullisonaynlik (ikki tillilik) an‘anasi asosida yozilgan.

Asarda keltirilgan qit'adan namuna:

*Tama dominda qolur qush emasman,
Talim ayvon uza uchqon humomen.
Qilichtek til bila tuttum jahonni,
Qanoat mulki ichra podshomen.
Xarobot ichra masjidda yerim bor
Kim, ush ham rindmen, ham porsomen.
Necha hashamatli sulton bo'lsa bo'lsun,
Aytmon mol uchun madh-u sano men.
Qiyomatqa tekin qolsun oting teb,
Sening tabqungda bo'ldum oshno men.*

Asarda quyidagi fard keltirilgan:

*Niyozim bu turar sendin, nigoro,
Unutma bandani, bahri xudoro.*

Savol va topshiriqlar:

1. «Qisasi anbiyo» («Qisas ar-Rabg'uziy») asarining yozilish tarixi haqida gapirib bering.
2. «Qisas ar-Rabg'uziy»ning tarkibi haqida so'zlang.
3. Qaysi ijodkorning asarlari qabri ustidagi maqbaraga naqsh sifatida yozilgan?
4. Pahlavon Mahmud haqida qaysi manbalarda ma'lumot berilgan?
5. Sayfi Saroyining adabiy merosi haqida so'zlab bering.
6. Xorazmiy orqali turkiy adabiyotga kirib kelgan janrlar haqida ma'lumot bering.
7. «Muhabbatnoma»ning fan olamiga nechta qo'lyozma nusxasi ma'lum?

10. TEMURIYLAR DAVRI ADABIYOTI

Amir Temur va temuriylar davrida Markaziy Osiyo va Xurosonda madaniyat va san'at o'z rivojining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Falakiyotshunoslik, tarix, jo'g'rofiya, badiiy ijod, tilshunoslik va fanning boshqa qator sohalari gurkirab o'sdi, bir qator buyuk olim va ijodkorlar yetishib chiqib, jahon madaniyati va faniga munosib hissa qo'shdilar.

Bu davrda, ayniqsa, falakiyotshunoslik nihoyatda yuksaldi. Buyuk olim va mutafakkir Mirzo Ulug'bek (1394 – 1449) Samarqandda birinchi falakiyotshunoslik akademiyasiga asos soldi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1417-yili mazkur akademiyada dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan olimlarning soni 100 dan oshib ketgan. Akademiyada 1018 ta yulduz tasvirlangan katalog tuzilgan. Yulduzlarning turish burchaklari sinus va tangenslari natural qiymatlarining jadvallari ishlab chiqilgan. Mirzo Ulug'bek yaratgan «Ziji Ko'ragoniy» jadvalida mazkur hisob-kitoblar haqida aniq ma'lumot beriladi.

Ulug'bek akademiyasining iste'dodli vakili Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchi (1403 – 1474) o'z zamonasining Ptolemeyi deb nom olgandi. Uning falakiyot, arifmetika va algebraga oid 6 ta kitobi bor.

Ulug'bek akademiyasida yana Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid kabi falakiyotshunoslar ham faoliyat olib borganlar.

Bu davrda tarixnavislik ham qator yutuqlarga erishdi. Sohibqiron Amir Temurning zafarli yurishlariga bag'ishlangan *Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Hofizi Abro'ning «Zubdat ut-tavorix», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla' us-sa'dayn», Mirxondning 7 jildli «Ravzat us-safo», Xondamirning «Habib us-siyar», «Xulosat ul-axbor», Zayniddin Vosifyning «Badoye' ul-vaqoe'» asarlari yaratildi.*

Bu davrda nafis kitob va xattotlik san'ati ham rivojlandi. Mir Ali Tabriziy, Abdurahmon Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Qilqalam, Sulton Ali Xandon, Halvoiy, Mirak Naqqosh kabi xattotlar yetishib chiqdilar. Mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy (1432 – 1520) o'z davrining husnixat sultoni darajasiga ko'tarildi va «Qiblat ul-quttob» hamda «Sulton ul-xattotin» nomi bilan shuhrat qozondi.

Tasviriy san'at sohasida Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Xoja Muhammad Naqqosh, Shoh Muzaffar va boshqalar barakali ijod qildilar. «Moniyi soniy» va «Sharq Rafaeli» nomi bilan mashhur bo'lgan Kamoliddin Behzod (1455 – 1533/1537) Hirot rassomchilik maktabiga asos soldi va ustoz san'atkor sifatida Turkiston, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalarda tasviriy san'atning rivojiga katta hissa qo'shdi.

Bu davrda badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik ham ancha rivojlandi. Ko'plab shoirlar lirik turning bir necha janrlarida ijod qilib, sohibi devon darajasiga ko'tarildilar.

Devon sohiblari:

- *Atoyi (260 g'azal)*
- *Sakkokiy (10 qasida va 40 g'azal)*
- *Gadoiy (230 g'azal, 1 mustazod, 1 qasida, 5 qit'a – jami 4 janr)*
- *Hofiz Xorazmiy (9 qasida, 1 tarkibband, 3 tarje'band, 1 muxammas, 1 marsiya, 1052 g'azal, 2 mustazod, 31 qit'a, 12 ruboiy – jami 9 janr)*
- *Lutfiy (200 dan ortiq g'azal, 20 dan ortiq tuyuq va to'rtliklar, qit'alar)*
- *Husayniy (g'azal, muxammas)*
- *Alisher Navoiy (16 janr).*

Bu davrda **dostonnavislik** ham rivojlandi. *Durbekning «Yusuf va Zulayxo» (1409), Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z» (1411), «Gulshan ul-asror» (1413), Sayyid Qosimiyning «Majma' ul-axbor», «Gulshani roz», «Haqiqatnoma», «Ilohiynoma», Alisher Navoiyning «Xamsa» (1483 – 1485), «Lison ut-tayr» (1499), Abdurahmon Jomiyning 7 dostonidan iborat «Haft avrang» (forsiy tilda) asarlari yaratildi.*

Adabiyotshunoslikka doir ko'plab asarlar vujudga keldi.

Turkiy tildagi asarlar:

- **Shayx Ahmad Taroziy.** «Funun ul-balog'a» (1436 – 1437) muqaddima va quyidagi 5 qismni o'z ichiga oladi: 1) she'r turlari (10 ta she'riy janr keltirilgan: qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, fard, masnaviy, tarje', musammat, mustazod, mutavval, fard);
- 2) qofiya ilmi;
- 3) she'riy san'atlar (97 badiiy san'at keltirilgan);
- 4) aruz ilmi (40 bahr, 366 vazn deyilgan, lekin 181 ta vazn keltirilgan);

5) muammo ilmi (etib kelmagan).

• **Alisher Navoiy.** «*Mezon ul-avzon*» (1492 – 1493, aruz nazariyasiga doir asar, 7 doira, 19 bahr, 160 vazn keltirilgan), «*Majolis un-nafois*» (1491 – 1498, turkiy tildagi 1 tazkira, 459 shoir haqida ma'lumot keltirilgan).

• **Zahiriddin Muhammad Bobur.** «*Risolayi aruz*» (1521 – 1522, 21 bahr, 537 vazn keltirilgan).

Forsiy tildagi asarlar:

• **Alisher Navoiy.** «*Mufradot*» (1491, muammo ilmiga bag'ishlangan asar).

• **Sayfiy Buxoriy.** «*Aruzi Sayfiy*» (1491, aruz nazariyasiga doir asar).

• **Abdurahmon Jomiy.** «*Risolayi aruz*», «*Risolayi qofiya*» (1465), «*Risola dar muammo*» (3 ta), Atoullloh Husayniy. «*Badoyi' us-sanoyi'*» (1493, ilmi aruz va ilmi bade' haqidagi asar, 147 ta badiiy san'at keltirilgan).

• **Davlatshoh Samarqandiy.** «*Tazkirat ush-shuaro*» (1486, tazkira, 150 dan ortiq shoir).

Bu davrda adabiy turning ko'plab janrlari shakllandi, *tuyuq, ruboiy, mustazod, muammo, tarje'band, tarkibband, musammatlarning* turkiy tildagi ilk namunalari yaratildi.

Nomachilik an'anaviylik kasb etdi:

• *Xo'jandiy «Latofatnoma»*

• *Sayyid Ahmad ibn Mironshoh «Taashshuqnoma»*

• *Yusuf Amiriy «Dahnoma».*

Munozara janri rivojlandi:

• *Yusuf Amiriy «Chog'ir va bang»*

• *Yaqiniy «O'q va yoy»*

• *Ahmadiy «Sozlar munozarasi».*

10.1. Haydar Xorazmiy

(XIV asar oxiri – XV asr)

Haydar Xorazmiy XIV asr oxirida Xorazmda tavallud topgan. Shu yerda bir necha yil yashagan, tahsilni davom ettirish maqsadida Sherozga, temuriy shahzodalardan

bo‘lmish Iskandar Sheroziy (1409 – 1415) xizmatiga kirgan va keyinchalik unga bag‘ishlab «Maxzan ul-asror» («Gulshan ul-asror») dostonini yaratadi.

«*Maxzan ul-asror*» dostoni 1411-yili Sherozda yozilgan. Dostonning nomi ba’zi manbalar, xususan, Boburning «Muxtasar» asarida «*Gulshan ul-asror*» deb ko‘rsatilgan.

Haydar Xorazmiy va uning ijodiy faoliyati haqida Tole’ Imom Hiraviyning «Badoye’ ul-lug‘at», Mirza Maxdixonning «Sangloh», Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lug‘atayn», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» kabi asarlarida ma’lumot uchraydi. Xususan, «Majolis un-nafois»ning 7-majlisida Haydar Xorazmiyning Iskandar Sheroziyga bag‘ishlangan dostonidan quyidagi bayt keltiriladi:

*Himmat elidur yadi bayzo degan,
Er nafasidur dami Iso degan.*

Haydar Xorazmiyning dostoni hajman kichik bo‘lib, 615 baytdan iborat, shundan 197 bayt muqaddimaga ajratilgan. Muqaddima Allohga hamd, payg‘ambarga na’t, badiiy so‘z tavsifi, Iskandar mirzo madhi va dostonning yozilish sabablariga oid fikrlarni o‘z ichiga oladi. Muallif dostonning yozilishida Nizomiy ta’siri bo‘lganligini ta’kidlaydi:

*Menki pishurdim bu laziz oshni
Shayx Nizomiydan olib choshni,
Shayx Nizomiy damidin jon topib,
Ma’nisidin yarlig‘-u burhon topib.*

Haydar Xorazmiy o‘z dostoniga Nizomiy dostonida uchramaydigan, mutlaqo yangi timsollar: *Osaf bin Barhiyo*, *Mahmud G‘aznaviy*, *Hotami Toy*, *Bahlul*, *Ya’qub*, *Yusuf*, *Temurbek* timsollarini kiritadi. Asardagi ibratli parchalardan biri «Temurbek haqidagi hikoyat»dir. Unda aytilishicha, Temurbek

*Bir iligi, bir ayog‘i muftalo,
Qoldi g‘aribliqta bu dushman aro!*

(Ya'ni bir qo'li, bir oyog'i shikastlanib, dushman orasida qiyin ahvolda qoldi, u umidsizlanib yotgan edi).

Shunda Temurbek bir oyog'i va qo'li yo'q, majruh chumolining qiynalib bo'lsa-da tom ustiga chiqayotganini ko'rib qoladi. Ongsiz bir mavjudotning maqsad sari bu qadar sabot bilan intilishi Temurbekdek buyuk bir sarkardada umid va ishonch, qat'iyat tuyg'ularini paydo qiladi. Hikoyada insondagi sabr va bardosh, qunt va chidam ulug'langanligini ko'rishimiz mumkin.

Haydar Xorazmiy qalamiga mansub dostonlardan yana biri «*Gul va Navro'z*»dir. Mazkur doston dastlab mavlono Lutfiyga nisbat berib kelindi. Lekin ko'pgina manbalar, xususan, Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog'a» asari bu doston Haydar Xorazmiy qalamiga mansub ekanligini tasdiqladi.

«Gul va Navro'z» – muhabbat dostoni. Asarning nomi ham ramziy ma'noni ifoda etadi. Zero, Navro'z bahorning, Gul esa tabiatning ramzi sifatida qadim-qadimdan kuylanib kelgan. Haydar Xorazmiyning ta'rificha:

*Ki Navshod elida bor erdi bir shoh,
Kelurdin voqif-u ketgandin ogoh.
Oti Farruh, o'zi farxunda axtar,
Aning hukmida ul iqlim-u kishvar (ta'did san'ati).*

Farrux bir farzandga orzumand edi. Nihoyat, yangi yilning boshida, ya'ni Navro'z kunida unga Alloh farzand ato etadi, go'dakka Navro'z deb nom qo'yadilar. Navro'z o'tkir aql va bilim sohibi bo'lib voyaga yetadi:

*Kichik yoshdin qamuq fanlarni bildi,
Ko'pin o'z aqli birla fahm qildi.*

Bir kuni u tushida Farhor mamlakati podshosining qizi Gulni ko'rib qoladi. Bulbul orqali Gul haqida xabar topgan Navro'z Farhorga borganida, Gul Chin xoqoniga

uzatilayotgan bo‘ladi. Ikki yosh kemada qochib ulgurishadi, lekin dengiz falokati tufayli Navro‘z Yamanga, Gul Adanga borib qoladi. O‘zaro jangda ular bir-birlarini tanib qoladilar va adovat do‘stlikka aylanadi. Asarda mamlakatlar o‘rtasidagi ittifoq va ahillik ulug‘lanishi orqali temuriy shahzodalarga murojaat qilinayotgandek tuyuladi.

Asarning ramziy timsollari:

Farrux – go‘zal, baxtli, muborak, qutlug‘ yuzli.

Navro‘z – yangi kun, ya’ni yangi yil boshlanishidagi dastlabki kun.

Navshod – xalqining go‘zalligi va chiroyi bilan mashhur bo‘lgan shahar nomi.

Mushkin – mushk hidli.

Farhor – orasta, chiroyli va shinam joy (uning Gul tug‘ilgan mamlakat sifatida talqin qilinishi bejiz emas, zero, gul bor joyda orastalik, go‘zallik bor).

Rafi’ – oliy, baland.

Bahman – qishning eng ayozli kunlari.

Yaldo – qish mavsumidagi eng sovuq, uzun va qorong‘i kecha.

Najd – yerning baland qismi, to‘siq.

10.2. Sakkokiy

Iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag‘osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiykim, birining shirin abyoti iftixori Turkistonda bag‘oyat va birining latif g‘azaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur ham devonlari mavjud bo‘lgay.

(Alisher Navoiy)

Alisher Navoiy bu ijodkorni: «Turk alfozi (so‘zlari)ning bulag‘o (balog‘atga erishgan)laridan», – deb baholaydi. Alisher Navoiyning ushbu bahosi Sakkokiyning o‘z zamonasida juda mashhur bo‘lgani hamda she‘riyati xalq ijod ahli orasida keng yoyilganini ko‘rsatadi.

Sakkokiy – adibning taxallusi. Uning asl ismi ma’lum emas. «Sakkokiy» so‘zining ma’nosi «pichoqchi» bo‘lib, bu adibning kasbiga ishoradir.

Sakkokiyning qachon tugʻilgani va qachon vafot etgani ham maʼlum emas. Ammo asarlari orasida bir necha qasidalar mavjud, ular Xalil sulton, Arslon Xoʻja tarxon, Xoʻja Muhammad Porso va Mirzo Ulugʻbek singari tarixiy shaxslarga bagʻishlangan.

Maʼlumki, Xalil sultonning hukmronlik qilgan davri 1405 – 1409-yillarga toʻgʻri keladi. Arslon Xoʻja tarxon Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarini koʻchirtirgan shaxs sifatida tarixda qolgan. Bu voqea 1444-yili Samarqandda boʻlgan edi. Mirzo Ulugʻbekning hayotiga oid sanalar esa 1394 – 1449-yillarni oʻz ichiga oladi.

Agar qasida yozishning ancha murakkabligini, buning uchun muayyan ijodiy tajriba zarurligini eʼtiborga olsak, Xalil sultonga bagʻishlangan qasida yozilgan paytlarda (1405 – 1409) Sakkokiyning qalami anchagina charxlanganini anglaymiz. Demak, Sakkokiy XIV asrning ikkinchi yarmida, ehtimol, oxirgi choragida tugʻilgan.

Shoirning movarounnahrlik ekanligi haqidagi maʼlumot esa Navoiyning «Majolis un-nafois» asarida qayd etilgan.

Sakkokiy sheʼrlari devon holida yetib kelgan. Bu devonning turli davrda koʻchirilgan bir necha nusxalari bor. Lekin, mutaxassislarning fikriga qaraganda, ularning birortasi ham toʻliq emas. «Alif»dan «nun»gacha boʻlgan harflar, soʻng «vov» bilan tugallanuvchi gʻazallar yoʻq va bularning taqdiri nomaʼlum. Shu tariqa uning oʻn bir qasidasi va qirqtacha gʻazali yetib kelgan. Lekin saqlanib qolgan asarlarining oʻzi ham uning anchagina yuksak sheʼriy iqtidoridan dalolat beradi.

Sakkokiy gʻazallarining bosh mavzusi – muhabbat. Uning tasviridagi yor benihoya goʻzal:

Yuzungni koʻrsa qilur gul oʻzini yuz pora,

Xoʻtan yozisida ohu koʻzungdin ovora.

Yor shu qadar suluvki, gul uning yuzini koʻrsa uyat va nomusdan oʻzini pora-pora qiladi. Koʻzlarining chiroyi uning goʻzal koʻzlariga teng kelolmaganidan ohular Xoʻtan sahrolarida ovora-yu sarson kezib yurishibdi. Atoyida gul xijolat boʻlib uyatdan qizargan edi, bu yerda u oʻzini pora-pora qilmoqda. Atoyida «ohulayn (ikki ohusifat) koʻzlar» edi. Sakkokiyda ohuning koʻzi yor koʻzi oldida muqoyasaga chiday olmagan sabab, u Xoʻtan

sahrosida yuribdi. Nega Xo‘tan sahrosi? Chamasi, bir vaqtlar Adanda dur, Badaxshonda la‘l ko‘p bo‘lganidek, Xo‘tan sahrolarida ham o‘hu – kiyiklar serob bo‘lgan ko‘rinadi. Chunki bu o‘xshatish mumtoz adabiyotda juda qadimdan keladi. Yor og‘zining ta‘rifi undan ham g‘aroyib:

*Ko‘ngul shakar bikin og‘zing ko‘rub adam bo‘ldi,
Ayitmading bir og‘iz: Ey faqiri hech kora.*

Atoyida og‘iz kichikligi, uni ko‘rmoqchi bo‘lib qidirib topmadim degan mubolag‘ali kichraytirish bilan berilgan bo‘lsa, Sakkokiyda bu tasvir yanada kuchaytiriladi. Avvalo, bu yerda yor og‘zi – shakar og‘iz. Ikkinchidan, uning kichikligini «yo‘q» darajada deb ta‘riflash shoir uchun juda sodda, odmi tuyuladi. Shu sababli u tashqi ko‘rinishni qo‘yib, ruhiyatga urg‘u beradi. Uning yordamida manzara yaratmoqchi bo‘ladi. Ya‘ni: ko‘ngul shakarday og‘zingni ko‘rib o‘zini yo‘qotdi – «adam bo‘ldi». Demak, birinchidan, oshiq yorning shakar og‘zini ko‘rdi-yu ko‘ngli ketdi. Ikkinchidan, «adam» so‘zining og‘iz bilan yonma-yon ishlatilishining o‘zidayoq she‘rxonda muayyan fikriy silsila hosil qiladi va og‘iz g‘oyat kichikligini o‘z-o‘zidan anglatib turadi.

*Bale, bu ranj-u baloni men ixtiyor etdim,
O‘zumga ishni o‘zum qildim, emdi ne chora?!
Ko‘zum yoshig‘a nazar qil, ko‘ngul bo‘lur ravshan,
Ey sarvinoz, oqar suvg‘a qilsa nazzora.*

Oshiqning: «Ey sarvinoz, sen mening ko‘z yoshlarimga bir nazar sol. Oqar suvga qaralsa, ko‘ngil ravshan bo‘ladi deydilar-ku», – tarzidagi murojaatida yorga intizorlik yo‘lida uning ko‘z yoshlari ariqdagi oqar suv misoli to‘kilgani ta‘sirli ifodalangan. Bu o‘rinda, birinchidan, tashbehning ifrot (o‘ta mubolag‘ali) ko‘rinishidan foydalanilgan. Ikkinchidan, shoir unga monand ravishda «Oqar suvga qaralsa, ko‘ngil ravshan bo‘ladi» degan chiroyli bir maqolni ishlatyapti. Maqol ham yorni o‘z ahvolidan ogoh qilish ham

undan iltifot kutish (ko'ngil ravshan bo'lishi) umidini anglatmoqda. Irsoli masal san'ati bu yerda juda qo'l kelgan.

G'azallaridan namunalar

• *Kim ermas ul oy mubtalosi,*

Yolg'uz menga yo'q aning balosi.

• *Ey gul, yuzingga hur-u pari bandayi joni,*

Toltek bo'yung ozodi erur sarvi ravoni.

• *Sentek jahonda ko'zlari ayni balo qani?*

Mentek aning balosi bila mubtalo qani?

Mirzo Ulug'bekka bag'ishlangan qasida:

• *Jahondin ketti tashvish-u mabodoyi amon keldi,*

Xaloyiq, aysh eting, bu kun sururi jovidon keldi.

10.3. Gadoiy

«Xuloguxon zamonidin, sultoni sohibqiron Timur Ko'ragon zamonidin farzandi xalafi Shohrux sultonning zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo'ldilar. Va ul hazratning avlod va axlodidan xush tab' salotini zuhurga keldi: Shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoyi va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar».

(Alisher Navoiy)

O'zbek adabiy tilining taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan adiblar orasida Gadoiyning o'ziga xos o'rni bor. Gadoiyning asl ismi noma'lum. Bu adib hayotiga oid tarixiy-adabiy ma'lumotlar ham juda kam. Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» hamda «Mahbub ul-qulub» asarlarida Gadoiy haqida ayrim qaydlar uchraydi, xolos. Faxri Hirotiyning

«Radoyif ul-ash'or» nomli tazkirasida Gadoiyning fors-tojik tilida yaratilgan g'azali uchraydi. Bu adibning ikki tilda ijod etgani – zullisonayn shoir bo'lganidan dalolat.

Alisher Navoiy Gadoiy ijodiga yuqori baho beradi. Uni turkigo'y adiblar orasida alohida hurmat va e'tiborga sazovorligini uqtiradi. «Majolis un-nafois» tazkirasida shunday yozadi: *«Mavlono Gadoiy turkiygo'ydir, balki mashohirdindur. Bobur mirzo zamonida she'ri shuhrat tutdi, bir navi aytur va uning mashhur matla'laridin biri budirkim:*

*Ohkim devona ko'nghim muftalo bo'ldi yana,
Bu ko'nghingning ilgidin jonga balo bo'ldi yana.*

Mavlononing yoshi 90 din o'tibdur. Bu matla' aningdurkim:

*Dilbaro, sensiz tiriklik bir baloyi jon emish
Kim, aning dardi qoshida yuz o'lum hayron emish».*

Ushbu parchadagi ikkita nuqta alohida e'tiborga molik:

1. **Gadoiyning yashagan davri haqidagi ma'lumot.** Demak, Gadoiy Bobur mirzo zamonida yashagan, ijod qilgan. Bobur mirzo Abulqosim Boburdir. U 1452 – 1457-yillarda hukmronlik qilgan.

2. **Adibning yoshi haqidagi ma'lumot.**

Ma'lumki, «Majolis un-nafois» hijriy 807 (milodiy 1491 – 1492)-yili tuzilgan. Agar shu paytda Mavlono Gadoiyning to'qson yoshlarda ekanligini nazarda tutsak, adib taxminan XV asr boshlarida tug'ilgan bo'ladi.

Gadoiy – devon tuzgan shoir. Uning devonida g'azallar asosiy o'rin tutadi. Gadoiy g'azallari, asosan, 7 baytli (131 ta) hamda 5 baytli (74 ta) g'azallardan iborat.

Shuningdek, unda mustazod, qit'a janrlari namunalari mavjud.

G‘azallaridan namunalar

- *Buti siyminbarim, bizni unutma,
Dudoqi shakarim, bizni unutma.*
- *Ey ko‘ngul, dilbar xayoli chunki hamdamdur sanga,
Vodiyi hijron ichinda o‘zga ne g‘amdur sanga?*
- *Yoz fasli yel bori bu lazzat-u ishrat bila,
Yolg‘uz men muftalo dard-u g‘am-u mehnat bila.*
- *Yana yoz bo‘ldi-yu, topti bo‘ston nash‘-u namo,
Ey nasimi ruhparvar, hayra maqdam, marhabo.*

10.4. Atoyi

XV asr o‘zbek mumtoz adabiyotining rivojlanishida shoir Atoyining o‘ziga xos o‘rni bor. Shoir haqida Yusuf Amiriyning «O‘q va yoy» munozarasida, Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» va «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarlarida ma‘lumotlar uchraydi. Xususan, Navoiyning tazkirasida shoir haqida quyidagi fikrlar bitilgan: «*Mavlono Atoyi Balxda bo‘lur erdi. Ismoil ota farzandlaridindur, darveshvash va xushxulq va munbasit kishi erdi. Turkigo‘y erdi. O‘z zamonida she‘ri atrok orasida ko‘b shuhrat tutti va bu matla‘ aningdurkim:*

Ul sanamkim, suv qirog‘inda paridek o‘lturur,

G‘oyati nozikligidin suv bila yutsa bo‘lur.

Qofiyasida aybg‘inasi bor.⁹ Ammo mavlono ko‘b turkona aytur erdi. Qofiya ehtiyojig‘a muqayyad emas erdi. Qabri Balx navohisidadur».

⁹Bu o‘rinda Navoiy Atoyi qo‘llagan qofiyalar: «o‘lturur, bo‘lur»da raviy harfi o‘zak emas, qo‘shimcha tarkibida kelganligiga ishora qilyapti. Mumtoz qofiya talabiga ko‘ra, raviy harfi qofiyaning o‘zagida kelishi shart hisoblangan.

Atoyining tug‘ilgan va vafot etgan yillari haqida aniq ma’lumot yo‘q. Faqat Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasida Atoyini ikkinchi majlisga kiritganligini hisobga olib shoir yashagan davrni XIV asr oxiri va XV asrning birinchi yarmi deb taxmin qilish mumkin.

Hozirgi Qozog‘istonning Turbat qishlog‘ida unga nisbat berilgan qabr bor. Shundan uning hayoti Sayram, Balx, Samarqand, Hirot shaharlarida kechgan deb aytish mumkin. Bizga bir devoni yetib kelgan bo‘lib, u 260 g‘azalni o‘z ichiga oladi. Shoirning asl ismi ma’lum emas, «Atoyi» uning adabiy taxallusidir. Shoirning nasl-nasabi mashhur shayxlar: Ismoil ota, Ibrohim ota, Ahmad Yassaviylarga borib taqaladi, shu sababli ham shoir «Atoyi» taxallusini tanlagan. «Ato» so‘zining ma’nolaridan biri shayx va zohiddir.

Atoyi lirik turning g‘azal janrida barakali ijod qildi. Uning ijodini, asosan, 7 baytli g‘azallar tashkil qiladi. G‘azallarda ishqiy mavzu yetakchi. «Qon bo‘ldi ko‘ngil» g‘azali firoqda qiynalayotgan oshiqning ko‘ngil izhorlari bilan boshlanadi:

*Qon bo‘ldi ko‘ngil firoqi birla,
Kuydi jonim ishtiyoqi birla.*

She’rning keyingi baytida yorning sochi askarlarga – cherikka o‘xshatiladi. Ular ko‘z bilan ittifoq tuzib jamol mulkini – go‘zallik mamlakatini egallashgan:

*Zulfunq cheriki jamol mulkin
Oldi ko‘zung ittifoqi birla.*

G‘azallaridan namunalar

• *Ey mus‘hafi husnung‘a menging nuqtasi oyat,
Islom eliga bo‘ldi yuzing nuri hidoyat (tashbeh san‘ati).*

• *Ko‘ngulni olg‘ali zulfunq kamandi
Parishon bo‘ldi g‘amdin band-bandi.*

• *Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizardi gul uyottin anjumanda (husni ta' lil va tashxis san'atlari).*

• *Labing qonim to 'karga tashnalabtur,
Dami Iso-yu o 'lturmak ajabtur (talmeh san'ati).*

• *Manga sensiz tirilgandin o 'lim yuz qatla ortuqdur,
Bu so 'zda, haq bilur, ko 'nglum tilim birla muvofiqtur.*

• *Hajringda, begim, oh degumdur dag 'i o 'lgum,
Imonim o 'shal moh degumdur dag 'i o 'lgum.*

• *Ey orazi shams-u qamarim, netti, ne bo 'ldi?
Vey tishlari durr-u guharim, netti, ne bo 'ldi?*

• *Sipehri husn ichinda moh sen-sen,
Zamona xo 'blarig 'a shoh sen-sen.*

• *Seni men ongladim, bevafo emishtuksen,
Ko 'ngulga ofat-u jong 'a balo emishtuksen.*

• *Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu?
Og 'iz yo g 'unchayi xandonmudur bu?*

10.5. Lutfiy

(1366 – 1465)

«Malik ul-kalom» – «so'z podshosi» deb e'zozlangan, «ulug' ustod» – «mavlon»
Lutfiy haqida Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasidagi shunday yozadi: «*Mavlon Lutfiy o'z zamonasining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo'q erdi va turkcha devoni mashhurdur*».

Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat» tazkirasida esa Lutfiyning uzoq umr koʻrgani va qabri haqida qimmatli maʼlumot beriladi: «... *Toʻqson toʻqqiz yoshida olamdin oʻtdi. Qabri Dehikanordadur, oʻz maskani erdi*».

Demak, Lutfiy Hirotda tugʻilib oʻsgan, oʻzi yashagan Dehikanor qishlogʻiga dafn etilgan. Lutfiy dunyodan oʻtganda, Alisher Navoiy 24 yoshda edi.

«Nasoyim ul-muhabbat...» maʼlumotlari asosida Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi xalqaro jamgʻarma oʻz ilmiy-ijodiy ekspeditsiyasida Dehikanor qishlogʻini, u yerdagi qabristondan Lutfiyning qabrini topdi.

Gʻazallaridan namunalar

• *Sensen sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.*

• *Meni shaydo qiladurgʻon bu koʻnguldir, bu koʻngul,
Xor-u rasvo qiladurgʻon bu koʻnguldir, bu koʻngul.*

• *Ayoqinggʻa tushar har lahza gisu,
Masaldurkim: «Charogʻ tubi qorongʻu».*

• *Haq ul kunkim jamoling bor etibdur,
Jahon husnin borin sizga beribdur.*

• *Ey odami(y)lar joni, parigʻa ne boʻlursan?
Bu jism ila gulbargi tarigʻa ne boʻlursan?*

Tuyuqlar

• *Koʻngluma har yonki boqsam, dogʻi bor.
Har necha dardimni desam, dogʻi bor.
Qilcha tanga bori ishqing yor edi,*

Bir sori bo‘ldi firoqing, dog‘i bor.

• *Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen,
Vah, qachon yetkaymen ut dilbanda men?
Bevafolarga meni qilding asir,
Sen menga sultonsen, ey dil, banda men.*

• *Charxi kajraftor elidin yozamen,
Chiqmadim hijron qishidin yoza men.
Bir meni yorliq bila yod etmas ul,
Har necha ul shahg‘a qulluq yozamen.*

• *Qomatimni necha qoshing yo qila,
Necha hajr o‘ti jonimda yoqila.
G‘amza birla to‘kti qonim ul sanam,
To hinotek qon elina yoqila.*

• *Ey ko‘ngul, yorsiz sanga ne bor, bor,
Qaydakim ul zulfi anbarbor, bor.
Chek jafo-u javr-u nozin borini,
Bir kun o‘lg‘aykim degaylar: «Bor-bor!»*

• *Qoshlaring xush lojuvard-u toq erur,
Xush ichinda benazir-u toq erur.
Torta olmasman firoqing, netayin?
Qilcha tanga bori ishqing toq erur.*

Savol va topshiriqlar:

1. *Temuriylar davrida vujudga kelgan adabiy janrlar haqida ma‘lumot bering.*
2. *Bu davrda yashagan shoirlardan kimlar sohibi devon bo‘lganlar?*

3. *Adabiyotshunoslikka doir asarlar haqida soʻzlab bering.*
4. *Atoyining bizga yetib kelgan devonida nechta gʻazal mavjud?*
5. *Sakkokiy nechta janrda ijod qilgan?*
6. *Haydar Xorazmiy dostonlarining gʻoyaviy mazmuni haqida fikrlang.*
7. *Lutfiy devonidagi sheʼriy janrlar haqida maʼlumot bering.*

11. ALISHER NAVOIY

Hayotiga doir muhim maʼlumotlar

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning oʻgʻli Shohrux mirzo hukmronligi davrida Hirotda tugʻildi. Xondamirning «Makorim ul-axloq» asarida maʼlumot berilishicha, shoirning tugʻilgan sanasi hijriy 844-yil ramazon oyining 17-kunida boʻlib, tovuq yiliga toʻgʻri keladi. Uning otasi Gʻiyosiddin Muhammad (uni Gʻiyosiddin Kichkina deb ham atashgan)¹⁰ temuriylar saroyining amaldorlaridan, onasi (ismi maʼlum emas) Kobul amirzodalaridan Shayx Abu Saʼid Changning qizi boʻlgan. Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlaʼyi saʼdayn» va Mirxondning «Ravzat us-safo» asarlarida keltirilishicha, Alisherning bobosi Amir Temurning oʻgʻli Umarshayx bilan emikdosh (koʻkaldosh) boʻlgan. Navoiy «Vaqfiya» asarida oʻz ota-bobolarining temuriylar saroyida yuqori mavqeda boʻlganliklari haqida shunday yozadi: «... bu xokisorning ota-bobosi ul hazrat (Sulton Husayn Boyqaro)ning bobo va ajdodi xizmatlarida... ulugʻ marotibqa sazovor va biyik manosibqa komgor boʻlgʻon erdilar».¹¹

Alisherning togʻalari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali Gʻaribiylar ham shoir boʻlishgan. Boʻlajak shoir ana shunday muhitda, alohida tarbiya va nazoratda oʻsadi. Kichiklik chogʻidan oʻz davrining mashhur olim-u fozillari davrasida boʻladi. Uch-toʻrt yoshlarida mashhur shoir Qosim Anvorning:

¹⁰ Amir Temurning Umarshayx ismli oʻgʻliga nabira boʻlgan shahzoda Gʻiyosiddin (Sulton Husayn Boyqaroning otasi)dan farqlash uchun Alisherning otasini Gʻiyosiddin Kichkina deb ataganlar.

¹¹ Alisher Navoiy oʻzining biror asarida ota-onasi haqida aniq maʼlumot keltirmaydi. Navoiy davrida yaratilgan manbalarda ham ulugʻ shoirning ota-onasi bilan bogʻliq yetarli maʼlumot uchramasligini kuzatish mumkin. Sh.Sirojiddinovning yozishicha, hazrat Navoiy gʻoyat kamtarlik yuzasidan oʻz ajdodi borasidagi tafsilotlarning keltirilishini lozim topmagan va zamondoshlarining ham bu masalada shunday yoʻl tutishlarini istagan. Alisher Navoiy vafotidan soʻng yaratilgan manbalarda bu maʼlumotlar adadi biroz kengayadi.

*Rindem-u oshiqem-u jahonso 'z-u joma chok,
Bo davlati g'ami tu zi fikri jahon chi bok, –*

(Mazmuni: Rindemiz, oshiqimiz, jahon o'rtovchi va yoqavayronlarmiz, sening g'aming turganda dunyo fikridan ne foyda)

baytini yod aytib mehmonlarni hayratga soladi. Bu haqda keyinchalik «Majolis un-nafois»ning birinchi majlisida eslab o'tadi. Bir yildan so'ng, ya'ni 1445-yilda maktabga boradi va yosh Husayn bilan birga o'qiydi.

1447-yili Shohrux mirzo vafot etadi va temuriy shahzodalar orasida toj-taxt uchun kurash boshlanadi. Hirotida ro'y bergan notinchlik sababli Alisherlar oilasi Iroqqa yo'l oladi. Yo'lda, Taft shahrida yosh Alisher zamonasining mashhur tarixchisi, «Zafarnoma»ning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi va ulug' tarixchi 6 yoshli Alisherning haqqiga duo o'qiydi. Bu haqda Navoiyning o'zi keyinchalik «Majolis un-nafois» va «Nasoyim ul-muhabbat» asarlarida ma'lumotlar keltiradi.

1451-yili Xuroson ancha tinchib, Alisherlar xonadoni Hirotga qaytadi. Tarixchi Xondamir «Makorim ul-axloq» asarida yozishicha, karvon Yazd cho'li orqali Hirotga qaytar ekan, kunduzi issiq bo'lganligi uchun kechasi yurilgan. Tungi yurishlardan birida Alisher egar ustidan yerga tushib qoladi va uyqu zo'ridan bexabar yotaveradi. Quyosh yer-u ko'kni yoritgandan keyingina uyg'onib, uzoqda ko'ringan bir qora nuqtani izlab yo'lga chiqadi. Bo'lajak shoirning yo'qolib qolganini biroz vaqt o'tgach bilgan ota-ona bir mulozimni Yazd tomonga jo'natadilar va bolani topib oladilar.

1452-yili Abulqosim Bobur mirzo Xuroson taxtiga o'tiradi va notinchliklar ancha bosiladi. Abulqosim Bobur ma'rifatli hukmdor bo'lib, tasavvuf ilmidan xabardor, tab'i nazmga moyil shaxs edi. Navoiy bu haqda keyinchalik o'z tazkirasida shunday ma'lumot beradi: «Bobir mirzo – darveshvasht va foniysifat va karim ul-axloq kishi erdi. Himmati olida oltunning dag'i kumushning tosh va tufrog'cha hisobi yo'q erdi. Tasavvuf risolalaridin «Lama'ot» bila «Gulshani roz»g'a ko'p mash'uf erdi. Tab'i dag'i nazmg'a muloyim erdi...»

Abulqosim Bobur Alisherning otasi G'iyosiddin Muhammadni Sabzavorga hokim qilib tayinlaydi, G'iyosiddin Muhammad o'z oilasi bilan shu shaharga ko'chib o'tadi va

Alisher o‘qishni davom ettiradi. Alisher Sabzavorda o‘z davrining shoir-u fozillari: Xoja Ahmad Mustavfiy, Mavlono Yahyo Sebak, Darvesh Mansur, Hofiz Ali Jomiy, Xoja Mahmud, Mavlono Nomiylar bilan tanishadi, Darvesh Mansurdan aruz ilmini o‘rganadi. Sa‘diy Sheroziyning «Guliston», «Bo‘ston» asarlarini o‘qiydi, Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» dostonini yod oladi. Bu haqda keyinchalik «Lison ut-tayr» dostonida shunday yozadi:

*Istabon tashxisi xotir ustod,
Nazm o‘quturkim ravon bo‘lsun savod.
Nasrdin ba‘zi o‘qur ham doston,
Bu «Guliston» yanglig‘-u ul «Bo‘ston».
Menga ul holatda tab‘i bulhavas
«Mantiq ut-tayr» aylab erdi multamas.
Topti sokin-sokin ul takrordin,
Soda ko‘nglum bahra ul guftordin.*

1453-yili Alisher maktabdosh do‘sti Husayn bilan Abulqosim Bobur xizmatiga kiradi. Avval Sabzavorda, so‘ng Mashhadda yashaydi. Bu yillarda ham yosh Alisher o‘qish va ilm o‘rganishda davom etadi.

1457-yili Abulqosim Bobur mirzo vafot etadi. Xuroson taxtini Abu Sa‘id mirzo egallaydi. Husayn Boyqaro taxt uchun kurashga kirishib ketadi. Alisher Navoiy esa Mashhad madrasalarida o‘qishni davom ettiradi. Bu davrga kelib endi Navoiy ikki tilda she‘rlar bituvchi «zullisonayn» shoir sifatida ancha tanilib qolgan edi. Xondamirning ma‘lumot berishicha, bir kuni Alisher Navoiy Lutfiy huzuriga borganida, «malik ul-kalom» undan yangi yozilgan bir g‘azalini o‘qib berishni so‘raydi. Navoiy o‘zining:

*Orazin yopqoch, ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘och quyosh, –*

matla'si bilan boshlanuvchi g'azalini o'qiydi. Shunda Lutfiy agar imkoni bo'lganida, o'zining 10 – 12 ming forsiy va turkiy tilda bitilgan baytlarini shu g'azalga almashtirishini aytib shoirning iste'dodiga yuksak baho beradi.

Shoir Mashhad madrasalarida o'qib yurgan paytida bir muddat xastalanib qoladi. U talabalar uchun ajratilgan hujrada kasal bo'lib yotgan holatini «Majolis un-nafois»da shunday eslaydi:

«... *Sulton Abu Sa'id mirzo zamonida Mashhadda g'arib va xasta bir buq'ada yiqilib erdim. Qurbon vaqfasi bo'ldi, olamning aqso bilodidin xalq imom ravzasi tavofig'a yuz qo'ydilar. Rasmdurkim, musofirlar muttayyin buq'a gashtiga ham borurlar, ul buq'adakim, faqir yiqilib erdim, jamoati mavolivash el sayr qilib devorda bitilgan abyotni o'qib, bir bayt ustida bahsga tushtilar. Bir ulug'roq kishikim, ul jamoat ango tobe' erdilar, ul jamoatni ilzom qildi. Faqir za'f hoida ul jamoat jonibidin so'z ayttim. Anga dedilarkim: bu bemor yigit ham bir so'z aytadur. Ul ulug'roq kishi xud Shayx Kamol ermishkim, ziyoratga kelgan ermish! Boshim ustiga kelib, mabhasni orag'a soldi. Faqir javob bergach, o'z so'zidan qaytib, tahsinlar qilib, holimni tafahhus qildi. Ersa ul ham faqirni eshitgan ekandur va ko'rar havasi bor ekandur*». Alisher Navoiy va davrining mashhur shoiri Kamol Turbatiy o'rtasidagi uchrashuv shu tariqa yuz beradi.

Alisher Navoiy 60-yillar boshlarida Hirotda qaytadi. Bu davrda Alisherning tog'alari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiylar Husayn Boyqaroning sipohiylari sifatida Sulton Abu Sa'id mirzoga qarshi jangda halok bo'lgandilar. Shoir Hirotda uzoq qololmaydi va Samarqandga yo'l oladi.¹² Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va Xondamir shoirning Samarqandga borish sabablarini ilm o'rganishga intilish bilan bog'lasalar, Zahiriddin Muhammad Bobur «ixroj» (surgun) deb ataydi. Alisher Navoiyning o'zi Sayyid Hasan Ardasherga yozgan «Masnaviy» maktubida Samarqandga ketishining bir necha sabablarini ko'rsatadi:

¹² Sh.Sirojiddinov Navoiy Samarqandga aynan Hirotdan yo'l olganligi masalasiga shubha bilan qaraydi. Olimning fikricha, Navoiy haqidagi manbalarning birortasida ham shoirning aynan Hirotdan Samarqandga safar qilganligi haqidagi ma'lumot keltirilmaydi, balki «Xurosondan Samarqandga» yo'l olganligi aytiladi. Mashhad ham Xuroson tarkibida ekanligi hisobga olinsa, Navoiy Samarqandga Mashhaddan borgan bo'lishi ham mumkin (Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy tipologik, tekstologik tahlili. – B.45 – 48).

Navoiyshunos olim Q.Ergashev ham ulug' shoir hayotining aynan shu davri navoiyshunoslikda yaxshi o'rganilmaganligiga e'tibor qaratadi (Ergashev Q. Alisher Navoiy hayoti va ijodiy biografiyasiga doir // Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – B.35 – 36).

1) *Hirot*da ijod qilish uchun imkoniyat yo'qligi. Nazmda qobiliyat jihatidan Nizomiyga teng ekanligi, Firdavsiy va Nizomiylar 30 yil vaqt sarflab yozgan «Shohnoma»-yu «Xamsa»ni 30 oyda yoza olishga o'zida quvvat sezayotganligi, lekin buning uchun sharoit va fursat yo'qligini ta'kidlaydi;

2) yurtdagi notinchlikdir. Odamlarda bir-biriga vafo yo'q. Vafoning o'rnini nifoq, saxovatning o'rnini baxillik egallagan. Mamlakat shohi xalq uyini katakdek buzib, tovuq o'rniga boyo'g'lini o'tkazib qo'ygan. Odamlarda kishilikdan nishona yo'q, hamma joyda yomonlik hukmron. Ko'ngil orom topadigan bir hujra yo'q. Tasalli beruvchi biror kishi, ketaman desa etagidan tutadigan umr yo'ldoshi, ketsa ayriliqdan eziladigan do'sti yo'q;

3) ilm egallashga bo'lgan ehtiyojdir. Zero, Navoiyning fikricha, «haq sirrining mahrami» qilib yaratilgan inson Allohni ma'rifat orqali tanishi kerak.

Shu tariqa Alisher Navoiy 1465 – 1469-yillarda Samarqandda yashaydi. Shoir Samarqandda dastlab moddiy qiyinchilikda hayot kechiradi. Keyinroq unga shahar hokimi Ahmad Hojibek homiylik ko'rsatadi. Ahmad Hojibek fozil va shoirta'b hukmdor bo'lib, «Vafoiy» taxallusi bilan she'rlar bitgan. Navoiy «Majolis un-nafois»ning 6-majlisini aynan shu ijodkor-hukmdor ta'rifidan boshlaydi: «*Surati xush va siyrati dilkash, axloqi hamida va atvori pisandida yigitdur. Xurosonda tarbiyat topti. Hirot dor us-saltanatida o'n yilg'a yaqin hukumat qildi. Samarqand mahfuzasida ham muddate hokim erdi... Va tab'i bag'oyat xub voqe' bo'lubtur va nazmg'a ko'p iltifot qilur*».

Alisher Navoiy Samarqandda mashhur olim Xoja Fazlulloh Abullays huzurida fiqh ilmidan saboq oladi. Bu haqda keyinchalik «Majolis un-nafois»da shunday yozadi: «Faqir ikki yil ularning qoshida sabaq o'qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, «farzand» der erdilar».

Alisher Navoiy Samarqandda Mavlono Uloyi Shoshiy, Xoja Xurd, Mavlono Muhammad Olim, Mavlono Soyiliy, Darvesh Ahmad Samarqandiy, Mirzobek, Yusufshoh Safoiy kabi olim va shoirlar bilan tanishadi. She'riyat va adabiyotshunoslikka doir ko'plab asarlarni o'qib chiqadi, salaf va zamondoshlarining baytlarini yod oladi. «Muhokamat ul-lug'atayn»da bu haqda shunday ma'lumot beriladi: «Yigitligim zamoni va shabob ayyomi avonida ko'proq she'rda sehrsoz va nazmda fusunpardoz shuaroning shirin ash'ori

va rangin abyotidin ellik mingdin ortuq yod tutubmen va alar zavq va xushholligidin o‘zumni ovutupmen».

Alisher Navoiy shu yillari shoir sifatida katta shuhrat qozonadi. 1465 – 1466-yillarda muxlislari uning she‘rlarini to‘plab Mashhadda «Devon» tuzadilar va uni oqqa ko‘chirishni mashhur xattot Sultonali Mashhadiyga topshiradilar. Bu devon bugun fanda «Ilk devon» nomi bilan mashhurdir.

Alisher Navoiy she‘rlarining dovrug‘i Sheroz-u Tabrizga ham yoyiladi. «Ilk devon» tuzilishidan so‘ng oradan 5 yil o‘tgach, 1471-yili Oqquyunlilar saltanatida ham Alisher Navoiy she‘rlaridan tarkib topgan yana bir devon tuziladi. Mazkur devon oqquyunlilar saroyida faoliyat yuritgan mashhur xattot va shoir Abdurahim ibn Abdurahmon Xorazmiy (taxallusi Anisiy) tomonidan ko‘chiriladi. Demak, shoirning o‘zi hali rasmiy devon tartib berishga ulgurmay, uning she‘rlari kiritilgan ikki devon: biri Mashhadda, biri Sherozda ko‘chirilib, Navoiy ixlosmandlarining ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

1468-yili Xuroson hukmdori Abu Sa‘id mirzo Eron uchun jangda halok bo‘ladi va 1469-yilning boshida Husayn Boyqaro taxtni egallaydi. U Samarqandga maktub yo‘llab, Navoiyni o‘z yoniga chaqiradi va Navoiy Hirotga qaytadi. Shu yilning aprelida ramazon hayiti kunlarida shoir unga bag‘ishlab «Hiloliya» qasidasini yozadi. U Husayn Boyqaroning taxtga chiqishini yangi oy – hilolga qiyos qiladi:

Yangi oy-u iyd iki qullug‘ching o‘lsun, aylagan

Sen hilol aning otin, bayram bu yerning kunyatin.

Husayn Boyqaro Navoiyni davlat ishlariga jalb qiladi. Shoir dastlab 1469 – 1472-yillarda muhrdor lavozimida, 1472 – 1476-yillarda esa amir (vazir) lavozimida xizmat qiladi. Tarixchi Mirxond uning bu davrdagi faoliyati haqida «Ravzat us-safo» asarida shunday yozadi: «... amir bir necha vaqt muhrdorlik lavozimida qoyim turib, xizmatkorlik poyasini yuqori osmondan ham o‘tkazdi. Bir necha vaqtdan keyin bu mansabni tark etish bobida iltimos qilib, bu lavozimga amir Ahmad Suhayliyni tayin qilishni iltimos qildi. Xoqoni Mansur uning bu iltimosini qabul qildi, lekin hijriy 876-yili sha‘bon oyida (1472-yil yanvar) bandanavoz podshoh ul vojib ul-atob amirni amorat mansabi bilan sarafroz

qilmoqchi bo'ldi... xoqoni Mansurning pokiza ko'ngli shu ediki, amir Alisher vojib ul-iz'on farmonga ko'ra boshqa amirlardan yuqori muhr bossa, lekin ul janobning qo'liga ma'lum soatda muhr bossin uchun nishon berganlarida, nafsi siniq bo'lganidan va bag'oyat ulug' tavozi'liligidan, nishonning shunday joyiga muhr bosdikim, undan tubanroqqa muhr bosishga joy qolmadi...»

Alisher Navoiy vazir lavozimida ishlab yurgan paytlarida o'zining butun kuch-quvvatini mamlakat obodonchiligi, el farovonligi uchun sarf qiladi:

*Kim bor edi boshima ko'p mehnatim,
Yo'q edi bosh qoshig'ali fursatim*

(«Hayrat ul-abror»dan).

Mamlakatda zulm va haqsizlikka chek qo'yadi, ilm va san'at ahliga rahnamolik qiladi, bunyodkorlik va obodonchilik ishlariga keng e'tibor qaratadi. «Amiri kabir» va «Amir ul-muqarrab» unvonlariga sazovor bo'ladi.

Alisher Navoiyning mamlakatdagi katta huquqlari va el orasidagi yuksak e'tibori saroy amaldorlari, ayniqsa, Majididdin va uning tarafdorlarining keskin noroziligiga sabab bo'ladi va saroyda fisq-fasod kuchaya boradi. 1476-yili Navoiy vazirlik lavozimidan iste'fo beradi va badiiy ijod bilan shug'ullanadi.

Alisher Navoiy vazirlik lavozimidan ketgandan so'ng ham Sulton Husayn saroyida eng nufuzli siyosiy arbob bo'lib qolaveradi. Husayn Boyqaro uni o'ziga g'oyat yaqin tutar, har bir narsada u bilan maslahatlashar va shoirning fikrini nihoyatda qadrlar edi. Bu holat ulug' shoir va saroy amaldorlari orasidagi nizoning oshishiga olib keladi. Husayn Boyqaro Navoiyni Astrobodga hokim qilib yuborish bilan saroydagi nizolarga chek qo'yimoqchi bo'ladi.

Alisher Navoiy 1487 – 1488-yillarda Astrobodda hokimlik qiladi. Mirxondning yozishicha, «Astrobod gulshani adolat xislatlik amirning kelishi bilan Eram gulistonining g'ayratini keltiradigan bo'lib, Jurjonning sayyidlari, ulamosi, e'tiborli kishilari, fozillari ul maqtovga munosib sifatli amirning lutf-u marhamatlari bilan faxr va quvonch topdilar.

Yana ra'iyati uning adolat-u insofining barakoti bilan zulm-u bedodlik zulmatidan najot topib, tinchlik va omonlik, farog'at va osudalikka erishdilar».

1489-yili Alisher Navoiy Hirotga qaytgach, o'rniga Astrobod hokimi qilib shahzoda Badiuzzamon tayinlangan edi. Bu orada Balxda Darveshali qo'zg'oloni boshlanadi. Husayn Boyqaro Navoiyni olib Balxga jo'naydi. Darveshali bilan sulh tuziladi, lekin Hisorda Abu Sa'idning o'g'li Sulton Mahmud Husayn Boyqaroga qarshi kurash boshlaydi. Shoh Navoiyni Balxda qoldirib, o'g'li Badiuzzamoni olib Hisorga otlanadi. U bilan ham murosaga kelishib orqaga qaytadi va Balxni Badiuzzamon tasarrufiga beradi. Badiuzzamon o'n uch yoshli o'g'li Mo'min mirzoni Astrobodda qoldirib, Balxga keladi. Husayn Boyqaroning suyuqli ayoli Xadichabegim bilan Majididdinning o'rniga vazir qilib tayinlangan Nizomulmulk Astrobodga Muzaffar mirzoni hokim qilib tayinlashga erishadilar. Xadichabegim shohning mastlik chog'ida Mo'min mirzoni o'ldirish haqidagi farmonga imzo qo'ydirib, uning zudlik bilan ijro qilinishiga erishadi. Husayn Boyqaro hushiga kelib yangi farmon jo'natadi. Lekin vaqt o'tib bo'lgan edi.

Bu hodisa Alisher Navoiyga qattiq ta'sir ko'rsatadi va ko'pdan buyon orzu qilgani haj safariga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Shohdan ijozat olib yo'lga otlanadi. 1499-yili Marvda Husayn Boyqaroning yana bir o'g'li Abulmuhsin otasiga qarshi bosh ko'taradi. Shoh isyonni bartaraf qilish uchun qo'shin bilan Marvga otlanadi. Mirxondning xabar berishicha, *«Marv qamali uch-to'rt oyga cho'zilib, fath-u zafar shohidi murod ko'zgusida ko'rinmagani uchun, xoqoni Mansur sulhga mayl qildi. Abulmuhsin mirzo ham qal'adorlikning cho'zilib ketganidan g'am chekib, otasi qoshiga chopar yubordi va amir Alisherni talab qildikim, to ul janobning vositachiligi bilan sulh ishi voqe bo'lsin».* Shoh Mashhad ostonalariga yetib qolgan Alisher Navoiyga tez chopar yuboradi. Alisher Navoiy Mashhad ulug'lari va hamrohlari bilan maslahatlashadi. Ular mamlakatning tinchligi har narsadan ustun ekanligini aytib, hajga borishni kechiktirishni maslahat beradilar. Alisher Navoiy ortga qaytadi va ota-o'g'il orasida sulh imzolaniadi.

1500-yil dekabrining oxirlarida Husayn Boyqaro Astrobod yurishidan qaytadi. An'anaga ko'ra, saroyning barcha e'tiborli kishilari shohni kutib olishga yo'lga chiqadilar. Ular orasida hazrat Navoiy ham bor edi. Sog'lig'i juda yomonlashganiga qaramay, shoir safardan qaytgan sulton huzuriga yetib keladi va hamrohlari yordamida uning ko'ksiga

bosh qo'yib hushidan ketadi. Bu holat «Makorim ul-axloq»da shunday tasvirlanadi: «*Bir farsaxga yaqin yurganda sohibqironning dabdabali va ko'rkam muhafasi ko'rindi. Shu vaqt Xudoning inoyati bilan ul zotning muborak boshi aylanib qoldi. Olijanob amir Xoja Shihobuddin Abdullani huzuriga chaqirib: «Meni ehtiyot qilishdan g'ofil bo'lmang, ahvolim o'zgarib qoldi», – dedi. Shu payt a'lo hazratning qo'lini o'pishga yetishmoq uchun otdan tushdi. To'satdan yetishgan kasallikning og'irligi so'nggi haddiga borib qolgani va yurishga madori qolmaganidan, mazkur amir va Mavlono Jaloluddin Qosim uning qo'ltiqlariga kirib ulug' Amir boshini baland martabali podshohning quchog'iga qo'ya oldi. A'lo hazrat ul buyuklik va dabdaba doirasi markazining ahvolda o'zgarish ko'rib, g'oyatda qayg'uga botdi, g'amgin bo'ldi».* Shoirni og'ir ahvolda uyga olib keladilar. Uch kun hushsiz yotgan Alisher Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida sakta kasalligi tufayli vafot etadi.

11.1. Alisher Navoiy lirikasi. Devonlari

Musulmon Sharqi she'riyati tarixini Alisher Navoiy lirikasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning lirik merosi o'zigacha yaratilgan fors-tojik va turkiy she'riyatning davomi bo'lish bilan birga barcha zamonlardagi o'zbek she'riyatining eng yuksak cho'qqisi hamdir. Har ikkala tilda yuksak badiiy asarlar yarata olish qobiliyatiga ega bo'lgan hassos shoir 45 ming misraga yaqin turkiy tildagi she'rlari va 12 ming misradan ortiq fors-tojik tilidagi nazmiy merosi bilan o'sha davr she'riyati rivojiga katta hissa qo'shdi.

Alisher Navoiy bolalik yillaridanoq badiiy ijod bilan shug'ullana boshlagan. «Uch yosh bila to'rt yoshning orasida» forsigo'y adib Qosim Anvorning baytini yod o'qib yig'ilganlarni hayratda qoldirgan («Majolis un-nafois») Alisher 15 yoshlarida «malik ul-kalom» Lutfiyning tahsiniga sazovor bo'ladi. Adabiyot ixlosmandlari undan devon tuzishni iltimos qilganlarida, u g'oyat kamtarlik yuzasidan devon tuzish uchun hali vaqt erta deb hisoblaydi. Shunda shoirning muxlislari 1465 – 1466-yillarda uning she'rlarini to'plab devon tuzadilar va bu devon o'z davrida «xattotlar sultoni» nomi bilan mashhur bo'lgan Sultonali Mashhadiy tomonidan nasta'liq xatida ko'chiriladi. Navoiyning o'zi

«Badoye' ul-bidoya»ga yozgan debochasida: «...ammo xaloyiq arosida ming bayt-ikki ming bayt ortug'roq, o'ksukrakkim o'zlari jam' qilib erdilar, bag'oyat mashhur bo'lub erdi», – deb yozadi. Devon uni nashrga tayyorlagan adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonov tomonidan shartli ravishda «Ilk devon» deb nomlangan bo'lib, 391 g'azal, 41 ruboiy, 1 mustazod, 1 muxammas – jami 434 she'rdan tashkil topgan.

Devonga shoirning 1466-yildan avval yozilgan asarlari kirgani uchun undagi she'rlarning yozilish sanasi nisbatan aniq deb hisoblash mumkin, shu sababli bu devon shoirning o'spirinlik va yigitlik davridagi ijodi va tarjimai holi haqida muayyan tasavvur beruvchi manba sifatida yuksak qiymatga ega. Devondagi g'azallarni kuzatarkanmiz, bugungi kunda xalq orasida mashhur bo'lgan quyidagi g'azallar aynan shoir ijodining ilk davrida yaratilganiga guvoh bo'lamiz:

*Kecha kelgundur debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi...*

*Ko'rgali husnungni zor-u muftalo bo'ldum sango,
Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sango...*

Navoiy falsafiy tafakkurida muhim qiymatga ega bo'lgan «Ango» radifli g'azalning ham aynan shu devondan o'rin olganligi shoirning o'sha davrdagi yuksak salohiyatidan darak beradi. G'azal matla'sini keltiramiz:

*Har gadokim, bo'riyoyi faqr erur kisvat ango,
Saltanat zarboftidin hojat emas xil'at ango.*

«Ilk devon»dagi barcha she'rlarning keyinchalik «Xazoyin ul-maoniy»ga kiritilganligi ularning Alisher Navoiy uchun ham qadrli bo'lganini ko'rsatadi.

Navoiyshunos olim, filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov jahon qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan nusxalarni o'rganish asnosida Alisher Navoiyning ixlosmandlari tomonidan tuzilgan yana bir devon qo'lyozmasini aniqlab, 2012-yili fanga ma'lum qildi.

Mazkur devon shoirning oqquyunlilar sulolasi (Ozarbayjon va G'arbiy Eron hududida 1378 – 1508-yillarda hukmronlik qilgan o'g'uz turklari) hukmronligi hududidagi muxlislari tomonidan tuzilgan bo'lib, hozircha fanda shartli ravishda «*Oqquyunli ixlosmandlar devoni*» nomi bilan yuritilmoqda.

Devon 1471-yil 25-dekabrda Anisiy taxallusi bilan she'rlar yozgan shoir va xattot Abdurahim ibn Abdurahmon Xorazmiy tomonidan Oqquyunlilar saltanati markazlaridan biri bo'lgan Sheroz shahrida ko'chirilgan. Devonda jami 229 ta she'r bor: 224 g'azal, 1 mustazod, 3 muxammas va 1 tarje'band. Bu majmuadagi 224 g'azaldan 217 tasi «Badoye' ul-bidoya»ga va faqat bittasigina «Navodir un-nihoya»ga o'tgan. Devondagi 90% g'azal «Ilk devon»da uchramaydi. Bu holat mazkur g'azallarning katta qismi 1466-yildan keyingi 5 yil orasida (1471-yilgacha) yaratilganligini ko'rsatadi. Avvallari Alisher Navoiyning turkiy tildagi she'riyati 4 bosqichda: «Ilk devon», «Badoye' ul-bidoya», «Navodir un-nihoya», «Xazoyin ul-maoniy» tarzida o'rganib kelinardi. Endilikda mazkur devon topilgandan so'ng Alisher Navoiy she'riyatini besh bosqichda o'rganishga zarurat seziladi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Bosqichlar	Navoiy devonlari	Tuzilish muddati
I	Ilk devon	1465 – 1466
II	Oqquyunlilar devoni	1471
III	Badoye' ul-bidoya	1470 – 1480
IV	Navodir un-nihoya	1480 – 1487
V	Xazoyin ul-maoniy	1492 – 1498

Oqquyunlilar saltanatining asosiy aholisi o'g'uz turklari bo'lgani uchun mazkur qo'lyozmada Alisher Navoiy she'rlari o'g'uz lahjasiga moslashtirib ko'chirilgan. Masalan, Navoiyning mashhur g'azali matla'si ushbu devonda quyidagi holatda uchraydi:

*Mehr cho'x ko'rsatdim, ammo mehribone dopmadim,
Jon base qildim fido, oromi jone dopmadim.*

Oqquyunlilar devoni hozirda Misrning Qohira shahrida saqlanmoqda.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro taxtga chiqqanidan keyin uning topshirig'i bilan o'zining birinchi rasmiy devoni – «Badoye' ul-bidoya» (Badiiylikning boshlanishi)ni tartib beradi. Devonning Alisher Navoiy hayotlik davrida (1480-, 1482- va 1486-yillarda) ko'chirilgan nusxalari Parij Milliy kutubxonasida (1480-yil, inv. №746), Britaniya muzeyida (1482-yil, inv. №401) va Toshkent shahrida (1486-yil, inv. №216, asos nusxa) saqlanadi. Devon mazkur nusxalar asosida filologiya fanlari nomzodlari Sh.Sharipov va M.Rahmatullayeva tomonidan nashrga tayyorlangan (MAT, 1-jild).

Shoir bu devoni uchun maxsus debocha ham yozib, unda devon tartib berish masalalariga to'xtaladi va quyidagi xususiyatlarni alohida ko'rsatib o'tadi. Alisher Navoiy devonni g'azallar bilan boshlash, g'azallarni 28 harf emas, balki 32 harf (چ – chim, ج – je, گ – gof va ل – lom-alifni ham qo'shgan holda) bilan tugallash zarurligi, devonga dastavval Allohga hamd yoki payg'ambarga na't mavzusidagi g'azallarni joylashtirish, g'azallarga ma'rifat va mav'iza mavzulariga doir baytlar kiritish, g'azal matla'sida keltirilgan fikrni maqta'gacha rivojlantirib borish va, albatta, devonga janr jihatdan rang-barang she'rlarni kiritishni nazarda tutadi.

Alisher Navoiyning mazkur devoni aynan yuqoridagi qonun-qoidalarga amal qilingan holda tartib berilgan bo'lib, unda 11 janrga oid jami 1046 ta she'r mavjud. Devonga she'rlar quyidagi tartibda joylashtirilgan: g'azal 777 ta, mustazod 3 ta, muxammas 5 ta, musaddas 2 ta, tarji'band 3 ta, qit'a 46 ta, ruboiy 85 ta, lug'z 10 ta, muammo 52 ta, tuyuq 10 ta, fard 53 ta.

Alisher Navoiy tuzgan ikkinchi rasmiy devoni «Navodir un-nihoya» (Behad nodirliklar) deb atalib, 1480 – 1487-yillar oralig'ida tuzilgan. Devonning 1487-yili Hirotda mashhur xattot Abdujamil kotib tomonidan ko'chirilgan nodir qo'lyozma nusxasi hozirda O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (inv. №11675, asos nusxa) saqlanmoqda. Shuningdek, devonning yana bir nisbatan to'liq nusxasi Sulton Ali Mashhadiy tomonidan Hirotda ko'chirilgan bo'lib, bu nusxa ham hozirda O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (inv. №1995) saqlanadi. «Navodir un-nihoya» devoni matni mazkur nusxalar asosida filologiya fanlari nomzodi M.Rahmatullayeva tomonidan nashrga tayyorlangan, unda 862 she'r bor (MAT,

2-jild). Mazkur nashrdan o‘rin olgan she‘rlarning barchasi g‘azal janriga oid. Ushbu devondagi 64 g‘azal «G‘aroyib us-sig‘ar»ga, 331 g‘azal «Navodir ush-shabob»ga, 213 g‘azal «Badoye‘ ul-vasat»ga va 196 g‘azal «Favoyid ul-kibar»ga kiritilgan. Hazrat Navoiy «Navodir un-nihoya»dagi g‘azallarni keyinchalik «Xazoyin ul-maoniy»ga kiritganda ko‘pincha ularni tahrir qilgan, ba‘zi g‘azallarning faqat matla‘isini saqlab qolib, qolgan baytlarini butunlay o‘zgartirgan.¹³

Devon Navoiyning hamd mazmunidagi mashhur g‘azali bilan boshlanadi:

*Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,
Yuzung quyoshig‘a zarroti kavn o‘lub shaydo.*

Alisher Navoiy 1492 – 1498-yillarda Husayn Boyqaroning taklifi bilan o‘zining barcha she‘rlari, jumladan, avvalgi rasmiy devonlariga kirgan she‘rlarini ham to‘plab «Xazoyin ul-maoniy» (Ma‘nolar xazinasini) nomli yirik kulliyot yaratadi. Kulliyot to‘rt devonni o‘z ichiga olganligi uchun «Chor devon» deb ham yuritiladi. Kulliyotning Sankt-Peterburg (1498 – 1499, inv. Xanikov-55; 1592 – 1596, inv. Dorn-558), Istanbul (1495 – 1497, xattot Darvesh Muhammad Toqiy ko‘chirgan, inv. №808), Parij (1525 – 1527, kotib al-Hijroniy ko‘chirgan, inv. №316-317) nusxalari mavjud bo‘lib, ular asosida professor H.Sulaymonov kulliyotning ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi (1959 – 1960). Mazkur matn MATning 3 – 6-jildlarini tashkil etuvchi devonlar uchun asos bo‘lgan.

Alisher Navoiy to‘rt devonning har biriga inson umrining fasllariga moslab nom berdi. Shu ma‘noda 7 – 8 yoshdan 20 yoshgacha bo‘lgan davrni inson umrining bahori deb atadi va kulliyotning birinchi devonini «G‘aroyib us-sig‘ar» (Bolalik g‘aroyibotlari) deb nomladi. 20 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan davrni inson umrining yozi deb belgiladi va «Navodir ush-shabob» (Yigitlik nodirliklari) deb atadi. 35 – 45 yoshni umrning kuziga qiyos etdi va «Badoye‘ ul-vasat» (O‘rta yosh go‘zalliklari) deb nomladi. 45 – 60 yoshini umrning qishiga o‘xshatib «Favoyid ul-kibar» (Keksalik foydalari) deb atadi. Har bir

¹³ 80-yillar oxirida adabiyotshunos olimi Suyima G‘aniyeva ushbu devonning Navoiy muhri bosilgan notugal surat-nusxasini Eron Islom Respublikasidan olib keldi. Bu nusxa «Navoiy dastxati» nomi bilan 1991-yili e‘lon qilindi.

devonga 650 tadan gʻazal kiritdi, shunga muvofiq boshqa sheʼriy janrlarga ham joy ajratdi.

Alisher Navoiy forsiy tilda bitgan sheʼrlarini ham yigʻib «Devoni Foni» nomli toʻplam tuzdi. Bizgacha devonning bir necha qoʻlyozma nusxalari yetib kelgan. Bulardan 2 tasi Parij (inv. №285, 1345), 2 tasi Turkiya (inv. №3850, 1952) va bir nusxa Tehron (inv. №15002) kutubxonalarida saqlanadi. Bu nusxalar orasida Parijdagi 285 raqamli qoʻlyozma nisbatan mukammal hisoblanadi.¹⁴ Akademik B.Valixojev «Devoni Foni» nusxalarini oʻrganib chiqib, ulardagi sheʼriy janrlar miqdorini quyidagicha deb koʻrsatadi: 10 qasida, 554 gʻazal, 1 musaddas, 1 marsiya, 72 qitʼa, 73 ruboiy, 16 taʼrix, 373 muammo, 9 lugʻz. Olim ularning miqdorini 1109 ta deb belgilab, umumiy hajmi 6179 bayt ekanligini taʼkidlaydi.

Koʻringanidek, Alisher Navoiyning barcha sheʼriy merosi 9 devonda jam boʻlgan, ularning ikkitasi ixlosmandlari tomonidan tuzilganligi Navoiy sheʼrlariga hamma davrlarda, xususan, oʻz davrida ham yuqori darajada ehtiyoj boʻlganligidan darak beradi.

11.2. «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotidagi lirik janrlar tavsifi

«Xazoyin ul-maoniy» kulliyoti turkiy sheʼriyatning gultoji boʻlib, jami 16 lirik janrni oʻz ichiga oladi. Bu sheʼriy janrlar har bir devonga muayyan tartib bilan joylashtirilgan va bu janrlarga oid sheʼrlarning umumiy soni 3132 ga teng. «Xazoyin ul-maoniy» kulliyoti tarkibiga kiruvchi devonlarning janr xususiyatlarini kuzatadigan boʻlsak, ular orasida oʻzaro mutanosiblik borligini koʻramiz. Xususan, «Gʻaroyib us-sigʻar» va «Navodir ush-shabob» devonlariga 8 tadan, «Badoyeʼ ul-vasat» va «Favoyid ul-kibar» devonlariga 9 tadan janr kiritilgan va devonlarning hajmi ham bir-biridan unchalik farq qilmaydi: «Gʻaroyib us-sigʻar»da 840 ta sheʼr (5718, 5 bayt), «Navodir ush-shabob» devonida 759 ta sheʼr (5423, 5 bayt), «Badoyeʼ ul-vasat»da 740 ta sheʼr (5420 bayt) va «Favoyid ul-kibar»da 793 ta sheʼr (588,5 bayt) mavjud. Bu janrlardan gʻazal, mustazod, musaddas, tarjiʼband barcha devonlarga oʻzaro teng nisbatda joylashtirilgan. Mazkur janrlarning

¹⁴ Professor H.Sulaymon «Devoni Foni» nusxalarini oʻrganish asnosida shunday xulosaga kelgan.

kulliyotdagi tartibi va o‘zaro nisbatini H.Sulaymonov tuzgan quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

№	Navoiy foydalangan lirik janrlar	«G‘aroyib us-sig‘ar» devonida	«Navodir ush-shabob» devonida	«Badoye’ ul-vasat» devonida	«Favoyid ul-kibar» devonida	Jami to‘rt devonda
1	G‘azal	650 ta (4975 bayt)	650 ta (4998 bayt)	650 ta (5001 bayt)	650 ta (5029 ta)	2600 ta (20003 bayt)
2	Mustazod	1 ta (7 bayt)	1 ta (7 bayt)	1 ta (7 bayt)	1 ta (7 bayt)	4 ta (28 bayt)
3	Muxammas	3 ta (57,5 bayt)	3 ta (52,5 bayt)	2 ta (30 bayt)	2 ta (37,5 bayt)	10 ta (177,5 bayt)
4	Musaddas	1 ta (27 bayt)	1 ta (27 bayt)	2 ta (42 bayt)	1 ta (21 bayt)	5 ta (117 bayt)
5	Musamman				1 ta (28 bayt)	1 ta (28 bayt)
6	Tarji’band	1 ta (100 bayt)	1 ta (103 bayt)	1 ta (56 bayt)	1 ta (110 bayt)	4 ta (369 bayt)
7	Tarkibband		1 ta (56 bayt)			1 ta (56 bayt)

8	Masnaviy	1 ta (148 bayt)				1 ta (148 bayt)
9	Qasida			1 ta (91 bayt)		1 ta (91 bayt)
10	Soqiynoma				1 ta (458 bayt)	1 ta (458 bayt)
11	Qit'a	50 ta (138 bayt)	50 ta (126 bayt)	60 ta (127 bayt)	50 ta (112 bayt)	210 ta (503 bayt)
12	Ruboiy	133 ta (266 bayt)				133 ta (266 bayt)
13	Muammo		52 ta (54 bayt)			52 ta (54 bayt)
14	Lug'z			10 ta (40 bayt)		10 ta (40 bayt)
15	Tuyuq			13 ta (26 bayt)		13 ta (26 bayt)
16	Fard				86 ta (86 bayt)	86 ta (86 bayt)
Jami		840 ta (5718,5 bayt)	759 ta (5423,5 bayt)	740 ta (5420 bayt)	793 ta (5888,5 bayt)	3132 ta (22450,5 bayt)

11.3. Xamsanavislik an'anasi va Alisher Navoiy «Xamsa»si

Musulmon Sharqi epik poeziyasi tarixi xamsachilik an'anasi bilan chambarchas bog'liq. Dastavval XII asrda vujudga kelgan xamsa janri sakkiz asrga yaqin vaqt davomida yuzlab javob dostonlarga ega bo'ldi. Sharq adabiyotida birinchi bo'lib «Xamsa» yozgan shaxs buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviydir. U 1170 – 1204-yillar

oralig'ida birin-ketin 5 ta doston yaratdi, bu dostonlar shoir vafotidan so'ng yaxlit bir to'plamga birlashtirilib «Panj ganj» (Besh xazina) deb atala boshlandi va keyinchalik xamsa nomi bilan mashhur bo'ldi.

Nizomiy beshligidagi birinchi doston «Maxzan ul-asror» (Sirlar xazinasi) deb atalib, 1170-yili yaratilgan. Nizomiy bu dostonini g'aznaviylar hukmdori Bahromshoh (XII asr)ga bag'ishlaydi. «Maxzan ul-asror»ning vujudga kelishida XII asr klassigi Hakim Sanoiy «Xadiqat ul-haqoyiq» (Haqiqatlar bog'i) dostonining ta'siri bor. Umuman, musulmon Sharqida falsafiy-didaktik yo'nalishdagi dostonlarning ibtidosi ham bevosita shu doston bilan bog'lanadi.

Nizomiy beshligidagi ikkinchi doston «Xusrav va Shirin» deb atalib, taxminan 1181-yili yozib tugallangan. Shoir bu dostonini saljuqiy hukmdor To'g'ul II (1174 – 1194) topshirig'iga ko'ra yaratadi. «Layli va Majnun» dostoni esa 1188 – 1189-yillarda shirvonshoh Axsitan II topshirig'iga ko'ra yaratiladi.

Nizomiy beshligidagi to'rtinchi doston «Haft paykar» (Yetti go'zal) 1196-yili yozib tugallanadi. Doston 4600 baytdan iborat bo'lib, hukmdor Alouddin Ko'rpa Arslon (1174 – 1207) topshirig'i bilan yaratilgan. «Haft paykar» asosiy voqea va unga ilova qilingan 7 ta qoliplovchi hikoyatlardan iborat.

Nizomiy beshligidagi so'nggi – beshinchi doston «Iskandarnoma» deb atalib, ikki qism: «Sharafnoma» va «Iqbolnoma»dan iborat. Doston hajmi 10000 baytdan ortiqroq. Dostonning aniq qaysi yilda yaratilganligi ma'lum emas, adabiyotlarda uning 1197-yildan keyin yozilganligi haqida ba'zi qaydlar uchraydi.

Nizomiy beshligi yaratilgandan keyin oradan bir asr vaqt o'tib Xusrav Dehlaviy (1253 – 1325) unga javob yozdi va shu bilan xamsanavislik an'anasini boshlab berdi. U 1299 – 1301-yillarda «Matla' ul-anvor» (Nurlarning boshlanmasi), «Shirin va Xusrav», «Majnun va Layli», «Hasht behisht» (Sakkiz jannat), «Oyinayi Iskandariy» (Iskandar oynasi) dostonlarini yaratib Nizomiy ishini davom ettirdi, natijada adabiyotda xamsachilik an'anasi paydo bo'ldi.

11.4. «Hayrat ul-abror» dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari

Alisher Navoiy «Xamsa»sidagi birinchi doston «Hayrat ul-abror» (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) 1483-yili yaratilgan edi. Doston 3988 baytdan iborat boʻlib, 63 bob, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Shundan KIRISH (muqaddima) 21 bobni oʻz ichiga oladi.

Dostonning birinchi bobi Qurʼoni Karimdagi bosh ilohiy jumla «Bismillahir rohmanir rohim» (Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman)ning poetik sharhiga bagʻishlangan. Bu bob nafaqat «Hayrat ul-abror» uchun, umuman, «Xamsa» uchun ham kirish vazifasini oʻtaydi, chunki keyingi dostonlarda biz bu ilohiy jumlaning uchratmaymiz. Hazrat Navoiy mazkur jumlaning ikki nuqtayi nazardan tahlil qiladi, yaʼni qabul qiluvchilar va rad etuvchilar.

Dostonning ikkinchi bobi Xoliq, yaʼni Alloh hamdiga bagʻishlanadi. Mazkur bobda shoir hamma narsani yaratgan Xoliqning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun oʻsimliklar va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini bir-biriga bogʻlab harakatlantirib turishini cheksiz hayrat bilan tasvirlaydi. Dostonning 3 – 6-boblari (toʻrt bob) munojotlarni oʻz ichiga oladi. Munojot bandaning Yaratgandan najot soʻrashidir.

Adabiy anʼanaga koʻra, munojotdan soʻng paygʻambar madhiga, yaʼni naʼtga oʻtiladi. Dostonda 5 ta naʼt keltirilgan.

Dostonning 12-bobi ulugʻ salaflar Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhiga bagʻishlangan. Dastlab Nizomiyga taʼrif berilar ekan, uning ismidagi harflar abjad hisobiga koʻra 1001 soniga teng kelishi jihatidan Xudoning 1001 ismiga hamohang ekanligi aytiladi. Ishtiyoq (oʻzakdosh soʻzlarni keltirish) va iyhom (baytni ikki xil maʼnoda qoʻllash) sanʼatlari vositasida u yaratgan xazina («Xamsa»)ga taʼrif beriladi:

Ganja vatan, koʻngli aning ganjxez,

Xotiri ganjur-u tili ganjrez.

Xusrav Dehlaviy madhi keltirilganda esa uning ismidagi «xusrav» soʻzining podsho maʼnosini bildirishi Dehlaviyning soʻz podshosi sifatida hind mulkini obod qilganligi, uning har bir dostoni Hindistonning bir oʻlkasiga teng ekanligi bilan izohlanadi:

*Nazmi savodi aro har doston,
O‘ylaki, bir kishvari Hinduston.*

13-bob Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhini o‘z ichiga oladi. Navoiy Nizomiy va Dehlaviyni bir bobda ta’riflagani holda ustozi va do‘sti Abdurahmon Jomiyga alohida bob bag‘ishlaydi. Uni o‘sha davrning «qutbi tariqati» deb atar ekan, o‘zining unga nisbatan ojiz va muhtojligini g‘oyat kamtarlik bilan bayon qilsa, Jomiyning yangi yozgan biror asarini o‘zidan oldin hech kim ko‘rmasligini faxr bilan keltirib o‘tadi:

*Nomag‘akim roqim etib xomasin,
Ko‘rmadi men ko‘rmayin el nomasin.*

Dostonning 14 – 15-boblari so‘z ta’rifiga bag‘ishlangan. Hazrat Navoiy so‘zning buyukligini «kun» (yaral) so‘zining olam va odamni yaratishda vosita bo‘lganligi bilan dalillaydi:

*Dahr muqayyad bila ozodasi,
Borcha erur «kof» ila «nun» zodasi.
Zodasidin zoda bo‘lub beaded,
Zodaga ham valid o‘lub, ham valad.*

Alisher Navoiy bu o‘rinda so‘zning mahsuli bo‘lgan adabiy turlar haqida ham to‘xtalar ekan, nazm va nasrga alohida ta’rif beradi, nazmni nasrdan ustun qo‘yib, gulshanda gullarning saf tortib turishini nazmga, sochilib, to‘kilib yerda yotishini nasrga o‘xshatadi. Shoirning e’tiroficha, nazm bu qadar e’zozlanmasa, Tangri so‘zida she’r bo‘lmas edi:

*Bo‘lmasa e’joz maqomida nazm,
Bo‘lmas edi Tengri kalomida nazm.*

Shuningdek, Navoiy ushbu bobda turkiy tilda she'r aytishga kuchli ishtiyoq sezishini va bu yo'lda ancha yuqori darajaga erishganini faxr bilan bayon qiladi.

Dostonning 16-bobi zamona sultoni Husayn Boyqaro madhini o'z ichiga oladi. Alisher Navoiy bu bobda talmeh san'ati vositasida Husayn Boyqaroni kuch-qudratda Firdavsiy qahramoni Rustanga, adolat va fazl-u kamolda Eronning afsonaviy podshosi Jamshidga o'xshatadi.

17-bob «Ko'ngul ta'rifida» deb nomlanadi. Bu bobda Navoiy qudratli dehqon (Xudo) ilk tongda insonni yaratgandan keyin unga ko'ngul ato etganini bayon qilar ekan, ko'ngulni yurak bilan adashtirmaslikka chaqiradi. Shoirning fikricha, yurak savdogarda ham bor, lekin uning butun fikri-yodi savdoda. Yaratganning yodi bilan yashaydigan insondagina haqiqiy ko'ngul bo'ladi va ugina «ahli dil» sanalishi mumkin. Shuningdek, Navoiy ko'ngulni olami kubro, Ka'badan-da ulug' joy deb ataydi.

Muqaddimaning qolgan uch bobi (18 – 20-boblar) hayrat ta'rifiga bag'ishlangan. Bu boblarda Xoja, ya'ni ko'ngulning avval mulk (narsalar) olamiga, keyin malakut (farishtalar) olamiga va, nihoyat, so'ngida «ajoyib bir shahar» (inson tanasi)ga sayohati bayoni keltiriladi va bu sayohat ko'ngulning o'zligini tanib inson tanasiga kirgani tasviri bilan yakunlanadi. Alisher Navoiy bu o'rinda «o'zligini bilgan Xudoni ham biladi» g'oyasini ilgari suradi:

Nafsg'a chun orif o'lub mo'-bamo',

Foyiz o'lub «qad arafa rabbahu».

Muqaddimaning so'nggi 21-bobi Xoja Bahouddin Naqshband va uning xalifasi Xoja Ubaydulloh Ahror madhiga bag'ishlangan. Alisher Navoiyning muqaddimadagi so'nggi bobni aynan shu shayxlarga bag'ishlashi shoirning naqshbandiya suluki vakili ekanligiga ishora edi.

Dostonning 22-bobidan asosiy qism boshlanadi. Asosiy qism maqolat va hikoyatlardan tashkil topgan 40 bobni o'z ichiga oladi. Maqolatlar muayyan bir axloqiy-falsafiy mavzuga bag'ishlangan bo'lib, shoir dastlab ushbu mavzuga munosabat bildiradi, mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon qiladi, so'ngra shu mavzuga mos ibratli

hikoya keltiradi. Shu tariqa asosiy qism 20 maqolat va unga ilova tarzida keltirilgan hikoyatlar bayoni tarzida davom etadi:

№	Maqolatlar	Hikoyatlar
1	Iymon sharhida	Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat
2	Islom bobida	Ibrohim Adham va Robiya Adviya haqidagi hikoyat
3	Salotin (sultonlar) zikrida	Shoh G‘oziy hikoyati
4	Xirqa kiygan riyokor shayxlar xususida	Abdulla Ansoriy haqidagi hikoyat
5	Karam (xayr-u ehson) vafida	Hotami Toyi hikoyati
6	Adablilik to‘g‘risida	No‘shiravon va Nargis haqidagi hikoyat
7	Qanoat bobida	Qanoatli va qanoatsiz do‘stlar haqidagi hikoyat
8	Vafo bobida	Ikki vafoli yor hikoyati
9	Ishq o‘ti ta’rifida	Shayx Iroqiy haqidagi hikoyat
10	Rostliq ta’rifida	Sher bilan durroj hikoyati
11	Ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqida	Imom Roziy va Xorazmshoh haqidagi hikoyat
12	Qalam va qalam ahllari haqida	Yoqut haqidagi hikoyat
13	Bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida	Ayyub va o‘g‘ri haqidagi hikoyat
14	Osmon tuzilishidan hikoyat	Iskandar haqidagi hikoyat
15	Jaholat mayining quyqasini ichadiganlar haqida	Isroiliy rind haqidagi hikoyat
16	Xunasasifat oliftalar haqida	Abdulloh Muborak haqidagi hikoyat
17	Bahor yigitligining sofliqi haqida	Zaynobbiddin va uning o‘g‘li haqidagi hikoyat
18	Falak g‘amxonasi haqida	Go‘zal malika va uning oshig‘i haqidagi hikoyat
19	Xurosonning misli yo‘q viloyati	Bahrom va bog‘ haqidagi hikoyat

	bayonida	
20	Maqsadning o‘talgani haqida	Xoja Muhammad Porso haqidagi hikoyat

Eng avvalgi maqolat iymon sharhiga bag‘ishlanadi. Bu bejiz emas, zero, dostonning bosh g‘oyasi komil inson timsolini vasf etishdir, komillikning bosh belgisi esa iymondir:

*Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki, nishoni anga iymon erur.*

Alisher Navoiy: «Kimdagi iymonning uch belgisi bo‘lsa, u haqiqiy insondir», – deydi va bu belgilar sifatida sabr, shukr va hayoni ko‘rsatib o‘tadi:

*Bas ani inson atag‘il beriyo
Kim, ishidur sabr ila shukr-u hayo.*

Komil inson ta’rifidan keyin iymon sharhiga to‘xtalib o‘tadi. Hazrat Navoiy iymonning 6 sharti sifatida quyidagilarni keltiradi:

- 1) *Haqning borligiga iymon keltirish;*
- 2) *farishtalarga iymon;*
- 3) *Allohning so‘zlari bo‘lgan muqaddas kitoblarga iymon;*
- 4) *payg‘ambarlarga iymon;*
- 5) *qiyomat kuniga iymon;*
- 6) *taqdiri azalga iymon.*

Ushbu fikrlardan so‘ng Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat keltiriladi. Hikoyatda bir kuni Shayx Boyazid Bistomiydan g‘amginlik sababini so‘ragan muridiga shayx bu dunyoda haqiqiy insonlar kamayib ketganligidan xafaman deb javob beradi. Shunda muridi shayxni haqiqiy insonlar safida deb hisoblashini ta’kidlaganida, shayx o‘zini ham yuz ming sarson-sargardonlar qatorida sanashini, agar bu dunyodan iymon bilan ketmas ekan, inson sanalmasligini aytadi.

Alisher Navoiy keyingi maqolatlarda ham birinchi maqolatda keltirilgan bosh mavzu – komil insonga xos sifatlar bayonini davom ettiradi. Xususan, 5-maqolat karam va saxovat, 6-maqolat adab, 7-maqolat qanoat, 8-maqolat vafo, 10-maqolat rostgo‘ylik ta’rifidadir. Bu maqolalar orasida 7-maqolat badiiy timsollarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Navoiy fikricha, kimki qanoatni o‘ziga kasb qilgan bo‘lsa, u eng boy insondir. Oltin, kumush va zeb-u ziynatlarni boylik deb bilmaslik kerak, balki haqiqiy boylik qanoat xazinasidir:

*Kimgaki ish bo‘ldi qanoat fani,
Bilki, ani qildi qanoat g‘ani.
Ganji tajammulni g‘ino bilmagil,
Balki g‘ino ganji qanoatni bil.*

Mazkur maqolatda qanoat tushunchasi chiroyli tashbehtar va tamsillar vositasida ifodalab berilganini ko‘ramiz. Masalan, osmon qanchalik katta bo‘lmasin, u bitta kulcha, ya’ni quyosh bilan kun kechiradi. Ko‘z doim shuning uchun ravshanki, u mehrob ostida turib ikkita bodom bilan oziqlanadi. Shunday ekan, insonlar qanoat bobida osmon va ko‘z singari bo‘lishlari kerak. Maqolatda kitobot (harf) san’atining ham yetakchilik qilishini kuzatish mumkin:

*Qushlar aro shohki anqo durur,
Nuktaye bu amrda paydo durur.
Bordur agar fikr ila topsang vuquf,
Qoni’-yu anqog‘a muvofiq huruf.*

Qushlarning ichida anqo shoh hisoblanadi. Bunda ma’lum bir ma’no bor. Agar fikr bilan voqif bo‘lishni istasang, «qoni’» va «anqo» so‘zlarining yozilishida harflar bir-biriga muvofiqdir. Yoki:

Shoh boshining sharafi toj emas,

*Angla ani shohki muhtoj emas.
Shoh agar ul bo'lsaki muhtojdur,
Harf ila muhtojda ham tojdur.*

Shoh boshining sharofati tojdan emas, kimki muhtoj bo'lmasa, o'shani shoh deb tushun. Muhtojni ham shoh deb atash mumkin bo'lsa, harf nuqtayi nazaridan «muhtoj» so'zida ham «toj» bor-ku!

Maqolatga «Qanoatli va qanoatsiz ikki do'st» haqidagi hikoyat ilova tarzida keltirilgan. Hikoyatda keltirilishicha, ikki do'st Fors mulkidan Chin mamlakati tomon yo'lga tushadilar. Biri taqdir berganiga qanoatli inson bo'lib, ikkinchisi ochko'z, tamagir edi. Yo'lda ketayotib bir toshga ko'zlari tushadi. Uning yarmi yer ostida bo'lib, yarmi yer yuzasiga chiqib turardi. Tosh ustida: «Kimki mehnat qilib toshni aylantirib qo'ysa, ostidagi afsonada vayrona tagida bekitib qo'yilgan xazina haqida yozib qo'yilgan. Kimki bu mashaqqat, azob-uqubatlarni xohlamasa, uning uchun sabr-u qanoat hammasidan yaxshiroqdir» degan yozuv bitilgan edi. Ochko'z yigit yozuvni o'qigach xazina ilinjida tosh ostini qazishga tushib ketadi. Qanoatli odam esa beparvo tarzda shahar tomon yo'l oladi. Shaharga kiradigan bir necha darvoza bo'lib, u shaharga birinchi bo'lib kiradi. Shahar aholisining odatiga ko'ra, mamlakat podshosi qazo qilsa, darvozadan birinchi kirgan odamni podshoh qilib ko'tarar ekanlar. Shu tariqa bu do'st o'z qanoati tufayli mamlakatga podshoh bo'ladi. Uning tosh ostini qaziyotgan do'sti esa og'ir mehnatni bajarib bo'lgach toshni ag'darib qarasa, «Xomtama bu dunyoda alam chekadi» deb yozib qo'yilgan ekan. Xulosa shuki, qanoatli inson o'z sabr-u qanoati tufayli shoh martabasiga erishadi, qanoatsiz inson esa tama ilinjida xor-u zor bo'ladi.

«Hayrat ul-abror» dostonida xotima ham o'ziga xos o'ringa ega. Dostonning 62 – 63-boblari hazrat Navoiyning xulosa va yakuniy fikrlarini o'z ichiga oladi. 62-bobda Navoiy dostonni yaratish orzusidan boshlab uni tugatgunicha bo'lgan jarayon haqida yozar ekan, dostonni yozish xayoli unga tinchlik bermagani, el-u yurt xizmati, xalq arz-dodini tinglash uni asosiy maqsaddan chalg'itsa-da, Xudoning o'zi unga marhamat ko'rsatib, nihoyat, bu ulug' muddaoni poyoniga yetkazganini betakror tashbehlar vositasida bayon qilib beradi.

Bob soʻngida Navoiy gʻoyat nazokat va kamtarlik bilan agar yozganlari elga manzur boʻlmasa, uni afv etishlarini soʻrab Allohga iltijo qiladi:

*Jilva ber el koʻziga ham xoʻb ani,
Qilgʻil ulus koʻngliga margʻub ani.
Har nechakim jurmum erur pech-pech,
Lekin erur rahmating olinda hech.*

63-bobda oyogʻi toyib ketib kosadagi oshni shohning boshiga toʻkib yuborgan va olijanob shohning xijolatdan oʻlar holatga yetgan bu qulni afv etgani haqidagi hikoyat beriladi, bu hikoyat bevosita 62-bobga hamohang tarzda, unga ilovadek keltiriladi. Navoiy Allohni olijanob shohga, oʻzini oyogʻi toyib ketgan qulga oʻxshatar ekan, shunday yozadi:

*Har necha koʻp boʻlsa gunohim mening,
Shukrki, bor sendek ilohim mening.
Xijlat ila qolmadi xud jom manga,
Yeri durur aylasang ehson manga.*

«Hayrat ul-abror» dostonida kun tartibiga qoʻyilgan masalalar bevosita «Xamsa»ning keyingi dostonlarida ham davom etadi, xususan, komil insonga xos adab, qanoat, karam va saxovat, futuvsat, rostlik, vafo kabi xislatlar bilan bogʻliq masalalar «Farhod va Shirin» dostoni, «Sabʻayi sayyor» tarkibidagi hikoyatlar, «Saddi Iskandariy» dostonlarida yangicha talqin topganligini koʻramiz.

Doston aruz tizimining sariʼ bahri – sariʼi musaddasi matviyi makshuf (ruknlari va taqtiʼi: muftailun muftailun foilun – VV – / – V V – / – V –) vaznida yozilgan. Bu vazn pand-u nasihat mazmunidagi fikrlarni bayon qilishga nihoyatda qulay boʻlganligi sababli doston uchun asosiy sheʼriy oʻlchov vazifasini oʻtagan.

11.5. «Farhod va Shirin» dostonining timsollar olami

Alisher Navoiy «Xamsa»sidagi ikkinchi doston «Farhod va Shirin» deb atalib, 1484-yili yozib tugallangan. Navoiygacha bu mavzu «Xusrav va Shirin» shaklida mashhur edi. Afsonaning bosh qahramoni Xusrav Parvez, aslida, tarixiy shaxs boʻlib, milodiy 590-yili taxtga chiqib, 628-yili oʻz oʻgʻli Sheruyaning buyrugʻi bilan oʻldirilgan Eron shohidir. Uning oromiy yoki arman qizi Shiringa boʻlgan muhabbati koʻpgina tarixiy asarlarda qayd etilgan. Xususan, Alisher Navoiyning oʻzi ham «Tarixi muluki Ajam» asarining sosoniylar tarixiga bagʻishlangan qismida Xusrav Parvez haqida maʼlumot beradi. Badiiy adabiyotda Xusrav va Shirin muhabbati haqida birinchi boʻlib Firdavsiy oʻzining «Shohnoma» dostonida yozib qoldiradi, Nizomiy esa uni alohida ishqiy-sarguzasht doston holiga keltiradi. Nizomiyning «Xusrav va Shirin» dostoni 1340-yili Qutb Xorazmiy tomonidan turkiy tilga tarjima qilingan.

Alisher Navoiy bu mavzudagi dostoni uchun avvalgi dostonlarda ikkinchi darajali timsol tarzida talqin etilgan Farhodni bosh qahramon qilib oladi. Aslida, Farhodning bosh qahramon qilib olinishi adabiyotda ilk bor XIV asrda Ozarbayjonda yashab faoliyat yuritgan Orif Ardabiliyning «Farhodnoma» (1369) nomli fors-tojik tilida yozilgan dostoni bilan boshlanadi. Lekin unda tasvirlangan voqealar Navoiy dostonidan butunlay farq qiladi.

Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni 54 bob, 5782 baytdan iborat. Shundan muqaddima 11 bobni oʻz ichiga oladi. Doston anʼnaviy hamd – Allohning maqtovi bilan boshlanadi. Dostonda ikkita hamd mavjud. Birinchi hamdda Alisher Navoiy Yaratuvchining qudratini taʼriflab, uning irodasi bilan qalamga olmoqchi boʻlgan gʻoyaviy niyati haqida soʻz yuritar ekan, birinchi misrani arabcha kalima bilan boshlaydi:

Bihamdik fath abvob ul maoniy,

Nasib et koʻngluma fath oʻlmak oni.

Yaʼni: Maʼnolar eshiklarining ochilishi sening maqtoving bilan va koʻnglumga ularni zabt etishni nasib qil.

Keyingi baytlarda Navoiy ma'nolar xazinasi qulfiga qo'lining kalit bo'lishini, shu vosita bilan barcha umidlariga yetishishni tilaydi, ana shu ma'nolar xazinasidan olam ahlini bahramand etishni umid qiladi.

Ikkinchi hamdda shoir yozishga kirishayotgani «Farhod va Shirin» dostonining umumiy talqini, undagi qahramonlarning muxtasar tavsifini beradi, «dard bog'i» deb ta'riflangan ishq bilan aloqador barcha hayajon va iztiroblar haqida yozadi. Shoir Xoliq maqtoviga kirishar ekan, eng avvalo, u inson ko'nglini ishq gulshani, bu gulshanda esa ishqni xazinaga aylantirganligini madh etadi:

*Ki inson ko'nglin etti gulshani ishq,
Bu gulshanning harimin maxzani ishq.*

Munojot (3-bob)da Alisher Navoiy insonning yo'qlikdagi holati, dunyoga kelishi, go'dakligi, hayoti to'g'risida bayon qiladi. «Lavhi mahfuz» (kishilarning yaxshi va yomon amallari, taqdiri azaldan bitib qo'yilgan lavh) haqida fikr yuritadi.

To'rtinchi bob Muhammad payg'ambar (s.a.v.) madhiga bag'ishlangan. Bob payg'ambarning muborak chehrasi tavsifi bilan boshlanib, uning o'qish va yozish bilan shug'ullanmaganligi ajoyib badiiy san'atlar vositasida bayon qilib beriladi. Xususan, qalam payg'ambar unga mayl ko'rsatmaganidan, ya'ni uni qo'lida tutmaganligidan keyin yoqasini chok etib, ko'z yoshlarini to'kib afg'on qilganligi, uning qo'lini o'payin deb qancha og'zini ochmasin, uning orzusi amalga oshmaganligi husni ta'lil san'ati asosida keltirilganligini ko'ramiz:

*Necha choki giribon qildi xoma,
To'kub ashkini afg'on qildi xoma.
Ochib og'zin qilay deb dastbo'si,
Muyassar bo'lmayin bu orzusi.*

Bobda «insonlar payg'ambar belgilab bergan shariat qoidalari asosida yashasalargina haqiqiy saodatga erishadilar» degan g'oya ilgari suriladi.

5-bob me'roj tuni ta'rifi bag'ishlangan bo'lib, payg'ambarning Buroq oti yordamida Alloh huzuriga yo'l olishi tasviri beriladi.

Dostonning 6-bobi qalam ta'rifi hamda ulug' salaflar – Nizomiy va Dehlaviylar madhini o'z ichiga oladi.

Hazrat Navoiy Nizomiyni xazinadorga, uning ma'nolarga to'la asarlarini xazinalarga o'xshatib ta'riflaydi. Xusrav Dehlaviyni u yashagan Hindiston bilan bog'liq holda hindu, to'ti, bulbul, qaqnus, mushk hidli bulutga o'xshatadi. «Xamsa» yozish an'anasini kurash maydoniga o'xshatib, o'zining bugungi kunda nihoyatda mashhur baytlarini yozadi:

*Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig'a panja urmoq.
Tutaykim qildi o'z changini ranja,
Nekim urdi aning changiga panja.
Kerak sher ollida ham sheri jangi,
Agar sher o'lmasa, bori palangi.*

7-bob «hazrati shayx ul-islomiy mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy» madhidadir. Alisher Navoiy Nizomiy va Dehlaviyni ikkita filga o'xshatgani holda Jomiyning yuz filga o'xshatadi. So'z o'yini vositasida uni XI – XII asrlarda yashagan mashhur so'fiy Zinda piri Jomiyga qiyoslaydi, «fano timsoli», «jahoni begaron» (cheksiz jahon), «olami kubro» (ulug' olam) deb ataydi. Bob Jomiy qo'lidan bir jom ichish umidi bilan yakunlanadi:

*Keturgil, soqiy, ul jomi kiromiy
Ki, tutsun rindlar sarxayli Jomiy.
Chu piri dayr may qildi havola,
Icharmen gar erur gardun piyola.*

Navbatdagi bob dostonning yozilish sababi haqida. Bu bobda shoir dostonni yaratish orzusi paydo bo'lgach, bepoyon dur-u gavharlar dengiziga cho'mganligini, ya'ni ko'p mutolaa qilganligini, tinmay o'ylaganligini aytadi. Dostonni yozishga undagan

sabablardan biri o‘zining muhabbati, bu ishqning alam va iztiroblari ekanligini aytib, u tufayli o‘ziga yetishgan azob-u uqubatlarni bayon qiladi. Shunda unga g‘oyibdan nido kelib, hotif (g‘oyibdan oq fotiha beruvchi) uni yangi bir asarni yozishga ilhomlantirganini, keyin Jomiyning oldiga borganida u ham shoirni duo qilib, bu ishda unga oq yo‘l tilaganini yozadi.

9-bob asar rejasini tuzib olgani, turli afsonalar, tarixiy manbalarni ko‘rib chiqqani, shu mavzuda yozilgan dostonlarda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatib, o‘z g‘oyalarini qay tarzda ifoda etmoqni niyat qilgani bayonidadir. Bunda Navoiy yozilajak asari yangi bo‘lishi lozimligini, avval shu mavzuda yaratilgan dostonlarni takrorlamaslik kerakligini ta’kidlaydi:

*Ani nazm etki, tarhing toza bo‘lg‘ay,
Ulusqa mayli beandoza bo‘lg‘ay.
Yo‘q ersa nazm qilg‘onni xaloyiq,
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.
Xush ermas el so‘ngincha raxsh surmak,
Yo‘likim, el yugurmishtur yugurmak.*

Dostonning 10-bobi Sulton Husayn Boyqaro ta’rifiga bag‘ishlangan. Navoiy uni sultonlar ichida Shoh G‘oziy, g‘azot maydonida Ali ibn Abu Tolib, shariat rivojida payg‘ambar singaridir deb ulug‘laydi va uni adolatli, saxovatli hukmdor sifatida madh qiladi.

11-bob shahzoda Badiuzzamon Bahodir madhiga bag‘ishlangan. Navoiy uni «Badi ud-dahr-u Doroyi zamon» deb atab, uning ismini kitobot (harf) san’ati asosida sharhlab o‘tadi. Shahzodaning ismi 10 harfdan iborat bo‘lib, Navoiy uning har bir harfiga alohida ma’no yuklaydi.

Navoiy yuqorida dostonni yaratishdan maqsad «ishq, ya’ni ilohiy ishq dardini kuylash» ekanligini aytib o‘tgan edi:

Bu rangin sahfa bilkim, dard bog‘i,

Ayon har lolasida ishq dog'i.

Bundan ma'lum bo'ladiki, dostondan bosh maqsad ilohiy ishq dardiga muhtalo bo'lgan solik (tariqat yo'liga kirgan oshiq)ning sarguzashtlarini tasvirlashdan iboratdir.

Dostonning asosiy qismi 12-bobdan boshlanadi. Voqealar Chin xoqonining farzandsizligi va uning iztiroblari tasviri bilan ibtido topadi. Nihoyat, uning iltijolari qabul bo'lib, Tangri unga bir o'g'il in'om etadi. Navoiy go'dakning tug'ilishidan tortib ulg'ayishigacha bo'lgan har bir jarayonni alohida tasvirlaydi, hatto go'dakka qo'yilgan ismga ham alohida ma'no yuklaydi:

*Anga farzona Farhod ism qo'ydi,
Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi.
Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.*

Farhod bolaligidan favqulodda xislatlari bilan atrofdagilarni hayratga soladi. O'n yasharligida:

*Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm, –*

darajasiga erishadi. Asarda Farhod ham cheksiz jismoniy qudrat, benazir iste'dod egasi, ham yuksak fazilatlar sohibi sifatida tasvirlanadi.

Farhod yoshi ulg'aygani sari hazin va xastadil bo'lib boradi. Xoqon Farhodning ko'nglini ochish, hazin kayfiyatini ko'tarish uchun yilning to'rt fasliga moslab to'rt qasr qurdiradi. Shu asnoda Farhod Qorandan tosh yo'nish, Boniydan me'morlik, Moniydan naqqoshlik sirlarini o'rganadi. Lekin u egallagan bilimlar, o'rgangan hunarlar zohiriy (dunyoviy) bilimlar bo'lib, ilohiy sir-u asrorni ochishga kifoya qilmaydi. Endi u piri komil ta'limini olishi kerak edi.

Farhoddagi hazinlikning tarqamaganini koʻrgan xoqon unga taxtni taklif qiladi va shu bilan goʻyoki oʻgʻlining dardiga davo topmoqchi boʻladi. Aslida esa Farhoddagi bu holat zaminiy, dunyoviy boʻlmay, ilohiy ishqning nishonasi edi. Shu oʻrinda Navoiy ilohiy ishq dardida yongan inson bilan bunday saodatdan mahrum foniy dunyo kishilari orasidagi farqni koʻrsatib beradi. Farhod otasining taxtni egallash haqidagi taklifini saltanat ishlarini oʻrganish, tajriba orttirishga ijozat soʻrash bilan ortga suradi va xoqon xazinasidagi behisob boyliklar bilan tanisha boshlaydi. Natijada yashirin parda ortidagi xonada saqlanayotgan sirli sandiq va undagi tilsimli koʻzguni koʻrib qoladi. Farhod ushbu koʻzguning sehrini ocholmay Yunoniston safariga, Suqrot huzuriga oʻtlanadi.

Suqrotning huzuriga borish yoʻlini unga Suhaylo ismli hakim (donishmand) oʻrgatadi. N.Komilovning «Tasavvuf» nomli kitobida yozilishicha, Suhaylo – Farhodning tariqat yoʻlidagi birinchi piri. U Farhod yengib oʻtishi kerak boʻlgan toʻsiqlar: ajdarho va devdan xabar beradi. Tasavvufda ajdarho – nafs timsoli, dev – saltanat timsoli hisoblanadi. Suhaylo Farhodga ajdarhoni yengish uchun samandarning yogʻini beradi. Samandar – olov ichida yashaydigan jonivor. U ishq ramzi. Farhod badaniga samandar yogʻini surganda, ajdarhoning oʻti unga kor qilmaydi, yaʼni ishq otashi nafs oʻtini soʻndiradi. Shuningdek, Farhodga keyingi manzillarda uchraydigan sher va temir paykarning ham ramziy maʼnosi bor. Sher – gʻazab timsoli, ilohiy ishq yoʻliga kirayotgan solikda esa gʻazab boʻlmasligi kerak. Temir paykar – roʻyo, yolgʻon dunyo ramzi. Solik dunyo moʻjizalariga chalgʻimasligi, ularga koʻngil qoʻymasligi kerak. Farhod temir paykarni ham yengib, nihoyat, Suqrot dargohiga kirib boradi.

Aslida, Suqrot timsolining asar tarkibiga kiritilishi tasodifiy boʻlmay, bosh maqsadni ochib berish yoʻlidagi muhim vositadir. N.Komilovning yozishicha, Suqrot piri komil timsoli boʻlib, usiz Farhodning oʻz maqsadiga erishishi mumkin emas edi. Navoiy Suqrotni quyosh kabi porloq siymo, jismi pok ruh kabi, shaxsi aqlning haykali deb taʼriflaydi. U kamolot choʻqqisini egallagan komil inson, oʻzi bir joyda oʻtirsa ham, ruhi butun dunyoni kezib chiqadi. Jamshid jomi, Iskandar koʻzgusi ham uning koʻngil koʻzgusi oldida xira. U Farhod bilan yakkama-yakka suhbatlashib, uni oʻz farzandiday eʼzozlaydi. Chunki bu yigit siymosida u oʻz suluk (yoʻl)ining davomini koʻrgan edi. U Farhodga shunday deydi:

*Muni bilkim, jahon foniydur asru,
Haqiqat ahli zindoniydur asru.
Agar topsa Sikandar mulki zoting,
Gar o 'lsa Nuh umricha hayoting.*

Bu baytda Navoiy Suqrot tilidan tasavvufning muhim g'oyasini bayon etadi. Ya'ni bu dunyo o'tkinchi, foniydur, shu sababli unga ko'ngil bog'lash to'g'ri emas.

*Chu mahbubi haqiqiy uldurur ul,
Aning vasli sori qat' aylamak yo 'l...
Bu yo 'l ichraki behad dard-u g'amdur,
Uzoq tortar, vale ikki qadamdur
Kim, ul ikki qadamning qat'i ming yil,
Kishi ursa qadam mumkin emas bil.
Biri o 'zlukni qilmoq bo 'ldi foniyy,
Yana bir dog'i topmoq bo 'ldi oni.*

Haqqa yetishish yo'li ikki qadam masofadek gap, lekin bu ikki qadamni bosib o'tish uchun ming yillik mashaqqat sarflanishi kerak. Bu ikki qadamning biri o'zlikdan voz kechish, ikkinchisi o'zlikni topish, ya'ni o'zlikdan voz kechmay turib chin ilohiy o'zlikni topish mumkin emas.

Inson o'zlikdan qutulmay Ilohga yetolmas ekan, demak, uni tezlashtiruvchi chora – vosita kerak. Dostonda majoziy ishq tong yorug'iga, haqiqiy ishq quyoshga o'xshatiladi:

*Bu o 'zlukdin qutulmoq chorasoz,
Nima yo 'q, o 'ylakim ishq majoziy...
Majoziy ishq bo 'ldi subhi anvar,
Haqiqiy ishq anga xurshidi xovar.*

Farhod shu tariqa Suqrot huzuriga borar yo‘lda tariqat maqomlarini bosib o‘tadi, piri komil suhbatidan bahramand bo‘lib, ilohiy ishqning mohiyatini anglay boshlaydi. Chin mamlakatiga qaytib borib, ko‘zguda endi nafaqat Shirinni, balki o‘zini va o‘zi kelgusida boshdan kechirishi kerak bo‘lgan voqealarni ko‘ra boshlaydi. Chunki ko‘zgu bu o‘rinda komil inson – Suqrotning qalbidir.

Dostonda ilohiy ishqdan bebahra foniy dunyo kishilaridan biri Xusravdir. Muallif bu ikki qahramonning munozarasini tasvirlar ekan, ikki xil ishq – avom ishq va ilohiy ishq o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatib beradi. Jami 25 baytdan iborat bu munozarada deyarli har bir baytda muayyan badiiy san’atning yetakchilik qilishini kuzatish mumkin. Xususan,

Dedikim: ishq o‘tidin de fasona!

Dedi: kuymay kishi topmas nishona, –

baytida «o‘t» va «kuymoq» so‘zlari asosida tanosub san’ati yasalganligini, keyingi baytda «a» unlisining takrorlanishi asosida vujudga kelgan assonans badiiy vositasi qo‘llanilganini ko‘ramiz:

Dedikim: kuymagingni ayla ma’lum,

Dedi: andin erur joh ahli mahrum...

Xusrav savol-javobda ham, jismoniy harakatlarda ham Farhodni yenga olmaydi, chunki dunyoviy kuch ilohiy qudratni yengishi mumkin emas edi. Shunda u makkorlik yo‘liga o‘tadi: yosuman kampir vositasida Farhodning o‘limiga erishadi.

Navoiy tilidan Farhodning o‘limi munosabati bilan aytilgan:

Vujudin o‘rtab ul so‘z-u gudozi,

Haqiqatqa badal bo‘ldi majozi, –

degan iqrorini Alloh jamoliga yetishgan ishq ahli haqidagi ma'naviy xulosa deyish mumkin. Quyidagi misralarda shoir fikrini yanada kuchaytirganligini, Farhod timsolida ilgari surilgan qarashlarini oydinlashtirganini ko'rish mumkin:

*Baqo shahrida sultonliqqa yetti,
Haqiqat mulkida xonliqqa yetti.*

Doston xotimasi ikki bob (53 – 54)dan iborat bo'lib, 53-bob Sulton Husayn Boyqaroning o'g'li shahzoda Abulfavoris Shohg'arib mirzo madhi va unga bag'ishlangan bir necha nasihatni o'z ichiga oladi. Navoiy Shohg'arib mirzoga kamolotga erishish yo'llari haqida gapirar ekan, shahzodaga Iskandar Zulqarnayn, Mirzo Ulug'bek kabi hukmdorlarni ibrat qilib ko'rsatadi. Eng muhim ilmlar sifatida fiqh, hadis va tafsirni egallash zarurligini uqtiradi, shuningdek, tibbiyot va hikmat ilmini ham o'rganishni tavsiya etadi:

*Shah uldurkim shiori ilmi dindur,
Nedinkim ilmi din ilm ul-yaqindur...
Bu din ilmiki xomam qildi tahrir,
Erur fiqh-u hadis-u so'ngra tafsir...
Va lekin tibb-u hikmat ham erur xo'b
Ki, sihatdur kishi jismida matlub.*

Yakuniy bobda Navoiy Farhod timsolini o'z zamonasidagi barcha shahzodalarga ibrat hamda o'rnak qilib ko'rsatadi.

Farhod va Shirin» ishqiy-sarguzasht dostonlar uchun mo'ljallangan **hazaji musaddasi mahzuf vazni** (ruknlari va taqti'i: *mafoiylun mafoiylun fauvlun V – – – V – – – V – –*)da yozilgan.

11.6. «Layli va Majnun» dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari

Yaqin va O'rta Sharq xalqlari adabiyotida «Layli va Majnun» mavzusiday keng tarqalgan boshqa bir ishq qissasini topish qiyin. Mana o'n uch asrdirki ushbu mavzuda adabiyot olamida she'r va dostonlar bitilib keladi. Ushbu qissaning kelib chiqish manbayi qadim arablar hayoti bilan bog'liq voqealarga borib taqaladi. Ayrim arab manbalarining ma'lumot berishicha, Majnun tarixiy shaxs bo'lib, Shimoliy Arabistondagi bani omir qabilasiga mansub bo'lgan. Uning ismi manbalarda *Qays ibn Mulavvah, Mahdiy ibn Muod, Al-Agra* va ba'zan *Al-Buhturiy ibn Al-Ja'd* tarzida keltiriladi. Majnun o'z qabilasidan Layli ismli qizni sevib, unga bag'ishlab ajoyib she'rlar to'qigan. Uning she'rlari qabiladoshlari va boshqa qabila kishilari orasida keng tarqalganligi haqida Ibn Qutaybaning «*Kitob ush-she'r vash-shuaro*» asarida ma'lumotlar keltiriladi. Shu bilan birga, ayrim tarixchilar Majnun tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziy, mavjud she'rlar o'z amakisining qizini sevib qolgan umaviy bir yigitning she'rlari, u she'rlarida Majnun taxallusini qo'llagan deb aytadilar. Nima bo'lganda ham, VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab arab she'riyatida Majnun taxallusi bilan ishq mavzusida yozilgan g'amgin she'rlar paydo bo'lgan.

Badiiy adabiyotda bu qissa doston shaklida ilk bor Nizomiy Ganjaviy tomonidan yaratildi. Keyinchalik forsiy tilda Amir Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Amir Shayxim Suhayliy, turkiy tilda Gulshahriy, Oshiq Poshsho, Shahidiy, Fuzuliy kabi shoirlar mazkur dostonga javob yozdilar.

Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni 38 bob, 3623 baytdan iborat. Shundan muqaddima 9 bobni o'z ichiga oladi. Doston an'anaviy hamd – Allohning madhi bilan boshlanadi. Unda shoir olamning yaratilishi, tun, kun, oy, quyosh, yulduzlarning, yil fasllari va ulardagi tabiatning o'ziga xos jilolari, insonning tabiat ichida yaratilishi, yo'qdan bor, bordan yo'q bo'lishi – bularning hammasi Allohning beqiyos qudrati va ulug'ligining ifodasi ekanini ta'kidlab, unga hamd-u sanolar o'qiydi. Navoiy bobda g'oyat ustalik bilan Allohning yerdagi tajallisi tasvirini ushbu yozilayotgan dostoni g'oyasi bilan bog'liq holda bayon qiladi. Yaratuvchining har yerdagi tajallisi jahonda Layli bo'lib ko'rinadi, jilva qiladi, uning bu xususiyati esa yaratilganlarni Majnun qilishdan iboratdir.

Ikkinchi bob munojotni o‘z ichiga oladi. Mazkur bobda Navoiy Allohga murojaat qilib uni borliqni yaratgan yagona va oliy zot deb ataydi va o‘z gunohlarini, xatolarini kechirishni o‘tinadi.

Dostonning 3-bobi Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) madhiga, 4-bob me‘roj tuni ta‘rifiga bag‘ishlangan.

Dostonning 5-bobi so‘z ta‘rifi, Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhini o‘z ichiga oladi. Navoiy dastlab so‘zga ta‘rif berar ekan, uni eng ajoyib gavhar, mavj urgan dengizga o‘xshatadi:

*Ey so‘z, ne balo ajab guharsen,
Gavhar neki, bahr-u mavjvarsen...*

Nizomiy Ganjaviy madhida talmeh san‘atining yetakchilik qilishini kuzatish mumkin. U fazilatda Turdagi Muso, qanoatda Qofdagi Anqoga o‘xshatiladi:

*Ham Turi fazilat uzra Muso,
Ham Qofi qanoat uzra Anqo.*

U Ganjada ganj (xazina)dek yashirinib, besh ganj («Xamsa»)ni nishon qilib ketdi:

*Ul Ganjada ganjdek nihoni,
Besh ganj qo‘yub vale nishoni.*

Bobda Dehlaviy sohiri Hind (Hind sehrgari) ta‘rifi ostida keltirilib, u yaratgan asarlar fitnagarlikda Kashmir o‘lkasidek bo‘ldi deyiladi:

*Ko‘rgach bu tilism sohiri Hind,
Jodulig‘ ishida mohiri Hind...
Har safhayi nazmi gohi tahrir,
Fitna aro bir savodi Kashmir.*

6-bob mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhidadir. Navoiy Jomiy ismidagi «nur» soʻziga alohida urgʻu berib, uning oti ham, zoti ham «nurun alo nur»dir deydi:

Sochib laqabi jahon aro nur,

Zoti bila nurun alo nur.

Dostonning 7-bobi zamona hukmdori Sulton Husayn Boyqaroga bagʻishlangan. Navoiy Husayn Boyqaroni shariatning himoyachisi, adolatparvar, saxovatpesha, bunyodkor shoh, fiqh ilmida Abu Hanifa singari yuksak darajaga ega shaxs sifatida madh qiladi.

8-bob shahzoda Badiuzzamon taʼrifidadir. Navoiy shahzodaning ismi «zamonasining goʻzali, nodiri» ekanligiga ishora qilib shunday yozadi:

Gar oti oʻlub zamon badii,

Zoti kelib ins-u jon badii.

Alloh, Alloh, ne ot erur bu,

Ne pok-u xujasta zot erur bu.

Dostonning 9-bobi tun taʼrifiga bagʻishlangan. Bob muayyan maʼnoda muqaddima bilan asosiy qismni bogʻlovchi koʻprik vositasini oʻtaydi. Bobda shoirning qorongʻi tunda xayol otiga minib sayrga chiqish tasviri berilgan. Ishq vodiysiga yetganda ot oqsoqlanib, yoʻlda davom etolmay qoladi. Yomgʻir, boʻron aralash momaqaldiroq guldurab, chaqin chaqadi. Chaqin yorugʻida shoir saksovuлдаy taxlanib yotgan inson suyaklari, vahshiy hayvonlarni koʻradi. N.Komilovning «Tasavvuf» kitobida yozilishicha, bu tasvirlarning hammasida muayyan ramz bor. Bu tun hajr tuni, bu vodiyy esa ishq vodiysi, vahshiy hayvonlar oshiqqa xuruj etgan balo-ofatlar, suyaklar ishq qurbonlaridan nishona. Oʻz asli, Ilohdan ajralgan musofir, gʻarib ruh Majnun shu vodiyyda yakka oʻzi boshini egib oʻtiribdi. Shu oʻrinda ikkita tashbeh qoʻllanilganini koʻramiz. Qorongʻi tunda birin-ketin chaqmoq

chaqib, uning yorug‘ida qabilalar ko‘zga tashlanadi, shunda shoir tunni Laylining sochiga, chaqmoqni esa Layli yuzining ochilishiga o‘xshatadi:

Andoqki qilib karashma mayli,

Zulf ichra jamolin ochsa Layli.

Layli yuzi bu o‘rinda ilohiy nur manbayi, uzun sochlari moddiy dunyo, firoq tuzoqlari («Layli» so‘zining o‘zi ham tun ma’nosini bildiradi)dir, ana shu nur manbayining chaqmoqlari Majnun qalbi va vujudidan joy olgan. Ikkinchi tashbeh: Navoiy ishq vodiysida «nori ayman» (shoxlari shu‘lalanib turgan daraxt)ni ko‘radi. Qissa boshlanib, Layli va Majnunning birinchi uchrashuvi tasvirlanganda shoir shu tashbehni takrorlab, Majnunni xuddi shu shu‘lali daraxt qiyofasida chizadi, ya’ni Layli yuzining shu‘lasidan Majnun qalbi alanganib ketadi. «Nori ayman», aslida, Qur’ondagi Muso hikoyasiga ishoradir. Muso alayhissalom Allohga yuzingni ko‘rsat deb iltijo qilganida, Alloh bir uchqunni Tur tog‘i tomon yo‘naltiradi. Tur tog‘i parchalanib, qum holiga keladi, Ayman vodiysi esa yorishib ketib, undagi daraxtlar mash‘aladay porlaydi. Alloh ishq mana shunday qudratga ega.

10-bobdan dostonning asosiy qismi boshlanadi. Bani omir qabilasida uzoq kutilgan farzand – Qays dunyoga keladi. Qaysning tug‘ilishi, o‘sishi tasvirida ham ilohiy taqdir sezilib turadi. Tug‘ilgandan ishq olovi bilan yo‘g‘rilgan Qays o‘tga talpinadi:

O‘t ko‘rsaki mayl etib nihoniy,

Ishq o‘ti tasavvur aylab oni.

Uni 4 – 5 yoshlarida Layli qabilasiga o‘qishga beradilar. Bahor kunlarining birida Layli bilan bog‘ sayrida uchrashib qolgan Qays uni ko‘rib hushini yo‘qotadi. Navoiy bu o‘rinda Laylining husni gulzorni charog‘on qilib yubordi va gulzordagi bir nihol (Qays)ni xazon etdi deb yozadi:

Shod o‘ldi jamolidin dabiston,

Andoqki bahordin guliston.

Lekin bu bahori zindagoniy,

Bir naxlni ayladi xazoniy.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, guliston darveshning ruhiyati, uni Haq ishq egallab oladi va u betoqatlanib hushini yo'qotadi. Shu tarzda majzubi solik (Haqdan jazba yetgan, ustoz ham, piri ham Ishq bo'lgan, maqomlarni egallamasdan turib hol martabasiga erishgan oshiq)ning sarguzashtlari boshlanadi. Qays shu tariqa Laylini har ko'rganida hushidan ketadi. Xalq orasida «Majnun» laqabi bilan ovoza bo'ladi:

«Layli, Layli!» – debon chekib un,

El deb: «Majnundur ushbu majnun!»

Majnunning ota-onasi uni Layliga uylantirish uchun sovchi yuboradilar. Lekin Laylining otasi qizini aql-hushdan begona bir «devona»ga berishdan or qiladi va Majnunning Layli qabilasiga kelishini taqiqlab qo'yadi. Majnunning otasi qabiladoshlari bilan maslahatlashib Qaysni zanjirband etadi. Lekin ishq otashi ta'siridan zanjir uzilib, Majnun uyidan chiqib ketadi. U bedard qabiladoshlarini ham, yaqinlarini ham, umuman, jamiyatni unutish darajasiga boradi, zero, bu holat haqiqiy oshiq uchun xos xususiyatdir:

O'z oti-yu qavm-u xayli oti

Yo'q yodida, g'ayri Layli oti.

Tasavvufda bu holat «tafrid» (yolg'izlanish) deb ataladi. Oshiq shunday bir hol martabasini egallaydiki, yaqinlaridan, umuman, insonlardan bezor bo'ladi; yakkalikni, yolg'izlikni qo'msaydi. Yolg'izlanish dilning Haqqa yuzlanishi uchun imkon yaratadi.

Qaysning otasi o'g'lining dardiga shifo bo'ladi degan umidda haj munosabati bilan Ka'ba ziyoratiga olib boradi. Qarindoshlar Qays Ka'bani tavof etsa, ahvoli yaxshilanadi deb umid qiladilar. Lekin Majnun Allohga munojot qilib Layli ishqini ko'ngliga mustahkamroq jo etishini so'raydi. Mazkur lavha dostonning eng ta'sirchan o'rinlaridan

biri bo‘lib, qirq uch baytdan iborat. Bu o‘ziga xos «munojotnoma»da yigirma to‘rt o‘rinda «ishq» so‘zidan foydalanilgan. Bu tasodifiy emas, albatta. Navoiy ushbu so‘zni turli poetik unsurlar va ritmik vositalar bilan uyg‘unlikda qo‘llab ritmik ohangning turli-tuman jilvalanishlariga erishadi.

Dastlab ishq o‘ti bilan jahonni yondirgan «hakimi dono»ga sokin murojaat bilan boshlangan mazkur munojot asta-sekin tantanavor ohang kasb eta boradi va bunda «ishq» so‘zining ritmik zarb (mantiqiy urg‘u asosiga qurilgan, ijodkor aytmqchi bo‘lgan fikr yoki ifodalamoqchi bo‘lgan kuchli his-tuyg‘uni o‘zida aks ettiruvchi ritmik birlik) darajasiga ko‘tarilganligi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi:

Chek aynima ishq to‘tiyosin,

Ur qalbima ishq kimiyosin!

Mazkur baytda «ishq» so‘zi hojib vazifasida kelgan bo‘lib, bayt misralaridagi har bir so‘zning o‘zaro teng ustunlar asosida joylashishi, buning natijasida muayyan ritmik pauzaning qo‘llanilganligi ohangning jozibadorligini ta‘minlagan.

Keyingi baytda «ishq» so‘zi «et» ko‘makchi fe‘li bilan birikib radif vazifasida kelgan va endi ritmik zarb radif bilan birlik kasb etgan:

Ko‘nglumba fazo harimi ishq et,

Joning‘a g‘izo nasimi ishq et!

Majnun o‘z munojotida ishqni shu tariqa ulug‘lar ekan, undan ishq va Laylini unutishni so‘ragan kishilarga nisbatan achinish hislarini namoyon qiladi va hatto Tangridan ularni afv etishini so‘raydi:

Alloh-alloh, bu ne so‘z o‘lg‘ay,

Ul qavmg‘a tengri uzr qo‘lg‘ay.

Majnunning otasi o'g'lini uyga qaytarib olib keladi va u yana sahroga chiqib ketadi. Sahroda u ovga chiqqan lashkarboshi Navfalni ko'rib qoladi. Navfal ham bir vaqtlar ishq dardiga uchragani uchun Majnunning qalbini tushunadi, unga rahmi keladi:

*Navfal dag'i ishq ko'rgan erdi,
G'am dashti aro yugurgan erdi.*

Navfal ishq dardidan xabardor bo'lsa-da, lekin Majnun darajasiga ko'tarila olmagan, uning sulukdagi maqomi ma'lum bir bosqichga yetgandan keyin to'xtab qolganligini ko'ramiz. Shu sababli u Majnunni Layliga uylantirish bilan uning dardiga malham topish mumkin deb o'ylaydi va Layliga sovchi yuboradi. Lekin Laylining otasi rozi bo'lmagach, urush ochadi. Laylining otasi urushda yengilishini sezib qizini o'ldirishga qasd qiladi. Bu holat Majnunga tush orqali ayon bo'lgach, Navfaldan urushni to'xtatishini so'raydi. Navfal Majnun uchun yana bir chora vositasi sifatida o'z qizini Majnunga berishga qaror qiladi. Laylini esa bani asad qabilasining boshlig'i Ibn Salomga unashtiradilar. Navfalning qizi boshqa insonni sevishini aytib Majnunga aka-singil bo'lishni taklif qiladi. Ibn Salomning esa quyanchiq (tutqanoq) kasali qo'zg'ab behush yiqiladi. Layli va Majnun ishq dashtida uchrashadilar.

Layli bu dunyodan ketish fursati yaqinlashganini sezib onasiga, Majnun kelsa, uni huzuriga kiritishlarini vasiyat qiladi. Majnun Laylining bu dunyodan ketayotganini ilohiy bir kuch bilan sezib uning qabilasi tomon keladi:

*Yuz urdi qabila sori xoli,
Og'zida tarannumi visoli.*

Shu tariqa umr bo'yi bir-birining ishqida kuygan, visoliga intilganlar Ruhi mutlaq tomon ravona bo'ladilar.

Doston xotimasi uch bob (36 – 38)ni o'z ichiga oladi. 36-bob «Ishq ta'rifi»ga bag'ishlangan bo'lib, bunda Navoiy ishqni kimyoga va olamni ko'rsatuvchi ko'zguga o'xshatadi:

*Ey ishq, g'arib kimiyosen,
Bal o'ynayi jahonnamosen.*

Rivoyatlarga ko'ra, qadimda kimyogarlar mis va boshqa ma'danlarni yuqori harorat ta'sirida oltinga aylantirish mumkin deb hisoblaganlar. Navoiy bu o'rinda shu afsonaga ishora qilib odam, aslida, tuproqdan yaralgan, ammo ishq olovining «kimyo»ligi uni oltinga aylantiradi, ya'ni ishq inson vujudini turli xil chiqindilar: jismoniy talablar va nafsoniy istaklardan poklaydigan otashdir degan fikrni keltiradi:

*Chun xolis-u pok-u beg'ash o'ldi,
Oltin neki kimiyovash o'ldi.*

Poklanish, ya'ni «kimyo»lanish ishqi majoziy bo'lib, undan «oltin»ga aylanib chiqqan oshiq endi o'zligidan qutuladi va qayoqqa qarasa haqiqiy Yor (Haq)ni ko'radi:

*Chun boqqali ixtiyor topti,
Har soriki boqti yor topti.
Ham naqshi vujudin etti foni,
Ham topti baqoyi jovidoni.*

Bu esa qalbning ko'zguga, ya'ni «o'ynayi jahonnamo»ga aylanishi, boshqacha aytganda, ishqi haqiqiyga molik bo'lishdir.

Dostonning 37-bobi Sulton Husayn Boyqaro akasining o'g'li shahzoda Sulton Uvays bahodir madhiga bag'ishlangan. Navoiy shahzodani ta'rif-u tavsif qilish asnosida g'oyat ustalik bilan unga shariat, adl-u himmat bobida nasihatlar ham qiladi va zamona sultoni Husayn Boyqaroni unga ibrat qilib ko'rsatadi.

Dostonning so'nggi bobi «dard navhasi» (yig'isi)ning yakuni haqida bo'lib, shoir bunda dostonni tugallagani uchun Allohga shukrona keltiradi. Navoiyning doston mohiyati haqida aytgan eng muhim fikrlari aynan shu bobda tajassum topgan:

*So'gin nechakim uzottim oxir,
Yig'lay-yig'lay tugattim oxir...
Yozmoqta bu ishqijovidona,
Maqsudum emas edi fasona.
Mazmunig'a bo'ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli...
Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat
Kim, shuhrati chun jahong'a to'lg'ay,
Turk eliga dog'i bahra bo'lg'ay...*

«Layli va Majnun» dostonidan kelib chiqadigan xulosa shuki, bu dunyoda yashovchi har bir inson oshiqlik yo'lini tutib, o'zini o'limga emas, balki vasl mayini ichishga tayyorlashi kerak, zero, bu dunyoning birdan-bir mazmuni ham shu. Ruhi mutlaqni tasavvur qilishda inson aqli va ongi ojizlik qiladi, shu sababli Navoiy uni mazhar – Layli timsolida yaratadi.

Doston hazaj bahrining **hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf** (ruknlari va taqti'i: *maf'ulu mafoilun fauvlun*) vaznida yozilgan. Lekin dostonida mazkur vazn bilan birga qo'shimcha tarzda hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf (ruknlari va taqti'i: *maf'ulun foilun fauvlun*) vaznining ham qo'llanilganini kuzatish mumkin. Bu holat tasodifiy bo'lmay, doston mazmuni va g'oyasi bilan chambarchas bog'liq. Dostondagi 3623 baytdan 240 misra aynan mana shu ritmik variatsiya (bir vaznning ichki imkoniyatlar asosida yangi variantlarga ega bo'lishi)da yaratilgan bo'lib, dostonidagi *ziddiyatli voqealar, asar qahramonlarining chuqur ruhiy iztiroblari tasviri, qahramonlar ruhiyatining tabiat tasviri bilan bog'liq bayoni, qahramonlar hayrati aks etgan misralar, lirik chekinish paytida* mazkur variatsiyaga murojaat qilingan.

11.7. «Sab'ayi sayyor» dostonining tuzilishi, hikoyatlar tahlili

Alisher Navoiy «Xamsa»sining to‘rtinchi dostoni «Sab‘ayi sayyor» deb atalib, 1484-yili yozib tugallangan. Asarning bosh qahramoni Bahrom bo‘lib, tarixiy shaxs sifatida Eronning sasoniy hukmdori Varaxran V (420 – 438-yillarda podsholik qilgan) bilan bog‘liq. Bu hukmdor qulon (yovvoyi kiyik)ni ovlashga nihoyatda o‘ch bo‘lganligi uchun xalq orasida Bahrom Go‘r (qulon) laqabi bilan shuhrat topgan. Sharq mamlakatlarida Mars (Mirrix) yulduzi Bahrom deb atalib, jang-u jadallar homiysi sifatida keladi.

Bahrom timsoli dastlab forsiy adabiyotda Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»sida tasvirlangan. «Shohnoma»da Bahrom Go‘r haqidagi voqea dostonning faqat bir faslini tashkil etib, unda Bahromning tug‘ilishi, taxtga chiqishi, mamlakatni idora qilish tadbirlari, ov vaqtida o‘z kanizagi Ozoda bilan to‘qnashuviga doir voqealar tasvirlangan.

«Shohnoma»dagi Bahrom Go‘r va uning kanizagi orasidagi bu to‘qnashuv lavhasi Nizomiy tomonidan qayta ishlanib, mashhur «Haft paykar» dostoni vujudga keladi. Nizomiy Bahromning kanizak bilan bog‘liq hikoyasini qoliplovchi hikoya qilib olib, unga 7 hikoyat kiritadi.

Nizomiy asaridan 200 yil o‘tgach Xusrav Dehlaviy unga javob tarzida «Hasht behisht» dostonini yaratib, 7 hikoyatni hind eposidan oladi.

Turkiy tilda birinchi bo‘lib bu mavzuni Alisher Navoiy qalamga oladi va o‘z dostonini «Sab‘ayi sayyor» deb ataydi. «Sab‘ayi sayyor» dostoni 38 bob, 5009 baytdan iborat, shundan 11 bobni muqaddima tashkil qiladi.

Doston muqaddimasi an‘anaviy hamd bilan boshlanadi. Navoiy Allohni olamning yaratuvchisi sifatida madh etar ekan, dostonning mazmuni taqozosi bilan birinchi bobdayoq yetti raqamiga alohida e‘tibor qaratib, iltizom (bir so‘zni biror parchaning barcha misra yoki baytlarida qo‘llab shu so‘zning muhimligini ta‘kidlash) badiiy san‘ati vositasida falakning yetti qavat ekanligi, yetti gumbazdan tashkil topgani, yer yuzi yetti iqlimga bo‘lingani, yetti ko‘k, yetti yulduz kabilar haqida fikr yuritadi.

Dostonning 2-bobi munojot bo‘lib, bunda buyuk shoirning Yaratuvchiga murojaati, najot umidi, tavba va iltijolari o‘z ifodasini topgan:

Qodiro, ul zaif-u osiymen

Ki, boshimdin ayoq maosiymen.

3-bob Muhammad (s.a.v.) madhiga, 4-bob me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlanadi. 5-bob so'z ta'rifida. Navoiy bu bobda so'zga yuksak baho berar ekan, shunday yozadi:

*So'z kelib avval-u, jahon so'ngra,
Ne jahon, kavn ila makon so'ngra...*

6-bob ulug' salafklar – Nizomiy va Dehlaviy madhiga bag'ishlangan. Shoir dastlab badiiy adabiyotdagi ikki adabiy tur, ya'ni nazm va nasr ta'rifiga to'xtalib, ularni bir-biriga qiyoslaydi va nazmning nasrdan ustunligini isbotlar ekan, she'riy asarlarda chiroyli, ta'sirli ibora va badiiy san'atlarni ko'plab qo'llash va injuni ipga tergandek misralar tizish mumkin, nasr esa sohib yuborilgan javohirdek go'zallikdan mahrum deb yozadi. Shuningdek, nazm shakllari orasida masnaviyga alohida to'xtalib, uni «vase' maydon» (keng maydon) deb ataydi:

*Masnaviykim, burun dedim oni,
So'zda keldi vase' maydoni.*

Navoiy bu ikki xamsanavisni shatranj o'yinidagi oq ot-u (Nizomiy) qora filga (Dehlaviy), o'zini oddiy piyodaga nisbat beradi.

Dostonning 7-bobi «hazrat shayxulislom mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy» madhiga bag'ishlangan bo'lib, Jomiyning bu sohalarda yaratgan asarlari devonlari va dostonlarining nomlarini keltiradi.

8-bob salafklarining nuqsonlari haqida bo'lib, shoir bob sarlavhasida ustozlar asarlariga mulohaza bildirayotgani uchun uzr so'raydi. Navoiy bu bobda doston yaratishdan oldin tush ko'rganini, tushida 7 gumbaz, 7 gumbaz ichida 7 xil rangdagi mutasaddiyini ko'rganini, shu yerda 7 kun yurib 7 afsona tinglaganini, bir mo'ysafid unga avvalgi dostonlardagi qusurlarni tuzatishni so'raganini, uyqudan uyg'ongach muabbir (tush ta'birchisi) aytgan dalillardan so'ng doston yozishga kirishganini aytadi. Shundan

so'ng o'zigacha yozilgan Bahrom haqidagi dostonlarni sinchiklab o'qib chiqqanini ta'kidlab, ustozlarning hurmatini o'z o'rniga qo'ygan holda ularga uchta e'tiroz bildiradi:

Biri bukim yo'q anda moyayi dard,

Qildilar ishq so'zidin ani fard.

Shoir fikricha, oldingi xamsanavislarning birinchi aybi dard-u g'amga yetarlicha ahamiyat bermasdan, uni ishqdan xoli tasvirlaganliklaridadir.

Yana **biri bukim** anda ba'zi ish,

Zohiran nomunosabat tushmish:

Buyla tuhmatki, aysh uchun Bahrom

Yasadi yetti qasr surgali kom.

Yetti iqlim shohidin yeti qiz,

Har biri lutf-u husni g'oyatsiz...

Uyqu komin olurg'a mastona,

Sho'xlarg'a buyurdi afsona...

Anga xud g'aflat o'ldi da'b-u sifat,

Uyqusig'a fasona ne hojat?

Bahromning ayshi uchun yettita qasr qurilishi, yetti malikaning o'zi mastlikdan g'aflat holatiga yetgan shohni uxlatish uchun afsonalar aytishlari asossiz deydi Navoiy. Buning ustiga, agar afsona aytish zarur bo'lsa, ulardan boshqa qissaxon yo'qmidi degan savolni ham qo'yadi.

Salafarning uchinchi kamchiliklari dardsiz va nodon kishining sarguzashtlarini ko'rsatishni maqsad qilib olganliklarida edi:

Bo'yla nodon uchun yozib avsof,

Anga qilgaylar o'zlarin vassof.

Bob so'ngida Navoiy g'oyat kamtarlik bilan o'zini salaflarning faqir shogirdi deb atab, men go'yo pashshadek bo'lib fil ishini qilmoqchiman, osmon tomiga narvon, quyoshga shamdon yasamoqchiman, o'rgimchak ipidan kamand qilib ajdahoni tutmoqchiman deydi va Allohdan doston yozishda madad so'raydi.

9-bob Sulton Husayn Boyqaro madhi haqidadir. Bu bobda Navoiy falakdagi barcha sayyoralarga birma-bir murojaat qilib ularni o'z hunarlaridan biroz tinmoqqa chaqiradi, shoh madhida qalam surmoqchiligini aytadi. Shohning ikki tomonlama xon avlodi ekanligini, ulug' otasi Chingizxon, onasi Alanquvo ekanligini aytadi.

10-bob Bilqisi Soniy – Xadichabegim madhiga bag'ishlangan bo'lib, Navoiy talmeh san'ati vositasida Xadichabegimni payg'ambarlar ayollari Sorayi Uzmo (Ibrohim payg'ambarning rafiqalari) va Xadichayi Kubro (Muhammad (s.a.v.)ning ayollari)ga o'xshatadi.

11-bob Bahrom tarixi haqidadir. Navoiy Bahromni sosoniylar hukmdori Yazdijurdning o'g'li bo'lsa-da, otasidan farqli ravishda, ezgu ishlar bilan shug'ullandi, otasi nimani buzgan bo'lsa, u barchasini qaytadan tuzdi deydi:

Har ne ul buzdi, bu borin tuzdi,

Bu borin tuzdi, har ne ul buzdi.

Navoiy salaflar bo'yicha shoh Bahrom tarixini qisqacha bayon etib, endi men aytadigan qissa avvalgilaridan farq qiladi deydi va Allohga shukrona keltirib Bahrom qissasini boshlaydi.

Asosiy voqealar o'n ikkinchi bobdan ibtido topadi. Yetti iqlim shohi bo'lgan Bahrom ov qilib yurib rassom Moniyi uchratib qoladi. Moniy Chinda tengi yo'q bir go'zal Dilorom haqida xabar berib, uning o'zi chizgan suratini shohga taqdim etadi. Shoh suratni ko'rishi bilan Diloromga oshiq bo'lib qoladi va Chin mamlakatining bir yillik xirojini to'lab, qizni saroyga keltiradi. Shundan keyin Bahrom qizga butunlay mahliyo bo'lib, davlat, mamlakat ishlarini unutadi. Firdavsiy «Shohnoma»sida tasvirlanganidek, ovda kiyik hodisasi yuz beradi. Dilorom Bahromning merganlik mahoratini «mashqning natijasi» deb aytadi. Shoh mastlikda qizning oyoq-qo'lini o'z sochlari bilan bog'lab,

biyobonga tashlab kelishni buyuradi. Ertasi g'azab va mastlik tarqab, afsuslanganidan keyin uni o'zi borib izlaydi, lekin topolmaydi. Hijron azobidan o'zini butunlay yo'qotadi.

Shohning ahvoli og'irlasha boradi. Navoiy bu o'rinda Shoh Bahromda endi chin ma'noda oshiqlik sifatlari paydo bo'layotganiga e'tibor qaratadi, zero, ruhiy iztiroblar va hijron dardi ishqning ortishiga sabab bo'ladi.

Saroy ahli tashvishga tushadilar. 400 hakim va tabib to'planib ikki yil davomida shohni davolaydilar. Shoh biroz o'ziga kelganday bo'ladi. Maslahat bilan yetti iqlim shohi yetti qasr quradilar. Bu yetti qasr yetti shohning mamlakatiga olib boradigan yo'l ustida quriladi. Rassom Moniy uning har birini alohida bir rang bilan bezaydi. Bahrom ularni tomosha qilar ekan, kasali tuzala boshlaydi. Yetti rangdagi yetti qasr bitgach, yetti iqlim shohining yetti qizi Bahrom bilan nikohlanadi. Yetti qasrning har biri yetti sayyoradan birining rangiga mos bo'lib, haftaning shu sayyora homiy hisoblangan kuniga xos edi. Yetti qasr tasvirini o'qir ekanmiz, Navoiy har bir qasrdagi shoh, malika va musofir hamda jihozlar tasvirini berishda ranglarning turfa xil nomlanishlaridan ustalik bilan foydalanganiga guvoh bo'lamiz.

Shanba kuni uchun shu kunning homiysi Zuhul (Saturn) sayyorasining rangiga mos qora qasr – mushkfom qasrda shoh Bahrom hindistonlik sayyohning Farrux va Axiy haqidagi hikoyatini tinglaydi. Unga ko'ra, Hind mamlakati podshosi Jasratxonning aql-uhusnda tengsiz o'g'li shahzoda Farrux tushida bir parivashni ko'rib sevib qoladi. O'sha sanamga yetishish ishqida safarga chiqqan shahzoda Halab shahrida tushida ko'rgan mahvashni uchratib hushidan ayriladi va taqdir taqozosi bilan birgina palosga o'ranib og'ir ahvolda qolganida unga saxovati bilan nom qozongan Axiy yordam ko'rsatadi. U bilan suhbatda bo'lgan Axiy Farruxning zakovatiga qoyil qoladi va shahzodaning dardiga davo topishni chin dildan xohlaydi. Nihoyat, Farruxning ishq tushgan go'zal o'z ayoli ekanini bilib oladi va jufti halolini taloq qilib, Farruxga nikohlab beradi. Farrux o'z yurtiga qaytadi va otasi vafot etgani uchun taxtga o'tiradi. Bu orada Axiyning ishlari orqaga ketadi, tuhmatga uchraydi, o'z yurtidan qochib jon saqlab qoladi. Farrux uylangach Axiyning mardligidan hayratga tushadi, ayolni o'ziga singil kabi tutadi va do'stini izlaydi. Axiy esa Hind mulkiga borib qoladi, shu yerda ikki do'st topishadi, Farrux singlim deya Axiyning o'z ayolini katta to'y bilan nikohlab beradi. Shu tariqa ular chin do'st sifatida

bir-biridan yordam va mehrini ayamay uzoq umr kechiradilar. Mazkur hikoyat yakunida sayyoh Shoh Bahromga o‘zining Axiy avlodidan ekanini ma’lum qiladi. Shoh uni siylab, saroyda olib qoladi.

Yakshanba kuni uning homiysi Quyosh sayyorasining rangiga mos sariq qasrda Shoh Bahrom rumlik sayyohning Zayd Zahhob haqidagi hikoyatini tinglaydi. Unga ko‘ra, juda o‘tkir bilim egasi bo‘lgan Zayd Zahhob ismli zargar Rum mamlakati podshosining eng yaqin do‘sti edi. U shohning ishonchini qozongan bo‘lib, hukmdor u bilan har bir ishda maslahatlashar edi. Bir kuni Zayd Zahhob shohga oltin taxt yasab berishni taklif qiladi. Shoh ko‘nadi va xazinadan ikki ming botmon oltinni zargarga olib beradi. Zayd Zahhob sirti oltin bilan qoplangan, lekin ichki tomoni kumush bilan to‘ldirilgan taxt yasaydi. Qolgan oltinlarni esa o‘zlashtirib yuboradi. Shoh bundan bexabar bu hashamatli taxtga chiqib qoyil qoladi. Zayd Zahhobning dushmanlari shohga uning firibini ma’lum qiladilar. Shoh Zayd Zahhobni zindonga tashlaydi. Zayd zindondan qochib, Qustantaniyaga borib butxonada rohiblik qila boshlaydi. U yerda hammani o‘ziga muxlis qilib, butxonaning oltindan yasalgan barcha buyumlarini shisha va boshqa metallar bilan almashtirib qo‘yadi. Keyin o‘z muxlislariga bu yurtni tark etishini aytganda, hamma uni yig‘lab kuzatadi, Zayd keta turib ularga bir xat qoldirganligi haqida ma’lum qiladi. «Rohib» ketgach, muxlislari uning xatini topib ko‘zga surib o‘qisalar, unda Zaydning hamma kirdikorlari bitilgan bo‘ladi. Butparastlar oh-voh qilib qolaveradilar. Zayd esa Rumga qaytib bemor bo‘lib qolgan shohni davolaydi, qayta uning ishonchiga kirib dushmanlarini jazolaydi. Hikoya yakunlangach, sayyoh o‘zining Rum mamlakatidan, Zayd Zahhobning avlodlaridan biri ekanligini aytadi. Shoh Bahrom bu sayyohga ham muruvvat ko‘rsatib, saroyda olib qoladi.

Dushanba kuni shu kun homiysi Oy sayyorasining rangiga mos yashil qasrda Shoh Bahrom misrlik sayyohdan Sa’d haqidagi hikoyatni tinglaydi. Unga ko‘ra, misrlik boy xojaning kamolga yetgan o‘g‘li Sa’d otasi kabi musofirlarni mehmon qilishni xush ko‘rar edi. Bir kuni uning dargohiga shahrisabzlik ikki sayyoh kelib o‘z yurtlaridagi g‘aroyib xususiyatli dayr – butxona haqida aytib beradilar. Mazkur butxonaning o‘ziga xos tomoni shu ediki, kimki u yerda bir kun tunasa tush ko‘radi va tushi, albatta, o‘ng keladi. Sa’d shu butxonaga borish ishqiga tushadi va otasining roziligini olib safarga otlanadi. Unga shahrisabzlik ikki musofir hamrohlik qiladilar. Dayrga yetib borgan Sa’d tush ko‘radi.

Tush ta'sirida xayolga botib o'tirsa, eshikdan bir mo'ysafid kirib keladi. Mo'ysafid unga o'z taqdirini aytib beradi va Sa'dni ancha vaqtdan buyon kutayotganligini ma'lum qiladi. Sa'd bu donishmand mo'ysafidning maslahat va ko'rsatmalari bilan harakat qiladi. Uzoq sarguzashtlarni, sinovlarni boshdan kechirib Gulrux ismli go'zalning vasliga yetishadi. Sayyoh hikoyatni yakunlagach o'zining Shahrizabzdan, Sa'd avlodlaridan biri ekanligini ma'lum qiladi. Shoh Bahrom sayyohni Shahrizabzga voliy etib tayinlaydi. Umuman olganda, hikoyatning bosh qahramoni Sa'dning sarguzashtlari Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi Farhod bilan bog'liq voqealarni yodga soladi.

Homiysi Mirrix (Mars) bo'lgan seshanba kunida Mirrix rangiga mos qizil qasrda Shoh Bahrom navbatdagi sayyohdan Shoh Juna va uning do'sti Mas'ud haqidagi qissani tinglaydi. Roviyo shohga Dehlida sultonlik qilgan Junaning saxovati cheksiz ekanligini hikoya qilish bilan o'z qissasini boshlaydi. Sulton Juna shu qadar saxovatli bo'lib, uning saxiyligi chegara bilmasdi. Bir kuni bir musofir uning mehmoni bo'lib bir ko'zgu sovg'a qiladi. Ko'zgu rost gapirgan odamning yuzini oq, yolg'onchining yuzini qora ko'rsatar edi. Shoh Juna musofirni siylab, undan mendan ham o'tadigan saxiy bormi deya so'raydi. Yo'q deb javob bergan sayyohning yuzi ko'zguda qora bo'lib ko'rinadi. Nihoyat, uyalib sizdan ham saxiyroq odam bor, bu go'zal Taroz o'lkasida yashovchi Mas'uddir deydi. Shoh esa hammaga ruxsat berib, payt topib Tarozga jo'naydi. U yerda Mas'ud bilan uchrashib do'st tutinadi. Mas'udning fasohatidan hayratda qoladi. Mas'ud unga o'zi uchun eng aziz bo'lgan nimaiki bo'lsa hammasini ikkilanmay hadya qilib yuboradi: sevimli, kuy va qo'shiqda mohir kanizagini, mayi tugamaydigan jomini, Gulgun laqabli otini. Bundan ta'sirlangan shoh Mas'udni Tarozga hokim qilib tayinlash to'g'risida farmon beradi. Taroz hokimi Jaypur esa bundan bezovta bo'lib, Ballu degan qattol vaziri bilan maslahatlashib Mas'udni yo'q qilish rejasini tuzadi. Unga ko'ra, Jaypur Mas'ud bilan do'st tutinadi, bir kuni Mas'udni mast qilib bir chohga tashlatadi. So'ng qayg'urgan bo'lib yig'laydi, boshqalarni ham ishontiradi va Mas'ud uchun motam ham ochtiradi. Ballu esa Mas'udni azoblay boshlaydi. Jayurning bir go'zal qizi bo'lib, Mas'udga oshiq edi. U Mas'ud haqida bilib qoladi va ikki sodiq kanizi yordamida uni qutqarib davolaydi va otasining saroyidan Mas'ud bilan qochib ketadi. Jaypur ularga yetolmay dog'da qoladi. Ikki sevishgan yo'lda ko'p qiyinchilik bilan Dehliga borib qoladilar. Mas'ud o'zi mehmon

qilgan Junaning shoh ekanini bilmasdi, shuning uchun pul topish ilinjida shoh saroyiga borganda sehrli jomini, kuy chalib qo‘shiq aytayotgan kanizini, Gulgun otini ko‘rib avval hayron bo‘ladi, keyin shohning Juna ekanini bilib qoladi. Mas‘ud tanigan boshqa mahramlar bu haqda Junaga aytadilar. Do‘stini yo‘qotib hajr azobida qolgan shoh bundan bag‘oyat shodlanib, do‘stiga mehribonlik ko‘rsatadi, uning yorini ham olib keltiradi, Jaypur va Balluni esa jazolaydi.

Hikoyasini shu tariqa yakunlagan sayyoh Shoh Bahromga o‘zining Tarozdan, Mas‘ud avlodlaridan biri ekanligini aytadi. Bahrom uni Tarozga hokim qilib tayinlaydi.

Chorshanba kuni uning homiysi Utorud (Merkuriy) rangiga mos moviy qasrda Bahrom navbatdagi jahongashtadan Mehr va Suhayl haqidagi hikoyani tinglaydi. Unga ko‘ra, Adan degan joyda bir orolni o‘z makoniga aylantirib dengizda qaroqchilik qilishni kasb etgan Jobir degan yo‘lto‘sar Behishti saro shahrining go‘zal malikasi sayr qilib chiqqan qayiqni qo‘lga kiritadi. Lekin Mehr shu qadar go‘zal ediki, Jobir uni ko‘rib hushini yo‘qotardi. Shuning uchun qizga yaqinlasha olmay, o‘zining baland devorlar bilan o‘ralgan bog‘ida yashashiga ruxsat beradi. Mehrning otasi Navdar shoh Yaman mamlakati shohi No‘monning o‘g‘li Suhaylga qizini bermoqchi edi, shuning uchun Shoh No‘mon o‘g‘lini kemaga chiqarib Navdarning mamlakatiga yuboradi. Suhayl dengizda Jobirga yo‘liqadi va jangda yengilib qoladi. Suhaylning jang qilishiga, jasoratiga qoyil qolgan Jobir uni o‘ldirmasdan o‘z bog‘idagi bir chohga tashlatadi. Shoh Navdar va No‘mon o‘zaro xat yozishib birgalikda Jobirga hujum qilishga kelishadilar. Navdar shoh quruqlikdan, No‘mon shoh dengizdan Jobir ustiga qo‘shin tortishga ahd qiladilar. Quruqlikdan kelayotgan Navdar askarlaridan ajrab, ovga berilib Jobir qo‘liga asir tushadi. Dengizda esa No‘mon shoh ham yengilib dengiz qaroqchisiga tutqun bo‘ladi.

Mehr visoliga yetisholmagan Jobir esa ichkilikka zo‘r beradi. Mehr bog‘da aylanib yurib chohda yotgan Suhaylni bilib qolib qutqaradi, so‘ng Suhayl Jobir bilan jang qilib uni yengadi va tutqunlikdagi hamma ozodlikka erishib murod-u maqsadga erishadilar.

Mazkur hikoya poyon topgach, shoh Bahrom roviyni munosib taqdirlab, uyquga ketadi.

Payshanba kuni shu kun homiysi Mushtariy (Yupiter) rangiga mos sandal qasrda Shoh Bahrom Muqbil va Mudbir haqidagi qissani tinglaydi. Unga ko‘ra, Muqbil va

Mudbir Boxtar degan joydan Xovarga yo‘l oladilar. Muqbil ibodatli, rostgo‘y bo‘lib, Mudbir kazzob va pastkash edi. Ular qaynoq vodiysi hamimdan birga o‘tadilar. Mudbirning ahmoqona gaplaridan Muqbil ko‘p ozor chekib, undan voz kechmoqchi bo‘lsa, Mudbir yalinib tavba qiladi. Ular shu tariqa safarda davom etadilar. Dengiz sohiliga borib bir kemaga chiqadilar. Muqbil, odatdagidek, ibodat qilib, tasbeh o‘girib o‘tirsam, Mudbir Xudoga shirk keltirib valdiray boshlaydi. Shunda to‘fon kelib ularning kemasini g‘arq qiladi. Bu ikkisi taqdir taqozosi bilan qutulib qirg‘oqqa chiqib, o‘rmonga duch keladilar. Shu yerdagi bir daraxt kovagida buloq bo‘lib, u yerda buning suvini ichgan odam mutlaqo ochiqmasligi, suvsamasligi va yolg‘on gapirsa yorilib o‘lishi yozilgan bo‘ladi. Muqbil va Mudbir bu suvdan to‘yib ichib olganlari uchun yozuvni o‘qisalar, buloq suvida boshi bilan sho‘ng‘ib cho‘milgan odam g‘aroyib voqealarni ko‘rishi aytilgan ekan. Faqat rostgo‘y odam cho‘milishi mumkin, yolg‘onchi esa kuyar ekan. Natijada suvga Mudbir tusholmaydi, Muqbil buloqqa sho‘ng‘ib bir qasrga duch keladi, u yerda bir mahvashga oshiq bo‘lib qoladi... O‘ziga kelib, suvdan chiqqanida esa oshiq bo‘lgan go‘zal ishqida o‘zini yo‘qotib bexud bo‘ladi. Muqbil va Mudbir qirg‘oqqa yaqinlashib bir kemaga duch keladilar. Bu kema sandal daraxti yog‘ochi bilan to‘la bo‘lib, odamlari o‘lib yotardilar. Gap shundaki, Xovar mamlakati shohi qizi kasalga chalingan bo‘lib, tabiblar unga sandal daraxtidan yasalgan qasrda yashash davo degani uchun, ko‘plab savdogarlar shu daraxt yog‘ochlarini olib kelayotganlarida dengizda po‘rtanaga tushib, chiqolmay ochdan o‘lgan edilar. Ular qirg‘oqqa borganlarida Xovar shohiga duch keladilar. Mudbir o‘zini savdogar, kema egasi, Muqbilni qulim deb tanishtiradi va shu zahoti yorilib o‘ladi. Muqbil esa bor gapni yashirmay aytib beradi. Shoh uni o‘ziga kuyov qilishni xohlab to‘y beradi. Malikaning qasriga borgan Muqbil xuddi buloqda ko‘rgan holatiga duch keladi: sandal qasr, go‘zal qizlar va... o‘sha u sevib qolgan mahvash. Keyin ma‘lum bo‘ladiki, bu go‘zal Xovar shohining qizi bo‘lib, unga jinlar shohi oshiq bo‘lgan ekan. Lekin qizga yetisholmagan jinlar shohi o‘sha oroldagi daraxtdagi kovakdagi buloqda qizning suvratini, uning qasrining nusxasini paydo qilib, o‘zini ovutib o‘tirarkan. Muqbil shunga duch kelgan ekan. Shu tariqa Xovar shohining go‘zal qizi va rostgo‘y Muqbil vaslga erishadilar.

Hikoya yakunlangach, xushnud bo‘lgan shoh Bahrom uyquga ketadi.

Juma uchun uning homiysi Zuhra (Venera) rangiga mos oq qasr barpo qilingan edi. Nihoyat, muborak juma (odina) kuni Bahrom oppoq – kofuriy kiyimda oq qasr ichida fil suyagidan yasalgan taxt ustida o‘tirib oq kiyimli go‘zal bilan billur jomda oq may ichadi va Chin go‘zali qoshida xorazmlik musofirning hikoyasini tinglaydi. Musofir o‘zining Xorazmdan ekanligini, soz chalishini, iqlimdagi barcha ustozlar uning shogirdlari ekanligini, kutilmaganda bir chinlik savdogarning go‘zal kanizagi Xorazmga kelgach, uning ishi kasodga uchraganini, kanizak huzuriga borib arz qilganini, uning sozini tinglab, uning tarixi bilan qiziqqanini va kanizak unga boshidan o‘tganlarni so‘zlab berganini aytadi. Shoh Bahrom aytilganlardan bu kanizak Dilorom ekanligini bilib uni olib kelish uchun Xorazmga sipohlarini jo‘natadi.

Ko‘ringanidek, Bahrom birinchi hikoyani o‘z ruhiy holati kabi qora qasrda, qora libosda tinglagan edi, chunki u o‘z Diloromidan ayrilgan, hijron zulmatiga giriftor bo‘lgandi. Yettinchi hikoyani esa oq qasrda oq libosda tinglaydi va bu hikoyat unga visol umididan darak beradi, uning qalbiga yorug‘lik olib kiradi. Lekin Bahrom Diloromni topgach yana ovga, aysh-ishratga beriladi. Bir kuni u saroy ahli, sonsiz qo‘shin va Dilorom bilan katta ovga chiqqanida, yomg‘ir yog‘adi va eski botqoqning og‘zi ochilib, Bahromni Dilorom va butun arkoni davlati bilan birga yer yutadi.

Bahrom bo‘lib o‘tgan voqealardan va tinglagan hikoyatlaridan xulosa chiqarmaydi: oshiqlik va shohlikni bir qiyofada olib bormoqchi bo‘ladi, aslida, chin oshiqlik toj-u taxt va boylik bilan muvofiq kelmaydi:

Ishq ila shohlig‘ muvofiq emas,

Ishq lofida shoh sodiq emas.

Shu bilan birga, Shoh Bahromning halokatini, tasavvuf ta‘limotiga ko‘ra, yana shunday izohlash mumkin: butun jonzotlar, tabiat, hayvonot va nabotot olami Allohning zuhuridir. Ularning barchasini Alloh yaratgan ekan, ularga zarar yetkazish Yaratgan irodasiga qarshi borish bilan tengdir. Shu ma’noda shoh Bahromning tabiatga yetkazgan jabr-zulmi uning halokatiga olib keldi.

Shoir Bahrom timsoli munosabati bilan o'z davridagi ba'zi dolzarb masalalarga ham ishora qilib o'tgan. Xususan, haqiqiy hukmdor har qanday illatlardan xoli bo'lishi zarurligi, xalq ahvolidan g'ofillik va aysh-ishratga berilish oxir-oqibat shohni va mamlakatni tanazzulga olib borishi mumkinligi shoir aytmochi bo'lgan muhim g'oyalardan biridir.

Shu ma'noda Navoiy dostonning o'ttizinchi bobida tush ko'rganligini aytadi. Tushida shoirni Shoh Bahrom yo'qlab, uni nazm mulkida sohibqiron deb atab yozgan dostoniga yuqori baho beradi va farzandi qatorida sanalmish Sulton Husayn Boyqaroni ogohlantirishini iltimos qiladi va unga quyidagi so'zlarni yetkazishni aytadi:

*Ki jahon kimsaga vafo qilmas,
Shohlig' tarkiga kiro qilmas.
Shahki, ming yil oning hayotidur,
G'araz – o'lganda yaxshi otidur.*

«Sab'ayi sayyor»da Navoiy dahosining qudrati shoirning o'z tilidan aytilgan o'rinlarda ham namoyon bo'ladi. Jumladan, doston yakuniga yaqinlashganda shoir asarning yozilish muddatiga to'xtalib deydi:

*Manga ayyomi garchi yod ermas,
Lek to'rt oydin ziyod ermas.
Bo'lsam o'zga umurdin emin,
Bor edi to'rt hafta ham mumkin...*

Doston xafif bahrining **xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf** (ruknlari va taqti'i: foilotun mafoilon failun) vaznida yozilgan.

11.8. «Saddi Iskandariy» dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari

Bu asar dunyodagi buyuk siymolardan biri, uch sohibqironning eng mashhuri jahongir Iskandarga bag'ishlangan bo'lib, «Xamsa»ning yakunlovchi dostonidir. Sharqda u Iskandar Zulqarnayn (ikki shoxli yoki kun chiqish va kun botish hukmdori) nomi bilan mashhur. Dastlab Iskandar mavzusi Firdavsiyning «Shohnoma» dostonida qalamga olingan. Keyinroq Nizomiy Ganjaviy u haqda maxsus «Iskandarnoma» degan doston yozadi. Xusrav Dehlaviy bu dostonga javob tarzida «Oyinayi Iskandariy» asarini yozgan bo'lsa, Abdurahmon Jomiy o'z dostonini «Xiradnomayi Iskandariy» deb ataydi. Alisher Navoiy esa bu mavzuni turkiy tilda qayta ishlab, o'z asariga «Saddi Iskandariy» (Iskandar devori) deb nom beradi.

«Saddi Iskandariy» «Xamsa»dagi eng yirik doston bo'lib, 89 bob va 7215 baytdan tashkil topgan. Dostonning muqaddimasi 14 bobni o'z ichiga oladi.

1-bob an'anaviy hamd – Allohning sifatlari ta'rifiga bag'ishlangan. Navoiy ushbu bobda tasavvuf ta'limoti asosida olamning yaratilish tarixiga to'xtalib o'tadi: 9 qavat osmon, sayyoralar, yulduzlar turkumining har biriga alohida ta'rif beradi. Yaratganning buyukligiga hamd-u sano aytadi.

2-bob munojotni, 3-bob sayyid ul-mursalin» (payg'ambarlar ulug'i) rasuli akram vasfi (na't)dan iborat. An'anaga muvofiq, na'tdan so'ng me'roj tuni ta'rifi keladi.

Dostonning 5-bobi «Xamsa» takmili (mukammal bitkazish) xususida bo'lib, Navoiy bu bobda unda «Xamsa» yozish havasi ancha ilgari, Nizomiy va Dehlaviy «Xamsa»larini o'qib yurgan chog'laridayoq uyg'onganligini bayon qilib, ulug' ustozlari ruhidan madad so'raydi:

Bu vodiy aro Xizri rohim bo'ling,

Qayon yuz ketursam, panohim bo'ling.

Burundin chu ko'rguzdunguz yorliq,

Base yetti sizdin madadkorliq.

Kichik erkanimdin bo'lub qoshima,

Ulug' muddao soldingiz boshima.

6-bob so‘z ta’rifi, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy madhiga, 7-bob Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhiga bag‘ishlangan. Navoiy kitobot (harf) san’ati vositasida Jomiyning taxallusiga ishora qilib uning nazmini «jom» va «may» deb ta’riflaydi va bu nazmdan yer-u ko‘k eli mast-u notavon bo‘lganini aytadi:

*Dema jom ila mayki, nazmi ravon,
Yer-u ko‘k elin ayladi notavon.*

Dostonning 8-bobi «Inoyat quyoshi vasfi va hidoyat buluti ta’rifida» deb atalib, bu bobda Navoiy kimgaki baxt-u iqbol yor bo‘lsa, uning hamma ishida zafar bo‘ladi, tikan ushlasa g‘uncha, tuproq olsa oltin bo‘ladi, bularning barchasi Xudodan, shunday ekan, unga shukrona bildirish kerak degan fikrlarni keltiradi, bu orqali Allohga nazm yozish fazilatini taqdim qilgani uchun shukrona aytadi va nazmning turli sinf (janr)larida shuhrat qozonganini faxr bilan bayon etadi. Shuningdek, nazmdagi bu muvaffaqiyatlariga qanoat qilmay, ulug‘ muddao – «Xamsa» yozish niyatida ekanini, bu yo‘lda Nizomiy va Dehlaviylarning nuroniy ruhiga, Jomiyning ilohiy quvvatiga Qur‘on tilovat qilib, fотиha o‘qiyman deb yozadi.

9-bob Shoh G‘oziy Husayn Boyqaro ta’rifiga bag‘ishlangan. Navoiy bu bobda mubolag‘a san’ati vositasida uning jangohdagi mahoratini tasvirlar ekan, doston mazmuni bilan bog‘liq ravishda dushmanlariga nisbatan saddi Iskandariydek g‘ov chekadi, agar jahonda Iskandardek ulug‘ sifat zotni topish kerak bo‘lsa, Sulton Husayndan boshqasi mos kelmaydi deb yozadi.

Dostonning 10-bobi shahzoda Badiuzzamon Bahodir madhidadir. Navoiy unga donishmandlik bog‘ining sarvi, zamona ahlining shahzodasi deb ta’rif berar ekan, zoti ham, sifati ham malak (farishta)ka o‘xshashini aytib, tavze’ (bir tovushni bir necha marta takrorlash) va takrir (bir so‘zni baytda ikki va undan ortiq holda takrorlash) san’atlari vositasida uning boshdan oyoq yaxshilik va yaxshi xislatlardan iboratligini bayon qiladi:

*Yig‘ib yaxshiliq birla yaxshi qiliq,
Qiliqdek boshingdin ayoq yaxshiliq.*

11 – 14-boblarda qadimgi fors-eron shohlarining to‘rt tabaqasi: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar va sosoniylar tarixi haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Dostonning asosiy qismi 15-bobdan boshlanadi. Asosiy qism o‘ziga xos kompozitsiyaga ega. Uni shartli ravishda quyidagi 4 qismga bo‘lish mumkin:

- 1) *Iskandar voqeasi – Iskandar hayoti bilan bog‘liq biror voqea yoki hodisa bayoni;*
- 2) *nazariy masala – muayyan axloqiy muammoning ta’rifi;*
- 3) *hikoyat – shu axloqiy masalaga doir hikoyat;*
- 4) *hikmat – Arastu va Iskandarning suhbat.*

Birinchi qism lirik xotimaga ham ega. Bu soqiy, mug‘anniy va Navoiyga murojaat tarzidagi baytlar bo‘lib, Nizomiyda «Iskandarnoma»ning birinchi qismi bo‘lmish «Sharafnoma»da soqiyga, ikkinchi qism «Iqbolnoma»da mutribga murojaatni ko‘rsak, dehlaviy dostonida ham soqiy, ham mutribga murojaat mavjudligini kuzatamiz. Navoiyda esa soqiy va mutribdan so‘ng o‘z-o‘ziga ham murojaat qilinganligi ko‘rinadi.

Asosiy qism voqealari Iskandarning tug‘ilishidan boshlanadi. Rum mamlakatining shohi Faylaqus tangridan farzand so‘raydi. Bir kuni ovdan qaytar ekan, shaharga kiraverishdagi vayronada yangi tug‘ilgan chaqaloq va o‘lik onani uchratadi. Shoh o‘likni dafn ettirib, chaqaloqni o‘ziga farzand qilib oladi va unga Iskandar deb nom beradi. Shoh Iskandarning ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor beradi va Arastuning otasi Naqumojisni unga ustod qilib tayinlaydi. Iskandar toj-taxt va boylikka emas, balki ilm-fan va olijanob fazilatlarga muhabbat ruhida ulg‘ayadi.

Doston bilan tanishish jarayonida Navoiy shunchaki Iskandar tarixini yozishni emas, balki u bilan bog‘liq voqealarning ma’nosini ochishni maqsad qilganini ko‘ramiz. Buni yuqorida keltirganimiz muayyan axloqiy masalaning ta’rifi, hikoyatlar, savol-javob va lirik xotimalarning o‘zaro almashinib kelishidan ham sezish mumkin.

Faylaqus vafot etgach, valiahd sifatida taxtni Iskandar egallashi kerak edi, lekin u taxtga chiqishga oshiqmaydi. Xalq uning shoh bo‘lishini qattiq talab qilib turib olgandan keyingina, Arastu unga toj kiygizadi. Iskandar xalq oldiga shart qo‘yib, kimning arz-dodi bo‘lsa, shohni o‘zi bilan teng ko‘rib ahvolini aytishini so‘raydi:

*Ki, berdi manga dodgarlik Iloh,
Bor ersa xaloyiq aro dodxoh,
Kelib ollima arzi hol aylasun,
O‘z ahvolini qiyl-u qol aylasun!*

Iskandar taxtga o‘tirgach adolat bilan mamlakatni boshqara boshlaydi. Xalqni ikki yillik xirojdan ozod etadi. Dostonda shu o‘rinda adolatning ta’rifi beriladi. Bu ta’rif hadislar vositasida tushuntiriladi. Masalan, bir soatlik adolat farishtalarning, dunyodagi barcha insonlarning toatidan afzal degan hadis keltiriladi. So‘ng shoh Mas’udning bir kuni tushida otasi Mahmudni nurga g‘arq bo‘lgan holda jannat bog‘larida yurganini ko‘rgani va otasidan bu holga qanday sazovor bo‘lganini so‘rganida, otasi Hindistonni egallash vaqtida elga qilgan birgina adolati tufayli Alloh unga shunday martabani loyiq ko‘rgani haqida so‘zlab berganiga doir hikoyat ilova qilinadi. «Hikmat» bobida esa Iskandarning Arastu bilan adolat haqidagi savol-javobi keltiriladi. Arastuning fikricha, shoh har bir ishda adolat mezoni asosida ish tutsa, uning mulk-u mamlakati obod, xalqi badavlat bo‘ladi. Xalq badavlat bo‘lsa, askarlarning maoshi ham ortadi va qo‘shin hamisha g‘olib chiqadi.

Shu tariqa Iskandar adolat mezoni asosida ko‘plab mamlakatlarni egallaydi, suv tubiga tushadi. 23-bobdan dostonga Doro obrazi kirib keladi. Navoiy Doroga tavsif berarkan, uning kayoniylar sulolasi vakili ekanligini, jahon podshosi sifatida Kayxisrav-u Kayqubodlarning avlodiligini, uning davlatni boshqarishida Luxrosbning tartiblari, qo‘shinida Gushtosbning qonunlari ustuvor ekanligini bayon qiladi. Doro va Iskandar orasidagi xiroj mojarosi bu ikki shoh o‘rtasida ixtilofning paydo bo‘lishiga olib kelganligini afsus bilan ta’kidlaydi.

Urush boshlanadi. Ammo tez orada Doroning noiblari xiyonat qiladilar va Doro yarador holda Iskandar qo‘liga asir tushadi. O‘limi oldidan xiyonatkorklarni jazolash, uning qarindosh-urug‘lariga ozor bermaslik va qizi Ravshanakka uylanishni Iskandarga vasiyat qiladi. Iskandar Doroning barcha vasiyatlarini ortig‘i bilan ado etadi, Doroni izzat-ikrom

bilan dafn qiladi. Shu o‘rinda Iskandarning jahongir shoh bo‘lish bilan birga cheksiz mehr sohibi ekanligi ham g‘oyat mohirlik bilan tasvirlanadi.

Iskandar Eronni egallagach jahonni fath etishga kirishadi. Ko‘plab o‘lka podsholariga xat yozib mamlakatda adolat va osoyishtalik o‘rnatmoqchiligini va shunga mos holda o‘z ixtiyorlari bilan unga taslim bo‘lishlarini so‘raydi. Aksariyat podsholar unga bo‘yin egib keladilar. Faqat Kashmir, Hind va Chin xoqonlarigina unga bo‘ysunishni istamaydilar. Iskandar Kashmirga yurish qilishga majbur bo‘ladi va mamlakat shohi Malluni bo‘ysundiradi. Uning vasiyatiga binoan qizi Mehrnozga uylanadi, o‘g‘li Feruzni Kashmirga podsho qiladi. Hirot va Samarqand shaharlarini barpo etadi. Tez orada Hind va Chin xoqonlari ham Iskandarning sha‘n-u shavkatiga tan berib, unga jangsiz taslim bo‘ladilar.

Iskandar yer yuzini egallagach dengiz sirlarini ham bilish uchun uzoq safarga chiqadi. Shishadan sandiq yasab ummon tubiga tushadi va ko‘plab ajoyibotlarni ko‘radi. Ammo safardan qaytishda xastalanadi va tutingan onasi Bonuga o‘g‘illikni o‘rniga qo‘ya olmaganidan uzr so‘rab maktub yozadi. Mazkur maktub butun dunyoni zabt etsa-da, oxir-oqibat u dunyoga hech bir narsasiz, ochiq qo‘l bilan ketayotgan, bu olamga shoh bo‘lgandan ko‘ra onadek buyuk zotga qullik qilish sharafi yuksakroq ekanligini anglagan ulug‘ jahongirning iqrornomasi edi:

*Boshimg‘a tushub harza andeshaye,
Dedim olam ochmoq erur peshaye.*

*Ne qilg‘on xayolim bori xom emish,
Havas jomi ko‘nglumga oshom emish.*

*Kerak erdi, to kirdi mag‘zimg‘a hush,
Xirad toki soldi dimog‘img‘a jo‘sh.*

*Demon qilsam erdi o‘g‘ulluq sanga,
Qabul aylasam erdi qulluq sanga.*

*Sanga aylabon xoki dargohliq,
Aning otin aytsam edi shohliq.*

Asosiy qismning so‘nggi bobida yetti faylasuf hakim: Aflotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Hurmus, Farfinyus va Arastu Iskandarning onasiga ta’ziya bildirgani keladilar va shu bilan Iskandar voqeasi poyoniga yetadi.

Doston boshqa dostonlardan farq qilib, kattagina xotima bilan yakunlanadi. Xotima 6 bobdan iborat bo‘lib, «Saddi Iskandariy» dostonini tugallash bilan muayyan ma’noda «Xamsa»ga ham yakun yasaydi. Xotima quyidagi boblarni o‘z ichiga oladi:

84-bob – Husayn Boyqaro va uning farzandlari ta’rifi

85-bob – Hakimlar (donishmandlar) ta’rifi

86-bob – Gadoning shohga nasihati xususida

87-bob – So‘z gavhari xususida

88-bob – Darveshaliga nasihat

89-bob – Xulosa

Dostonning so‘nggi bobida Navoiy unga baxt-davlat rahnamolik qilib, nihoyat, «Xamsa»ni yakunlaganini yozar ekan, «Hayrat ul-abror» dostoni yozilishidan boshlab «Saddi Iskandariy» yakunlanguncha bo‘lgan jarayonni birma-bir eslab o‘tadi. Navoiy tong otib kech kirguncha el-yurt tashvishi bilan band bo‘lgani holda salafлари uzoq muddat yozgan «Xamsa»ni juda qisqa muddatda – ikki yilda yakunlaganini, agar bevosita faqat yozish uchun ketgan vaqt hisoblab chiqilsa, olti oyga ham bormasligini faxriya tarzida bayon qiladi.

«Saddi Iskandariy» mutaqorib bahrining **mutaqoribi musammani mahzuf** (ruknlari va taqti’i: fauwlun fauwlun fauwlun faul V – – / V – – / V – – / V –) vaznida yozilgan.

Navoiy o‘z beshligi kitobxonlar tomonidan qanday baholanishini bilish uchun ustoz Abdurahmon Jomiyning huzuriga boradi va unga «Xamsa»ni taqdim etadi. Jomiy asarni birma-bir varaqlab, shoirga lutf bilan munosabatda bo‘ladi va bir qo‘lini shoirning yelkasiga qo‘yadi. Ustoz va pir Jomiyning qo‘li yelkasiga tekkach, shoir bir lahza hushini yo‘qotadi va taxayyul olamiga g‘arq bo‘ladi: Navoiy ajoyib bir gulistonda sayr qilib yurib

bir guruh suhbatdoshlarni ko‘rib qoladi. Ulardan biri shoir tomonga kelib o‘zini fors-tojik shoiri Hasan Dehlaviy deb tanishtiradi va davradagilar shoirni ko‘rmoqchi ekanligini aytadi. Navoiy hayajon bilan davra ahliga yaqinlashadi. Hasan Dehlaviy davradagilarni Navoiyga tanishtiradi. O‘rtada Nizomiy Ganjaviy, uning ikki yonida Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy, ularning atrofida o‘tirganlar esa Firdavsiy, Unsuriy, Sa‘diy, Sanoiy, Xoqoniy va Anvariylar edi.

Davradagilar Navoiyni ko‘rishlari bilan o‘rinlaridan turadilar. Uning bir qo‘lidan Xusrav Dehlaviy, ikkinchi qo‘lidan Abdurahmon Jomiy tutib Nizomiyning yoniga o‘tqizadilar. Navoiy Nizomiyga ta‘zim bajo keltirib, uning yoniga o‘tiradi. Nizomiy Navoiyning «Xamsa»siga yuksak baho beradi va Jomiydan shoir haqqiga duo o‘qishini so‘raydi...

Shu onda Navoiy taxayyul olamidan qaytib qarasa, Jomiy qo‘lini uning yelkasidan olgan va unga qarab turgan ekan. Jomiy Navoiyni ulug‘ muddaoga yetishganligi bilan qutlab, Tangriga shukrona keltirishga chorlaydi. Nihoyat, Allohdan madad so‘rab, ilohiy jumla bilan ibtido topgan «Xamsa» buyuk Yaratganga shukronalik bilan yakun topadi.

11.9. «Lison ut-tayr» dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari

«Lison ut-tayr» dostoni shoir umrining so‘nggi yillarida, 1499-yili yozib tugallangan. Doston hajman 193 bob, 3666 baytdan iborat.

«Lison ut-tayr» dostoni falsafiy-tasavvufiy mavzuda yaratilgan bo‘lib, ulug‘ fors-tojik adibi Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» dostoniga javoban yozilgan. Alisher Navoiyning o‘zi shu dostonida bolalik davridayoq «Mantiq ut-tayr»ni ishtiyok bilan o‘qiganligi va yod olganligini aytadi.

«Lison ut-tayr» dostoni an‘anaviy tarzda muqaddima, asosiy qism va xotimani o‘z ichiga oladi. Muqaddima 13 bobdan iborat.

Dostonning asosiy qismi 14-bobdan boshlanadi. Bir kuni barcha qushlar majlis qurmoq uchun yig‘ilibdilar. Lekin majlisda o‘rin talashib janjallashib qolibdilar. Shunda ular agar bir adolatli podsho bo‘lganda, bahsga hojat qolmagan bo‘lard deb o‘ylabdilar. Shu vaqt Hudhud degan qush shunday podshoh borligini, uning nomi Simurg‘ ekanligi va

Simurg'ning huzuriga bormoqchi bo'lganlar uzoq hamda mashaqqatli yo'lni bosib o'tishlari zarurligini aytadi.

Qushlar Hudhud boshchiligida yo'lga tushadilar. Bir necha kun yo'l yurgach mashaqqatli safar ularni toliqtiradi. Ular ortga qaytmoqchi bo'ladilar va birin-ketin Hudhudga o'z uzrlarini ayta boshlaydilar. Dastlab To'ti uzr aytadi. Hudhud unga javoban «Hiylagarlikni kasb qilgan yashil chakmonli kishi» bilan bog'liq hikoyatni keltiradi. To'tidan so'ng Tovus uzr aytib: «Tangri meni atrofdagilar ko'rib, husninga tahsin aytishlari uchun yaratgan, shunday ekan, menga bu safardan ne hojat?» – deydi. Hudhud unga javoban masxaraboz bir hinduning o'zini turli naqsh-u nigorlar bilan bezab maydonda tomosha ko'rsatgani, uning atrofi bir gala beboshlar to'dasi bilan to'lgach, nazoratchilar tomonidan tutib olinib, darra bilan savalangani haqidagi hikoyatni keltiradi. Undan so'ng Bulbul uzr aytadi. U o'z chamanidagi bir gulga oshiqlikini, guldan ayriliqqa chidolmasligi va bu safar unga cheksiz hajr azobini olib kelayotganligini bayon qiladi. Hudhud unga bir podshohga oshiq bo'lib qolgani haqida lof urgan gado hikoyatini keltiradi. Shu tariqa Qumri, Kabutar, Kabki dariy (Tog' kakligi), Tazarv, Qarchig'ay, Shunqor, Burgut, Kuf (Boyo'g'li), Humoy, O'rdak, Tovuq (Xo'roz) kabi qushlar o'z uzrlarini aytadilar. Hudhud ularning har biriga mos holatda turli hikoyatlar bilan javob qaytaradi.

Qushlar yo'llarida davom etadilar. Ular Hudhuddan Simurg'ga yetishish yo'li haqida so'raydilar. Hudhud ularga dostonidagi eng katta va alohida mavqega ega bo'lgan «Shayx San'on» haqidagi hikoyatni so'zlab beradi.

Hikoyatda keltirilishicha, Shayx San'on¹⁵ ismli avliyo Ka'badagi barcha shayxlarga murshid – ustoz darajasida edi. Uning 400 ga yaqin muridi bo'lib, ularning har biri Junayd¹⁶ va Boyazidlarga¹⁷ teng edi. Shayx San'on tushida biror narsani ko'rsa, bu voqea o'ngida ham yuz berardi. Bir kuni u tushida Rum mamlakatida butxona ichida mast holda sayr qilib yurganligini ko'radi. Uyg'onib bu holiga tavba qiladi. Lekin mazkur tush bir necha bor takror bo'lgach, uning ta'biri taqdiri bilan aloqador ekanligini his qilib o'z muridlari bilan Rum sari yo'lga tushadi. Nihoyat, Rum o'lkasiga yetib kelishadi. U yerda

¹⁵ Shayx San'on (ibn Saqqo) – XI – XII asrlarda yashagan tarixiy shaxs.

¹⁶ Junayd Bag'dodiy – tasavvufdagi sahv (hushyorlik) konsepsiyasining asoschisi. 910-yili vafot etgan.

¹⁷ Boyazid Bistomiy – tasavvufdagi sukra (ilohiy sharobdan mastlik, devonalik) yo'lining asoschisi. 961-yili vafot etgan mashhur shayx.

g'aroyib bir butxonani ko'radilar. Shayx butxonaga kirgach, holatida o'zgarish sodir bo'ladi, ko'ngli iztirobdan betoqat bo'la boshlaydi. Shunda beixtiyor uning qarshisida yuziga parda tortgan tarso (xristian diniga mansub) qiz paydo bo'ladi. Shamol ko'tarilib, go'zalning yuzidagi parda ochilgach, Shayx o'zidan ketib tuproqqa yiqiladi. Shu tariqa Shayx ishq dardiga muhtalo bo'ladi.

Shayxning bu musibatli holatini ko'rib muridlari nasihatlar bera boshlaydilar. Ular Shayxga aql mezoni bilan xitob etadilar, Shayx esa ishq yo'sinida javob qaytaradi. Muridlar unga tahorat olib, ibodat qilmoqni maslahat berganlarida, Shayx ularga shunday javob qaytaradi:

*Shayx deb: «Yo'q ko'z yoshimdin o'zga suv,
Qon kelur hardam bog'irdin ko'zga suv».*

Muridlardan birining Ka'bani ziyorat qilmoq darkor degan da'vatiga Shayx tomonidan shunday javob bo'ladi:

*Shayx debkim: «Onda qilg'onni talab
Munda topdim, ne chekay ul yon taab».*

Shu tariqa Shayx har muridning kuyinib aytgan o'gitlariga ishq so'zi bilan javob qaytaradi.

Butxonadagi kishilar esa din ahlining bu holatini mazax qilib, o'z dinlarining ustunligini gumrohlarcha ta'kidlay boshlaydilar. Bu hol tong yorishgunga qadar davom etadi. Muridlar nomusga chidolmay Shayxni yolg'iz tashlab ketadilar. Shayx butxonadagi bolalarga ham masxara bo'ladi. Shu tariqa oradan bir oy o'tadi. Nihoyat, tarso qizi yana butxonada paydo bo'ladi va islomdek buyuk din peshvosi Shayxning kofirlar butxonasida bu tarzda yashashidan maqsadi ne ekanini so'raydi. Shayx tarso qiziga o'z holini bayon qilib, bularning barchasiga sababchi sening orazing deb javob beradi. Tarso qizi shayx ishqining dalili sifatida unga to'rt shartni bajarishi va ikki jurmona (jarima) to'lashi kerakligini aytadi. Aytilgan to'rt shart quyidagilar edi:

- 1) *may ichmoq;*
- 2) *zunnor bog'lamoq;*
- 3) *Qur'onni o'tda kuydirmoq;*
- 4) *butparastlar diniga kirmoq.*

Jurmona sifatida esa bir yil davomida cho'chqaboqarlik qilish va otashgohda o't yoqishni buyuradi. Shayx bu shartlar va jurmonalarni ortig'i bilan ado etadi. Shu tariqa oradan bir yil o'tadi.

Shayxning Ka'bada bir foniy¹⁸ muridi bo'lib, Shayx Runga otlanganida, u boshqa bir mamlakatda safarda edi. Safardan qaytgach Shayxni topolmay, bo'lib o'tgan voqealar haqida surishtiradi. Muridlar unga ahvolni bayon qiladilar. Foniylar unga ta'na qiladi va barcha muridlarni Rum sari yo'lga boshlaydi. Yetib borib ko'radiki, Shayxda na islom, na iymon maslagidan asar qolmagan. Sodiqlar shogird bu holni ko'rib oh uradi va kechakunduz Yaratganga munajat qilib Shayxning haqiga duo o'qiydi va, nihoyat, Alloh uning duosini qabul etadi. Shayxga g'oyibdan ogohlik yetib, ko'zlaridan xijolat yoshlarini to'kib, sadoqatda bemisli bo'lgan shogirdiga uzrxohlik qiladi. Shayx yana egniga poklik xirqasini kiyib o'z muridlari bilan Ka'ba sari yo'l oladi.

Rumda qolgan tarso qizi tush ko'radi. Tushida Iso (a.s.)dan: «Shayx San'ondek buyuk murshid sening huzuringga mehmon bo'lib kelsa-yu, sen mezbonlik odatini bilmasdan uning boshiga ne kunlarni solding?! Endi vaqtni g'animat bilib uning ortidan bor, diniga musharraf bo'l», – degan xabar keladi. Tarso qizi oh urganicha, ko'zlaridan nadomat yoshlarini to'kib Ka'ba tomon yo'lga tushadi. Yo'lda unga xastalik va ojizlik yuzlanib, tuproq ustida hushidan ketadi. Shayxga bu hol ayon bo'lib muridlari bilan ortga qaytadi va tarso qizining so'nggi lahzalarda iymon sohibasi sifatida jon berishiga shohid bo'ladi.

Shu o'rinda Navoiy agar unga Alloh umr bersa, o'z ishqini sharhini nazmga solib bir doston yozish niyati borligini aytadi:

*Bir necha kun umrdin topsam amon,
Sharhi ishqim nazm etay bir doston.*

¹⁸ Foniylar – o'zligidan kechib Haq vasliga yetishgan solik.

Anda bilgay kimgakim insofdur

Kim, so 'zum chinmudurur yo lofdur.

Ma'lumki, tasavvufda Haqni tanishning ikki yo'li mavjud. Birinchisi hayajonli, ruhiy kechinmalarni oshkora izhor etib borish mayli bo'lsa, ikkinchisi osoyishta, ichki dardni yashirish maylidir. Birinchi mayl «sukra» (mastlik) yo'li deb atalib, uning yirik namoyandalari sifatida Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj, Abu Sa'id Abulxayr, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi, Boborahim Mashrab nomlarini keltirish mumkin. Ikkinchi mayl sahv (hushyorlik) yo'li deb nomlanib, uning tarafdorlari qatorida Junayd Bag'dodiy, Sa'diy Sheroziy, Bahouddin Naqshband kabi ijodkorlarni sanab o'tish mumkin.

Adabiyotshunos olim N.Komilovning fikricha, Shayx San'onning barcha diniy ilmlari va Qur'onni unutishi Haqqa yetish uchun dunyoviylikdan, jumladan, aql va aqliy narsalardan qutulish, o'zligini unutishga ishoradir. Uning xotirasi qaytishi esa sukradan sahvga qaytish hisoblanadi. Haqiqiy baqo sahv, ya'ni hushyorlikka qaytishdan keyin boshlanadi. Sukradagi solik bamisoli dengizga sho'ng'ib g'arq bo'lgan kishi bo'lsa, sahvga qaytgan dengizga sho'ng'ib gavhar donalarini olib qaytib chiqqan g'avvos kabidir.

Hudhud hikoyatdan so'ng asl manzilga yetish uchun 7 vodiyni bosib o'tish kerakligini aytadi. Qushlar vodiylardan o'ta boshlaydilar:

1. **Talab vodiysi** – qushlarning Simurg' vasliga talabgorligi bilan bog'liq.
2. **Ishq vodiysi** – bu vodiya qushlarning qalbini Simurg'ning ishq band etadi, ular o'zlarini va dunyoni unutadilar.
3. **Ma'rifat vodiysi** – bunda qushlar Simurg' haqidagi bilimlar, g'oyalar cheksizligini his etadilar, Simurg'ni taniy boshlaydilar.
4. **Istig'no** (ehtijojsizlik) vodiysida qushlarning ehtijomand, Simurg'ning esa ehtijojsizligi tasviri bayonida solikning mana shu ehtijojsizlikni anglab yetish zamiridagi holati ifodalanadi.
5. **Tavhid** (birlik) vodiysi. Butun borliq yagona ruh – Simurg'dan iborat ekanligini tushunish.

6. **Hayrat** vodiysi – *Simurg‘ning ulug‘vorligidan hayratga tushib aqlan mahrum bo‘lish.*

7. **Faqr-u fano** vodiysida o‘zlikdan voz kechib *Simurg‘ bilan birlashish, abadiylikka qaytish mohiyati mujassam.*

Doston so‘ngida qushlar o‘zlaridagi *Simurg‘ni kashf etadilar.*

Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, bu dunyo Haqning tajalliysi – Allohning jilolanishidir. Dunyodagi barcha mavjudot Allohning zuhuridir. Shu ma‘noda inson ham o‘zidagi mana shu zarrani kashf etmog‘i, buning uchun esa juda uzun va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tmog‘i kerak. Bu, yuqorida keltirilganidek, yetti vodiidir. So‘nggi vodi *Faqr-u fano* vodiysi, ya‘ni yo‘qlikka aylanib Allohga qo‘shilmoqdir.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, *Simurg‘ – Haqqa yetishish timsoli. Qushlar – Haq vasliga talabgor soliklar timsoli. Hudhud – piri komil ramzi.*

Dostondagi ba‘zi qushlarni ramziy timsollar sifatida quyidagicha talqin qilish mumkin:

Tovus – dunyo go‘zalligiga mahliyolik.

Qarchig‘ay – hokimlik qilish istagi.

Bulbul – foniy dunyo oshig‘i.

Kaklik – o‘z raftor-u amallariga mahliyo bo‘lish.

Burgut – maqsadsiz kuch-qudrat.

Tovuq – fikriy, ma‘naviy parvozdan mahrumlik.

Bundan kelib chiqadiki, ko‘pchilik Haqqa yetishish da‘vosi bilan sulukka kirishi mumkin, lekin hamma ham bu yo‘ldagi imtihon va sinovlardan o‘ta olmasligi mumkin ekan.

«Lison ut-tayr» dostoni Attor dostoni singari ramal bahrining **ramali musaddasi mahzuf** vazni (ruknlari va taqti‘i: *foilotun foilotun foilun – V – – – V – – – V –*) vaznida yozilgan.

11.10. Alisher Navoiyning ilmiy va nasriy merosi

- **Adabiyotshunoslik va tilshunoslikka doir asarlari**

Alisher Navoiy adabiyotshunoslikka doir uch asar yaratgan bo'lib, uning **«Mufradot» yoki «Risolayi muammo»** asari hijriy 890-, milodiy 1485-yili fors-tojik tilida yaratilgan. Risola muammo janrini yechish qonun-qoidalariga bag'ishlangan.

Ma'lumki, muammo arabcha «ko'r qilingan», «yashiringan» ma'nolarini bildiruvchi va bir, ba'zan esa ikki baytdan iborat mustaqil she'r turidir. Muammoda biror ism yoki narsa-buyum nomi berkitiladi. Bunda arab yozuvidagi harflarni turlicha o'zgartirish yo'li bilan yashiringan so'zlar topiladi. Muammo 2 xil ma'no asosiga quriladi: tashqi (chalg'ituvchi) ma'no va ichki (asosiy) ma'no.

Asarda 3 amal, 15 qism va 48 ta uslub qoidalari va ular bilan bog'liq holda 121 ta muammo, uni yechish usullari ko'rsatib beriladi. Risolada muammoning turli uslub qoidalari ixcham va tushunarli tilda bayon qilib berilganligi uchun asar o'z davrida va undan keyin ham keng shuhrat qozondi.

Alisher Navoiyning adabiyotshunos olim sifatidagi faoliyatini ko'rsatib beruvchi yana bir asar **«Majolis un-nafois»** tazkirasidir. Navoiy tazkirani 1491 – 1498-yillar davomida yaratadi. Tazkirada XV asrda yashab faoliyat yuritgan 459 shoir haqida ma'lumot keltirilgan. Tazkiradagi shoirlar majlis, ya'ni qismlarga quyidagicha taqsimlangan: 1-majlisda 46 ta, 2-majlisda 91 ta, 3-majlisda 175 ta, 4-majlisda 72 ta, 5-majlisda 21 ta, 6-majlisda 31 ta, 7-majlisda 22 ta temuriy va 8-majlisda Husayn Boyqaro bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan.

Hazrat Navoiy o'z tazkirasini «tabarruk qilmoq uchun» shayxlardan Xoja Qosim Anvor zikri bilan boshlaydi.

Alisher Navoiyning **«Mezon ul-avzon»** asari 1492 – 1493-yillarda yaratilgan bo'lib, aruz nazariyasining qonun-qoidalariga bag'ishlangan. Asarda jami 19 bahr, 160 ta vazn, 7 doira keltirilgan.

Navoiy turkiy tilning rivojiga shoh asarlar yaratish bilangina hissa qo‘shib qolmay, uning taraqqiyotini nazariy jihatdan ham boyitdi. Uning bu boradagi xizmatlaridan biri 1499-yili yaratilgan **«Muhokamat ul-lug‘atayn»** (Ikki til muhokamasi) asaridir. Mazkur asarida Navoiy turkiy va forsiy (sort) tillarini bir-biriga qiyoslash asnosida turkiy tilning boy va keng imkoniyatlarga egaligini isbotladi. Asarda Navoiy dunyo tillaridan uch til (turkiy, forsiy va hind) asl va mo‘tabar bo‘lib, ularning vujudga kelishi Nuh payg‘ambarning o‘g‘illari: Yofas (turkiy), Som (forsiy) va Hom (hind) bilan bog‘liq deb hisoblaydi va turkiy tilni Yofas orqali payg‘ambarlik toji bilan ulug‘landi deb yozadi.

Navoiyning fikricha, arab tili bunday ulug‘lanishga muhtoj emas, hech shubhasiz, u barcha tillardan mumtoz va «mo‘jizatiroz»dir, chunki Allohning kalomi va Rasuli akram hadislar shu tilda yaratilgan.

Alisher Navoiy ikki tilni qiyoslash jarayonida forsiy tilning kuchli bilimdoni sifatida namoyon bo‘ladi, zero, obyektiv xulosalar chiqarish uchun ikki tilni ham mukammal bilmoq talab qilinadi. Bu mukammallik Navoiyning:

- forsiy tilda muodil (ekvivalent)ni bo‘lmagan 100 ta fe‘lni keltirishi¹⁹;
- turli sohalarga doir narsa-buyum, tabiiy hodisalar va hayvonlarning forsiy tilda mavjud bo‘lmagan nomlarini berib, ularning ba‘zilari forsiy til leksikasi tarkibiga ham kirganligi haqida ma’lumot keltirishi;
- tajnis va iyhom san’atiga asos bo‘ladigan so‘zlarning forsiy tildagiga nisbatan ko‘pligini misollar bilan isbotlashi;
- tuyuq janrining faqat turkiy she’riyatda qo‘llanishiga e’tibor qaratishi;
- turkiy tilda forsiy tilda bo‘lmagan ba’zi grammatik shakllar (masalan, birgalik nisbatini yasovchi **-ish**, ortirma nisbat yasovchi **-t** qo‘shimchalari)ning mavjudligini misollar bilan dalillashi;
- turkiy tilning fonetik xususiyati qofiyadosh so‘zlar uchun fors tiliga nisbatan qulayligini asoslab berishi bilan bog‘liq holatlarda ko‘rinadi.

Alisher Navoiyning arab tili lug‘atshunosligiga bag‘ishlangan asari «Sab’at abhur» deb ataladi.

¹⁹ Asarda yuzta fe‘l deyilgani holda 99 ta fe‘l keltirilgan. Ehtimol, kotib asarni ko‘chirish jarayonida bir fe‘lni tushirib qoldirgan bo‘lsa kerak.

Asarning **«Sab'at abhur» – «Yetti dengiz»** deb atalishiga sabab arab lug'atshunosligiga mansub yetti kitobning mazkur asar uchun manba bo'lganligidir. Ular quyidagilar:

- 1) *Javhariyning «Sahoh» izohli lug'ati;*
- 2) *Sog'oniyning «Takmila» lug'ati;*
- 3) *Zamaxshariyning «Kashshof» (Qur'on tafsiriga oid) asari;*
- 4-5) *Ibn Hojibning grammatikaga oid «Mufassal» (ikkita muqaddima va sharhlari) asari;*
- 6) *«G'aroyib ul-hadis» – hadis so'zlariga tuzilgan lug'atlar;*
- 7) *turli mualliflar devon, risola va boshqa asarlarning sharhlari. Ular shartli ravishda «Zavoyid» nomi bilan atalgan.*

• **Diniy va tasavvufiy asarlari**

«Arba'in» (Qirq hadis) – hadislarning she'riy tarjimasi bo'lib, 886 (milodiy 1486)-yili yaratilgan. Shoir Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning hadislarini avval arab tilida beradi va uning tarjimasini she'riy usulda taqdim etadi. Asar jami 40 hadis sharhini o'z ichiga oladi, uning umumiy hajmi 108 baytdan iborat.

«Vaqfiya» asari 1481 – 1482-yillar oralig'ida yaratilgan bo'lib, Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyati, vaqf qildirgan yerlari, qurdirgan binolari haqida ma'lumot beradi. Asarning asosiy qismini shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin:

1. *Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro saroyidagi davlat arbobi sifatidagi faoliyati aks etgan o'rinlar.*

2. *Navoiyning xayriya ishlari va vaqf qildirgan mulk, yerlari; vaqfiya joylardagi idora usuli, xizmat uchun belgilangan lavozimlar, tayin etilgan maosh, o'rnatilgan tartib-qoidalar bayoni.*

Asarda Navoiyning mamlakat obodligi va el-yurt farovonligiga doir muhim fikrlari ham o'z ifodasini topgan.

Alisher Navoiyning **«Nazm ul-javohir»** asari nasriy usulda yozilgan muqaddima va hazrati Alining 255 raqam (ba'zi manbalarda 266) ostida tartiblangan arab tilidagi o'gitlarining turkiy tilda ruboiy shaklida berilgan talqinidan iborat.

Asar o'ziga xos tuzilishga ega. Dastavval, hazrat Alining arab tilidagi falsafiy o'gitlari keltiriladi, so'ngra turkiy tilda ruboiy shaklidagi talqin beriladi.

Alisher Navoiyning **«Siroj ul-muslimin» (Musulmonlar nuri)** asari sof diniy yo'nalishda bo'lib, islom dini ahkomlarini yoritishga bag'ishlangan. Asar masnaviy shaklida yozilgan bo'lib, hajman 197 baytdan iborat.

«Munojot» – Allohga iltijo tarzida yaratilgan nasriy asar, «Hamd», «Na't» va «Munojot» deb atalgan uch qismni o'z ichiga oladi. «Hamd»da Allohning buyukligi, abadiyligi haqida so'z borsa, «Na't»da payg'ambarimiz rasuli akram ta'riflari keltiriladi. Asarning «Munojot» qismi bevosita shoirning Allohdan najot so'rab qilgan iltijolariga bag'ishlangan. Asarning har bir jumlasini Allohga murojaat, ya'ni «ilohi» so'zi bilan boshlanadi. Navoiy o'zini behad gunohkor, Yaratganni pok va akram (karamli), o'zini cheksiz isyonkor, Xoliqni rahimli va mehribon deb atar ekan, ichki qofiya, tazod, ishtiyoq san'atlarining betakror namunalarini shoir his-tuyg'ulari bilan uyg'unlik kasb etganligini ko'ramiz.

«Risolayi tiyr andoxtan» risolasi har bir fikrning sof diniy dalillar – hadis va rivoyatlar ila izohlanganligi bilan alohida xarakterlanadi. Risola hajman kichik, muallif bunda kamondan o'q uzishning qanchalik savobli amal ekanini asoslashga e'tibor qaratadi.

Risolada bir nechta hadis va rivoyatlar keltirilgan. Navoiy kamondan o'q otishning qanchalik savobli amallardan ekanligiga asosiy urg'uni beradi. Bu bejiz emas, chunki o'rta asrlarda yurt himoyasi askarlarning fidoyi va jasurligi hamda bevosita qurollarni, ayniqsa, kamonni mahorat bilan ishlata bilishi bilan ta'minlangan. Mazkur asar Vatan himoyasiga chog'langan yigitlarni o'z ishlarining Tangri va payg'ambar tomonidan sevilgan, ma'qul ko'rilgan amal ekanligiga ishonitirishga xizmat qilgan.

«Nasoyim ul-muhabbat» (to‘liq nomi «Nasoyim ul-muhabbat min shamoyil ul-futuvvat» – «Mardlik xushbo‘yliklarini taratuvchi muhabbat shabadalari») asari 1495 – 1496-yillarda yaratilgan bo‘lib, Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds» (Do‘stlik tarovati) asarining ijodiy tarjimasidir.

Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns» asarida 616 ta shayx haqida ma‘lumot keltirilgan. Hazrat Navoiy bu ma‘lumotlarni qayta ishlab, to‘ldirib shayxlar sonini 770 taga yetkazadi, ulardan 35 tasini avliyo ayollar tashkil etadi.

- **Tarixiy, yodnoma va turli mavzudagi asarlari**

Alisher Navoiyning **«Tarixi anbiyo va hukamo»** risolasi islom dini manbalariga asoslangan bo‘lib, payg‘ambarlar – rasul va nabiyalar hamda hakim zotlar – allomalar tarixiga bag‘ishlangan. Unda 60 dan ziyod payg‘ambar, 13 nafar hakim – allomalar tarixi bayon qilingan.

Alisher Navoiyning **«Tarixi muluki Ajam» (Arab bo‘lmagan shohlar tarixi)** asari o‘z davri nuqtayi nazaridan ilmiy dalillarga asoslangan risola hisoblanadi. Asarda Eron va Turon mulkida hukmronlik qilgan to‘rt sulola: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylar tarixi batafsil hikoya qilinadi.

Alisher Navoiy peshdodiylar sulolasiga mansub 11, kayoniylar sulolasidan 9, ashkoniylar sulolasidan 15, sosoniylar sulolasidan 28, jami to‘rt suloladan 63 hukmdorning nomlari, ularning tarjimayi holi, hayoti va yuritgan siyosatiga doir ma‘lumotlarni taqdim etadi.

Navoiyning piri, ustoz Abdurahmon Jomiy xotirasiga bag‘ishlangan **«Xamsat ul-mutahayyirin» (Besh hayrat)** asari muqaddima, uch maqolat va xotimadan iborat.

Asar muqaddimasida Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiyning nasl-nasabi, bolaligi, umr yo‘li haqida to‘xtaladi.

«Holoti Sayyid Hasan Ardasher» manqibasi Sayyid Hasan Ardasher vafotidan ikki yil keyin – 1490 – 1491-yillarda yaratilgan. Asarda Alisher Navoiy Sayyid Hasan Ardasherni komil inson sifatida tasvirlaydi. Asarni o‘qish jarayonida Sayyid Hasan Ardasherning ma’naviy-ruhiy dunyosi bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ulug‘ shoir bu zotni bejiz komil inson sifatida tanlamaganiga guvoh bo‘lamiz.

Hazrati Alisher Navoiy uchun ham do‘st, ham ota, ham ustoz maqomida bo‘lgan zotlardan biri Pahlavon Muhammadning vafotidan so‘ng ulug‘ shoir «Holoti Pahlavon Muhammad» asarini yozadi. Unda Pahlavon Muhammad shaxsiyati, uning ibratli hayoti va u bilan bog‘liq xotiralari haqida to‘xtaladi.

«Munshaot» asari Alisher Navoiyning turli vaqtda turli shaxslarga yo‘llagan maktublaridan iborat to‘plam bo‘lib, musulmon Sharqi insho san’atining turkiy tilda yaratilgan yuksak namunalardan hisoblanadi. Asar 100 dan ortiq maktubni o‘z ichiga oladi. Asar o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy hayoti haqida xabar beruvchi muhim manba sifatida ham g‘oyat qimmatlidir.

«Mahbub ul-qulub» (Ko‘ngillarning sevgani) hazrat Navoiyning umri poyonida yozgan so‘nggi asari bo‘lib, 1500-yili yaratilgan. Asar axloqiy-ta’limiy mazmunda, buyuk mutafakkirning boy hayotiy tajribasi va xulosalari asosida yaratilgan.

«Mahbub ul-qulub» asari 3 qismga bo‘linadi. Birinchi qism «Xaloyiq ahvol va af‘ol va aqvolining kayfiyati» deb atalib, 40 faslni o‘z ichiga oladi. Unda sultonlardan tortib darveshlargacha bo‘lgan 49 ijtimoiy tabaqa va guruhlarining tavsifi keltiriladi.

Asarning 10 bobdan iborat ikkinchi qismi «Hamida af‘ol va zamima xisol xosiyatida» deb nomlanib, axloqiy masalalarga bag‘ishlangan.

Asarning 3 qismi «Mutafarriqa favoyid va amsol surati» deb atalib, turli foydali pandlar va hikmatlarni o‘z ichiga oladi. Asarda ular «tanbeh» nomi bilan atalib, jami 127 ta tanbeh keltirilgan. Mazkur asar buyuk mutafakkir merosining muhim va qimmatli yodgorligidir, u XV asrdan keyingi badiiy nasr taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatdi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Navoiyning lirik merosi haqida ma'lumot bering.*
2. *«Xazoyin ul-maoniy»ning tarkibiy tuzilishi haqida so'zlang.*
3. *Navoiyning xamsa janri taraqqiyotiga qo'shgan hissasi nimalarda namoyon bo'ladi?*
4. *Navoiyning adabiyotshunoslikka doir asarlarini sanang.*
5. *Navoiyning tarixiy va yodnoma asarlari haqida nimalarni bilasiz?*
6. *Navoiyning tilshunoslik nazariyasiga qo'shgan hissasi qaysi asarida namoyon bo'ladi?*
7. *«Mahbub ul-qulub» asarining tarkibiy tuzilishi haqida so'zlab bering.*

12. XONLIKLAR DAVRI ADABIYOTI

12.1. Zahiriddin Muhammad Bobur

(1483 – 1530)

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Farg'ona viloyatining poytaxti Andijonda tug'ildi. Otasi ushbu viloyat hokimi Umarshayx mirzo (1455 – 1494) Temurbekka evara (Abusaid mirzo – Sulton Muhammad mirzo – Mironshoh – Amir Temur) edi. Onasi Qutlug' Nigorxonimning otasi Toshkent hokimi Yunusxon esa o'zbeklashgan mo'g'ul urug'idan bo'lib, o'n ikki avlod orqali Chingizxonga tutashgan. Bobur uni: «Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon naslidandir», – deb tanishtiradi. Umarshayx mirzoning Zahiriddin Muhammad Bobur, Jahongir mirzo, Nosir mirzo ismli uch o'g'li, Xonzodabegim, Mehrbonubegim, Shahrbonubegim, Yodgor Sultonbegim, Ruqiya Sultonbegim ismli besh qizi bo'lib, Bobur o'g'illarining eng kattasi edi. O'zidan besh yosh katta Xonzodabegim bilan bir onadan edilar. Umarshayx Andijonning g'arbida joylashgan Axxi (Axxikat deb ham aytilgan, Sirdaryoning o'ng sohilida, hozirda Namangan viloyati Shaxand qishlog'i hududida xarobalari saqlanadi) shahrini poytaxt qilgandi.

1494-yili Boburning tog'asi va amakisi Sulton Mahmudxon hamda Samarqand podshohi Sulton Ahmad mirzo bilan ittifoq tuzib qo'shin tortib kelganlarida, Axxi

qo'rg'onidagi jar yoqasida turgan Umarshayx mirzo xobxona-yu xosxonasi bilan birgalikda jarga qulab halok bo'ladi.

12 yoshli Bobur dastlab Shayx Mazidbek, so'ng Boboquli Boboalibek, Qosim qavchin kabi beklar yordamida hokimiyatni idora qilishga kirishadi. 1495-yili Boburning amakivachchalari, Sulton Mahmudning o'g'illari: Sulton Mas'ud va Boysung'ur mirzolar Samarqand uchun kurash boshlaydilar. Bobur qo'shin tortib Samarqandni qamal qiladi.

1497-yili Bobur mingga yaqin kishi bilan yana Samarqandga o'tlanadi va shaharni egallaydi.

Lekin unga xiyonat yuz berib, Samarqand ham, Andijon ham qo'ldan ketadi. Bobur 1499-yilning iyun oyida, salkam ikki yildan keyin Andijonga qaytib qo'ldan chiqqan yurtini qayta egallashga muvaffaq bo'ldi.

1501-yilning kech kuzida Shayboniyxon olgan Samarqand shahrini egallashni maqsad qilgan Boburning 70 – 80 yigiti tun yarmidan og'anda qal'aga narvon qo'yib Feruza darvozasini ishg'ol etadilar. Shu yil qishda Bobur va Shayboniy qo'shinlari to'qnashadi. Jang Shayboniyxon foydasiga hal bo'ladi.

1503-yilning sentyabri oxirlarida Bobur shiddat bilan borib Kobul va G'aznani jangsiz oladi.

Bobur Kobulni olgach Hindistonni egallash rejasini tuza boshlaydi. Bu boradagi birinchi harakat 1507-yilning yanvariga to'g'ri keladi. 1526-yil 21-aprelda Panipatda Boburning 12 ming kishilik qo'shini hind sultoni Ibrahim Lo'diyning 100 ming kishilik askari bilan to'qnashadi. Jangda Bobur g'alaba qozonib, Yevropada «Buyuk mo'g'ullar imperiyasi» nomi bilan shuhrat topgan davlatga asos soladi.

1526-yilning 21-dekabrida Bobur dushmanlari tomonidan zaharlanib, tasodif tufayligina omon qoladi. Bobur 1530-yilning 26-dekabrida Agrada vafot etadi. Keyin uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko'chiriladi.

Ijodiy merosi

- Bobur 20 yoshida yangi bir yozuv – «Xatti Boburiy»ni kashf qildi.
- «Boburnoma» tarixiy-badiiy asarini yozdi.

- Musiqa bilan shugʻullanib, «Chorgoh» maqomiga «savt»lar bitdi.
- «Mubayyin al-zakot» (Zakot bayoni, 1521, sheʼriy yoʻlda yozilgan, soliq ishlari qoidalari).
- «Muxtasar» (1523 – 1525, aruz vazni haqida) nomli risola bitdi.
- «Harb ishi», «Musiqa ilmi» (topilmagan).
- «Validiya» (Xoja Ahror Valiy asari) asarini sheʼriy yoʻl bilan tarjima qildi.

«Boburnoma» asari haqida

Asar dastlab **«Vaqoyeʼ»** (Voqealar), keyinchalik **«Voqoti Boburiy», «Voqeanoma», «Tuzuki Boburiy», «Boburiya»** nomlarini olgan. Oxirida «Boburnoma» boʻlib shuhrat topdi. Asar Boburning 1494-yili – 12 yoshida taxtga oʻtirishidan boshlab hayotining soʻngigacha boʻlgan voqealarni oʻz ichiga oladi. Bu tafsilotlar Bobur tugʻilib voyaga yetgan Movarounnahr, soʻngroq oʻzi saltanat qurgan Xuroson (Kobul, Gʻazna, Qandahor) va Hindistonda yuz bergan voqealardir. Demak, «Boburnoma» XV asrning soʻnggi – XVI asrning birinchi choragida mazkur uch mintaqada kechgan voqealarni oʻrganishda muhim manbadir.

Muallif asarida voqealar bilangina cheklanmaydi, balki ularning ishtirokchilariga, qahramonlariga keng oʻrin beradi. Natijada biz Bobur zamonida yashagan, tariximiz hamda maʼnaviyatimizda muhim mavqega ega boʻlgan davlat va madaniyat arboblari bilan tanishamiz. Asarda har bir yil voqealari alohida beriladi. Dastlab oʻsha yilda yuz bergan muhim voqea bayon qilinadi. Masalan, dastlabki 1494-yil voqealarini hikoya qilganda Bobur, avvalo, oʻzining **«Tangri inoyati bilan Fargʻona viloyatida 12 yoshda podshoh boʻlgani»** haqida xabar beradi va Fargʻona viloyati bilan tanishtiradi. Soʻng voqea tafsilotiga, togʻasi va amakisi Andijonga qoʻshin tortib kelgani va otasining tasodif bilan fojiona halok boʻlgani voqealariga toʻxtab, uning bosh ishtirokchilari, birinchi navbatda, otasi Umarshayx haqida maʼlumot beradi. Chunonchi, uning tugʻilgan yili, nasl-nasabi, shakl-u shamoyili, xulq-atvori, yurishlari, viloyati, avlodi, xotinlari, umarosi haqida toʻxtaladi. Soʻng voqeaning ikkinchi ishtirokchisi – shu 1494-yildagi urushdan qaytishda yoʻlda – Oʻratepada kasallanib vafot etgan amakisi Sulton Ahmad haqida xuddi oʻsha tarzda maʼlumot keltiradi.

Shunday qilib, kitobda Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Badiuzzamon, Muzaffar mirzo, Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud kabi oʻnlab taxt egalari, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Behzod, Mirak Naqqosh, Husayn Udiy singari adabiyot va sanʼat arboblari haqida qimmatli maʼlumotlar keltirilgan.

«Boburnoma» XVI asrdayoq turli Sharq tillariga tarjima qilina boshlagan. Jumladan, 1586-yili fors tiliga oʻgirilgan. XVIII asr boshlarida Yevropaga kirib borgan. 1705-yili Vitsen kitobni golland tiliga tarjima qilib, Amsterdamda nashr ettiradi. 1826-yili J.Leyden va V.Erskin uning inglizcha tarjimasini, 1871-yili Pave de Kurteyl fransuzcha tarjimasini amalga oshiradilar. Asar XX asrda Rashid Rahmati Orat tomonidan turk tiliga, Mixail Salye tomonidan rus tiliga tarjima qilinadi. 1826 – 1985-yillar davomida «Boburnoma» 4 marta ingliz, 3 marta fransuz, 1 marta nemis tiliga oʻgirilib nashr qilinadi. Unga asoslanib Boburning hayoti va ijodini yorituvchi koʻplab badiiy asarlar, xususan, fransiyalik Flora Anna Stilning «Boburxon», Fernard Grenardning «Bobur», amerikalik Harold Lembning «Bobur – yoʻlbars» romanlari, Vamber Gaskonining «Bobur va uning avlodlari yoki Buyuk moʻgʻullar» roman-esselari yaratiladi. Hindistonlik Muni Laʼl Bobur va boburiylar haqida 6 ta roman yozgan.

Asardan parchalar

Andijon tasviri:

...Fargʻona viloyati beshinchi iqlimdindir... Sharqi Koshgʻar, gʻarbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi togʻlar... Yetti pora qasabasi bor: beshi Sayhun suyining janub tarafida, ikki(si) shimol jonibida... Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti boʻlmas. Movarounnahrda Samarqand va Kesh qoʻrgʻonidin soʻng mundin ulugʻroq qoʻrgʻon yoʻqtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqe boʻlubtur. Toʻqqiz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas... Ovi qushi dogʻi koʻp boʻlur, qirgʻovuli behad semiz boʻlur. Andoq rivoyat qildilarkim, bir qirgʻovulni uskunasini toʻrt kishi yeb tugata olmaydur...

Samarqand tasviri:

Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimdir. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog'iy qahr va g'alaba ila munga dast topmog'on uchun «baldayi mahfuza» derlar. Samarqand amirul mo'minin Usmon zamonida musulmon bo'lg'ondur. Sahobadin Qusam Ibn Abbas anda borg'onidir. Qabri Ohanin darvozasining toshidadur. Holo Mazori Shohg'a mashhurdir. Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mo'g'ul va turk ulusi Semizkand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh Samarqandni poytaxt qilg'on emastur. Qo'rg'onini fasilning ustidin, buyurdumkim, qadam urdilar, o'n ming olti yuz qadam chiqti... Ko'hak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki kuruh bo'lg'ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur. Ko'hak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun Ko'hak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug' rud ayiriburlar, balki daryochadur. Darg'am suyi derlar...

...ikki meva Samarqanddin mashhurdir: sebi Samarqand va sohibiyi Samarqand...

Samarqand arkida Temurbek bir ulug' ko'shk solibtur, to'rt oshyonliq, Ko'ksaroyg'a mavsum va mashhur va bisyor oliy imorattur. Yana Ohanin darvozasig'a yovuq qal'aning ichida bir masjidi jum'a solibtur, sangin aksar Hindistondin eltgan sangtaroshlar anda ish qiliburlar. Masjidning peshtoqi kitobasida bu oyatni «Va iz yarfau Ibrohimu al-qa-voida... (ila oxirih)» andoq ulug' xat bila bitiburlarkim, bir kuruh yovuq yerdin o'qusa bo'lur... Samarqandning sharqida ikki bog' solibtur, birikim yiroqroqtur, Bog'i Bo'ldudur, yovuqrog'i Bog'i Dilkushodur. Dilkushoda ham ulug' ko'shk soldirubtur, ul ko'shkta Temurbekning Hindiston urushini tasvir qiliburlar. Yana pushtai Ko'hakning domanasida Konigilning Qorasuyining ustidakim, bu suvni Obirahmat derlar, bir bog' solibtur, Naqshijahonga mavsum. Men ko'rgan mahalda bu bog' buzulub erdi, oti besh qolmaydur edi... ..madrasaning janubida bir masjid solibtur, masjidi Muqatta' derlar. Bu jihattin Muqatta' derlarkim, qit'a-qit'a yig'ochlarni tarosh qilib, islmiy va xitoyi naqshlar soliburlar, tamom devorlari va saqfi ushbu yo'sunluqtur. Bu masjidning qiblasi bilan madrasa qiblasining orasida bisyor tafavuttur. ..

Yana pushtai Ko'hakning domanasida g'arb sori bog'e solibtur Bog'i Maydonga mansub. Bu bog'ning o'rtasida bir oliy imorat qilibtur Chilsutun derlar. Du oshyona, sutunlari tamom toshdin. Bu imoratning to'rt burchida to'rt manordek burjlar

qo‘poribturlarkim, yuqorig‘a chiqar yo‘llar bu to‘rt burjdindur. O‘zga tamom yerlarda toshdin sutunlardur. Ba‘zini morpech xiyora qilibturlar... Ushbu bog‘chada yana bir chordara solibtur, izorasi tamom chiniy. Chiniyxona derlar. Xitoydin kishi yiborib keltirubtur.

Samarqand qal‘asining ichida yana bir qadimiy imorattur, masjidi Laqlaqa derlar. Ul gunbazning o‘rtasida yerga tepsalar, tamom gunbazdin laq-laq un kelur, g‘arib amredur, hech kim muning sirrini bilmas.

Samarqand shahri ajab orosta shahredur, bu shaharda bir xususiyate borkim, o‘zga kam shaharda andoq bo‘lg‘ay. Har hirfagarning bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlut emastur, tavr rasmedur. Xub nonvoliqlari va oshpazliklari bordur. Olamda yaxshi qog‘oz Samarqanddin chiqar. Juvozi qog‘ozlar suyi tamom Konigildin keladur. Konigil Siyohob yoqasidadurkim, bu qora suvni Obirahmat ham derlar.

Samarqandning yana bir matoi qirmizi maxmaldurkim, atrof va javonibqa eltarlar.

Buxoro tasviri:

Samarqandning g‘arbi tarafi yigirma besh yig‘och yo‘ldur. Buxoroning ham necha tumonoti bor. Tavr shahre voqe bo‘lubtur. Mevasi ko‘b bo‘lur va xo‘b bo‘lur, qovuni bisyor yaxshi bo‘lur, Movarounnahrda Buxoro qovunicha ko‘p va xo‘b qovun bo‘lmas...

Shahrisabz tasviri:

Yana Kesh viloyatidur, Samarqandning janubidadur, to‘qquz yig‘och yo‘ldur. Samarqand bila Kesh orasida bir tog‘ tushubtur. Itmak doboni derlar, sangtaroshlik qilur toshlarni tamom butog‘din eltarlar. Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo‘bsabz bo‘lur uchun Shahrisabz ham derlar. Temurbekning zod-ubudi Keshdin uchun shahr va poytaxt qilurg‘a ko‘p sa‘y va ehtimomlar qildi, oliy imoratlar Keshta bino qildi...

Hindiston tasviri:

Hinduston mamoliki vase va purmardum va purhosil viloyat voqe bo‘lubtur... G‘arib mamlakate voqe bo‘lubtur. Bizning viloyatlarg‘a boqa o‘zga olamedur. Tog‘ va daryosi, jangal va sahrosi, mavozi va viloyoti va hayvonot va nabototi, eli va tili va yomg‘uri va yeli borcha o‘zgacha voqe bo‘lubtur...

Hayvonotkim: Hinduston maxsusidur, vuhushdin biri fildurkim... azimul jussa va ziyrak jonivordur. Har ne desalar bilur va har ne buyursalar qilur. Bahosi ulug‘lug‘ig‘a yarashadur, qarilab sotarlar. Har necha ulug‘roq – bahosi ko‘proq... Filning yemak-ichmagi tamom xartumi biladur. Xartumi bo‘lmasa tirilmas. Xartumining ikki yonida yuqorig‘i engagida ikki ulug‘ tishi bor, tomg‘a va yig‘ochqa ushbu tishlarini qo‘yub zo‘rlab yiqitur. Urushmoq va har zo‘r ishlarkim bo‘lsa ushbu tishlar bila qilur...

Tarixiy shaxslar ta’rifi

Husayn Boyqaro ta’rifi:

Sulton Husayn mirzo karimuttarafayn edi...

Shakl-u shamoyili: qiyiq ko‘zluk, sher andom bo‘yluq kishi edi. Belidin quyi inchka edi. Bovujudkim, ulug‘ yosh yashab, oq soqolliq bo‘lub edi, xushrang qizil, yashil abrishimni kiyar edi. Qora qo‘zi bo‘rk kiyar edi yo qalpoq. Ahyonan iydlarda kichik sepech dastorni yap-yassi yomon chirmon chirmab, qarqaro o‘tag‘asi sanchib namozg‘a borur erdi.

Axloq va atvori: ...Mafosil zahmati jihatidin namoz qila olmas edi, ro‘za ham tutmas edi. Harrof va xushxulq kishi edi. Ba’zi muomalotta sharni bisyor rioyat qilur edi. Bir qatla bir o‘g‘li bir kishini o‘lturgani uchun qonliqlarig‘a topshurub, dorulqazog‘a yibordi...

Shujo va mardona kishi edi... Temurbek naslidin hech kim ma’lum emaskim, Sulton Husayn mirzocha qilich chopmish bo‘lg‘ay. Tabi nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi «Husayniy» edi...

Alisher Navoiy ta’rifi:

Yana Alisherbek Navoiy edi, begi emas edi, balki musohibi edi. Kichikligida hammaktab ekandurlar. Xususiyyat bisyor ekandur. Bilmon, ne jarima bila Sulton Abusaid mirzo Hiridin ixroj qildi. Samarqandg‘a bordi. Necha yilkim Samarqandda edi, Ahmad Hojibek murabbiy va muqavviysi edi. Alisherbekning mijozi nozuk bila mashhurdur...

Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she’r aytibdurlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas...

- Ahli fazl va ahli hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma’lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayxi Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyat va taqviyati bila muncha taraqqiy va shuhrat qildilar. Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar

tasvirda bekning sa'y va ehtimomi bila mundoq mashhur va ma'ruf bo'ldilar. Muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay...

Bobur lirikasi

- «Kobul devoni» (1519, topilmagan).
- «Hind devoni» (1528 – 1529, 119 tasi g'azal, 231 tasi ruboiy, tuyuq, fard, masnaviy, qit'a, muammo).

Lirikasidan namunalar

- *Qaro zulfung firoqida parishon ro'zgorim bor,
Yuzungning ishtiyoqida ne sabr-u ne qarorim bor (**musajja' g'azal**).*
- *Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrayi zardim (**tashbeh san'ati**).*
- *G'urbatda ul oy hajri meni pir qilibtur,
Hijron bila g'urbat menga ta'sir qilibtur (**istiora san'ati**)*
- *Sochining savdosi tushti boshima boshtin yana,
Tiyra bo'ldi ro'zgorim ul qaro qoshtin yana (**raddul matla' san'ati**)*
- *Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.*
- *G'aming yo'q jon agar bersam g'amingda,
O'zungni muncha beparvo qilibsən.*

•Og‘zidek tor fursati vasli-yu hajri tuni,
Ul muanbar sochi yanglig‘ ham qorong‘u, ham uzun.

•Bahor ayyomidir dag‘i yigitlikning avonidur,
Ketur soqiy, sharobi nobkim, ishrat zamonidur.

•G‘ofil o‘lma, ey soqiy, gul chog‘in g‘animat tut,
Vaqti aysh erur boqiy, ol chog‘ir, ketur, bot tut.

•Sel emastur yer yuzin tutqon – ko‘zumning yoshidur,
Ra‘d emastur ko‘kka chirmashqon – ko‘ngul afg‘onidur.

•Kim ko‘rubtur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘,
Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshilig‘.

Ruboiylar

•Ko‘ngli tilagan murodig‘a yetsa kishi
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikkisi muyassar bo‘lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig‘a ketsa kishi.

•Yo qahr-u g‘azab bila meni tufroq qil,
Yo bahri inoyatingda mustag‘roq qil.
Yo rab, sangadur yuzum qaro yo oq qil,
Har nav‘i sening rizong erur, andoq qil.

•G‘urbat tug‘i yopqon ruxi zardimnimu dey
Yo hajr chiqarg‘on ohi sardimnimu dey?
Holing nedurur, bilurmusen dardimni,

Holingni so‘raymu, yo‘qsa, dardimnimu dey?

•*Tole‘ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.*

12.2. Muhammad Solih

(1455 – 1534)

Muhammad Solih 1455-yili Xorazmda tug‘ildi. Bobosi Amir Shohmalik Mirzo Ulug‘bekning tarbiyachisi bo‘lgan. Otasi Nur Saidbek Mirzo Ulug‘bek saroyida xizmat qilgan.

Muhammad Solih Abdurahmon Jomiy qo‘lida tahsil oladi. Adabiyot, tarix, falsafani, arab, fors tillarini o‘rganadi, naqqoshlik, xattotlik bilan shug‘ullanadi. Otasi Nur Saidbekning sirli o‘limi unga qattiq ta‘sir qilsa-da, 1489-yilga qadar Husayn Boyqaro saroyida ishlaydi. Navoiy «Majolis un-nafois» asarida u haqda shunday yozadi: *«Muhammad Solih ismi munosabati bilan Solih taxallus qilur. Nur Saidbek o‘g‘li turur. O‘zi muloyim yigitdur... Tab‘ida xeyli choshni (maza) bor. Xatqa ham qobiliyati ko‘pdur...»*

1499-yili, Temuriylar saltanati tanazzulga uchrayotgan paytda, Shayboniy huzuriga boradi. Shayboniy unga «amir ul-umaro» (amirlar amiri), «malik ush-shuaro» (shoirilar shohi) unvonlarini beradi. Shayboniy 1500-yili Boburga qarshi Samarqand sari otlar ekan, poytaxt qilib turgan Buxoro hokimligini Muhammad Solihga topshiradi. 1504 – 1505-yili Xorazm yurishida Muhammad Solih amir ul-umaro sifatida ishtirok etadi. Ma‘lum muddat Chorjo‘yda, so‘ng Ashxobod yaqinidagi Niso shahrida hokim bo‘ladi, shayboniylar tomonida turib temuriylarga qarshi kurashadi. Muhammad Solihning o‘g‘li Mirzo Ulug‘bek iste‘dodli shoir bo‘lgan.

Muhammad Solih 1534-yili Shayboniylar saltanati poytaxti Buxoro shahrida vafot etgan.

«Shayboniynoma» dostoni

•Unda Shayboniynonning temuriylarga qarshi olib borgan kurashlari, ularni yengib taxt tepasiga kelishi voqealari, ya'ni 1499 – 1505-yillarda yuz bergan real tarixiy hodisalar yoritiladi. Shu jihatdan u o'zbek adabiyotidagi aniq va real tarixiy voqealar tasviriga bag'ishlangan birinchi jangnomadir.

•1510-yili shoir tirikligida Qosim kotib tomonidan ko'chirilgan nusxasi Venada saqlanadi. German Vamberi uni 1885-yili nemischaga tarjima qilib nashr ettirgan. So'ngroq asar boshqa tillarga ham tarjima qilindi. «Shayboniynoma» O'zbekistonda 1961-va 1989-yillarda chop etildi.

•«Shayboniynoma» 9000 misraga yaqin bo'lib, 76 bobni tashkil qiladi. An'anaga ko'ra, hamd, munojot va na't bilan boshlanadi. So'ng so'z ta'rifi keltirilib, Muhammad Shayboniynon vasfiga o'tiladi. O'n beshinchi bobga kelib «Kitob nazmining sababi» berilgach asosiy qism voqealari hikoya qilinadi.

12.3. Xoja

(1480 – 1547)

Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxoja avliyo Zangi Ota avlodlaridan bo'lib, 1480-yili Ashxobod yaqinidagi qadim Niso shahrida shayxulislom Abdulvahhobxoja oilasida tug'ilgan. Shayxulislom islom dinidagi eng katta mansab, unvondir. Xojaning o'g'li Hasanxoja Nisoriy (1516 – 1597) o'zining «Muzakkiri ahbob» (Do'stlar yodnomasi) asarida ota-bobolari haqida batafsil ma'lumot beradi.

Poshshoxoja dastlab otasi qo'lida, so'ng e'tiborli murabbiylar qo'lida tahsil oladi. Niso, Marv madrasalarida o'qiydi. Tahsilini tugatar-tugatmas temuriylar xizmatiga kiradi. 1496-yili Husayn Boyqaroning o'g'li Muhammad Muhsin mirzo (u Kepak mirzo nomi bilan ham mashhur) hukumatida ishlay boshlaydi. 1507-yili Muhammad Muhsin mirzo Mashhad yaqinida Shayboniynonning jiyani Ubaydullaxon bilan bo'lgan urushda asir tushib, qatl etiladi. Shundan so'ng Xoja ona yurtiga ketib badiiy ijod bilan shug'ullana boshlaydi. Lekin oradan bir yil o'tmay Niso va Obivard shaharlari ham Shayboniynon

qo‘liga o‘tadi va xon Xojani yo‘qlab Nisoga tegishli Durun viloyatiga hokim qilib tayinlaydi. Shu yili Nisoga Muhammad Solih hokim bo‘lib keladi. 1510-yili Shayboniyxon Eron bilan urushda halok bo‘lgach, Xoja dastlab Samarqandga, so‘ng Buxoroga o‘tib yashab qoladi. Shayboniyxonning o‘g‘li Temur sulton hukumatida xizmat qiladi. 1514-yili u halok bo‘lgach, o‘zbeklar hokimiyatining eng yoshi ulug‘i – Abulxayrxonning o‘g‘li Ko‘chkinchixon huzuriga boradi. 1515 – 1516-yillarda Karmana hokimi Jonibek sulton hukumatida mas‘ul vazifalarda ishlaydi.

1529-yili Xojaga alohida hurmat bilan qaragan Ubaydullaxon uni o‘z yoniga chaqiradi va Hirot shayxulislomligi hamda Abdulla Ansoriy (1006 – 1088) maqbarasi shayxligini topshiradi.

1534-yildan Xoja Ubaydullaxonning iltimosi bilan Kistan Xoja qalamravidagi Balx shahrining shayxulislomi vazifasida ishladi. 1540-yillarning boshida hukmdor va Xoja orasidagi munosabat sovuqlashadi. Adib mansabidan iste‘fo beradi va Buxoroga qaytib badiiy ijod bilan shug‘ullanadi, 1547-yili shu yerda vafot etadi. Xoja XII asrda Buxoroda Abduxoliq G‘ijduvoni asos solgan mashhur «xojagon» silsilasining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri hisoblangani uchun Bahovuddin Naqshband qabri yoniga dafn qilinadi.

Adabiy merosi

•«Maqsad ul-atvor» (Maqsad yo‘llari, doston, 1514 – 1520, Jonibek sultonga bag‘ishlangan) Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»sining birinchi dostoni «Maxzan ul-asror»ga nazira shaklida (ergashib) yozilgan.

•«Miftoh ul-adl» (Adolat kaliti, 1507 – 1510, hikoyalar to‘plami, Temur sultonga bag‘ishlangan) 15 bobdan iborat. Unda olimlar (1), sultonlar (2), zolim sultonlar (3), hukm qilmoq (6), da‘vo qilmoq (7), ont ichmoq (8), o‘g‘rilik (9), zino (10), ov qilish (15) kabilar haqida maxsus boblar keltirilgan va har biriga hikoya ilova qilingan.

•«Gulzor» (1538, hikoyalar to‘plami, Kistan Qaro Odilga bag‘ishlangan).

Asardagi ba’zi hikoyatlarning qisqacha syujeti:

○ Kunlardan bir kuni bir odil podshoh vaziriga hajga bormoqchi ekanligini aytadi. Vaziri: «Ey podshohim, taxtni bo'sh qo'yub, Ka'bag'a borsangiz, xalq bebosh bo'lib ketmasmikan?» – deydi. Shunda podshoh haj qilgan hojining savobini sotib olib kelishlarini so'raydi. Podshohning huzuriga 20 marta Ka'bani ziyorat qilgan bir zohidni olib keladilar. Podshoh uning bir martalik hajiga avval ming qizil tanga, keyin o'n ming qizil tanga bermoqchi bo'lsa-da, zohid ko'nmaydi. Shunda podshoh unga nimaning evaziga haj qilganingning savobini berasan deb so'raganida, zohid: «Men senga 20 hajimning savobini beraman, sen esa menga bir soat adolat qilganingning savobini bergin, zero, bir soatlik adolatning savobi odamlar va farishtalarning ibodatidan ortiqroqdir», – deb javob beradi.

Bir talaba Sulton Mahmud G'aznaviyga bir qozi ustidan arz qilib boradi. Talaba tahsil uchun boshqa shaharga ketar ekan, otameros ming tilla pulini hamyonga solib, muhrlab qoziga omonat topshirib ketgan edi. Kelib olib ko'rsa, hammasi mis tanga chiqadi. Hech yeri teshilmagan, muhri joyida. Qozidan so'rasa: «Bilmayman, muhri joyidami, bo'пти-da, nima deysan? Xohlasang, qasam ichaman», – deb javob qiladi. Sulton o'ylanib qoladi va nega ont ichirmading deb so'raydi. Shunda talaba uning ontiga ishonib bo'ladimi, qozining qasami Laylakniki bilan birdek-ku deb javob beradi. Sulton Laylak hikoyatini so'raydi. Talaba so'zlab beradi: bir kuni ilonlar to'planishib: «Kelinglar, bu – qismat. Har daqiqada Laylakdan jon hovuchlab qochib yurganimizdan ko'ra har kuni bittamiz navbat bilan boraylig-u qolganlarimiz xotirjam yashab turaylik», – deb gapni bir joyga qo'yib bir ilonni elchi qilib yuboradilar. Laylak rozi bo'ladi, har kuni bir ilondan ortiq yemaslikka ont ichadi. Biroz vaqt o'tib ilon bolalaydi, laylak esa kichik bir ilonga to'yamaydigan bo'ladi. Laylak uchib boraversa, ilonlar xotirjam suhbatda, yonlariga keladi-yu, ikkitasini tirnog'iga olib jo'naydi. Ilonlar yig'ilib arzga boradilar, ichgan ontini o'rtaga soladilar. U: «Sizlar bilasizlarmi, men kimman?! Men minora ustida yashayman, masjidning tepasidaman, gunohdan qo'rqmayman, shunday odamning onti bo'ladimi?» – deb javob bergan ekan. Xuddi shu kabi xoin, poraxo'r qozining onti bo'ladimi deb hikoyatini tugatadi talaba. Hikoya Sultonga ma'qul keladi. Talabaning mis tanga solingan hamyonini olib qolib, o'ziga javob beradi. Keyin o'ylaydi: «Talabaning so'zi bilan qozini

o‘ldirsam, pul uchun qildi deb malomat etishlari aniq, o‘tim yomonga chiqadi. Yo‘lini topish kerak». Sulton xayoliga birdan shunday fikr keladi: «Hamyon qayta tiktirilib, tillasi almashtirib qo‘yilmaganmikan?» Ertasiga yotgan shohona to‘shagining o‘rtasidan pichoq tortib ovga ketadi. Farrosh yig‘ishtirishga kirsam, to‘shak bir ahvolda. Uni vahima bosadi. Tezlikda shahardagi eng usta tikuvchini qidirib topadilar. Bir-ikki kun o‘tkazib ovdan qaytgan podsho to‘shakning tilingan joyini topa olmaydi. Farroshni tergaydi. Haqiqat ma‘lum bo‘ladi: qoziga hamyonini shu usta tikib bergan ekan. So‘ng sulton pulchilarni qidirib topadi. Ulardan qozi uchun mis tanga yasaganligini aniqlaydi. Nihoyat, sulton qozi bilan talabani huzuriga chaqiradi. Talaba arz qiladi, qozi da‘voni rad etadi. Qozi o‘z gaplarining to‘g‘riligiga ont ichadi. Sulton qozini tikuvchi usta va pulchiga yuzma-yuz qiladi. Qozi dorga osilib, talaba uning o‘rniga qo‘yiladigan bo‘ladi. Biroq talaba sultonning taklifini rad etadi va fikrini dalillash uchun bir qator hikoyalar keltiradi. Ulardan birida aytilishicha, bir kuni amiral mo‘minin hazrati Ali (r.a.)ning yonlariga bir guruh odamlar ekin ekiladigan yerdan shikoyat qilib keladilar. Ayniqsa, bittasi: «Yo Ali, uch yil bo‘ldi hosil ekaman, bu yer hech narsa bermaydi», – deb kuyunadi. Hazrat Ali qog‘oz, qalam keltirishni so‘raydilar va xat yozib dehqonning qo‘liga tutqazadilar hamda hosilsiz yerning o‘rtasiga ko‘mishni buyuradilar. Kelasi yil bu yer shunday hosil beradiki, hamma hang-u mang bo‘lib qoladi. Sekin o‘sha xatni yerning o‘rtasidan qidirib topadilar va o‘qiydilar. Unda shunday yozilgan ekan: «Ey yer! Bu yil ham hosil bermasang, qozining o‘ligini sening bag‘ringga ko‘mdiraman». It har tunda aytar emish: «Alloh taolaga shukrlar bo‘lsinki, meni qozi qilmasdan it qilib yaratgan».

She‘rlaridan namunalari

- *Garchi avval sadr aylab bizni badnom ettilar,
Lutf etib, oxir Hirida shayxulislom ettilar.*
- *Kunduz avqotim sening hajringda nolon kechadur,*

*Kecha ham zulfung kabi holim parishon kechadur.
Anbarin zulfung xayolidin ko 'zumga, ey pari,
Yil-u oy-u soat-u kun bori yakson kechadur.
Ulki, jondin kechadur sham 'i visolingni ko 'rub,
Vah, na xush vaqt-u na xush soat, na oson kechadur.
Ravshan o 'lg 'ay davlati vaslida hijron oqshomi,
Gar gunohimdin bilib ul mohi tobon kechadur.
Xoja yanglig ' nola qil zulfi g 'amidin kechalar
Kim, mahalli nola-vu faryod-u afg 'on kechadur.
(Zahiriddin Muhammad Boburga yuborilgan bu g 'azal shohga ma 'qul kelgan)*

12.4. Boborahim Mashrab

(1653 – 1711)

Boborahim Mullavali o'g'li Mashrab mumtoz adiblarimiz orasida o'zidan keyin alohida va takrorlanmas maktab yaratgan ulug' ijodkorlarimizdan biridir. Sharqda mashrabxonlik xuddi hofizxonlik, fuzuliyxonlik, navoiyxonlik, bedilxonlik singari keng yoyilgan.

Bog'istoniyning «Tazkirayi qalandaron» asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Boborahim Valibobo o'g'li Mashrab 1653-yili Namanganda kosib oilasida tug'ilgan. Mashrabni shu hududda katta ulamo, Haq yo'liga boshlovchi tariqat rahnamosi sanalgan Mullo Bozor oxundga uchrashtiradilar. Mashrab undan ta'lim oladi, tarbiya ko'radi. Mullo Bozor oxund Koshg'arga – Ofoq xoja huzuriga borishi kerakligini aytadi. Islom dunyosining ulug'laridan biri bo'lmish bu zot yangi muridi qalbidagi ilohiy muhabbat nurlarini ilg'ab unga Mashrab (ma'nosi ishq sharobini ichgan) nomini beradi. Mashrab Ofoq xoja huzurida yetti yil tahsilda, xizmatda, riyozatda bo'ldi va Haqqa yaqin avliyo zot bo'lib yetishdi.

Mashrab, ustoz Ofoq xoja bashorat qilganidek, 1711-yili Balx hokimi Mahmud Qatag'on amri bilan Qunduz shahrida qatl etilgan.

Mashrab o'z asarlarini jamlab devon tuzgan emas. She'rlari «Devoni Mashrab» qissalarida, turli bayozlar va to'plamlar tarkibida tarqoq holda bizgacha yetib kelgan. 1958

– 1980-yillar oralig‘ida uning she‘rlari to‘plam holida bir necha marta nashr qilingan. Mashrabning nisbatan mukammal to‘plami Jaloliddin Yusupov tomonidan 1990-yili «Mehribonim, qaydasan» nomi bilan nashrga tayyorlanib chop etildi. To‘plam shoirning g‘azal, mustazod, murabba‘, muxammas, musaddas, musabba‘ janrlarida yozgan she‘rlaridan iborat.

«Mabdayi nur», «Kimyo» kabi badiiy-falsafiy, diniy-axloqiy asarlar ham Mashrab qalamiga mansub deb qaraladi.

She‘rlaridan namunalar

• *Har kishini dardi bo‘lsa, yig‘lasun yor oldida,
Qolmasun armon yurakda, etsun izhor oldida.*

• *Kokulung anbardurur, jon ichida jonon qiz,
Ko‘zlaring axtardurur, yuzi mohi tobon qiz.*

• *Arshning kungurasin ustiga qo‘ydum ayoqim,
Lomakondin joy olibman, bu makonni na qilay?*

• *Onqadar nurga to‘libman, osmonga sig‘madim,
Toqi arsh-u kursi-yu lavh-u jinong‘a sig‘madim.*

• *Ofoqni bir lahza kezdim, na ajabdur,
Mino tog‘idin akkasifat hakkalab o‘ttum.*

• *Murodingga yetay desang qalandar bo‘l, qalandar bo‘l,
Sitam ahlin yutay desang qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.*

• *Ishqing o‘tig‘a kuygoli keldim,
Oydek yuzungni ko‘rgoli keldim.*

• *Ishq mazhabiga taqvi-yu toat chidayolmas,
Tasbih-u sano, zuhd-u ibodat chidayolmas.*

• *Ko 'rdum yuzungni – devona bo 'ldum,
Aql-u hushimdan begona bo 'ldum.*

• *Ey meni nozik nihol oromi jonim, qaydasan?
Bu ko 'ngul bo 'stonida g 'uncha dahonim, qaydasan?*

• *Tushdi savdoyi muhabbat boshima,
Or etar mardum kelurg 'a qoshima.*

• *Setor ila savti navo aylaganing xo 'b,
Xo 'blar ichida masnad-u joh aylaganing xo 'b.*

• *Ko 'rsat jamoling mastonalarg 'a,
Ishqingda kuygan parvonalar 'a.*

Muxammas (Kelmadi)

*Va 'da qildi bir kelay deb, ko 'zga uyqu kelmadi,
Telmurub yo 'lida qoldim sho 'xi badxo ' kelmadi,
Necha keldi shum raqiblar, ul pari ' kelmadi,
Dardidin o 'ldum, tabib, dardimg 'a doru kelmadi,
Men shahidi ishq bo 'ldum, qatrayi suv kelmadi...*

12.5. Turdi Farog 'iy

(taxminan 1640 – 1699/1700)

Turdi Farog'iy o'zbeklarning yuz urug'idan bo'lib, taxminan 1640-yillarda tug'ilib, XVII asrda Buxoro xonligida, ashtarxoniy hukmdorlardan Nodir Muhammad va uning o'g'illari hukmronligi yillarida yashagan. Nodir Muhammad 1640-yili taxtga chiqqan. 1645-yili u Xorazmga qo'shin tortadi. Bundan foydalangan xo'jandlik Boqi Yuz (yuz urug'idan bo'lgani uchun shunday atalgan) degan kishi xonga qarshi isyon ko'taradi. Nodir Muhammad uni bostirish uchun o'g'li Abdulazizni yuboradi. Abdulaziz isyonchilar tomoniga o'tib ketadi. Uni xon qilib ko'taradilar. Nodir Muhammad hajga ketadi. Isyonchilar safida bo'lgan Turdi Abdulazizxonning ishonchli kishilaridan biriga aylanadi. Nodir Muhammadning ikkinchi o'g'li Subhonqulixon Balx hokimi edi va otasidan so'ng Buxoroga qattiq ko'z tikkandi. Aka-uka o'rtasidagi kurash o'ttiz yildan ortiqroq davom etdi. 1680-yili Subhonqulixon Buxoro taxtini akasidan tortib oladi. Abdulazizxonning yaqin kishisi bo'lgan Turdining hayoti Subhonqulixon davrida qiyinchilikda kechadi. U Subxonqulixonni ayovsiz hajv qiluvchi asarlar yaratdi, undan tinmay nolidi. Lekin Subhonqulixon ilm-ma'rifatli inson bo'lib, tibbiyotga oid maxsus kitob yozgan. Turdining she'rlarida uning bu xislatlari tasvirlanmaydi.

1681-yili Samarqand yaqinidagi Miyonkolda Subhonquliga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olonchilar orasida yakdillik bo'lmay, bir qismi xonga taslim bo'ldi. Ikkinchi qismi Xo'jand va O'ratepa hokimi Rahimbiy yuzdan yordam so'rab kurashni davom ettirdi. Madad kelmay, mag'lubiyatga uchradilar. Turdi mana shu ikkinchi qism orasida edi. Umrining so'nggi davrini Xo'jandda Oqbo'tabiy huzurida muhtojlikda o'tkazadi.

Shoir taxminan 1699 – 1700-yillarda vafot etgan.

She'rlaridan namunalalar

- Shoirning 18 tagina she'ri ma'lum bo'lib, ular 5 ta muxammas, 12 ta g'azal va 1 ta farddan iborat. Umumiy hajmi 400 misra atrofida.
- *Turkona xirom ayladi ul sho'xi diloru,*
Dil mulkini bir go'shayi chashm ayladi yag'mo...

*Har qanda g‘ami do‘sti dilporani istar,
To subh yaqo yirtmadi, mehr o‘lmadi paydo (tamsil san‘ati)*

• *Oh, bu umri kiromi sarfi g‘aflat ayladim,
G‘ussayi behuda asbobi nadomat ayladim.*

• *Tor ko‘ngullik beklar, man-man demang, kenglik qiling,
To‘qson ikki bovli o‘zbak yurtidur, tenglik qiling.*

• *Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,
Kelturan amvojj‘a bahri talotum Turdiman (tazod san‘ati)*

• ***Muxammas***

*Charxi dun qildi manga jabr-u jafolar behisob,
Gardishi davron berur har lahza yuz ming pechutob,
Har sori yeldim-yugurdim suv sonib mavji sarob,
Tashnalab, gardi kudurat zeri poyinda xarob,
Bahri davlatdin yiroq, gardan shikasta mo‘ndiman.*

12.6. Gulxaniy

(XVIII asr oxiri – XIX asrning 20-yillari)

Muhammadsharif Gulxaniy XVIII asr oxiri – XIX asrning 20-yillarida Qo‘qonda yashab ijod qilgan. She‘rlarida Jur‘at taxallusini ham qo‘llagan. Bu haqda Fazliy Namangoniy «Majmuayi shoiron» tazkirasida shunday yozadi:

*Bu Jur‘atki, avval edi Gulxaniy,
Erur barcha hazyon demaklik fani.*

Uning o‘zbek va tojik tillaridagi 12 g‘azali, Qo‘qon xoni Amir Umarxonga bag‘ishlangan 1 qasidasi va «Zarbulmasal» asari yetib kelgan.

Gulxaniyning hayoti Qo‘qon va Namanganda kechgan. U tirikchilik vajidan hammomda o‘t yoquvchi ham bo‘lgan, Qo‘qon xoni Amir Olimxon navkarlari safida xizmat ham qilgan (1801 – 1810). Mustaqil mutolaa yo‘li bilan mumtoz adabiyotni o‘qib-o‘rgangan. Olimxon vafotidan keyin taxtga o‘tirgan Amir Umarxon (shoir Amiriy) Gulxaniyini saroy shoirlari davrasiga jalb etgan. U ko‘proq oddiy insonlarga manzur bo‘ladigan she’rlar, hajviy asarlar bitgan.

G‘azallari

- *Yetmadi Majnunga men ko‘rgan balolardan biri,
Hajr vodiysi aro chekkan jafolardan biri.*
- Gulxaniy o‘zbek va tojik tillarida yaratgan «***Barmog‘im***», «***Ey to‘ti***», «***Lola ko‘ksidek bag‘rim...***» singari g‘azallarida lirik qahramonning ruhiy kechinmalari ta’sirli ifoda etilgan. Uning «Bideh» (bergil, ber menga) radifli g‘azalida o‘zining navkarlik davridagi og‘ir hayoti tasvirlanadi.

«Zarbulmasal» haqida

- Gulxaniy asarning kirish qismida uning yozilish sababi ustida to‘xtalib, xon saroyidagi she’riy majlislarning birida masal (maqol, matal, hikmat)larning badiiy ijoddagi o‘rni haqida gap ketganligini qayd etadi. Xonning nazari Gulxaniyga tushib uni qoshiga chaqiradi va: «...bu zarbulmasallarni necha hikoyatlar orasida aql-u donishing yetishicha tartib ver», – deb buyuradi. Gulxaniy darhol javob qaytaradi: «Ey shohi jahonpanoh, tojikning bir masali bordurki, az ko‘za hamon tarovadki, dar o‘st (Ko‘zada bori to‘kiladi)». Alar (ya’ni xon) aydilarki: «O‘zbekning bir maqoli bordurki, eshakiga yarosha tushog‘i». Bu suhbatdan so‘ng Gulxaniy «amirning amrlarini vojib bilib zarbulmasal yo‘lida sobitqadam bo‘ldi va «Yapaloqqush va

Boyqushning qudaliklari orasinda to'rt yuz zarbulmasali avommunos»ni bayon qiladi.

- «Zarbulmasal»da qushlar timsolidan foydalanib insonlar va ular orasidagi murakkab munosabatlar tasvirlangan. Asarda inson ruhiyati tasviri alohida berilmay, qushlarning o'zaro suhbatlari zamiriga singdirilgan. «Zarbulmasal»da uchraydigan badiiy obrazlarni: a) qushlar obrazlari; b) hayvon-hasharot obrazlari; c) odam obrazlari tarzida uchga bo'lish mumkin. Qushlar obrazlari asarning bosh maqsadini ifodalashga yo'naltirilgan bo'lib, qolgan ikki guruhdagi qahramonlar, asosan, ularning o'zaro suhbatlari asnosida namoyon bo'ladi. Yozuvchi qushlar vositasida ularning prototiplari bo'lmish odamlarga xos jihatlarni aks ettirgan bo'lsa-da, ayni vaqtda, har bir qushga xos individual belgilarni berishni ham yoddan chiqarmaydi. Ko'pincha qushlarning otida ularning fe'li aks etadi. Chunonchi, Ko'rqushning ko'rliigi, Boyqushning sovuqnafas va xasisligi, Kordonning korchalonligi, Kuykanakning kichik jussali hamda kuyunchakligi laqab bilan tabiatning mos kelishiga misol bo'la oladi.

- Asarning qisqacha syujeti: Farg'ona iqlimida Kayqubod degan podshohdan qolgan bir vayrona bor edi. Unda yashovchi Boyo'g'lining Gunashbonu ismli qizi bo'ladi. Shu atrofda manzil tutgan Yapaloqqush uni o'g'li Kulonkir sultonga olib bermoqchi bo'lib Ko'rqushni sovchilikka yuboradi. Ko'rqush yo'lda Hudhudga duch kelib o'zaro munozara qiladi. Keyin Kulonkir sulton bilan gaplashib oladi. Boyo'g'linikiga kelsa, u qarindoshlari bilan kengashib, so'ng javob bermoqchi bo'ladi. Buni yaxshilikka yo'ygan Yapaloqqush do'sti Sho'ranul degan qarg'a orqali qushlar shohi Malikshohindan suyunchi oladi. Malikshohin o'zining pahlavoni bo'lmish Kulonkir sultonning to'yini o'tkazib bermoqchi bo'lib xazinachisi Kordonni to'y xarajatlarni aniqlash uchun Boyo'g'linikiga yuboradi. Boyo'g'li qizining qaliniga mingta vayrona so'raydi. Kordon Umarxon davrida mamlakat obod bo'lib, vayronalar kamaygani, shuning uchun uning sonini olti yuztaga tushirishini so'raydi. Uni eshitgan Ko'rqush oting Kordon – ishbilarmon bo'lsa ham, qo'lingdan hech ish kelmas ekan deb o'zi Boyo'g'lining yoniga kelib Qo'qondan topilmasa ham, mingta vayronani Buxoro muzofotidan topib berishga va'da beradi. Shundan keyin

dabdabali to‘y qilinib, kelin-kuyov murod-maqsadlariga yetadilar. Xulosa: Gulxaniy qushlar misolida o‘z davri voqeligini tasvirleydi.

- «Zarbulmasal» asarida 400 ga yaqin maqol, matal, naql va 15 dan ortiq katta-kichik hikoya va masallar mavjud. Muallif hind eposi «Kalila va Dimna», A.Jomiyning «Silsilat uz-zahab» asarlari, shuningdek, Sa‘diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, So‘fi Olloyorlarning hikmatlaridan foydalangan.

Asardagi hikoyatlar

- **«Kabutar bilan zog‘»**

Bir tabib bog‘da daraxt shoxida urushishga shaylangan kabutar va zog‘ – qarg‘ani ko‘radi. Shunda ikki qush suv ichmoqchi bo‘lganda rustoiy uni otib o‘z qushiga yem qiladi, kabutar qochib qutuladi. Xulosa: agar zog‘ o‘z jinsidagilar bilan o‘z makonida yurganda edi, qushga yem bo‘lmas edi.

- **«Toshbaqa bilan chayon»**

Chayon (kajdum) va toshbaqa (sangpusht) Iroqdan Hizojga ketishda do‘st bo‘ladilar. Yo‘lda uchragan daryodan o‘tishda toshbaqaning yelkasiga chiqib olgan chayon do‘stiga nish sanchadi va toshbaqa bir suvga sho‘ng‘ib chayonni g‘arq qiladi. Xulosa: do‘st tanlashda yanglishmaslik zarur.

- **«Dumsiz eshak»**

Dumi yo‘q eshak dum izlab ekinzorga borib qolganda, dehqon uning ikki qulog‘ini ham kesib tashlaydi. Xulosa: shukr qilmagan boridan ham ayriladi.

- **«Yolg‘onchi tuya»**

Qishda loyga yiqilgan tuya yo‘lda tulkini uchratib qoladi va unga: «Hammomdan kelyapman», – deydi. Tulki kulib: «Hammayog‘ing toza-yu, lekin hammomchi o‘lgan ekanmi?» – deydi. Xulosa: yolg‘onchilik kishini sharmanda qiladi.

- **«Yodgor po‘stindo‘z»**

Yodgor po‘stindo‘z o‘zini maqtab doim lof uradi, o‘zining 15 yoshida Nuh payg‘ambarga, 20 yoshida Ibrohim payg‘ambarga, 25 yoshida Ahmad Yassaviyga aloqador bo‘lganini aytaveradi, qilgan ishi esa firib: tikkan po‘stini chokidan barmoq o‘tadi, Yodgor po‘stindo‘z esa musht o‘tmasa xo‘p tikish deb o‘zinikini ma‘qullab

yuraveradi. Xulosa: hayotda shunday odamlar borki, ularning ishi va soʻzi umuman mos kelmaydi.

12.7. Amiriy

(1787 – 1822)

«Qoʻqon adabiy muhiti» asoschisi, Qoʻqon xoni (1810 – 1822) Umarbek 1787-yili ming urugʻi vakili Norboʻtabiy xonadonida tugʻildi. Umarbek Muhammad Yoqub qoʻlida tahsil oldi. Qoʻqon xoni – akasi Olimxon Umarbekni 1807-yili Fargʻona hokimi qilib tayinlaydi. Shu yillari u Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim – Nodiraga uylanadi.

1810-yili Toshkent hokimligiga yurish qilgan Olimxon («Zolim xon») oʻldiriladi va taxtga Umarxon chiqadi. Umarxon Amiriy taxallusi bilan sheʼrlar yozgan. Uning davrida Uvaysiy, Nodira, Dilshod Barno singari ayol shoirlar, Akmal, Gulxaniy, Maxmur, Fazliy, Mushrif, Mirzo Qalandar, Mulla Abdukarim, Xon va boshqa koʻplab shoirlar ijodi ravnaq topdi. «Majmuat ush-shuaro» tazkirasi Amiriy homiyligida dunyoga keldi. Amiriy Alisher Navoiydan kuchli taʼsirlangan, uning yigirma besh gʻazaliga taxmis bogʻlagan.

Umarxonning oʻgʻli Madalixon Xon taxallusi bilan sheʼr yozgan. Amiriy bilan ijodiy hamkorligi haqida Nodira devon debochasida yozadi: «... goho ul hazrat baʼzi toza mazmunlardan bir misra bilan savol tariqasida soʻrar erdilar, ...misra bilan javob aytur erdim va tabiatlarini xush qilur erdim. Biri buldurkim, bir kun savol qildilarkim. Misra: «Nega arbobi xirad ahli junundin ori bor?» Javob aytdimki, misra: «Kim bular uryon (uryon – yalangʻoch)larning jubba-u dastori (jubba-u dastor – hashamatli) bor».

Shoir Amiriy 1822-yili 35 yoshida vafot etgan.

Ijodiy faoliyati

• *Qoshinggʻa teguzmagil qalamni,*

Bu xat bila buzmagil raqamni.

• *Lab uyur takallumga, zulfingni parishon qil,*

Qand qiymatin sindur, narxi anbar arzon qil.

• *Tabibo, shard o'ynab icharga bermog'in yandim,
Labidin talx-u shirin so'z erur doruyi gulqandim.*

• *Nega muncha siyohdur kokul,
Magaram dudi ohdur kokul.*

• *Junun daryosi tug'yon aylamakni mendin o'rgandi,
Talotum birla to'fon aylamakni mendin o'rgandi.*

• *Tushti tori zulfi yuzdin ko'nglum ichra pechtob,
Aylamish ko'ksun aro siymob yanglig' iztirob.*

• *Ul yor jafosi meni bezobita etti,
Ag'yora vafosi meni bezobita etti.*

• *Ne ko'zlardurki, toroj etmaka xunxorlardurlar,
Asir etmak uchun ishq ahlig'a makkorlardurlar.*

• *Sabo, lutf et, mengo ul yor payg'omin ravon keltur,
Visoli mujdasidin notavon jismimg'a jon keltur.*

• *Ko'ngul la'li tamannosi bila qon o'ldi o'xshaydur,
Ko'zim oyinadek husnungga hayron o'ldi o'xshaydur.*

• *Qizartib chehra maydin oshiqi zoringni kuydurma,
Yuzingga bodadin o't solma, gul uzoringni kuydurma.*

• *Ishq asrorini pinhon aylaram ag‘yor aro,
Bir musulmondirki, dinin yoshurur kuffor aro.*

• *Ey pari, may birla yuzni arg‘uvon qilmoq nadur?
Oshiqi bechorani bag‘rini qon qilmoq nadur?*

12.8. Nodira

(1792 – 1842)

Mohlaroyim (taxallusi Nodira, Komila, forsiy she‘rlarida Maknuna) 1792-yili Andijonda tavallud topgan. Andijon hokimi Rahmonqul otaliqning qizi. Nodiraning otanasi buyuk sohibqiron Amir Temur xonadoniga mansub edi.

Nodiraning onasi – Oyshabegim ma‘rifatli ayol bo‘lgan.

Rahmonqul otaliq Qo‘qon xoni Olimxonning tog‘asi edi. 1807-yili Olimxon ukasi Umarxonni tog‘asining qizi Mohlaroyimga uylantirdi. Umarxon Marg‘ilon begi lavozimiga tayinlanganidan keyin oilasini shu shaharga olib ketdi. 1810-yili esa Umarbekning akasi, Qo‘qonda xon bo‘lib turgan Olimxon o‘ldiriladi va Umarbek akasining o‘rniga xon qilib ko‘tariladi. Muhammad Alixon va Sulton Mahmud ismli farzandlar ko‘radilar.

Shoira yashagan zamonda Qo‘qon adabiy muhiti gullab-yashnagandi. Umarxon uning umr yo‘ldoshi, mamlakat rahbarigina emas, ustoz shoir ham edi. U Amiriy taxallusi bilan she‘rlar ijod qilar, shoir sifatida mashhur edi. Umarxon 1822-yili vafot etadi.

1842-yili Buxoro amiri Nasrulloxon lashkar tortib kelib Qo‘qonni bosib oldi. Uning buyrug‘i bilan Nodira, o‘g‘illari Muhammadalixon, Sulton Mahmudxon va nevaralari ham vahshiyona qatl etildi.

Lirik merosi

- Nodiradan xalqimizga ikki devon qoldi. Nisbatan to‘la deb hisoblanadigan turkiy devonida 189 g‘azal mavjud. Ulardan ayrimlari tojikcha. Forsiy she‘rlari «Devoni Maknuna»da jamlangan.

- *Marhabo, ey payki sulton, marhabo,
Hudhudi mulki Sulaymon, marhabo.*
- *Ey xusho, shisha aro obi hayoti hukamo
Kim, ani har kishi no 'sh etsa bo 'lur Xizrnamo.*
- *Hajrdin maxmurmen, soqiy, labo-lab jom tut,
Men kabi har kimki bo 'lsa rindi durdoshom tut.*
- *Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,
Seli g'amdin bu imorat bo 'ldi vayron oqibat.*
- *Nigori gulbadanimni tushimda ko 'rsam edim,
Labi shakkarshikanimni tushimda ko 'rsam edim.*
- *Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.*
- *Qilmag'il, zinhor izhor ehtiyoj
Kim, aziz elni qilur xor ehtiyoj.*
- *Yorning vasli emas ozorsiz,
Gulshan ichra gul topilmas xorsiz.*
- *Jonimg'a jafolar bila jonona qilur bahs,
Har lahza ko 'zimni yoshi to 'fona qilur bahs.*
- *Tahammul haddidin oshti, emdi afg'on etmasam bo 'lmas,
Ulusni xotiri jamin parishon etmasam bo 'lmas.*

• *Yor manga g‘ayri jafo aylamas,
Va‘da qilib anga vafo aylamas.*

• *Fuqaro holig‘a gar boqmasa har shoh, anga
Hashmat-u saltanat-u rif‘at-u shon, barcha abas.*

• *Siyodat xonadoni, shohi Bobur nasli pokimen,
Xudoyo, rahmat ayla barcha ajdodi izomimni.*

• **«Firoqnoma» muashsharidan**

• *Ohkim, behad menga javr-u jafo aylar falak,
Furqat ichra qismatim dard-u balo aylar falak,
Yordin ayru mango ko‘p mojaro aylar falak,
G‘am ila guldek yuzimni kahrabo aylar falak,
Bevafodur oqibat, kimga vafo aylar falak,
Hasrat-u dard-u alamga muhtalo aylar falak,
Yorni, albatta, yoridin judo aylar falak,
Gul bila bulbulni be barg-u navo aylar falak,
Hech kim, yo rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.*

• **Tarji‘banddan**

- *Xating ishtiyoqin savod ayladim,
Ko‘zumning qorasin midod ayladim.
Meni, baski, devona qildi g‘aming,
Junun ahlig‘a ittihad ayladim.
Ko‘rub tushda yuzingni beixtiyor
Fig‘on chektim andog‘ki, dod ayladim.*

*Rafiqim jigar xasta afgorlar,
Alar birla ahdi vidod ayladim.
Seni jud-u ehsona targ'ib etib,
Xitobingni xayruljavod ayladim.
Murodimni sendin toparmammu deb
Xaloyiqqa sa'yi murod ayladim.
Visolingdin, ey jon, topolmay so'rog'
Nelar tushti boshimga sendin yirog'?*

12.9. Jahon Otin Uvaysiy

(XVIII asrning 80-yillari – XIX asr o'rtalari)

Jahon Otin 1789 – 1790-yillarda Marg'ilonida ziyoli oilada tug'ildi. Otasi Siddiq kosiblik bilan shug'ullansa-da, «Hofiz bobo» nomi bilan tanilgan bo'lib, o'zbekcha va tojikcha she'rlar bitardi. Onasi Chinnibibi maktabdor bo'lib, qizlarga dars berardi. Akasi Oxunjon hofiz xonanda va sozanda bo'lgan.

Jahon Otin o'n yetti yoshida marg'ilonlik Hojixon ismli bir kishiga turmushga uzatildi. Muhammadxon ismli farzand ko'rdilar. Jahon otinning «Uvaysiy» taxallusi bilan bitilgan she'rlari mashhur bo'lib, Marg'ilon hokimi bo'lib turgan Umarbekning umr yo'ldoshi shoir Nodirabegimga ham yetib bordi. Ikki oila bir-biri bilan yaqinlashib, Oxunjon hofiz saroy sozandasi qilib olindi. Hojixonga esa hokimlikdagi martabalardan biri in'om qilindi. Biroq Hojixon erta vafot etdi. Jahon Otin yakka-yolg'iz o'g'li-yu homilasi bilan qoldi. Qizi Quyoshxon tug'ilganda, Umarxon Qo'qon xoni, Nodirabegim malikayi davron edi.

Nodirabegim Uvaysiy oilasini Qo'qonga ko'chirtirib keladi va ularning do'stona munosabatlari 1842-yil fojiasiga qadar davom etadi. Uvaysiy o'z faoliyati davomida ko'plab shogirdlar etishtirib chiqargan.

1822-yili Amir Umarxon vafot etib, o'rniga o'g'li Muhammad Alixon o'tirgach, Uvaysiy xonadoniga notinchlik kirib keladi. Xon shoiraning o'g'li, 14 – 15 yoshli Muhammadxonning «Majnun» taxallusi bilan she'rlar bitishidan xabar topib saroy xizmatiga mahram qilib oladi. Shu orada Uvaysiy bilan Muhammad Alixon orasida gap

qochadi va xon shoiraaning o'g'lini sarboz sifatida Qashqarga harbiy yurishga jo'natib yuboradi. Uvaysiyga o'g'lini qayta ko'rish nasib etmaydi. Bu narsa shoiraga qattiq ta'sir qildi. Uvaysiy Nodirabegimdan ijozat olib Marg'ilonga qaytdi. Onasining tarbiyasini olgan Quyoshxon «Xokiy» taxallusi bilan ajoyib she'rlar bitadi. Uni marg'ilonlik Abdusamad qori degan yigitga uzatadilar. U Quyoshxonning she'r va musiqaga bo'lgan har qanday qiziqishini taqiqlab qo'yadi. Har bir xatti-harakatini ta'qib va tazyiq ostiga oladi. Bularga chidolmagan Quyoshxon 1839-yili o'ttiz yoshida vafot etadi. Uvaysiy qizidan bir yoshda qolgan nabirasi Bibi Xadichani tarbiya qila boshlaydi. Biroq bu tarbiya 1850-yili shoiraaning vafoti bilan uzilib qoladi. Bibi Xadicha ham «Azmiy» taxallusi bilan she'rlar yozgan. U Andijonning Mingtepasidan bo'lgan Abduqodir degan kishiga uzatilgandi. Uning qizi Xoljonbibi ham «Mag'ziy» taxallusi bilan tanilgan shoira edi. Uvaysiy merosi bizga, asosan, mana shu Xoljonbibi orqali yetib kelgan.

XX asrning 60-yillarida olimlarimiz Andijon viloyatining Marhamat tumanida Uvaysiy avlodlari yashayotganini aniqlab, shoiraaning chevarasi Xoljonbibi bilan uchrashishga va anchagina ma'lumotlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar. Uvaysiyning she'riy devoni topilib, 1983-yili «Ko'ngil gulzori» nomi bilan nashr etilgan.

- *G'azallaridan namunalar*

- *Mehnat-u alamlarga muhtalo Uvaysiyman,
Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiyman.*

- *Bukun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim,
Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim.*

- *Oh, gulruksora jonon, xordurman ishqida,
Dil aro qon, siynasi afgordurman ishqida.*

- *Qading nozuk, qoshing nozuk, ko'zung nozuk, labing nozuk,
Tiling nozuk, so'zung nozuk, tishing durri Adan, nozuk.*

• *Dedi bir kun menga ul mahvashim: «Ey sho ‘xi beparvo!»*
Men aydim: «Sen dema, men deyki: solding boshima savdo!»

• *Ato qildi xudo menga seningdek dilbari barno,*
Visoling qatrayedur, mavj urar hajring bo ‘lub daryo!

• ***Chistonlar***

• *Ul na gumbazdir, eshigi, tuynugidin yo ‘q nishon,*
Necha gulgunpo ‘sh qizlar manzil aylabdur makon.
Sindurub gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlarig ‘a parda tortig ‘liq turarlar bag ‘ri qon.

• *Ul nadurkim, sabzto ‘nlik, yoz yog ‘ochning boshida,*
Qish yalang ‘och aylagay barcha xaloyiq qoshida.
Barcha qushlarning so ‘ngoki ichida,
Ul na qushdurkim, so ‘ngoki toshida.

• *Ikki mahbubni ko ‘rdum, bir-birisin ko ‘rmagan,*
Ikkisining o ‘rtasiga, do ‘stlar, qil sig ‘magan.

• ***Dostonlari***

• *«Voqeoti Muhammad Alixon»* – Muhammad Alixonning Qashqar safariga bag ‘ishlangan bo ‘lib, tugallanmay qolgan. Asarda xonning tug ‘ilishi, taxtga chiqishi va safarga otlanishi voqealari berilib, voqealar xonning Marg ‘ilonda onasi bilan xayrlashib yo ‘lga tushishi bilan uziladi.

• *«Shahzoda Hasan haqida doston», «Shahzoda Husayn haqida doston»* – islom olamining mashhur shaxslaridan hazrat Alining o ‘g ‘illari Imom Hasan va Imom Husayn

voqealariga bag'ishlangan – Imom Hasanning Muoviya bilan bo'lgan janglari va xiyonatkorona o'ldirilishi tasvirlangan. Shahzoda Husayn voqealari esa Karbalo dashtida yuz bergan edi. Imom Husayn va uning farzandlari Yazid bilan bo'lgan tengsiz jangda shahid ketadilar. Shundan buyon Dashti Karbalo Sharq she'riyatida shahidlar qoni to'kilgan mo'tabar bir joy sifatida ramziy ma'no kasb etib keladi.

12.10. Shermuhammad Munis

(1778 – 1829)

Shermuhammad Munis 1778-yili Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Avazbiy mirob oilasida tug'ildi. Otasi – yuz urug'idan chiqqan Avazbiy xonlikning bosh mirobi edi. Shermuhammad boshlang'ich ta'limni qishlog'idagi maktabda oldi. So'ng Xiva madrasalarida tahsil ko'rdi. 1800-yili otasi, sal o'tib onasi, so'ng inisi vafot etadi.

Xiva taxti egasi, Avazbiy mirobning adashi Avazbiy inoq otasi vafot etgan yosh Shermuhammadni farmonnavislik vazifasiga tayinladi. 1804-yili xon Avazbiy vafot etgach, uning farzandlari o'rtasida taxt uchun kurash avj oldi. 1804 – 1806-yillarda Eltuzar Xiva taxtida o'tirdi, 1806-yildan 1825-yilgacha Muhammad Rahimxon I mamlakatni boshqardi. Muhammad Rahimxon taxtni egallagach Munisga bosh miroblik lavozimini berdi.

Munis 1829-yili xonning Xurosondagi harbiy yurishlaridan biridan qaytayotganda vabo kasaliga yo'liqib vafot etdi. Shoirning jasadi Qiyot qabristoniga, otasining yoniga qo'yilgan.

- **Asarlari**

- «Savodi ta'lim» (pedagogik risola)
- «Firdavs ul-iqbol» (tarixiy asar)
- «Ravzat us-safo» (Mirxonddan tarjima)

- **Lirikasidan namunalar**

• *Gahi telbalar birla gulxan aro*
Surub durdkashlikda yuz mojaro.
Gahi rindlar bazmig‘a yo‘l topib,
Hamonoki maqsudg‘a qo‘l topib.
Gahi maktab ichra kirib shodkom,
Gahi madrasa sori aylab xirom.
Qayu yerda ahbob bazm aylasa,
Tarab irtikobiga azm aylasa,
O‘zimni alar ichra solur erdim,
Ko‘ngul qong‘uncha bahra olur erdim...
(«Munis ul-ushshoq» (Oshiqlarning do‘sti) devonida)

• *Nasib g‘am uza bo‘ldi charxi gardondin,*
Musibat uza musibat yetushti davrondin.

• *Davlatning borida bordur ahli olam oshno,*
Qaytgach davlat, jahonda topilur kam oshno.

• *Do‘stlar, mensiz dame ohangi ishrat qilmangiz,*
Siz ichib sahbo meni xunxori hasrat qilmangiz.

• *Base g‘am boridin chekmish og‘irni,*
Yog‘ir bo‘lmish hazin ko‘nglim yog‘irni.

• *Qaysi gulning men kibi bir andalibi zori bor?*
Qaysi bulbulning seningdek bir guli bexori bor?

• *Istading, ey dil, ko‘zin, joning kerakmasmu sanga?*
Kufri zulfin sevding, imoning kerakmasmu sanga?

• *Uzoringda nure ayondur, ayon*

Ki, andin kun-u oy nishondur, nishon.

12.11. Muhammad Rizo Ogahiy

(1809 – 1874)

Muhammad Rizo 1809-yil 17-dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida tug‘ildi. Otasi Erniyozbek dehqonchilik, bog‘dorchilik bilan shug‘ullangan. Erniyozbekning akasi esa mashhur shoir va davlat arbobi Shermuhammad Munis edi. Qiyotda savodini chiqargach Xiva madrasalarida o‘qidi. Otasi vafot etgach, ro‘zg‘or tashvishlari yosh Muhammad Rizo zimmasiga tushadi.

1829-yili shoir va tarixchi, xonlikning bosh mirobi Shermuhammad Munis Xiva xoni Olloqulixon yonida Xuroson harbiy safarida edi. Safar davomida vabo kasaliga uchraydi va to‘satdan vafot etadi. Xon yigirma yashar Muhammad Rizoni amakisi o‘rniga mirob qilib tayinlaydi. Miroblik katta va mas‘uliyatli vazifa edi. Xonlikdagi barcha suv ishlarini boshqarish uning zimmasida bo‘lgan. Faqat miroblik emas, sekin-asta Munisning muarrix-tarixchilik vazifasi ham Ogahiy zimmasiga tushdi. U saroy muarrixi bo‘lib qoldi. 1845-yildan Ogahiy boshiga ketma-ket tashvish tushadi. Bir tasodif bilan otdan yiqilib oyog‘i sinadi. Singan oyoq ishdan chiqib, qirqqa kirmay shoir to‘shakka mixlanib qoladi. Buning ustiga, xotini vafot etadi. 1857-yili esa miroblikdan iste‘fo berishga majbur bo‘ladi.

Ogahiy 1874-yili vafot etdi.

- ***Lirik merosi***

- «Bayozi mutafarriqayi forsiy» (Forscha she‘rlar to‘plami)da Sharq mumtoz shoirlarning she‘rlari jamlangan bo‘lib, Ogahiy she‘rlari soni yigirmataga ham yetmaydi.

- «Ta‘viz ul-oshiqin» (Oshiqlar tumori) Muhammad Rahimxon Feruzning taklif va talabi bilan tuzilgan. 1882-, 1905-yillarda Xiva bosmaxonasida ikki marta ko‘p nusxada nashr qilindi. To‘plamda 450 ga yaqin g‘azal hamda qasida, musaddas, murabba‘, musamman, masnaviy, tarji‘band, qit‘a, ruboiy, tuyuq kabi yigirmadan ortiq janrdagi

salkam yigirma ming misrali lirik merosi jamlangan. Ularning 1300 misradan ortig‘i fors tilida bitilgan.

- ***G‘azallaridan namunalar***

- *Mushkin qoshining hay‘ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun nas keltirur «nun» eltibon «sod» ustina.*

- *Boshdin ayoqing jon erur, jonlar sanga qurbon erur,
Jono, ayoq-u boshinga olam gado, man ham gado.*

- *Vahki, aylab lutf-u ehson yor mandin o‘zgaga,
Aylamas zulm-u sitam izhor mandin o‘zgaga.*

- *Ashkima gar kanora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay,
Ohima ham shumora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay?*

- *Davrondan agar, ey dil, yetsa sanga bir rohat,
Chekmakka muhayyo bo‘l yuz kulfat-u ming mehnat.*

- *Bo‘lsa har odam qanoat nuridin ravshanzamir,
Uldurur izzat sipehri avjida mehri munir.*

- *Ey ko‘ngul, odam xayol aylab dema nodonga so‘z,
Chunki ul inson emas, topsang degil insonga so‘z.*

- *O‘yla yetkurdi jahonga ziynat-u oro bahor
Kim, bori yer yuzin etti jannat ul-ma‘vo bahor.*

- *Iloho, har kuning navro‘z bo‘lsun!*

Hamisha toleying feruz bo 'lsun!

• *Dahr bir mayxonadurkim, kulfat oning jomidur,
Ko 'z yoshi birla ko 'ngul qoni mayi gulfomidur.*

• *Xarob o 'lsun, iloho, gunbazi davvor charxi dun
Ki, doim davri kajdur, tavri shum-u hay 'ati vojun.*

• *Mulk-u millatga amin o 'lsa agar ogohlar,
Ikki olam obro 'yin hosil etkay shohlar.*

• *Bizki bugun jahon aro kishvari faqr shohimiz,
Boshimiz uzra ohimiz shu 'lasidir kulohimiz.*

• *Dardi dilim ango dedim, dema ani mango dedi,
Kim manga oshiq o 'lsa, ul lozim erur ango dedi.*

• *Ey sho 'x, ko 'z-u qoshinga olam gado, men ham gado,
La 'li labi durposhinga olam gado, men ham gado.*

• *Qilib ba 'zi lutf-u karam oshkor,
Vale ba 'zi zulm-u sitam ixtiyor.
Bugun, podshoho, senga saltanat
Beribdur xudo ko 'rguzub marhamat.
Agar-chi bu ish bas og 'ir yukdurur,
G 'am-u mehnati necha turlukdurur.
(«Ogohnoma» qasidasidan)*

Ogahiy tarjimalari

- Kaykovus ibn Vushmagir: «Qobusnoma»
- Sa'diy Sheroziy: «Guliston»
- Nizomiy Ganjaviy: «Haft paykar» (Yetti go'zal)
- Amir Xusrav Dehlaviy: «Hasht behisht» (Sakkiz jannat)
- Badriddin Hiloliy: «Shoh va gado»
- Husayn Voiz Koshifiy: «Axloqi muhsiniy» (Yaxshi xulqlar)
- Jomiy: «Salomon va Ibsol», «Bahoriston», «Yusuf va Zulayxo»
- «Zafarnoma», «Tabaqoti Akbarshohiy»
- «Zubdat ul-hikoyot» (Hikoyalar qaymog'i)
- Zayniddin Vosifiy: «Badoye' ul-vaqoye» (Go'zal voqealar)

- ***Ogahiyning tarixiy asarlari***

- «Riyozi ud-davla» (Jannat bog'lari) 1844-yili yozilgan. Xiva xonligida 1825 – 1843-yillarda Olloqulixon zamonasida yuz bergan tarixiy voqealar yoritilgan.

- «Zubdat ut-tavorix» (Tarixlar qaymog'i) 1845 – 1846-yillarda yozilgan bo'lib, 1843 – 1846-yillarda hukmronlik qilgan Rahimqulixon davri voqealarini aks ettiradi.

- «Jome ul-voqeoti sultoniy» (Sultonlarga doir voqealar to'plami) 1856 – 1857-yillarda yozilgan. 1846 – 1855-yillarda hukmronlik qilgan xonlar: Muhammad Aminxon, Abdullaxon, Qutlug'murod davri voqealarini tasvirlaydi.

- «Gulshani davlat» 1856 – 1865-yillarda saltanat surgan Sayyid Muhammad Bahodirxon davri voqealariga bag'ishlangan.

- «Shohidi iqbol» «Feruz» taxallusi bilan she'rlar yozgan mashhur Muhammad Rahimxon Soniy (II)ning taxtga chiqishidan 1872-yilgacha bo'lgan davr yoritilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. *Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodiy faoliyati haqida nimalarni bilasiz?*
2. *Muhammad Solihning «Shayboniyнома» dostonida temuriy hukmdorlar va Shayboniyxon shaxsiyati qanday tasvirlangan?*

3. *Xojaning hikoyat janri taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida so‘zlab bering.*
4. *Qo‘qon xonligidagi shoirlar faoliyatiga to‘xtaling.*
5. *Buxoro adabiy muhiti vakillari bo‘lgan shoirlar haqida nimalarni bilasiz?*
6. *Munisning adabiy merosi haqida ma‘lumot bering.*
7. *Ogahiyning tarixiy va tarjima asarlari haqida gapirib bering.*
8. *Ogahiy va Munis devonlarining qanday xususiyatlari mavjud?*

13. MA’RIFATCHILIK DAVRI ADABIYOTI

13.1. Muhammadniyoz Komil

(1825 – 1899)

Muhammadniyoz Komil 1825-yili Xiva shahrida tug‘ildi. Otasi Abdulla oxund madrasa mudarrisi bo‘lib, Muhammadniyoz (xorazmcha aytilishi Matniyoz)ni avliyo shoir Pahlavon Mahmudga hurmati tufayli «Pahlavon» deb atashardi.

Komil boshlang‘ich maktabni bitirgach madrasada tahsil ko‘radi. U yerda shar‘iy ilmlarni, arab va fors tillarini chuqur o‘rganadi hamda bu tillardagi adabiyot namunalari bilan tanishadi. Uning fors tilida ham talay she‘rlar yozganligi ma‘lum.

Otasining to‘satdan vafot etib qolishi sababli Muhammadniyoz madrasadagi saboqlarni to‘xtatib, bobosi savdogar Xo‘jash Mahram xizmatiga kiradi. Oilaning tirikchiligini ma‘lum darajada yaxshilab olgach madrasa ta‘limini davom ettiradi.

1856-yili taxtga o‘tirgan Said Muhammad Rahimxon iste‘dodli kishilarni o‘z atrofiga to‘play boshladi. Shular qatorida Muhammadniyoz Komil ham saroyga taklif etilib, xattotlikka tayinlandi. Salkam o‘n yil mobaynida xattotlik qilgan shoir 1865-yili mamlakat tepasiga Muhammad Rahimxon II kelgach, mirzaboshilik lavozimiga ko‘tariladi.

1873-yil ko‘klamida chor qo‘shinlari bilan bo‘lgan janglarda mag‘lub etilgan Xiva xonligi Rossiya imperatorining vassaliga aylandi. 1873-yilning 29-mayida poytaxt Xiva bosqinchilar tomonidan ishg‘ol qilingach, harbiy qarshilikni davom ettirish befovdaligini anglagan siyosatchilardan biri Komil edi.

1873-yil 12-avgust kuni xonning ruslar qarorgohiga aylantirilgan Gandimiyon degan bog‘ida «Tinchlik shartnomasi» deyiluvchi sulh tuzildi. Shartnoma matni Komilning o‘z

qo‘li bilan yoziladi. Tarixda bu hodisa «Gandimiyon sulhi» degan nom bilan qolgan. Komilni xon devonbegi qilib tayinlaydi.

Komil Xorazmda ham fan-texnika yutuqlarini joriy qilishga urindi – 1874-yili Muhammad Rahimxon II (Feruz) rahnamoligida Xivaga kitob bosishga kerakli uskunalarni keltirib, poytaxtda toshbosma usulda kitob chop etishni yo‘lga qo‘ydirdi. Ayni vaqtda, ajdodlarning xattotlik san’ati ham rivojlantirildi. Komil yetakchiligida alohida xattotlik maktabi vujudga keldi. 1880-yili Komil devonbegi mansabidan tushirilib, mirzaboshi qilib tayinlandi.

Komil Peterburg va Moskvaga bir necha marta safar qiladi. U 1883-yili Muhammad Rahimxon II bilan hamrohlikda birinchi marta Moskva va Peterburgga boradi. Komil Peterburg va Moskvadan kuylarning notaga qarab chalinishini ko‘radi, Xivaga qaytgach «Xorazm notasi» yoki «Tanbur notasi» deb ataluvchi o‘z nota tizimini yaratadi. Tanburda chalingan ma’lum bir o‘zbekcha kuy shu nota asosida qog‘ozga ko‘chirilardi. Komilning o‘g‘li Muhammad Rasul keyinchalik bu notani yanada takomillashtirib Xiva «Shashmaqom»ini notaga to‘liq ko‘chiradi. Komil 1891- va 1896 – 1897-yillarda Toshkentda ham bo‘lgan. Shoir yangicha turmush ta’siriga ko‘proq berilgan Toshkentdagi hayot haqida qiziqish bilan yozadi. Bu davrda ancha keksayib qolgan Komilning sog‘lig‘i ancha yomonlashadi va 1899-yili dunyodan o‘tadi.

She’rlaridan namunalar

G‘azallar

- *Ne sud ochilsa gul, o‘lsa bahor g‘urbat aro,
Mengaki bo‘lmasa yor-u diyor g‘urbat aro.*
- *Emas kishig‘a bu dunyoda mulk-u mol kamol,
Husuli ilm-u hunar keldi bezavol kamol.*
- *Har necha aylabon izhor fasohat shuaro,
Sochar elga duri rayoyi balog‘ati shuaro.*
- *Yutubon bu zamonda qon fuzalo,*

Kulfat o'qig'adur nishon fuzalo.

- *Yuz-u xoling g'amidin gar emasdur notavon lola,
Nedin bo'lmish hamisha siyna dog'-u bag'ri qon lola.*
- *Ko'rmamish sandek jahonda hech bir gulzor, gul
Kim, sanga bordur badan gul, jabha gul, ruxsor gul.*
- *Manzilim chun bo'ldi ushbu yil diyori Toshkand,
Jon-u ko'nglim doim istar xor-xori Toshkand.*

13.2. Avaz O'tar

(1884 – 1919)

Avaz O'tar o'g'li 1884-yil 25-avgustda Xiva shahrida hunarmand oilasida tug'ilgan. Otasi Polvonniyoz O'tar Gadoyniyoz o'g'li sartarosh edi. Otasi Avazni sakkiz yoshida maktabga beradi. Avaz maktabdan keyingi tahsilni madrasada davom ettiradi. U Xo'ja Hofiz, Nizomiy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy ijodini qiziqib o'rganadi. Munis, Ogahiy, Komil, Feruz kabi shoirlar bilan muloqotda bo'ladi.

Avaz O'tar o'n to'rt yoshlaridayoq she'r yozishga kirishgan, o'n sakkiz yoshlarida yetuk shoir nomini olgan. U haqdagi xabarlar xon saroyigacha yetib boradi. Uni saroyga taklif etadilar. Shoir bir qancha vaqt Xiva xoni saroyida ijod qiladi. Saroydagi uning she'rlariga hasad bilan qaragan ayrim kimsalar turli bo'htonlar to'qib Avazni xonga yomon ko'rsatadilar. Xonning buyrug'i bilan shoirni 200 darra urib jazolaydilar, aqldan ozganga chiqaradilar. Shundan so'ng sartaroshlik bilan tirikchilik qila boshlaydi, ijod bilan qizg'in shug'ullanadi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II vafotidan so'ng otasi o'rniga taxtga o'tirgan Isfandiyorxon ham unga zulm qiladi, sog'lig'i nochor bo'lgan Avazni bog'lab 50 darra urdiradi. Shu tariqa u o'ttiz besh yoshida vafot etadi.

Avaz O'tar g'azal, muxammas, masnaviy, mustazod, ruboiy, qit'a kabi janrlarda ijod qilgan. Tuzgan devoniga «Saodat ul-iqbol» deb nom bergan.

Avaz O'tar she'rlaridan namunalari

G‘azallar

• *Fidoyi xalqim bo‘lsun tanda jonim,
Bo‘lub qurbon anga ruhi ravonim.*

• *Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositayi robitayi olamiyondur.*

• *Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab,
O‘qusin yoshlarimiz ko‘nglini shod etgusi maktab.*

• *Ey ko‘ngul, ishq ichra kirding, jon kerakmasmu sanga?
Kofiri chashmin ko‘rub, imon kerakmasmu sanga?*

• *Ko‘nglum agar g‘ayri sori mayl-u taqozo aylasa,
Kuysun g‘am o‘tig‘a, o‘zin g‘ayrig‘a shaydo aylasa (Navoiyga o‘xshatma).*

• *Joning‘a o‘t tushsun, agar g‘ayrig‘a parvo aylasa,
Ko‘z dog‘i chiqsun, o‘zganing husnin tamosho aylasa (Navoiyga o‘xshatma).*

• *Bo‘lma, ey kimsa, hamisha bu sifat mag‘ruri ganj
Kim, ne yonglig‘ ayladi Qorunni kofar zo‘ri ganj?!*

• *Ey do‘stlar, dahr ahlig‘a hamroh-u hamdam bo‘lmangiz,
Hamroh-u hamdam demayin, bal oshno ham bo‘lmangiz (Navoiyga o‘xshatma).*

• *Husn ichra ul nigor parilar yagonasi,
Man ishq ichra bo‘lmisham olam fasonasi.*

• *Birodarlar, jahonning yo‘q vafosi,
Vafosi demayin, balkim baqosi.*

To‘rtlik

- *Biling: ushbu zamon g‘amnokidurman,
Kuyub o‘rtanmish elning xokidurman.
Avazkim, nazm elin cholokidurman,
Boshin olmoqqa xonning pokidurman.*

Qit‘a

- *Sipohi pora istar, mulla ijora istar,
Bechora chora istar, bir chora zamon bormu?*

Navoiyga muxammas

- *Dil ishqinga mubtalo bo‘lubdur,
Ham rasmi vafo ongo bo‘lubdur,
Oini jafo sango bo‘lubdur,
Ko‘zing ne balo qaro bo‘lubdur
Kim, jong‘a qaro balo bo‘lubdur...*

Musamman

- *Har odamning talab yo‘lida gar ixlosi komildur,
Gumonsiz jumlayi maqsud birla komi hosildur,
Aning sha‘nida go‘yo oyati tasdiq nozildur,
Ramuzi ishqkim rohi haqiqat sori shomildur
Ki, ulvi manzilatlar zumrayi ushshoqa doxildur,
Bihamdillah, bu sirdin bulhavaslar xayli g‘ofildur,
Murod shohidining vaslig‘a sidq ahli vosildur,
Sadoqat fayzini bilgan kishi dono-vu oqildur...*

13.3. Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy

(1850 – 1903)

1836-yili Qo‘qonga ko‘chib borib o‘rnashib qolgan toshkentlik novvoy Mirzaxo‘ja Mirfozil o‘g‘lining farzandi Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy 1850-yili Qo‘qonda Bekvachcha mahallasida tug‘ildi. Onasi Bibioysha xo‘jandlik bo‘lgan. Ularning Muhammad Aminxo‘jadan tashqari Tojinisa, Ulug‘bibi, Saydinisa, Mehrinisa degan to‘rt qizlari bor edi.

Muhammad Aminxo‘ja mahallasidagi mulla Abduxalil domla maktabida xat-savod chiqargach otasi, moddiy qiyinchilikka qaramay, yolg‘iz o‘g‘lining chuqurroq ilm olishini istaydi. Muqimiy 1864-yili Qo‘qondagi Hokim oyim madrasasiga o‘qishga kiradi. 1867-yili onasi vafot etadi. Otasi Ziyodabibi ismli bir ayolga uylanadi. 1873-yili madrasani bitirgan Muhammad Aminxo‘ja o‘qishni davom ettirish uchun Buxoroga yo‘l oladi. U 1876-yilgacha Buxorodagi Mehtar oyim madrasasida o‘qiydi. Shu yili uni o‘gay onasi Ziyodabibining avvalgi turmushidan bo‘lgan Sanambibi ismli qiziga uylantiradilar.

1877-yili Muhammad Aminxo‘ja tirikchiligini o‘tkazish uchun Qo‘qondagi yer qurilish mahkamasiga mirzalik vazifasiga ishga kiradi. Sirdaryo bo‘yidagi Oqjar paromiga pattachi bo‘lib ishga o‘tadi.

U badiiy zavqdan mahrum, adabiyotdan uzoq, o‘zini tushunolmaydigan Sanambibi bilan uzoq yashay olmadi. 1879-yili ular ajrashdilar. Shoirning ayoli o‘g‘illari Akbarxo‘jani onasi Ziyodabibiga qoldirib, boshqaga turmushga chiqib ketdi. 1886-yili shoirning otasi ham vafot etadi. Muhammad Aminxo‘ja XIX asrning 70-yillari oxiridan e‘tiboran to‘lig‘icha badiiy ijodga beriladi. «Muqimiy» taxallusi bilan she‘rlar yozib do‘vruq qozonadi.

Muqimiy 1887 – 1888-yillarda Toshkentga kelib, olti-yetti oy turadi. Ota qarindoshlari bilan uchrashadi. Almaiy, Nodim Namangoniy singari adiblar bilan tanishib, yaqindan aloqa bog‘laydi. Muqimiy hamisha iqtisodiy tanglikda yashagani uchun ham 1886-yili otadan qolgan hovlini sotib, o‘g‘li Akbarxo‘ja bilan «Hazrat» madrasasidagi bir hujraga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lgan. Kishilar uchun xat yozib, kitob ko‘chirib, shundan keladigan daromad hisobiga kun kechirgan. Azaldan xati chiroyli shoirning mijozlari ko‘p edi. U o‘z vaqtida zamonasining yetuk xattoti Muhammad Yusufdan maxsus saboq ham olgandi. Muqimiyning 1892 – 1899-yillar orasida ikki marta Toshkentga kelib-ketgani ma‘lum. Toshkentga qilingan sayohat shunchaki yaqinlarni

ko‘rishgina bo‘lmay, balki yangi madaniyat, yangi turmush, yangicha qarashlar bilan tanishish ham edi.

Sariq kasaliga yo‘liqqan Muqimiy 1903-yilning 25-mayida madrasadagi hujrasida vafot etadi.

- ***She’rlaridan namunalar***

- *Oshiq bo‘libman, ey yori jonim,
Vaslingni izlab yo‘qdir majolim.*

- *Ohkim, afsus, emas hech ishda rahbar toleyim,
Vojgundur, imtihon qildimki, aksar toleyim.*

- *Oshiq ermasman yuzingga yakka bu Farg‘onada,
Zohid istar ka‘balarda, barhaman butxonada.*

- *Arzimni aytay bodi sabog‘a,
Shoyad, gapurgay ul gulqabog‘a.*

- *Mumkin o‘lsa ko‘rmog‘im, ey sarvi ra‘no, surating,
Aylasa chashmim aro mardum kabi jo surating.*

- *Hech kim mendek, ilohi, yoridan ayrilmasun,
Mehribon, munis o‘shal dildoridan ayrilmasun.*

- *Navbahor. Ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar,
Suhbat aylaylik, kelinglar, jo‘ralar, o‘rtoq‘lar.*

- ***Murabba‘***

- *Emdi sendek, jono, jonon qaydadur,
Ko 'rib gul yuzingni bog 'da bandadur,
Saqlay ishqing toki jonim tandadur,
O ' zim har joydaman, ko 'nglum sandadur.*

- *Podshoh yo 'qlatsalar nogah, gado deb axtaring,
Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro deb axtaring (tazod san 'ati).*

• **«Tanobchilar»dan**

*Bo 'ldi taajjub qiziq hangomalar,
Arz etayin emdi yozib nomalar...
O 'n ikki oyda keladur bir tanob,
O 'zgalara rohat-u menga azob.
Sulton Ali Xo 'ja, Hakimjon ikav,
Biri xotun, birisi bo 'ldi kuyav.*

• **«Maskovchi boy ta 'rifida»dan**

- *Hikoyat qilay, turfa davron ekan,
Xaloyiq hama mahv-u hayron ekan.
Chiqib yangi moskovchidin boylar,
Sinar o 'tmayin ba 'zisi oylar.
Xususanki, eshoni Xodixo 'jam,
Yo 'q og 'zida qarzini vahmida nam.*

•«Sayohatnoma»dan

(*Qo‘qondan Isfaraga*)

- *Aflok kajraftor uchun,
Hardam ko‘ngil afgor uchun,
Xo‘qand tang-u tor uchun,
Sahro chiqish darkor ekan.*

13.4. Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat

(1859 – 1909)

Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat 1859-yili Qo‘qonda savdogar oilasida tug‘ilgan. Dastlabki ta‘limni mahallasidagi maktabdor Muhammad Olimdan oladi. Zokirjon olti oyda «Haftiyak»ni tamom qiladi, «Chor kitob»ni ham tugallab, sakkiz yoshida Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» dostonini yod oladi, sal o‘tib Navoiy asarlarini o‘qishga tutinadi. Navoiy boshliq ulug‘ shoirlarni tushida ko‘rib, ularga «Chor devon»dan imtihon topshirib, «she‘r mashqig‘a ruxsat» oladi va shundan so‘ng she‘rlar yoza boshlaydi. U 1891-yili «Turkiston viloyatining gazetida» e‘lon qilgan «Xo‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti. O‘zi yozg‘oni» deb atalgan va adabiyotshunoslikda shartli ravishda «Furqatnoma» deb nomlanadigan nasriy asarida quyidagi baytni to‘qqiz yoshida yozganligini qayd etadi:

Mening maktab aro buldur murodim,

Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim.

Furqat 10 yoshlarida Fuzuliyni sevib o‘qiydi.

1870-yili Ashur Muhammad qoridan Qur‘on qiroatini o‘rgandi. 1871 – 1872-yillarda mudarris Poshshoxo‘ja eshondan arab tilini o‘rganib, madrasa ta‘limiga tayyorgarlik ko‘radi. 1873-yili 14 yoshida madrasaga kiradi. Qo‘qon xonligi tugatilganligi va barcha madrasalar yopilganligi sababli Zokirjon ta‘limni oxiriga yetkazolmadi. 1879-yili bo‘lajak shoir Yangi Marg‘ilon (hozirgi Farg‘ona)da do‘kondor tog‘asi qo‘lida ishlaydi.

1886 – 1887-yillarda Marg‘ilonga ketadi. Shaharning «Masjidi jome»sidan bir hujrani olib yashay boshlaydi. Ko‘p o‘tmay Muhammad Sharif ismli savdogar do‘sti ko‘magida choy do‘koni ochadi. Lekin savdo ishiga unchalik mohir bo‘lmagan shoir sinib, do‘konni yopishga majbur bo‘ladi.

Furqat 1888-yilning oxirlarida Toshkent safariga otlanadi. Kech kuzda Xo‘jandga keladi va u yerda qon-tomir kasalligi bilan og‘rib yotib qoladi. Tuzalganidan keyin ham quvvatga kirguncha shaharda qolib, ziyoli va tab‘i nazmi bor kishilar suhbatida bo‘ladi. 1889-yilning iyuni o‘rtalarida Toshkentga keladi va Hoji A‘zam ismli kishi yordami bilan Ko‘kaldosh madrasasida bir hujraga joylashadi. Shu kishi tufayli Toshkentning ko‘zga ko‘ringan ziyolilari bilan tanishib do‘stlashadi.

1891-yilning 14-mayida Furqat Samarqandga, xat orqali do‘stlashgani Mirzo Buxoriy otli ziyoli savdogar va etnograf olim huzuriga yo‘l oladi. Bu yerda bir yarim-ikki oy turgach iyul oyida Buxoroga borib, Kogondan poyezdga o‘tirib Marv, Ashxobod, Boku, Botumi orqali Istanbulga yo‘l oladi. U yerda Sultontepadagi takyaga qo‘nadi. Shu yilning 25-avgustida Hindistonga yo‘l olgan shoir 10-sentyabr kuni Bombayga yetib keladi. Bu yerda Hoji Ahmad degan yurtdoshinikida olti oycha yashaydi. 1893-yilning 20-martida Kashmir tomon yuradi, Tibet va Xo‘tan orqali oktyabr oyida Yorkentga yetib kelgan Furqat umrining oxirigacha shu yerda qolib ketadi. Qashqardagi Rusiya musulmon idorasida kotib bo‘lib ishlaydi. Ilmi nujum, tabobat bilan shug‘ullanadi. Ra‘no ismli ayolga uylanib, farzandlar ko‘radi. U to 1906-yilgacha Turkiston bilan, «Turkiston viloyatining gazetini» bilan aloqasini uzmad. Furqat 1909-yilning kuzida vatandan yiroqda vafot etgan. Yorkentning Dongdor qabristoniga dafn qilingan. Furqatning ijodiy merosini 4 yo‘nalishda tasnif qilish mumkin:

- 1) lirikasi;*
- 2) publitsistikasi, nasriy asari;*
- 3) tarjimalari;*
- 4) ilmiy asarlari.*

Furqatning ijodiy merosi

•*Lirikasi*

Gʻazallari 200 atrofida. Ulardan namunalar:

•*Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik,
Gʻalatdur, qomating oldida guldan pirahan nozik.*

•*Bir qamar siymoni koʻrdim baldayi Kashmirda,
Koʻzlari masxur-u yuz jodu erur tasxirda.*

•*Surmadin koʻzlar qaro, qoʻllar xinodin lolarang,
Gʻozadin yuzlarda tob-u, oʻsmadin qoshlar tarang (Fuzuliyga tazmin).*

•*Ne baloligʻ erdi, ey shoʻxi diloro, surating,
Aqlimi lol etti qilgʻuncha tamosho surating.*

•*Gʻaribi bu viloyat xonumonidin adashganman,
Basoni murgʻi vahshiy oshyonidin adashganman.*

•*Fasli navbahor oʻldi, ketibon zimistonlar,
Doʻstlar, gʻanimatdur, sayr eting gulistonlar.*

•*Mening maktabaro buldur murodim,
Xatimdek chiqsa imloyi savodim.*

• ***Masnaviylari***

•«Gimnaziya»

•«Ilm xosiyati»

•«Akt majlisi xususida»

•«Nagʻma bazmi xususida»

• «Vistavka xususida»

• «Suvorov»

• **Muxammas**

- *Kishi holimni bilmas, mehribonidin adashganman,
Vatan ovoradurmen, do‘stonidin adashganman,
Vatansiz benavodurmen, makonidin adashganman,
G‘aribi ko‘yi g‘urbat, xonumonidin adashganman
Vayo bir murg‘i vahshiy oshiyonidin adashganman.*

• **Musaddas**

- *Sayding qo‘yaber, sayyod, sayyora ekan mendek,
Ol domini bo‘ynidin, bechora ekan mendek,
O‘z yorini topmasdan ovora ekan mendek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag‘ri sadpora ekan mendek.*

• **«Sabog‘a xitob»** (masnaviy, 1891-yil Istanbulda yozilgan, 280 misra)

Publitsistikasi

• «Turkiston viloyati gazetiga» yozgan qator xabarlarini, maqolalari

Nasriy asari

• «Xo‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti. O‘zi yozg‘oni»
(«Furqatnoma» yoki «Sarguzashtnoma», 1891, «Turkiston viloyati gazetisi»)

Tarjimalari

• «Hammomi xayol»

• «Chor darvesh»

• «Nuh manzar»

Ilmiy asarlari

- «To‘y tavsifi»
- «Gap ta’rifida»
- «Aza tavsifi»
- «Ilmi ash’orning qoidayi avzoni» (She’r ilmining o‘lchov qoidalari, aruz vazni haqida, adabiyotga havaskorlar uchun qo‘llanma)

13.5. Zavqiy

(1853 – 1921)

Ubaydulloh Zavqiy 1853-yili Qo‘qon shahrining Qatag‘on dahasiga qarashli Shayxon mahallasida mahsido‘z kosib Muhammad Solih oilasida dunyoga kelgan. Bo‘lajak shoir dastlab mahallasidagi maktabda o‘qigan, so‘ng 1870 – 1874-yillarda shoirtabiat tog‘asi Muhammad Siddiq yordamida «Madrasayi Oliy» va «Madrasayi Chalpak»da tahsil ko‘rgan. Ayni vaqtda, ota kasbi mahsido‘zlikni o‘rganadi. Onasining vafot etishi, otasining falaj bo‘lib qolishi sababli ota kasbi – kosiblik bilan ro‘zg‘or tebratadi. Ma’lum muddat Qo‘qon poyabzal rastasining xo‘jayini Mo‘minboy qo‘lida mirzalik ham qilgan. Shu xizmat taqozosi bilan Samarqand, Buxoro, Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, Namangan, Xo‘jand, Toshkent kabi shaharlarda bo‘ladi. O‘sha paytlarda u Muqimiy, Muhyi, Furqat, Nisbat, Muhayyir kabi taniqli shoirlar bilan tanishdi, ular bilan adabiy majlislarda, mushoarlarda ishtirok etdi.

1890-yili tog‘asi Muhammad Siddiq bilan birga haj safariga chiqib olti oy davomida Turkiya va Arabiston mamlakatlarida bo‘ladi. Haj safaridan qaytgan shoir ota kasbini davom ettiradi va umrining oxirigacha badiiy ijod bilan shug‘ullanadi.

Haqgo‘yligi tufayli Zavqiy 1905-yilning avji yozida savdoda harom yo‘liga o‘tgan 46 kishini fosh etib bitilgan «*Hajvi ahli rasta*» she’rini maxsus qog‘ozga katta harflar bilan yozib Mo‘ymarak ataluvchi sayilgohning eng gavjum joyidagi terakka ilib qo‘yadi. She’r quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

*Arzim buki Qori sumalakka,
Yetkursu boshini ham falakka.*

Gah-gah nazora aylasin ul

Ibrat ko'zi birla bu samakka.

She'rdagi xo'rak uchun to'rt tepki yegan *Jalilboy* ismli Sallohbachcha, qora eshak deb ta'riflangan *Shokir qora*, oshqovoq xamakka o'xshaydigan, bankka pul kelmasa, karnay chalaydigan *Nazirbek*, Kofircha laqabli, ovozi hangrashga moyil *Ahmadjon*, to'n-u salla kiyib yuradigan gungalak A'lamni(ng) o'g'illari *Olimjon*, kuzda ahvoli og'irlashadigan, sil yuzli oriqqina *Muhiddin*, *Fozilxo'ja* degan oqfurush, Qorako'lga handalak sayliga olib boradigan, Usmonchani soatini taqib yuradigan *Qosim* oxund, baroq desa ko'ppakka o'xshaydigan Mavlon eshigidagi ota *Fozil*, jun jiyak sotish uchun kir ko'ylak kiyadigan *Umarjon*, chinni bila choy sotadigan *Jalolxon*, boyo'g'liga o'xshash *Mirhamza Kichkinajon*, ikkita pufakka o'xshaydigan *Iqonbachcha* bilan *Bulbul o'g'li*, muallifning unga gapirishga toqati yo'q bo'lgan *Hoji Hasan* degan zakiy ta'b, muallif bilan oshno *Nusrat tentak*, qattiqligi danakka o'xshaydigan so'fini(ng) bolasi *Abduqodir*, Kamakka pand beradigan *Hoji kasal o'g'li* bodraftor ayyor, bodparakka o'xshab uchadigan *Qosim shamol*, semirmasa katta zambarakka o'q bo'ladigan *Ortiqbacha*, uning burni sumak, og'zi tuvakka o'xshaydigan akasi, chelakka ovqat solib ichadigan *Xo'jabachcha*, Xitoy tabibi deb nom olgan *Yo'ldosh*, kurkurakka ustoz bo'lgan ellikboshi o'g'li mokiyanboz, sinchalakka o'xshaydigan *Qoribacha*, voyvayakka o'xshash *Farzinbacha*, malaklar naslidan bo'lgan *Qozi qizi*, ming marta kurakka chap beradigan suyuq *Abdullahoji*, ko'knor ta'sirida 3 kun uxlaydigan «slepoy eshak» deb ta'riflangan *ko'r Meli*, osh yeb, og'zini patakka artadigan, gap ta'sir qilmaydigan *Mo'minshoh*, Toshkent o'tag'asi *Fayzi shayton*, o'lmay turib kesakka o'xshaydigan «izvesni vagonchi tund ko'r, slepoy durak» *Odil* kabi amaldorlarning nomlari keltirilgan.

Ismi-sharifi keltirilganlar shahar hokimiga ariza berib shoirning ustidan ish qo'zg'atishga erishadilar. Uzoq davom etgan tergovlardan so'ng Zavqiy yuz so'm jarima to'lab qamoqdan qutulib qoladi.

Zavqiy 1921-yili ikki oy davom etgan og'ir kasallikdan so'ng 68 yoshida vafot etadi.

Respublikamizda 2003-yili Zavqiy tavalludining 150 yilligi nishonlandi.

Ijodiy faoliyati

Zavqiyning she'rlari, maqolalari «Turkiston viloyatining gazetasi», «Sadoyi Farg'ona», «Tirik so'z», «Najot» gazetalarida hamda «Al-Isloh» jurnalida bosilgan, asarlaridan namunalar

to‘plam va bayozlarga kiritilgan. Hayotlik chog‘ida she‘rlari kitobga jamlanmagan. Uning o‘z qo‘li bilan tuzgan devoni vafotidan so‘ng, 1930-yili turmush o‘rtog‘i Xayrunniso tomonidan Qashqarga olib ketilgan. Hozir bu devon Zavqiyning Xitoy Xalq Respublikasida yashayotgan avlodlari qo‘lida saqlanmoqda. Yurtimizda shoirning asarlari 1958- va 1960-yillarda ikki marta nashr etilgan.

She‘rlari

- «Ajab zamona»
- «Qahatchilik»
- «Zamona kimmiki»
- «Veksel»
- «Ta‘rifi kalish»
- «Otim»
- «Fonus»
- «Pashshalar»
- «Sayohatnoma»

G‘azallaridan namunalar

• *Nazokat ortturay desang misoli g‘uncha xomush bo‘l,
Nadinkim og‘zini to ochdi gul, bargi xazon bo‘ldi.*

• *Ahli dil bo‘lma, zamonning boyi bo‘l, bazzozi bo‘l!
Aqchadin langar cho‘p ushlab rastaning dorbozi bo‘l!*

Shoir muxammaslari

- *Yuzingni ko‘rsatib avval o‘zungga bandalar qilding,
Yana ko‘nglum olib, yuz noz birla xandalar qilding,
Jamoling partavin solib ajoyib jilvalar qilding,
Masihdek bir boqishda murda jismim zindalar qilding,
«Senga men to qiyomat oshno» deb va‘dalar qilding.*

- *Bu kunlar boshimizda bir sahob o'lsa ajab ermas,
Munavvar zimmida bir oftob o'lsa ajab ermas,
Bu davlat suv yuzinda bir hubob o'lsa ajab ermas,
Ko'rinsa surati asli niqob o'lsa ajab ermas,
Ochilsa pardalar yuzdin hijob o'lsa ajab ermas.*

«Shohimardon xotirasi» sayohatnomasidan

- *Bu ravzaga kimki kelib
Bir kechasi mehmon ekan,
Umrda bir ko'rgan kishi
O'lganda bearmon ekan.*

Eslatma:

Zavqiy «Sayohatnoma»sining Muqimiy «Sayohatnoma»sidan asosiy farqi uning har to'rtinchi misrasida «ekan» radifidan oldin keluvchi qofiyada (masalan, mehmon-bearmon...) raviy «n» harfidir. Muqimiyda esa raviy «r» va «ng» harflaridan iborat.

Savol va topshiriqlar:

1. *Qaysi ijodkorning adabiy merosi mumtoz adabiyot va ma'rifatchilik adabiyoti o'rtasidagi ko'priq vazifasini o'taydi?*
2. *Furqatning adabiy merosini necha qismga bo'lib o'rganish mumkin?*
3. *Muqimiy hajviyalariga xos bo'lgan ijtimoiy ruh haqida so'z yuriting.*
4. *Zavqiyning adabiy merosi bizga qay shaklda yetib kelgan?*
5. *Avaz O'tar devonida qanday janrdagi she'rlar uchraydi?*
6. *Ma'rifatchilik adabiyoti vakillarini birlashtirib turuvchi xususiyatlarni aniqlashga harakat qiling.*
7. *Ma'rifatchilik adabiyotini yuzaga keltirgan omillar haqida nima deya olasiz?*

15. JADID ADABIYOTI

15.1. Abdulla Avloniy

(1878 – 1934)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkent shahrining Mergancha mahallasida to'quvchi hunarmand oilasida tug'ildi.

O'n olti yoshidan vaqtli matbuot sahifalarida ko'rina boshladi.

XX asr boshlarida Abdulla Avloniy jadidlar harakatining faol tashkilotchilaridan biri sifatida e'tibor qozongan edi. Toshkentning Mirobod mahallasida yangi «usuli savtiya» – jadid maktabini ochdi, o'zi mudirlik va o'qituvchilik qildi. 1909-yili kambag'al, yetim-yesirlarga ko'mak beruvchi «Jamiyati xayriya» degan uyushma tashkil etdi. 1907-yili dastlabki matbuot nashrlaridan biri bo'lmish «Shuhrat» gazetasini chiqardi.

Avloniy 1913-yili birinchi o'zbek teatr truppasi – «Turon» to'garagini tashkil etdi. U o'z atrofiga Nizomiddin Xo'jayev, birinchi o'zbek rejissyori Mannon Uyg'ur, Mirshohid va Mirahmad Miroqilov singari yoshlarni yig'ib, o'zbek milliy teatriga asos soldi.

1917-yili ta'sis etgan «Turon» gazetasiga «Yashasin xalq jumhuriyati» shiorini tanlab, istiqbolga bo'lgan ishonchi, intilishlarini ochiq izhor etgandi. Bu davrda Turkistonning eng ilg'or va mashhur gazetasi «Sadoyi Turkiston»da ham ishladi. 1918-yili «Ishtirokiyun» gazetasida muharrirlik qildi.

Avloniy Eski shahar sho'rosining raisi vazifasini bajardi, nashriyot ishlarini yo'lga qo'yib, unda bo'limga mudirlik qildi, Afg'onistonda birmuncha muddat elchi bo'ldi, oliy o'quv yurtlarida professor sifatida dars berdi.

Abdulla Avloniy 1934-yilning 24-avgustida vafot etdi. Miroboddagi shoir yashagan uyda muzey ochilgan; Toshkent shahrining ko'chalaridan biri Abdulla Avloniy deb ataladi. Respublika xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutiga ham uning nomi berilgan.

Ijodiy faoliyati

I. Darslik va qo'llanmalari

- «Birinchi muallim» (1909)
- «Ikkinchi muallim» (1912)

•«Turkiy Guliston yoxud axloq» (31 fazilat, 20 axloqiy illatga ta'rif berilgan, 1913)

Asardan parcha:

«*Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir*»; «*Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari najotidir*»; «*Din va e'tiqodi salomat bo'lmagan kishilar haqni botildan, foydani zarardan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ayira olmas*»; «*Islomiyat butun insoniyatdur. Insoniyat esa yaxshi xulqdan iboratdur*»; «*Qanoat bir xazinadurki, naqdinasi kundan kun ortar*»; «*Sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni iffatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavozu'ga, yomonlikni yaxshilikg'a aylandurmakg'a quvvati yetar*»; «*Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidir*».

«*Hayo deb ishda, so'zda adabni rioya qilmak aytilur. Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdirki, inson har vaqt shul ma'naviy nurning ziyosiga muhtojdur. Shariat buyurmagan, odamlar suymagan ishlarni ishlamak – g'iybat, hajv, masxara, safsata, so'kuv kabi odamlarning nafsiga, izzatiga tegadurgan adabsiz so'zlarni so'zlamak zo'r hayosizlikdur. Iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodir...*

*Hayo, nomus iymona dalildur,
Hayosiz doimo xor-u zalildur.
Uyalma ma'rifat hosil qiluvdan,
Maorifsiz kishilar murda dildir».*

•«Adabiyot yoxud milliy she'rlar» (besh to'plamdan iborat, 1909 – 1916)

II. Pyesalari

•«Advokatlik osonmi?»

Asar qahramonlari:

Davronbek – musulmon advokat, 24 yoshda, *Xudoyberdi* – yer sotgan chol, qulog'i kar, 55 yoshda; *Xushvaqt* – ot yo'qotgan tojik, 30 yoshda; *Haydarali* – mol yo'qotgan duduq, 24 yoshda; *Rapoil* – nasiyag'a mol sotgan chol, 60 yoshda; *Egamberdi* – to'y qilub

qarzdor bo'lg'on arobakash, 35 yoshda; *Mehriniso* – eri bilan urishub ajrashmoqchi bo'lgan xotun, 32 yoshda.

- «Pinak»
- «Biz va Siz»
- «Ikki muhabbat»
- «Portugaliya inqilobi»

She'rlaridan namunalar

- *Na xo'rliq, na qasolat? – Doimo afgor biz, millat,
Hama gul dasta qilsa, ne terarmiz? – Xor, biz, millat.*
- *Biling, o'g'lonlarim, sizlarni g'amdan qutqarur maktab,
Siroti mustaqim, rohi adamdan qutqarur maktab.*
- *Tug'ub o'sdim bu Vatanda,
Vatanim misli yo'q jahonda!
Tufrog'lari o'sumlikdur,
Manzarasi ko'rumlikdur.*
- *Umrini sarf etmish ota-bobolar,
Chekmish ilm uchun jabr-u jafolar,
Bizlar ham bo'lmayluk baxti qarolar,
Bitsun, yo'qolsun bu kayf-u safolar.
Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i,
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.*
- *Maktabdur oftobi jahon saodating,
Maktabdur osmoni zamon sabovating.*
- *Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,*

Har kim sening qadring bilmas – aqli pas(t)dur («Vatan» she'ridan).

15.2. Abdulla Qodiriy

(1894 – 1938)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrining Samarqand darboza mavzeyida «bogʻbonlik bilan kun kechirguchi bir oilada...» tugʻilgan.

U dastlab eski usul maktabda, soʻng yangicha xat-savod chiqaradigan rus-tuzem maktabida oʻqiydi. 12 yoshlarida bir boy savdogarga xizmatga yollanib, yozuv-chizuv ishlari bilan mashgʻul boʻladi.

1912-yili rus-tuzem maktabini muvaffaqiyatli tugalladi.

1914-yili Abulqosim madrasasiga oʻqishga kirdi. Rossiyaning turli shaharlaridan keladigan va bevosita Toshkentning oʻzida ham milliy ziyolilar tomonidan nashr etiladigan gazeta va jurnallar bilan tanisha boshlaydi. «Shu miyonalarda bozor vositasi bilan tatarlarda chiqadirgʻon gazetalarni oʻqib, dunyoda gazeta degan gap borligʻiga imon keltirdim. 1913-yili oʻzbekcha «Sadoyi Turkiston», «Samarqand», «Oina» gazetalari chiqa boshlagʻoch, menda shularga gap yozib yurish fikri uygʻondi», – deydi adib.

1918-yili Eski shahar oziq komiteti sarkotibi etib tayinlandi. Jurnalistlika bilan faol shugʻullandi.

1919-yili «Oziq ishlari» gazetasiga muharrir etib tayinlanadi; soʻngra «Roʻsta» gazetasiga muxbir, «Ishtirokiyun» va «Qizil bayroq» gazetalarida xodim, «Inqilob», «Kommunist yoʻldoshi» majmualarida sarkotib va xodim boʻlib ishlaydi.

1924 – 1925-yillarda Moskvadagi Oliy adabiyot institutida taʼlim oldi.

1926-yili «Mushtum» jurnalida bosilgan «Yigʻindi gaplar» hajviyasida hayotdagi kamchiliklar, hukumat kishilari haqidagi beozor kulgi, hazil uchun aksilinqilobiy harakat qilganlikda ayblanib qamoqqa olinadi.

1937-yili Abdulla Qodiriy «xalq dushmani» degan tuhmat bilan qamoqqa olinib, uzoq qiynoq va soʻroqlardan soʻng 1938-yil 4-oktyabrda otib oʻldiriladi.

XX asrning 50-yillari oxiri – 60-yillarida Abdulla Qodiriy nomi oqlanib, asarlari nashr etila boshladi, filmlar suratga olindi. Istiqlolning ilk yillaridayoq Abdulla Qodiriy birinchi bo‘lib «Mustaqillik» ordeniga munosib ko‘rildi. Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Ijodiy faoliyati

Taxalluslari: Qodiriy, Julqunboy, Kalvak Mahzum, Toshpo‘lat, Ovsar, Dumbul

I. She‘rlari

- «Ahvolimiz»
- «To‘y»
- «Millatimga bir qaror!»
- «Fikr aylagil»

II. Publitsistikasi

• «Yangi masjid va maktab» («Sadoyi Turkiston», 1914-yil 1-aprel, Abdulla Qodiriy deb imzo chekilgan ilk xabari)

- «Matbuot kuni»
- «Ulug‘ ayyom»
- «Otam ham bolshevik»
- «1818-yil yodgori»
- «G‘irvonlik Mallaboy aka»
- «Bizda teatru ishining borishi»
- «Ravot qashqirlari»
- «O‘tkan kunlar» va «O‘tkan kunlar» tanqidi ustida ba‘zi izohlar»

III. Hikoyalari

- «Juvonboz» (1913)
- «Uloqda» (1915 – 1916)
- «Jinlar bazmi»

IV. Pyesalari

- «Baxtsiz kuyov»

V. Qissalari

- «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan» (hajviy yoʻnalishda)
- «Toshpoʻlat tajang nima deydi?» (hajviy yoʻnalishda)
- «Obid ketmon» (jamoalashtirishga bagʻishlangan)

VI. Romanlari

- «Oʻtkan kunlar» – 1917 – 1918-yillardan material yigʻildi, 1919-yildan yozila boshlandi. 1922-yili romanning dastlabki boblari «Inqilob» jurnalida chop etildi. 1925-yili romanning boʻlimlari alohida-alohida uch kitob tarzida, 1926-yili esa «Oʻtkan kunlar» yaxlit asar sifatida bosilib chiqdi.

- «Mehrobdan chayon» (1928).

VII. Yozishni rejalashtirgan romanlari:

- «Amir Umarxonning kanizagi»
- «Namoz oʻgʻri»
- «Dahshat»

Qodiriy va uning ijodi xususida fikrlar

Abdulla Qahhor: *«Abdulla Qodiriy... yangi davr adabiyoti, Yevropa adabiyoti gazi bilan oʻlchaganda ham toʻlaqonli asarlar yozgan, oʻzbek romanchiligini boshlab bergan ulkan adibdir»*, – deb yozadi.

Qodiriyni Oybek *«qalbi butun»*, oʻziga xos shaxs deb ataydi, uni *«tugʻma epik yozuvchi, keng koʻlamdagi master, yuksak maʼnodagi realist sanʼatkor»* deya taʼriflaydi. Oybek Qodiriyning «Uloqda» nomli hikoyasiga yuksak baho beradi: *«Uloqda» hikoyasida tashviqotchining, voizning oʻrnini sanʼatkor oladi. Yozuvchi bu asarda voqealar ustida muhokama qilmaydi, tushuntirmaydi, isbot qilmaydi, balki obrazlar bilan koʻrsatadi. Bu hikoyada ham foydasiz odatlarni qoralaydigan maʼlum «axloq», «ibrat» bor, lekin bu axloq turtib chiqmaydi»*.

15.3. Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli Choʻlpon

(1898 – 1938)

Hayotiga doir muhim maʼlumotlar

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1898-yili Andijonning Qatortarak mahallasida gazlama savdosi bilan shug'ullanuvchi Sulaymonqul Muhammadyunus oilasida tug'ildi. Otasi o'z davrining ilg'or kishilaridan bo'lib, Rasvo taxallusi bilan hajviy she'rlar ham yozgan.

Cho'lponning onasi Oysha aya, garchi unchalik o'qimishli bo'lmasa-da, o'g'lining ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. Negaki u xalq qo'shiqlari va ertaklarining bitmas xazinasidan yaxshigina xabardor bo'lgan.

Cho'lpon madrasa tahsilini ko'rgach 1912 – 1914-yillarda rus-tuzem maktabida o'qidi. 16 yoshida unga Munavvar qori Cho'lpon – Tong yulduzi degan taxallus beradi.

Cho'lpon oktyabr to'ntarishidan so'ng o'lka bilim hay'atida rais, «Buxoro axbori» gazetasida muharrir, «Turon» teatrida direktor, «Ishtirokiyun», «Qizil bayroq» va «Turkiston» gazetalarida tahrir hay'ati a'zosi va adabiy xodim (1920 – 1923-yillar) bo'lib ishladi.

Rossiyadagi siyosiy to'ntarishlar davrida u bir muddat Orenburgda yashab, boshqird hukumati mahkamasida kotib lavozimida ishladi. So'ng Toshkentga qaytib, 1920-yilga qadar TurkROSTA muxbiri bo'ldi.

1923-yili Cho'lpon Andijonda yangi chiqa boshlagan «Darxon» gazetasiga ishga yuboriladi. Bir yildan so'ng gazeta yopilgach, u Toshkentga qaytib keladi.

Shu vaqtda milliy professional teatrni shakllantirish uchun yigirma to'rt nafar iste'dodli o'zbek yoshlari Moskvaga o'qishga yuboriladi. O'qish Moskvadagi hali mustaqil davlat hisoblangan Buxoro maorif uyi qoshidagi teatr-studiyada tashkil etilgandi. Rus tili va adabiyotini chuqur biladigan Cho'lpon 1924-yili Moskvaga ketadi va shu dramstudiyada tarjimon va dramaturg bo'lib ishlaydi, V.Bryusov nomidagi adabiyot institutda saboq olgan.

Madaniyat xodimlarining 1927-yil oktyabrida Toshkentda bo'lib o'tgan II qurultoyida Cho'lpon ijodi «... g'oyaviy tuturuqsiz» ekanligi respublikaning rahbarlaridan biri Akmal Ikromov tomonidan ta'kidlangach, shoir deyarli yakkalanib qoladi.

Cho'lponga nisbatan siyosiy-mafkuraviy zug'um yanada kuchaygani uchun shoir 1932-yili Moskvaga ko'chib ketadi.

Toshkentga qaytgach, hibsga olinib, 40 yoshga to'lgan Cho'lpon 1938-yil 4-oktyabrda Toshkentda otib tashlandi.

Ijodiy faoliyati

Taxalluslari: «Qalandar», «Mirza qalandar», «O.», «Andijonlik», «Cho'lpon».

I. Maqolalari

- «Yozg'uvchilarimizga»
- «Adabiyot nadur»

II. Hikoyalari

- «Qurboni Jaholat»
- «Do'xtur Muhammadyor»
- «Vayronalar orasidan»
- «Oydin kechalarda»
- «Qor qo'ynida lola»
- «Novvoy qiz»

III. She'rlari

- «Turkistonli qardoshlarimizga» (ilk she'ri, «Sadoyi Turkiston», 1914-yil 18-aprel)
- «O'zbek yosh shoirlari» (1923), «Go'zal yozg'ichlar» (1925), «Adabiyot parchalari» (1926) to'plamlariga Cho'lpon she'rlari kiritilgan
- «Men shoirmi?» (1928)
- «Bahorni sog'indim...» (1926)
- Buzilgan o'lkaga» (1921)
- «Kuz yomg'iri» (Moskvada yozilgan)
- «Bir tutam sochlaring...» (avtobiografik mazmunga ega bo'lgan she'r, 1925)
- «Ko'ngil»
- «Kurash»
- «Kishan»
- «Vijdon erki»

•«Yong'in» (1921) (epigrafi: «Talanmagan, yiqilmagan yer yo'q. Go'daklar nayza boshida... (Xabar).

•«Qo'zg'alish» (1922)

•«Vijdon erki» (1922) (*she'rdan Cho'lpon insonlarni ikki toifaga ajratadi: birinchi toifaga barcha insonlarni kiritadi; «erkin vijdon» ahli, uning nazdida, ikkinchi toifani tashkil etadi).*

•«Somon parcha» (1923)

•«Xazon» (1923)

IV. She'riy to'plamlari

•«Uyg'onish» (1922)

•«Buloqlar» (1923)

•«Tong sirlari» (1926)

•«Soz»

V. Pyesalari

•«Yorqinoy» (1921)

•«Xalil farang» (1921)

•«Cho'rining isyoni» (1926)

•«Yana uylanaman» (1926)

•«O'rtoq Qarshiboyev» (1928)

•«Hujum» (V.Yan bilan hamkorlikda, 1928)

•«Qorovul uyqusi»

•«Uzunquloq bobo»

VI. Tarjimalari

•I.Franko: «Feruz»

•V.Shekspir: «Hamlet»

•A.S.Pushkin: «Boris Godunov», «Dubrovskiy»

•N.V.Gogol: «Tergovchi»

•L.Andreyev: «Osilgan yetti kishining hikoyasi»

15.4. Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat

(1886 – 1938)

Hayotiga doir ma’lumotlar

Abdurauf Fitrat Buxoro shahrida 1886-yili tavallud topgan.

Uning otasi Abdurahimboy sarrof (pul maydalovchi, pul almashtiruvchi) va savdogar edi. Onasining ismi Bibijon (ayrim manbalarda Nastarbibi, ayrim manbalarda Mustafbibi deb aytiladi) bo‘lgan.

Bu oilada Abduraufdan keyin yana ikki farzand tug‘ilgan – Abdurahmon va Mahbuba.

Abdurauf shahardagi ko‘plab eski maktablardan birida, keyin mashhur Mir Arab madrasasida o‘qiydi. 18 yoshlarga yetganda bir muddat otasining ishlariga yordam beradi, u bilan birga haj ibodatiga ham boradi.

1904 – 1907-yillar oralig‘idagi ushbu safarlar davomida yosh Fitrat dunyoning Turkiya, Eron, Hindiston, Arabiston, Rusiya singari mamlakatlarini o‘zi uchun kashf qiladi. Bu sayohatlar uning dunyoqarashini kengaytirdi, o‘z yurtidagi ahvolga chetdan turib nazar tashlash imkoniyatini beradi.

1909-yili Abdurauf o‘zining bir necha hamshaharlari bilan birgalikda Istanbul (Turkiya)ga o‘qishga ketadi. 1913-yil oxirigacha Istanbuldagi «dorulmuallimin» – muallimlar gimnaziyasida tahsil oladi.

Fitrat 1917-yil fevral inqilobidan keyin siyosiy harakatlarda faol qatnashdi.

Buxoro jadidlarining «Yosh buxoroliklar» firqasiga sarkotib bo‘lib saylanadi.

Fitrat 1917 – 1918-yillar oralig‘ida Samarqandda chop etiladigan «Hurriyat» gazetasiga bosh muharrir ham bo‘ladi.

1917-yil oktyabrida Rusiyada bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan davlat to‘ntarishini «Hurriyat» gazetasining 1917-yil 7-noyabr sonida: «Rusiyada yangi bir balo bosh ko‘tardi: bolshevik balosi!» – deb baholadi.

1918-yil bahorida Fitrat Toshkentga chaqirilib, maorif va madaniy ishlarga jalb qilindi, maktablarda, dorulfununda til va adabiyotdan saboqlar berdi. Fitrat shu yili Toshkentda «Chigʻatoy gurungi» deb nomlangan ilmiy-maʼrifiy jamiyatni tashkil etadi.

1919-yil boshida Fitrat Toshkentda birinchi bor Choʻlpon bilan uchrashdi.

1920-yil oxirlarida Fitrat Fayzulla Xoʻjayevning taklifi bilan Buxoroga qaytadi. Unga Fayzulla Xoʻjayev boshchiligidagi Buxoro hukumatining yirik lavozimlari ishonib topshiriladi. Fitrat va Fayzulla Xoʻjayev tashabbusi bilan oʻsha yillardayoq 60 nafardan koʻproq yoshlar davlat yoʻli bilan Germaniyaga oʻqishga yuboriladi.

1921-yil mart oyidan eʼtiboran Buxoro Jumhuriyatida turk (oʻzbek) tili davlat tili deb eʼlon qilinadi. Buxoro teatri ish boshlaydi, ilmiy jamiyatlar tuziladi.

Yosh, mustaqil jumhuriyatning bu yutuqlaridan xavotirga tushgan bolsheviklar partiyasi markazqoʻmi 1923-yil 12-iyundagi oʻzining maxsus majlisida «Buxoro masalasi»ni muhokama qiladi. Mazkur majlisda «Buxoro hukumati nomi ostida ish koʻrayotganlarning xalq va sovet hukumatiga hech bir aloqadorligi yoʻq» ekani, «bu yerda hokimiyatga boylar, savdogarlar tortilgani, birorta ham dehqon yoʻqligi» qattiq tanqid qilinadi. Oradan 11 kun oʻtgach – 23-iyunda Buxoroda boʻlgan kommunistlar plenumida Buxoro hukumatining besh aʼzosi partiyadan oʻchirilib, ishdan haydaladilar. Ular orasida Xalq xoʻjaligi kengashi raisining oʻrinbosari Abdurauf Fitrat ham bor edi.

Fayzulla Xoʻjayevning koʻmagi bilan adib Moskvaga ketadi va 1923 – 1924-yillarda Sharq tillari institutida mehnat qiladi. Shuningdek, hozirgi Sankt-Peterburg universitetining sharq fakultetida sharq xalqlari tili, adabiyoti, madaniyatidan maʼruzalar oʻqiydi, professorlik unvoniga ega boʻladi.

Adib Oʻzbekistonga 1927-yili qaytib keladi. Samarqandda tashkil etilgan Oliy pedagogika instituti (hozirgi SamDU)da ishlay boshlaydi.

30-yillardan eʼtiboran avj olib ketgan siyosiy taʼqib – terror muhitida vaqtli matbuotda, ketma-ket uyushtirilgan turli majlislarda Fitrat «millatchi», «turkparast», «islomparast», hatto «gʻarbning josusi» sifatida qoralandi, unga kurakda turmaydigan ayblovlar taqaldi.

Fitrat 1937-yilning 24-aprelida qamoqqa olindi va «xalq dushmani» sifatida ayblanib, 1938-yilning 4-oktyabrida Toshkentda otib oʻldirildi.

Istiqloldan keyin fitratshunos olimlar H.Boltaboyev, B.Qosimov, I.G'aniyev, B.Ergashev va boshqalar adib hayoti, ijodi to'g'risida o'nlab yangi tadqiqotlarni e'lon qildilar.

«Ma'naviyat» nashriyoti tomonidan 2000-yili Fitratning 2 jildlik «Tanlangan asarlar»i chop etildi.

Abdurauf Fitratga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti va «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berilgan.

Ijodiy faoliyati

Asosiy taxallusi (Fitrat) «tug'ma tabiat», yana bir taxallusi (Mijmar) «xushbo'y o't yoqiladigan cho'gdon» degan lug'aviy ma'nolarni anglatadi. Adibning aql-u zakovatini rossiyalik, kavkazlik, turkiyalik va turkistonlik safdoshlari yuksak darajada qadrlashgan.

Adabiy merosi boy va serqirra, janrlari jihatidan ham rang-barang. Vatanni «sajdagoh-u jon-u tan» singari sevib, keng miqyoslarda ilg'or faoliyat ko'rsatgan.

I. Nasriy asarlari

Fitrat 1909-yili dastlabki yirik asari, fors tilida yaratilgan «*Munozara*» (to'liq nomi «*Hindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning jadid maktablari xususida qilg'an munozarasi*»)ni Istanbulda e'lon qiladi.

- «Hind sayyohi qissasi» («Bayonoti sayyohi hindi», 1911 – 1912-yillarda forsiy tilda yozilgan nasriy asari)
- «Qiyomat» (bosh qahramoni Pochamir)
- «Rahbari najot» (1915)
- «Oila» (1916)
- «Begijon» (1916)
- «Mavludi sharif» (1916)
- «Abo Muslim»
- «Muxtasar islom tarixi» (1915)
- «O'qu» (1917)

II. Pyesalari

- «O‘g‘uzxon»
- «Chin sevish» (1920)
- «Abulfayzxon» (1924)
- «Shaytonning tangriga isyoni» (1924)
- «Arslon» (1926)
- «Vose’ qo‘zg‘oloni»(1927)
- «Hind ixtilolchilari»

«Abulfayzxon» dramasi haqida

Asar qahramonlari:

Abulfayzxon – Buxorodagi o‘zbek xonlarining so‘nggisi, 40 – 50 yoshlarda; *Ulfat* – xonning xojasaroyi (haram boshlig‘i), 40 – 50 yoshlarda; *Davlat* – to‘qsabo, xonning yaqin xizmatchilaridan; *Qozi Nizom* – Buxoroning qozikaloni, 50 – 60 yoshlarda; *Oxun* – Buxoroning katta mullasi (bu ikki shaxs rahbarlarga yaxshi ko‘rinish uchun shariat qoidalarini o‘zgartirishdan ham toymaydilar); *Hakimbiy* – xonning inog‘i, so‘ngra otalig‘i, 50 – 60 yoshlarda; *Rahim qurchi* –so‘ngra to‘qsabo, so‘ngra otaliq, Hakimbiyning o‘g‘li, 30 – 40 yoshlarda (Eron shohi Nodirshohga sotilgan xiyonatkor shaxslar); *Mir Vafo* – Rahimxon tarixiga bag‘ishlangan «Tuhfayi xoniy» asarining muallifi, Hakimbiyning odami, 50 – 60 yoshlarda; *Doniyolbiy* – Hakimbiyning ukasi, 40 – 50 yoshlarda; *Ibrohim inoq* –so‘ngra otaliq, 60 – 70 yoshlarda (asar so‘ngida ko‘r bo‘lib qoladi); *Tog‘ayqulbek* – mang‘it beklaridan; *Xo‘ja Kalon* – mashhur xo‘jalardan; *Nodirshoh* – Eron shohi; *Rizoqulixon* – Nodirshohning o‘g‘li; *Mirzo Mahdiy* – shohning bosh kotibi; *Aliqulixon, Husaynixon, Ahmadxon* – Eronning qo‘shin boshliqlari; *Abdumo‘minxon* – Abulfayzxonning o‘g‘li, 15 yoshda (Rahimbiy tomonidan zaharlab o‘ldiriladi); *Yo‘ldosh, Ergash* – qalandar kiyimidagi tilchilar, Hakimbiyning odamlari.

Asarning umumiy mazmuni:

Dramada Buxorodagi ashtarxoniyalar sulolasining oxirgi namoyandasi Abulfayzxon hokimiyatining tanazzuli va mang‘itlar sulolasining hokimiyatga kelishi aks ettiriladi. Abulfayzxon taxtni egallagach eng yaqin kishilaridan ham shubhalana boshlaydi, ko‘pini hibsga olib, birin-ketin qatl etadi. Uning kuchi aqlida emas, podsholigida, xolos. Podsholigi

xayolidan ko'tarilganda o'ziga ham ishonmay qo'yadi. Abulfayzxon, aslida, nomard, qo'rqoq, vahimachi odam. O'ziga ishonmagani bois hammadan hayiqaveradi. Uning atrofida gilar ham o'ziga yarasha. To'g'rirog'i, ishni va gapni unga yoqadigan yo'sinda tutadiganlar. Katta amaldor Ulfatning «podshohlik qon bilan sug'oriladigan og'ochdir» deyishi o'zininggina gapi emas. Bu xonga juda ma'qul gapdir. Qozikalon Nizom, to'qsabo Davlat, xonning otalig'i Hakimbiylar ham shu yo'nalishdagi kishilardir.

Ulfat va Davlat shu qadar ustomonki, aksar o'rinlarda xon ularning etagidan chiqolmay qoladi. Otaliq Hakimbiy esa ayyor, pixini yorganlardan. Nodirshoh bo'lsa uzoqni ko'zlab ish tutadigan tadbirkor. Dushmanini tashqaridan emas, avval ichdan, qatoridagilarni qo'lga olib, munofiq va xiyonatchilardan foydalanib mahv etish yo'lini tutadiganlar xilidan.

Bulardan farqli o'laroq, Farhod otaliq mard, to'g'ri so'z, e'tiqodidan qaytmaydigan kishi. U og'ir vaziyatlarda nainki g'ururini saqlab qola biladi, balki kerak bo'lsa, xonning ko'ziga tik boqib haqiqatni ayta oladi ham. Xonga to'g'ri gapirib kim baraka topibdiki, Farhod otaliq topsa. Bu qahramon ham haqgo'yiligi, xonga qizini bermagani uchun munosib jazosini oladi. Besh daqiqadayoq uning boshini laganga solib xon oldiga keltirib qo'yadilar. Holbuki, Farhod otaliq xonni, uning o'z tili bilan aytganda, «*bir ota kabi asragan*» zot edi.

«Abulfayzxon»ning birinchi pardasi Qozi Nozim, Ulfat, Mirvafolarning shohmot surayotgan holati bilan ochiladi. Bu manzara boshdanoq asar yo'nalishi, g'oyasi, qahramonlari, yozuvchi maqsadi haqida darak beruvchi yog'dudir. Bu manzara shohmot ustidagilarning faqat taxta emas, Abulfayzxon saroyi hamda qismatining asosiy o'yinchilari ekaniga ishoradir.

Yurtda ezgulik, insof, adolatning qadr-qimmatini tushunadigan, ularning hayotdagi o'rni va bahosini e'zozlaydigan kishilar ham yo'q emas edi. Asardagi ana shunday obrazlardan biri Ibrohimbiy otaliqdir. Ibrohimbiy adolatparvar qahramon. U qo'rqmasdan xonga: «*Ulfat bilan Davlatni rozi qilmasam, siz quvonmaysiz, bu ikkisini rozi qilmoqda mumkin emasdir*», – deb ayta oladi. U hatto xonga qarshi kurash yo'liga ham o'tadi. Ibrohimbiy yurt egasini qurultoy yo'li bilan saylash lozim degan ilg'or dunyoqarash egasidir.

Xonning xo'jasaroyi Ulfat, qozikalon Nizom, Davlat to'qsabo, Rahimbiy va Hakimbiy otaliqlar Abulfayzxon tegirmoniga suv quyib, uni jaholat va razolatga sudraydilar. Bu xuddi o'sha muhitning, sharoitning, tarixiy vaziyatning shaxsga o'tkazuvchi ta'siri va shu tarixiy

jarayonning badiiy talqinlaridir. Ubaydullaxon, Abulfayzxon, Abdumo‘minxonlarning xiyonatkorona o‘ldirilishida ham tarixiy sharoitlarning inson taqdiriga ko‘rsatgan ta’siri yotadi. Asar so‘ngiga yaqin Abulfayzxon o‘z razilliklaridan pushaymon bo‘lib, nadomat chekadi. Bu bilan muallif tarix va shaxs aro munosabatlarda inson hech qachon faqat razillik timsoli bo‘lib qololmaydi, inson o‘zini o‘zi anglash fursatini topmog‘i kerak degandek bo‘ladi.

Siyovushning ruhi Xayol tilidan asar nihoyasida Bedildan forscha bayt keltirilib, taxtga nisbatan aytilgan «*Eng qop-qora saodat sensan*» degan fikr Rahimbiy timsolidagi xonga nisbatangina emas, ayni vaqtda, asar yozilgan davr jamiyatining arkoni davlatiga ham ishoradir. Xususan, Xayol tilidagi «*tinchlik saqlamoq bahonasi bilan millionlarcha inson ko‘masini (ko‘ma – to‘plam, uyum) chuqurdan chuqurga yumalatmog‘ingning zamoni hanuzg‘acha bitmadimi?*» deyilgan fikrda Fitrat zamonasiga nisbatan o‘zining qarashlarini ochiq-oydin aytib o‘tadi.

•

III. She’rlari

- «Sayha» (Na’ra, 1911 – 1912-yillarda forsiy tilda yozilgan she’rlari to‘plami)
- «Kim deyay seni»
- «Achchiqlanma degan eding»
- «Nega bo‘yla»
- «Yana yondim»
- «Shoir» (she’rda ishq «eng nozli, erka, injiq yog‘dusidir» deb tasvirlanadi, shoir «yoz gulining yaprog‘idan to‘qilgan «so‘zlar» bilan o‘rab, bizga topshirish uchun izlaydi»)
- «Sharq» (1920, she’rdagi «O‘tlar aro yonib turgan qishloqlar», «Tinch turg‘onlar talandilar omonsiz» misralari Qo‘qonga, yuholarcha talangan vodiy xalqiga ishoradir)
- «Mening kecham»
- «Yana yondim» she’rlari
- «Yurt qayg‘usi» ruknidagi mansuralar erkin sarbast vaznida bitilgan

IV. Ilmiy tadqiqotlari

- «Bedil» (Moskva hamda Sankt-Peterburgdalik chogʻlarida yaratilgan ilmiy-ommabop ocherk)
- «Oʻzbek tili qoidolari toʻgʻrisida bir tajriba: Sarf (1-kitob), Nahv (2-kitob)»
- «Sarfi zaboni tojik»
- «Adabiyot qoidolari» (darslik-qoʻllanma)
- «Eng eski turkiy adabiyot namunalari»
- «Oʻzbek adabiyoti namunalari»
- «Sharq shaxmati»
- «Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi»
- «Fors shoiri Umar Xayyom»
- «Aruz haqida» (1936)

15.5. Hamza Hakimzoda Niyoziy

(1889 – 1929)

Hayotiga doir muhim maʼlumotlar

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yilning 6-mart kuni Qoʻqon shahrida tugʻilgan. Otasi Ibn Yamin mashhur tabib boʻlganligi sabab, shoir oʻz taxallusiga Hakimzoda nomini qoʻshgan. Onasining ismi Jahonbibi edi.

Hamza dastlabki taʼlimni shahardagi eski maktab va madrasalarda oldi, oʻsha paytda urf boʻla boshlagan rus-tuzem maktabida rus tilini oʻrganishga harakat qildi. 1899 – 1906-yillarda Qoʻqondagi madrasalarning birida taʼlim oldi. 1908-yili esa Namanganga borib 7 – 8 oy davomida tahsil koʻrdi. Shu davrda Orenburg va Ufada nashr etilgan gazeta-jurnallarni oʻqib jadidchilik gʻoyalari bilan tanishdi.

Badiiy ijod sohasida uning dastlabki ustozlaridan biri tatar maorifchisi Abdulla Toʻqmullin boʻlgandi. Bu haqda keyinchalik adib shunday xotirlagan: «Ul menim qoʻlimda oʻz qalamim bilan yuz sahifadan ortigʻroq eski usuldagi yozishmalarimi koʻrib tarbiyagʻa kirishdi».

1909-yili Hamza arab tilini o'rganish uchun Buxoroga boradi. Biroq shahardagi diniy guruhlar o'rtasidagi mojarolar tufayli Kogon shahriga chetlanib, u yerdagi matbaa korxonasida ishlaydi.

1910-yili Toshkentga kelgan Hamza ma'rifatchilik faoliyatini boshlaydi. Bu yerda Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li boshchiligidagi jadidlar – yangilik tarafdorlari safiga qo'shiladi. Shaharning Qashqar mahallasida usuli jadid (yangi usulda o'qitadigan) maktabini tashkil qiladi. 1911-yili Qo'qonda ochganida, hukmron chor ma'murlari tomonidan yopiladi. O'sha yili Hamza haj safari davomida Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Arabiston o'lkalarida bo'ladi. Yurtiga qaytib ma'rifatparvarlik ishini davom ettiradi, ammo uning Marg'ilon va Qo'qon shaharlarida ochgan maktablari yana tazyiqqa uchraydi: *«1914-yilning oxirlarida Marg'ilonda maktab ochdim. Sakkizinchi oygacha bormay Andreyev ismindag'i Skobel (Farg'ona shahri nomini chor hukumati shunday deb o'zgartirgan edi – tahr.) maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi... Undan yana Xo'qand kelib, yo'qsil bolalar uchun pulsiz o'qish maktabi ochdim... o'zim 4 oyga davom ettirgandan keyin uyezd nachayligi Medinskiy tomonidan tintuv bo'lib yopildi. Lekin hech qanday qog'ozlarim qo'liga tushmagani uchun qamalmay qutuldim».*

1917-yil o'rtalarida Hamza ba'zi bir sabablarga ko'ra Qo'qondan qochib, taniqli ma'rifatparvar Saidnosir Mirjalilovning Turkiston shahridagi uyida yashashga majbur bo'ldi.

So'ng «Kengash» va «Hurriyat» jurnallarida muharrir (1917), Farg'ona viloyati madaniy-maorif bo'limida xodim (1918), teatr truppasida rejissyor (1919), muhtojlar uchun ochilgan maktabda mudir (1920), Buxorodagi teatr truppasida rahbar (1921), Xorazm viloyatidagi madaniy-ma'rifiy muassasalarda mudir (1921 – 1924) vazifalarida ishlaydi, xalqning turmush sharoiti, o'y-fikrlari bilan yaqindan tanishadi. U 1926-yili birinchilardan bo'lib O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoniga sazovor bo'ladi va o'sha yildan e'tiboran erkin ijod bilan shug'ullanishga o'tadi.

Hamza 1929-yilning 18-avgustida Shohimardondagi bir to'da diniy aqidaparastlar tomonidan toshbo'ron qilib o'ldirildi. Bu voqea sho'ro hukumati tomonidan uyustirilgan.

Ijodiy faoliyati

I. O'quv qo'llanmalari

- «Yengil adabiyot»
- «O‘qish kitobi»
- «Qiroat kitobi»

II. She’rlari va to‘plamlari

Hamza dastlab «Nihoniy» («yashirin», «maxfiy» ma’nosida) taxallusi bilan mumtoz adabiyotimiz janrlarida ijod qildi. 1914-yili ilk qo‘lyozma devonini **«Devoni Nihoniy»** nomi ostida tuzdi.

- «Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi» (1915 – 1919):

- 1) «Atir gul»
- 2) «Oq gul»
- 3) «Qizil gul»
- 4) «Pushti gul»
- 5) «Sariq gul»
- 6) «Yashil gul»
- 7) «Safsar gul»

- «Yig‘la, Turkiston»
- «Ko‘zni oching, qardoshlar»
- «Darmon istamas»
- «Millat deganlarning oqar ko‘z yoshi» (1915 – 1917)
- «Vatandoshlarima xitoba» («Sadoyi Turkiston» gazetasi, 1914-yil 15-iyul)
- «Muhtarama onalarimizga xitoba»
- «O‘zbek xotin-qizlariga»
- «Ozod xotin-qizlar qo‘shig‘i» (1914 – 1927)
- «Topmadim» (g‘azal, 1917-yil 5-noyabr)
- «Turkiston muxtoriyatiga» («Ulug‘ Turkiston» gazetasi, 1918-yil 11-yanvar)

III. Nasriy asarlari

- «Yangi saodat» («milliy roman», ilk tajriba, 1914 – 1915)
- «Uchrashuv» («milliy roman», yetib kelmagan, 1914 – 1915)

IV. Pyesalari

1914 – 1916-yillar oralig‘ida yaratilgan

- «O‘ch»
- «Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari»
- «Ilm hidoyati»
- «Mulla Normuhammad domlaning kufr xatosi»
- «Ochlik qurbonlari»

Keyingi yillarda yaratilganlari

- «Muxtoriyat yoki avtonomiya» (1917)
- «Kim to‘g‘ri»
- «Tuhmatchilar jazosi»
- «Boy ila xizmatchi» (1918)
- «Loshmon fojiasi» (uch bo‘limli, 1916 – 1918)
- «Farg‘ona fojiasi» (to‘rt bo‘limli, 1919 – 1920)
- «Maysaraning ishi» (komediya, 1926)
- «Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi» (drama, 1926)

Savol va topshiriqlar:

1. *Jadid adabiyotini yuzaga keltirgan ijtimoiy-siyosiy omillarni sanang.*
2. *Jadid adabiyoti vakillaridan qaysi biri ensiklopedik bilim sohibi deya ta’riflanadi?*
3. *O‘zbek romanchiligining taraqqiyotiga jiddiy ta’sir o‘tkazgan jadid adabiyoti vakillaridan kimlarni ayta olasiz?*
4. *O‘zbek professional dramaturgiyasining asoschisi sifatida kimni aytish mumkin?*
5. *Hamzaning adabiy merosi haqida gapirib bering.*
6. *Abdulla Avloniyning o‘zbek pedagogikasiga qo‘shgan hissasi haqida to‘xtaling.*
7. *Jadid adabiyotining qaysi vakilini o‘zbek she’riyatida inqilob yasagan deb aytish mumkin?*

8. *Jadid adabiyotida tarjima sohasida qanday ishlar amalga oshirildi?*

16. SHO‘RO DAVRI ADABIYOTI

16.1. G‘afur G‘ulom

(1903 – 1966)

Hayotiga doir muhim ma‘lumotlar

G‘afur G‘ulom 1903-yilning 10-may kuni Toshkentning Qo‘rg‘ontegi mahallasida tug‘ildi. U endigina 9 yoshga kirganda, otasi G‘ulom Mirza Orif o‘g‘li vafot etadi. Oradan olti yil o‘tar-o‘tmas bir etak bola mehribon onadan ham ayriladilar. Ukalari va singillari bilan yolg‘iz qolgan G‘afurning «qilmagan xizmati, tutinmagan ishi» qolmaydi. U oilani boqish uchun kosiblik, mixkorlik, aravakashlik qiladi, bosmaxonalarda harf teruvchi bo‘lib ishlaydi. Avval boshlang‘ich maktabda, keyin o‘sha paytda urf bo‘la boshlagan rus-tuzem maktabida o‘qidi. Muallimlar tayyorlaydigan maktabni ham bitirgach avval o‘qituvchilik, so‘ng jurnalistlik qildi.

1923-yildan G‘afur G‘ulom yetim bolalar uyida tarbiyachi, hatto bir muddat mudir bo‘lib ham xizmat qiladi.

G‘afur G‘ulom o‘sha yillari «Kambag‘al dehqon», «Qizil O‘zbekiston», «Sharq haqiqati» singari gazetalarda, «Mushtum» jurnalida uning yuzlab katta-kichik maqolalari, felyetonlari bosiladi.

U Oybek va Hamid Olimjon bilan birga 1943-yili O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi etib saylandi. G‘afur G‘ulom 1963-yili «O‘zbekiston xalq shoiri» unvoniga sazovor bo‘ldi.

Adib 1966-yilning 10-iyunida og‘ir xastalik tufayli vafot etgan.

G‘afur G‘ulom 1999-yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov farmoni bilan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlandi. 2003-yilning may oyida esa G‘afur G‘ulom tavalludining 100 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi.

Ijodiy faoliyati

I. She‘rlari

- «Onalar»
- «Turksib yo‘llarida»

- «Yalovbardorlikka»
- «Oltin medal»
- «Kuzatish»
- «Vaqt»
- «Sogʻinish»
- «Bizning koʻchada ham bayram boʻlajak»
- «Bogʻ» (1934)
- «Sen yetim emassan» (1942)
- «Men – yahudiy»
- «Alisher» (1948)
- «Sharaf qoʻlyozmasi» (1949)
- «Chaman»
- «Bahor ohanglari»

II. Sheʼriy toʻplamlari

- «Dinamo» (ilk sheʼriy toʻplami, 1931)
- «Tirik qoʻshiqlar» (1932)
- «Sharqdan kelayotirman» (1946)

III. Poema va balladalar

- «Koʻkan»
- «Toʻy»
- «Ikki vasiqa»

IV. Hikoyalari

- «Yigit» (hikoyalar toʻplami)
- «Kulgi hikoyalar» (hikoyalar toʻplami)
- «Gilos danagidan tasbeh» (hikoyalar toʻplami)
- «Qizaloq» (1928)
- «Mening oʻgʻrigina bolam» (1965)

• **Bosh qahramonlari:** Qora buvi – Roqiya bibi, o‘g‘ri, hikoyani bayon qiluvchi bola; ikkinchi darajali qahramonlar: Karim qori chitfurush, Odilxo‘jaboy pudratchi, Orif sassiq, Rahmonxo‘ja ellikboshi.

• **Asar syujeti.** Hikoya bolaning tilidan aytiladi: voqealar kuzning ilk kunlarida, tunda ro‘y beradi. Nevaralari bilan uxlab yotgan qora buvi – Roqiya bibini tomdagi o‘g‘ri aksirib uyg‘otib yuboradi va ular o‘rtasida tongga qadar suhbat qiziydi. Ular zamona, hayot qiyinchiliklari haqida suhbat quradilar, o‘g‘ri o‘z sarguzashtlarini aytib beradi.

• **Xulosa:** hikoyada mushtipar ona timsolida o‘zbek onasining quyoshdan issiq mehri, oqibati, insoniyligi... o‘sha davrdagi insonlarning ahvoli ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi.

- «Hasan Kayfiy» (1965)
- «Afandi o‘lmaydigan bo‘ldi» (1965)

V. Qissalari

- «Shum bola» (1936 – 1960)

Asar syujeti va xulosa: Shum bola (Qoravoy) – 14 yoshli bola. Uning ismi asarda keltirilmagan. Bir kuni onasini xafa qilib qo‘yadi va xijolat bo‘lib, qolaversa, ozgina pul topib kelish ilinjida Toshkent atrofidagi qishloqlarni aylanib keladi. Avval pochchasinikiga boradi, pochchasining qimmatbaho qushlarini suzma ichirib o‘ldirib qo‘yadi. Do‘sti Omonga qo‘shilib Sulton o‘g‘ri boshchiligidagi kissavurlar bilan tunni o‘tkazadi, o‘lik yuvib sharmanda bo‘ladilar, masjid imomining kasal ho‘kizining o‘rniga eshakni so‘yib qo‘yadi, bir eshonning xonaqosida ham bo‘ladi, eshon unga «Oyoq-qo‘lli bolasan...» deb bolani to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘g‘rilikka boshlaydi. Nihoyat, Kalasdagi Sariboy bo‘lisning olma bog‘iga xizmatchi bo‘lib ishga kiradi, olma sotadi. Boy Chuvalachidagi Yusuf kontorning dala hovlilarni qimorda yutib olib, bir qirg‘iz xotinni olib, hech kelmay qolganda shum bola qur‘ada uning nomi tushgani uchun boydan olma terish uchun ruxsat olgani Chuvalachiga boradi. Shum bolaning mazkur holatda boyning mot qilishi «Bir yolg‘ondan ming yolg‘on» xalq ertagidagi usul bilan amalga oshadi. Dandon sopli pichoqning sinishi bilan boshlangan voqea Adol opaning olamga tatiydigan o‘g‘ilchani dunyoga keltirgani bilan tugaydi. Natijada Shum bola bu yerdan ham quviladi, Sariog‘och bozorida do‘sti Omon bilan uchrashadi va ikkalasi boyning qo‘ylarini haydab yo‘lga

tushadi... Xulosa: hayotda imon-e'tiqod bilan yashash lozim, halollik hamisha g'alaba qozonadi.

- «Netay»
- «Yodgor» (1936)
- «Tirilgan murda»

Abdulla Qahhor

(1907 – 1968)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentyabrda Qo'qonda dunyoga keldi. Otasi Abduqahhor temirchi tirikchilik o'tkazish uchun Qo'qon atrofidagi Buvayda, Yaypan, Oqqo'rg'on, Qudash, Olqor qishloqlarining biridan ikkinchisiga ko'chib yurar, oila biror qishloqda uzoqroq qo'nim topmasdi. Bo'lajak yozuvchi dastlabki ma'lumotni Buvaydadagi eski maktabda oldi. So'ng Oqqo'rg'on qishlog'idagi jadid maktabida tahsil ko'rdi. Abdulla sho'ro maktabi «Istiqbol»da, undan keyin internatda, so'ng «Kommuna maktabi»da o'qiydi; o'zbek bilim yurtining «Namuna-tadbiqot» maktabida, nihoyat, bilim yurtining o'zida o'qishini davom ettiradi. Sal keyinroq Qo'qondagi yotoqmaktabda o'qidi. 1922 – 1924-yillarda Qo'qondagi o'qituvchilar tayyorlash texnikumida tahsil ko'rdi.

Abdulla Qahhor 1925-yili Toshkentga kelib, kechasi o'qib, kunduzlari «Qizil O'zbekiston» gazetasida ishladi. U 1930-yili O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning pedagogika fakultetini tugatdi. O'qib yurgan kezlari «Mushtum» jurnalida, ko'plab gazetalarda uning o'nlab felyetonlari, hikoya va hajviyalari ketma-ket chop etiladi.

Abdulla Qahhor 1968-yilning 25-may kuni vafot etdi va Toshkentdagi Chig'atoy qabristoniga dafn qilindi. Uning vafoti to'g'risida rus adibi K.Simonov shunday yozadi: «Qahhor umuman jasoratli, mard kishi edi. Mening u haqdagi so'nggi xotiram Qahhor shaxsiyatining mana shu xislati bilan bog'liqdir».

Poytaxtimizda adib yashab ijod etgan maskan bugungi kunda «Abdulla Qahhor uy-muzeyi»ga aylantirilgan.

O‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Abdulla Qahhor «O‘zbekiston xalq yozuvchisi» unvoniga, mustaqillik davrida esa «Buyuk xizmatlari uchun» ordeniga munosib topilgan.

Ijodiy faoliyati

Taxalluslari: Norin shilpiq, Sarimsoq, Mavlon kufur.

I. Hikoyalari

«Abdulla Qahhorning shunday hikoyalari borki, ularni jahon novellistik adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatorga qo‘yish mumkin», – deb yozgan edi rus tanqidchisi V.Smirnova.

- «Hikoyalar» (uchta to‘plam, 1935 – 1939)
- «Anor»
- «O‘g‘ri»

Asarning qisqacha syujeti: Qobil boboning ho‘kizini o‘g‘ri o‘g‘irlaydi. Ellikboshi, amin unga topib berishni va‘da qilib, va‘dani bajarmaydilar. Qobil bobo arboblarga pora sifatida o‘zi yemagan narsalarni olib boradi. Ish chiqmaydi. Oxiri ellikboshi qaynatasi Egamberdi paxtafurushdan ikkita ho‘kizni yerni haydab olish uchun beradi, ammo kuzda ma‘lum bo‘ladigan shart bilan. Hikoyaga «Otning o‘limi – itning bayrami» degan maqol epigraf qilib olingan. Hikoyadagi «Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin» degan jumla ho‘kiz Qobil bobo singari dehqonlar tirikchiligining asosiy tirgagi hisoblanganini nazarda tutadi. «Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz» maqoli ham aynan shu hikoyada keltirilgan. Hikoyadagi «Qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak» jumlasini yemay-ichmay yig‘ish, yo‘qotilgan narsani topish uchun tejamkor bo‘lish ma‘nosini beradi. Hikoyada ellikboshi Qobil boboga ho‘kizi terisini ko‘nchilik rastasidan izlashni maslahat beradi. Qobil bobo ho‘kizini topish uchun ellikboshiga, aminga pul, azayimxonga yarim qop jiyda, uch yelpishtovoq jo‘xori, ikki kalava ip, tilmochga 3 ta (bittasi kurk) tovuq, yuzta tuxum, pristavga bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so‘m pul sarflaydi.

Xulosa: hikoyada boshiga og‘ir kun tushgan insonni jamiyatdagi mansabga noloyiq kimsalarning talon-toroj qilishi aks ettirilgan. Voqealar chor Rossiyasi davrida bo‘lib o‘tgan hisobga olinsa, voqealardan bugungi kun qadriga yetish lozimligi oydinlashadi.

- «Bemor»

Asarning qisqacha syujeti: Sotiboldining xotini og‘rib qolgach, davo topish uchun baxshiga o‘qitadi, tabib chaqiradi, tabib qon oladi, xo‘jayini Abdug‘aniboy esa yordam berish o‘rniga Devonayi Bahouddinga, G‘avs ul-a‘zamga biror narsa «ko‘targan yo ko‘tarmaganiga» qiziqadi. Qo‘shni kampir begunoh go‘dakning duosi ijobat bo‘lishini aytgach, Sotiboldi 4 yashar qizchasini har kuni tongda uyg‘otib duo qildiradi. «Chilyosin» ham qilinadi. Lekin bemor vafot etadi. Qizaloq esa uyqisirab «Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin» deb duo qiladi. Xulosa: hikoya «tanasidan qon oldirgan bemor» (Hamza Hakimzoda Niyoziy ta’rifi) holiga tushgan butun jamiyatning holatini tasvirlaydi.

- «Adabiyot muallimi»
- «San’atkor»
- «Ming bir jon» (1956)
- «To‘yda aza»
- «Dahshat»

Asarning qisqacha syujeti: Hikoyada dodxoning katta xotini Nodirmohbegim «Bola edim, rahmatli dadam gap yer edilar, bir mehmonxona yigit... Mana shunaqa shamol kechasi ekan. «Hozir kim borib Asqarponsotning go‘riga pichoq sanchib keladi degan gap bo‘libdi», – degan gapni aytadi. Olimbek dodxoning kenja xotini tushganiga besh oy bo‘lgan Unsin dodxo bilan garov bog‘lashadi – Unsin go‘ristonga borib choy qaynatib kelishni bo‘yniga oladi, agar uddalasa, dodxo uni taloq qilishi lozim bo‘ladi. Qorong‘u, shamolli kechada dahshat ichra Unsin borib choy damlab keladi. Unsin dodxoning topshirig‘ini bajaraman deb o‘tinni unutadi. Ganjiravonga ketaman deb ishonadi, ammo shu kuni peshinga yetmay uziladi. Dodxoning katta xotini Nodirmohbegim Unsinning jasadini olib, bu yerga qaytmaslikka qasam ichib, Ganjiravonga ketadi.

Xulosa: hikoyada o‘zbek ayolining erk uchun kurashi aks ettirilgan.

- «Mahalla»
- «Nurli cho‘qqilar»

III. Qissalari

- «Qishloq hukm ostida» (1932)
- «Sinchalak» (1958)
- «Muhabbat» (1968)
- «O‘tmishdan ertaklar» (1965)

IV. Romanlari

- «Sarob» (1937)
- «Qo‘shchinor chiroqlari» (1951, ilk nomi «Qo‘shchinor»)

V. Pyesalari

- «Shohi so‘zana» (1951)
- «Og‘riq tishlar» (1954)
- «Tobutdan tovush» (1962)
- «Ayajonlarim» (1967)

Oybek

(1905 – 1968)

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar

Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek 1905-yil 10-yanvar kuni Toshkent shahrida bo‘zchi oilasida tug‘ilgan.

Oybek Shayxantohur dahasidagi «Namuna» maktabi (1918 – 1921) va Navoiy nomidagi ta’lim-tarbiya texnikumi (1921 – 1925)da o‘qib yurgan kezlarda Munavvar qori Abdurashidxonovning ta’sir doirasida bo‘ldi. Munavvar qori shu yillarda sovet hokimiyatini ag‘darib tashlab, mustaqil o‘zbek davlatini barpo etish niyatida «Milliy ittihad» yashirin tashkilotini tuzgan siyosiy arbob edi. Kelajakka hushyor ko‘z bilan qaragan Munavvar qori, Eson afandi, Cho‘lpon kabi kishilarning maslahati bilan Oybek texnikumni tugatgach 1925-yili O‘rta Osiyo davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakultetining siyosiy iqtisod bo‘limiga o‘qishga kirdi. 1930-yili universitetni tugatib oliy ma’lumotli bo‘lgan Oybek universitetda dars berish bilan birga 1933-yili Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish institutida ham ishlay boshladi. 1934-yili bu ilmiy markaz Til va adabiyot institutiga aylantirildi. Xullas, 1935-yili Oybek oldida yo iqtisodni, yo adabiyotni tanlash muammosi paydo bo‘ldi. Avval maktabda, keyin pedagogika texnikumida o‘qigan. 1925 –

1930-yillarda Oʻrta Osiyo davlat dorilfununi (hozirgi Oʻzbekiston Milliy universiteti)ning ijtimoiy fanlar fakultetida taʼlim olgan Oybek oʻqishni bitirib, shu dorilfununda muallimlik qilgan.

Oybek, ayni paytda, Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Gumanitar boʻlimi (1943 – 1951) va Yozuvchilar uyushmasiga (1945 – 1949) rahbarlik qilgan yillarida yirik jamoat arbobi sifatida ham faoliyat koʻrsatdi.

Mashhur kimyogar olim, Oybekning ayoli Zarifa Saidnosirova shunday yozadi: «1968-yilning 1-iyulida, oltmish uch yoshida Oybek vafot etdi. Men hayotimning birdan bir maʼnosi boʻlgan ulugʻ insondan judo boʻldim. Men hozir Oybekning oʻlimoldi kunlarini yozishga qanchalik shaylanmay, qoʻlim qaltirab, nafasim tiqilib qolmoqda. Qulogʻimda hali ham: «Men oʻlyapman, Zarifa, rozi boʻl!» – degan soʻzlari jaranglab turibdi».

Ijodiy faoliyati

Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Oybekning adabiy merosi yigirma jildlik «Mukammal asarlar toʻplami»da eʼlon qilingan (1975 – 1985).

I. Sheʼriy toʻplamlari

- «Tuygʻular» (ilk sheʼriy toʻplami, 1926)
- «Koʻngil naylari» (1929)
- «Mashʼala» (1932)
- «Baxtigul va Sogʻindiq» (1934)
- «Sheʼrlar» (1963)

II. Sheʼrlari

- «Cholgʻu tovushi» – birinchi sheʼri

Shoir lirikasini mavzusiga koʻra 3 guruhga boʻlish mumkin:

I. Ishqiy lirika (bu mavzudagi barcha sheʼrlari ayoli – Z.Saidnosirovaga bagʻishlangan)

- «Orqangdan yigʻlab qoldim» (1926), besh satri band va a-a-b-b-a, v-v-g-g-a tartibidagi qofiya tizimidan iborat:

Orqangdan yigʻlab qoldim,

Koʻksimni tigʻlab qoldim.

Qir, daryodan osharsan,
Bilmam, qayda yasharsan,
Orqangdan yig‘lab qoldim.

- «Uzoqdan turib» (1928-yil 26-oktyabr), Leningradda Oybek Xalq xo‘jaligi institutida o‘qib yurganida yozilgan:

Ko‘zlari cho‘lpondek nozli sevgilim,
Bir qarash tashlading, men sevdim seni.
Xayoling eslarkan qonaydir dilim,
Yolboray, go‘zalim, unutma meni...

II. «Tabiat lirikasi» (1936-yili Chimyonda yaratilgan she‘rlarini o‘z ichiga oladi)

- «Sen g‘urubning oltin qo‘llaridasan» (1936), «Chimyon daftari turkumi»ga mansub. Quyosh botishi oldidagi manzara tasvirlangan.

- «Na‘matak» (1936), besh misrali 4 banddan iborat she‘r, na‘matakka «Vahshiy qoyalarning ajib ijodi» degan ta‘rif beriladi:

Nafis chayqaladi bir tup na‘matak
Yuksakda, shamolning belanchagida.
Quyoshga ko‘tarib bir savat oq gul
Viqor-la o‘shshaygan qoya labida
Nafis chayqaladi bir tup na‘matak...

- «Tog‘ sayri» (1936), o‘n ikki buloqni axtarib topgan shoir holati aks ettirilgan. She‘rda buloqlarga «muhabbat izhor» qilgan shamol obrazi beriladi:
Axtarib topganimda o‘n ikki buloq,
Qalbimda o‘n ikki she‘r birdan jo‘sh urdi.
Hammasi shivirlaydi sizdek shan, inoq,
Ko‘ksimga naq o‘n ikki bahor yugurdi...

III. Harbiy lirika (Oybekning 1942-yil 6-dekabrda 1943-yil martigacha frontda boʻlgan davrida yaratilgan)

- «Yigʻi kelmadi sira» (1943), oʻzbek harbiy lirikasining gultoji.

II. Dostonlari

- «Dilbar – davr qizi» (1931)

- «Oʻch» (1932)

- «Baxtigul va Sogʻindiq» (1933)

- «Navoiy» (1937)

•«Mashrab» – lirik doston. 3 qismdan iborat. Bir qism 5 banddan tashkil topgan, unda shoirning oddiy xalq oʻrtasida mashhurligiga diqqat qaratiladi. 2-qism 10 banddan iborat boʻlib, «Ana shoir kelar...» soʻzlari bilan boshlanadi. Bu qismda Mashrabning ruhiy goʻzalligi va moddiy boylikka nopisandligiga eʼtibor beriladi. Soʻnggi boʻlim besh banddan iborat boʻlib, uni «fikir va tuygʻular doirasi bekiluvchi» boʻlim deyish mumkin. Doston quyidagicha boshlanadi:

Sochlari patila, koʻzlari maxmur,

Koʻzlarda sachraydi qora kuchli nur.

Saraton quyoshi, qish izgʻirini

Ishlamish yuzlarning maʼno, sirini...

Davlati – qalb sheʼri va eski tanbur.

- «Qizlar» (1947)

- «Hamza» (1948)

- «Davrim jarohati» (1952)

- «Guli va Navoiy» (1968)

III. Hikoyalari

- «Fanorchi ota»

Asarning qisqacha syujeti: Tursunqul akaning churuk darvozasi tepasiga Fanorchi ota fanor oʻrnatadi. Bolalar, ayniqsa, Qosim chobattol, uning «koʻz»ini Fanorchi ota qancha yangilamasin, har kuni sindiradilar. Oxiri Fanorchi ota ularga yomgʻirli qorongʻu tunda ariqqa tushib ketgan chol haqida aytib bergach, bolalar fonarni sindirmaslikka vaʼda beradilar. Xulosa: hikoya oʻquvchini insof, shafqat koʻchasiga chorlaydi.

- «Musicha»
- «Singan umid»
- «Tillatopar»
- «Gulnor opa»

IV. Qissalari

- «Nur qidirib» (1957)
- «Bolalik xotiralari» (1963)
- «Bola Alisher»

V. Romanlari

•«Qutlugʻ qon» (1940) – I romani. Tarixiy roman. Roman asosida 1916-yili Toshkentda boʻlib oʻtgan xalq qoʻzgʻoloni yotadi. Lekin yozuvchining romandan maqsadi qoʻzgʻolon emas, balki Yoʻlchi, Gulnor, Shokir ota, Mirzakarimboy, Yormat kabi shaxslar taqdirini tasvirlashdan iborat.

•«Navoiy» (1944) – birinchi tarixiy-biografik roman. Romanda Navoiy siymosining 3 qirrasini: insonparvarligi, shoirligi va davlat arbobi sifatidagi faoliyati ochib berilgan. Romanda quyidagi hikmatli soʻzlar uchraydi: «Chaqmoq qancha balanda chaqnamasin, egri boʻlgani uchun, albatta, yerning qaʼriga borur»; «Shoh bolasiga yurt va sipoh, darvesh bolasiga masjid-u xonaqoh kerak»; «Yomonlardan yaxshilik kutmoq hayvon shoxida gul unmagini orzu qilmoq bilan barobardir»; «Inson barcha maxluqotlarning tojidir. U sharafligina, sof, goʻzal yashamogʻi kerak»; Inson uchun toj kiymoq shart emas, balki nomus ham vijdon sohibi boʻlmoq, jamiyat oldida oʻz masʼuliyatini sezmoq shart!»

- «Oltin vodiidan shabadalar» (1949)

- «Quyosh qoraymas» (1958) – harbiy roman
- «Ulug‘ yo‘l» (1965) – «Qutlug‘ qon»

VI. Pyesasi

- «Mahmud Torobiy» (tarixiy drama, 1942)

VII. Tarjimalari

- A.S.Pushkin: «Yevgeniy Onegin» (she‘riy romani, 1936)
- M.Y.Lermontov: «Maskarad»
- N.Zaryan: «Dovud Sosunli»

Mirkarim Osim

(1907 – 1984)

Hayotiga doir muhim ma‘lumotlar

Mirkarim Osim 1907-yili Toshkentda ziyoli oilasida tug‘ilgan. Dastlab eski maktabda, 1917 – 1920-yillar oralig‘ida esa «Shams ul-urfon» nomli boshlang‘ich maktabda o‘qigan. 1921 – 1924-yillarda shahardagi ta‘lim va tarbiya texnikumida tahsil olgan. Do‘stlari Oybek va Homil Yoqubov bilan shu texnikumda adabiyot va san‘at sirlarini o‘rgangan. 1926-yili Moskvadagi pedagogika institutining tarix fakultetiga o‘qishga kirib, uni 1930-yili muvaffaqiyatli bitirgan. Yurtimizga qaytib kelgach Samarqanddagi o‘qituvchilar tayyorlash kursida dars bergan. 1932 – 1949-yillarda esa avval Toshkent pedagogika ilmiy tekshirish institutida, keyin Maorif xalq komissarligi (vazirligi) qoshidagi ilmiy muassasada ilmiy xodim bo‘lib ishlagan. Shu paytlarda she‘rlar, tarix fanidan qo‘llanma va darsliklar yaratgan.

Mirkarim Osim o‘tgan asrning 50-yillarida sobiq Sho‘ro davlatining qatag‘on siyosatidan cheksiz azob-uqubatlar tortdi. Uning xalqimiz shonli tarixidan hikoya qiluvchi, vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida yozilgan asarlari qoralanib, yozuvchining o‘zi 1950-yil 15-yanvarda qamoqqa olindi. O‘n oy davom etgan tergov azoblaridan so‘ng adib «sovetlarga qarshi targ‘ibot qilgan»likda ayblanib, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi.

1955-yilga kelibgina qatag‘on siyosatidan omon qutulgan adib 1959-yildan to 1972-yilgacha Toshkentdagi G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida muharrir vazifasida xizmat qilgan.

Mirkarim Osim 1984-yili vafot etdi. Uning adabiyotimiz ravnaqi yo‘lida qilgan ulkan mehnatlari mustaqillik tufayligina o‘zining chinakam qadr-qimmatini topdi. Adib 2002-yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi.

Ijodiy faoliyati

I. 1937 – 1940-yillar oralig‘ida yozilgan qissa va hikoyalari

- «Astrobod»
- «Alisher Navoiy va Darvishali»
- «Badarg‘a»
- «Navoiyning xislatlari»
- «Ulug‘bek va Navoiy»

II. Qissalari

- «Yangi ariq» (1925)
- «To‘maris»
- «Shiroq»
- «Iskandar va Spitamen»
- «Aljabrning tug‘ilishi»
- «Ibn Sino qissasi»
- «Jayhun ustida bulutlar»
- «O‘tror»
- «Temur Malik»
- «Mahmud Torobiy»
- «Karvon yo‘llarida»
- «Singan setor»
- «Mohlaroyim va Xonposhsha»

II. Tarjimalari

- M.Sholoxov: «Tinch oqar Don» (roman)
- S.Borodin: «Yeldirim Boyazid» (roman)

- L.Bat: «Hayot bo‘stoni» (qissa)

«Zulmat ichra nur», tarixiy qissa

- Asar syujeti. Alisherlar oilasi Hirotda xotirjam yashaydilar, Alisher Qosim Anvorning baytini o‘qib tog‘alarini hayratga soladi. Shu kunlarda Shohrux mirzo vafot etadi, natijada Hirotdagi notinchliklar sabab Alisherlar oilasi Iroqqa ketadilar, yo‘lda – Yazd shahrida Alisher Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashib uni o‘z so‘zlari bilan hayratga soladi...

- Xulosa: qissa Navoiyni anglashga, undan ibrat olishga o‘rgatadi.

Maqsud Shayxzoda

(1908 – 1967)

Maqsud Mas‘um o‘g‘li Shayxzoda 1908-yili Ozarbayjonning Agdash (Oqtosh) shahrida ziyoli oilada tug‘ilgan.

Shayxzoda tug‘ilgan shahrida maktab ta‘limini olgach Ozarbayjon poytaxti Bokudagi Oliy pedagogika institutiga sirdan o‘qishga kiradi. 1925-yildan muallimlik qila boshlaydi. 1928-yili u hurfikrliligi, ya‘ni Ozarbayjoni mustaqil davlatga aylantirish haqidagi erkin fikrlari uchun ayblanib Toshkentga badarg‘a qilinadi. Ayni shu davrdan boshlab to umrining so‘ngiga qadar Shayxzodaning butun hayoti O‘zbekiston bilan bog‘landi. U avval turli gazeta va jurnallar tahririyatlarida muharrir, 1935 – 1938-yillarda O‘zbekiston Fanlar komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan hayoti so‘ngigacha Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘zbek mumtoz adabiyoti kafedراسi o‘qituvchisi bo‘lib ishladi.

Shahyhzoda ham «qatag‘on» siyosatining qurboni bo‘lib, «xalq dushmani» degan tuhmatlar bilan qamaladi. 50-yillarning o‘rtalarida qatag‘onchilik qoralanib, ko‘p halol insonlar qatori Shayxzoda ham ozod etilgach, u irodasini bukmay qizg‘in ijod bilan mashg‘ul bo‘ldi. She‘rlar, doston va dramatik asarlar bilan birga Shekspir, Pushkin, Lermontov, Mayakovskiy, Nozim Hikmat kabi jahon adabiyoti namoyandalari ijodidan tarjimalar qildi. Olim sifatida Alisher Navoiy she‘riyati haqida ilmiy tadqiqotlar yaratdi.

Shoir 1967-yilning 19-fevralida xastalikdan vafot etadi. Uning vafotidan soʻng olti jildlik «Asarlar»i nashr etiladi.

U 2001-yili «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlandi.

Ijodiy faoliyati

Shayxzodaning dastlabki ijod namunalari 1929-yildan eʼlon qilina boshlandi. Badiiy ijod bilan bir qatorda oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, Gʻafur Gʻulom, Hamid Olimjon, xalq ogʻzaki ijodining ajoyib vakili Fozil shoir, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Shota Rustaveli, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, A.N.Ostrovskiy, T.G.Shevchenko, A.P.Chexov kabi namoyandalariga bagʻishlangan ilmiy-tahliliy asarlar yaratgan.

I. Sheʼriy toʻplamlari

Urush yillarigacha

- «Loyiq soqchi»
- «Oʻn sheʼr»
- «Undoshlarim»
- «Uchinchi kitob»
- «Jumhuriyat»
- «Oʻn ikki»
- «Yangi devon»
- «Saylov qoʻshiqlari»

Urush yillarida

- «Kurash nechun»
- «Jang va qoʻshiq»
- «Kapitan Gastello»
- «Koʻngil deydiki»

Urushdan soʻng

- «Oʻn besh yilning daftari»

- «Olqishlarim»
- «Zamon torlari»
- «Shu'la»
- «Chorak asr devoni»
- «Dunyo boqiy»
- «Xiyobon»

II. She'rlari

- «She'r chin go'zallik singlisi ekan» (1963)

She'rda Shayxzoda she'riyatga do'st tutingan qalblarni ulug'lash qatorida unga beparvo ko'ngillarni poetik tanqid ostiga oladi, yanada to'g'rirog'i, bunday kishilarga achinishini aytadi. She'riyatga beparvo ko'ngil, uning nazarida, maqsaddagi shukuh, niyatdagi tarovat, orzudagi nafosat, natijadagi yog'dulardan bebahra qoladi:

She'rsiz qalblarga achinaman men,
 Ularda na tonglar kunduzni boshlar,
 Na oqshom yulduzlar ufqin ochar keng,
 Na bahor chog'ida sayraydi qushlar.

III. Dostonlari

- «Toshkentnoma» (1956 – 1957) – Toshkent ta'rifiga bag'ishlangan, 18 bobdan iborat. Shoir Toshkent ta'rifini berishda 9 vazndan foydalanadi. She'r quyidagicha boshlanadi:

Shaharlar boqiydir, umr – o'tkinchi,
 Daryolar sobitdir, suvlar – ko'chkinchi.

Shoir Toshkent shahriga muhabbatini quyidagi misralarda bayon qiladi:

Toshkentni sevmqlik yurakning ishi,
 Shu uchun shartmikan bunda tug'ilmoq!
 Shartmi bir romanga ishqiboz kishi
 O'zi u romanga qahramon bo'lmoq!

- «O‘rtoq mulk»
- «Tuproq va haq»
- «Chirog‘»
- «O‘rtoq»
- «Meros»
- «Ovchi qissasi»

•«Iskandar Zulqarnayn» – ertak-doston. Maqsud Shayxzoda xalq tomonidan berilgan sifat – «Iskandar Zulqarnayn», ya’ni shoxli Iskandar haqidagi rivoyatni o‘rganib, uni g‘oyaviy va badiiy jihatdan boyitib ertak-doston yaratadi. Unga ko‘ra, Iskandarning boshida shoxi bor ekan. Buni hech kim bilmas ekan. Qaysi sartarosh sochini olsa, ertasiga gumdon qilinar ekan. Oxir ish shungacha boribdiki, mamlakatda sartarosh qolmabdi. Oxirgisini olib kelibdilar... Shunda Iskandar unga shunday debdi:

Ustarangni tayyorla,
Sochlarimni qirq-tashla,
Ehtiyot bo‘l ham jiddiy!

Sartarosh Iskandarning boshidagi qo‘sh shoxni ko‘rib qo‘rqib ketibdi. Podshohning hech kimga aytmaslik haqidagi farmoniga itoat etib hech kimga aytmaydi-yu, lekin chidolmasdan quduqqa borib aytibdi. Quduq atrofidan o‘sib chiqqan qamishdan nay yasalib, naydan shunday ovoz chiqibdi:

Voydod, dunyolar shohi
Iskandarning bor shoxi!

Asar muallifi mashhur rivoyatni she’riy shaklga solarkan, dunyoda hech bir yomonlik jazosiz qolmaydi, tuban ishlarni qanchalik yashirmang, u baribir bir kuni oshkor bo‘ladi degan ibratli g‘oyani ilgari suradi.

- «O‘n birlar»
- «Jenya»
- «Oqsoqol»
- «Ahmadjonning hikmatlari»

- «Uchinchi o‘g‘il»
- «Nurmat otaning tushi»

IV. Pyesalari

- «Jaloliddin Manguberdi» (tarixiy drama, 1944, to‘liq nashri 1988)

«Jaloliddin Manguberdi» dramasi ona Vatan uchun, uning ozodligi uchun bosqinchilarga qarshi kurash olib borgan jasur sarkarda siymosi tasvirlangan bo‘lib, dramada quyidagi qahramonlar ishtirok etadi: Xorazm shohi Sulton Muhammad Alovuddin Xorazmshoh, Sultonbegim (Jaloliddinning singlisi), Amir Badriddin (Samarqand hokimi, shoh qizi Sultonbegimning qaylig‘i, ya‘ni Jaloliddinning kuyovi), Temur Malik (sardor, Xo‘jand hokimi), Muhammad Nasaviy (tarixchi, Jaloliddinning kotibi), Chingizxon va boshqalar.

- «Mirzo Ulug‘bek» (tarixiy fojia, 1960) – buyuk olim va temuriy hukmdor Mirzo Ulug‘bek hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan. Fojia qahramonlari: Mirzo Ulug‘bek ibn Shohrux, Abdullatif mirzo (uning o‘g‘li), Ali Qushchi (Ulug‘bekning «farzandi arjumandi», shogirdi va mahrami, munajjim), Sakkokiy (mashhur shoir, Ulug‘bekka bag‘ishlab 4 qasida yozgan), Shayxulislom Burhoniddin (zamonasining taraqqiyparvar ulamolaridan), Abbos (Sayid Obidning o‘g‘li, Abdullatifning mahrami), Abdurazzoq Samarqandiy (mashhur tarixchi), Vek Arslon (sardor), Mavlono Shamsiddin Muhammad Miskin (Samarqand qozisi), Piri Zindoniy (Hasan ohangar, mahbus), Berdiyori (Ulug‘bekning navkari), Ota Murod (dehqon), Chin, Hind, Farang, Misr, Rus elchilari, Amir Temurning arvohi.

V. Tarjimalari

Shayxzoda tarjimon sifatida Sh.Rustaveli, V.Shekspir, A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat va boshqalarning asarlarini o‘zbek tiliga o‘g‘irgan.

Mirtemir

(1910 – 1978)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Mirtemir (Mirtemir Tursunmat o'g'li) 1910-yil 10-mayda Turkistonning Qoratog' etaklaridagi Eski Iqon qishlog'ida tug'ilgan. Shoirning otasi Tursunmat Umarbek o'g'li adabiyotga ixlosmand edi.

Mirtemir 11 yoshida amakisiga qo'shilib Toshkentga qochib keladi va Beshyog'ochdagi «Almai» nomidagi ishmaktabga joylashadi. Ikki yil bu maktabda o'qigach Toshkentning yangi shahar qismidagi «O'zbek erlar bilim yurti»ga ko'chadi. Shoir ham o'qib, ham ishlagan yillari haqida shunday yozadi: «Ishmaktabda ham, bilim yurtida ham o'zimiz ekar, o'zimiz yig'ar edik, o'zimiz tikar, o'zimiz kiyar edik. Deyarli hamma hunar o'rgatilar edi. Og'ir yillar edi; to 1924 – 1925-yillargacha xo'ragimiz har kuni ikki yo uch marta bir burdadan qora non va tushlik bir cho'mich bo'tqa edi. Ishmaktabning bog'i Chilonzorda, bilim yurtining bog'i Ko'kterakda edi. Yoz bo'yi hamma bog'da ishlardi va rangga qon, bo'yga jir bitib qaytardik. Bilim yurtida o'qishlar og'ir, o'qituvchilar talabchan bo'lib, kechasi allamahallargacha sovuq bo'lmalarda dars tayyorlardik».

1929-yili bilim yurtini tugatgan Mirtemir yo'llanma bilan o'sha yaqtda poytaxt bo'lgan Samarqand shahriga keladi. Samarqandda Pedakademiya (hozir Samarqand davlat universiteti) o'qish bilan barobar O'zbekiston Markaziy ijroiya qo'mitasining raisi Yo'ldosh Oxunboboyevga shaxsiy kotib bo'lib ishlaydi.

1932-yil 7-avgust kuni 22 yashar Mirtemir Y.Oxunboboyevning shaxsiy kotibligiga ham qaramay Samarqandda qamoqqa olinadi. Shoir 1934-yil o'rtalarida Moskvadagi Dmitrov lageriga etap bilan yuboriladi va Moskva – Volga kanali qurilishida ishlaydi. Yosh shoir 1935-yil boshlarida afv etilib, ona yurtiga sog'-omon qaytadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Mirtemir O'zbekiston radio qo'mitasi (1941) va O'zbekiston davlat nashriyotida (1942) muharrir, Opera va balet teatrida adabiy emakdosh (1943 – 1944), 50 – 60-yillarda esa O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi, Badiiy adabiyot nashriyotida muharrir vazifalarida xizmat qiladi.

Mirtemir 1978-yil 24-yanvarda 68 yoshida vafot etdi.

Unga 2002-yili «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berilgan.

Ijodiy faoliyati

Mirtemirning ilk she'ri – «Tanburim ovozi» 1926-yili 16 yoshida e'lon qilinadi.

I. She'rlari

- «Onaginam»

- «O'zim bilaman...»

- «Qirg'iz she'rlari»

- «Men seni injitmayman» – shoirning xotini Yorqinoyga, turkistonliklar tili bilan aytganda, To'rash kelinoyiga bag'ishlangan. She'ning asosiy qismi yetti hijoli satrlardan tashkil topgan. Ammo ba'zan o'n to'rt hijoli satrlar ham uchrab turadi. Garchi bu satrlar ham yetti hijoli turoqlardan tashkil topgan esa-da, fikr va tuyg'uning tugal holga kelishi va qofiyalanish tartibiga ko'ra yetti hijoli she'riy nutqning davomi bo'la olmaydi. Bu o'n to'rt hijoli satrlar shoir tuyg'ularining favvorasi o'laroq otilib chiqadi va o'ziga xos lirik kechinma vazifasini o'taydi.

- «Pardalik» (1962)

- «Go'zal»

- «Ona tilim» (1974)

- «Qoraqalpoq daftari»

- «Qirg'iz she'rlari»

- «Kipriklarim» she'ri (1960)

II. She'riy to'plamlari

- «Shu'lalar qo'ynida» (birinchi to'plam, 1928)

- «Zafar»

- «Qaynashlar»

- «Tong»

- «Bong»

- «Poytaxt»

- «O'ch»

- «Qoraqalpoq daftari»

- «Tingla, hayot!»
- «Izlaganim»
- «Tog‘day tayanchim»
- «Yodgorlik»

III. Dostonlari

- «Ajdar» (1935)
- «Dilkusho»
- «Suv qizi» (1937)
- «Oysanamning to‘yida» (1938)
- «Qo‘zi» (1939)
- «Nomus»
- «Farg‘ona»
- «Surat» (lirik qissa, 1956 – 1957), «Qoraqalpoq daftari» she‘riy

turkumiga kiritilgan. Asar bir necha lirik she‘rlardan tarkib topgan. Bu she‘rlarni mustaqil she‘r sifatida ham, o‘zaro yagona lirik syujetga birlashgan yaxlit doston sifatida ham qabul qilish mumkin. Qissada tasvirlanishicha, asarning bosh qahramoni Toshlon to‘rt yillik (Surat, surat, nega sen tilsiz? Seni asrab to‘rt yil qo‘ynimda... Topinardim, o‘pardim... esiz!) jangda (Gunohim ne? Jangda bo‘lganim, qon kechganim, ming bor o‘lganim?), demak, Ikkinchi jahon urushi frontlarida jang qilgan paytida uning halok bo‘lganligi haqida xabar tarqaladi. Shundan keyin Toshlonning sevimli yori Oysuluv undan umid uzib, boshqa bir kimsaga turmushga chiqadi. Urushdan omon-eson qaytgan Toshlon bu xoinlikka duch kelib falakning adolatsizligidan eziladi, iztirob chekadi. Oradan yillar o‘tib bevafo yor tufayli qalbdan oqqan jarohat qonlari to‘xtaydi. Yurak yaralari hayotning boshqa voqealari ta‘sirida malham topadi. Ammo ittifoqo chiqib qolgan bevafo yorning surati Toshlon qalbidagi eski jarohatni tag‘in yangilab yuboradi. Lirik qissa Toshlon hayotining xuddi shu soniyasidan boshlanadi. Aslida, Toshlon bu Mirtemirning o‘zi. Asarda shoirning qamoqdalik paytida Moskva – Volga kanali qurilishida kechgan azobli hayoti va o‘limlarni hatlab kelgani o‘z ifodasini topgan. Mirtemirning, demak, Toshlonning yori mashhur

raqqosa bo'lgan. Shoir uni yod etganida qo'shiq va raqslar olamida kechgan oqshomlar xotiraga kelishi tabiiy. Shuning uchun bevafo yor Toshlon xotirasida jonlanar ekan, shoir she'riy nutqda qo'shiq va raqslarning o'ynoqi ritmlaridan mohirlik bilan foydalanadi.

IV. Pyesasi

- «Birinchi prezident»

V. Tarjimalari

Mirtemir T.G.Shevchenko, Genrix Geyne, M.Gorkiy, Pablo Neruda, Nozim Hikmat, Abay, Maxtumquli, Berdaq, Samad Vurg'un asarlarini o'zbekchallashtirgan, shuningdek:

- Sh.Rustaveli: «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon» dostoni (A.Umariy bilan hamkorlikda)
- A.S.Pushkin: «Ruslan va Lyudmila»
- M.Y.Lermontov: «Ismoilbek», «Savdogar Kalashnikov haqida qissa»
- N.A.Nekrasov: «Rusiyada kim yaxshi yashaydi?»
- «Manas» (qirg'iz eposi, 1-kitob)
- «Qirgiz» (qoraqalpoq xalq dostoni)

Hamid Olimjon

(1909 – 1944)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug'ildi.

Jizzaxdagi Narimonov nomidagi boshlang'ich maktabni tugallab, Samarqand pedagogika bilim yurtida (1923 – 1926), keyin Pedagogika akademiyasida (1926 – 1931) tahsil oldi.

1931-yili Hamid Olimjon Pedakademiyaning tugatib Toshkentga ko'chib keldi. «Yosh leninchi» gazetasida, «Qurilish» va «O'zbekiston sho'ro adabiyoti» jurnallarida mas'ul kotib lavozimida xizmat qildi. 1932 – 1937-yillarda, «millatchi» sifatida ishdan haydalguniga qadar Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish institutida ishladi. Qatag'on

to‘lqinlari biroz susaygach, 1938-yil boshlarida Hamid Olimjon O‘quv-pedagogika nashriyotiga ishga olindi. O‘sha yilning noyabrida yangi tashkil etilgan Navoiy komitetiga mas’ul kotib bo‘lib ishga kirdi. 1937-yil aprelida esa O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining kotibi etib tayinlandi. Hamid Olimjon ijodi ayni gullab-yashnagan bir davrda – 1944-yil 3-iyulda avtomobil halokati natijasida vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

I. She’rlari

- «Kimdir» (chop etilgan ilk she’ri, «Zarafshon» gazetasi, 1926)
- «Temir qonun»
- «Nima bizga Amerika?»
- «Baxtlar vodiysi»
- «Qozog‘iston»
- «O‘rik gullaganda»
- «Ofeliyaning o‘limi»
- «Sevgi»
- «Kuygay»

II. She’riy to‘plamlari

- «Ko‘klam (birinchi she’rlar to‘plami, 1929)
- «Olov sochlar» (1931)
- «Poyga» (1932)
- «She’rlar»
- «Daryo kechasi» (1936)
- «Baxt» (1940)

II. Dostonlari

- «Oygul va Baxtiyor» (1937) – ertak-doston.

Asarning qisqacha syujeti: Juda qadim zamonda Jambil degan yurtda nihoyatda og‘ir ahvolga tushgan xalq o‘zini qul qilgan xon zulmiga qarshi bosh ko‘taradi. Jambildagi qo‘zg‘olonga keksa qul Darxon va uning mardona qizi Oygul boshchilik qiladi. Kuchlar teng bo‘lmagani tufayli, qo‘zg‘olonchilar mag‘lubiyatga uchrab, Darxon qizining ko‘z

o'ngida zolim xon tomonidan qatl etiladi. Saroyda xizmat qiladigan, xondan juda ko'p jabr-u jafo ko'rgan Tarlon ismli kekxa qul zindonda yotgan Oygulni qutqarishga jazm etadi. Qizni sandiqqa solib daryoga oqizib yuboradi. Sandiqqa Oygul uchun yetadigan non ham solib qo'ygan edi.

Daryoda uzoq oqqan sandiq, nihoyat, Jarjon degan yurt qirg'oqlariga kelib qoladi. Daryo qirg'og'iga o'tin terгани kelgan bir kambag'al chol sandiqni tutib suvdan olib chiqadi. O'rog'i yordamida sandiqning bir chetini zo'rg'a ochgach uning ichidan odam tovushi kelayotganidan cho'chib ketgan sodda chol odamlar orasida ochay deb sandiqni bozorga olib boradi va boshi baloga qoladi. Odamlar uni o'g'ri gumon qilib ushlaydi va podsho saroyiga olib kelishadi. Oddiy odamlar taqdiriga befarq, bag'ritosh podsho esa sandiq ichidagi narsa nima ekanini oxirigacha surishtirmay sho'rlik cholning tanini boshidan judo qiladi. Oygul endi bir zolimdan qutulib, ikkinchisining qo'liga tushadi... Qari podshohning xotini bo'lib, ko'ngli yo'q odam bilan bir umr zarga ko'milib yashashdan o'z ozodligini afzal bilgan bizning Oygul saroyning qirq kanizagi bilan cho'milish bahona daryoga boradi va ko'zini chirt yumib o'zini suvga otadi. Daryodagi bahaybat Jayhun baliq esa Oygulni bir hamla bilan yutib yuboradi...

- «Semurg'»
- «Zaynab va Omon»
- «O'lim yovga»

III. Pyesalari

- «Muqanna» (1942)
- «Jinoyat»

IV. Balladasi

- «Roksananing ko'z yoshlari»

IV. Hikoyalar to'plami

- «Tong shabadasi» (1930)

Usmon Nosir

(1912 – 1944)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Bo'lg'usi shoir 1912-yilning 13-noyabrida Namangan shahrida dunyoga keldi. Uning hunarmandchilik bilan ro'zg'or tebratadigan otasi bu paytda og'ir xasta yotgan bo'lib, bola go'dakligidayoq olamdan o'tadi. To'rt yasharligida onasi Xolambibi shu yerlik Nosirhoji degan kishiga turmushga chiqadi va oila Qo'qonga ko'chib keladi. Usmonjon shahardagi internatda o'qiydi, tarbiyalanadi.

1931-yili Usmon Nosir Samarqanddagi O'zbekiston dorilfununi (hozirgi Samarqand davlat universiteti)ga o'qishga kiradi.

1937-yili ustozlari Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy va yana ko'plab ijodkorlar qatori Usmon Nosir ham «xalq dushmani» degan tuhmat bilan ayblandi. U sovuq Sibir o'lkalariga surgun qilindi. Bu paytda shoir bor-yo'g'i 24 yoshga kirgandi. Usmon Nosir 1944-yilning mart oyida Rossiyaning Kemerovo viloyatidagi mahbuslar lagerida vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

I. She'rlar

- «Oq yuvib, oq tarab» – Samarqanddan onasiga yozgan she'riy maktubi.
- «Bolaligimga» – she'rda bolalik yashnoq «gul»ga, «barglari ko'm-ko'k palak»ka, go'zal «malak»ka o'xshatilsa, shoir o'zini gul hidini emuvchi, dilbar malak boshi uzra parvona bo'luvchi kapalakka mengzaydi.

• «Yurganmisiz birga oy bilan» – she'r 1935-yili, Usmon Nosir davolanish uchun shimolga – Boltiq va Oq dengiz bo'ylariga safar qilgan davrda yozilgan. Bu paytda sobiq Sho'ro davlatida xalq orasidan yetishib chiqqan ko'plab ziyolilarni ta'qib etish avj ola boshlagandi. Gazeta va jurnallar, tez-tez chaqirib turiladigan majlislarda, ayniqsa, shoir-yozuvchilar haqida ko'pdan ko'p tuhmat gaplar aytilardi. Usmon Nosir o'ziga ustoz deb bilgan Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy singari ijodkorlarga tinimsiz hujumlar uyushtirilar edi. Yurtidan uzoqda bo'lsa-da, shoirning navqiron ko'ngli bularning baridan ozor chekmasligi mumkin emasdi. Shu tufayli ham shoir o'zining ayni kunlardagi kayfiyatini ifodalab:

Men mast bo'lib qoldim bir kecha,

Sil o'pkamni ancha yayratdim.

Uxlamasdan to tong otguncha

Dilginamni rosa sayratdim, –

deydi. Bu yerda shoir «sil o'pkam» deya faqat o'zining jismoniy xastaligi to'g'risida gapirmayapti. Balki yuqorida aytib o'tganimiz – biqiq, tuhmat-u razolatga to'la muhitda siqilgan ko'nglini – ruhini nazarda tutmoqda.

- «Yur, tog'larga chiqaylik» – she'rda aks etgan tog'larning ulug'vorligi, ular bag'rini qoplagan olmos yanglig' oppoq qor nuri har qanday o'quvchi diliga yorug'lik olib kiradi. Zero, bolalik, yoshlikning o'zi ham doimiy harakatga talpinuvchi, bir joyda tinim bilmaydigan sharqiroq suvday toshqin fasldir. Uning ko'ziga dunyodagi barcha narsa mo'jiza bo'lib ko'rinishi, u har bir hodisadan kashfiyot izlashi ham tabiiydir. Tog'lar sari ko'tarilarkan, bu mo'jaz qalb go'yo qanot chiqarib uchadi, tog'larning ulug'vorligini o'zida ham his etishni juda-juda xohlaydi. Oppoq nur yoshlikning ko'zini qamashtiradi, hayotni jozibador, faqat go'zallikdan iboratdek qilib ko'rsatadi...

- «Yo'lchi» – she'r Usmon Nosir 23 yoshga kirganda yozilgan. Asar qahramoni qora yo'rg'aga minadi. Ma'lumki, aksariyat qahramonlar jang va sinovlarda qora ot minib qatnashadilar. Bunday misollarni Qadimgi Sharq og'zaki ijodida ham ko'plab uchratish mumkin. Qahramonlar faqat bir holatdagina oq otga minadilar – g'alaba, zafar quchgan kezlarida.

- «Nil va Rim» – Qadimgi Misr va Rimdagi quldorlik tuzumi davridagi voqealar bayon qilingan. She'r 23 yoshli shoirning tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Shoirning ko'z o'ngida goh qullar ko'z yoshidan to'lgan Nil, goh «o'yindan o'lim kutgan jinni teatr» – Rim gavdalanaveradi:

Chirog'imga parvonadek urinar yillar –

To'rt atrofim to'lib ketar kuygan qanotga...

Asarning II qismida «Sariq qumlar orasidan qon rangli quyosh ko'tarilar» deyiladi. Boshqa bir misrada esa «Botayotgan quyosh kabi rangida qon yo'q» degan o'xshatish ishlatiladi. Asarda naqaratdek ikki bor qaytarilgan, «Mana menman, u isyonning o'lmas

avlodi...» deya boshlanuvchi fidoyi hayqiriq go‘yo Usmon Nosirning o‘zini kutayotgan og‘ir erksizlik, surgun zulmatlariga oldindan ko‘tarilgan isyondek yangraydi!

- «Yurak»:

Itoat et!

Agar sendan

Vatan rozi emas bo‘lsa,

Yoril! Chaqmoqqa aylan sen,

Yoril! Mayli, tamom o‘lsam!

- «Monolog» – she’rda lirik qahramon o‘ziga qadar hamma qulluq qilib turgan, ta’rifiga hamd-u sano keltirayotgan sevgiga qarshi bosh ko‘taradi. Uning nazdida, bu tuyg‘u ne-ne insonlarni sarson-sargardon qildi. Ular orasida Petrarka va Sapfo ham, Tasso va Dante ham, Hamlet va Otello ham bor. Shoir:

Aqlidan ozganmi muhabbat?

Mumkin emas, qarshi turmasdan! –

der ekan, bu qudratli kuch, bu yengilmas his qarshisiga mardona chiqadi. Shu yerda shoir o‘zi qarshi borayotgan hodisaning mohiyatiga aniqlik kiritadi. Zero, u, umuman, sevgi-muhabbatni emas, balki insonning shunday mo‘tabar, nozik tuyg‘ularini xo‘rlagan, sevgining qo‘llariga xanjar tutqazgan davrni qoralaydi.

Xulosa qilib aytganda, «Monolog» she’ri sevgi-muhabbat mavzuyi mutlaqo yangi nuqtayi nazardan turib yoritilgan, talqin etilgan o‘lmas asar hisoblanadi. Nafaqat u yozilgan payti, to hozirgacha ko‘ngliga muhabbat hissi ingan yoshlar beixtiyor shu she’r misralarini eslaydilar, boshqaga eshittirmay pichirlaydilar.

- «Yana she’rimga»

- «Bog‘im»

II. She’riy to‘plamlari

- «Quyosh bilan suhbat»

- «Safarbar satrlar»

- «Traktorobod»
- «Yurak»
- «Mehrim»

III. Dostonlari

- «Norbo‘ta»
- «Naxshon»

IV. Pyesalari

- «Atlas»
- «Zafar»
- «So‘nggi kun»
- «Dushman»

V. Tarjimalari

- N.A.Dobrolyubov: «Haqiqiy kun qachon keladi?»
- V.I.Kirshon: «Ulug‘ kun» (drama)
- A.S.Pushkin: «Bog‘chasaroy fontani»
- M.Y.Lermontov: «Iblis» (U.Nosirning o‘zi tarjimagaga «Демон» деб ном qo‘ygan экан? Дарсликда қандай?)
- Geyne, Gyote, Bayron she‘riyatidan namunalar

Zulfiya

(1915 – 1997)

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar

Zulfiya Isroilova 1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang‘ich maktabda, so‘ng xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935 – 1938-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida o‘qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. 1953-yildan 1980-yilgacha, qariyb o‘ttiz yilga yaqin, respublikamizda keng tarqalgan «Saodat» nomli xotin-qizlar jurnalida bosh muharrir bo‘lgan. U atoqli o‘zbek shoiri Hamid Olimjon bilan oila qurgandi. Biroq ular orzularga to‘la hayot kechirayotgan pallada – 1944-yili mashina

halokati tufayli turmush o'rtog'idan ayriladi. Shundan so'ng umr bo'yi o'z muhabbatiga sodiq qoldi.

Zulfiya keng tanilgan jamoat arbobi edi. U Osiyo, Afrika va Yevropaning o'nlab davlatlarida bo'lib, xalqaro xotin-qizlar hamda adabiyot namoyandalarning harakatlarida faol ishtirok etardi. Yurtboshimiz Islom Karimov ta'rificha, «Uning jahon minbarlaridan yangragan she'rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan».

Shoiraning she'rlari ingliz, nemis, rus, bolgar, xitoy, hind, yapon, arab, fors, vyetnam kabi juda ko'p xorijiy tillarga tarjima qilingandi. Rus, ukrain, ozarbayjon, hind shoiralarining she'rlarini o'zbekchalashtirgan. U O'zbekiston xalq shoiri, xalqaro «Nilufar», Javoharlar Neru nomidagi hamda Davlat mukofotlari sohibasidir.

Shoira 1997-yili 82 yoshida vafot etgan.

Ijodiy faoliyati

I. She'riy to'plamlari

- «Hayot varaqlari» (ilk she'riy to'plami, 1932)
- «She'rlar»
- «Qizlar qo'shig'i» (1938)
- «Uni Farhod der edilar» (1943)
- «Hijron kunlarida» (1944)
- «Dalada bir kun» (1948)
- «Tong qo'shig'i» (1953)
- «Yuragimga yaqin kishilar» (1958)
- «Kuylarim sizga» (1965)
- «O'ylar»
- «Shalola»

II. She'rlari

- «Nevara» (Ulug'bekka) – 7 tuyg'u tarannumini o'z ichiga olgan «Aziz tuyg'ular» nomli turkumga kirgan she'r. Bahor chog'i yozuv stolida o'tirgan lirik qahramonning xayollarini dabdurustdan to'zitib xonaga nevarasi kirib

keladi. She'r bitilayotgan qog'ozdan olib varrak yasaydi va uni osmonga uchiradi. Nevarasining xatti-harakatlarini kuzatib turgan shoira uning ko'rinishi, qiliqlarida vafot etib ketgan bobosi (o'zbek xalqining atoqli shoiri Hamid Olimjon)ga o'xshash jihatlarni ilg'aydi va beixtiyor aziz xotiralarga beriladi.

- «Bog'lar qiyg'os gulda». She'r ramziy ma'noga ega. Unda tasvirlangan «bir kaft bog'», yaxlit bir manzil – Vatan bo'lib, unda turlicha tarovat, turli bo'y tarqatuvchi daraxtlar bor. Ularning har biri o'zicha ko'rk, o'ziga xos meva-yu hosil beradi. Go'yo har bir daraxt – bir-biriga o'xshamaydigan millat va elatlar. Har birining o'z tarixi, o'z urf-u odatlari, yashash tarzi bor. Lekin ular bitta bog'da – bir maskanda, ya'ni bir Vatanda – O'zbekistonda jam bo'lganlar.

- «Men o'tgan umrga». She'r lirik qahramonning havas qilsa arzigulik hayot yo'li haqidadir. O'zbek ziyolilarini qatag'on qilish siyosati avj olgan o'tgan asrning 30-yillarida shoira ham qamoqqa olingan. Turmush o'rtog'i Hamid Olimjon qoralangan. 1944-yili u avtohalokatga uchrab o'ttiz besh yoshida fojiali halok bo'ladi. Shundan so'ng Zulfiya ikki go'dak farzandini yolg'iz o'zi tarbiya qilib, og'ir yillarda matonat va sadoqat bilan umr kechirdi. Shoira har tong umid bilan, ilhom, ijod bilan kechgan umrini – ma'naviy umrini aziz biladi. Odmi, oddiy libos kiydimi yoki gohi och, gohi to'q yashadimi, bularga parvo qilmadi. Hayotidagi eng muhim deb bilgani yurak boyligi, ya'ni xotiralari, ezgu tuyg'ularini asradi.

- «Bahor keldi seni so'roqlab...»
- «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush» (1945)

III. Poemalari

- «Quyoshli qalam»
- «Mushoira» (1958, Hindiston bilan bog'liq)
- «Xotira siniqlari» (1995)

IV . Pyesa va opera librettolari

- «Semurgʻ» (Hamid Olimjon dostoni asosida)
- «Zaynab va Omon» (Hamid Olimjon dostoni asosida)

Turob Toʻla

(1918 – 1990)

Hayotiga doir muhim maʼlumotlar

Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi, Oʻzbekiston xalq shoiri Turob Toʻla 1918-yilning 24-dekabrida hozirgi Janubiy Qozogʻiston viloyatining Turbat qishlogʻida tugʻilgan. Ota-onasidan erta ayrilgan Turobjon bolalar uyida taʼlim-tarbiya oladi. 1934 – 1938-yillarda Toshkent teatr bilim yurtida, 1938 – 1941-yillar oraligʻida Toshkent pedagogika instituti til va adabiyot fakultetining kechki boʻlimida oʻqiydi, kunduzi esa ishlab ijodiy va hayotiy tajribalarini boyitadi. Oʻqishni bitirgach respublikamizning madaniy-maʼrifiy tashkilotlarida turli vazifalarda sidqidildan mehnat qiladi. Jumladan, yoshlar gazetasida adabiy xodim, Oʻzbekiston davlat radioeshittirish qoʻmitasida muharrir va suxandon, Oʻzbekiston davlat nashriyoti (Oʻzdavnashr)da muharrir, «Oʻzbekfilm» kinostudiyasida ssenariy boʻlimi mudiri, Respublika kinochilar uyushmasida kotib, Madaniyat vazirligi sanʼat ishlari boshqarmasi boshligʻi, Hamza nomidagi teatr direktori, Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi huzuridagi Adabiyotni targʻib etish markazi rahbari singari vazifalarni bajaradi.

Taniqli shoir, nosir, tarjimon va dramaturg Turob Toʻla 1990-yil 20-aprelda olamdan oʻtgan.

Ijodiy faoliyati

I. Sheʼriy toʻplamlari

- «Sheʼrlar» (ilk toʻplami, 1939)
- «Shodligim» (1941)
- «Tabassum» (1944)
- «Baxt tongotari» (1948)
- «Muborakbod» (1949)
- «Bolalar dostoni» (1950)

- «Qanotlan, qo‘shiqlarim» (1955)
- «Tanlangan asarlar» (1958)
- «Oromijon» (1961)
- «Gulyor» (1968)
- «Oftob nayzada» (1974)

II. Adabiy portret va xotiralar kitobi

- «Nafosat» (1967)
- «Kamalak» (1972)

III. «Qanotlan, qo‘shiqlarim» to‘plamidan qo‘shiq bo‘lgan she‘rlari

- «Hayo bilan»
- «Sumbula»
- «Ko‘chalar»
- «Do‘ppi tikdim»
- «Sartarosh qo‘shig‘i»

IV. Kinossenariylari

- «Maftuningman»
- «Shashmaqom»
- «Furqat»

V. Pyesalari

- «Qizbuloq»
- «Nodirabegim»
- «Momo yer»

IV. Opera va balet librettolari

- «Zulmatdan ziyo» (opera librettosi)
- «Malikayi ayyor» (opera librettosi)
- «Samarqand afsonasi» (balet librettosi)

V. Qissasi

- «Yetti zog‘ora qissasi» (1981)

VI. Tarjimalari

- Shekspir: «Qiyiq qizning quyulishi» (komediya)
- Pushkin, Lermontov, Nekrasov, Shevchenko, To‘qay asarlarini ona tilimizga mahorat bilan o‘g‘irgan.

- «Yetti zog‘ora qissasi»dagi «Do‘nan» hikoyasi

- Asar syujeti. Asar 1981-yili yozilgan. O‘ziga to‘q xonadonning yolg‘iz o‘g‘li Toshtemirning bobosi Baxshillaning aytib bergan hikoya, ertak va afsonalari asarning umumiy syujetini belgilaydi. Qissadagi «Do‘nan» hikoyasida voqealar Baxshilla maxsumning tilidan bayon etiladi. Kichik Baxshilla Do‘nan otiga tug‘ilganidanoq mehr qo‘yadi. Buvasining maslahati bilan toychog‘ini jambil bilan yuvadi, ot ham faqat Toshloqdagi buloqdan suv ichadi. Bug‘doy o‘rimida do‘nan Baxshillani chaqishi mumkin bo‘lgan ilonni o‘ldiradi. Bir kuni Baxshillalarning uyiga mehmon keladi, qishloq odati bo‘yicha mehmonga nima yoqsa, berib yuborilishi shart edi. Mehmonning ko‘zi do‘nanga tushadi va Baxshillaning otasi otni mehmonga berib yuboradi. Baxshilla do‘nanni izlab mehmonning qishlog‘i – Chorpo‘latga ham boradi, lekin u yerdan mehmonni ham, otini ham topolmaydi. Natijada bolaning ahvoli og‘irlashib kasal bo‘lib qoladi, u yoqda ot ham hech narsa yemay ozib ketadi va mehmon alal-oqibat do‘nanni qaytarib kelishga majbur bo‘ladi.

- Xulosa: asarda insonning turli holatlardagi ruhiy kechinmalari teran tasvirlangan.

Shuhrat

(1918 – 1993)

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar

Asl ismi G‘ulom Aminjon o‘g‘li Alimov bo‘lgan shoir Shuhrat 1918-yilning 19-aprelida Toshkent shahrining Xastimom (Hazrati Imom) mahallasida tug‘ilgan. Bo‘lajak ijodkor oldin mahalladagi otinoyi maktabida, keyin sho‘ro maktabida o‘qidi. Adabiyot o‘qituvchisi Yunus Latifning ta’sirida badiiy adabiyotga mehr qo‘ydi, she’rlar yoza boshladi. U 1932 – 1933-yillarda transport texnikumida, 1934 – 1936-yillarda O‘rta Osiyo transport injenerlari institutida tahsil ko‘radi. 1936 – 1940-yillarda Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent davlat pedagogika universiteti)da ta’lim oladi.

Kasbiga ko'ra transport injeneri bo'lishiga qaramay, adabiyotga qiziqishi katta bo'lganligi sababli Respublika yozuvchilar uyushmasiga ishga kirdi.

1941-yili Ikkinchi jahon urushi boshlangach, shoir Shuhrat urushga safarbar qilindi va u yerda 1943-yili og'ir yarador bo'lgunga qadar janglarda qatnashdi. Shuhrat 1951-yili shu hukumat idoralari tomonidan «millatchi» degan tuhmat bilan qamoqqa hukm qilinib, Shimoliy Qozog'istonga jo'natiladi. Yozuvchi to'rt yildan ortiqroq vaqt mobaynida qamoqda g'oyat og'ir azoblarni boshidan kechiradi. Shoir Shuhrat qanchalik og'ir azoblarga solinmasin, hech kimga qarshi ko'rsatma bermaydi, biror ijodkorga tuhmat qilmaydi. 1955-yili noto'g'ri qamalgan kishi sifatida oqlanib, qamoqdan chiqariladi.

Shuhrat 1993-yilning 20-iyunida uzoq davom etgan og'ir kasallikdan vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

Shuhratning birinchi she'ri 1935-yili 17 yoshida e'lon qilindi. U 1930-yillarning ikkinchi yarmidan e'tiboran bitgan she'rlariga «Shuhrat» taxallusini qo'llay boshlagan.

I. She'riy to'plamlari

- «Shinelli yillar daftari» (she'rlar turkumi)
- «Farzand» (urush mavzusida)
- «So'lmas chechaklar» (urush mavzusida)
- «Ona va farzand» (urush mavzusida)

II. Ballada va dostonlari

- «Orzu va qasos» (doston)
- «Mehrol» (ertak-doston)
- «Jamila» (arab qizining fransuz bosqinchilariga qarshi kurashi haqida)
- «Raymonda» (fransuz qizining Vyetnam urushiga qarshi turganligi haqida)
- «Uch qiz afsonasi»
- «Guldursun»
- «Qora va oq aravacha haqida ertak»
- «Mardlik afsonasi» (To'marisga bag'ishlangan)

III. Romanlari

- «Shinelli yillar» (1958) – harbiy roman

- «Oltin zanglamas» (1965). Asarda sho‘ro tuzumining eng adolatsiz, eng chirkin bosqichi bo‘lmish qatag‘on davri mahorat bilan aks ettirilgan. Adib asarida aks etgan voqealarni o‘z boshidan o‘tkazganligi uchun romanda tasvir tabiiy chiqqan va u ulkan muvaffaqiyat qozongan. Muallifning yozishicha, «Oltin zanglamas»dagi hayotni men yaxshi bilaman, ular men bilan bo‘lgan, menga uchragan kishilarning hayoti. Men bu hayotning atrofidasam, naq ichida bo‘lganman. Bu mavzuda biron narsa yaratmasam ko‘nglim o‘rniga tushmas edi». Asar qahramonlari: Sodiq (maktab direktori, tuhmat bilan qamalgan), Chuxanov, Pushkaryov (tergovchilar), Mirsalim, Shukurov (tuhmatchilar).

- «Jannat qidirganlar» (1968) – o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib chet eldagi o‘zbeklar hayotini aks ettirgan asar. Sho‘rolar davrida chet elga ketib qolgan har qanday odam sotqin, xiyonatchi sifatida qabul qilinardi. Shuhrat esa chet ellik millatdoshlarimizning hayotini, ishonarli timsollarni yaratdi.

- «Mashrab» (tugallanmay qolgan)

IV. Komediylari

- «Besh kunlik kuyov»
- «Qo‘sha qaringlar»
-

Said Ahmad

(1920 – 2008)

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar

Said Ahmad Husanxo‘jayev 1920-yilning 10-iyunida Toshkent shahrining «Samarqand darvoza» mahallasida tug‘ilgan. Avval o‘rta maktabda, so‘ng Navoiy nomidagi pedagogika institutida o‘qigan. Dastlab 1938-yili «Mushtum» jurnaliga adabiy xodim bo‘lib ishga kirdi. So‘ng «Yosh leninchi» gazetasida (1940 – 1941), O‘zbekiston

davlat radio qo‘mitasida (1941 – 1943), «Qizil O‘zbekiston» gazetasida (1943 – 1947), «Sharq yulduzi» (1948 – 1950) jurnali tahririyatlarida faoliyat yuritdi.

O‘tgan asrning 50-yillari boshlarida yozuvchi ko‘plab ziyolilar qatorida qatag‘onga uchrab, «xalq dushmani» degan tuhmatlar bilan qamaladi. Bu siyosat qoralangandan so‘ng Said Ahmad ham nohaq jazodan ozod etilib, o‘z oilasi bag‘riga qaytadi. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo‘lib ishlaydi.

Said Ahmad «O‘zbekiston xalq yozuvchisi» unvoniga, Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan, «Buyuk xizmatlari uchun», «Do‘stlik» ordenlari bilan mukofotlangan. Unga Vatanimizning yuksak mukofoti – «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni berilgan.

Said Ahmad 2008-yili vafot etdi.

2013-yil 10-iyun kuni Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘da Said Ahmad va uning umr yo‘ldoshi Saida Zunnunovaning haykali ochildi.

Ijodiy faoliyati

Said Ahmadning ilk mashqi «Ishqiboz» nomli hajviy hikoyasi o‘n olti yoshlarida «Mushtum» jurnalida chop etilgan. Adibning mustaqillikdan keyin 3 jildlik «Tanlangan asarlar»i chop etilgan.

I. Hikoyalari

- «Ishqiboz» – birinchi hikoyasi.
- «Sobiq» – yumoristik hikoya.

Asarning qisqacha syujeti. Birinchi kun to‘qqiz, ikkinchi kuni to‘qqiz yarim tonna tergan paxtakor kutilmaganda ilg‘or terimchi sifatida hammaning e‘tiboriga tushib qoladi, muxbirlar kelib rasmga oladi – gazetada rasmi chiqadi; kinochilar kelib Ummatalining yerida mashinada paxta terdirib kinoga olib ketadi; madaniyat uyi ochilishida nutq so‘zlaydi; rassom kelib rasmini chizadi; o‘t o‘chiruvchilarning tantanasida qatnashadi; oxirida tarvuz yutib, tosh ko‘tarib o‘yin ko‘rsatadigan polvonni kutib olishga chiqadi... Shu tariqa ikki kungina paxta tergan «ilg‘or mexanizator» umuman boshqa paxta terolmay qolib ketadi.

Xulosa: yozuvchi mubolag‘a orqali kulgili vaziyatni kuchaytiradi... Jamiyat rivojiga xalaqit berayotgan mayda nuqson, kamchiliklarga e‘tibor qaratadi. Hikoya yumoristik asar

bo‘lib, bunda holat ustidan kulgi uyg‘ontadi. Yana bunga misol qilib Gogolning «Revizor» komediyasini keltirish mumkin.

- «Qoplon» – satirik hikoya.

Asarning qisqacha syujeti. Avtobaza direktori Tillayev yangi uyga ko‘chib kelgach, garajda mashina yuvuvchi Qurbonboy unga parvona bo‘lib hamma ishni – pol yuvishdan to gilam qoqishgacha bajaradi, Tillayevga Qoplon laqabli it ham sovg‘a qiladi. Oqibatda direktorning e‘tiborini qozonib garajga mudir bo‘lib oladi, boshqa moddiy ishlarini ham bitiradi. Tillayevning sog‘ligi pand bera boshlagach, Qurbonboy itini yetaklab ketadi va qaytib kelmaydi. Bir kuni ko‘chada Qurbonboy Qoplonni yetaklab ketayotganini ko‘rib chaqirsa, it qaraydi-yu, Qurbonboy qaramaydi – bu orqali yozuvchi itning ikkiyuzlamachi Qurbonboydan ko‘ra vafodor ekanini anglatadi. Yangi direktorning taklifi bilan tug‘ilgan kun ziyofatiga borganda Tillayev Qoplonni shu yerda uchratadi, Qurbonboy ham yangi direktorning chakmonini tuflab artayotgan bo‘ladi, it Tillayevni tanib dumini likillatadi, yangi direktor bizning it qalay deb so‘rasa, Tillayev bu itni taniyman deb Qurbonboyini nazarda tutadi va uyga kirib ketadi.

Xulosa: yozuvchi hikoya orqali bunday buqalamun, ablah kimsalarning jamiyatda, insonlar orasida o‘rni bo‘lishi kerak emas degan g‘oyani ilgari suradi. Hikoya satirik asarning yaxshi namunasi sanaladi. Bunda yozuvchi shaxsdagi illatlarni tanqid qiladi, xarakter kulgusini uyg‘otadi, misol uchun, Sharof Boshbekovning «Temir xotin» komediyasida Qo‘chqor o‘z xakteri bilan epizodlarning kulgili tus olishiga sabab bo‘ladi. Odil Yoqubovning «Muzqaymoq» hikoyasidagi shahar komsomol qo‘mitasining kotibi ham Qurbonboy tipidagi qahramon sanaladi.

II. Hikoyalar to‘plamlari

- «Tortiq» (birinchi kitobi, 1940)
- «Er yurak» (1942)
- «Farg‘ona hikoyalari» (1948)
- «Muhabbat» (1949)
- «Cho‘l burguti»
- «Xandon pista» (1994)

- «Bir o‘pichning bahosi» (1995)
- «Qorako‘z majnun» (2005). Hikoyaga «Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa va shu kofirlikicha o‘lsa, bas, ana o‘shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo‘lur, ular do‘zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar» (Qur‘oni Karim, «Baqara» surasi, 217-oyat), «Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvondan biri bu «As‘hobi kahf»ning vafodor itidir» (Hadisi sharif, «Al-jome al-Kabir») kabi ilohiy jumlar epigraf qilib olingan.

III. Qissalari

- «Qadr don dalalar» (1949)
- «Hukm» (1958)

IV. Romanlari

- «Ufq», trilogiya:
 - 1) «Qirq besh kun»
 - 2) «Hijron kunlarida»
 - 3) «Ufq bo‘ sag‘asida»
- «Jimjitlik»

V. Xotira-yodnoma asarlari

- «Yo‘qotganlarim va topganlarim»
- «Kiprikdagi tong»

VI. Pyesalari

- «Kelinlar qo‘zg‘oloni»
- «Kuyov»

Asqad Muxtor

(1920 – 1997)

Hayotiga doir muhim ma‘lumotlar

Asqad Muxtor 1920-yil 23-dekabrda Farg‘ona shahrida Mas‘ud temiryo‘lchi oilasida tug‘ildi. Adibning oilasi asli Tataristondan kelgan bo‘lib, farg‘onaliklar orasiga singishib ketgan, o‘zbekcha urf-odatlarini to‘la o‘zlashtirgandi. 1931-yili u o‘n bir yoshda ekanida otasi vafot etadi. O‘n ikki bolaning uchinchisi bo‘lmish Asqadni bolalar uyi –

yetimxonaga topshirishga majbur bo'ladilar. U shu yerdagi maktabni bitirdi va 1936-yili Toshkentga kelib jurnalistika kursida o'qidi, gazetada ishladi.

Asqad Muxtor 1938-yili Samarqanddagi O'zbekiston davlat dorilfununiga kiradi. Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Samarqand dorilfununi Toshkentdagi O'rta Osiyo davlat dorilfununiga vaqtincha qo'shib yuboriladi. Shu tariqa o'qishni Samarqanda boshlagan Asqad Muxtor mazkur filologiya fakultetini Toshkentda tamomlaydi. Uni Andijonga ishga yuboradilar. Uch yil davomida Andijon davlat pedagogika institutida o'zbek adabiyoti kafedrasini mudiri bo'lib ishlaydi.

1945-yili Asqad Muxtor Toshkentga qaytadi, jurnalistika sohasida faoliyat olib boradi. U avval markaziy gazetalarda bo'lim mudiri, mas'ul kotib, so'ng «Sharq yulduzi», «Guliston» jurnallarida bosh muharrir bo'lib ishladi. O'zbekistondagi birinchi haftalik gazeta – «O'zbekiston adabiyoti va san'ati»ga asos soldi. Respublika yozuvchilar uyushmasi kotibi lavozimida ishladi.

Asqad Muxtorga «O'zbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvoni berilgan edi. Adib 1997-yilning 17-aprelida Toshkent shahrida vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

I. She'rlari va she'riy to'plamlari

- «Bizning avlod» (ilk she'ri, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» haftaligi, 1938)
- «Tilak» (1935 – 1938)
- «Tong edi» (1935 – 1938)
- «Totli damlar» (1935 – 1938)
- «G'alaba ishonchi»
- «Jangchining bayram kechasi»
- «Tug'ishganlar qaytdi»
- «Sog'inish
- «Po'lat quyuvchi» (1947)
- «Hamshaharlarim» (1949)
- «Rahmat, mehribonlarim» (1954)
- «Chin yurakdan» (1956)

- «99 miniatyura» (1962)
- «Karvon qo‘ng‘irog‘i» (1964)
- «She‘rlar» (1966)
- «Quyosh belanchagi» (1971)
- «Sizga aytar so‘zim» (1978)

II. Qissalari

- «Daryolar tutashgan joyda» (1950)
- «Qoraqalpoq qissasi» (1958)
- «Buxoroning jinko‘chalari» (1980)
- «Bo‘ronlarda bordek halovat»
- «Jar yoqasidagi chaqmoq» (1982)
- «Kumush tola» (1987)

III. Romanlari

- «Opa-singillar» (1954 – 1955)
- «Tug‘ilish» (1960 – 1963)
- «Davr mening taqdirimda» (1964)
- «Chinor» (1969 – 1973)
- «Amu» (1984)

IV. Pyesalari

- «Mardlik cho‘qqisi»
- «Yaxshilikka yaxshilik»
- «Samandar»

V. Tarjimalari

Sofoklning «Shoh Edip» fojiasini, G‘arbning mashhur dramaturglari – Shekspir va Shiller tragediyalari, rus mumtoz adiblari – Pushkin, Lermontov, Blok, Mayakovskiy asarlarini va boshqalarni mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘girgan. Shuningdek, Asqad Muxtorning juda ko‘p asarlari jahonning qator tillariga, jumladan, rus, hind, urdu, vyetnam, xitoy, rumin, ingliz va boshqa tillarga tarjima qilingan.

VI. Hikoyalari

- «To‘qqizinchi palata». Hikoyaga «Nafing qancha bo‘lsa – umring shuncha» jumlasini epigraf qilib olingan. Qahramonlari: Bahromov (67 yoshli bemor, insonlarga yaxshilik qilishni burchi deb biladi, qo‘shni hovlidagi Alisher degan bolani elektr simidan asrab qolaman deb vafot etadi), Hoji buva (78 yoshli bemor, yeb to‘ymas), Ma‘mura (hamshira), Ergashvoy (Hoji buvaning nabirasi)

Odil Yoqubov

(1926 – 2010)

Hayotiga doir muhim ma‘lumotlar

Odil Yoqubov 1926-yilning 20-oktyabrida Janubiy Qozog‘iston viloyatining Turkiston shahri yaqinidagi Qarnoq qishlog‘ida tug‘ilgan. Egamberdi Yoqubov o‘z vaqtida sho‘rolar hukumatining ishongan kishilaridan bo‘lib, Qozog‘istonda mas‘ul lavozimlarda ishlagan. Keyinroq 1937-yili qatag‘onga uchrab qamoqqa olingan.

Odil Yoqubov 1944-yili o‘rta maktabni bitiradi. 1945-yili, asli 1927-yili tug‘ilgan bo‘lishiga qaramay, o‘zini 1926-yili tug‘ilgan va o‘n sakkizga to‘lgan qilib ko‘rsatib ko‘ngilli ravishda Ikkinchi jahon urushiga jo‘naydi. U avval Uzoq Sharqda xizmat qilgan, so‘ng Mo‘g‘ulistonning cheksiz Gobi sahrosini piyoda bosib o‘tib, Yaponiyaga qarshi olib borilgan urushda qatnashgan. Uni 1950-yilga kelibgina uyga jo‘natishadi.

Odil Yoqubov 1951 – 1956-yillarda SAGU (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) filologiya fakultetining rus tili va adabiyoti bo‘limida o‘qiydi. O‘qishni tugatgandan keyin 1959-yilgacha O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo‘lib ishlaydi. Bolalikdan rus adabiyoti bilan tanish bo‘lgan, besh yillik harbiy xizmatda bu tilni mukammal o‘rgangan O.Yoqubov 1959 – 1963-, 1967 – 1970-yillarda butunittifoq miqyosida tarqaladigan «Literaturnaya gazeta»ning O‘zbekistondagi muxbiri sifatida faoliyat ko‘rsatadi. 1970 – 1982-yillar orasida «O‘zbekfilm» kinostudiyasida, Respublika kinematografiya qo‘mitasida bosh muharrir, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotda bosh muharrir o‘rinbosari lavozimlarida mehnat qiladi. 1982-yildan 1989-yilgacha «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» haftaligining bosh muharriri bo‘ladi. 1989 – 1996-

yillarda esa O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining raisi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bu davrda adib shaxsiyatiga xos kengfe‘llik to‘la namoyon bo‘ldi. U o‘zbek yozuvchilariga tegishli sharoit yaratish, ularga ijod erkinligi berish borasida katta ishlarni amalga oshiradi. O.Yoqubov 1996 – 2004-yillarda Atamashunoslik qo‘mitasi raisi, 2005-yilgacha Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasining vitse-prezidenti vazifalarini ado etgan.

Yozuvchi 1985-yili O‘zbekiston xalq yozuvchisi unvoni, 1994-yili «Do‘stlik», 1998-yili esa «El-yurt hurmati» ordenlari bilan mukofotlangan.

Odil Yoqubov 2010-yili vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

I. Hikoyalari

- «Muzqaymoq» – avtobiografik hikoya. Unda Stalin davri qatag‘oni bilan bog‘liq voqealar bayon qilinadi.

Asarning qisqacha syujeti: Kunlardan bir kuni hikoya bosh qahramoni 10 yashar bola uyning boloxonasida o‘ynab yurarkan, mehmon keladi – dadasining sobiq kursdoshlari. Bola dadasini ishxonadan chaqirib keladi, yo‘lda dadasi muzqaymoq olib bermoqchi bo‘ladi, lekin do‘konlarning hammasi yopilib ulgurgandi. Natijada ota armon qiladi va uyga borib mehmonlardan mamnun bo‘ladi. Mehmondorchilik boshlanishida uyga tintuvchilar keladi, ular uyni tintib, bolaning dadasini olib ketadilar. Endi hamma bu oilaga qarshi bo‘lib qoladi. Shaharda xalq dushmanlari «dum»larini fosh qilish mitingida do‘mbiralar ovozigga mahliyo yurgan bolani ularning qo‘shnisi – shahar komsomol qo‘mitasi kotibi «qashqirvachcha» deya haqorat qiladi... Bola onasi va opasi bilan dadasini ko‘rgani boradi, avvaliga kun bo‘yi kutib ko‘rolmay qaytadilar, so‘nggi tergovdan keyin vidolashish uchun uchrashadilar, ota ko‘zida yosh ila o‘z oilasi bilan vidolashadi, bola esa hamma narsani unutib otasining tizzasini «Dadajon!» degancha quchoqlab oladi.

Xulosa: yozuvchi hikoya orqali mustaqillikning qadriga yetish, o‘shanday yovuzliklar bo‘lmasligi uchun kurashish, mehr-oqibat, adolat g‘oyalariga erishish fikrini ilgari suradi.

II. Qissa va hikoyalar to‘plamlari

- «Tengdoshlar» (1951)
- «Dastlabki qadam» (1953)
- «Ikki muhabbat» (1955)
- «Tilla uzuk» (1961)
- «Alvido, Moriko» (2005)

III. Qissalari

- «Bir felyeton qissasi»
- «Muqaddas»
- «Qanot juft bo‘ladi»
- «Izlayman»
- «Billur qandillar»
- «Larza»
- «Matluba»

III. Romanlari

- «Er boshiga ish tushsa...» (1966)
- «Ulug‘bek xazinasini» (1973)
- «Ko‘hna dunyo» (1982)
- «Diyonat» (1977)
- «Oqqushlar, oppoq qushlar» (1988)
- «Adolat manzili» (1998)
- «Osiy banda» (2010)

IV. Pyesalari

- «Chin muhabbat» (1955)
- «Aytsam tilim, aytmasam dilim kuyadi»
- «Yurak yonmog‘i kerak» (1958)
- «Olma gullaganda» (1961)
- «Muzaffar Temur» (1996)
- «Bir koshona sirlari» (2000) – «Ofarin» mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Saida Zunnunova

(1926 – 1977)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Saida Zunnunova 1926-yili Andijon shahrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Otadan erta yetim qolgan shoira onasi va qarindoshlari qo'lida ulg'aydi. Andijon shahridagi 30-maktabni tugatgach 1941-yili Andijon o'qituvchilar institutiga o'qishga kirib, uni 1943-yili tamomladi. Birmuncha muddat maktabda muallimlik qildi, viloyat gazetasi redaksiyasida ishladi. O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning filologiya fakultetida 1947 – 1952-yillarda tahsil oldi. Oliy o'quv yurtini tamomlagach «Gulxan» jurnali, «O'zbekiston madaniyati» gazetasida adabiy xodim, badiiy adabiyot nashriyatida muharrir hamda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo'lib ishladi.

Saida Zunnunova 1977-yili – 51 yoshida vafot etdi. Shoira shaxsiga ehtirom sifatida Toshkentdagi ko'chalardan biri va 224-maktabga, shuningdek, Andijon shahridagi ko'cha va maktablarning biriga, Bo'z tumanidagi akademik litseyga uning nomi berilgan.

2012-yil 10-iyun kuni Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog'da Saida Zunnunova hamda uning umr yo'ldoshi Said Ahmadning haykali ochildi.

Ijodiy faoliyati

Saida Zunnunovaning ilk she'ri – «Salom senga» 1945-yili Andijon viloyatining «Paxta fronti» gazetasida bosilgan.

I. She'riy to'plamlari

- «Qizingiz yozdi» (birinchi to'plami)
- «Yangi she'rlar»
- «Gullar vodiysi»
- «Qizlarjon»
- «She'rlar»
- «Bir yil o'ylari»
- «Nilufar»

II. Dostonlari

- «Sodiq va Anor»
- «Xayrixon»
- «Surat bilan suhbat»

«Surat bilan suhbat» dostoni haqida

Bu asari bilan shoira iymoni butun onalarga, ayollarga madhiya bitadi. Dostonda onaning urush tufayli ota mehridan benasib bo'lgan, ne mashaqqatlar bilan o'stirgan o'g'lining nikoh kechasidan keyingi iztirobli o'y-xotiralari tasvirlanadi. Onaning qalbida ikki qarama-qarshi kechinma – farzandining kamolga yetgani, to'yini ko'rganidan quvonch, shukronalik hamda shu kunlarga yetolmaganlar haqidagi g'am-anduhli xotiralar kurashadi.

- «Qo'shnilarim»

III. Hikoya va qissalar to'plamlari

- «Gulbahor»
- «Povest va hikoyalar»
- «Gulxan»
- «Do'stlik»
- «Qanot»
- «Olov»
- «Ko'chalar charog'on»
- «Bo'ylaringdan o'rgulay»

IV. Pyesalari

- «Ona»
- «Ko'zlar»

Ozod Sharafiddinov

(1929 – 2005)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Ozod Sharafiddinov 1929-yilning 1-martida Qo'qon shahri yaqinidagi Oxunqaynar qishlog'ida tavallud topgan.

Toshkent shahrida oʻrta maktabni tugallab, Oʻrta Osiyo davlat universiteti (hozirgi Oʻzbekiston Milliy universiteti)ga oʻqishga kiradi va 1951-yili uni bitiradi. Oradan uch yil oʻtar-oʻtmas Moskvada nomzodlik dissertatsiyasini ham himoya qiladi.

U 1955 – 1995-yillar oraligʻida, qariyb qirq yil universitetda dars berdi. 1996 – 1997-yillarda «Tafakkur» jurnali bosh muharriri oʻrinbosari, 1997-yildan to umrining oxiriga qadar «Jahon adabiyoti» jurnali bosh muharriri vazifalarida ishladi.

Ozod Sharafiddinov 2005-yil 4-oktyabr kuni vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

I. Tanqidiy maqolalar toʻplamlari

- «Zamon. Qalb. Poeziya»
- «Adabiy etyudlar» (1968)
- «Tirik satrlar» (1968)
- «Yalovbardorlar» (1974)
- «Isteʼdod jilolari» (1976)
- «Birinchi moʻjiza»
- «Talant – xalq mulki» (1979)
- «Adabiyot – hayot darsligi» (1980)
- «Hayot bilan hamnafas» (1983)
- «Goʻzallik izlab» (1985)

II. Maqolalari

- «Zaharxanda qahqaha» (1962)
- «Hayotiylik jozibasi, sxematizm inersiyasi»
- «Yurtin madhi boʻldi soʻnggi satri ham» (1979)
- «Sheʼr koʻp, ammo shoir-chi?» (1983)
- «Bir tilda gaplashaylik» (1987)
- «Yoʻlboshchi»
- «Mustaqillik meʼmori»
- «Istiqlol jilolalari»

III. Istiqlol yillarida chop etilgan kitoblari

- «Istiqlol fidoyilari» (1993)
- «Sardaftar sahifalari» (1999)
- «Ma'naviy kamolot yo'llarida» (2001)
- «Dovondagi o'ylar»
- «Ijodni anglash baxti» (2004)

IV. Tarjimalari

- L.Tolstoy: «Iqrornoma»
- P.Koelyo: «Alkimyogar»
- A.Savela: «To'xtating samolyotni, tushib qolaman»
- H.Hesse, J.Stoun, J.Golsuorsi, A.Genis, N.Gogol, L.Tolstoy, A.Morua, O.Balzak, Y.Parandovskiy, X.Gasset, V.Shentalinskiy, Y.Borgen, D.Sulstadlarning qator adabiy maqolalarini tarjima qilgan.

Pirimqul Qodirov

(1928 – 2009)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Pirimqul Qodirov 1928-yilning 25-oktyabrida hozirgi Xo'jand viloyati hududidagi Kengko'l qishlog'ida cho'pon oilasida dunyoga kelgan.

Kolxozlashtirish (1930 – 1933) davrida ko'pchilik qatori uning otasi – o'ziga to'q Qodir cho'pon ham quloq qilinadi.

Maktabni bitirib Toshkent davlat universitetini topib keldi va uning sharqshunoslik fakultetiga o'qishga kirdi. 1951-yili bu fakultetni muvaffaqiyatli bitirgach bir muddat Til va adabiyot institutida ishladi. P.Qodirov adabiy ijodning sir-u sinoatlarini chuqur o'rganish maqsadida Moskvada aspiranturaga kiradi va 1954-yili ustoz Abdulla Qahhor asarlarining til va uslubiy jihatlari tadqiq etilgan nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi.

Tashkilotchi, olim, jamoat va davlat arbobi sifatida Moskvadagi yozuvchilar uyushmasida, Respublika Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida, mustaqillik davriga kelib mamlakat Oliy Majlisida mas'ul lavozimlarda ishladi.

Pirimqul Qodirov 2009-yili vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

I. Publitsistikasi

- «Amir Temur siymosi»
- «Til – millat ruhi»

II. Hikoyalari

- «Qalbdagi quyosh»
- «Kayf»
- «Jon shirin»

III. Qissalari

- «Studentlar» – I qissasi
- «Meros»
- «Erk»
- «Qadrim»
- «Yayra institutga kirmoqchi»
- «Najot»

IV. Romanlari

- «Uch ildiz»
- «Qora ko‘zlar»
- «Olmos kamar»
- «Yulduzli tunlar»
- «Avlodlar dovoni» – dilogiyaning ikkinchi romani. Asarning eng ta’sirli qismlaridan biri «Nizomning tantiligi» nomli parcha bo‘lib, unda quyidagi qahramonlar ishtirok etadilar: Humoyun – Mirzo Boburning o‘g‘li, hind podshohi, Nizom – Ganga daryosidagi qayiqchi, Humoyunning najotkori, Hamida begim – Humoyun va Nizomning har biri ko‘ngil qo‘ygan qiz, Sherxon – Humoyunning raqibi, Bayramxon – Humoyunning mahrami, vaziri, Amir Bahlul – Humoyunning sodiq amiri, tuhmat qurboni bo‘lib Hindol tomonidan o‘ldirilgan, Hindol – Humoyunning ukasi, Aqiqa begim – Humoyunning 6 yashar qizchasi, Beka begim,

Chand begim – Humoyunning xotinlari, Mavludbek – Humoyunning mahrami, Xonquli – Humoyunning sarkardasi, La’l Chand – Humoyunning filboni, Alvaro Pakavira – Sherxonning josusi, asli Portugal (Farangiston) sayyohi va josusi, Bikramadit Gaur – rajputlar sarkardasi, Sherxonning yaqin odami, Havasxon – Sherxonning sarkardasi, Jalolxon va Qutbxon (sulhni harbiy hiylaga aylantirishni istamagan) – Sherxonning o‘g‘illari.

Asarning qisqacha syujeti: Mazkur parchada voqelar Humoyunning tushi tasviridan boshlanadi. Humoyun va uning ashaddiy raqibi Sherxon Ganga va Karamnasa daryolari tutashgan joyda to‘qnashadi. Lekin yog‘inlar Humoyunni og‘ir ahvolga solib qo‘yadi va u Sherxon huzuriga vaziri Bayramxonni elchi sifatida yuboradi. Bayramxon sulh tuzib keladi, Humoyun xotirjam bo‘ladi, lekin erta tongdan Sherxon qo‘shini hujumga o‘tib va’dani buzadi. Natijada Humoyun oilasi bilan qochishga majbur bo‘ladi, lekin qo‘shinidan ayrilib yarador bo‘lib daryoga tushib ketadi, hayoti xavf ostida qolganda Nizom ismli qayiqchi uni qutqaradi. Nizom Humoyun uylanmoqchi bo‘lib yurgan Hamida ismli qizga oshiq edi... Hamida ham Nizomga befarq emas. Shularni bilsa-da Nizom shohni qutqaradi va uning bu tantiligini Humoyun mukofotlashga va’da beradi. Xulosa: adib mazkur roman orqali ajdodlarimizning mardligi, odilligini yoritib bergan.

- «Ona lochin vidosi» («Gavharshodbegim»)

V. Tarjimalari

- L.N.Tolstoy: «Kazaklar»
- K.Fedin: «Ilk sevinchlar»
- X.Deryayev: «Qismat»

Xudoyberdi To‘xtaboyev

(1932)

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar

Xudoyberdi To‘xtaboyev 1932-yil 17-dekabrda Farg‘ona viloyatining Katta tagob qishlog‘ida tug‘ilgan. Otadan juda erta yetim qolgan Xudoyberdi bobosi Erkaboy va buvisi Robiyabibilarning tarbiyasida o‘sadi. 1949-yili Qo‘qon pedagogika bilim yurtini,

1955-yili Toshkent davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet)ni bitirgan. So'ng bir necha yil Farg'ona viloyatining Bag'dod, O'zbekiston tumanlaridagi maktablarda o'qituvchi, ilmiy bo'lim mudiri, maktab direktori lavozimlarida ishlagan. Bo'lg'usi adib 1958-yili Toshkentga keladi. 12 yil davomida turli gazetalarda ishlaydi, hozirjavob, qalami o'tkir jurnalist sifatida elga taniladi. Jamiyatdagi illatlarni fosh etuvchi 300 dan ortiq felyeton yozadi. 70-yillar boshida o'z ijodiy faoliyatini bolalar hayotini keng tasvirlagan asarlar yaratishga yo'naltiradi. Yozuvchi o'zining tarjimai holidan bu qarorini shunday izohlaydi: «Ruhi dunyosi pok bo'lgan, tarbiyaga quloq soladigan, savob va gunohni bilishga intiladigan, ruhi go'zallikka talpinayotgan bolalar dunyosida ishlasam qanday bo'lar ekan deb o'ylay boshladim va qaror ham qabul qildim, bolalar, o'smirlar dunyosiga paqqos o'tib ketdim».

U ana shu maqsadda yoshlar nashriyoti, «Gulxan», «Yosh kuch» jurnallarida faoliyat ko'rsatib, o'zi e'tirof etganidek, «... Bola va o'smir ruhidagi go'zallikni himoyalashga e'tibor» berib kelyapti.

Xudoyberdi To'xtaboyev yurtimizda tashkil etilgan «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasi raisi sifatida ham uzoq yillar samarali faoliyat ko'rsatgan (1980 – 1998). X.To'xtaboyev 1982-yili «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi», 1991-yili esa «O'zbekiston xalq yozuvchisi» kabi yuksak unvonlar bilan taqdirlangan.

Ijodiy faoliyati

I. Qissalari

- «Omonboy va Davronboy sarguzashti» (1974)
- «Qiz talashgan o'smirlar»

II. Romanlari

- «Sariq devni minib» (1968, roman 24 tilga tarjima qilingan, italiyalik bolalar yozuvchisi Janni Rodarining tahsiniga sazovor bo'lgan)
- «Sariq devning o'limi» (1973)
- «Besh bolalik yigitcha» (1976)
- «Qasoskorning oltin boshi» (1981)
- «Yillar va yo'llar» (1983)
- «Shirin qovunlar mamlakati» (1986)

- «Mungli ko‘zlar» (1988)
- «Jannati odamlar» (1996)

«Sariq devni minib». Asar syujeti. Mazkur asar sarguzasht roman sanaladi. Jahon adabiyotida ushbu tipdagi Daniel Defoning «Robinzon Kruzo», Jonatan Sviftning «Gulliverning sayohatlari», Jyul Vernning «O‘n besh yoshli kapitan» romanlari mavjud. Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida Farhodning Axriman dev bilan jangi va Yosuman bilan bog‘liq voqealarda sarguzasht unsurlari mavjud. Asar qahramoni – Hoshimjon, voqealar uning tilidan hikoya qilinadi. Hoshimjon ayb ish qilib uyidan qochib chiqadi va qo‘shnisidan ikkita nonni oyim so‘rayapti deb qarz olib buvisi aytgan sehrlil qalpoqni izlaydi. Sehrlil qalpoqchani u qishloq chetidagi tashlandiq uydan topadi va kiyib uyiga keladi. Uyda uni hech kim ko‘rmaydi va osh yeydi, hiqichoq tutadi, so‘ng qalpoqni yechib onasiga xolodilnikning ichida edim deydi, oyisi qo‘rqib ketib choy beradi, yotqizib qo‘yadi. Qishloqda Hoshimjonning xolasi Soraxon folbinlik qilardi, odamlar uni Xudo bilan gaplashadi deyishadi. Hoshimjon buni tekshirishga qaror qiladi va buning hammasi uydirma ekanini, aslida, folbinning o‘g‘li Mirobiddinxo‘ja orqali turli xil ovozlari chiqarib odamlarni aldahlari oydinlashadi. Hoshimjon Mirobiddinxo‘jani jazolaydi. Hoshimjon shundan so‘ng g‘irrom yo‘lga o‘tib o‘qituvchilarning konspektini ko‘chirib besh ola boshlaydi. Eng yaqin do‘sti Qosimjon va o‘ziga baho chiqarib yuboradi. O‘qituvchilar buni surishtirgach, ayb Qosimjonga tushganini ko‘rib Hoshimjon aybini tan oladi va o‘qituvchilari o‘qimasdan hech narsaga erisholmaysan deyishsa ham o‘qimasdan katta odam bo‘laman deb qishloqdan ketib qoladi. Aylanib Krupskaya nomli maktab-internatga borib qoladi. U yerda Hayitvoy degan bola bilan tanishib qoladi, maktabning tikuv xonasidan ikkita qalpoqqa havasi ketib oladi va bir amallab qochib qutuladi. Hoshimjon Mirzacho‘ldagi sovxozga agronom bo‘lib joylashadi. Bilimsizligi uchun shira tushgan hasharotlarni kaltaklashga buyuradi va bu yerdan ham quviladi...

Xulosa: bilimsizlik bilan hech narsaga erishib bo‘lmaydi, hatto sehrlil qalpoqcha yordam bergan taqdirda ham.

To‘ra Sulaymon

(1934 – 2005)

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar

To‘ra Sulaymon 1934-yilning 15-fevralida Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi Aldashmon qishlog‘ida tavallud topdi. Uning otasini ham «xususiy mulk egasi», «mushtumzo‘r» sifatida quloq (ruscha «kulak» – mushtumzo‘r so‘zining o‘zbekchaga moslashtirilgan shakli) qiladilar. Oilaning butun tirikchilik tashvishi onaning zimmasiga tushadi. 1939-yili uning otasi qamoqdan qaytadi va oilasini Sirdaryoga ko‘chirib ketadi. To‘ra Sulaymon shu yerdagi qishloq maktabida o‘qiydi. O‘qishni bitirib, bir necha yillar davomida qishloq maktablarda turli fanlardan dars beradi.

Toshkent davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning filologiya fakulteti sirtqi bo‘limida o‘qiydi (1958 – 1964). O‘qishni bitirib, Guliston tumanidagi maktablarda ona tili va adabiyotidan bolalarga saboq beradi. Tuman va viloyat gazetalarida mehnat qiladi, 1972 – 1981-yillar davomida esa Respublika yozuvchilar uyushmasining Sirdaryo viloyat bo‘limi mas’ul kotibi, adabiy maslahatchisi lavozimlarida ishlaydi.

1999-yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan To‘ra Sulaymonga «O‘zbekiston xalq shoiri» degan yuksak unvon berildi.

2005-yili To‘ra Sulaymon 71 yoshida dunyodan ko‘z yumdi.

Ijodiy faoliyati

To‘ra Sulaymonning ilk she‘rlari 1958-yildan nashr etila boshlagan.

I. She‘riy to‘plamlari

- «Istar ko‘ngil» (1962, birinchi kitobi)
- «Men qayga borar bo‘lsam»
- «Intizor» (1973)
- «Sirdaryo qo‘shiqlari» (1974)
- «Iltijo» (1976)
- «To‘yboshi» (1977)
- «Sizni eslayman» (1980)
- «Qorako‘zginam» (1981)

- «Gulshan» (1988)
- «Sarvinoz» (1989)
- «Xarsang» (1984)
- «Jahonnoma»
- «Gul bir yon, chaman bir yon» (1996)
- «Yovqochdi» (1998)

II. Dostoni

- «Jahongashta» (1970)
- «Qorasoch»

III. Nasriy to‘plamlari

- «Hamqishloqlarim» (maqolalar to‘plami)
- «Alhazar» (satirik va yumoristik asarlar to‘plami, 1976)

She’rlaridan namunalar

*Bahor kelsa, boshlanar bog ‘da bulbul xonishi,
Sa’va, qumri nag ‘masi, suralay tovlanishi,
Qirlarda lola sayli, qishlovlarda yilboshi,
To ‘xtagay tabiatdan haqqushlar zorlanishi –
Bahor, ketma mening bog ‘imdan.*

(«Iltijo»)

*Bobomning orzulari amalga oshmas bo ‘lsa,
Yurgan yo ‘limda o ‘lan, qo ‘shiq qalashmas bo ‘lsa,
Qo ‘shiqlarim bog ‘lardan, tog ‘lardan oshmas bo ‘lsa,
El-yurt baxtini kuylash menga yarashmas bo ‘lsa,
Ko ‘nglimda armon yotar
Cho ‘kib qolgan nor misol.*

(«Armon»)

*Nelardandir ko ‘ngil bo ‘lib g ‘ash,
Ham egilib bu egilmas bosh,
Ko ‘zlarimda qalqib tursa yosh,*

*Bu holimga berolmay bardosh
Bir mushtipar Onam yig'laydir,
Qolganlari yolg'on yig'laydir.*

(«Tavallo»)

*Chaman ichinda bir gul, gul bir yon, chaman bir yon,
Sarv-u sanobarmidir – soch bir yon, suman bir yon,
Sahar, subhi sodiqda mushk bir yon, mujgon bir yon,
Tun pardasin tortsa gar, oy bir yon, osmon bir yon.*

(«Gul bir yon, chaman bir yon»)

Erkin Vohidov

(1936-yili tug'ilgan)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov 1936-yilning 28-dekabrda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida tavallud topgan. Otasi Cho'yanboy Vohidov, onasi Roziyaxon davrning obro'-e'tiborli, ma'rifatli, faol kishilari edilar. Uning otasi Ikkinchi jahon urushidan og'ir jarohat olib qaytadi va 1945-yili vafot etadi. Bir yildan keyin onasi ham dunyodan o'tadi. O'n yoshga yetar-yetmay ham ota, ham onadan ajrab qolgan yosh Erkinni tog'asi o'z tarbiyasiga oladi.

Toshkentga – tog'asinikiga kelgan bo'lajak shoir o'qishini qunt bilan davom ettiradi. Unda kitobga, adabiyotga havas juda erta uyg'ondi. 7-sinfda o'qib yurganida «Mushtum» jurnalida birinchi she'ri bosildi.

Erkinjon avval o'rta maktabda, so'ng hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetida ta'lim oladi. 1960-yili o'qishni bitirgach nashriyotlarda muharrir, bosh muharrir, direktor lavozimlarida ishlaydi, yangi tashkil qilingan «Yoshlik» jurnalining oyoqqa turishiga bosh-qosh bo'ladi.

Erkin Vohidov «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni va «O'zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlandi.

Ijodiy faoliyati

I. She'rlari

- «Tong lavhasi»
- «Kamtarlik haqida»
- «Buloq»
- «Sevgi»
- «Ona tuproq»
- «Yoshligim»
- «Barcha shodlik senga bo'lsin»
- «Vatan istagi»
- «Sirdaryo o'landi»
- «Arslon o'ynatuvchi»
- «Kechir, yo rab!»
- «Tush»
- «Yuragingda makon tutgan qul»
- «Donishqishloq latifalari» (turkum)

II. She'riy to'plamlari

- «Tong nafasi» (ilk to'plam, 1961)
- «Yoshlik devoni» (1969)
- «Yaxshidir achchiq haqiqat»

To'rt jildlik saylanma:

- «Ishq savdosi»
- «She'r dunyosi»
- «Umr daryosi»
- «Ko'ngil nidosi»

III. Dostonlari

- «Nido»
- «Orzu chashmasi»
- «Palatkada yozilgan doston»
- «Quyosh maskani»

- «Ruhlar isyoni»

IV. Pyesalari

- «Oltin devor»
- «Istanbul fojiasi»

V. Publitsistikasi

- «Shoir-u she'r-u shuur»

VI. Tarjimalari

- Gyote: «Faust»(1974)
- Sergey Yesenin: «Fors taronalari»
- Rasul Hamzatov: «Mening Dog'istonim»
- A.Blok
- L. Ukrainka
- M.Svetlov
- A.Tvardovskiy

She'rlaridan namunalar

- *Yaxshidir achchiq haqiqat,
Lek shirin yolg'on yomon,
Ul shirin yolg'onga mendek
Aldanib qolg'on yomon.*
- *O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Oltin boshning kalla bo'lgani shudir.
Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa,
Qora sochning malla bo'lgani shudir.*
- *O'lmas edi, balki, odamzod,
Bo'lar edi dunyoga ustun,*

*Aqli bo'lsa jahlidan ziyod,
Sabri bo'lsa nafsidan ustun.*

- *Nega yapon yuz yil yashar-u,
O'zbek buncha yoshga bormaydi?
Chunki yapon bizdek qorong'u
Sahar turib oshga bormaydi.*

Abdulla Oripov

(1941-yili tug'ilgan)

Hayotiga doir muhim ma'umotlar

Abdulla Oripov 1941-yilning 21-martida Qashqadaryo viloyati Koson tumanining Neko'z qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Orif bobo, onasi Turdi Karvon qizi.

Abdulla Oripov 1958-yili o'rta maktabni oltin medal bilan bitirib Toshkentga keladi va SAGU (hozirgi O'zMU)ning filologiya fakultetiga o'qishga kiradi.

1963-yili ushbu fakultetning jurnalistika bo'limini tamomlaydi va Toshkentdagi «Yosh gvardiya» nashriyotiga muharrir bo'lib ishga kiradi.

Bu yerda to'rt yil ishlagach 1967 – 1974-yillarda G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda muharrir, katta muharrir bo'lib xizmat qiladi.

1974 – 1976-yillarda «Sharq yulduzi» jurnalida bo'lim boshlig'i sifatida faoliyat yuritdi.

1976 – 1982-yillar orasida O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining adabiy maslahatchisi sifatida adabiyotga endi kirib kelayotgan yosh ijodkorlarga rahnamolik qildi.

1982 – 1983-yillarda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyat bo'limida mas'ul kotib bo'lib faoliyat ko'rsatdi.

1983-yili shoir bolalar va o'smirlar jurnali «Gulxan»ning bosh muharriri bo'ldi va u yerda 1985-yilgacha, ya'ni O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining kotibi lavozimiga o'tguncha ishladi.

Abdulla Oripov 1983-yili Hamza nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Shu yili unga «O'zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi.

Uyushmaning kotibi sifatida uch yil ishlagan A.Oripov 1988-yili O'zbekiston Respublikasi mualliflik huquqini himoya qilish qo'mitasi raisi vazifasiga o'tkazildi.

1994-yili Alisher Navoiy nomidagi respublika davlat mukofotiga loyiq ko'rildi.

1998-yili esa shoir «O'zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlandi.

1996-yilning mart oyidan 2005-yilgacha O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining raisi vazifada faoliyat yuritdi.

Ijodiy faoliyati

I. She'riy to'plamlari

Birinchi marta respublika matbuotida «Qushcha» deb atalgan she'ri chiqqan paytda A.Oripov talaba edi. Ilk she'riy kitobi 1965-yili «Mitti yulduz» nomi bilan bosilib chiqadi.

Keyingi yillarda bosilgan she'riy to'plamlari:

- «Ko'zlarim yo'lingda» (1967)
- «Onajon» (1969)
- «Ruhim» (1971)
- «O'zbekiston»
- «Qasida» (1972)
- «Xotirot» (1974)
- «Yurtim shamoli» (1974)
- «Jannatga yo'l» (1978)
- «Hayrat» (1979)
- «Hakim va ajal» (1980)
- «Najot qal'asi» (1981)
- «Onajon»
- «Yuzma-yuz»
- «Yillar armoni» (1983)
- «Haj daftari» (1992)
- «Saylanma» (1996)

- «Sohibqiron» (1996)
- «Tanlangan asarlar» (to‘rt tomlik, 2000 – 2001)

II. Dostonlari

- «Jannatga yo‘l»
- «Hakim va ajal» (she‘riy drama, Ibn Sinoga bag‘ishlangan, 1978)
- «Ranjkom»
- «Sohibqiron» (she‘riy drama, 1996 – 1998)
-

«Sohibqiron» asari to‘g‘risida

Asar qahramonlari:

Amir Temur, Yeldirim Boyazid (Rum sultoni), Bibixonim (Amir Temurning rafiqasi, oqila va tadbirkor malika), Amir Husayn (Balx amiri, Qozog‘on nabirasi, Chingiz naslidan), Uljoy Turkon (Amir Temurning zavjasi, Amir Husaynning singlisi), Shayxulislom, Mir Said Baraka (Amir Temurning piri), Barlos Bahodir, Kayxisrav, Ibn Arabshoh, Muhammad Qavchin, Devonbegi, Aloviddin, Hofiz Sheroziy (mashhur fors shoiri), Yassaviy (Darvish, Xizr), Buqalamun (Amir Temurning xufyasi, asl ismi Itolmas), Shohrux mirzo, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Pirmuhammad, Qosimbek (Amir Temurning sarbozi, asli keshlik, otasi ham sarboz bo‘lib, Dehli jangida shahid ketgan); elchilar, amirlar, eshikbon, yasovul, choparlar, sartarosh, qariya va boshqalar.

Asarning umumiy mazmuni:

«Sohibqiron» dramasida Amir Temur janglarda emas, balki ko‘proq o‘ylar girdobida aks ettiriladi. Asarda Temurning murakkab tabiati uning Amir Husayn, Sulton Boyazid, amirlar, o‘g‘illariga munosabatini ko‘rsatish mobaynida yorqin aks etgan. Amir Temur tajribali hukmdor va o‘ychil faylasuf sifatida davlatni ushlab turguvchi tayanchlarni «*Mo‘l xazina, yagona shoh, yengilmas lashkar*» deya belgilaydi. Uning jahongirlik tabiati suruvda bitta cho‘pon bo‘lganiday, xalqni ham bir podshoh boshqarishi kerakligi borasidagi qanoatida namoyon bo‘ladi. Dramada jahongirning fuqarolarga munosabati «*Hukmdorlar seva turib fuqarolarni Umid hamda qo‘rquv ichra saqlashi darkor*» degan qarashida aks etadi.

A.Oripov Temurni o‘z yo‘lining to‘g‘ri-noto‘g‘riligini aniqlashga tinmay urinadigan, bosgan har bir qadami xususida fikr yuritadigan kishi sifatida ko‘rsatadi. Shuning uchun Temurning *«Unutmagil, muzaffarman haqligim uchun»* degan so‘zlari o‘quvchiga qahramon fikrlash tarzining mantiqiy hosilasiday ta’sir qiladi.

Asarda Amir Temurning o‘z dushmanlari gunohlarini ham kechira oladigan shaxs ekani Sulton Boyazid, haddidan oshgan kimsani jazosiz qoldirmasligi Amir Husayn, ezgu amalli kishilarni taqdirlashi Hofiz Sheroziy va Qosimbek timsollari orqali ishonarli aks ettirilgan. Dostonda Boyazidning Amir Temurga yozgan xatidagi haqoratlar uni urushga kirishishga majbur etishi ishonarli tasvirlangan: *«Agarda sen biz tomonga kelmasang, Temur, bilib qo‘yki, xotunlaring uch taloq bo‘lgay. Agar seni yenga olmay chekinsam ortga Unda mening xotunlarim bo‘lsin uch taloq»*. Muallif hech bir musulmon chidashi mumkin bo‘lmagan bunday odobsizlikka Temurning jang bilan javob berishi tabiiyligini tarixiy haqiqatga ham mos holda ko‘rsatadi.

A.Oripov asar bosh qahramonini o‘ylar og‘ushida aks ettiradi. Temur xato qilib birovlarining umriga zomin bo‘lishdan qo‘rqadi. Ammo o‘zini buyuk bir tarixiy missiyaning ijrochisi deb biladi: *«Nega ko‘pdir nayrangboz-u kazzob kimsalar? Nega bosgan yer yuzini buncha ko‘p illat? Men zaminni tozalashim kerak ulardan»*. Jahongir jangovor yurishlarida doim biror xalqqa qarshi emas, balki yovuz hukmdorga qarshi qo‘shin tortadi. Shu tariqa muallif Sohibqiron faoliyatining axloqiy asoslarini aks ettiradi.

Amir Temurning Ahmad Yassaviy bilan uchrashuvi asarning eng ta’sirli lavhalaridan biridir. Bu o‘rinlarda Amir Temur o‘z xatti-harakatlariga ma’naviy asos qidiradi. Yassaviyning: *«Ayt-chi, Temur, sen besabab qon to‘kkanmisan?»* – degan so‘rog‘iga javob berish jahongirga oson kechmaydi. Sohibqiron islomiy tartiblar o‘rnatish, adolatni qaror toptirish uchun qon to‘kkani haqida o‘ylaydi. Dunyoda banda tomonidan kuch bilan adolat o‘rnatilishi shubhali ekanligi Yassaviyning *«Niyat qancha jozibali bo‘lsa ham, Temur, qilich bilan murod hosil bo‘lmog‘i gumon»* degan so‘zlarida ifoda etiladi.

III. Tarjimalari

Abdulla Oripov Dantening «Ilohiy komediya» («Do‘zax» qismini), L.Ukrainka, T.Shevchenko, N.Nekrasov, Q.Quliyev, R.Hamzatov singari shoirlarning asarlarini o‘zbekchaga o‘giran.

She’rlaridan namunalar

- **«Dorboz»**

*Bulutlarga yondosh, osmon ostida
Kiprikdagi yoshday turibdi dorboz.
Qilichning damiday arqon ustida
Ko‘zlarini yumib yuribdi dorboz.*

- **«Temir odam»**

*Bir haykal turibdi, U – Robot emish,
Temirdan yasalgan, odam timsoli,
Ilmda eng so‘nggi kashfiyot emish,
Aqlli zot emish, qusurdan xoli...
...Temir odam yasab yurguncha ko‘proq
«Jonli temir»larni o‘ylangiz, ustoz.*

- **«Tilla baliqcha»**

*Tuxumdan chiqdi-yu keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o‘tadi kuni,
Xor-u xas, xazonlar ustin yopdilar.
Dunyoda ko‘rgani shu tor hovuzcha
Va mudroq tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko‘lmak hovuz deb bilar dunyoni...*

- **«Men anglab yetgan falsafa»**
*Bozorga o'xshaydi, asli, bu dunyo,
 Bozorga o'xshaydi bunda ham ma'ni.
 Ikkisi ichra ham ko'rmadim aslo
 Molim yomon degan biror kimsani.*
- **«Sen bahorni sog'inmadingmi?»**
*Uyg'onguvchi bog'larni kezdin,
 Topay dedim qirdan izingni.
 Yonog'ingdan rang olgan dedim –
 Lolazorga burdim yuzimni,
 Uchratmadim ammo o'zingni,
 Sen bahorni sog'inmadingmi?*
- *Bahor kunlarida kuzning havosi,
 Tanimni junjitar oqshomgi shamol.
 Nega muncha g'amgin nayning navosi,
 Nega qalbim to'la o'kinch va malol?*
- *Yana dalalarga boshlaydi havas,
 Bog'larda xazonlar yonadi lov-lov.
 Do'stlarim, bu kuzning barglari emas,
 Mening yuragimdan to'kilgan olov.*
- *Yiroq-yiroqlardan mungli va uzun
 Turnalar tovushin tinglardim faqat (pokiza yoshlik davri).*
- *Sonsiz egatlarga sochilmish, ana,
 Mening orzularim, mening o'ylarim (o'zbek xalqining yig'ma obrazi).*

- *Shabnam shovullaydi bog'lar qo'ynida,
Salqin tuman ichra bo'zarar tonglar,
Quyoshning erinchak yog'dularida
Nafis yaltiraydi bargi xazonlar (vatan timsoli).*
- *Oyoqlangan qo'ziday dovdidar yelda maysa,
Ko'm-ko'k moviy osmonda kezib yurar oq bulut.*
- *Qizg'aldoq bargidek uchar dildan g'am,
Toshqinlar kiradi qalbinga manim (quvonch va g'amning birgalikdagi tasviri)*

Rauf Parfi O'zturk

(1943 – 2005)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Rauf Parfi, taxallusi – O'zturk. 1943-yilning 27-sentyabrida Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumaniga qarashli Sho'ralisoy qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. Otasi – Parfi Muhammadamin o'g'li savodli, anchagina o'qimishli kishi bo'lib, sho'rolar quvg'ini davrida Farg'onaning Vodil qishlog'idan Sho'ralisoyga kelib qolgan. Onasi – Sakinaxonim Isabek qizi farg'onalik bo'lib, mumtoz adabiyotni biladigan ayol edi.

Rauf Parfi 1950-yili Sho'ralisoydagi yetti yillik maktabga o'qishga boradi va u yerda 1956-yilgacha saboq oladi. So'ng qo'shni qishloqdagi maktabga o'tib, bu yerda 1958-yilgacha tahsilni davom ettirdi. Sakkizinchi sinfni tugatgach o'qishni Yangiyo'l shahridagi kechki maktabga o'tqazib, mehnat faoliyatini boshlaydi. U dastlab Yangiyo'l tuman gazetasida musahhih bo'lib ishlaydi. O'rta ma'lumot olgach 1960-yili Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning jurnalistika fakultetiga o'qishga kiradi. U yerdagi saboqlar 1965-yili bitgan bo'lsa-da, shoir «Markscha-lenincha falsafa» deb atalmish fandan o'tolmagani va qayta imtihon topshirishni istamagani uchun universitet diplomini ololmaydi.

Rauf Parfi 1966 – 1967-yillarda Yangiyo'l'da chiqadigan «Kolxoz haqiqati» gazetasi muxbiri bo'lib ishladi. 1967-yili Toshkentga kelib Kinematografiya davlat qo'mitasida

muharrir bo‘lib ishladi. 1971 – 1977-yillarda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida muharrir lavozimida faoliyat ko‘rsatdi. So‘ng «Oydin» gazetasida, 1987-yilgacha yana G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida mehnat qildi. 1987 – 1989-yillarda O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi, 1989-yildan 1997-yilgacha O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi targ‘ibot markazida katta muharrir, 1997 – 1999-yillarda «Jahon adabiyoti» jurnali bo‘lim mudiri vazifalarida ishladi. Unga 1999-yil «O‘zbekiston xalq shoiri» unvoni berilgan.

Rauf Parfi 2005-yili Toshkentda vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

Rauf Parfining birinchi she‘ri 1953-yilning 5-martida o‘n yoshida Stalin vafotiga bag‘ishlab yozilgan marsiya bo‘ldi. Universitetning birinchi bosqich talabasi ekanida «Laylo» she‘ri millat yoshlarining eng sevimli qo‘shig‘iga aylandi.

I. She‘rlari

- «Diloromning ko‘zlari»
- «Yoshlik zangor fasl...»
- «Xato qildim...»
- «Og‘riq»
- «Tavba»
- «Sensiz»
- «Shoir»
- «Assalomu alaykum, dorning og‘ochi»

II. She‘riy to‘plamlari

- «Karvon yo‘li» (ilk she‘riy to‘plami, 1968)
- «Aks sado» (1970)
- «Tasvir» (1973)
- «Xotirot» (1975)
- «Ko‘zlar» (1977)
- «Qaytish» (1978)

- «Sabr daraxti» (1986)
- «Sukunat» (1989)
- «Tavba» (2000)
- «Turkiston yodi» (2013)
- «Sakina» (2013)

III. Dostoni

- «Adashgan ruh» (lirik doston, tugallanmagan, 1991)

IV. Tarjimalari

- Bayron: «Manfred»
- Nozim Hikmat: «Inson manzaralari»
- Mahmud Hodiy: «Ozodlik lavhalari» («Alvohi intiboh»)
- Karlo Kaladze: «Dengiz xayoli»
- A.Dyuma: «Uch sarboz»

Asqad Muxtor: «Rauf Parfi – yaralari ochiq shoir. Unda hazinlik ko‘p, ora-chora shunchaki marsiya ham yozib tashlaydi, tushkunlik alomatlari ham uchraydi. Men buni shoirning aybiga yo‘ymasdim. Shoir insoniy dardlardan xoli bo‘lolmaydi. Rauf Parfi esa shoir sifatida o‘zligini to‘laroq ifodalashga intiladi».

Shukur Xolmirzayev

(1940 – 2005)

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar

Shukur Xolmirzayev 1940-yilning 24-martida Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi Shahidlar guzarida dunyoga keldi. Otasi Fayzulla Xolmirza o‘g‘li asli Bulung‘urdan bo‘lib, sho‘rolar tuzumining dastlabki davrida yuqori lavozimlarda ishlagan. Millatning asl farzandlari qatag‘on qilingan 1937 – 1938-yillarda sho‘rolar xurujidan qochib Boysunga ketishga majbur bo‘lgan. Bu yurtda bo‘lajak adibning onasiga uylanadi. O‘sha yerda tuman gazetasiga muharrirlik qiladi. Lekin u qonsiragan sho‘ro

hukumati changalidan qutulolmaydi. 1940-yil o'rtalarida qamoqqa olingan Fayzulla Xolmirza o'g'li sovug'i qahrli Magadan o'rmonlarida og'ir mehnatdan sillasi qurib 1944-yili vafot etadi. Bo'lajak yozuvchining onasi ham ishchan va o'ziga yarasha ma'lumotli ayol edi. Shu bois u uzoq yillar tuman miqyosidagi rahbarlik lavozimlarida ishlab keldi.

Shukur Xolmirzayev Boysundagi o'rta maktabni tugatgach 1958-yili Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning filologiya fakultetiga o'qishga kirdi va uni 1962-yili bitirdi. So'ng «Yosh gvardiya» nashriyotida muharrir, «Guliston», «Sharq yulduzi» jurnallarida bo'lim mudiri, ma'lum muddat Muqimiy nomidagi teatrda adabiy emakdosh bo'lib faoliyat ko'rsatdi.

1991-yili adibga «O'zbekiston xalq yozuvchisi» unvoni berildi.

Shukur Xolmirzayev og'ir kasallikdan so'ng 2005-yilning 29-sentyabrida vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

I. Hikoyalari

•«Yovvoyi gul»

•«Bahor o'tdi»

•«Bitiktosh»

•«Yashil «Niva»

•«Ozodlik»

•«O'zbeklar». Hikoya qahramonlari: Ergash – paxta terimiga chiqqan talaba (voqealar uning tilidan bayon qilinadi), Botir cho'pon – talabalarga g'amxo'rlik qilgan sodda, pok inson, Botir cho'ponning ayoli – ismi berilmagan, lekin talabalarga, Ergashga ko'p yaxshilik qilgan, Abduqodir – Botir cho'ponning o'g'li, «Eshimboyning ordeni bor, lekin qo'yi kam», – degan gapni aytgan, Sapar – Ergashning qoraqalpoq kursdoshi, Ergash kasal bo'lib qolganda ikki fartuk paxta terib beradi, O'rmon – kurskom (kurs sardori), poyezddagi sarguzashtlarini aytib zerikmaydigan qahramon, Azimjon – komsorg (sho'rolar davridagi yoshlar tashkiloti yetakchisi), Mirzag'olib – «rais» laqabli, qirqoyoq kiradi deb qulog'iga paxta tiqib yotadigan, Botir cho'ponning qo'zichog'ini o'g'irlashda qatnashgan talaba.

Asarning qisqacha syujeti. Bir guruh talabalar paxta terimiga borib noqulay yerga joylashadilar. Ergashboy shamollab qolganda, ularga yaqin joyda bir kulbada yaxshovchi Botir cho‘pon va uning oilasi yordam beradi. Talabalar qattiq qiynalib, o‘g‘irlikka ham qo‘l uradilar. Bir kuni Botir cho‘ponning qo‘rasidan qo‘ylari hurkib har tomonga qochib ketadi. Bir qo‘zini talabalar topib olishsa-da, bu haqda Botir cho‘ponga xabar bermasdan o‘zlari so‘yib yeyishadi. Bunga Ergashboy guvoh bo‘lib qolsa-da, hech kimga aytmaydi, lekin sheriklik ham qilmaydi. Botir cho‘ponning kambag‘al bo‘la turib bularni mehmon qilishga urinishidan ham ta’sirlanadi, ham bu oilaning qashshoqligi sabab ulardan yegulik uchun hech narsa olmaydi. Paxta terimi tugab, ketishlaridan oldin Botir cho‘pon qo‘zi so‘yib talabalarni mehmonga chaqiradi. Ergash bormaydi. Alal-oqibat buni Botir cho‘pon oilasi mensimaslik deb tushunib undan xafa bo‘lishadi, holbuki, Ergashboy bu oilaning pokligi, mehmondo‘stligini hammadan yaxshi biladi va qadrlaydi.

Xulosa: hikoyada o‘zbek xarakteriga xos jihatlar ochib berilgan.

- «Hayot abadiy»
- «Og‘ir tosh ko‘chsa»
- «Ustoz»
- «Ko‘k dengiz»
- «Tabassum»
- «Shudring tushgan bedazor»
- «Xumor»
- «Bodom qishda gulladi»
- «Tabassum»
- «Qadimda bo‘lgan ekan»
- «Quyosh-ku falakda kezib yuribdi»
- «Navro‘z»

II. Hikoya va qissalar to‘plamlari

- «Oq otili» (ilk nomi «Tog‘lar orasida», 1962)
- «To‘lqinlar» (1963)

- «O‘n sakkizga kirmagan kim bor» (1964)
- «Taqdir bashorati» (1968)
- «Yo‘llar, yo‘ldoshlar» (1973)
- «Yur, tog‘larga ketamiz» (1976)
- «Cho‘loq turna» (1978)
- «Tuproq ko‘chalar» (1978)
- «Qush tili» (1982)
- «Qahramonning so‘nggi kunlari» (1984)
- «Tog‘larga qor tushdi» (1986)
- «Abdulla Nabi o‘g‘lining so‘nggi kunlari» (1983)
- «Esiz, Eshniyoz!» (1988)
- «Bulut to‘sgan oy» (1997)

III. Qissalari

- «U – ustoz, men – shogird» (akademik Matyoqub Qo‘shjonov haqida yozilgan hujjatli qissa)
- «Bukri tol»
- «O‘n sakkizga kirmagan kim bor»
- «Bulut to‘sgan oy»

III. Romanlari

- «So‘nggi bekat» (1976)
- «Qil ko‘prik» (1984)
- «Yo‘lovchi» (1987)
- «Olabo‘ji» (1991)
- «Dinozavr» (1996)

IV. Pyesasi

- «Qora kamar» (1987)

O‘tkir Hoshimov

(1941 – 2013)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

O'tkir Hoshimov 1941-yili Toshkentning Do'mbirobod mahallasida tug'ilgan.

Adib xat tashuvchi, musahhah, muxbir, gazetada bo'lim mudiri, nashriyotda va jurnalda bosh muharrir kabi bosqichlarni bosib o'tgan. Umrining so'nggi yillarida bir necha marta xalq deputatligiga saylangan adib Oliy Majlisda qo'mita raisi sifatida ham faoliyat ko'rsatdi.

O'tkir Hoshimov O'zbekiston xalq yozuvchisi (1991-yil) unvoni, «Mehnat shuhrati» (1996-yil) va «Buyuk xizmatlari uchun» (2001-yil) ordenlari sohibidir.

O'tkir Hoshimov 2013-yil 24-may kuni Toshkentda vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

I. Hikoyalari

- «Urushning so'nggi qurboni».

- Hikoya qahramonlari: Shoikrom, Umri xola – Shoikromning onasi, Xadicha – Shoikromning xotini, Shone'mat – Shoikromning ukasi.

Hikoyaning qisqacha syujeti. Voqealar Ikkinchi jahon urushi davrida kechadi. Shoikromning oilasi boshqa oilalar kabi urush sabab qiynalib qoladi. Shoikromning hovlisidan sigirini o'g'irlab ketadilar, pishay deb turgan qulupnayga ham kechasi kimdir oralayotgani ma'lum bo'ladi. Bir kecha Shoikromning onasi Umri xola chiqadi, Shone'mat – kichik o'g'lining dardi og'ir ekanini, echki suti davo ekanini aytadi... Shu kecha Shoikrom uzun simni elektr tokiga ulab hovlisidagi qulupnayzorga uloqtiradi, kirgan o'g'rini shu yo'l bilan jazolashni mo'ljallaydi. Ertalab esa qulupnayni Umri xola Shone'matning dardiga davo bo'ladigan bir kosa sutga alishish uchun terishi, bu tun ham shu niyatda qulupnay terishga kirib elektr tokidan vafot etgani ma'lum bo'ladi... Ertasi kuni janozada urushning tugagani haqida xabar tarqaladi. Xulosa: urush nafaqat front uchun, balki butun insoniyat uchun ofatdir. U farzandni o'z onasining qotiliga aylantirishi ham mumkin.

- «Muhabbat»

- «O'zbekning bir kuni»

- «Nega! Nega!»

II. Qissalari

- «Cho‘l havosi»
- «Odamlar nima derkin»
- «Shamol esaveradi»
- «Ikki karra ikki besh»
- «Bahor qaytmaydi»
- «Dunyoning ishlari»

III. Romanlari

- «Nur borki, soya bor»
- «Ikki eshik orasi»
- «Tushda kechgan umrlar»

IV. Pyesalari

- «Vijdon dorisi»
- «Qatag‘on»
- «Inson sadoqati»
- «To‘ylar muborak»

Tog‘ay MUROD

(1948 – 2003)

Hayotiga doir muhim ma‘lumotlar

Tog‘ay Murod Surxondaryoning Denov tumaniga qarashli Xo‘jasoat qishlog‘ida 1948-yili tug‘ildi. Qishloqdagi o‘rta maktabni tugallab, 1966 – 1972-yillarda hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetida ta‘lim oldi.

1972 – 1976-yillarda respublika radiosining «Vatandoshlar» (xorijiy ellarga mo‘ljallangan) tahririyatida xizmat qildi, «O‘zbekiston fizkulturachisi» gazetasida, 1982-yildan 1985-yilgacha esa «Fan va turmush» jurnalida ishladi. 1985 – 1987-yillar ichida Moskvadagi Jahon adabiyoti institutida ham tahsil olib qaytdi.

Tog‘ay Murod 55 yoshida hayotdan ko‘z yumdi.

Ijodiy faoliyati

I. Qissalari

•«Yulduzlar mangu yonadi» (1976, qissada tarixiy qadriyat – kurash, kurashchi polvonlar, ular orasidagi muomala-munosabatlar, ziddiyatli hayotiy muammolar qalamga olinadi).

•«Ot kishnagan oqshom» (1979, qissa sho‘ro davri adabiyotidagi ko‘plab boshqa asarlardan oxiri «umidbaxsh sadolar bilan» tugamasligi jihatidan ham ajralib turardi. Qissa qahramoni Ziyodulla chavandoz o‘zining sevimli, vafodor va bir umrga sadoqatli otidan najot tilaydi).

•«Oydinda yurgan odamlar» (1980, qissa qahramonlari – Qoplonbek va Oymomo oliyjanob qalb egalaridir. Befarزند bo‘lgan Qoplonbek va Oymomo birbirlaridan voz kechishmaydi).

•«Qo‘shiq» (1985).

II. Romanlari

•«Otamdan qolgan dalalar» (1993, roman o‘zbek xalqining chor Rossiyasi va sho‘ro bosqini ostida o‘tgan hayotini – yuz yildan ortiqroq tarixni o‘zida mujassam etgan. Asarda bir oilaning uch avlodi hayoti misolida butun millatning taqdiri o‘ta ta’sirchan bo‘yoqlarda ifoda etiladi. Oqposhshoning asl niyatini anglamay, bosqinchilarning uyatli qiliqlaridan orlanib tug‘ilib o‘sgan yerini tashlab ketgan Jamoliddin ketmon XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi xalq vakili edi. Nima qilib bo‘lsa-da yurt tuprog‘ini bosqinchilardan tozalash niyatida qo‘liga qilich tutgan Aqrab (Chayon) XX asrning 20-yillarida milliy istiqlol yo‘lida shahid bo‘lgan bobolarimiz timsoli sifatida ko‘rinadi. Shunday shavkatli otalardan to‘ragan Dehqonqul esa o‘sha paytdagi hukmron Moskvaning «paxta mustaqilligini ta’minlash» siyosati qurboni – millionlab huquqsiz kolxozchilarning umumlashma obrazidir. «Otamdan qolgan dalalar» romani uchun Tog‘ay Murod Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. Aynan shu roman e’lon qilingach, adibga «O‘zbekiston xalq yozuvchisi» unvoni berilgan. Bu asar asosida taniqli kinorejissyor Shuhrat Abbosov ikki qismli badiiy filmni suratga olgan)

•«Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» (romanda sho‘ro davlati yiqilgach, bir umr sig‘inib kelgan e’tiqodi yolg‘on chiqqan Botir firqa obrazi tasvirlangan)

III. Tarjima

- E.Seton-Tompson: «Yovvoyi yo‘rg‘a» (hayvonlar haqidagi qissalar to‘plami)

Muhammad Yusuf

(1954 – 2001)

Hayotiga doir muhim ma‘lumotlar

Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat (1898-yili mashhur Dukchi eshon qo‘zg‘oloni bo‘lib o‘tgan Mingtepa) tumanidagi Qovunchi qishlog‘ida tug‘ildi. O‘rta maktab ta‘limini olgach Muhammad Yusuf Toshkentdagi Rus tili va adabiyoti institutiga o‘qishga kiradi va uni 1978-yili bitiradi. Dastlabki she‘rlaridan namunalar 1976-yili «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» haftaligi sahifalarida chop etilgandi.

Muhammad Yusuf 1978 – 1980-yillarda respublika «Kitobsevarlar» jamiyatida, 1980 – 1986-yillar oralig‘ida poytaxtning «Toshkent oqshomi» gazetasida, 1986 – 1992-yillarda esa G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyatida xizmat qiladi.

Muhammad Yusuf 1992 – 1995-yillarda «O‘zbekiston ovozi» gazetasida, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA)da xizmat qildi. 1997-yildan e‘tiboran O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisining o‘rinbosari etib tayinlandi.

Muhammad Yusufga 1998-yili «O‘zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi.

Muhammad Yusuf 2001-yilning 31-iyulida Qoraqalpog‘istonning Ellikqal‘a tumaniga qilingan ijodiy safar chog‘ida, yuzlab muxlislari qarshisida she‘r o‘qiyotgan paytda yurak xurujidan yiqildi va kasalxonada vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

I. She‘riy to‘plamlari

- «Bulbulga bir gapim bor» (1987)
- «Iltijo» (1988)
- «Uyqudagi qiz» (1989)
- «Halima enam allalari» (1989)
- «Ishq kemasi» (1990)
- «Ko‘nglimda bir yor» (1990)

- «Bevafo ko‘p ekan» (1991)
- «Yolg‘onchi yor»
- «Erka kiyik» (1992)
- «Osmonimga olib ketaman»

II. She‘rlari

- «Vatanim»
- «Xalq bo‘l, elim»
- «Dunyo»
- «Inshoolloh»
- «O‘zbekmomo»
- «Iqror»
- «Tilak»

III. Dostonlari

- «Osmonning oxiri»
- «Qora quyosh»

She‘rlaridan namunalar

*Shoir shunday ko‘pki, ularga yer tor,
Hammasi mashhur va hammasi nomdor,
Ulug‘vor, ularga yetmoq ko‘p dushvor.
Ammo ular oyga bosib yuzini
Turganda osmonin bag‘riga ilk bor,
Biz olib borgaymiz tuproq isini,
Gulday dimog‘iga tutamiz, qizim,
Biz hali hammadan o‘tamiz, qizim!..*

(«Qizim Madinaga»)

*Nechun qulluq qilmay Andijonga men –
Shu yurtda tug‘ildim, shu yurtda o‘sdim.
Agar do‘stim bo‘lsa, bitta u do‘stim –*

Nechun qulluq qilmay Andijonga men!..

(«Nechun qulluq qilmay Andijonga men»)

*Ol deya bir Egam, osmonga uchsa ruhlarim,
Bir ajib moviy diyor bo‘ynini quchsa ruhlarim,
Ko‘k mening ko‘ksim bo‘lur, yulduzlari – anduhlarim,
Gul o‘pib, gul yopinib har dilda mozorim qolur,
Men ketarman bir kuni, navolarim, zorim qolur...*

(«Navolarim qolur...»)

*Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim.
O‘zim xoqon,
O‘zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim.
Yolg‘izim, Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi?
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim...*

(«Vatanim»)

Savol va topshiriqlar:

- 1. G‘afur G‘ulomning lirik va nasriy merosi haqida so‘zlab bering.*
- 2. Oybekning o‘zbek romanchiligi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi qaysi asarlarida namoyon bo‘ladi?*
- 3. Maqsud Shayxzoda ijodini yaratilgan davriga ko‘ra qanday tasniflash mumkin?*
- 4. Abdulla Qahhor qaysi janr taraqqiyotiga alohida hissa qo‘shgan?*
- 5. Hamid Olimjonning ijodiy merosini qanday tasniflash mumkin?*
- 6. Usmon Nosirning she‘riyatiga xos xususiyatlar sifatida qaysi jihatlarni ayta olasiz?*
- 7. Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida qaysi mavzu yetakchilik qiladi?*

8. *Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasi o‘zbek romanchiligi taraqqiyotida qanday o‘rin tutadi?*
9. *Shukur Xolmirzayev asarlarida milliy mentalitetimizga xos xususiyatlar qay darajada va qay shaklda namoyon bo‘ladi?*
10. *Abdulla Oripov va Erkin Vohidov she‘riyatining mushtarak jihatlarini aniqlashga harakat qiling.*

11. MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI

O‘tgan asrning 90-yillaridan e’tiboran o‘zbek xalqi o‘z tarixining yangi bosqichiga kirdi. Millat holatining estetik ifodasi o‘laroq istiqlol adabiyoti deb atalmish badiiy hodisa yuzaga keldi. Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti ko‘p asrlik milliy adabiyotning mantiqiy davomidir. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti – bir qator o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lgan badiiy-estetik hodisa.

Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti tubdan o‘zgargan milliy ongning, tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsulidir. Mustaqillik tufayli millat ahli o‘z ma’naviyatining asosi bo‘lmish Qur’oni Karim bilan o‘zbek tilida tanishish imkoniga ega bo‘ldi. Bu hol millatning tafakkuri sog‘lomlashuviga olib keldi. O‘zbek xalqining tafakkuri tarixini umumiy qilib Qur’oni Karim tarjima qilinguncha va tarjima qilingandan keyingi davrlarga ajratish mumkin. Negaki bu muqaddas kitobning o‘zbekchaga ag‘darilishi millatning e’tiqodi, dunyoqarashi va ma’naviyatida o‘ziga xos inqilob yasadi. Tabiiyki, dunyoqarashi tozargan millatning adabiyoti ham yangilanadi. Shu tariqa hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, dunyoni har xil anglash, izohlash hamda tasvirlash samarasi sifatida istiqlol adabiyoti dunyoga keldi.

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti yagona hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, dunyoni har xil anglash, izohlash hamda tasvirlash imkoniyatiga ega bo‘lgan millat ijodiy dahosining samarasi sifatida dunyoga keldi. Ijtimoiy taraqqiyot yo‘sinlarini, muayyan shaxs ruhiyati manzaralarini sinfiy kurash va partiyaviy yondashuvsiz ham tasvirlash natijasi bo‘lib yaratildi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti tafakkur oinlari o'zgacha ijodkorlarning estetik qarashlari natijasida dunyoga kelgan hodisa o'laroq bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Birinchidan, bu davr adabiyoti hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, olam va odam ruhiyatiga mansub hodisalarga xilma-xil qarashlarning mahsulidir. Bu davrda olamning mavjudlik yo'sinini turlicha izohlash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu hol milliy adabiyotimizning ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi. Ilmiy-estetik qarashlar xilma-xilligini yuzaga keltira boshladi.

Ikkinchidan, mustaqil o'zbek davlati badiiy adabiyotni sho'ro zamonida bo'lgani kabi o'z monopoliyasiga aylantirishga urinmadi. Shu bois ijod erkinligiga obyektiv sharoit yaratildi. Adabiyot ijodkorning ko'ngil ishiga aylandi va aylanmoqda.

Bugun badiiy ijod bilan shug'ullanayotganlar shaxs sifatida ham, ijodkor sifatida ham tamomila o'ziga xos, xilma-xil kishilardir. Istiqloldan keyingi davrda haqiqiy adabiyot o'z ko'ngliga qarshi bormaydigan, uning royishlariga zug'um o'tkazmaydigan kishilar tomonidan yaratilayotgani quvonarlidir. Adabiy tanqid, o'quvchilar ommasi nima desa ham bu ijodkorlar o'z bilganlaricha yozishdan qaytmaydilar. Ular ijodini o'zlariga emas, aksincha, o'zlarini ijodiga bo'ysundirgan kishilardir. Shu yo'sinda juda yaqin o'tmishda ham ijtimoiy-siyosiy hodisa sanalib kelgan badiiy adabiyot milliy-estetik aktga evrildi.

Uchinchidan, istiqlol davri adabiyoti odamga ishchi kuchi, ishlab chiqaruvchi, mehnatkash sifatida yondashish tarzidan qutuldi. Milliy adabiyot millat vakillarining mehnatinigina emas, balki ularning shaxsiyatiga daxldor jihatlar: ruhiyati, hissiyoti, ko'nglini tasvirlashga kirishdi. Bu adabiyot uchun insonning o'zi asosiy qadriyatga aylana boshladi. Shu tariqa milliy adabiyotning qahramonlari jug'rofiyasi kengaydi. Odam biror ijtimoiy qatlamning vakili tarzida emas, murakkab va anglash mushkul inson sifatida badiiy tadqiq etiladigan bo'ldi.

To'rtinchidan, mustaqillik davri o'zbek adabiyoti biror ijtimoiy tuzumning afzalligini ko'rsatish, siyosiy tizimlarni takomillashtirishga emas, alohida inson shaxsining ma'naviyatini mukammallashtirishga yo'naltirildi. Bu hol badiiy qahramonlarni turli rakurslardan turib eng ichkin va yashirin jihatlarigacha tadqiq etish imkoniyatini berdi. Shu sababdan ham istiqlol davri adabiyoti «aholisi» sezilarli darajada nozik, ingichka,

o'ziga xos, betakror bo'lib bormoqda. Bu davr adabiyotida tipik obrazlarni emas, badiiy tiplarni tasvirlashga ko'proq intilinayotganining sababi ham shunda. Shu yo'sin bu davr adabiyoti ommani ko'rsatishga emas, shaxsni tadqiq etishga yo'naltirildi.

Beshinchidan, bu adabiyot inson, insonlararo munosabatlar g'oyat murakkab, chigal va izohlash mushkul ekanligini chuqur anglagan, ularni butun murakkabliklari bilan aks ettirishga harakat qilayotgan adabiyotdir. Sho'rolar zamonida har bir adabiy qahramonning xatti-harakati ijtimoiy jihatdan asoslangan, iqtisodiyot qonunlaridan kelib chiqadigan bo'lishi shart deb qaralardi. Natijada asarlar sxematik talablarga bo'ysundirilardi. Holbuki, bir odamning xatti-harakatlari sababini adiblar tugul o'sha kishining o'zi ham to'la tushuntirib bera olmaydi. Ana shu holatning milliy badiiyatimizga ko'chganligi insonga sirli xilqat tarzida yondashish, uning taqdiridagi chigalliklarni tushunishga intilishni keltirib chiqarmoqda. Shu tariqa adabiyotdagi odam hayotdagi odamga qaraganda chuqurroq, murakkabroq, o'ychilroq bo'lib bormoqda.

Oltinchidan, bu davr adabiyotining mavzulari dolzarblik, hozirjavoblik, zamonaviylik singari sirtqi belgilardan baland turishga va lahzalik holatlarning mangulikka suratlanishiga yo'naltirilmoqda. Shu yo'l bilan adabiyot hayotdan nusxa olishdan, ya'ni ko'chirmachilikdan qutulib bormoqda. U ijtimoiy hodisalar bilan andarmon bo'lish, ularning ortidan ergashish zaruriyatidan xalos bo'ldi. Mazkur holat badiiy tasvirning chuqurlashuviga, odam ruhiyati qatlamlarini nozikroq idrok etishga imkon yaratadi.

Yettinchidan, mustaqillik davri o'zbek adabiyoti chinakamiga xilma-xil adabiyotga aylandi. Unda tajriba qilish, sinab ko'rish, ochilmagan yo'llardan yurish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu hol birovg'a o'xshamaydigan, o'zgalarni takrorlashga intilmaydigan, o'ziga xos iste'dodlarning ko'payishiga imkon yaratadi. Xilma-xil badiiy asarlarning vujudga kelishi tufayli xilma-xil o'quvchilar paydo bo'ladi. Badiiy didi yuksak, so'zni nozik his etadigan, sezimlardagi yengil tebranishlarni ham ilg'ay oladigan kitobxon shakllanishiga turtki bo'ladi. Ommaviylik badiiy adabiyot uchun asosiy maqsad, yuqori ko'rsatkich emasligi anglab yetildi.

Sakkizinchidan, yuqorida sanab o'tilgan omillar tufayli bu davr adabiyoti jo'nlikdan, anchayinlikdan, to'porilikdan qutuldi va uning asl namunalarni hamisha ham izohlash, tushuntirish, mantiqiy qoliplarga solish mumkin bo'lmay qoldi. Badiiy adabiyot mantiq va

axloqan ham teranroq sezimlar bilan ish ko‘rishi, eng murakkab mavhumlikni moddiylashtirishga da’vat etilgan hodisa ekanligi tan olindi.

To‘qqizinchidan, ijod erkinligi, xilma-xil fikrlash imkoniyati, badiiy so‘zga davlat miqyosida xo‘jayinlik qilishning barham topganligi iste’dodsiz asarlarning ham yaratilishi, chop etilishiga imkon tug‘dirdi.

O‘ninchidan, bozor munosabatlari badiiy ijod sohasida ham namoyon bo‘la boshladi. Natijada xaridorgir, ommaning o‘tkinchi talablariga mos keladigan asarlar yaratishga harakat kuchaydi. Shuning oqibati o‘laroq o‘zbek adabiyotida erotik tasvirlar, sarguzasht yo‘nalishidagi oldi-qochdi bitiklar ko‘paydi.

Mustaqillik davrida milliy adabiyot millat ahlining ko‘nglini, ruhiyatini tasvirlashga e’tibor qaratmoqda. Natijada inson asosiy badiiy qadriyatga aylandi.

She’riyat bugungi kunda ham milliy adabiyotimizning yetakchi turi bo‘lib qolmoqda. A.Oripov, Rauf Parfi, H.Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Iqbol Mirzo, Bahrom Ro‘zimuhammad, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Zebo Mirzo, Xosiyat Rustamova, Halima Ahmad, Rustam Musurmon singari shoirlarning she’rlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko‘tarilgani namoyon bo‘ladi.

Bu davr she’riyatida o‘tkir gap aytish, dono fikr bildirish, nasihat, aql o‘rgatish emas, balki inson ruhining murakkab, ismsiz manzaralarini aks ettirishga e’tibor ortdi. Hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi boy va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi. Istiqloq she’riyati shakliy izlanishlarga boyligi, Sharq nazmidan ham, G‘arb adabiyotidan ham samarali o‘rganishga intilish kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Endilikda she’rxonlik ko‘ngilochar mashg‘ulot bo‘lmay qoldi. She’r bilan tillashadigan o‘quvchining tafakkuri ham, qulog‘i ham, ko‘zi ham, hatto tuyg‘ulari ham bir qadar zo‘riqishi, she’r o‘qiyotganda faqat zavq va lazzat tuyibgina qolmay, mehnat qilishi ham lozim bo‘lib qoldi.

Rauf Parfining:

Yerga botgan osmonlarni kuzatdim,

Chopilgan oyog‘im bilan chopdim men.

Kesilgan qo‘limni sizga uzatdim,

Bu dunyo gullarga to‘ldi. Qotdim men, –
singari badiiy qanoatlarini qabul qilish uchun muayyan ruhiy-intellektual tayyorgarlik zarur bo‘ladi. O‘ziga xos shoirlardan biri Faxriyorning bir she‘ri mavjud imlo qoidalariga mutlaqo rioya etilmay bitilgan:

qobirg‘alar qabarar suyaklarim qadoqdir
qaboqlarim o‘q tugab bo‘shab qolgan sadoqdir
kuyib kuyib kul bo‘lgan nafratlarim adoqdir
chuchmomalar ko‘k kiygan
namozshomgul gul gulim
hey tulugim hey tulum
hey tulugim hey tulum

Gap bu yerda imlo qoidalarining inkor etilganidagina emas. Shoir ifodalayotgan dardning ko‘lami naqadar yirikligini, uning biz bilgan insoniy o‘lchamlarga to‘g‘ri kelmasligini she‘r mazmunidan anglatish bilan kifoyalanmay, uning shakli vositasida o‘quvchiga ko‘rsatib ham qo‘yadi. «*hey tulugim, hey tulum*» so‘zlari hazrati Navoiy tomonidan ham ishlatilgan. Lekin uning she‘ridagi ruh bo‘lakcha edi. Faxriyor esa qo‘li yoki oyog‘i emas, qobirg‘alari qabarib, suyaklari qadoq bo‘lgan, o‘ksiz hayotiga yig‘layverib ko‘z yoshlari qurib ketgan, qismatidan kuyaverib nafratlari ham adoq bo‘lgan baxtsiz shaxsning kayfiyatini ifodalashda bu so‘zlardan foydalanadi va ko‘rganingizday yaxshi badiiy natijaga erishadi.

Milliy poeziyamiz tarixida birgina qatordan iborat butun boshli she‘r hech qachon bo‘lmagan. Faxriyor shunday she‘r yozdi. Quvonarlisi shundaki, bu she‘r yordamida atama yasalmagan yoki axborot berilmagan, balki o‘ziga xos musiqaga ega, muayyan kayfiyat ifodalay oladigan, o‘qiganga o‘zgacha ruhiyat baxshida qiladigan tugal asar yaratilgan:

Go‘rlar qisir – tug‘ishdan qolgan.

Istiqlol davri she‘riyatining qisqalikka intilishi shunchaki modaning ketidan quvish bo‘lmay, chuqur ichki mantiqqa ega. Bu she‘riyat o‘quvchiga ishonch, uni badiiy so‘zning iste‘molchisigina emas, balki she‘riy holatni tuyish, badiiy manzaralarni jonlantirish jarayonining ishtirokchisi martabasiga ko‘tarishning natijasidir. She‘r qancha qisqa bo‘lsa,

unda aytilmasdan ishora qilingan narsa shuncha ko'p bo'ladi. Bunda she'rxonga matndan turli-tuman kashfiyotlar qilish imkoniyati ko'proq beriladi. Chunonchi, «Go'rlar qisir – tug'ishdan qolgan» she'ri faqat bir qadar estetik tayyorgarlikka ega o'quvchigagina ta'sir ko'rsatadi va uning xayolot olamini bezovta qiladi. Hissiy va intellektual hozirligi bor odamgina to'rt so'zdan iborat bu asarda bir olam ijtimoiy dard ifodasini topganligini ko'rishi mumkin: bir vaqtlar yurt egasi bo'lmish Go'ro'g'lini tuqqan O'zbekiyurtning go'rlari bugun qisir. Shu bois go'ro'g'lilar tug'ilmayotir. Binobarin, o'zining sha'ni va yurtining ozodligi uchun kurasha oladigan erkaklar yo'q bu yurtda va h.k. O'quvchi qancha o'ychil va ta'sirchan bo'lsa, she'rdan shuncha kuchli ta'sirlanadi va aksincha... Shu bois bunday she'rlarning o'quvchilari iste'molchigina emas, yaratuvchi ham.

B.Ro'zimuhammadning bir she'rida shunday misralar bor:

ko'zdan ichkarida yo'l yo'q

so'zdan ichkarida yo'l yo'q

ammo xo'roz qichqirig'i

ortiga shafaqrang qishlog'im bekinib olgan

Bu satrlarda odatdagi she'rlar kabi qofiya ham, turoq ham, musiqiylik ham yo'q. Ammo unda ijodkorning chigal kayfiyati bor. Xo'roz qichqirig'i – tongning belgisi. Demak, tong otsa, xo'roz qichqiradi va uning qichqirig'i barobarida shafaqrang qishloq namoyon bo'ladi. Qishloqning shafaqrangligi ham bejiz emas. Ehtimol, qishloq endigina ko'tarilayotgan quyosh nuriga ko'milganligi uchun ham shunday ta'riflanayotgandir. Ehtimol, bu o'rinda shoir xo'roz qichqirig'idan so'ng tunning ko'rpasi ko'tarilib, ostidan qishloq ko'rinishini nazarda tutgandir. Shoir she'riyatning odatiy tartibini inkor qiladigan uslubga murojaat etgan. Uni oddiy mantiqning qoliplari bilan izohlab bo'lmaydi. Ushbu she'r faqat shu ijodkorgagina taalluqli bo'lgan badiiy mantiq qonuniga muvofiq yaratilgan. Odatda, chinakam badiiy hodisa o'ziga xos olam va u o'zining qoidalarigagina muvofiq keladi. Shu bois asl badiiy hodisa bir bor yaraladi, unda takror yo'q. Qonuniyat esa takroni taqozo qiladi. Yuqoridagi parchada shoirning alohida ruhi, o'zigagina xos nuqtayi nazari sezilib turadi. Ayni vaqtda, she'r o'quvchini jalb etadi, uning e'tiborini tortadi, o'yga toldiradi. Uning tafakkuriga-da

nimadir yangilik yetkazadi, ko'ngliga-da qandaydir yengillik bag'ishlaydi. Dunyoni shu tarzda ko'rgan, olam ranglarini shu taxlit tuygan shoirga e'tiroz qilib, tayyor qoliplarni tiqishtirib bo'lmaydi.

Poeziyaning o'z asl manbasiga qaytganligi, ko'ngil rozlarini, ruhiy tovlanishlarni nozik ishoralar, nazokatli obrazli ifodalar orqali tasvirlashga o'tilganligi istiqloq davri o'zbek she'riyatiga xos asosiy xususiyatlardan bo'ldi deyish mumkin. Bu davr milliy she'riyatida ommaviylikdan, hammaboplikdan qochishga urinish kuchaydi. She'riyat omma uchun emas, balki, avvalo, muallifning o'zi uchun, qolaversa, ijodkorga tuyg'udosh shaxslar uchun yaratiladigan bo'ldi. Shu bois she'rxonlar adadi birmuncha kamaygan esa-da, ularning poetik so'zni, obrazli ifodani anglash darajasi ortdi. Chunki baland she'riyat yuksak didli she'rxonni talab qiladi va uni shakllantiradi. Mustaqillik davrida o'zbek poeziyasi o'quvchi darajasiga tushishdan she'rxonni o'z darajasiga ko'tarish pallasiga kirdi. Shu tariqa azaldan she'rparast bo'lgan millatning badiiy zavqi ingichkalashib, so'z jozibasini anglash qudrati sezilarli darajada oshib bormoqda.

O'zbek she'rxonlarida birorta tinish belgisi ishlatilmagan tizmadan ham, murakkab mavhum assotsiativ obrazlilikka to'la she'riyatdan ham, tasavvufiy ilhom samarasi o'laroq dunyoga kelgan munojotlardan ham, poetik san'at deyish mumkin bo'lgan ramziy ifodalardan ham, meditatif nazm namunalaridan ham ta'sirlanish, ularni baholay olish ko'nikmasi shakllanib bormoqda.

Nasr istiqloq adabiyotining salmoqli va og'irkarvon turidir. Agar mustaqillik davri she'riyatida yoshlar faol, yangi avlod shoirlari ko'zga yaqqolroq tashlangan bo'lsa, nasrda ijodiy davomlilik ustuvorligi namoyon bo'ldi. Taniqli nosirlarimiz ham ijodiy tajribalar o'tkazish, yangi usullarni qo'llashdan cho'chiyotganlari yo'q. Keyingi o'n yillikda O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev, Muhammad Ali, O'.Hoshimov, O.Muxtor, T.Malik, Tog'ay Murod, A.Dilmurod, N.Norqobilov, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqulov, T.Rustamov, A.Yo'ldoshev, U.Hamdani, S.Vafo, Z.Qurolboy qizi, A.Nurmurodov, Abbas Said singari turli avlodga mansub ijodkorlar o'ziga xos yo'sinda qalam tebratib milliy proza taraqqiyotini ta'minlayotirlar.

Ijodiy tajribalar qilish, kutilmagan tasvir yo'sinlarini qo'llash, badiiy ifodaning yangi tamoyillaridan foydalanish o'zbek nasrining bu bosqichi uchun yetakchi xususiyatlardir.

O.Muxtorning tamomila yangicha ifoda usullarida yaratilgan «Ming bir qiyofa», «Koʻzgu oldidagi odam», «Tepalikdagi xaroba», «Ffu», «Ayollar saltanati va mamlakati», «Maydon» romanlari, Nazar Eshonqulning jahon prozasining eng ilgʻor tajribalari asosida sof milliy obrazlar yarata olgan «Qora kitob» qissasi, «Shamolni tutib boʻlmaydi», «Tobut shahar», «Quyun» hikoyalari, X.Doʻstmuhammadning «Bozor» romani, «Oromkursi» qissasi, «Jajman», «Qorachiqdagi uy» hikoyalari tasvirning quyuqligi, inson ruhiyati qatlamlarini aks ettirish miqyosining kengligi va ifoda tarzining favquloddaligiga koʻra milliy adabiyotimiz uchun yangi badiiy hodisalar boʻldi.

N.Eshonqul milliy istiqlol davri oʻzbek nasriga yangi ohang olib kira oldi. Uning «Shamolni tutib boʻlmaydi» hikoyasi ifodaning qabariqligi, tasvir markaziga olingan shaxs tabiatining mutlaqo kutilmagan va yangiligidan tashqari ohangning oʻzgachaligi bilan ham kishini hayratga soladi. Shu vaqtga qadar bu taxlit koʻp qatlamli, zalvorli, hikoya maromining oʻzi bilan badiiy kayfiyat hosil qila biladigan nasr namunasi milliy adabiyotimizda yoʻq edi hisob. Nazar Eshonqul nasrimizni shunday ohang bilan boyitdiki, bu ohang oʻzbekka xos jihatlarni ifodalash imkoniyati jihatidan tengsizdir:

«Qishloqdoshlari bahor kelishi bilan eski yaylovlarga koʻchib chiqishar va yer shudgorlar, har kim oʻz tashvishiga berilib ketardi. Qishloqda qolgan Bayna momo esa bu paytda yolgʻizlik dashtini shudgorlar, u yerga har yili Zamon otboqar hukumat odamlari bilan kelib eri va oʻgʻlini otib tashlagan oqshomni ekar va soʻng yolgʻiz oʻzi hosilini ham yigʻib olardi. Bayna momo har kecha koʻz yoshlari bilan toʻlgan qayiqda yillar qoyalari orasida qolib ketgan eri bilan oʻgʻlining ilma-teshik boʻlgan murdasi va Zamon otboqarning muzaffar qamchisi yotgan qonli xalqob bilan toʻlgan ayyonga suzib borar, ertalablari hoʻl boʻlib ketgan yostigʻini xuddi qadim ajdodlarning unut boʻlgan yaloviday... baland tolga osib oftobda quritardi». Ifodadagi zalvor, serqatlam estetik bosim, ruhiy holat manzaralari tasvirining ayni shu tarzda zanjirsimon va boloxonador qilib berilishining oʻzi hikoyada oʻziga xos ohang paydo qilgan. Bu ohang momoning yolgʻizligi va baxtsizligi miqyoslarini tuyish va tushunish imkonini bergan.

Ulugʻbek Hamdamning «Muvozanat», «Isyon va itoat» romanlari, «Yolgʻizlik» qissasi, qator hikoyalari qahramonlar ruhiy olamini tadqiq etish koʻlami va yoʻsinlari jihatidan

adabiyotimiz uchun tamomila yangilik bo'ldi. Ularda bayon, ifoda etish, ko'rsatish, tasvirlash singari usullar badiiy tadqiqqa o'z o'rnini bo'shatib bergan. Yozuvchi uchun qahramonlarining xatti-harakatlarini ko'rsatish emas, balki uning o'y-u sezimlaridagi tovlanishlarni aks ettirish muhim. Arastu zamonlaridan buyon adabiyotning mohiyati hayotdagi kaos, ya'ni tartibsizlikni badiiyatning kosmosi, ya'ni tartibiga aylantirishdan iborat deb tushunib kelingan. Voqelikdagi «tartibsizlik»lar muayyan muntazamlik kasb etishi, intizomga solinishi bilan badiiy asar yuzaga keladi deb qaralgan. U.Hamdamning «Yolg'izlik» qissasida esa aynan shu tartibsizlikning o'zi, voqelikdagi emas, inson xayoli, kechinmalaridagi tartibsizlik tasvir obyektiga aylangan. Qissada muallif qahramon o'y-xayollarini uning xarakterini ochish vositasiga aylantirmaydi. Bil'aks, o'y-xayollarning tartibsiz va noizchil oqimini berishning o'zini maqsadga aylantiradi. Ma'lumki, inson xayolotida izchillik, muntazamlik bo'lmaydi. Ko'p hollarda odam xayolni emas, xayol odamni yetaklaydi. Shu tariqa milliy adabiyotimizda, sirdan qaraganda, badiiy maqsadga bo'ysunmaganday taassurot qoldiruvchi, aslida, o'ychil inson tafakkuri va hissiyoti manzaralarini namoyon etuvchi asar dunyoga kelgan.

Sh.Xolmirzayev «Olabo'ji», «Dinozavr» romanlari, «Bulut to'sgan oy» qissasi, «O'zbeklar», «Ozodlik», «Navro'z, navro'z» hikoyalarida, N.Norqobilov «Oqbo'yin», «Qoyalar ham yig'laydi» qissalari, «Oriyat», «Quvonchli kun» hikoyalari, Sh.Bo'tayev «Sho'rodan qolgan odamlar» qissasi, «Darvesh» hikoyasi, Tog'ay Murod «Otamdan qolgan dalalar» romanida nasrning an'anaviy tasvir yo'sinidan mahorat bilan foydalangan holda millat vakillarining g'oyat o'ziga xos jonli badiiy timsollarini yaratdilar. Ularda an'anaviy tasvir yo'nalishi o'ziga xos badiiy izlanishlar hamda dunyo adabiyotidagi eng so'nggi ifoda usullarini dadil qo'llash bilan omixtalashib ketgan. Mustaqillik davri o'zbek nasrida inson shaxsini xilma-xil rakurslarda aks ettirish, uning xatti-harakatlari va o'y-xayollari ruhiy asosini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy adabiyotimiz aholisi qisqagina vaqt orasida Ulton, Gulsara, Tavakkal, Husan polvon, Ernazar polvon, Zuhra, Bayna momo, O'sar, Ko'klam singari yirik, o'ziga xos, boshqa adabiy qahramonlar orasida yo'qolib ketmaydigan qabariq obrazlar hisobiga boyidi.

Milliy tafakkurda yalpi yangilanish boshlangandan beri ko'pchilik tomonidan anglab yetilgan va tan olingan haqiqatlardan biri shu bo'ldiki, odamning eng kichigi, eng ko'rimsizi, eng zabuni, eng noshudi ham odamdir. Binobarin, badiiy adabiyot kichik odamning katta va chigal ichki dunyosidagi behudud poyonsizlikni, turfalikni tadqiq etishi lozim. Bir qator asarlarda sirtdan qaraganda ko'zga tashlanib turadigan jihati yo'q, hamma qatori, ammo botinida ulkan iztiroblar, ruhiy po'rtanalar mavjud bo'lgan «kichik» odamlarning ichki dunyosi bor bo'yicha aks ettirilgan. Nosirlarimizda ma'naviy dunyosi quruqshagan, risoladagi odamlarday fikrlash va o'zgalarni tuyish saodatidan mahrum bo'lgan ma'naviyatsiz kimsalarni tasvirlash mahorati shakllanayotganligi ham quvonarli holdir. Sh.Bo'tayevning «Sho'rodan qolgan odamlar» qissasi, A.Yo'ldoshevning «Otchopar» qissasi va «So'qir» hikoyasida ayni shu xildagi qahramonlar tasvir etilgan. Bu asarlarda ma'naviyatdan mahrum, shaxsi sindirilgan, shu bois o'zligi yitgan kishilarning g'aroyib qismati aks ettirilgan. Ular hamisha ham ojiz, notavon, noshud emaslar. Ba'zan juda ishchan, olg'ir, uddaburon bo'lishlari ham mumkin. Lekin bunday kimsalarning umumiy xislati ichki olamning omonatligi, quruqshaganligi, ma'naviyatining kichikligidir.

Mustaqillik davri o'zbek nasri qahramonlar tasvirida sxematizmdan qutulib bormoqda. Badiiy asarda odamga ijobiy-salbiy yoki tipik-notipik singari qoliplar orqali emas, balki mavjudligining o'zi bilan adadsiz sir-u sinoatlarga to'la tirik inson tarzida yondashish qaror topib borayotir. Bu fazilatlar barcha ijodkorlar uchun ham xos deb bo'lmaydi, albatta. Lekin odamga yondashishda jo'nlikdan, qolipdan voz kechilganligining o'ziyoq nasrimiz taraqqiyotida sog'lom tamoyillar qaror topayotganini ko'rsatadi.

O'zbek milliy tafakkuri, estetik qarashlarida sodir bo'lgan evrilishlar **dramaturgiya** taraqqiyotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bu vaqtda yaratilgan asarlar orasida Usmon Azimning «Bir qadam yo'l», Erkin Samandarning «Arabmuhammad Bahodirxon», Ilhom Hasanning «Bir kam dunyo», Abdulla A'zamning «Dugohi Husayniy», «Jek London hikoyasidan so'ng», O.Yoqubovning «Bir koshona sirlari» kabi asarlari hozirgi o'zbek dramaturgiyasida erishilgan yutuqlardan bo'ldi. «Bir qadam yo'l» dramasida inson ko'ngli mayllariga e'tiborsizlik, vaqtida odamni qadrlamaslik singari jihatlar keksa kishining murakkab taqdiri misolida aks ettirilgan. Samarqandni ko'rish, uni ziyorat etishni bir umr

orzu qilib yashagan, ammo vaqtida qo‘li kaltaligi, keyinchalik turmush tashvishlari bilan ovora farzandlarining e‘tiborsizligi sabab yonginasidagi shaharni ko‘rmay o‘tib ketgan qariya va uning atrofidagilar ruhiyati asarda katta mahorat bilan ko‘rsatilgan.

Dramaturgiyada shakliy, ijodiy tajribalar o‘tkazish yo‘nalishidagi izlanishlar to‘xtagan emas. U.Azim va A.A’zam qalamiga mansub dramalar sahna asarlari yaratishdagi dadil tajribalar mahsulidir. Dramaturglar hayotiy holatlar son-sanoqsiz bo‘lishi mumkinligi va undagi o‘zgarishlar ana shu vaziyatda harakat qilayotgan qahramonlar tabiatida ham jiddiy evrilishlar yasashi mumkinligini nozik his etgan holda drama-versiya, drama-vaziyat singari ifoda shakllarni o‘ylab topganlarki, bu hol asarlarning bir qadar muvaffaqiyatli chiqishini ta’minlagan.

E.Samandarning «Arabmuhammad Bahodirxon» tragediyasida esa insoniyat paydo bo‘lgandan beri hal bo‘lmay kelayotgan yaxshilik va yovuzlik, nafs va qanoat, hokimiyat va farzandlik burchi singari qarama-qarshi qadriyatlar o‘rtasidagi to‘qnashuv bobolarimiz taqdirleri misolida ta’sirli tasvirlab berilgan. Harbiy qudrati bo‘lishiga qaramay, o‘zining yovuz farzandlariga qarshi qo‘shin tortishni istamagan Arabmuhammadxon shaxsiyatidagi yuksak sifatlar va o‘z otalarining ko‘ziga mil tortish darajasida yirtqich bo‘lgan Habash va Elbars timsollaridagi tubanliklar asarda juda ta’sirli yo‘sinda ko‘rsatib berilgan. Ayni vaqtda milliy dramaturgiyaning tilga olishga loyiq badiiy yutuqlar qo‘lga kiritilishi og‘ir kechayotgan soha bo‘lib qolayotganini ta’kidlash kerak. Dramaturgiya bozor iqtisodi talablariga eng ko‘p berilgan adabiy tur bo‘ldi. Bu hol sahna asarlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmadi, albatta. Aytish kerakki, miqdor jihatidan dramachilik taraqqiyotiga e’tiroz bildirib bo‘lmaydi. Keyingi yillarda dunyoga kelgan dramalar uchdan biri turli yubileylar munosabati bilan yozilganligi aniqlandi. Komediya degan nomga da’vogar sahna asarlarining esa deyarli barchasi teatrlarning buyurtmasi bilan yaratilgan. Albatta, ijtimoiy buyurtma yo‘li bilan ham yetuk badiiy asarlar dunyoga kelishi mumkin. Bunga milliy va jahon adabiyoti tajribasidan istagancha misollar topsa bo‘ladi. Ammo butun boshli milliy dramaturgiyani faqat buyurtma yo‘li bilan taraqqiy ettirishga urinishni badiiyat nuqtayi nazaridan sog‘lom hol deb bo‘lmaydi.

Komediylarning saviyasi kishida haqli e’tiroz va jiddiy xavotir uyg‘otadi. Negaki o‘zbek komediyachiligining dastlabki qadamlariyoq juda zalvorli va esda qolarli bo‘lgan. Hamza,

Qahhor, Sh.Boshbekovlarning teran ma'noli kulgi asarlarini eslashning o'zi da'vomizning nechog'liq haq ekanligini ko'rsatadi. Bugungi komediyalarning badiiyati na ijrochilarga, na tomoshachilarga va na o'quvchilarga biror estetik ozuqa bera oladi. Sahnaviy ijodning komediya deb atalmish bir turiga ko'cha so'zlari, hissiyoti, tiyiqsiz chuchmallik, pardasizlik o'ta surlik bilan kirib kelmoqda. Mualliflar to'qnashuvlar tarangligi haqida emas, so'zlarning pardasizligi haqida ko'proq bosh qotirishmoqda. Bu xildagi bitiklar to'xtovsiz sahnalashtirilayotganligi, boz ustiga, ko'plab tomoshabinlarga ega bo'layotganligi jiddiy estetik xavfdir. Chunki millatning badiiy didi shakllanishiga to'g'ri yo'nalish bermay turib uning ma'naviyatini yuksaltirish, komil shaxsni tarbiyalash haqida gapirish behuda.

She'riyat va nasr borasida mustaqillikkacha bo'lgan yaqin o'tmishdagi estetik yuksakliklarga yetibgina qolmay, undan balandroq cho'qqilarni egallash imkoniyati yuzaga kelganligi ayon haqiqat bo'lsa, dramaturgiya bobida shu vaqtgacha erishilgan sahnaviy yuksaklikka yaqin kelinmayotgani ham bor gapdir.

Davr ahli ruhiyatidagi oshkoralik, sezimlar nozikligi, munosabatlar dramaturgiyadagi taranglik hali-hanuz pyesalarga ko'chganicha, sahna realligiga aylanganicha yo'q. Ehtimol, milliy tafakkurdagi to'xtamlarning, estetik qarashlardagi qanoatlarning qat'iylashmaganligi, hozirgi voqelikning ijodkorlardan yetarlicha uzoqlashmaganligi, shu hayot tufayli yuzaga kelgan hissiyotlar jumbushining tiniqmaganligi, ijtimoiy to'qinishlar ruhiyatlarda bergan aks sadoni sahnabop shaklda moddiylashtirish qiyinligi bunday holning ro'y berishiga sababdir. Holbuki, har qanday keskin ijtimoiy o'zgarish va yangicha hayotiy vaziyat dramatik turdagi asarlar yaratilishi uchun mo'l-ko'l material bera oladi.

Ma'lumki, milliy adabiyotimiz uchun haq gapni aytish badiiy ijodning unchalar muhim bo'lmagan oddiy talabiga aylandi. Milliy dramaturgiyamiz esa hanuzgacha zarur gapni keskinroq yo'sinda aytishni fazilat sanab kelmoqda.

Har bir alohida odamda bo'lgani kabi, har bir millatning va har bir davrning ham o'z mo'ljallari, egallanishi orzu etiladigan marralari bo'ladi. Mustaqillikka erishilganidan keyingi davr o'zbek adabiyoti uchun inson ma'naviyati qirralarini tekshirish, odam ruhiyatidagi ko'z ilg'amas sezimlarni tadqiq etishga erishish ana shunday baland marradirki, milliy adabiyotimiz uni egallash sari og'ishmay borayotir.

Xullas, mustaqillik davri adabiyoti sogʻlom tamoyillar asosida rivojlanmoqda. Hozir yaratilayotgan turli janrlardagi asarlarda zamondoshlar ruhiyatini tasvirlashning eng taʼsirchan usullarini kashf etishga jiddiy eʼtibor berilyapti.

JAHON ADABIYOTI

Ezop

(Miloddan avvalgi VI asr)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Miloddan avvalgi VI asrlarda Yunonistonda yashagan Ezop Frigiya mamlakatidan edi. U urushlar natijasida qul qilib olinib, Yunonistonga kelib qolgan. Donishmandligi bilan o'zini qullikdan xalos etib, Lidiya shohi Krez saroyida xizmat qilgan, so'ng Bobil shohi Likurg saltanatida xazinabon darajasiga ko'tarilgan. Keyinroq haqgo'yligi, adolatparastligi, kinoyali achchiq tili uchun alamzada, hasadgo'y dushmanlari uni Delfa shahrida tog' qoyasidan otib yuborib o'ldirganlar.

Ijodiy faoliyati

Ezopning 500 ga yaqin masallari qadim davrlardayoq jamlanib «Ezop masallari» nomi ostida kitob qilingan va donishmandlik o'g'itlari sifatida butun dunyoga tarqalgan.

Ezop masallari

«Yovvoyi echkilar va cho'pon»

Asar syujeti. Cho'pon o'z echkilariga aralashib qolgan yovvoyi echkilarga eski echkilarga nisbatan ko'proq yem beradi, buni ko'rgan yovvoyi echkilar cho'ponni bevafoqlikda ayblab qochib ketadilar.

Xulosa: yangi do'stlarni eskilaridan afzal tutuvchilarga yaqinlashmagan yaxshiroq.

«Kiyik va tokzor»

Asar syujeti. Ovchilardan qochgan kiyik tok barglari ortida qutulib qoladi, ovchilar ketgach, tok barglarini yeb qo'yadi, birozdan so'ng qaytgan ovchilar kiyikni ovlaydilar.

Xulosa: yaxshilikka yomonlik qilgan jazo oladi.

«Bo'ri bilan laylak»

Asar syujeti. Bo'rining og'ziga suyak tiqilib qolganda, laylak uni olib tashlaydi va buning uchun bo'ri og'zidan omon chiqqanini laylakka mukofot deb baholaydi.

Xulosa: badfe'l kishilar yomonlik qilmaganlarini yaxshilikka yo'yadilar.

«Eshak bilan baqalar»

Asar syujeti. Ustiga o'tin ortilgan eshak botqoqqa yiqilib tushib oh-voh qilganda baqalar unga o'z hayotlari shu botqoqda o'tishini aytib tanbeh beradilar.

Xulosa: birni ko‘rib shukur qil, birni ko‘rib fikr qil.

«Ustiga tuz ortilgan eshak»

Asar syujeti. Ustiga tuz ortilgan eshak suvga yiqilib tuz erib ketgach, keyingi safar ham yolg‘ondan yiqiladi, lekin bu safar uning ustida yuvg‘ich bo‘lgani uchun cho‘kib ketadi.

Xulosa: og‘irning ostidan, yengilning ustidan o‘tma. Hiyla-nayrang ishlatsang, bu boshingga yetadi.

«Burgut, zag‘cha va cho‘pon»

Asar syujeti. Burgutning qo‘zichoqni olib ketganini ko‘rgan zag‘cha ham shunday qilmoqqa urinib cho‘ponning bolalari qo‘lida ermak bo‘ladi.

Xulosa: o‘zingdan zo‘r bilan bellashaman deb kulgi bo‘lasan, ko‘rpangga qarab oyoq uzat!

Abulqosim Firdavsiy

Hayotiga doir muhim ma‘lumotlar

Abulqosim Firdavsiy 941-yili Xurosonning hozirgi Eron Islom Respublikasi hududidagi qadimiy Tus shahri yaqinida joylashgan Boj qishlog‘ida yer-suvini yo‘qotib, kambag‘allashib qolgan dehqon oilasida tug‘ildi. Hozir Tus shahri Firdavs deb yuritiladi.

Ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra, Abulqosim dehqonchilik qilib kun ko‘rgan, shuningdek, sarbozlik (askarlik) xizmatida bo‘lgan.

Abulqosim Tus va Nishopur shaharlaridagi madrasalarda ta‘lim olgan. Katta ilm egasi bo‘lib yetishgani uchun ham uni zamondoshlari «hakim», ya‘ni donishmand, faylasuf deb ulug‘lashgan. Firdavsiy hayotining asosiy qismi poytaxti Buxoro bo‘lgan Somoniylar davlatining gullab-yashnagan davriga to‘g‘ri keldi.

Ijodiy faoliyati

«Shohnoma» haqida

I. Yaratilish tarixi

Somoniylar hukmronligi davrida Turon va Eron xalqlari kuchli ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotni boshdan kechirayotgan edi. O'z-o'zidan, milliy o'zlikni anglashga ishtiyoq kuchaydi. Bu davlat mustahkamligini ta'minlash, boshqalarga kimlarning avlodi ekanini bildirib qo'yish uchun ham kerak edi.

Somoniy hukmdorlar topshirig'i va qo'llab-quvvatlashi bilan Xuron-u Eronning ming-ming yillik shonli tarixini tiklash, afsona va rivoyatlarni, tarixiy voqea-hodisalar haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tartibga keltirish ishlari avj oldirildi. Maqsad shu asosda yirik bir she'riy kitob – «Shohnoma» bunyod etish edi.

Bu vazifa taniqli shoir Abu Mansur Daqiqiyga topshirildi. U ishtiyoq bilan asarning ming baytini bitdi. Afsuski, Daqiqiy fojiali tarzda o'ldirildi, ish oxiriga yetmay qoldi.

Shundan so'ng somoniy amiri Nuh ibn Mansur Abulqosim Firdavsiyni Buxoroga chaqirib, unga chala qolgan «Shohnoma»ni tugatib berish vazifasini yuklaydi. Shuning uchun hozirgi Abulqosim Firdavsiy qalamiga mansub «Shohnoma»ning ming bayti Daqiqiyniki.

Demak, «Shohnoma»ning bir qismi aynan Buxoroda bitilganiga hech qanday shubha yo'q.

II. «Shohnoma» yo'nalishidagi boshqa asarlar

Eron qahramonlik eposini bir kitobga yig'ish masalasini arab istilosigacha bo'lgan III – VII asrlarda taxt so'ragan so'nggi Eroniy sulola – sosoniylar ko'targan, ular amri bilan pahlaviy (eski fors) tilida «Xudoynoma» (Hukmdorlar haqida kitob) degan maxsus kitob yozilgan edi. Hatto u arab tiliga to'qqiz ana tarjima ham qilingan. Ammo na asarning asliyati, na tarjimalari bizgacha yetib kelgan.

X asrda bu masala yana qo'zg'aldi. Abul Muayyad Balxiy nasriy yo'l bilan shohlar tarixini bitgani, to'rt olim birgalikda «Sohnomayi Mansuriy» nomi bilan mashhur bo'lgan nasriy kitob yozgani, Abu Ali Muhammad ibn Ahmad Balxiy, shuningdek, Mas'ud Marvaziylarning (966-yildan oldin yaratilgan) she'riy «Shohnoma»lari haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan.

III. Dostonning qisqacha mazmuni

Bu yirik epik asarda Eron va Turonning qariyb 4 ming yillik tarixi qalamga olingan. Eng qadimgi davrlar haqida forsiy qabilalar to'qigan, xalq xotirasida saqlanib, tildan tilga

o'tib kelayotgan turli afsonalar va qahramonlik dostonlari berilgan, shuningdek, Eronning Iskandar Zulqarnayndan (miloddan oldingi III asrdan) to arablar bostirib kelib, sostoniy hukmdor Yazdigard III qatl etilgan milodiy 651-yilgacha bo'lgan tarix yoritilgan. Shu tariqa dostonda Eronda hukm surgan to'rt sulola – peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar, sostoniylar davriga oid voqealar bayon qilinadi. Bu to'rt sulolada jami 50 hukmdor taxt so'ragan.

Ana shu ko'p asrlik intilishlarni Firdavsiy oxiriga yetkazdi. Juda katta epik (voqealar bayoni birlamchi bo'lgan adabiy tur) asar bunyod etdi. Mantiqan bilinib turibdiki, Firdavsiy bu masalada o'zigacha yaratilgan, qo'lga kiritish imkoni bo'lgan barcha manba va materiallardan unumli foydalangan, ularni puxta o'rganib tartibga solgan, tahlil qilgan, ustalik bilan o'z asari tarkibiga kiritgan.

«Shohnoma» 60 ming baytni o'z ichiga oladi. Asar biz bilgan an'anaviy «Xamsa»lardan hajman ikki-ikki yarim barobar katta.

«Shohnoma» aruzning mutaqoribi musammani mahfuz (yoki maqsur), ya'ni «faulun-faulun-faulun-faul (yoki faol)» vaznida yozilgan. Bu eshitalishda xuddi «ba-bam-bam ba-bam-bam ba-bam-bam ba-bam» tarzida chalinadigan nog'ora ohangini eslatadi. Qadim shohlar hayotini va faoliyatini urushlarsiz tasavvur qilish qiyin bo'lgani kabi, hukmdorlar timsollari asosida yaratilgan asarlar aksaran shu vaznda bitilgan. Bu an'ana forsiy va turkiy dostonchilikda «Shohnoma»dan keyin yanada keng quloch yoydi.

«Shohnoma»ni shoir 30 yil mobaynida yaratdi.

Yillar, asrlar davomida bu asarning turli nusxalari paydo bo'ldi, ba'zi qissalari asosida xalq kitoblari ham yuzaga keldi. XV asr birinchi yarmida temuriy hukmdor, Mirzo Ulug'bekning akasi Boysunqur mirzo Hirotda mutaxassis olimlarni to'plab, «Shohnoma»ning 40 dan ortiq nusxasini qiyosiy o'rganib, mukammal holga keltirilgan yagona ilmiy-tanqidiy matn tuzishga buyurdi.

«Shohnoma» tasvir manbasiga ko'ra uch qismga bo'linadi:

- 1. Qayta ishlangan eng qadimiy afsonalar bayoni.*
- 2. Xalq qahramonlari haqidagi afsona, rivoyat va qissalarning badiiy talqini.*
- 3. Tarixiy shohlar hayotidan olingan voqea-hodisalar asosidagi qissalar.*

VI. «Shohnoma»ning bosh g'oyasi va asosiy g'oyalari

Asarda shohlar hayotini yoritish vositasida xalq hayoti, tarixi, tiynati (mentaliteti), orzu-maqсадlari, armon va o‘kinchlari aks etgan.

Bu yirik asarning bosh g‘oyasi, asosiy g‘oyalari va boshqa g‘oyalari mavjud. Har bir qissa yo hikoyada, rivoyat yo voqea tasvirida, kattadir-kichikdir, bir muayyan g‘oya ilgari surilgan. Biroq shu bo‘laklardan yig‘ilib keladigan bir bosh g‘oya ham bor. Ya’ni barcha qism va bo‘laklar birgalikda amalda ana shu yetakchi g‘oyani yuzaga chiqarishga xizmat qilgan.

Bosh g‘oya – vatanni ulug‘lash, xalq qudrati va salohiyatini ko‘z-ko‘z qilish, elning yetuk farzandlari qadrini ko‘tarish, shu tariqa o‘quvchiga kuchli vatanparvarlik hissini singdirish.

«Shohnoma»ning bir xususiyati shuki, u forsiyzabon xalqning islomdan oldingi davri hayotini qalamga oladi.

Ma’lumotlarga qaraganda, Firdavsiy ko‘plab she’rlar yozgan, «Yusuf va Zulayxo» dostoni ham bo‘lgan. Biroq ulardan birortasi bizgacha yetib kelmagani uchun bir narsa deyish qiyin.

V. «Shohnoma» va o‘zbek adabiyoti: tarjima va ta’sir

«Shohnoma» forsiy tilda bitilgan bo‘lsa ham, Eron va Turon xalqlari uchun mushtarak badiiy meros hisoblanadi. Birinchidan, unda ana shu ikki ko‘hna zamin xalqi tarixiga oid voqea-hodisalar qalamga olingan. Ikkinchidan, mana o‘n bir asrdiki, u shu yurtlarda asliyatda o‘qiladi. Uchinchidan, bu yirik milliy badiiy yodnoma yaratilgan davrdan buyon o‘zbek adabiyotini qiziqtirib keladi. Oradan bir asr ham o‘tar-o‘tmay turkiy tilda «Qutadg‘u bilig» yaratilib, muallifning o‘zi tomonidan eronliklar uni «Shohnomayi turkiy» deyishi qayd etilgani ham shundan dalolat beradi.

Bu asardan qismlar XVIII asrda Shoh Hijron, Homushiy, XIX asrda Nurmuhammad Buxoriy, Ochildimurod Miriy, XX asrda Shoislom Shomuhamedov, Hamid G‘ulom, Nazarmat, Jumaniyoz Jabborovlar tomonidan o‘zbekchaga tarjima qilindi.

Keyingi tarjima uch jildda 1975-, 1976-, 1977-yillari chop etildi. Lekin hali asar to‘lig‘icha tilimizga o‘g‘irilmagan.

Forsiy-turkiy dostonchilik, xususan, xamsanavislikni Firdavsiy ta’siridan xoli holda tasavvur qilish mumkin emas. Bu jihatdan, ayniqsa, «Xamsa»ning Iskandar Maqduniy

hayoti asosida bitiladigan beshinchi dostoni tamoman «Shohnoma» vazni va yoʻnalishida ekani bilan ajralib turadi.

Saʼdiy Sheroziy

(1189 – 1292)

Shayx Muslihiddin Saʼdiy Sheroziyning tugʻilgan yilini har xil (1184, 1189, 1203, 1210) koʻrsatadilar. 1292-yili vafot etgan. Umrining 20 yilidan koʻprogʻi sayohatda oʻtgan. Afrikadan Xitoygacha, Hindistondan Farangistongacha kezib chiqqan.

Sharq-u Gʻarbda – fransuz Volter, nemis Gyote oʻz asarlarida uning umuminsoniy gʻoyalar mujassam boʻlgan sheʼrlariga murojaat qiladilar.

«Boʻston» (1257-yili yozilgan) hamda «Guliston» (1258) asarlari butun dunyoga mashhur.

«Guliston»dan parchalar

Daryo koʻrmagan qul hikoyati

Hikoyaning syujeti:

Bir podshoh bir ajamiy quli bilan kemaga minadi. Qul umrida daryoni koʻrmagan edi va kemanding haybat va mashaqqatini bilmas edi. Qoʻrqqanidan yigʻlab oʻzini har tomonga ura boshlaydi. Har qancha tinchitishga urinsalar ham, aslo orom topmaydi. Bundan podshoh juda xijolat chekadi. Kema ichida bir donishmand hakim bor edi. U podshohga shunday deydi: «Agar ruxsat bersangiz, men bu qulni tinchitishning ilojini topar edim». Podshoh ruxsat beradi. Donishmand qulni sochidan tutib daryoga tashlashni buyuradi. Uch marta suvga shoʻngʻitganlaridan soʻng tortib kemanding yaqiniga olib keladilar. Qul jon talvasasida ikki qoʻli bilan kemadagi kishilarning qoʻliga yopishib, oʻzini kema ichiga olib, bir burchakda oʻtirib orom topadi. Podshoh bu holdan ajablanib soʻraydi: «Bu ishda ne hikmat bor edi?» Donishmand deydi: «Qul avvallari daryoda gʻarq boʻlish nima ekanligini bilmas edi, shu sababdan kema ichidagi tinchlikning qadriga yetmadi, zero, odamlar salomatlik va xotirjamlikning qadrini bir musibatga giriftor boʻlganlaridagina his qiladilar».

Qitʼa:

Qorning toʻq esa, arpa noni yaxshi koʻrunmas,

*Gar och ersang, oy qursi kabi xo‘b erur va sof.
A‘rof behisht o‘lg‘usidur do‘zax eliga,
Jannat eliga bo‘lg‘usi do‘zax vale a‘rof.*

«Bo‘ston»dan parchalar

- **Hikoyat:**

Bir kuni shahar qozisi bir guruh olim-u fozillarni suhbatga chaqiradi. Qimmatbaho liboslarga burkangan kazo-kazolar, «o‘tsinlar-o‘tsinlar» bilan to‘rdan joy oladilar. Poygakda eski to‘n kiygan bir darvesh qisinibgina o‘tirardi. Suhbat boshlanadi. Shariat va tariqatdan fiqh-u hadislarga o‘tadilar. Bahs, muhokama, munozara avj oladi. Bir masala ustida qattiq talashib qoladilar. O‘tirganlar baqir-chaqir qilishar, lekin hech biri ishonchli bir dalil bilan isbotlab bera olmasdi. Shunda o‘sha eski to‘n kiygan darvesh so‘z olib, masalani burro til, oydin dalil bilan isbot qilib beradi. Hamma hang-u mang bo‘lib qoladi. Qozi o‘rnidan turib salla-to‘nini darveshga in‘om etib, to‘rga taklif qiladi. Darvesh to‘nni ham, to‘rni ham rad etadi. Gap insonning salla-to‘nida emas, ilm-u donishda, agar kiyimda bo‘lsa edi, salla ilingan qoziq yoki to‘qim urilgan eshak eng e‘tiborli bo‘lardi deb qozi uyini tark etadi. O‘sha darvesh Sa‘diy Sheroziyning o‘zi edi.

- ***Ayb qidirmaslik haqida***

*Birov ilmdon-u bo‘lsa tadbirkor,
Nogoh toyib ketsa oyog‘i yakbor.
Kichik bir xatoga gapirma qo‘pol,
Ulug‘lar demishlar: «Yaxshilikni ol!»
Birga o‘sadi-ku tikan birla gul,
Ey odil, tikanmas, gulni dasta qil.
Tab‘i aybjo‘ylik bo‘lsa agar bas,
Tovus oyog‘idan boshqasin ko‘rmas.*

- ***Hayit kuni adashib qolganim va otamning sabog‘i***

*Yoshlik davronimdan esimda qolgan:
Hayitda chiqardim men otam bilan.
O‘yinga berilib yugurdim, shoshdim,
Otamdan olomon ichra adashdim.
Baqirdim, ovozim har yoqni buzdi,
Otam yetib kelib qulog‘im cho‘zdi.
Bilmaysan yosh bola bo‘lgandan keyin –
Tanho yo‘l yurmoqlik dunyoda qiyin...*

- **Hikoyat**

*Eshitdim, adolatli bir podsho
Kiyarkan astar-u avra bo‘z qabo.
Biri debdi: «Shohim, to‘ning juda jo‘n,
Xitoyi shohidan tiktir yaxshi to‘n!»
Debdi: «G‘azna tanho meniki emas.
Qo‘shunlar haqidir boylig-u gavhar...»*

- **Hikoyat**

*Bir itga duch keldi birov sahroda,
Tashnalikdan yotar jonsiz aftoda.
Dastorin arqondek quduqqa soldi,
Uchiga qalpog‘in boylab suv oldi.
Xizmatga belini mahkam bog‘lab u
Majolsiz kuchukka qo‘ldan berdi suv.
Uning bu ishidan topibon xabar
Qozidan gunohin so‘rar payg‘ambar.*

«MUFRADOT»dan

- *Arablarda bir so‘z bordir yaxshi boq,
Odotsiz boladan yo‘g‘i yaxshiroq.*

- *Yaxshilik yordamin yaxshilarga qil,
Yaxshiga yaxshilik yaxshi – buni bil.*
- *Niholin o‘sdirar daraxt ko‘p zamon,
Bir zumda qo‘porib tashlaydi bo‘ron.*
- *Davlatning borida ishing sol yo‘lga,
O‘tib ketajakdir u qo‘ldan qo‘lga.*

HIKMATLAR

- *Chumoli yoz bo‘yi yig‘ar yemak – don,
Toki qishda uyi bo‘lsin farovon.*
- *Erta kun arpaga zor bo‘lmay desang,
Bukun ek, shoyadki, bug‘doy non yesang.*
- *Ustiga kitob ortilgan eshak
Na olim va na donodir, beshak.*
- *Fildek zo‘r bo‘lsang-u sherdek urishqoq,
Nazdimda, jangdan sulh ming bor afzalroq.*
- *Boshqalar moliga ko‘ngil qo‘ymagil,
So‘ngra ko‘ngil uzmoq juda ham mushkul.*

Muhammad Sulaymon o‘g‘li Fuzuliy

(1498 – 1556)

Muhammad Sulaymon o‘g‘li Fuzuliy 1498-yili Iroqning Karbalo shahrida tug‘ilgan. Fuzuliyning otasi Sulaymonning oilasi bir vaqtlar Ozarbayjonning Arash degan joyidan Karbaloga ko‘chib borgan. Fuzuliy yoshligida o‘z ustozini Habibiyning qizini yaxshi ko‘rib qolgan, unga atab she‘rlar yozgan.

Yosh Muhammad shoir sifatida Bag‘dodda shakllandi. Shuning uchun Fuzuliy taxallusi yoniga Bag‘dodiy nisbasi qo‘shiladi. Shoir taxallusi fazl (fazilat) so‘zidan, fuzul fazlning jamini, fozil, fazilat egasi ma’nosini beradi.

Fuzuliyning Ozarbayjon hukmdori Ismoil Safaviy I va Turkiya sultoni Sulaymon Qonuniy I moddiy ta’minlab turadilar, nafaqa tayin etadilar.

Fuzuliyning o‘g‘li Fazliy taxallusi bilan she’rlar yozgan va bobosining yurti Arashga ko‘chib kelgan.

U 1556-yili vabo kasalidan vafot etgan.

Dostonlari

- «Layli va Majnun»
- «Haft (yetti) jom»
- «Anis ul-qalb» (*Qalb do ‘sti*)
- «Matla’ ul-e’tiqod» (*E’tiqod boshlanmasi*)
- «Rind-u zohid»
- «Sihhat va maraz»
- «Bang-u Boda» (*Nasha va may*)
- «Suhbat ul-asmor» (*Mevalar suhbat*)

Nasriy asari

- «Shikoyatnoma»

•«Layli va Majnun» dostoni

Fuzuliyning «Layli va Majnun» dostoni 1537-yili yozilgan.

•*Tutsam talabi haqiqata rohi majoz,
Afsona bahonasi-la arz etsam roz.
Layli sababi-da vasf etsam og ‘oz,
Majnun tili ila etsam izhori niyoz.
Lutf ayla, – dedilar, – ey suxansanj!
Fosh ayla jahona bir nihon ganj!
Layli-Majnun Ajamda cho ‘xdur,
Atrokda ul fasona yo ‘xdur.*

*Taqrira ketur bu dostoni,
Qil toza bu eski bo'stoni.*

Fuzuliy Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni bilan tanish bo'lgan emas, shuning uchun «atrok (turklar)da bu fasona (doston) yo'xdur» deydi. Har ikki shoir ham uni «dard dostoni» deb biladi.

She'rlaridan namunalar

- *G'azaldur safobaxshi ahli nazar,
G'azaldur guli bo'stoni hunar...*
- *She'r zavqidin o'lmayan ogoh
Ahli nazma mazammat aylamasin.*
- *Manamki qofilasolori karvoni g'amam,
Musofiri rahi sahroyi mehnat-u alamam.
Haqir boqma manga, kimsadan sog'inma kamam,
Faqiri podshohoso, gadoyi muhtashamam.
Sirishkim taxti ravondur manga bu oh – alam,
Jafo-vu javr – mulozim, balo-vu dard – hasham.*
- *Yetar shikoyat edub, sharhi mojaro qilg'il,
Vujuding hadafi novaki balo qilg'il,
Qamu jafolara sabr aylayub, duo qilg'il
Kim, o'la do'st rizosi hamin sanga hosil,
Rizoyi do'stlar asli tamatto', ey g'ofil!*
- *Mahshar kuni ko'ram deram ul sarvi qomati,
Gar anda ham ko'rinmasa, kel ko'r qiyomati.*
- *Bani jondan o'sondirdi, jafodan yor o'sonmazmi?*

Falaklar yondi ohimdan, murodim sham'i yonmazmi?

- *Fuzuliy, shevayi ehsoning tilar bir gadoyingdur,
Dirildikcha saning quling, o'landa xoki poyingdur.*
- *Gerak o'ldir, gerak qo'y, hukm – hukming, roy – royingdur,
Ko'zim, jonim, afandim, sevdigim, davlatli sultonim.*
- *Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,
Zuloli zavq-shavqin tashnayi diydor o'landan so'r.*
- *Ishqdir ul nash'ayi komilkim, andandur mudom,
Mayda tashviri harorat, nayda ta'siri sado.*

Vilyam Shekspir

(1564 – 1616)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Ingliz shoiri, dramaturgi, aktyori Vilyam Shekspir 1564-yil 23-aprelda Yorkshir grafligidagi Stratford shahrida tug'ildi. Otasi – Jon Shekspir shaharning ancha mashhur kishilaridan bo'lib, shahar boshqaruvining turli lavozimlarida ishlagan edi. Onasi – Meri shu yerlik qadimiy, ammo kambag'allashgan dvoryanlardan Robert Ardenning qizi bo'lgan.

Cherkov daftari uning 1582-yil 27-noyabrda stratfordlik Enn Xetuey ismli qizga uylanganligi hamda to'ng'ich farzandlari Syuzen 1583-yilning 26-mayida, Hamlet va Judit ismli egizaklar 1585-yilning 2-fevralida cho'qintirilgani bitilgan.

Shekspir 1592-yili Londonga boradi va teatrda aktyorlik qiladi.

1598-yili aka-uka Berbejilar Londonning shimoliy chetidagi eski teatrni buzib, uning uskunalaridan Temza daryosining janubiy qirg'og'ida «Globus» teatrini tikladilar. Shekspir ham yangi teatrning hissadorlaridan biri, ham o'z ijodiy guruhiga ega aktyor edi. 1608-yili u katta foyda keltiradigan «Blekfrayerz» teatrining ham hissadorlaridan biriga

aylandi. 1603-yili qirol Yakov Shekspir truppasini o'z himoyatiga oldi. Guruh a'zolari «Qirol hazratlarining xizmatkorlari» deb atalib, kamerdinerlar singari saroy xodimlari hisoblanishardi.

1616-yilning 23-aprelida Shekspir olamdan o'tdi.

Ijodiy faoliyati

V. Shekspir o'ttiz olti dramatik asar, 154 sonet va bir necha doston yozgan.

I. Dostonlari

- «Venera va Adonis» (1593, doston)
- «Lukretsiya» (1594)

II. Komediylari

- «Xatolar komediyasi» (1594-yil 28-dekabrda «Greyz Inn» teatrida o'ynalgan)
- «Tit Andronik»
- «Yoz kechasidagi tush»
- «Venetsiya savdogari»
- «O'n ikkinchi kecha»

III. Tragediyalari

- «Hamlet»
- «Qirol Lir»
- «Romeo va Julyetta» (1594 – 1595)
- «Hamlet» (1601)
- «Otello» (1604)

Qatnashuvchilar

Brabansio – senator.

Gratsiano – Brabansioning ukasi.

Lodoviko – Brabansioning qarindoshi.

Otello – aslzoda arab, Venetsiya davlatining amaldori.

Kassio – uning leytenant.

Yago – Otelloning mulozimi.

Rodrigo – venetsiyalik boy yigit.

Montano – Qibrisning oldingi hokimi.

Dezdemonna – Brabansioning qizi, Otelloning xotini.

Emiliya – Yagoning xotini.

- Umrini janglarda o‘tkazgan oqil va halol arab general Otello o‘ziga o‘jar Kassioni leytenant qilib oladi. Uning xizmatkori Yago shu o‘ringa o‘tishni mo‘ljallab yurar edi. Shuningdek, Venetsiya senatori Brabansioning go‘zal qizi Dezdemonna venetsiyalik boy yigit Rodrigoni rad qilib, qora va qariroq bo‘lishiga qaramay, Otelloni sevib qoladi va unga tegadi. Ikki alamzada: Yago va Rodrigo birlashib Otello bilan Kassiodan o‘ch olishga bel bog‘lashadi. Generalga xotini Dezdemonna unga xiyonat qilib, kelishgan leytenant Kassio bilan yurishini aytishadi. O‘zi rostgo‘y bo‘lgani uchun hammani chin gapiradi deb o‘ylaydigan Otello ularning gapiga ishonadi va Dezdomanani o‘ldiradi. Nohaqligini bilgach o‘z joniga qasd qiladi.

- «Makbet» (1606)

VI. Pyesalari

- «Qish ertagi»
- «Qirol Genrix IV»
- «Afinalik Timon»
- «Koriolan»
- «Yuliy Sezar»
- «Antoniy va Kleopatra»

Jonatan Svift

(1667 – 1745)

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar

Ingliz adibi Jonatan Svift 1667-yili Irlandiya poytaxti Dublinda tug‘ildi. Otasidan erta ajralgan yosh Jonatan uzoq yillar muhtojlikda kun kechiradi.

Jonatan o‘n to‘rt yoshida maktabni bitirgach Dublin universitetining diniy bilimlar fakultetiga o‘qishga kiradi, uni bitirmay Angliyaga ketadi. Bir necha yil qirollikning sobiq ministri Vilyam Templning saroyida kotib bo‘lib ishlaydi. Templning boy kutubxonasidan

foydalanish Svift dunyoqarashining kengayishida muhim omil bo‘ladi. Keyinchalik Svift universitetni bitiradi, dissertatsiya yoqlab, magistrlik unvonini qo‘lga kiritadi.

J.Svift 1745-yil vafot etadi.

Ijodiy faoliyati

Hajviy kitoblari:

- «Kitoblar jangi»
- «Bochka cho‘pchagi»
- «Movutfurush xatlari»
- «Gulliverning sayohatlari» – asarning to‘liq nomi: «Lemyuel Gulliverning

jahondagi bir necha olis mamlakatlarga, avvalo, jarroh, keyinchalik esa bir necha kemalar kapitani sifatida qilgan sayohatlari», 1726. Asar to‘rt qismdan tashkil topgan:

- 1) *Gulliverning liliputlar – mitti odamlar mamlakatiga sayohati;*
- 2) *ikkinchi qismida Gulliverning ulkan odamlar yurti – Brobdingnegga sayohati;*
- 3) *uchinchi qismi Gulliverning olimlar mamlakati – Laputaga sayohati;*
- 4) *to‘rtinchi qismi Gulliverning guignnmlar mamlakatiga sayohati.*

Maxtumquli

(1733 – 1791)

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar

Maxtumquli 1733-yili Turkmanistonning Atrak daryosi bo‘yidagi Hojigovshon qishlog‘ida tug‘ilgan. Bobosining ismi ham Maxtumquli edi. Otasi Davlatmamad 1700-yili tug‘ilgan bo‘lib, Xiva madrasasida tahsil ko‘rgan, keyinchalik shu madrasada mudarrislik qilgan shoir bo‘lib, Ozodiy taxallusi bilan qo‘shiq va g‘azallar yozgan. Turkman adabiyoti taraqqiyotida Ozodiy alohida mavqega ega ijodkor sanaladi. Olti ming misrali, to‘rt bobdan iborat «Va’zi Ozod» yirik ilmiy risola-dostoni turkman mumtoz adabiyotida muhim o‘rin tutadi.

Maxtumquli dastlabki boshlang‘ich ta’limni oilada o‘z otasidan olgan. Ovul maktabida Niyozsolih mulla qo‘lida o‘qidi. Maktab tahsili tugagach, o‘qishni Qiziloyoq

ovulidagi Idrisbobo, Buxorodagi Ko'kaldosh, keyinchalik xonlik markazi bo'lmish Xivadagi Sherg'oz madrasalarida davom ettirdi. Shuningdek, zargarlik hunarini o'rgandi.

Maxtumquli ba'zi she'rlariga «Firog'iy» taxallusini qo'llaydi. Afg'oniston, Eron, Hindiston, Ozarbayjon, Samarqand, Turkiston kabi bir qancha mamlakat va shaharlarga sayohat qilgan. Shoir 1791-yili vafot etgan.

Lirikasi

- Maxtumquli lirik she'rlarini Menglixon ismli qizga atab yozgan.
- «Ozodim qani?»
- «Abdulla»
- «Ayrildim»
- «Bechoraman»

She'rlaridan namunalar

• *Qurganim, aslida, bilgil, bu zaminning mixidir,
Erur ul erkin doim, budur turkman binosi.*

• *Asli seni ko'rmaganman, nigorim!
Qumrimisan, bulbulmisan, namasan?
G'amgin dilni xayoling-la aldarman,
Bog' ichinda bir gulumisan, namasan?..*

• *Kel, ko'nglim, men senga o'git berayin:
Yiroq qilma ko'rar ko'zing – elingni.
Qimmatin ketkizma, o'rnida so'zla,
Ravo ko'rma har nokasga tilingni.*

• *Gar kaklik oldirsa jo'ja-bolasin,
Sayray-sayray izlamasdan bo'lurmi?
Gar bulbul yo'qotsa gulin, nolasin,
Hasratini so'zlamasdan bo'lurmi?*

(Sori va Ibrohim ismli o'g'illarining bevaqt o'limi munosabati bilan yozilgan)

• *Sarxush bo'lib chiqar, bag'ri dog'lanmas,
Toshlarni sindirar, yo'li bog'lanmas.
Ko'zim yotga tushsa, ko'nglim tanglanmas,
Maxtumquli so'zlar tili turkmanning.*

• *Aslo odamzodga achchiq so'z qilmang,
Faqir-u misinga dalolat yaxshi.
Baxilga uchramang – kular yuz bo'lmang,
Ishni bitirmoqqa kifoyat yaxshi.*

Haynrix Hayne

(1797 – 1856)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Haynrix Hayne 1797-yilning 13-dekabrida Olmoniyaning Dyusseldorf shahrida savdogar yahudiy oilasida tug'ildi. Uning tarbiyasi bilan onasi Betti shug'ullandi.

Haynrix Hayne 1819-yildan boshlab Bonn, Hettingen va Berlin universitetlarida o'qiydi. Ovro'poliklar tafakkuriga jiddiy ta'sir o'tkazgan mashhur faylasuf Gegeldan ma'ruzalar tinglab bilimni oshiradi. Yigit huquqshunoslik fakultetini juda yaxshi baholar bilan bitirib diplom olgan bo'lsa-da, bu sohada biror kun ishlamaydi.

Haynening qarashlari hukmron kishilarga ma'qul kelmagach, 1830-yili u Fransiyaga ketishga majbur bo'ldi. O'sha yilning iyulida sodir bo'lgan inqilobdan keyingi Parijdagi siyosiy va adabiy hayotda faol ishtirok etadi. Haynrix Hayne 1843-yili insoniyatning hayotini tamomila o'zgartirib yuborish da'vosi bilan chiqqan Karl Marks bilan tanishadi. Marksning ommani baxtli qilishga doir yuqumli xomxayollari ta'siriga berilgan shoir dastlabki vaqtlarda uning g'oyalariga tarafdor bo'lib yuradi. Lekin kommunistik qarashlarda kishining erkiga zo'rlik o'tkazish ustuvorligini payqab qolgach Marksdan ham, uning g'oyalaridan ham uzoqlashadi.

Hayne umrining oxirigacha o'z yurtidan olisda yashadi. Bu uning she'rlarida aks etgan.

Haynrix Hayne 1856-yilning 17-fevralida Parijda vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

I. She'rlari

- «Sileziya to'quvchilari»
- «Onam fon Helder B. Haynega»
- «Ro'yo»

II. She'riy to'plamlari

- «Qo'shiqlar kitobi» (1827)
- «Romansero» (1851)
- «E'tirof» (1854)

III. Dostonlari

- «Atta Troll» (*majoziy doston*, 1842)
- «Germaniya. Qish ertagi» (1844)
- «Qullar kemasi» (*ballada*)

IV. Turli mavzudagi asarlari

- «Yo'l lavhalari» (*ocherklar*, 1830)
- «Fransuz ishlari» (1832)
- «Lyutetsiya» (1854)

She'rlaridan namunalar

- *Bo'sh xayollar chekinmish olis,
Dilda yana sevgi havasi.
Yana hokim nozik ezgu his,
Simiraman bahor havosin.*
- *Boshimni tutaman doimo mag'rur,*

*Hech qachon yengilmas o'jar idrokim.
Qirolning qoshida turib, hattokim,
Ko'zimni men yerga olmayman bir qur.*

(«Onam fon Helder B. Haynega»)

Hans Kristian Andersen

(1805 – 1875)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Sharl Perro, Ernst Teodor Amadey Gofman, aka-uka Grimmlar, Vilgelm Gauf, Oskar Uayld, Aleksandr Pushkin kabi ertaknavislar ichida o'z o'rniga ega bo'lgan Hans Kristian Andersen 1805-yil 2-aprelda Daniyaning Odense shahrida kambag'al etikdo'z oilasida dunyoga keldi.

Otasi vafot etgach, o'n to'rt yoshli Andersen Daniya poytaxti Kopengagenga keladi. Dastlab u teatrga qiziqadi. O'zining kichik-kichik sahna asarlarini yozadi, ularni shahar teatrlariga taklif qilib ko'radi. Kopengagen teatrlaridan birining direktori uni qo'llab-quvvatlashga qaror qiladi. Andersen uning tavsiyasi bilan teatrdan stipendiya oladi va unga Lotin maktabida bepul tahsil olish huquqi beriladi. Keyinroq Andersen Kopengagen universitetida o'qiydi.

Andersen Yevropa, Osiyo, Afrikaning qator mamlakatlariga sayohat qiladi. Gyugo, Balzak, Dyuma, Dikkens, Geyne, Rossini, Vagner, List kabi buyuk ijodkorlar bilan muloqotda bo'ladi.

Andersen 1875-yil vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

Andersenning ilk romani «Improvizator» 1835-yili e'lon qilingan.

I. Ertaklari

- «Duymchaxon»
- «Suv parisi»
- «Qor malikasi»
- «Bulbul»

- «Bronza to‘ng‘iz»
- «Kumush tangacha»

II. Ertaklar to‘plamlari

- «Bolalarga aytilgan ertaklar»
- «Yangi ertaklar»
- «Tarixlar»
- «Yangi ertaklar va tarixlar»
- «*Qor malikasi*»

Asar syujeti. Bir jodugar hamma yaxshi narsani yomon suratda ko‘rsatuvchi bir ko‘zgu yasaydi, jodugarning shogirdlari ko‘zguni ko‘kka olib chiqayotganlarida sinadi va uning bir parchasi Kay degan bolaning ko‘ziga tushadi va Kay qo‘pol bolaga aylanadi. Bu Qor malikasiga ma‘qul tushadi va bolani shimoldagi qasriga olib ketadi. Kayning opasi Gerda uni izlab yo‘lga tushadi va safarda kishilar xotirasini susaytiruvchi sehrgarlar bog‘idan, mehribon shahzoda va malika qasridan, yovuz qaroqchilar makonidan o‘tib borib Kayni topadi. Gerdaning ko‘z yoshi Kayning yuragidagi muzni eritadi. Ular shundan keyin Qor malikasidan qutulib uylariga shod-xurram qaytadilar. Ertakda tabiat manzaralari qahramonlar ruhiy holatiga mos qilib tasvirlangan.

Xulosa: ezgu, oliyjanob narsalar mangu, yovuzlik o‘tkinchidir. Oqko‘ngillilik va qat’iyat hamisha g‘alaba qozonadi.

- «*Bulbul*»

Asar syujeti. Chin Mochin imperatori o‘z davlatidagi bulbul haqida kitobdan o‘qib bilib oladi va bosh vazirga bulbulni kechki bazmga topib kelishni buyuradi. Bosh vazir oshpaz qiz yordamida bulbulni topib keladi. Bulbul kechki bazmda sayraydi va imperator bundan ta’sirlanib ko‘z yosh to‘kadi. Bulbulni oltin kavush bilan mukofotlashadi. Lekin bulbul ketib qolgani ma’lum bo‘ladi. Bundan amaldorlar ham, imperator ham norozi bo‘ladi. Yaponiya imperatori Chin Mochin imperatoriga avtomat bulbul yuboradi. U bulbul «vit, vit, vilik» deb sayraydi. Bu qo‘shiqni butun mamlakatda kuylaydilar, lekin bir baliqchi: «Bunda nimadir yetishmaydi-da», – deydi bosh chayqab. Avtomat bulbul buzilib qoladi, uni soatsoz tuzatadi, lekin endi faqat yilda bir marta sayrashi mumkin edi. Imperator o‘lim to‘shagiga yotib qoladi. Azroil kelib unga hayotidagi jami gunohlarini

eslatadi, imperator muzika chalinishini, bulbul sayrashini istaydi, lekin avtomat bulbul sayramaydi. Shunda yetib kelgan bulbul sayraydi va Azroilni mast qilib, imperatorning hukmdorlik tojini, saltanat bayrog‘ini, oltin qilichini qaytarib berishga majbur qiladi. Imperator bulbulga rahmat aytadi, unga qanday mukofot berishni o‘ylaydi, bulbul unga uning huzurida birinchi marta sayraganida ko‘z yosh to‘kkanini aytib, bu uning uchun oliy mukofot ekanini ta’kidlaydi. Imperator uning hayotbaxsh qo‘shig‘i og‘ushida uyquga ketadi. Uyqudan turib uning o‘limini kutib o‘tirgan amaldorlariga «salom» deb peshvoz chiqadi.

Xulosa: «Bulbul» ertagi qalbakilikdan, ikkiyuzlamachilikdan, yolg‘onchilikdan qaytaradi, inson qalbini tushunib yashashga chorlaydi.

Aleksandr Pushkin

(1799 – 1837)

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar

Aleksandr Sergeyeovich Pushkin 1799-yilning 6-iyunida Moskva shahrining Nemislar ko‘chasida yashovchi qadimiy dvoryanlardan bo‘lmish iste’fodagi mayor Sergey Pushkin oilasida tug‘ildi. Onasi Nadejda Pyotr I ning tutingan o‘g‘li habash Ibrohim Hannibalning nevarasi edi. Sergey Lvovich ham, Nadejda Osipovna ham bolalarining hayoti bilan deyarli qiziqishmasdi. Shu bois ularga ta’lim-tarbiya berish to‘g‘risida jiddiy bosh qotirilmadi. Oilada faqat fransuz tilini o‘rganishgagina jiddiy e’tibor qaratilardi.

Aleksandr Pushkin 1811-yilning 19-oktyabrida Rossiya poytaxti Peterburg yaqinidagi Sarskoye selo imperatorlik litseyiga qabul qilindi. Bu yerda Ivan Pushin, Anton Delvig, Vilgelm Kyuxelbekerlar bilan do‘stlashdi.

1817-yili litseyni bitirgan Pushkin Tashqi ishlar vazirligiga ishga o‘tdi. 1824 – 1826-yillarda Pushkin davlat xizmatidan bo‘shatilib, otasiga tegishli mulk bo‘lmish Mixaylovskoye qishlog‘iga surgun qilindi. 1826-yilga kelib Pushkin podsho bilan yaqinlashishga urindi. Rossiya hukmdori Nikolay I Pushkinni qabul qildi, Peterburgdan boshqa istagan joyga borish va yashash imkonini beradi. Pushkinning ijodini senzurdan tamomila ozod qilib, uning asarlariga faqat o‘zi sensorlik qilishini bildiradi. 1827-yili shoir Peterburgda yashashga ijozat oladi.

Dushmanlar turli mish-mishlar tarqatib, Gollandiya elchisining tutingan o'g'li Dantes bilan Pushkinning orasini butunlay buzadilar. Natijada 1837-yilning 25-yanvarida Pushkin Dantesga haqoratomuz xat yozib uni duelga chorlaydi. 27-yanvar kuni duel bo'lib o'tadi va buyuk shoir qattiq jarohatlanadi. Ikki kun azoblanib yotgan A.S.Pushkin 1837-yilning 29-yanvarida olamdan o'tadi.

Ijodiy faoliyati

Pushkinning dastlabki she'ri 1814-yili litseyda chiqadigan «Ovrupe xabarlarini» jurnalida chop etilgan.

I. She'rlari

- «Erkinlik»

II. Dostonlari

- «Ruslan va Lyudmila»
- «Mis chavandoz»

III. Qissalari

- «Belkin qissalari»
- «Toppon xonim»
- «Dubrovskiy»
- «Kapitan qizi»

IV. She'riy romani

- «Yevgeniy Onegin»

Vafot etib ketgan aslzoda Larinning jiddiy, o'ychan va oqila qizi Tatyana qishloqqa amakisining mulkiga egalik qilish uchun Peterburgdan kelgan o'qimishli va aqlli Yevgeniyini ko'rib astoydil sevib qoladi. Uyatchan qiz o'z tuyg'ularini atrofida gilardan yashirishga urinadi. Ko'p ikkilanishlardan keyin qiz sevgisini izhor qilib yigitga xat yozadi. Xatni oqsoch **Fillipevnaning** nevarasi olib borib beradi. Yevgeniy Onegin kelishgan, aqlli, o'ziga yarasha o'qimishli, farosatli yigit. Lekin u o'z axloqini kibor jamiyat talabiga moslashtirishga majbur bo'lgani uchun hammaga begona. Munofiqlik va yolg'onni axloq darajasiga ko'targani uchun ham oliy tabaqa vakillari o'rtasidagi munosabatlarda samimiylilik yo'q. Samimiylilik bo'lmagan joyda muhabbatga ham o'rin yo'q. Shu bois qizning

eng munosib umr yo‘ldoshi bo‘lishi mumkinligini yaxshi bilgani holda Yevgeniy Tatyanning xatiga javob yozmaydi, sevgisini rad etadi. U o‘zining qizga loyiq emasligini sezadi. Onegin yengiltak ham, xotinboz ham emas. Lekin kiborlar ko‘ziga shunday ko‘rinish, ular orasida shuhrat orttirish uchun ayollarni yo‘ldan urishga urinadi. Yevgeniy janjalkash, qonxo‘r odam emas, ammo kiborlarda duelga chiqishdan qo‘rqdi degan fikr uyg‘otmaslik uchun o‘zi istamagan holda sodda shoir yigit Lenskiyni otib o‘ldiradi. Romanda kuchi, g‘ayrati, aqlini sarflashi mumkin bo‘lgan ezgu mo‘ljalning yo‘qligi tufayli qiynalayotgan yigit iztiroblari aks etgan. Oradan **sakkiz yil** o‘tib Onegin Tatyani do‘sti Larinning yonida katta ziyofatda uchratadi. Tatyana juda kibor va mag‘rur edi. Larin Oneginga **ikki yil** avval uylanganligini, Tatyana uning xotini ekanligini aytadi, Yevgeniy unga Tatyana o‘zining qo‘shnisi bo‘lganini aytadi, Larin uni Tatyanning oldiga olib borsa, xonim shunchaki nazar tashlab: «Qandaydir qo‘shni bo‘lsa border», – deb qo‘yadi. Onegin unga mahliyo bo‘lib xat yozadi, ammo javob kelmaydi. Yana xat yozadi. Nihoyat, Onegin Tatyanning uyiga boradi, Tatyana unga qarab o‘zining yoshlikda yozgan xatini, Oneginning rad etganligini eslaydi va bugun Oneginning ergashib yurgani haqida shunday deydi:

*Istagingiz budir, hoynahoy,
Jamiyatda ochilsin sirim,
Men sharmsor bo‘layin, faqat
Bu gap sizga keltirsin shuhrat? !*

Keyin o‘ziga kiborlar muhiti yoqmasligini, o‘z qishlog‘i bu joylardan ming bora afzal ekanligini, enagasining mozoriga hamma narsasini sadaqa qilishi mumkinligini aytadi. Shu tariqa Tatyana Oneginning sevgisini rad qiladi, taqdiridan voz kechmasligini aytadi.

Xulosa shuki, «Yevgeniy Onegin» she‘riy romanida **kuchi, g‘ayrati, aqlini sarflashi mumkin bo‘lgan ezgu mo‘ljalning yo‘qligi tufayli qiynalayotgan yigit iztiroblari aks etgan.**

V. Pyesasi

- «Boris Godunov» (tragediya)

Abay

(1845 – 1904)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Asl ismi Ibrohim bo'lgan Abay Qo'nonboyev qozoq mumtoz adabiyotining asoschilaridan biri, shoir va ma'rifatparvar hisoblanadi. U 1845-yil 10-avgustda Qozog'istonning Yettisuv viloyati Chingiztog' (hozirgi Abay) tumanida chorvador boy oilasida tug'ildi. Avval Yettisuvdagi Ahmad Rizo madrasasida o'qidi. Keyinchalik rus maktabiga qatnab rus tili va adabiyotini o'rgandi. Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy ijodini o'rganish barobarida rus tili orqali rus va g'arb adabiyoti vakillarining ijodi bilan yaqindan tanishdi.

Shoirning ijodi yoshlik chog'laridan she'r yozish va o'lan aytishdan boshlandi. Abay o'zigacha og'zaki kuylab kelingan o'lanlarni yozma adabiyotga olib kirgan. Shoir o'lanlarni yozma yaratishdan tashqari ularga kuy bastalab, mahorat bilan kuylagan. U bastalagan 17 ta o'lan kuyi hozirgacha oqinlar tomonidan sevib ijro etilyapti.

Uning she'rlarini o'zbek tiliga Mirtemir va Uyg'un tarjima qilganlar.

Ijodiy faoliyati

I. She'rlari

- «Sho'rlik qozog'im»
- «Boy bolasi bilan kambag'al bolasi»
- «Ilm o'rgan»
- «O'lan»

II. Dostonlari

- «Iskandar»
- «Mas'ud»
- «Azim rivoyati»

III. Falsafiy asari

- «Naqliya so'zlar» («Nasihatlar», 44 bo'lim, Nosir Fozilov o'zbekchalashtirgan)

She'rlaridan namunalar

- *O'zi bilan yovlashgan yurtim, tingla!*

*O'zi bilan dovlashgan yurtim, tingla!
Dardingga davo bo'lsin o'lanlarim,
Bir-birini ovlashgan yurtim, tingla! –*

• **«Naqliya so'zlar»dan**

- 1. Insonning insonligi ishni qanday boshlaganidan bilinadi, qanday tugatganidan emas.*
- 2. Ko'nglingdagi ko'rkam o'yog'zingdan chiqqach xiralanadi.*
- 3. Sen agar faqat o'zini o'ylaydigan nodonga hikmatli so'z aytsang, u seni yo xursand qiladi, yo xafa.*
- 4. Kishiga bilimiga qarab yaxshilik qil, yomonga qilgan yaxshiliging boshingga balo bo'lib tushadi.*
- 5. Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'! Odam bolasi – elning lolasi.*
- 6. Yaxshi odam ko'p so'raydi, ammo oz bersang ham rozi bo'ladi. Yomon odam oz so'raydi, ammo ko'p bersang ham rozi bo'lmaydi.*
- 7. Yolg'iz boshing uchun mehnat qilsang o'z qorni uchun o'tlagan hayvonning biri bo'lasan. Insoniy burching uchun mehnat qilsang, Alloh taoloning suygan bandasi bo'lasan.*
- 8. Inson bolasini zamona parvarish qiladi. Kimda-kim yomon bo'lsa, ayb zamondoshlarida.*
- 9. Agar davlat mening qo'limda bo'lganda inson farzandini tuzatib bo'lmaydi degan odamning tilini kesib tashlardim...*
- 10. Dunyoda kim yomonlik ko'rmagan deysiz? Umidsizlik – bu g'ayratsizlikdir. Dunyoda hech muqim narsa yo'q, shuningdek, yomonlik ham mudom bo'lmaydi. Axir, qori qalin qahraton qish ketidan ko'k maysali, tiniq suvli yoz kelmasmu?*
- 11. Badjahl odam kamgap kelsa, zahari ichida bo'lgani. Bordi-yu hech kimga gap bermay, lo'lilik qilib shovqin solsa – bu odam yo qo'rqqoq, yo maqtanchoq keladi.*
- 12. Quvonch va mag'rurlik mastlikdir. Faqat mingdan bir kishigina bu narsadan o'zini ehtiyot tutib yura oladi.*
- 13. Ishning omadi – o'z vaqti.*

14. *Buyuk mansab go‘yo bir buyuk qoya. Unga erinmay o‘r malab yurib ilon ham chiqadi, uchib-qo‘nib yurib qiron ham chiqadi.*

15. *Dunyo – kattakon ko‘l. Zamona esa esib turgan yel. Oldingdagi to‘lqin og‘alar bo‘lsa, ketingdagi to‘lqin inilardir. Navbat bilan o‘lishar, avvalgiday bo‘lishar.*

16. *Tuyadek bo‘y bergandan tugmadek aql bergan ortiq. Soqolini sotgan qaridan mehnatini sotgan yosh ortiq.*

17. *Yomon do‘st bir ko‘lankadir: quyoshli kunda qochsang ham qutulolmaysan, bulutli kunda esa izlasang ham topolmaysan.*

18. *Do‘sti yo‘q bilan sirlash, do‘sti ko‘p bilan siylash. Yaxshiga yaqin bo‘l, yomondan – yiroq.*

19. *G‘ayratsiz jahl – tul, qayg‘usiz oshiq – tul, shogirdsiz olim – tul.*

20. *Baxtiyor bo‘lguningcha baxtingni eling ham tilaydi, o‘zing ham tilaysan. Baxtiyor bo‘lganingdan so‘ng esa faqat o‘zinggina tilaysan.*

Ernest Seton-Tompson

(1860 – 1946)

Ernest Seton-Tompson 1860-yil 14-avgustda Buyuk Britaniyada tug‘ildi.

Ernest olti yosh bo‘lganda ularning oilasi Kanadaga ko‘chib keldi. Shu yil qishda maktabga bordi.

Ernest bolaligidan kitobga mehr qo‘ydi. Tabiatni chuqur o‘rgandi va badiiy ijodda hayvonot olamini xolisona yoritib shuhrat qozondi.

U 1946-yil vafot etgan.

Ijodiy faoliyati

- «Men bilgan jonivorlar»
- «Quvg‘indilar taqdiri»
- «Hayvonlar – qahramonlar»
- «Mitti yovvoyilar»
- «Rolf o‘rmonda»
- «Kreg – kuteney qo‘yi»
- «Jonivorlar haqida hikoyalar»

- «Shimoliy hayvonlar hayoti» (2 jildlik, «Alanga» mukofotini olgan)
- «Yovvoyi hayvonlar hayoti» (4 jildlik, «Eliot» mukofotini olgan)

«Yovvoyi yo‘rg‘a»

Asar syujeti. Yovvoyi yo‘rg‘aning ta‘rifi hamma yoqqa ketadi, uni, avvalo, oddiy galachi Jo Kalon tutishga urinadi, ammo ish chiqmaydi. Yovvoyi baytal fermer Fosterning 9 ta baytalini ergashtirib ketadi, shu tariqa u fermalardagi baytallarni o‘z to‘dasiga qo‘shib olish bilan fermerlarga zarar yetkaza boshlaydi. Uchburchak fermasidan bo‘lgan **qariya Montgomer** Kleytondagi Uels qahvaxonasida yo‘rg‘ani tutib kelgan kishiga 1000 dollar va‘da qiladi. Yovvoyi Jek do‘sti Charli va oshpazi bilan uni tutishga urinib uddalay olishmaydi. Jo Foster kabi yo‘rg‘ani otib tashlamaganiga achinib qolaveradi. Oshpaz qari Kurka Iz Tom yo‘rg‘ani ustomonlik bilan hiyla ishlatib band etadi, o‘z tamg‘asini bosadi. Ammo chol yetaklab ketayotganda qoyadan sakrab halok bo‘ladi.

Xulosa: erk jamiki mavjudot uchun qadrlidir, ammo buni hamma ham his etavermaydi, his etganlar esa erkni hayot deb bilishadi.

Robindranath Thokur

(1861 – 1941)

Hayotiga doir muhim ma‘lumotlar

Xalqaro Nobel mukofoti sohibi Robindranath Thokur 1861-yil 7-mayda Kalkutta shahrida tavallud topgan. R.Thokur oiladagi 14 farzandning kenjasi edi. U 8 yoshidayoq she‘rlar yoza boshlaydi.

R.Thokur dastlabki savodni uyida olgan. Keyinchalik xususiy maktablarda, Kalkuttadagi seminariyada o‘qidi, uni bitirgach Bengaliya akademiyasida tarix va madaniyatdan saboq oldi. 1878 – 1880-yillarda London universitetining kollejiga o‘qishga kiradi. Biroq uni tugatmasdan Hindistonga qaytadi. Oilada akalariga ergashib ijod qila boshlaydi. Angliyadagi jurnallarda dastlabki she‘r, doston va maqolalari e‘lon qilinadi.

1884 – 1911-yillarda R.Thokur ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda ishtirok etdi. Jumladan, Hindiston Milliy kongressida faol qatnashdi.

U 1912-yili o‘zining «Gitanjali» she‘rlar to‘plamini ingliz tiliga tarjima qiladi. Mazkur asari uchun 1913-yili Xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo‘ladi. Mukofot puliga esa Hindiston bolalariga bepul maktab ochadi. Bu maktab Birinchi jahon urushidan keyin

bepul o'qitiladigan universitetga aylantiriladi. R.Thokur Yevropa mamlakatlariga, Yaponiya, Amerika Qo'shma Shtatlariga bir necha marotaba safar qiladi. Uning 1911-yili vatanparvarlik ruhida bitgan «Xalq qalbi» nomli qo'shig'i Hindiston Respublikasining milliy madhiyasiga, 1913-yili yaratgan «Mening oltin Bengaliyam» qo'shig'i esa Bangladesh Xalq Respublikasining milliy madhiyasiga aylangan.

O'zbek sahnasida esa uning «Pochta» pyesasi va «Halokat» romani asosida tayyorlangan «Gang daryosining qizi» dramasi Hamza nomli akademik teatr (hozirgi Milliy teatr)da o'ynalgan. «O'zbekfilm» kinostudiyasida 1961-yili xuddi shu nomda to'la metrajli badiiy film yaratilgan.

Ijodiy faoliyati

I. She'riy to'plamlari

- «Oqshom qo'shiqlari» (*ilk she'riy to'plami*, 1882)
- «Tonggi qo'shiqlar»
- «Suratlar va qo'shiqlar»
- «Chitra»
- «Lahza»

II. Hikoyalari

- «Hisob-kitob»
- «Jazo»
- «Nur va soyalar»

III. Romanlari

- «Bibha sohili»
- «Donishmand Roja»
- «Halokat»

IV. Pyesalari

- «Roja va Rani»
- «Qurbonlik»

- «Chitrangoda»
- «Malini»
- «Pochta»

V. O‘zbek tilida chop etilgan kitoblari

- «Nur va soyalar» (1957)
- «Ko‘zga tushgan cho‘p» (1973)

«*Nur va soyalar*». Asar syujeti. San’at magistri darajasini olgan Shoshibushon Xorkumarning 8 yashar qizini ikki yil o‘qitadi, bir kuni Kalkuttaga ketay deb turganda qishloqqa kelgan sud raisi Xorkumarni hammaning oldida haqoratlaydi, Shoshibushon uni himoya qilishga tirishadi, ammo Xorkumar qo‘rqib da’vosidan voz kechadi. Gribalani shu orada erga beradilar. Daryo yo‘li bilan Kalkuttaga qaytayotgan Shoshibushon politsiya boshlig‘i baliqchilarning 800 rupiylik to‘rini kesib, yana 4 kishini nohaq qiynagani uchun do‘pposlaydi va sud qilinib 5 yilga qamaladi. Qamoqdan qaytganda uni tul qolgan Gribala o‘z uyiga chorlaydi...

Xulosa. Asar haqiqat va adolatni tiklash yo‘lida intiladigan e’tiqodli insonlar imon yo‘lida yashashni umrning bosh mazmuni deb biladilar.

Sergey Yesenin

(1895 – 1925)

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar

Sergey Aleksandrovich Yesenin 1895-yilning 3-oktyabrida (eski hisob bo‘yicha 21-sentyabr) Rossiyaning qadim tarixga ega Ryazan guberniyasiga qarashli Konstantinovo qishlog‘ida oddiy dehqon oilasida tug‘ildi. Otasining kambag‘alligi, ayolmandligi uchun u ikki yoshligidan o‘ziga to‘qroq bo‘lgan ona tomonidan bobosining oilasida tarbiya topdi. Besh yoshligida o‘qishni o‘rgandi, to‘qqiz yoshidan xalq qo‘shiqlariga o‘xshatib she’rlar bita boshladi.

Qishloq muallimlari tayyorlaydigan maktabni tugallab, o‘n yetti yoshida Moskvaga bordi. Savdogarning idorasida ishladi, bosmaxonada musahhihlik qildi, adabiy-musiqiy to‘garakka qatnashdi, she’rlar yozishni davom ettirdi. O‘n to‘qqiz yoshidan she’rlari

Moskva jurnallarida bosilib mashhur bo‘ldi. Yigirma yoshida Petrogradga kelib, yana bir mashhur rus shoiri Aleksandr Blok bilan tanishdi.

1916-yildan armiya xizmatiga kirdi. 1918 – 1921-yillarda Murmansk, Arxangelsk, Qrim, Kavkaz, Bessarabiya, shuningdek, Turkiston bo‘ylab safar qildi. 1922 – 1923-yillarda esa taniqli amerikalik raqqosa Aysedora Dulkan bilan Yevropaning Germaniya, Fransiya, Belgiya, Italiya mamlakatlarini aylandi, to‘rt oy AQShda yashadi.

Sergey Yesenin 1925-yil 28-dekabrda fojiali tarzda vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

Turli mavzulardagi she‘rlari va turkumlari

- «Endi qaytmam uyimga»
- «Singlimga xat»
- «Fors taronalari»
- «Xurosonda bir darboza bor...»
- «Dog‘lar ketmish majruh ko‘ngildan...»
- «Onamga xat»
- «Ayolga xat»
- «Onamdan xat»
- «Bobomga xat»...
- «Pushkinga»
- «Gurjiston shoirlariga»
- «Bu dunyoda men bir yo‘lovchi...»
- «Ona ibodati»
- «It haqida doston»

She‘rlaridan namunalar

- *Xurosonda bir darboza bor,
Ostonasi gulga ko‘milgan,
Unda yashar bir pari ruxsor.
Xurosonda bir darboza bor,*

Hayhot, uni ocholmadim man.

• *Dog‘lar ketmish majruh ko‘ngildan,
Mast vasvasa qo‘zg‘amas tug‘yon.
Men dardimga Tehron gulidan
Choyxonada topoldim darmon.*

• *Bizning Aleksandr
Delvig haqida
She‘r yozgan, madh etib kalla suyagin.
Qanday shirin,
Qanday olis aqida,
Xuddi gulbog‘ yanglig‘ ko‘ngilga yaqin.
Salom senga, singlim,
Salom, assalom.
Qadrdon dalalar salomat bormi?
Ayt, qalay parvarish qilmoqda bobom
Ryazandagi bizning oluchazorni?*

(«Singlimga xat»)

• *Bu dunyoda men bir yo‘lovchi,
Shodon menga qo‘l silki, erkam.
Xuddi shunday tinch, erkalovchi
Ziyo to‘kar kuz fasli Oy ham.*

• *Qishloqning bir chetida
Pastakkina uy turar,
Sajda qilib shu uyda
Onaizor o‘ltirar.*

(«Ona ibodati»)

• *Quyosh o‘ynar javdar xirmonda,*

Chiptalarda nuri tillarang.

Bolaladi ona it tongda,

Yetti kuchuk tug'di mallarang.

(«It haqida doston»)

Antuan de Sent-Ekzyuperi

(1900 – 1944)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Antuan de Sent-Ekzyuperi 1900-yil 29-iyunda Fransiyaning yirik shaharlaridan biri Lionda kambag'allashgan zodagonlar oilasida dunyoga keldi. Otasidan erta yetim qolgan Antuanning bolaligi Lion yaqinidagi buvisiga qarashli Sen-Moris maskanida o'tdi. 1909-yildan 1914-yilgacha Antuan va uning akasi Fransua Man shahridagi kollejda ta'lim olishdi. Birinchi jahon urushi boshlangach, ularning onasi o'g'illarini Shveysariyadagi xususiy kollejlardan biriga o'qishga yuboradi. 1917-yili akasi Fransua bevaqt olamdan o'tgach, Antuanning qalbida chuqur o'zgarish ro'y beradi va ilk bora yashashdan maqsad nima degan savolga javob axtara boshlaydi.

Yosh Antuan Nafis san'at akademiyasining aixitektura fakultetiga o'qishga kiradi, biroq insonning hayotdagi o'rni haqidagi fikrlar uni aslo tark etmaydi, zero, Antuan o'z hayotini aniq bir sohaga bag'ishlamoqchi, insoniyatga chinakam naf keltiradigan ishga qo'l urmoqchi edi. 1921-yili u arxitektura fakultetini tark etadi va Fransiya harbiy havo kuchlari safiga xizmatga kiradi.

1926-yil Sent-Ekzyuperi uchun hal qiluvchi yil bo'ldi. Shu yili u «Latiko-Yeyg» havo kompaniyasiga ishga kirib o'zi sevgan mashg'ulot bilan shug'ullana boshlaydi. Shu kundan boshlab to umrining oxirigacha Sent-Ekzyuperi uchuvchi bo'lib qoladi. Sent-Ekzyuperi Yevropaning, Afrika va Lotin Amerikasining turli burchaklariga uchar, yuk va yo'lovchilarni tashir edi. Keyinchalik u G'arbiy Saxara (hozirgi Mavritaniya)ning Kap-Jubi shahri aeroporti boshlig'i, so'ngra bir fransuz aviakompaniyasining Argentinadagi bo'limi boshlig'i lavozimlarida ishladi.

1943-yili Antuan de Sent-Ekzyuperi yana jangovar safga qaytadi. Fransiyaning Shimoliy Afrikadagi mustamlaka o'lkalarida fashistlarga qarshi kurashadi. 1944-yil 31-iyulda so'nggi parvozga chiqqanida Antuan de Sent-Ekzyuperining samolyotini fashist

qiruvchisi urib tushiradi. Bu mudhish voqea uning jonajon vatani Fransiya ozodlikka erishishiga atigi uch hafta qolganda yuz berdi.

Ijodiy faoliyati

I. Hikoyalari

- «Uchuvchi»
- «Harbiy uchuvchi»

II. Qissasi

- «Kichkina shahzoda» (1943)

«Kichkina shahzoda» ertak-qissasi Antuan de Sent-Ekzyuperining eng kichik asarlaridan biri bo'lsa ham, unda adibning inson hayotining ma'nosi va mazmuni haqidagi dardlari va falsafiy mushohadalari, insonlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik, hamdardlik va o'zaro hurmat munosabatlari, yovuzlik va yomonlikka qarshi kurash g'oyalari aks ettirilgan.

Adibning kasbi uchuvchilik ekanini bilasiz. Asarda tasvirlanishicha, navbatdagi parvozlarning birida uning samolyoti buzilib, kimsasiz Sahroyi Kabirga (Afrikadagi ulkan cho'lga!) qo'nishga majbur bo'ladi. Huvullab yotgan sahroda tong saharda uning tepasida bir g'aroyib bola paydo bo'ladi. Keyinroq ma'lum bo'lishicha, bu tillarang sochli, qo'ng'iroq tovushli bolajon mittigina olis sayyorada bir o'zi yashar, bir yil muqaddam sayyoralararo sayohatga chiqib, nihoyat, Yer sayyorasiga kelib qolgan ekan. U uchuvchi amakiga bir-biridan qiziq savollar berishdan, xuddi katta odamlardek u bilan tortishishdan charchamasdi (*o'zbek kinorejissyori Zulfiqor Musoqovning «Abdullajon» filmida ham shunday epizodlar uchraydi*).

Muallif «Kichkina shahzoda» deb nom qo'ygan bu bolaning aytishicha, uning sayyorasi (**B-612**)da baobab deb nomlanadigan xavfli bir daraxt urug'i nihoyatda ko'p ekan. Shahzoda har tongni endigina urug'dan chiqqan baobab ko'chatlarini yulib, o'z sayyorasini tozalash bilan boshlarkan. U to Yerga kelgunga qadar bir necha sayyoralarni o'rganibdi. Ularning birida **yakka-yolg'iz qirol**, boshqasida **shuhratparast bir kimsa**, keyingi sayyoralarda esa **piyonista, korchalon, xonadan chiqmay yostiqlay-yostiqlay kitoblar yozadigan chol** va **tinimsiz fonus chiroq yoqish bilan band chirog'bonni**

uchratibdi. Shuningdek, kichkina shahzoda Yerda ham talay mavjudot bilan muloqotda bo‘ladi. **Ilon, tulki, gul, bekat nazoratchisi, savdogar** shular jumlasidandir.

«Kichkina shahzoda»da yozuvchining «**dardli diliga yupanch beradigan**» mo‘jiza bor edi, bu asarning uchuvchidan boshqa deyarli **barcha qahramonlari** (*ular esa goh inson, goh hayvon, goh o‘simlik shaklida ishtirok etadilar*) **ramziy xarakterga ega ekanligidir**. Adabiy asarlarda hayotning o‘zgarmas qonunlariga xos bo‘lgan azaliy sifatlarni o‘zida umumlashtiradigan ramziy obrazlar yaratish an’anasi mavjuddir. Yozuvchi alohida nom qo‘ymay, 325, 326, 327 va boshqa raqamlar bilan belgilagan bu asteroidlar aslida odamlarga xos bo‘lgan fazilat va nuqsonlardir. Piyonista yashaydigan sayyorada (*demak, shu xavfli kasallikka muhtalo bo‘lgan insonlar qalbida!*) kechgan suhbat quyidagicha:

- *Nima qilyapsan? – deb so‘radi Kichkina shahzoda.*
- *Ichyapman, – dedi piyonista xo‘mrayib.*
- *Nega?*
- *Unutmoqchiman.*
- *Nimani? – deb so‘radi Kichkina shahzoda piyonistaga rahmi kelib.*
- *Shu ishimning uyatligini, – dedi piyonista tan olib va boshini quyi soldi.*
- *Qaysi ishing? – deb so‘radi Kichkina shahzoda boyoqishga yordam berishni jondilidan istab.*
- *Ichishim uyat! – dedi piyonista va qaytib og‘iz ochmadi.*

Anchadan so‘ng Kichkina shahzoda lol-u hayron bo‘lib tag‘in yo‘lga tushdi.

«Na, shubhasiz, kattalar juda-juda g‘alati xalq», – deb xayolidan kechirdi yo‘lida davom etarkan».

Kichkina shahzoda xuddi shu tarzda **qirol, shuhratparast, korchalon (byurokrat), hech kimga nafi tegmaydigan kitoblar yozib o‘zini ovutadigan chol** va boshqalar bilan suhbat quradi. Bu insoniy ojizliklar uning yuragini g‘ash torttiradi.

Kichkina shahzoda qiyofasida asarda namoyon bo‘ladigan kuch **EZGULIK**dir. Ezgulik yovuz baobabning g‘ovlab ketishiga – olamni yomonlik egallab olishiga qarshi

har kuni kurashga chiqadi. Qalbida ezgulik yashaydigan insongina o‘zi suygan *feruza guli* – *sevgi-muhabbatini* himoya qila oladi.

Ezgulikning «ko‘ngil ko‘zi ochiq» bo‘ladi.

«Kichkina shahzoda» asarini yaratgani uchun yozuvchining vatani – Fransiyada, Antuan de Sent-Ekzyuperi tug‘ilgan yurt – Lion shahri markazida unga o‘rnatilgan haykalda ko‘kka bo‘y cho‘zgan baland oq marmar ustun ustida o‘tirgan adibning yelkasiga qo‘lini qo‘yganicha Kichkina shahzoda turibdi.

III. Romanlari

- «Janub chopari» (1929)
- «Tungi parvoz» («Femina» mukofotini olgan asar, 1931)
- «Erkaklar zamini» (1939)

Musa Jalil

(1906 – 1944)

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar

Musa Mustafo o‘g‘li Jalilov – Musa Jalil 1906-yilning 15-fevralida Rossiyaning Orenburg guberniyasida dehqon oilasida dunyoga keladi. U dastlab ovuldagi boshlang‘ich maktabda savod chiqaradi. Oilasi shaharga ko‘chib kelgach, Orenburgdagi mashhur «Husayniya» madrasasida tahsilini davom ettiradi. Musa talaba tengdoshlari orasida o‘zining izlanuvchanligi, ko‘p narsaga qobiliyatli ekani bilan ajralib turar edi.

Moskva davlat universitetining adabiyot fakultetiga o‘qishga kirgan Musa Jalil 1931-yili uni muvaffaqiyatli bitiradi.

Keyinchalik Musa Jalil Tatariston yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qildi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangach o‘z o‘rnini urush maydonlarida deb bilgan Musa Jalil jangchilar o‘rtasida ma’rifiy targ‘ibot ishlarini olib borar, front gazetalarida harbiy muxbir sifatida turli xabar, maqola va badiiy asarlari bilan faol ishtirok etardi.

1942-yilning yozida Volxov daryosi bo‘yida kechayotgan shiddatli janglar paytida Musa Jalil og‘ir yaralanadi va dushman qurshoviga tushib qoladi.

Urushdan keyin Moabit turmasidan qutulib chiqqan belgiyalik partizan Andre Timmermans ismli kishi Bryussel (Belgiya)dagi konsulxonaga she’rlar bilan to‘lgan bir

yon daftarni olib keladi. U mazkur daftar qamoqxonadagi yaqin do'sti, tatar shoiri Musa Jalilga tegishli ekanini aytib, ijodkorning o'zi fashistlar tomonidan vahshiylarcha o'ldirilganini so'zlab beradi. Daftarda Musa Jalilning o'limi oldidan yozib qoldirgan quyidagi vasiyati ham bor edi:

«Tatarcha yozuvni taniydigan va bu daftarni o'quvchi do'stga.

Bularni tatarlarning taniqli shoiri Musa Jalil yozib qoldirdi. Uning tarixi bunday... 1942-yilda urushga ketib ham... asirlikda ko'p azoblar tortib qirq o'limdan qolib, oxirida Berlinga keltirildi. Berlinda yashirin siyosiy uyushmada qatnashuvda ayblanib qo'lga tushdi va turmaga qamaldi. Balki, uni o'lim jazosiga hukm etarlar. U o'lar. Ammo uning asirlikda va tutqunlikda yozgan 115 she'ri bor. U shular uchun qayg'uradi. Shuning uchun 115 she'rning 60 tasini bo'lsa hamki ko'chirib qoldirishga tirishdi. Ammo bu kitob qo'lingga tushsa, she'rlarni yaxshilab, diqqat bilan oqqa ko'chirib saqla ham urushdan so'ng Qozonga xabar qilib, tatar xalqining marhum shoirining she'rlari deb nashr ettir. Mening vasiyatim shu! Musa Jalil, 1943-yil dekabr».

Bu vasiyatnoma yozilganidan keyin oradan bir oy o'tib – **1944-yil** shoir Musa Jalil fashistlar tomonidan qatl etildi.

Ijodiy faoliyati

Musa Jalilning ilk she'ri Turkiston fronti nashri hisoblangan «Qizil yulduz» gazetasida 1919-yili bosilgan.

I. She'riy to'plamlari

- «Biz boramiz!» (1925)
- «O'rtoqqa» (1929)
- «Ordenli millionerlar» (1934)
- «Okopdan xatlar»
- «Moabit daftari»

II. Poemasi

- «Xat tashuvchi» (1940)

III. Sahna asari

- «Oltin soch» (bastakor Jiganov bilan hamkorlikda yaratilgan libretto)

She'rlaridan namunalar

- *Taqdir kuldi, o'lim tegmasdan
O'tib ketdi, qilmadi jur'at.
Netay, axir, so'nggi minutda
Pistoletim qildi xiyonat...*

- *Senga mendan xabar bersalar,
«U yiqildi charchab», – desalar,
Yo'q, ishonma, jonim!
Bu so'zni
Do'stlar aytmas, yaqin ko'rsalar.*

(«Ishonma»)

- *Uch, qushcha, hur
Qo'shig'im bo'lib! –
Shudir sendan so'nggi tilagim.
Tanim qolsin bunda (Tan nima?)
Ona yurtga borsin yuragim.*

Janni RODARI

(1920 – 1980)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Janni Rodari 1920-yilning 23-oktyabrida Italiya shimolidagi Omenna shahrida hunarmand oilasida tavallud topdi. Uning otasi Juzeppe Rodarining kasbi novvoy bo'lib, Jannining bolaligi, adibning o'zi ta'kidlaganidek, «olov jizillab turadigan tandir yonida, un va ko'mir solingan qoplar orasida» kechdi. Jannining otasi nisbatan erta vafot etadi. Janni kambag'allik tufayli diniy maktabga o'qishga kirishga majbur bo'ladi. Rodari bu maktabda ikki yildan ortiq o'qiy olmaydi.

Yosh Janni universitetga o‘qishga kiradi. Ayni vaqtda boshlang‘ich maktabda o‘qituvchilik bilan shug‘ullanadi. Bu uni bolalar ruhiyati va tilini tushunishga o‘rgatdi, natijada u ertaklar yoza boshladi va jahonning mashhur yozuvchisiga aylandi. Janni Rodari Hans Kristian Andersen mukofotiga sazovor bo‘ladi. U 1980-yil 14-aprelda vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

I. Ertak to‘plamlari

- «Quvnoq she’rlar kitobi»
- «Chippolinoning sarguzashtlari»
- «Telefonda aytilgan ertaklar»
- «Jelsamino yolg‘onchilar mamlakatida»
- «Osmondagi tort»
- «Televizorga kirib qolgan Jip»
- «Rim ertaklari» («*Shahzoda Plombir*» mazkur turkumga mansub ertak hisoblanadi)
- «Uchtadan oxiri bor ertaklar»

II. «Uchtadan oxiri bor ertaklar» turkumidan

- «Hurishni eplolmagan kuchukcha»
- «Sehrli nog‘ora»
- «Ayyor Buratino»
- «Sahrodagi uy»
- «Milanda yoqqan shlyapa yomg‘iri»
- «Rinaldoning sarguzashtlari»

«Hurishni eplolmagan kuchukcha». Asar syujeti. Ushbu ertak uchtadan oxiri bor ertaklar sirasiga kiradi. Hurishni bilmaydigan kuchukcha kimdir aytgani uchun hurishni o‘rganishga qaror qiladi va eng avval xo‘rozga murojaat qilib, «qu-qu-qu» deb qichqirishni o‘rganadi, qichqirib yurib tulkiga duch keladi. Keyin kakkuga duch kelib, undan «kuk-ku» deb sayrashni o‘rganib oladi. Natijada ovchining o‘qiga duchor bo‘lib, bazo‘r qutuladi.

• **Ertakning birinchi tugashi.** Kuchukcha sigirga yo‘liqib mo‘rashni o‘zlashtirib oladi.

• **Ertakning ikkinchi tugashi.** Kuchukcha dehqonga yo‘liqadi va uning tovuqxonasini qo‘riqlab qolib ketadi.

• **Ertakning uchinchi tugashi.** Kuchukcha bu safar haqiqiy kuchuk bilan uchrashib hurishni va vovullashni o‘rganib oladi.

Xulosa: dunyodagi har bir mavjudot, ayniqsa, insonlar, avvalo, o‘zini, o‘zligini tanimaguncha kimning avlodi ekani, asosiy vazifasi nima ekanini anglamagunga qadar hayotda o‘z o‘rnini hech qachon topa olmaydi.

«*Shahzoda Plombir*». Asar syujeti. Sinyor Molteni kreditga «Qo‘shaloq qutb» firmasidan olgan xolodilnigi qarzining ikki oyligini to‘lay olmay turganida, uning qo‘shnisi sinyora Sandrella «Pingvin» xolodilnigi ichini o‘zga sayyoralik mitti odamchalar egallab olganiga guvoh bo‘ladi. Ular sayyoralararo uchadigan kemasining yoqilg‘isi tugab qolgani uchun Yerga qo‘ngan edilar. Qor ular uchun yoqilg‘i vazifasini o‘tagani uchun qor yog‘ishini kutayotgan edilar. Sinyor Molteni bundan quvonadi, chunki uning xolodilnigini o‘zga sayyoraliklarning shahzodasi Plombir makon tutgan edi. Natijada «Qo‘shaloq qutb» firmasi uni kutishga majbur bo‘ladi. Shahzoda Plombir mashhur bo‘lib ketadi va uni hamma sevib qoladi. Nihoyat, qor yog‘adi va plombirlar uchib ketishlari oldidan shahzoda o‘z bayonotida «Qo‘shaloq qutb» firmasi xolodilniklarini quyosh sistemasidagi eng yaxshi xolodilnik deb e‘lon qiladi. Bu reklamadan so‘ng firma sinyor Moltenidan qarzlarni ham kechib, xolodilnik pulini ham talab qilmaydi.

Xulosa: mazkur ertakka Janni Rodari reklamani ajabtovur xususiyatini asos qilib olgan.

«Telefonda aytilgan ertaklar» turkumidan

«*Qutbdagi gunafsha*». Asar syujeti. Shimoliy qutbda gunafsha ochilib, hamma hayvonlarning diqqatini tortadi. Gulning hidini birinchi bo‘lib katta oq ayiq his qiladi. Jami hayvonlar kelib gulni hayrat bilan tomosha qilishadi. Bu gul haqida xabar olib kelish uchun chaykani janubga yuborishadi. Chayka gunafshaning u borgan joyda o‘sib yotganini aytadi. Bunga hayvonlar, ayniqsa, tyulen e‘tiroz bildiradi. Kechqurun shimoliy qutbda shovqin-suron bo‘ladi va tongda gunafsha so‘lib qoladi.

Xulosa: yaxshi ishlarni kimdir boshlashi kerak. Boshlanish qurbonlik talab qilsa-da, bu xayrli ish, albatta, davom etadi.

«Telefonda aytilgan ertaklar» turkumidan

«Hech qayoqqa olib bormaydigan yo‘l». Asar syujeti. Dengizga, shaharga boradigan ikki yo‘ldan farqli ravishda, uchinchi yo‘l hech qayoqqa olib bormasligi ma’lum bo‘lsa-da, Martino o‘jarlik qilib ulg‘aygach shu yo‘ldan uzoq yurib o‘rmon ichidagi qasrga kirib boradi. Sinyora unga sovg‘a-salom, izvoshchi o‘tiradigan joyda it o‘tirgan kareta sovg‘a qiladi. Qishloqda hamma unga qoyil qoladi.

Xulosa: shunday xazinalar borki, unga hamma mashaqqatlarni yengib o‘tgan, birinchi bo‘lib borgan kishilargina erishadilar.

Chingiz Aytmatov

(1928 – 2008)

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar

Chingiz Aytmatov Qirg‘izistondagi Shakar ovulida 1928-yil 12-dekabrda tug‘ilgan. Uning otasi To‘raqul Aytmatov Avliyoota shahridagi rus-tuzem maktabini bitirgan bo‘lib, ikki marotaba Moskvada tahsil olgan edi. U Qirg‘izistonda rahbarlik lavozimlarida ishlagan. Yozuvchining onasi – Nagima Hamzayevna Aytmatova o‘qimishli, o‘z davrining ilg‘or ayollaridan hisoblanardi.

1937-yili To‘raqul Aytmatovni qamoqqa oladilar va yosh Chingiz uchun mashaqqatli kunlar boshlanadi. U 1942-yili o‘qishni tashlashga majbur bo‘ladi.

Urushdan so‘ng – 1946-yil 8-sinfni bitirgach Jambul zoovettexnikumida ta’lim oladi. U yerni bitirgach a’lochi o‘quvchi sifatida Qirg‘iziston qishloq xo‘jaligi institutiga o‘qishga qabul qilinadi va a’lo baholar bilan bitiradi.

Chingiz Aytmatov 1956-yili Moskvadagi Oliy adabiyot kursiga o‘qishga kiradi.

Shundan so‘ng u bir qator nufuzli tashkilotlarda faoliyat yuritadi. Jahonga davlat va jamoat arbobi, iste’dodli yozuvchi sifatida taniladi.

Chingiz Aytmatov 2008-yil 10-iyunda og‘ir kasallikdan vafot etdi.

Ijodiy faoliyati

I. Qissalari

- «Jamila»
- «Somon yo‘li»
- «Erta qaytgan turnalar»
- «Oq kema»
- «Alvido, Gulsari»
- «Birinchi muallim»
- «Sohil bo‘ylab chopayotgan olapar»

II. Romanlari

- «Asrga tatigulik kun»
- «Qiyomat»
- «Kassandra tamg‘asi»
- «Qulayotgan tog‘lar yoki mangu qayliq»

«*Oq kema*». Asar syujeti. Qissa 1970-yili yozilgan, 7 qismdan iborat. Unga «Ertakdan so‘ng» degan ikkinchi nom ham qo‘yilgan. Bosh qahramoni Bola. Undan otasi ham, onasi ham voz kechgani uchun bobosi Mo‘min chol uni qaramog‘iga olgan. Bola o‘z tasavvurida oq kemani kutadi, oq kema uning nazarida otasining qoshiga olib ketadi. Bobosi unga Shoxdor ona bug‘u haqidagi quyidagi rivoyatni aytib beradi: Dushmanlar qadimgi Enasoy bo‘yidagi qizrg‘izlarni yo‘lboshchi Botir Qulchining dafn marosimida qirib tashlaydilar. Lekin bir bola va qizcha qutulib qoladi. Ularni o‘ldirishni dushmanlar xoqoni Cho‘tir Boymoq kampirga buyuradi, kampir ularni Enasoyga uloqtirishga shaylanib turganida, Shoxdor ona bug‘u o‘z bolalaridan ayrilgani uchun bolalarni asrab olmoqchi ekanini aytib qutqarib qoladi va bolalarni olib Issiqko‘l tomonlarga olib keladi. Bolalar ulg‘ayib oila qurishadi va ilk tug‘ilgan o‘g‘illariga Bug‘uboy deb ism qo‘yishadi. Bug‘uboy uchun Shoxdor ona bug‘u beshik olib keladi. Bu avlod bug‘uboylar deb ataladi va kelajak avlod puli ko‘payib marhumlar qabriga bug‘u shoxi o‘rnatishni odat qilib bug‘ularni qirib yuborishadi. Yoshlar qarilarning gapiga kirmaydi, shunday qilib, bug‘ular bu yerdan qochib ketadi.

Bu ertak bolaga yoqadi va bola doim Shoxdor ona bug‘u haqida o‘ylaydi. Lekin O‘rozqul bir bug‘uni otib keladi, shu ertakni aytgan Mo‘min chol esa uni tilkalaydi. Bu voqealardan

o‘zini yo‘qotgan bola baliqqa aylanib uzoqlarga ketish uchun suvga tushib ketadi. Ya’ni halok bo‘ladi.

Xulosa: inson ezgulik qidirib maqsadga yetolmasligi mumkin, bunga esa boshqa insonlar sababchi bo‘lib qoladilar, shuning uchun insonlar ezgu maqsad yo‘lida bir-birlarini tushunishlari zarur.

Ibroym Yusupov

(1929 – 2008)

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Ibroym Yusupov qardosh Qoraqalpog‘istonning Chimboy tumani hududidagi Azot ovulida 1929-yilning 5-may kuni tavallud topgan. O‘rta maktabni tugallab, Qoraqalpog‘iston pedagogika institutiga o‘qishga kirgan va uni 1949-yili muvaffaqiyatli bitirgan. Talabalik yillarida yaqqol namoyon bo‘lgan uning izlanuvchanligi, ijodga moyilligidan xabardor institut rahbariyati Ibroymni shu dargohda o‘qituvchi sifatida ishga olib qoladi. I.Yusupov 1961-yilgacha mazkur institutda talabalarga til va adabiyot ilmidan saboq beradi.

1961 – 1962-yillarda u Qoraqalpog‘istonning markaziy adabiy nashri bo‘lmish «Amudaryo» jurnalining bosh muharriri vazifasini bajaradi. 1965-yillarda esa respublikaning Tarix, til va adabiyot ilmiy tekshirish institutida avval ilmiy xodim, keyin sektor mudiri bo‘lib ishlaydi. Ibroym Yusupov 1974-yili Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat mukofoti sohibi bo‘lgan.

Ibroym Yusupov 1965 – 1980-yillarda Qoraqalpog‘iston yozuvchilar uyushmasiga raislik qiladi.

I. Yusupov 1980 – 1985-yillarda respublikaning markaziy gazetasida bosh muharrir vazifasini bajargan bo‘lsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan to 2000-yilgacha Qoraqalpog‘iston ma’naviyat va ma’rifat markazining raisi lavozimida faoliyat yuritdi. U 2004-yili «O‘zbekiston Qahramoni» degan yuksak unvonga sazovor bo‘ldi.

Ibroym Yusupov 2008-yili 79 yoshida olamdan o‘tdi.

Ijodiy faoliyati

I. She’rlari

- «Kun chiqish yo‘lovchisiga»

- «Qoraqalpoqni ko‘p maqtamang ko‘zimcha»
- «Qora tol»
- «Turnalar»
- «Mening yigit vaqtim...»

II. Dostonlari

- «Akatsiya gullagan joyda»
- «Gilamchi xotin haqida haqiqat»
- «Dala armonlari»
- «Mangu buloq»

III. Pyesalari

- «Qirq qiz» (1965)
- «Aktrisaning iqboli» (1967)
- «Umirbek laqqi» (1971)
- «Ajiniyoz» (libretto)

IV. O‘zbek tilidagi kitoblari

- «Buloqlar qaynaydi» (1960)
- «Oltin qo‘ng‘iroq» (1962)
- «Dala armonlari» (1967)
- «Cho‘l to‘rg‘ayi» (1972)
- «Qora tol» (1988)

V. Tarjimalari

- «Mangu buloqlar» (1986)

She’rlaridan namunalar

- *Qizil kendir bilan shivirlashar tol,
Tuma uchib borar olis yoqlarga.
Talay yo‘llar bosib misoli shamol
Yana qaytib keldim bu so‘qmoqlarga.*

- *Cholga salom bersam o'sha so'qmoqda,
«Kimsan?» deb tanimay menga qaradi.
Bir bola uchrasa sal nariroqda:
– Kimning o'g'lisan? – deb men ham so'radim.*
- *Ota, narvon bo'pti anov qo'sh terak!
Bolam, terak emas, bu umr-ku, bu!
Inim, boqqa nega bog'lading eshak?
E, anov chiriy deb qolgan olma-ku!*

Rasul Hamzatov

(1923 – 2003)

Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

R.Hamzatov 1923-yili Dog'istonda tug'ildi. O'n uch-o'n to'rt yoshlaridan she'rlar yoza boshlagan. O'n olti yoshida o'z yurtining taniqli shoiri edi. Rasul Hamzatov mustaqil hayotga barcha tog'lik yigitlar singari erta qadam qo'ydi. O'n sakkiz yoshidan o'qituvcli, artist va muxbir sifatida turli jabhalarda mehnat qildi. Otasi Hamzat Sadasa uni ijodga jiddiy qarashga, hamisha haqiqatni ta'sirchan yo'sinda kuylashga o'rgatdi. U 1945-yili Moskvadagi Jahon adabiyoti institutida tahsil olishga kirishdi.

Rasul Hamzatov 2003-yili dunyodan o'tdi.

Ijodiy faoliyati

R.Hamzatovning birinchi kitobi 1943-yili chop etildi.

She'r va dostonlar to'plamlari

- «Tog' qo'shig'i»
- «Mening qalbim tog'larda»
- «Tog' qizi»
- «Dog'istonim»
- «Yuksak yulduzlar»
- «Tug'ilgan kunim»

- «Tog‘likning vatani»
- «Ovuldan xat»

She‘rlaridan namunalar

- *She‘riyat, mazlumga homiylik qilding,
Qaroli bo‘lmading zo‘ravonlarning.
Olding panohingga notavonlarni,
Zolimlarni esa dushman deb bilding.*

- *Ajabo! Tush degan narsa qiziq-da,
O‘lib qolganmishman tushda nogahon.
Ko‘ksimda qo‘rg‘oshin, quyosh tig‘ida
Tog‘lar orasida yotibman bejon.*

(«Ona tilimga»)

- *Nega yig‘layapsan, ayt, qo‘zichog‘im,
Nima bo‘ldi? Yomon tush ko‘rdingmi yo?
Otang bor, onang bor – suyangan tog‘ing,
Boshingda girgitton tevarak dunyo.*

*...Bola yig‘isida ma‘no bor ekan,
Tinglasam, shunday der u mitti yurak:
«Siz ko‘rgan azob-ku o‘tmishda qolgan,
Men uni ertaga tortishim kerak!»*

(«Kenja nevaram Shahrizodga»)

Nodar Dumbadze

(1928 – 1984)

Nodar Vladimirovich Dumbadze 1928-yilning 14-iyulida Gruziya poytaxti Tbilisi shahrida tug‘ilgan.

Ijodiy faoliyati

I. Hikoyalari

•«Hellados»

Asar syujeti. Onasi o‘lib yetim qolgan 13 yoshli Jamolni suxumilik xolasi asrab oladi. Suxumiga kelgan Jamol skripka chalishga qatnaydi, ammo ustozining **akvariumdagi baliqlarini boqaman** deb o‘ldirib qo‘ygach, uning bu ta’limi nihoya topadi. Uyga qaytayotganda Venetsian ko‘chasida, Chalbash daryosi bo‘yida yashaydigan 14 yoshli Yanguli bilan uchrashadi. Shu tariqa ular orasida to‘qnashuv boshlanadi. Jamol zo‘ravon Yanguliga bo‘yin egmaydi, Yanguli Jamolning mardligi va jasurligini, qolaversa, onasi yo‘qligini bilgach do‘stlashadi. Yangulining otasi **Xrista Aleksandri** o‘z yurti Ellada – Gretsiyaga qaytishni xohlaydi, ammo Yanguli Suxumidan – tug‘ilib o‘sgan maskanidan ketishni istamaydi. Otasi uni majburlab olib ketadi. Uch kundan keyin ular chiqqan kemandning halokatga uchragani ma’lum bo‘ladi, dengiz to‘lqinlari Yangulining jasadini Suxumiga olib kelib tashlaydi. Uning murdasini faqatgina Jamol taniydi: chunki Yangulining ko‘ksida «Hellados» – Ellada yozuvi yozilgan edi.

Xulosa. **Yanguli** hech qayerda o‘qimagan, onasidan go‘dakligidayoq yetim qolgan, otasi bo‘lsa uzzukun tirikchilik tashvishlari bilan band. Bir qaraganda u ko‘cha bolasi. «O‘tganning o‘rog‘ini, ketganning ketmonini olish» uning kasbiga aylanib qolgandek. Yanguli garchi maktab – ustoz ko‘rmagan, ota-ona mehridan to‘la bahramand bo‘lolmagan esa-da, uning tabiatan nozik ko‘ngli, mushohadaga moyil aql-u farosati bor. Jamol Yangulining onasi yo‘qligini bilardi, biroq Kokaning qistovi bilan (qolaversa, bolaligiga borib) uni onasini qo‘shib so‘kishdan o‘zini tutib turolmaydi. Yanguli esa Jamolning onasi o‘lganini eshitiboq o‘z raqibini quchoqlab, undan uzr so‘rashga chog‘lanadi. Yanguli otasining zo‘rligi bilan Vatanini tark etyapti-yu, shu og‘ir holatda ham Jamolning ko‘nglini ko‘tarishni o‘ylaydi: «Jamol, ego agapo imana su! Jamol, oyingni yaxshi ko‘raman!»

o Jamol nazarida, Yangulining o‘z to‘dasi oldida so‘zlagan «tarixiy nutqi» maynavozchilikdan boshqa narsa emas. Lekin Yangulining birorta gapi yo‘liga aytilgan emas. U chindan-da o‘zi va to‘dasidagi bolalarni vatanning «hur

farzandlari» deb biladi. U rostdan ham Gruziya yerini, dengizini, jamiki daryolarini, oltin-kumushlari-yu o'tloqlarini o'ziniki deb hisoblaydi.

- Yanguli fojiasida uning otasini ayblashga ham shoshilmaslik kerak. Otani ham tushunish lozim. U ham o'z Vatanini Yangulidan kam sevmaydi. Faqat uning vatani boshqa – Gretsiya – Ellada! Uni chindan ham o'zi voyaga yetgan yurtda ajdodlar ruhi chaqirmoqda. U ham bolalikdagi do'stlariga, xotiralariga, ilk muhabbatiga guvoh bo'lgan go'shalarga talpinadi. Uning ham bu sog'inch-u talpinishlarga haqqi bor.
- Hikoyachi **Jamol** garchi hali yosh, o'yinqaroq bolaligi o'tib ketmagan bo'lsa-da, o'ziga xos xarakterga ega obrazdir. Uning o'rnida boshqa bola bo'lganida, balki, Yangulidan ikki marta kaltak yeganidan keyin bu to'daga bo'ysunib ketardi. Jamol bu «to'da»ga bo'sh kelishni xohlamadi. Uning shu qat'iyligi, jasurligi, o'zini xor qildirib qo'ymasligi oxir-oqibatda «dushmanlari»ning do'st bo'lishiga, Yangulidek «zo'ravon» e'tirofini qozonishiga olib keladi.
- Asarda Jamolni asrab olgan **Nina xola** unchalik ko'p ishtirok etmaydi. Biroq bu zahmatkash ayolning kuyunib gapirishlari, asablari ancha tarang tortib qolganidan seziladiki, uning boshidan ham anchagina issiq-sovuqlar o'tgan. Jamolning do'sti **Koka**, Yanguli to'dasining bir qancha a'zolari obrazi haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Bularning bari «Hellados» hikoyasida qator betakror inson xarakterlari yaratilganidan yaqqol darak beradi.

- «Qishloq bolalari» (1958-yili chop etilgan ilk hikoyalar to'plami)

II. Qissalari

- «Kukaracha»
- «Men, buvim, Iliko va Illarion» (1960)

III. Romanlari

- «Quyoshni ko'ryapman» (1962). Bu asarlarda (*ya'ni «Men, buvim, Iliko va Illarion» qissasi hamda ushbu romanda*) Ikkinchi jahon urushi yillaridagi gruzin qishloqlaridagi og'ir va mashaqqatli hayot manzaralari, bir-biriga o'xshamaydigan taqdir egalari obrazi yorqin aks ettirilgan.

- «Quyosh kechasi» (1967).
- «Oq bayroqlar» (1972). Zamonaviy mavzulardagi bu ikki romanda yozuvchi insonlarning bir-biriga munosabatidagi odamiylik, oqibat singari fazilatlarni ulug‘laydi.
- «Abadiyat qonuni» (1978). Bu romanda insonning hayotdagi o‘rni, undan talab etiladigan fidoyilik, halollik, vijdonlilik, adolatparvarlik xususiyatlari to‘g‘risida keng mushohada yuritilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. *Jahon adabiyotida masal janrining paydo bo‘lishi kim bilan bog‘liq?*
2. *«Shohnoma» asarining paydo bo‘lishi va yozilish sabablari haqida so‘zlab bering.*
3. *Sa‘diy Sheroziy asarlarining musulmon Sharqi adabiyotining keyingi taraqqiyotiga o‘tkazgan ta‘siri nimalarda namoyon bo‘ladi?*
4. *Adabiy ertak janriga hissa qo‘shgan yozuvchilardan kimlarni bilasiz?*
5. *«Gulliverning sayohatlari» asaridagi har bir qism qanday mazmun-mohiyat kasb etadi deb o‘ylaysiz?*
6. *R.Tagor, Sergey Yesenin qalamiga mansub qaysi asarlar o‘zbek tiliga tarjima qilingan?*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism / S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. – T.: «Sharq», 2011. –176 b.
2. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5- sinfi uchun darslik. II qism / S. Ahmedov, B.Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. - T.: «Sharq», 2011. – 176 b.
3. Adabiyot: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik- majmua / S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizavev: O'zR Xalq ta'limi vazirligi. – 2-qayta ishlangan nashri. — T.: “Ma’naviyat”, 2009. – 320 b.
4. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua / Q. Yo'ldoshev, B. Qosimov, V. Qodirov, J. Yo'ldoshbekov. — T.: «Sharq», 2009. — 368 b.
5. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua / S. Olim, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov; (Mas'ul muharrir: V.Rahmonov). — T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. — 360 b.
6. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua / Q. Yo'ldoshev, V. Qodirov, J. Yo'ldoshbekov; [Mas'ul muharrirlar: V.Rahmonov, N.G'ulomova] — T.: Yangiyo'l poligraph service, 2006. — 400 b.
7. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua / Q. Yo'ldoshev, V. Qodirov, J. Yo'ldoshbekov; [Mas'ul muharrirlar: V.Rahmonov, N.G'ulomova] — T.: Yangiyo'l poligraph service, 2010. — 304 b.
8. Adabiyot: umumiy o'rta ta'lim maktablarning 10-sinfi uchun darslik / Mualliflar: B.Qosimov, B. To'xliyev, Q. Yo'ldoshev. – T.: O'qituvchi, 2004. – 398 b.
9. Adabiyot: umumiy o'rta ta'lim maktablarning 11-sinfi uchun darslik / Mualliflar: N.Karimov, B.Nazarov, U.Normatov, Q.Yo'ldoshev. – T.: O'qituvchi, 2004. – 384 b.
10. B.To'xliyev. Adabiyot (darslik) / Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun. – T.: “O'qituvchi”, 2010. – 288 b.
11. Adabiyot (Majmua): Akademik litseylarning birinchi bosqich o'quvchilari uchun / Tuzuvchilar: B.To'xliyev, B.Abdurahmonova. O'zR Oliy va O'rta maxsus ta'lim

vazirligi, Oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlim markazi. – T.: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010 – 216 b.

12. Adabiyot (Majmua): Akademik litseylarning ikkinchi bosqich oʻquvchilari uchun / Tuzuvchilar: B.Toʻxliyev va boshq.; OʻzR Oliy va Oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlim markazi. – T.: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010 – 432 b.

13. Adabiyot (Majmua): Akademik litseylar oʻquvchilari uchun oʻquv qoʻllanma / R.M.Yusupaliyev; OʻzR Oliy va Oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlim markazi. – T.: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010 – 688 b.

14. Adabiyot qoidalari: Akademik litseylar uchun oʻquv qoʻllanma / B.Umurov; Oʻzbekiston Respublikasi oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlim markazi. – Qayta ishlangan va toʻldirilgan nashri. – T.: “Oʻqituvchi” NMIU, 2010. – 240 b.

15. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri) / D.Yusupova. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 272 b.